

Texnik ixtirolarning taraqqiyot garovi ekanligi bo'yicha fikrlar keng tarqalgan. Bu mutlaqo xatodir.

Texnik ixtirolarning paydo bo'lishi uzoq vaqt davomida texnika taraqqiyotining soyasida qolib ketgan ijtimoiy innovatsiyalar tufayli mumkin bo'lib qolgan.

Siz o'z qo'lingizda yaqinda 50 tilga tarjima qilinadigan va turli tillarga tarjima qilish bo'yicha «Kalevala» milliy eposidan keyin Finlyandiya ikkinchi o'ringda turadigan kitobni ushlab turibiz.

Bir vaqlar Finlyandiya, UNICEFning yordamini olgan ilk mamlakat bo'lgan. Unga gullab-yashnayotgan davlat bo'lishga nima imkon berdi? Gullab-yashnash sirlari mahalliy o'zini o'zi boshqarish va soliq qonunchiligi, universitetgacha bo'lgan bepul ta'lim, erkak va ayollarning teng huquqliligi, 100 000 ta kuchli jamoat tashkilotlari, hamjihatlik jamiyati, koalitsiya hukumatlari, qarorlarning davlat, kasaba uyushmalari harakati va ish beruvchilar tomonidan birgalikda qabul qilinishidan iboratdir. Lekin ularning orasidagi eng muhimi bo'lib ishonch xizmat qiladi. Finlyandiya fuqarolar amaldorlar, politsiya, yaqin atrofdagi maktab va qo'shnilarga ishonishadi. Finlyandiya bir-biriga yordam berish haligacha ham odat tusidadir.

Ilkka Taipale, psixiatr, siyosatchi va tinchlik uchun kurash harakatining faol ishtirokchisidir. Shuningdek, u «Rossiya – Mon Amour» kitobining muallifidir. Ushbu kitob muallifning Finlyandiya qo'shni bo'lgan mamlakatlarda 50 yildan ortiq vaqt davomidagi sarguzashtlarini bayon qiladi.



ILKKA TAYPALE TAHRIRI

FINLYANDIYANING 100 TA IJTIMOY INNOVATSIYASI



ILKKA TAYPALE  
TAHRIRI



# FINLYANDIYANING 100ta IJTIMOY INNOVATSIYASI



FINLYANDIYA QANDAY QILIB  
FINLYANDIYA BO'LDI:  
SIYOSIY, IJTIMOY VA  
MAISHIY INNOVATSIYALAR



# **FINLYANDIYANING 100TA IJTIMOY INNOVATSIYASI**

**FINLYANDIYA QANDAY QILIB FINLYANDIYA BO'LDI:  
SIYOSIY, IJTIMOY VA MAISHIY INNOVATSIYALAR**

**“SHARQ” NASHRIYOT-MATBAA  
AKSIYADORLIK kompaniyasi  
BOSH TAHRIRIYATI  
TOSHKENT – 2019**

UO'K 94:908(480)

KBK 66.3(4 Fin)

T – 17

Ilkka Taipale va mualliflar

Yangilangan uchinchi nashr  
Muqova dizayneri: Emmi Kyuyuronen  
Tarjimon: Rustamjon Suvanqulov

T – 17      **Ilkka Taipale**

Finlyandiyaning 100ta ijtimoiy innovatsiyasi./  
Finlyandiya qanday qilib Finlyandiya bo'ldi: siyosiy,  
ijtimoiy va maishiy innovatsiyalar. – T.: “Sharq”,  
2019. – 336 bet.

ISBN 978-9943-5987-7-5

**UO'K 94:908(480)**  
**KBK 66.3(4 Fin)**

**ISBN 978-9943-5987-7-5**

© “Sharq” nashriyot-matbaa  
aksiyadorlik kompaniyasi, 2019.

## **MUNDARIJA**

Prezident Sauli Niinistyoning kirish so'zi	7
Prezident Tarya Xalonening kirish so'zi	9
Kitobxonlarga	10

## **BIRLIK ASOSI**

1. Bir palatalik parlament	13
2. Parlamentning konstitutsiyaviy qo'mitasi	16
3. Kelajak masalalari bo'yicha parlament qo'mitasi	20
4. Mahalliy o'zini-o'zi boshqarish	23
5. Oshkoralik tamoyili	25
6. Aholi soni ro'yxati	29
7. Koalitsion hukumatlar	34
8. Triada	35
9. Ayollar uchun ovoz berish huquqi va 40 foizlik kvota	38
10. Korruptsiya bilan kurashish	40
11. Ikki tillilik	43
12. Aland orollari – Finlyandiyaning avtonom hududi	45
13. Saamlar	48

## **FUQAROLIK JAMIYATI**

14. Jamoat tashkilotlari mamlakati	52
15. Shahar jamoat hayotining yangi madaniyati	55
16. Yo'l o'rtoqligi	57
17. O'yin avtomatlari assotsiatsiyasi	60
18. Kasaba uyushmasi harakatining shakllanishi	64
19. Partiyalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash	67
20. Talabalar ittifoqining iqtisodiy muxtoriyati	70
21. «NYTKIS» nomli ayollar tashkilotlari koalitsiyasi	73
22. «KEPA» nomli rivojlanayotgan mamlakatlar bilan hamkorlik qilish markazi	75
23. Tinchlik stantsiyasi	79
24. «Prometey» oromgohlari va yoshlar falsafiy yig'ilishi	83
25. Umumiy javobgarlik kampaniyalari	85
26. «Qizil xoch»ning ochlik kuni	86

## **XALQARO HAMKORLIK**

27.	Shimoliy mamlakatlar hamkorligi	91
28.	«Shimoliy o'lchov»	93
29.	Tornio va Xaaparanta – egizak shaharlar	95
30.	Cho'qintirgan jamoalar harakati	98
31.	Demilitarizatsiya qilingan Aland orollari	100
32.	Karellarning ko'chirilishi	103
33.	Passiv qarshilik	106
34.	Martti Axtisaarining tinchlikparvarlik faoliyati va merosi	108
35.	Yarador asirlarni ayirboshlash operatsiyasi	112
36.	Sarhadsiz tarixchilar	115

## **MADANIYAT**

37.	Fin adabiyoti jamiyati	121
38.	Fin-ugor jamiyati	122
39.	Kutubxonalar	125
40.	Boshlang'ich o'rta maktab	128
41.	Boshlang'ich maktabdan universitetgacha bo'lgan bepul ta'lim	131
42.	Pedagogik ta'lim	133
43.	Fin bolalari orasidagi savodxonlik darajasi	136
44.	Finlyandiya oliy ta'lim muassasalarini markazsizlashtirish	139
45.	Davlat talabalar stipendiyasi	143
46.	Fin tamal san'at ta'limi ijodiy yondashuvning novatori sifatida	145
47.	Kattalar uchun ochiq ta'lim	147
48.	Rangli rasmlardagi nota savodxonligi	151
49.	Fincha hikoyalar aytish uslubi	153

## **SALOMATLIK**

50.	Salomatlik markazlari	156
51.	Ayollar va bolalar maslahatxonalarini	160
52.	Talabalar sog'ligini saqlash jamg'armasi	162
53.	Ishlab chiqarishda mehnat va sog'likni saqlash	165
54.	O'limga olib keluvchi YTH sonini ikki barobar kamaytirish	169

55.	«Shimoliy Kareliya» loyihasi	172
56.	«Shizofreniya» loyihasi	176
57.	O'z joniga qasd qilishning oldini olish	180
58.	Jinsiy yo'l orqali yuqadigan infeksiyalar tarqalishining oldini olish	183
59.	Tamakiga qarshi qonunchilik va tamaki kompaniyalariga qarshi sud da'volari	185
60.	Fin tishlarining sog'lomligining yuz yillik tarixi	189

### **IJTIMOY SIYOSAT**

61.	Ijtimoiy uy-joylar qurilishi	193
62.	Xaroba uylarga – yo'q!	195
63.	Uy-joy birinchi navbatda Y jamg'armasiga	197
64.	Talabalar uy-joyi	200
65.	24-soat xizmat ko'rsatiladigan xonadonlar	202
66.	Finlyandiyadagi lo'lilarning ahvoli	205
67.	Uy-joy boshqaruvlari	208
68.	Mehnat nafaqalari tizimi	210
69.	Bolalar maktabgacha ta'limi	213
70.	Bolalarga uyda qarash uchun nafaqa	215
71.	Bolaga qarash uchun otalarga mehnat ta'tili	218
72.	Onalik paketi	220
73.	Maktabdagi bepul ovqatlanish	223
74.	Urush nogironlariga g'amxo'rlik qilish	226
75.	«Abilis» jamg'armasi	229
76.	Yaqinlarga g'amxo'rlik qilish uchun nafaqa	234
77.	Kambag'allik bilan kurash	237
78.	Yolg'iz yashash – yangi global trend	240
79.	Qarzlarni uzish va Kafolat jamg'armasi	242
80.	Ijtimoiy kreditlash	245
81.	Spirтли ichimliklar monopoliyasi	248
82.	Noyabr harakati	250
83.	Uch foiz nazariyasi	253
84.	Huquqiy yordam va jinoyat natijasida yetkazilgan zararni qoplash	256
85.	Sudning tomonlarni yarashtirishi	258

## IJTIMOIIY TEXNIKA

86.	Linuks	263
87.	Matnli xabarlar	265
88.	IRC, yoki internet-chat	267
89.	Molotov kokteyli	268

## KUNDALIK HAYOTDAGI QUVONCH

90.	Shanbalik	271
91.	Sauna	273
92.	Qor-bobo (Youlupukki)	275
93.	Rojdestvo yo'lakchasi	278
94.	Fin tangosi	280
95.	Har bir insonning huquqi	283
96.	Har bir kun muhabbati	285
97.	Qishki baliq ovi	287
98.	Muzdagi darchada cho'milish	290
99.	Fin laptasi	292
100.	Skandinavchasiqa yurish, yoki tayoqlar bilan yurish	294
101.	Idish-tovoqlarni quritish shkafi	296
102.	Kir yuvish havozalari	299
103.	Quruq hojatxona	301
104.	«Telbalar hayotidan» latifalar	303
105.	«Afrika Yulduzi» o'yini	304

<b>XOTIMA</b>	<b>306</b>
---------------	------------

## **FINLYANDIYA RESPUBLIKASI PREZIDENTINING KIRISH SO'ZI**

Dotsent Ilkka Taypalening ta'kidlashicha, «Har safar tangalar jiringlashini eshitganimda, yoki pivoni ochib ichganimda, mening aqlimga darhol biron-bir e'tiborga loyiq g'oya keladi». Fin innovatsiyalari katalogi ham ayni shunday g'oyalardan biridir.

Innovatsiyalar – bu qandaydir tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish texnologiyasini yaratish va mukammallashtirishgina emasdir. Innovatsiyalar ijtimoiy ham bo'lishi mumkin: amaliyot davomida amalga oshirilgan va kishilarning jamiyat hayotidagi ishtirokiga o'z hissasini qo'shuvchi yechimlar odatda moddiy boylik va salomatlik, ta'lim va farovonlik darajasini oshirib boradi.

«Innovatsiya» tushunchasini kengaytirish – yaxshi va to'g'ri fikrdir. Bizning farovonligimiz faqatgina yangi texnik yechimlarning joriy etilishi va faoliyatga kiritilishiga emas, balki jamiyat rivojlanishi va taraqqiyotga ham asoslangandir. Kitobda ko'pgina o'z tabiatiga ko'ra turli xildagi ijtimoiy ixtirolarning taqdim qilingani, mutolaaning ajoyib va qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi.

Innovatsiyalarni qaysi biri yaxshiroq, muhimroq yoki mohirroq ekanligi jihatidan ratsional tasniflashning iloji yo'qdir. Innovatsiyalar ro'yxati kundalik hayotni osonlashtiruvchi amaliy yechim va mavzularni o'z ichiga olgani kabi, fuqarolarning farovonligiga salmoqli darajada ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi, jamiyatga aloqador yechim va faoliyat turlarini ham o'z ichiga oladi.

Mening sevimli innovatsiyam, fuqarolar tengligini ta'minlash bo'yicha imkoniyatlar yaratishga daxldordir. Bepul ta'lim va talabalarni kreditlash tizimi, ijtimoiy yoki iqtisodiy holatidan qat'iy nazar, barcha uchun ta'lim olishga imkon berdi.

Shuningdek, kitob ichiga ixtirochilari yumor hissidan forig' bo'lmagan innovatsiyalar ham kiritilgan. «Afrika Yulduzi» o'yini shunday innovatsiyalarga misoldir.

Oramizdan ketib bo'lgan sobiq bosh muharrir Aymo Kayramo (AimoKairamo) qachonlardir aytgan edi: «Ilkka Taypalega, nimaga sarflash uchun so'raganidan qat'iy nazar, doimo pul berish arzigulikdir. Har qanday holda ham u yaxshi ishlarga sarflanadi». Ilkka Taypale muharrirligidagi ushbu kitob ham bunga yorqin



misoldir. Ushbu kitob ko'pgina tillarga tarjima qilib bo'lingan. Bizning ijtimoiy innovatsiyalarimizga bo'lgan qiziqish, Finlyandiya chegaralaridan anchagina yiroqqa cho'zilgan.

Aholi farovonligini shakllantirish va saqlab qolish doimiy rivojlanish va takomillashtirishni talab qiladi. Umid qilamanki, ushbu kitob turli faoliyat sohalaridan bo'lgan ixtirochilar uchun yangi va yanada mukammal innovatsiyalarni yaratishga turtki bo'ladi.

**Sauli Niinistö,**  
*Finlyandiya Respublikasi Prezidenti*

## **KITOBNING BIRINCHI NASHRIGA YOZILGAN KIRISH SO'ZI**

Dunyo tezlik bilan o'zgarmoqda. Kelajak tomonidan biz uchun tayyorlanayotgan yangi murakkab muammolarni qanday yengishimiz mumkin? Ko'pgina boshqa mamlakatlardagi kabi Finlyandiyada ham innovatsiyalarni yaratish va ulardan samarali foydalanishga yetaklovchi model va tizimlar majmuasi amalga oshmoqda. Biroq, muvaffaqiyat faqatgina tabiiy fanlar yoki texnik ixtirolarga asoslangan emas, garchi ular, albattaki, farovon jamiyat qurilishida beqiyos ko'makchidirlar.

Finlyandiyaning yuksak raqobatbardoshligi va turmush darajasining yuqori ekanligiga sabab, ayni vaqtda jamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlanishini ta'minlagan holda, kishining tadbirkor bo'lishi va o'zini o'zi rivojlantirishini rag'batlantiruvchi farovon jamiyatdir. Demokratiya, inson huquqlari va huquqiy davlat tamoyillarini hurmat qilish, hamda amaldagi boshqaruv tizimi jamiyatimizning mustahkam asosini tashkil etadi. Davlat va hokimliklar Finlyandiyadagi sog'likni saqlash va ijtimoiy siyosatda, shuningdek, ta'lim tizimi va tadqiqot faoliyatlarida muhim rol o'ynaydi. Biroq, fuqarolarning o'zlari ham tashabbuskor sifatida, ham turli xil jamoat tashkilotlaridagi xizmatlarni yetkazib beruvchilar sifatida tizimning faoliyat yuritishini ta'minlashadi.

Shimoliy Yevropadagi beshta davlatlarning barchasi o'tkazilayotgan xalqaro taqqoslashlarda ham raqobatbardoshlik parametrlari, ham korruptsiyaga moyillik darajasini qiyoslash bo'yicha yaxshi o'rinlarga egadirlar. Ushbu kitobning yuzdan ortiq maqolalarida ta'riflangan, turli xil va toifadagi fin ijtimoiy innovatsiyalari orqali Finlyandiyadagi jamiyat va uning faoliyat tamoyillari bilan tanishish mumkin. Aminmanki, ushbu kitobdan har bir inson o'zi uchun biron bir yangilik qabul qiladi.

Ushbu kitobda ta'rif qilingan ba'zi innovatsiyalar ko'p qirralidirlar va garchi, ularning ba'zilarida qiziqarli farqlar mavjud bo'lsada, ularni ayrim bir davlatlarda ham uchratish mumkin

Ushbu kitobda berilgan innovatsiyalarning ko'p qismi bizning jamiyatimizda o'n yillar davomida qo'llanib kelinmoqda va balkim, ular kelajakda ham foydali bo'lishi mumkin. Butun jahonda

o'zgarishlarga sabab bo'layotgan globallashuv biz uchun e'tiborga olishimiz kerak bo'lgan yangidan yangi masalalarni tayyorlamoqda. Ularni hal etishda biz uchun yangi innovatsiyalar kerak bo'lishi mumkin. Biz kelajakda ham bir-biriga dushman bo'lmagan, aksincha, ehtimol hamkor bo'lgan farovon jamiyat va raqobatbardoshlikni birlashtirishimiz kerak.

Ushbu kitobning muharriri va mualliflaridan biri bo'lgan, deputat, tibbiyot fanlari dotsenti Ilkka Taypalening o'zini ham ijtimoiy innovator desak bo'ladi. U fin ijtimoiy siyosati sohasidagi faoliyatda faol qatnashmoqda. Shuningdek, u ijtimoiy innovatsiyalar yordamida jamiyatdagi eng ko'p himoyaga muhtoj ahvolda bo'lgan insonlarning ijtimoiy holatini yaxshilash uchun kurashmoqda.

Aminmanki, ushbu kitob yangi g'oyalar manbai bo'lib xizmat qiladi va u tufayli Siz olamga boshqacha ko'zlar bilan qaraysiz.

**Tarya Xalonen,**  
*2000-2012 yillarda Finlyandiya Respublikasi Prezidenti.*

## **KITOBXONGA**

1990 yillardan boshlab biz ijtimoiy innovatsiyalar –ijtimoiy farovonlik davlatimizning asosi sifatida, patentlab bo'lmaydigan innovatsiyalar to'g'risida ham so'z yuritadigan bo'ldik. Ijtimoiy innovatsiyalar tomonidan yaratilgan asos bo'lmaganida edi, texnologik innovatsiyalarning rivojlanishi ham mumkin bo'lmas edi.

Ushbu kitobda Finlyandiyaning yuzta ijtimoiy, siyosiy va kundalik hayotiy innovatsiyalari taqdim qilingan. Maqola mualliflari sifatida yo ixtiro mualliflarining o'zlari, yoki ularni kundalik hayotlarida qo'llayotganlar ta'rif qilmoqdalar. Ushbu insonlar har xil yosh, mafkuraviy e'tiqod, kasb va ijtimoiy guruhlardandirlar, lekin ularning barchasini ushbu kitobda berilgan ixtirolarga ta'rif berish mumkin bo'lgan quvonch va jiddiyat birlashtirmoqda. Kitobda ham yirik, ham yirik bo'lmagan ixtirolar, ham kiritilgan keng siyosiy yangiliklar, ham kichik kundalik quvonchlar jamlangan.

Kitobning 2006 yildagi, davlatimizning Yevropa Ittifoqida ikkinchi bora raislik qilgan davridagi fin tilida chop etilgan birinchi nashri, Finlyandiyada katta e'tiborga sazovor bo'lmadi. Kitobda so'z yuritilayotgan narsalar odatiy hol sifatida qabul qilinadi. Misol tariqasida suvning tozaligi kabi. Finlyandiyada barcha joylardagi istalgan suv jo'mragidan, hatto mamlakatdagi yuz mingta ko'lining istalgan biridan, kasal bo'lib qolishdan umuman qo'rqmasdan suv ichish mumkin! Biroq, Nokia shahrida (o'sha yerda o'z vaqtida «Nokia» kompaniyasi paydo bo'lgan) xatolik tufayli oqava suvlarning ichimlik suvi tizimlariga aralashib ketganligi va minglab odamlarning kasal bo'lganidan so'ng, odatiy hol deb bilganlarimizning qadr-qimmatini to'g'risidagi savol o'rtaga chiqdi.

Ushbu kitob va fin innovatsiyalari xalqaro auditoriyada qiziqish uyg'otdi. Hozirgi kunda kitob 28 tilga (alban, arab, bengal, ingliz, ispan, fors, xindi, yapon, qozoq, koreys, latish, litva, mandarin, mo'g'o'l, portugal, punjabi, polyak, frantsuz, shved, nemis, tamil, turk, ukrain, venger, urdu, belorus, rus va o'zbek tillari) tarjima qilingan va chop etilgan. Yana o'nlab boshqa tillarda ham nashr qilish rejalashtirilgan.

Qiziqarli tomoni shuki, qanday qilib nochor va urush natijasida vayron bo'lgan davlatdan, o'zining barcha ijobiy va salbiy jihatlarga ega bo'lgan, jahondagi eng teng huquqli va gullab-yashnayotgan informatsion jamiyatlardan biri yuzaga keldi. Ushbu kitob aynan shu haqida hikoya qiladi. Jamiyatning bir palatali parlament va idish-tovoqlarni quritish shkafi, maktabgacha ta'lim tizimi va gilamlarni yuvish iskalasi, shanbaliklar va triada, qishki suzish va koalitsion hukumat, Linuks operatsion tizimi va fin Qor bobosi kabi unsurlari bitta ilg'or rivojlanish jarayonining omillari hisoblanadi. Qisqacha qilib aytganda, barchasi oltita sirga kelib taqaladi. Bepul ta'lim, mahalliy o'zini o'zi boshqarish, gender tengligi, fuqarolik jamiyati, qaror qabul qilishdagi konsensus, Finlyandiyadagi barcha aholi uchun kafolatlangan ijtimoiy yordam, bularning barchasi tufayli yaratilgan ishonch va fuqarolar tinchligi ushbu jarayonning ilg'or vektorini kafolatlaydi.

Biz, ushbu kitob asosida tuzilgan fin jamiyati to'g'risidagi ma'ruzalar bilan, rafiqam Vappu bilan birgalikda o'nlab mamlakatlarni aylanib chiqdik va bizning kitob hosil qilgan ulkan

qiziqishning guvohi bo'ldik. Finlyandiya elchixonalari ushbu kitobni ko'pgina mamlakatlardagi parlament va hukumat a'zolari o'rtasida tarqatishda faol ishtirok etdilar. Ushbu kitobdan Janubiy Koreyadagi davlat xizmati oliy maktabida o'quv qo'llanma sifatida foydalanilmoqda va sanoat, savdo va siyosiy boshqaruv sohalaridagi boshqaruvchilarning birdaniga yetti yuztasi bu kitob nusxalarini oldilar. Qozog'istonda bu kitobni mamlakat bo'yicha 2000ta kutubxona oldi, Mo'g'o'listonda esa bu kitob har bir maktabda mavjuddir.

Bu kabi kitoblar boshqa mamlakatlarda ham paydo bo'lishiga umid qilaman. Chunki, har bir mamlakatning boshqalar bilan baham ko'radigan narsalari bordir va ko'pgina mamlakatlarda bunday innovatsiyalarning soni yanada ko'proqdir!

Barcha maqola mualliflariga, shuningdek, mening parlamentdagi faoliyatim bo'yicha yordamchilarim Katri Seder va Olga Bustani ( Borovkova), kitobning birinchi nashr muqovasining dizayneri Pilvi Taypale va grafika dizayneri Yoonas Loutonenga chin dilimdan minnatdorchilik bildiraman.

Ushbu kitob ustida ishlash yoqimli va qiziqarli edi!

**Ilkka Taypale,**

*Faxriy stajga ega parlament deputati,*

*Tibbiyot fanlari dotsenti*

# BIRLIK ASOSI

## 1. BIR PALATALI PARLAMENT

Avvaliga men juda hayron qoldim – bir palatali parlament qanday qilib lakritsa va chekishga qarshi qonun qatorida ijtimoiy innovatsiya bo'lishi mumkin? So'ngra birdaniga tushundim: axir u ushbu kitobda sanab o'tilgan barcha ijtimoiy innovatsiyalar boshida turibdiku. Men juda hurmat qiladigan davlatimiz parlamentining spikeri bo'lgan va parlament faoliyatini to'qqizta sessiya davomida boshqargan ilk ayol sifatida shunday deb o'ylayman.

Ilmari Kiantoning (Ilmari Kianto) «Qizil chiziq» asariga (1910y.) bir daqiqagagina qaraganimizda, innovatsiyalar qanday sharoitlarda paydo bo'lganini tushunish mumkin: «Biri somon tutami bilan do'ppayib turgan, ikkinchisi yirtiq latta bilan yamalgan, uchinchisi buqa pufagi bilan tortilgan va faqatgina to'rtinchisi ikki tomondan qoraygan qalay tugmalariga boylangan iplar yordamida ushlab turilgan, yorilgan yashilsifat oyna bilan yarqirayotgan to'rtta oynalik kulba derazasining zich o'rmonga qanday termilib turganini biron-bir inson o'ylab ko'rdimi? Xuddi zich o'rmon ilohi, o'zining darz ketgan va og'riqqa botgan ko'zlari bilan atrofga qarayotgani kabi».

Va biz xuddi shunday manzara va shaharning tosh uylaridan, umuman olganda, o'sha paytdagi Finlyandiyadan chiziq tortdik va uning vaqti kelib bizga ko'p narsa olib kelishiga ishonar edik. Aslida ham shunday bo'ldi. Shaffof oynali butun derazalar Yevropaga va umuman butun dunyoga ochilgan.

Finlyandiya 1906 yilda saylov va davlat tizimi to'g'risida qonun qabul qilindi. Ko'pchilikning fikriga ko'ra, biz tabaqalarga asoslangan va juda eskirgan Yevropacha davlat boshqaruv tizimi modelidan eng zamonaviy model – bir palatali parlamentga o'tdik. 1906 yil 1-oktyabrda kuchga kirgan qonunga asosan, saylash huquqi hamma uchun umumiy va teng bo'ldi. Eng asosiysi, erkaklar ham, ayollar ham ushbu huquqqa bir vaqtda ega bo'ldilar. Saylash va saylovda qatnashish huquqiga, 24 yoshga kirgan fuqarolarning barchasi ega bo'ldilar. Yangi qonun tufayli parlament

saylovlarida saylash, hamda o'z nomzodini qo'yish huquqini olgan fuqarolar soni o'n barobarlab oshdi va 1,2 millionga yetdi.

Ko'pincha ushbu mavzu bo'yicha, fin ayollarining dunyoda saylash huquqini qo'lga kiritgan ilk ayollar emasligi to'g'risida izohlar eshish mumkin. Yangi Zelandiya, Avstraliya va ba'zi Amerika shtatlaridagi ayollar saylashlari mumkin edi, ammo parlament saylovlarida o'z nomzodlarini qo'yishlari mumkin emas edi. Ilk bora ayol-deputatlar 1907 yilda Finlyandiya saylandilar. Ham erkak, ham ayollarga bir vaqtning o'zida berilgan teng huquqlilik, Finlyandiyaning o'ziga xos xususiyati va uning afzalligi bo'ldi.

Bularning barchasi, Finlyandiyaning Buyuk Rossiya Knyazligi bo'lgan, davlatni shoh boshqarayotgan va davlatimiz uchun oson bo'lmagan davrlarda yuz berdi. O'sha payt Finlyandiya uchun juda qulay keldi – Rossiya Yaponiya bilan bo'lgan urushda, shu jumladan Tsusim jangida mag'lubiyatga uchratgan edi. Uning hududlarida tartibsizliklar, shu jumladan Finlyandiya barcha aholi toifalariga ham ta'sirini ko'rsatgan umumiy ish tashlashlar o'rta chiqayotgan edi. Bu esa, shohni yangi davlat tizimiga rozi bo'lishga majburladi.

Ushbu jarayonda umumiy siyosiy ahvolding rivojlanishi katta o'rin tutgan bo'lsada, Finlyandiya parlamenti tomonidan bajarilgan va ahamiyatga loyiq bo'lgan tayyorgarlik ishlarini ham unutmaslik kerak. Finlyandiyaning partiyaviy tizimi hali rivojlanmagan edi va oqilona g'oyalar kerak edi. Leo Meshelinning davlat arbobi sifatidagi zukkoligi munosib baholandi. Erkaklar ham, ayollar ham katta ish bajardilar. Muammolar yetarli edi. Bir palatali parlament, fin va shved tillari, armiyaga noqonuniy chaqiruv va keyinchalik, Finlyandiyaning monarxiya bo'lish imkoniyatlari to'g'risidagi bahslar olib borilar edi. Uzundan uzoq bahslardan so'ng qaror bir palatali parlament foydasiga bo'ldi. Katta Qo'mitaga esa ikkinchi palata maqomiga o'xshash vazifa topshirildi. Hozirda ushbu qo'mita Yevropa Ittifoqi masalalari bilan shug'ullanmoqda.

Fin ayollar ittifoqi teng saylash huquqiga ega bo'lishni o'z oldiga maqsad qilib olgan edi. Lekin muammoning o'zi hatto ittifoq a'zolarining o'zlariga ham hanuz oxirigacha aniq va tushunarli emas edi. Feministik harakat ittifoqida, ittifoqning birinchi prezidenti

Lusina Xagmanning 1889 yilda yozgan «Ayollarning saylash huquqi to'g'risida»gi maqolasiga qaramasdan, deyarli shunday holat ustunlik qilardi. Ishchi ayollar ittifoqi ayollarning saylash huquqini qo'llab-quvvatlashda aniqroq o'rin tutardi. Ayollar harakatlari va Ishchi ayollar ittifoqi maqsadlaridagi berilgan urg'u farq qilardi. Teng saylash huquqi va sog'lom hayot tarzi masalari bir-biri bilan chambarchas bog'langan edi. Ichkilikka qarshi qonun qabul qilish va siyosiy demokratiya tamoyillarini o'rnatish talablari, bir butunning qismlari sifatida ko'rib chiqilar edi. Shunday qilib, umumiy va teng saylash huquqlari g'oyasi, 1898-1899 yillardagi ichkilikka qarshi qonun qabul qilish harakati davomida aholi o'rtasida keng tarqaldi.

Har holda, barcha uchun umumiy va teng bo'lgan saylash va saylanish huquqi tan olindi. Hatto, Angliyada bo'lgan vaqtda ushbu yangilikni eshitgan, xalqaro jamiyatda eng ko'p tanilgan fin ayol-siyosatchisi bo'lmish Aleksandra Gripenbergni ham hayron qoldirdi. Shundan so'ng u butun dunyo nazarining harakat qilish huquqini noodatiy holda qo'lga kiritgan fin ayollariga qaratilganini boshqalarga eslatish imkoniyatini hech qachon boy bermadi. Ta'limga juda katta talab bor edi, chunki ayollar, o'zlarini davlat idoralari yoki universitetga qabul qilinishlari uchun murojaat qilishlari lozim edi. Fohishalik va boshqa ahloqiy masalalar ham dolzarb edi; ish barcha ayol guruhlari va toifalari orasida yetarli edi. Ular erkaklar bilan birga mehnat qilishar edi. Biroq, hozir ham deyarli shunday bo'lsada, ayni vaqtda o'zlarining ko'rinishlari, turmushga chiqmaganliklari, semizliklari va boshqa tomonlari uchun masxara qilinishga bahona bo'ldilar.

2017 yilda anchagina yutuqlarni nishonlash uchun sabablarimiz bor, lekin yana ko'p ishlarni bajarishimiz kerak. Ayollarning ish haqi miqdori, oilaviy qonunchilik, tug'ilish masalalari har kuni muhokama qilinmoqda. Finlyandiyada ilk bora 2000 yilda ayol prezident saylandi, bosh vazir lavozimini – 2003 yilda, parlament spikeri lavozimini 1994 yilda ayol ilk marotaba egalladi. Ko'pgina ayollar jamoa faoliyatida ham, biznesda ham yuqori pog'onalarga ko'tarildilar va ayollar yo'lida turgan ushbu devor ko'p joylarda buzilib bo'lgan. Biroq, hal qilinmagan muammolar yetarlidir. Ba'zan, parlamentda qanday masalalar muhokama



qilinayotganini eshitgan vaqtingda yig'lashni ham, kulishni ham bilmaysan. Hali 1907 yilidayoq, «Uy va jamiyat» jurnalida parlament tomonidan ayollarning hamjihat harakatlari tufayli fohishalik man qilinganligi chop etilgan edi. Ilk saylovlarda ba'zi ayollar, o'z ovozlarning Finlyandiyada aroxo'rlikni batamom yo'q qilishga yordam berishiga umid bog'lashgan edi. Lekin, XXI asr kirib kelganligiga qaramasdan, ichkilik masalalari bo'yicha hanuzgacha ham qizg'in munozaralar olib borilmoqda.

Hozirgi kunda XX asr boshida mehnat qilgan porloq davlat arboblari bo'lmish erkak va ayollarni tabriklasak bo'ladi. Ularning bir palatali parlament haqidagi qarori to'g'ri bo'lib chiqdi. Ushbu yo'nalishdagi harakatlarning barchamizning quvonchimiz va davlatimiz foydasi uchun davom etishiga umid qilib qolamiz.

Bizga parlamentariylarimizning erishgan yutuqlari quvonch baxsh etadi, ular hoh erkak bo'lsin, hoh ayol. 1907 yilda Rossiya Dumasining deputatlari, Rossiyadagi Don kazaklaridan kelgan «Biz, Don kazakligi vakillari, bizning ham ulkan, ammo hanuzgacha zanjirband bo'lgan ona davlatimizda ham loyiq bo'lgan ayollarni, shunday teng-huquqlilik yuksakligiga ko'targan davlatga tabrik yo'llashdan baxtiyormiz. Yashasin o'z vatanining to'la huquqli fuqarosi bo'lgan fin ayoli!» xabarini ham o'z ichiga olgan umumlashtirilgan tabrik telegrammasini yubordilar.

**Riitta Uosukaynen,**

*Davlat maslahatchisi, 1994-2003 yillarda Parlament Spikeri*

## **2. PARLAMENTNING KONSTITUTSIYAVIY QO'MITASI**

Konstitutsion sudlar Finlyandiyada yo'q. Yangi qonunlar qabul qilingani tufayli, qonunlarning konstitutsiyaga mos kelishi to'g'risidagi masalalar parlamentning Konstitutsion qo'mitasida ko'rib chiqiladi. Parlamentning Konstitutsion qo'mitasi, parlamentning 16 doimiy qo'mitalaridan biridir. U 1906 yildagi davlat qonunchilik tizimi islohotidan so'ng doimiy organga aylandi. Parlament doimiy organlarining asosiy vazifasi – masalalarni

parlament yig'ilishlarida ko'rib chiqish uchun tayyorlashdan iboratdir.

Parlamentning Konstitutsion qo'mitasi qonunlar qabul qilish, ularni o'zgartirish yoki rad etishga aloqador masalalar bilan shug'ullanadi. Shuningdek, qo'mita konstitutsiyaga bevosita aloqador bo'lgan qonunchilik masalalari bo'yicha savollarni ham tayyorlaydi. Misol uchun saylov qonunchiligi, yuqori davlat boshqaruvi organlariga, Aland orollari muxtoriyatida o'zini o'zi boshqarishga, shuningdek, fuqarolar qonunchiligi va til masalalari va partiyaviy tizimga aloqador bo'lgan masalalar shular qatoridandir.

So'nggi paytlarda, xulosalar tuzish qo'mitaning boshqa vazifalari ichida ikkinchi o'ringa tushib qolgan. Boshqa qo'mitalarning, ularning o'zlari shug'ullanayotgan masalalariga aloqador qonunchiliklarini ishlab chiqish qo'mitaning asosiy vazifasi bo'lib qoldi. Hozirda, qo'mita tomonidan taklif qilinayotgan qonunchilik loyihalarining soni oshdi: 1987-1990 yillarda faqatgina 51ta xulosa taqdim qilingan bo'lsada, 1999-2002 yillardagi sessiya davomida qo'mita 199ta, 2011-2014 yillarda 184ta qonunchilik loyihalari bo'yicha o'z xulosalarini taqdim qildi.

Qonunchilik loyihalari ustidagi ishlar konstitutsiyaning 74-paragrafida bayon etilgan. Unga asosan qo'mita ko'rib chiqish uchun o'ziga kelib tushayotgan qonunchilik loyihalari va boshqa masalalarning konstitutsiyaga, shuningdek, xalqaro hujjatlarda ko'rsatib o'tilgan inson huquqlarini ta'minlashga to'g'ri kelishi haqida xulosa tayyorlaydi. Bundan tashqari, parlament nizomi 38-paragrafining ikkinchi punkti, ko'rib chiqilayotgan masalaning konstitutsiya yoki inson huquqlari bo'yicha kelishuvlarga mos kelishi bo'yicha gumon paydo bo'lganda, xulosalar bo'yicha ishlayotgan qo'mitaga konstitutsion qo'mitaga murojaat qilish majburiyatini yuklaydi.

Parlamentda masalalarni ko'rib chiqishdagi konstitutsion nazorat shunday yo'l orqali yaratildi. Uning o'ziga xosligi shundaki, uning faoliyati deputatlar safidan tanlangan a'zolardan iborat bo'lgan organ tomonidan olib boriladi. Ushbu o'ziga xoslik 150 yil avval paydo bo'lgan, tizimning shakllanish va rivojlanishining uzoq tarixi bilan ta'riflanadi.

Qo'mita konstitutsiyaga rioya qilish ustidan nazoratni bajarish davomida, o'zining asosiy vazifasi konstitutsiyani talqin qilishdan iborat bo'lgan organ sifatida faoliyat ko'rsatadi. Misol uchun qo'mita, vazirning noqonuniy harakatlari bo'yicha xulosa berish kerakligi yoki deputatni mansabidan chetlashtirishga doir dalillar paydo bo'lganda ham xuddi shunday «siyosiy bo'lmagan» vazifani bajaradi. Shunday huquqiy vazifalar bo'lishiga qaramasdan, qo'mita tarkibi bo'yicha har qanday boshqa parlament qo'mitasi kabidir: uning a'zolari parlamentda qatnashadigan barcha partiyalar vakillaridir.

Yuridik masalalarni hal etishda qo'mita betaraflikni saqlaydi va bunga bir nechta omillar yordam beradi. Amalda parlament fraksiyalari, qo'mitada ko'rib chiqilayotgan va shu fraksiyaga kiruvchi qo'mita a'zolari tomonidan rioya qilinishi kerak bo'lgan yuridik masalalar bo'yicha qaror qabul qilmaydilar. Shuningdek, vazirlar ham qo'mita a'zolarining mustaqil faoliyatiga ta'sir etishni o'z oldilariga maqsad qilib olmaganlar. Masalalarni konstitutsiya bo'yicha ko'rib chiqish to'liq qo'mita a'zolari tomonidan olib boriladi. O'zi tomonidan oldinroq qabul qilingan barcha qarorlaridagi muntazamlik qo'mita faoliyatiga xosdir.

Mutaxassislarning mehnati qo'mita holatini shakllantirish davomida muhim o'ringa egadir. Qo'mita konstitutsiyani talqin qilish bo'yicha bo'lgan har bir holatda, mamlakatning turli xil universitetlari mutaxassislarining fikrlarini tinglaydi. Qo'mitaning har bir yig'ilishida, mutaxassislar qo'mitaning konstitutsiyaviy holatlar bo'yicha talqinini, hamda ushbu masalalar bo'yicha o'z talqinlarini tahlil qiladilar.

Odatda ko'rib chiqilayotgan masalalar bo'yicha mutaxassislarning fikrlari bir-biriga kamdan-kam hollarda mos tushadi. Biroq, bu ko'pchilikning fikri qo'mitaning umumiy fikrini keltiradi degani emas. Boshqa tomondan, qo'mita ko'pchilikning fikrini e'tiborsiz qoldirolmasligi ham ayondir. Mutaxassislarning fikr va tavsiyalari, qo'mita a'zolariga biron-bir masala bo'yicha tutgan o'z o'rinlarini shakllantirishga yo'nalish bo'lib xizmat qiladi. Qo'mita a'zolari muzokaralar orqali bir fikrga keladilar. Biroq, ko'pchilik fikridan farq qiluvchi fikrga ega bo'lgan va o'z fikrida oxirigacha

turgan qo'mita a'zosi, uning fikri qo'mitaning yakuniy xulosasida alohida ravishda ko'rsatilishini kutishga haqlidir.

Masalan, qo'mita o'zining xulosasida, qonunchilik taklifining konstitutsiyaga mos kelishi to'g'risidagi o'z bahosini keltiradi. Agarda qo'mita, berilgan taklifni konstitutsiyaga zid deb hisoblasa, u holda xulosa qonunchilik loyihasining konstitutsiyaga mos kelishi uchun qanday o'zgartirilishi kerakligi to'g'risidagi ko'rsatmalar bilan birga beriladi. Qo'mita tomonidan taklif qilinadigan o'zgartirishlar, qonunchilikka kiritiladigan matn o'zgartirish shaklida emas. Biroq, ular o'zgartirish kiritishdan ko'zlangan maqsadga ta'rif berishadi va uni qanday qilib shakllantirish bo'yicha misollarni ham ko'rsatib o'tishadi. Amalda qonun chiqaruvchi boshqa qo'mitalar, o'z faoliyatlarida qo'mita tomonidan ishlab chiqilgan konstitutsiyaga moslik bo'yicha fikr va mulohazalarini inobatga olishadi. Va nihoyat, plenum yig'ilishida masalalarni hal qilish jarayonining konstitutsiyaga mos bo'lishini nazorat qilish parlament spikeri vazifasiga kiradi.

Umumiy qilib aytganda, qo'mita konstitutsiyani talqin qilish holatlaridagi o'z layoqati bo'yicha to'liq ishonchga ega. Ishonchning yetishmasligi muammolarni keltirib chiqarar edi, chunki qo'mita tomonidan uzoq vaqt davomida amalga oshirilayotgan dastlabki nazorat qonunchilikning konstitutsiyaviy nazoratining yagona shakli edi. 1919 yilda qabul qilingan Finlyandiya konstitutsiyasiga binoan, qonunlarning konstitutsiyaga mos kelishligi tahlili sud tizimi qo'lida emas edi. Keyinchalik ushbu holat baribir o'zgardi: 2000 yildagi yangi konstitutsiyaning 106-paragrafi «Sud tomonidan ish ko'rib chiqilayotgan vaqtda, qonun ko'rsatmasini bajarish konstitutsiyaga ochiqchasiga zid kelsa, u holda sud konstitutsiyaga afzallik berishga majbur» deb aytadi. Yangi konstitutsiyaning amal qilish davri davomida, qonun holatlariga nisbatan konstitutsiyaning afzal ko'rilganligi bo'yicha atigi bir nechta voqea sodir bo'lganligi, parlamentning konstitutsiyaviy qo'mitasi tomonidan olib borilayotgan konstitutsiyaviy nazorati samaradorligiga yorqin misoldir.

**Yarmo Vuorinen,**

*Sobiq Parlament Bosh Sekretarining o'rinbosari, hozirda nafaqada*

### **3. KELAJAK MASALALARI BO'YICHA PARLAMENT QO'MITASI**

Barcha mamlakatlarda parlament hukmdorligini qonunchilik hukmdorligi va byudjet hukmdorligiga ajratsa bo'ladi. Finlyandiyaning parlamenti noyob va yagonadir, chunki uning hukmdorlik shakllarida kelajakni prognoz qilishga alohida e'tibor berilgan. Yigirma yildan avvalroq parlament qoshida alohida qo'mita – Kelajak masalalari bo'yicha qo'mita tashkil qilingan edi. U hanuzgacha a'zolari deputat bo'lgan va kelajakka doir masalalar yechimini topish bilan shug'ullanadigan, dunyoda yagona bo'lgan parlament qo'mitasi holidadir. Uning ikkinchi, yanada aniqroq bo'lgan vazifasi – texnologiyalarning jamiyatga ta'sirini baholash, dunyoning boshqa mamlakatlarida ham biron-bir boshqa qo'mitalarning (odatda, bular fan va texnologiyalar qo'mitasidir) vakolat doirasiga kiradi.

Qo'mita 2000 yildagi konstitutsiyaviy islohotlar orqali, qolgan parlament qo'mitalari orasidagi tutgan o'rnini mustahkamladi va ularning qatorida teng huquqlikka erishdi. Kelajak qo'mitasini Finlyandiya parlamentining o'z ijtimoiy innovatsiyasi deb hisoblash mumkin.

Forum tashkil qilish va kelajakka taalluqli masalalar bilan shug'ullanish tashabbusini parlamentning o'zi ilgari surdi. Qarshiliklarga qaramasdan, deputatlarning ko'pchiligi ushbu tashabbusni ma'qulladilar. Bu narsaga bir necha yil kerak bo'ldi. 1986 yildayoq 133 deputat tomonidan, qonunchilik organi sifatida faoliyat yuritadigan va kelajakka doir masalalar bilan shug'ullanadigan tadqiqot bo'limi yaratish haqida bo'lgan tashabbus imzolandi. Masala ko'rib chiqildi, lekin u bo'yicha qaror qabul qilinmadi. Bunga qaramasdan muhokama davom etdi va 166ta deputat tomonidan taklif qilingan qonun loyihasi rad etildi. Keyinchalik, qo'mita yaratilgandan so'ng, uning birinchi raisi lavozimini egallagan Ero Paloxeymo va Martti Tiuri, o'sha vaqtdagi Parlament chaqiruvining eng faol deputatlari edi. Qonunchilik tashabbusining qabul qilinmaganligiga qaramasdan, konstitutsiyaviy qonunchilik qo'mitasi uzoq vaqtli muammolar va

ularning muqobil hal etish yo'llari bo'yicha kelajakni ko'ra bilish siyosati, hamda parlament va hukumat o'rtasida muloqotni qurish Finlyandiyaga kerakli bo'lgani ayon ekanligini ko'rsatdi.

1992 yilning o'zida, qo'mita hukumatning parlamentga kelajakdagi rivojlanish tahlilini, yoki boshqacha qilib aytganda, jamiyat rivojlanishining o'ta muhim qirralari va kelajakning rivojlanish imkoniyatlari variantlarini o'z ichiga olgan kelajak prognozini taqdim qilishi kerakligi to'g'risidagi fikrga keldi. Bundan tashqari, hukumat jamiyatning rivojlanishi bo'yicha mo'ljallarni belgilab berishi kerak edi. Parlament tomonidan ushbu masalani hal qilishni hukumatga yuklatishga qaror qilindi. Ayni vaqtda kelajakdagi rivojlanish bo'yicha hisobot tayyorlash bo'yicha faoliyat yuritadigan qo'mita tashkil qilindi. Ushbu qo'mita Kelajak qo'mitasi nomini oldi.

Qonunning qoidalariga muvofiq, kelajak masalalari qo'mitasi qabul qilgan xujjatlarini ko'rib chiqish va boshqa qo'mitalarning talablariga binoan, o'z vakolati doirasida kelajakdagi rivojlanish masalalari bo'yicha xulosalar taqdim qilish bilan shug'ullanadi. Qo'mita kelajakni rivojlantirish omillariga aloqador masalalar, shuningdek, uning rivojlanish uslublari bilan shug'ullanadi. Qo'mita kelajakdagi rivojlanish tadqiqotlari, hamda bunday tadqiqotlar uslubiyati bo'yicha hisobotlar tayyorlash bilan shug'ullanadi. Shuningdek, qo'mita texnologiyalar va texnologik ishlab chiqishning jamiyatga bo'lgan ta'siriga baho beradi. Qo'mitaning tasarrufida qo'mita tashabbusi bilan olib borilayotgan tadqiqot ishlarini qoplash uchun katta bo'lmagan yillik byudjet mavjud.

Qo'mitaning asosiy vazifasi hukumat tomonidan taqdim qilinadigan va mamlakatning istiqbolli rivojlanishi to'g'risidagi hisobot bo'yicha parlament javobini tayyorlab berishdan iboratdir. Hukumat tomonidan bunday hisobotlar to'rt yilda bir marotaba tayyorlanadi. Bularning eng oxirgisining mavzusi, aholining barqaror rivojlanishi va farovonligi to'g'risida edi. Ikkinchi raqamli qo'mitaning vazifasi hanuzgacha texnologiyalarni baholash bo'lib qolmoqda. Yillar o'tgan sayin qo'mitaning ushbu sohadagi faoliyatining tutgan o'rne ortib bordi. Qo'mita tomonidan yangi chaqiruv parlamenti faoliyatining har bir davri boshida, jamiyatning kelajagiga tegishli mavzu tanlanadi va ushbu mavzu bo'yicha

boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda hisobot tayyorlanadi. Hisobot tarkibiga kiruvchi «Informatsion jamiyat rivojlanishi» (filosofiya fanlari doktori Pekka Ximanen bilan birgalikda tayyorlangan) va «Insoniyat salomatligining kelajagi» (Kuopio shahri universitetining sog'likni saqlash sohasi bo'yicha tadqiqotchi-olimlar guruhi va tadqiqotchi-futurolog Osmo Kuusi bilan birgalikda tayyorlangan) kabi mavzulardan bir qismi parlamentning plenum muhokamasiga olib chiqiladi. Qo'mita tomonidan innovatsiyalarning hududiy miqyosda rivojlanishi va ijtimoiy kapital masalalari ham ko'rib chiqilar edi. Ushbu hisobot o'ziga matbuotning ham e'tiborini tortdi va berilgan masalalarning faol muhokamasi hanuzgacha davom etmoqda.

Qo'mita o'zining 20 yildan ham ortiq bo'lgan tarixi davomida, bizning jamiyatimizning ayrilmas qismi bo'lgan mavzularni ko'rib chiqish faoliyatini olib bordi. Bularga globallashtirish, yangi texnologiyalar, innovatsiya, yashash tarzini tashkillashtirish va kundalik masalalarni yechish kiradi. Demokratiya alohida birlik sifatida ko'rib chiqilmadi, lekin ushbu mavzu qo'mitaning hozirgi tarkibining yakuniy faoliyat bosqichida asosiy bo'ldi. 2006 yilning kuziga kelib, qo'mita tomonidan bajaruvchisi Mika Mannerman bo'lgan tadqiqot o'tkazildi. 2006 yilning yozida, Finlyandiya parlamentining 100 yillik yubileyi doirasida, 2100 yildagi demokratiyaning rivojlanish holati bo'yicha xalqaro futurologlarning nazariga bag'ishlangan maqolalar antologiyasi nashr qilindi.

2017 yilda qo'mitaning vazifa doirasi kengaydi – unga «Kun tartibi 2030» nomli hukumat dasturini amalga oshirish bo'yicha nazorat qilish vazifasi yuklatildi. Ya'ni, endilikda qo'mita BMTning barqaror rivojlanishi maqsadlariga erishish bo'yicha hukumat tomonidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlar xulosasini ham tayyorlaydi.

Kelajak masalalari qo'mitasi o'z tutgan o'rnini mustahkamladi. Qo'mitaning faoliyati o'ziga katta e'tibor qaratdi va turli sohalardan bo'lgan anchagina izdoshlarini qo'lga kiritdi.

**Yurki Kataynen,**

*2011-2014 yillardagi Bosh vazir, 2003-2007 yillarda Parlamentning kelajak masalalari qo'mitasining raisi.*

## 4. MAHALLIY O'ZINI O'ZI BOSHQARISH

Konstitutsiya bo'yicha Finlyandiya, aholisi tomonidan olib borilayotgan mahalliy boshqaruv tamoyillariga asosan boshqarilishi kerak bo'lgan hududiy hokimliklarga bo'linadi. Hokimlikning ijroiya hukumati, aholi tomonidan saylanadigan hokimlik kengashiga tegishlidir. Hokimliklarning boshqaruv asoslari va ularga yuklatiladigan vazifalar qonunchilik tomonidan belgilanadi. Bundan tashqari, qonunchilik tomonidan hokimliklarga mahalliy soliqlarni yig'ish huquqi berilgan.

Finlyandiya'dagi hokimliklar keng faoliyat sohasiga egalar. Hokimliklar to'g'risidagi qonunga binoan, hokimliklar tomonidan o'z vazifalari doirasiga kiritilgan, ya'ni hokimlikning barcha aholisi uchun umumiy va muhim bo'lgan, bajarilishi bilan boshqa hech qanday hukumat organi shug'ullanmaydigan vazifalarni o'z umumiy vakolatlari doirasida va o'zini o'zi boshqarish tamoyillariga asosan bajarishlari mumkin. Hokimliklarga qaysi yangi vazifalarni yuklatish yoki olib qo'yish mumkinligi qonunchilik tomonidan tartibga solinishi mumkin. Bunday hollarda hokimliklarning maxsus vakolatlari, masalan ta'lim, sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmat haqida gap ketadi. Bundan tashqari, hokimliklar o'zining umumiy faoliyati doirasida yoki qonunchilik tomonidan belgilangan vazifalarga binoan hordiq chiqarish, yashash sharoiti va yashash muhitini tashkillashtirish (masalan: yo'llar, suv-oqava tizimi) masalalari bilan shug'ullanadilar, hamda hokimlik organlarining hududiy rejasi va funksional tuzilishiga javobgarlar.

Fin hokimliklari qaror qabul qilish va hududiy rejalash tamoyillari bo'yicha mutlaq va keng bo'lgan vakolatlarga, ya'ni hududiy rivojlanish bo'yicha monopol huquqqa egalar. Ushbu huquq ruxsat berilgan faoliyatlarni belgilab beruvchi hududiy mintaqalash rejalarini, hududiy foydalanish va ehtimoliy qurilishni o'z ichiga olgan, muayyan aholi punktlarining rivojlanish rejalarini tuzish yo'li orqali amalga oshiriladi.

Hududiy rejalashtirishning maqsadi, turli xildagi aholi guruhlari ehtiyojlarini qoniqtiradigan xavfsiz, sog'likni saqlaydigan, qulay va ijtimoiy funksional yashash muhitini yaratish, shuningdek, yashash



va xo'jalik-iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish uchun yetarli hududlarni ajratishdan iboratdir. Hududiy rejalashtirish – bu iqtisodiy samaradorlik, xizmatlarning arzonligi, inson tomonidan yaratilgan muhitning go'zalligi, madaniy qadriyatlar va tabiiy xilma-xillikni saqlab-avaylashni ta'minlash vositasidir.

Hokimliklarning faoliyatida avvalo fuqarolarga keng qamrovli sifatli xizmatlar yetkazib berish ustivor o'ringa egadir. Bundan tashqari, hokimliklar tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi, yangi ish o'rinlari va qulay yashash sharoitining yaratilishiga g'amxo'rlik qilishlari lozim.

Yig'iladigan soliqlar hokimlik byudjetining daromad qismida muhim o'ringa ega. Hozirgi kunda soliq yig'ish huquqi, mahalliy o'zini-o'zi boshqarish tizimidagi eng muhim asoslardan biridir va kelajakda ham shunday qoladi. Shu tufayli hokimliklar ham o'zlari vakolatlariga olgan, ham qonun tomonidan belgilangan vazifalarni bajarishlari mumkindir. 2016 yilda daromad qismi 18 milliarddan ortiq bo'lgan mahalliy soliq eng muhimidir. Unda foyda solig'ining ulushi 1,6 milliard yevroga yaqin edi, ko'chmas mulk solig'ining ulushi ham 1,6 milliard yevro atrofida bo'ldi. Hokimliklarda kelajakda ham keng soliq bazasi saqlanib qolishi kerak. Bu narsa hokimlik organlari tomonidan qonunchilikka binoan o'zini o'zi boshqarish vazifalari yuborilishini saqlab qoladi va manbalar faqatgina qonunchilik tomonidan belgilangan vazifalarni bajarish uchungina emas, balki hokimlik tomonidan o'z vakolatiga olingan umumiy vazifa va topshiriqlarni bajarish uchun mablag'lar mavjudligini ham kafolatlaydi.

Tabiiyki, Finlyandiyaning hokimliklari bir-biridan hajmi jihatidan sezilarli darajada farq qiladi. Shuningdek, yirik mamlakatning turli tomonlaridagi yashash shartlari juda farqlidir. Shuning uchun davlatda hokimliklarning hajmi yoki joylashishiga qaramasdan, oqilona soliqqa tortish va undiriladigan to'lovlar yordamida hokimliklar tomonidan olinadigan daromadlar va fuqarolar tomonidan zarur xizmatlar olish uchun teng shart-sharoitlar yaratib berishni tenglashtirish vositalari bo'lishi lozim.

Mahalliy o'zini-o'zi boshqarishni amalga oshirishning asosiy tamoyillaridan biriga binoan, agarda davlat hokimlik oldiga biron-bir vazifani bajarishni yuklatsa, u holda davlat ham hokimliklarning

o'zlariga yuklatilgan xizmatlarni bajarishlari uchun yetarli imkoniyatlarga ega bo'lishlarini nazorat qilishi lozim. Buning uchun Finlyandiya, davlat va hokimliklar o'rtasidagi aloqalarning harakatdagi modeli va hokimliklar faoliyatini qo'llab-quvvatlashda davlat ishtiroki tizimi bo'lishi kerak. Uning yordamida hokimliklarning salohiyati, hamda barcha aholining xizmat olish uchun teng imkoniyatlari saqlab qolinadi.

**Pekka Nousiainen,**

*1999-2007 yillarda Parlament deputati, 2003-2009 yillarda Finlyandiya Hukimliklar Ittifoqi boshqaruvi raisi. 2009 yildan – hozirgi kunga qadar Kengash raisi*

## **5. OSHKORALIK TAMOYILI**

Finlyandiya – ochiq va demokratik jamiyatdir. Finlyandiya Konstitutsiyasining 21 moddasiga binoan, sud muhokamalarining oshkoraligi huquqi, eshitilgan bo'lish huquqi, asoslangan qaror olish huquqi, qaror ustidan shikoyat qilish huquqi, sud muhokamasining adolatli bo'lishi va davlat organlari tomonidan o'z vazifalarini adolatli bajarishi bo'yicha boshqa kafolatlar qonun tomonidan ta'minlanadi.

Oshkoralik tamoyilining vatani sifatida ko'pincha Shvetsiyani tilga olishadi. Aslida esa, bu ikki davlatning umumiy tarixi qismidir. Oshkoralik printsi «ixtirochilaridan» biri tariqasida 1760 yillarda shved parlamentidagi Ostrobotniya guberniyasining din bo'yicha vakili, fin Anders Chidenius (Anders Chydenius) hisoblanadi. Shvetsiya XVIII asrning birinchi yarmida boshidan inqirozli davrlarni o'tkazayotgan edi. Rossiya bilan mag'lubiyatga uchragan ikki urush va keng tarqalayotgan korrupsiya davlatning mavjudligiga tahdid solayotgan edi. Ayni vaqtda, tarqalgan ma'rifat asri g'oyalari xalq hukmdorligini kengaytirish va hukumat boshqaruvchilarining ustidan nazorat qilish tartibini joriy qilish (masalan, hukumatlarni ajratish bo'yicha Monteskye nazariyasi) vositalarini kiritish tamoyillarini himoya qilayotgan edi. Biroq, parlamentning hukumat ijrosi ustidan nazorati bo'yicha imkoniyatlari cheklangan edi. Parlament tabaqalari kamdan-kam hollarda kengashda yig'ilishar

va ularga hukumat tomonidan qabul qilingan qarorlar bo'yicha ma'lumotlar yetkazilmas edi. Bundan tashqari, siyosiy mavzulardagi munozaralar tsenzura tomonidan chegaralangan edi. Shuning uchun ham 1750 yillarda axborot erkinligi to'g'risidagi g'oyalar, oliy tabaqalardan tashqari, parlamentda keng qo'llab-quvvatlanishga sazovor bo'ldi.

1765-1766 yillarda parlamentda ishlayotgan davrida, Anders Chidenius axborot erkinligi g'oyasining faol tarafdori edi. Axborot erkinligi to'g'risidagi qonun, o'zining yakuniy ko'rinishida Chideniusning kundalik va eslatmalarida shakllantirilgan yo'nalish bo'yicha harakatlanadi. 1766 yilda parlament konstitutsiya bo'limiga aylangan axborot erkinligi to'g'risidagi qonunni (Förordning Angående Skrift- och Tryckfriheten) ma'qulladi. Qonunga binoan, «Och bör.. uti alla Archiver fri tilgång lemnas, att sådane Handlingar får in Loco afskrifwa eller i bewittnad afskrift utbekomma», ya'ni, har bir kishining hukumat hujjatlari bilan tanishish va ulardan nusxa olish huquqi bor edi.

Axborot erkinligi to'g'risidagi qonun, fin va shvedlarga ma'lumotlarga keng miqyosda ega bo'lish bo'yicha, dunyoning boshqa hech qaysi bir mamlakatida uchramaydigan kafolatni berdi. Bundan tashqari, deyarli barcha hukumat hujjatlari jamoa mulkiga aylandi. Axborot erkinligi to'g'risidagi qonun tomonidan kafolatlangan, davlat hukumati organlari faoliyatining oshkoraligi, hukumat faoliyatini nazorat qilishga imkon beruvchi mutlaq yangilik bo'ldi.

Shvetsiya konstitutsiyasi 1809 yildan keyin ham, Finlyandiya Rossiya imperiyasi tarkibida bo'lgan davrda ham o'z kuchida qoldi. Finlyandiya mustaqillikni qo'lga kiritganidan so'ng, oshkoralik tamoyili axborot erkinligi to'g'risidagi qonunning tarkibiy qismi bo'ldi. Hozirgi kunda ushbu tamoyil, davlat hukumati organlari faoliyati oshkoraligini belgilaydigan qonunda batafsil ko'rsatilgan (oshkoralik to'g'risidagi qonun, 21.5.1999/621). Qonunning birinchi paragrafiga binoan, hukumat hujjatlari, agarda qonun bo'yicha boshqa narsa aytilmagan bo'lsa, jamoat uchun oshkoradir.

Ma'lumotlarning jamiyat uchun oshkoraligini parlament qonuni tomonidan chegaralanishi kerakligi talabi, ushbu chegaralashlar mamlakat fuqarolarining ko'pchilik qismi ma'qullashga tayyor

bo'lgan muhim sabablarga ko'ra bo'lishini kafolatlaydi. Ayni shu bilan, hukumat muassasasi yoki alohida olingan mansabdor shaxsga qarshi bo'lgan ma'lumot turi, shu kabi ma'lumotning oshkoraligiga to'g'anoq bo'lolmasligini kafolatlaydi. Shuningdek, axborotning erkinligi, davlat xizmatchilarining homiylik va diskriminatsiya holatlariga joy qolmagan o'z lavozimlarida to'g'ri faoliyat olib borishlari uchun garov vazifasini o'taydi. Ko'pgina xalqaro tadqiqotlarning natijalari bo'yicha, Finlyandiya eng kam korruptsiyaga moyil bo'lgan mamlakatlardan biri hisoblanadi.

Shuningdek, axborot to'g'risidagi qonun va tegishli qonunchilik tarkibiga, ma'lumot mahfiylikini saqlashni ta'minlash uchun shartlar ro'yxati ham kiritilgan. Ushbu shartlarning bir qismi hukumat manfaatlarini (masalan, davlat xavfsizligi, jinoyatning oldini olish) va ikkinchi qismi shaxsiy manfaatlar (masalan, bolani himoya qilish yoki shaxsiy hayotning daxlsizligi)ga aloqadordir. Bunga qaramasdan, Finlyandiya davlat organlari tomonidan qabul qilinadigan va alohida shaxslar yoki aholi guruhlariga taalluqli qarorlarning ko'pchiligi jamoat uchun oshkoradir. Masalan, jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar, jismoniy shaxslarning soliqqa tortiluvchi daromadlari haqidagi ma'lumotlar jamiyat uchun oshkoradir va ushbu ma'lumotlar gazeta sahifalariga tushib turadi.

Axborot erkinligi to'g'risidagi qonunga binoan, agarda mansabdor shaxs arizachiga u yoki bu hujjatni taqdim qilishdan bosh tortsa, u holda mansabdor shaxs rad qilish sababi asoslab berilgan rasmiy yozma javob taqdim qilishga majbur. Bunday qaror, da'vo mazmuni bo'lgan hujjatning oshkoraligi bo'yicha mustaqil qaror qabul qilishga vakolati bo'lgan ma'muriy sudda shikoyat qilinishi mumkin. Finlyandiyada hukumat hujjatlarining oshkoraligi sud organlarining qattiq nazorati ostidadir.

Bundan tashqari, fin ommaviy axborot vositalari ham axborot erkinligi tamoyilini ta'minlashni diqqat bilan kuzatishadi. Davlat organlarining OAV uchun axborotni cheklash harakatlari, suddagi da'voni ko'rib chiqish va matbuotda salbiy maqolalar chop etilishiga osongina olib keladi. Oxirgi yillarda sud tomonidan alohida davlat mansabdor shaxslarining xizmat harajatlari ro'yxatiga tushib qolgan tadbirlar o'tkazish va taksi harajatlari to'g'risidagi ma'lumotlar, shuningdek, o'quvchilarining bitiruv imtihonlarini topshirishlari

bo'yicha o'rta maktablarning ko'rsatkichlari kabi ma'lumotlarning oshkoraligi bo'yicha ijobiy qarorlar qabul qilindi.

Oshkoralik tamoyili Finlyandiyaning siyosiy hayotida ham bir qator vazifalarni bajaradi. U har bir insonga axborotlashgan jamiyat shart-sharoitlarida, fuqarolarning tengligini ta'minlashga eltuvchi ma'lumot olish huquqini kafolatlaydi. Oshkoralik tamoyili erkin fikr shakllanishini qo'llab-quvvatlaydi va demokratiyani ta'minlashda yordam beradi. Shuningdek, oshkoralik tamoyili ommaviy axborot vositalarining yuqori malakali faoliyatiga ko'maklashadi.

Oshkoralik tamoyili hukumat organlari faoliyati shaffofligining garovi sifatida xizmat qiladi. Hukumatning ochiq ekanligi ogoh yuridik himoyaning bir qismidir, ya'ni, oshkoralik tamoyili hukumat qarorlarining yuqori sifatli bo'lishiga va adolatni saqlashga ko'maklashadi.

Oshkoralik tamoyili hukumat faoliyati ustidagi fuqarolar nazoratining samarali vositasidir va u hukumat organlari tomonidan qarorlar qabul qilishda jamiyatning ta'sir o'tkazish imkoniyatlarini kengaytiradi. Oshkoralik tamoyili fikrlarning erkin shakllanishi va demokratik jamiyatni amalga oshirishga ko'maklashadi. Bularning barchasidan tashqari, u ommaviy axborot vositalari faoliyatining sifatiga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Oshkoralik tamoyili hozirgi jamiyatni axborotlashtirish asrida, hukumat organlariga o'z faoliyatlarida ma'lumotlarning samarali boshqaruvini tashkillashtirish talabini qo'yimoqda. Mansabdor shaxslar zimmasida ma'lumotlarning to'liqligi, aniqligi va boshqa axborot sifatiga ta'sir qiluvchi unsurlarni o'z ichiga olgan, hujjat va axborot bazalariga qulay ulanish imkoniyatlari, ulardan foydalanish va himoya qilish vazifalari yotmoqda. Boshqacha qilib aytganda, ma'lumotlarni faqatgina talab bo'yicha taqdim qilish yetarli emasdir. Hukumat organlari shunday qilishlari kerakki, unga har bir kishi chindan ham yeta olishi kerak. Bundan tashqari, rasmiy ma'lumot va hujjatlar majmuasi shunday shaklda tuzilishi kerakki, har bir fuqaro kerakli ma'lumotlarni osonlikcha o'zi topishi mumkin bo'lsin.

Oshkoralik tamoyili moslashtirilgan edi va ko'pgina boshqa sohalarda ham qo'llanilmoqda. U Shvetsiya va Finlandiyadan uzoq bo'lgan joylarga ham tarqaldi. Misol uchun, AQShda 1966 yilda axborot erkinligi to'g'risida qonun qabul qilindi. Vikipediya

ma'lumotlariga ko'ra, tegishli qonunlar dunyoning yuzdan ortiq mamlakatlarida qabul qilingan. Shvetsiya va Finlyandiya axborot erkinligi tamoyili Yevropa Ittifoqi organlarida ham amalga oshirilishi talabi bilan chiqdilar. Yevropa Ittifoqi bo'yicha Shartnomaga o'zgartirish kiritish to'g'risidagi Amsterdam shartnomasiga rasmiy hujjatlarning oshkoraligiga tegishli modda kiritildi. Ushbu moddaga asosan Yevropa Parlamenti va Yevropa Kengashi tomonidan, Yevropa Parlamenti, Yevropa Kengashi va Yevropa komissiyasining tayyorlagan rasmiy hujjatlari jamiyat uchun oshkora ekanligi to'g'risidagi rezolyutsiya (EY N:o 1049/2001) qabul kilindi. Shu yo'l bilan oshkoralik tamoyili Yevropa Ittifoqi qonunchiligining bir qismi bo'lib qoldi.

**Lasse Lextonen,**

*Xelsinki shahri va Uusimaa viloyati tibbiy hududining ma'muriy bo'lim bo'yicha bosh shifokori*

## **6. AHOLI SONI RO'YXATI**

Finlyandiyada XVI asrning o'zidanoq aholi soni ro'yxatini olib borishni boshlashgan. Aytib o'tish joizki, aholini ruyxatga olishni cherkov ham, davlat ham deyarli bir vaqtda boshlagan. Davlatning maqsadi birinchi o'rinda soliqqa tortish va harbiy xizmatga chaqirish bilan bog'liq bo'lgan. O'sha davrda Shvetsiya, o'zining sharqiy qismi bo'lgan Finlyandiyani ham qo'shganda aholisi kam bo'lgan va kambag'al davlat edi. Shu sababli ham yirik ma'muriy apparat va armiyani saqlab turish uchun harbiy xizmatga majbur bo'lgan va soliqqa tortiladigan aholi va uning mulki to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'lish lozim edi.

Aholi va uning mulki to'g'risidagi ma'lumotlar, yer bo'yicha va jon bo'yicha tuzilgan alohida kitoblarda saqlanar va muntazam yangilanib borar edi. Keyinchalik, jon kitobidan aholi soni ro'yxati, yer kitobidan esa ko'chmas mulk ro'yxati paydo bo'ldi.

Aholi soni ro'yxati bilan bir qatorda, lyuteran cherkovi tomonidan olib boriladigan ro'yxat ham bor edi va ushbu ro'yxatni tuzish jonlarni qutqarish talabidan kelib chiqqan edi. Cherkov ro'yxatidagi yozuvlar bir tomonda cherkovga keluvchi jamoat

to'g'risidagi ma'lumotlarni, ikkinchi tomonda esa hayotiy voqealar va ularga bag'ishlangan cherkov marosimlari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olar edi. Bularning barchasining natijasi sifatida, oilaviy munosabatlarni ham o'z ichiga olgan batafsil ma'lumotlar yuzaga keldi. Cherkov ro'yxatlarida to'planadigan ma'lumotlar, demografik ahvol va tuzilayotgan nikohlar bo'yicha ko'rinish olish uchun yetarli edi. Bu esa davlatning yer va jon kitoblarida yo'q edi.

XVIII asrda davlat, butun mamlakatdagi aholi bo'yicha aniq va batafsil ma'lumotlar kerak ekanligini his qilgan paytda, hukumat aholi bo'yicha ma'lumotlarni yig'ish harajatlarini o'z zimmasiga olishga harakat qilmadi. Shuning uchun ham cherkov jamolari, o'z aholisining o'zgarishi bo'yicha cherkov kitoblari asosida tayyorlangan ma'lumotlarini statistika Boshqaruvi ro'yxatiga kiritish uchun pul to'lashlari kerak edi. Aholi soni to'g'risidagi eng avvalgi ma'lumotlar, shu yo'l bilan cherkov kitoblaridagi ma'lumotlardan to'plangan edi. Sal keyinroq olib borilgan va aholi sonini yanada kengroq qamrovda ro'yxatga olish uchun asos shunday paydo bo'ldi.

Shvetsiyada yo'lga qo'yilgan aholini ro'yxatga olish jarayoni dunyodagi aholini ro'yxatga olish bo'yicha ilk loyiha emas edi. Bundan bir necha asr, hatto minglab yil avval Misr va Xitoyda aholini ro'yxatga olish o'tkazilgan edi. G'arb uchun eng tanish bo'lgan aholini ro'yxatga olish, Injilda qayd etilgan va milodning boshlarida imperator Avgustning buyrug'iga binoan o'tkazilgan soliq ro'yxati bo'lishi mumkin.

Bunga qaramasdan, Finlyandiya shved boshqaruvi davrida boshlangan aholini ro'yxatga olish, o'zining uzluksizligi nuqtai nazaridan noyobdir. U XVI asr o'rtalarida boshlangan holda, hanuzgacha to'xtamasdan davom etmoqda.

Ham cherkov, ham davlat tomonidan yuritilgan eski aholi sonini ro'yxatga olish kitoblarining keyingi avlod foydalanishi uchun saqlanib qolganliklari tufayli, ular ayniqsa, geneologiya sohasi va tibbiy tadqiqot loyihalari bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarida foydalanish uchun noyob va foydali manbalardir.

Aholini ro'yxatga olish kitoblaridagi yildan-yilga to'xtamay davom etayotgan ma'lumot to'planishi, uzoq vaqt davomida tarkibi

bo'yicha o'zgarmay qoldi. Bir necha asr davomida qo'l mehnati shaklida olib borilgan ro'yxatga olish jarayoni 1970 yillarda avtomatlashtirildi. Bundan tashqari, ayni o'sha payti cherkov ro'yxatidagi ma'lumotlar va davlat tomonidan mahalliy miqyosdagi ro'yxatlardan to'planadigan ma'lumotlar ilk bora yaxlitlashtirildi.

O'sha vaqtdan beri mamlakatimiz aholisi haqidagi ma'lumotlarni ro'yxatga olish avtomatlashgan holda davom etmoqda va davlat organlari bunday ma'lumotlarni aholi bo'yicha Milliy axborot tizimi orqali olishmoqda.

So'nggi qirq yil davomida axborot to'plash usullari uzluksiz mukammallashtirilmoqda. Ilgarigi vaqtlarda ma'lumotlar qog'oz so'rovnomalar orqali to'planar va ma'lumotlarni qog'ozdagi manbalardan ko'chirishga bir necha hafta sarflanar edi. Hozir esa, davlat xizmatlari va tashkilotlari tomonidan yuboriladigan deyarli barcha ma'lumotlar, Finlyandiya aholisi bo'yicha Milliy axborot tizimiga elektron shaklda kelib tushmoqda. Ma'lumotlarni ro'yxatga olish tezlashdi va ma'lumotlar odatda bir necha kundan keyin umumiy ro'yxatga tushmoqda.

Shuningdek, ma'lumotlardan foydalanish yo'llari ham kengaydi. Aholini hisobga olish ro'yxati avvalo davlat va hokimliklar ehtiyoji, birinchi o'rinda soliqqa tortish va harbiy xizmatga chaqirish uchun tashkil qilingan edi. Biroq, so'nggi vaqtlarda ma'lumotlardan ko'proq tijoriy maqsadlar uchun foydalanilmoqda. Hozirgi paytda aholi ro'yxati bo'yicha ma'lumotlardan foydalanish holatlarining yarmidan ko'prog'i aynan tijoriy maqsadlarga to'g'ri kelmoqda. Biroq, hanuzgacha ham hoh ular davlat organlari, hoh hokimliklar bo'lsin, davlat manfaatlari eng muhimi bo'lib qolmoqda.

Aholi to'g'risidagi Milliy axborot tizimidan keng miqyosda foydalanish uning sifati garovi hamdir. Axborot tizimidagi ma'lumotlardan foydalanish jarayonida, ma'lumotlar ichidagi xatoliklarni payqab qolish va ularni tuzatish ham mumkin. O'zining ham sifati, ham qamrovi nuqtai nazaridan, aholi to'g'risidagi fin axborot tizimi dunyoning eng ilg'orlari qatoridadir.

Har bir mamlakat o'z talablari va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda aholi ro'yxatini tuzadi. Shuning uchun ham bir mamlakatga mos tushgan tizim boshqasiga mos kelmasligi mumkin. Aholi ro'yxatini mukammallashtirish masalasida bir qator omillarni



e'tiborga olish zarur: mamlakatning iqtisodiy va texnologik imkoniyatlari, tarixi, qonunchiligi, qadriyatlar tizimi va madaniyatini.

Aholi ro'yxatida joylashgan va butun Finlyandiyaning o'z ichiga olgan axborot tarkibi o'zining keng qamrovli ekanligi bilan taassurot qoldiradi. Axborot bazasi mamlakatning har bir fuqarosi haqidagi aniq va e'tiborga loyiq ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Fuqaro to'g'risidagi eng muhim ma'lumot uning ismi va familiyasi, tug'ilish joyi va sanasi, hamda fuqaroligidir. Shuningdek, fuqaroning oilaviy ahvoli (turmush o'rtog'i, farzandlari va ota-onasi) va yashash joyi to'g'risidagi ma'lumot ham muhimdir.

Finlyandiya'dagi milliy aholi ro'yxatida har bir fuqaro uchun yagona identifikatsion raqam yaratilgan. Unga asosan bir xil sanada tug'ilgan va bir xil ismlarga ega bo'lgan fuqarolarni ham aniqlashtirish va farqlash mumkin. Aholi ro'yxatida tashkil qilingan identifikatsiya kodidan boshqa milliy tizimlarda keng foydalanilmoqda. Identifikatsiya kodi ro'yxatdan o'tish va axborot bazalaridan samarali foydalanishga imkon beradi. Identifikatsiya kodlaridan foydalanish axborot xavfsizligi tamoyillariga qattiq amal qilishni talab qiladi.

Zamonaviy aholi ro'yxati tizimi aholi ehtiyojlarini ishonchli va samarali usulda hal etishga imkon beradi. Misol uchun, statistika ma'lumotlarini tayyorlash, saylov o'tkazish, soliq yig'ish va ijtimoiy yordam choralarini belgilash davomida aholi ro'yxatidan foydalanish sezilarli darajada mablag'larni tejashga imkon beradi. Aholi ro'yxatidan foydalanish byurokratik jarayonlarning kamayishiga ham olib keladi. Davlat yoki hokimlik xizmatchisi aholi ro'yxatidan fuqaro to'g'risidagi ishonchli ma'lumotlarni olgan vaqtda fuqarolarning o'z zimmasidagi ma'muriy yuk kamayadi, ularning vaqtlari u yoki bu tashkilot yoki muassasaga murojaat qilgan paytlarida har safar bir xil ma'lumotlarni kiritishlari uchun sarflanmaydi.

Dunyodagi har bir mamlakat, o'zining aholisi va uning yashash holati bo'yicha ishonchli ma'lumotga ega bo'lish maqsadida muntazam ravishda aholini ro'yxatga oladi. Ko'pchilik mamlakatlarda aholini ro'yxatga olish har besh yoki o'n yilda amalga oshiriladi.

Odatda aholini ro'yxatga olish davomida ma'lumotlarni to'plash shunday usulda tashkillashtiriladiki, avvalo tegishli so'rovnomalarni ishlab chiqish, shaxsiy suhbatlarda so'rovnomalarni to'ldirish, so'rovnomalardagi ma'lumotlarni axborot bazasiga ko'chirish va statistik ma'lumotlarni olish uchun katta hajmdagi axborotlar majmuasini qayta ishlash jarayonini ishlab chiqadigan tashkilot yaratiladi.

Finlyandiyada aholini ro'yxatga olish jarayoni oxirgi yigirma yillar davomida shunday o'tkaziladiki, kerakli ma'lumotlar mavjud bo'lgan axborot bazalaridan to'g'ridan-to'g'ri olinadi. Ya'ni, ma'lumotlarni taqdim qilish uchun fuqarolar so'rovnomalarni to'ldirishlari shart emas. Finlyandiyada axborot bazalari va ro'yxatlarga asoslangan holda olib boriladigan aholini ro'yxatga olish jarayoni uchun, boshqa davlatlarda so'rovnomalarni qo'l mehnati yordamida to'ldirish orqali o'tkaziladigan odatiy aholini ro'yxatga olishga sarflanadigan mablag'larning ozgina qismi sarflanadi. Bundan tashqari, ma'lumotlarga tezkor yetishish imkoniyati ham ta'minlanadi.

Keng qamrovli va batafsil aholi ro'yxatining mavjudligi, har bir mamlakatdagi ko'pchilik davlat vazifalarini bajarish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ro'yxatning tarkibida muhim shaxsiylashtirilgan ma'lumotlarning mavjudligi sababli, uni ruxsatsiz kirishdan himoya qilish juda muhimdir. Bu esa axborotni muhofaza qilishni samarali tashkillashtirishni talab qiladi.

Axborotlarni muhofaza qilish tamoyillari qonunchilikda belgilab o'tilgan. Ma'lumotlardan foydalanishning ustidan nazorat qilish ham muhim ahamiyatga ega. Agarda ma'lumotlar o'zga qo'llarga tushib qoladigan bo'lsa, bu katta muammolarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun ham axborot muhofazasi faqatgina qonunchilik darajasidagina emas, balki ko'pgina boshqa sohalarda, misol uchun, texnika darajasida ma'lumotlarga ruxsatsiz kirishning oldini olish uchun ham keraklidir.

**Xannu Luntiala,**

*Aholini ro'yxatga olish Markazi direktori*

## 7. KOALITSION HUKUMATLAR

XX asrning boshida Buyuk Finlyandiya knyazligidagi to'rt tabaqali seym o'rniga parlament shakllangan paytda yagona va umumiy saylovlar uchun yangi qoidalar shakllantirildi. Finlyandiya ayollarning saylovda qatnashishi to'g'risidagi qaror birinchilar qatorida qabul qilingan bo'lsada, saylov qonunchiligi asosi sifatida biz boshqa mamlakatlar modellaridan foydalandik.

O'sha davrda mamlakatning siyosiy elitasidan bo'lgan Kaarlo Yuxo Stolberg va Robert Xermansonga Peterburgda o'tkazgan vaqtlari qanday ta'sir qilganligini tahlil qilish qiziq bo'lar edi. Ehtimol, ular anglo-sakson siyosiy tizimidan ko'ra ko'proq kontinental german-frantsuz falsafasiga yondosh edi. Ma'lum bo'lishicha, ta'lim olish davomidagi o'rganilgan til yakuniy qarorga o'z ta'sirini o'tkazgan.

Ovoz berish usulini tanlash hal qiluvchi omil bo'ldi. U hanuzgacha ham qo'llanilib kelinmoqda va ko'p partiyalikning paydo bo'lishiga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Saylov hududida bir nomzod o'z nomzodligini qo'yadigan ingliz ko'pchilik modeli umuman boshqa turdagi partiyaviy konfiguratsiyalarga olib kelar edi.

Fin partiyaviy tizimi bu yillar davomida rivojlanayotgan va o'zgarayotgan edi. Biroq uning tamal tuzilishi va ta'siri yetarlicha muqobil qolayotgan edi. Ularning o'ziga xos xususiyatlaridan biri shuki, Finlyandiyaning mustaqilligi davomida hech qaysi bir partiya biron marotaba ham parlamentdagi o'rinlarning ko'pchiligiga ega bo'lolmadi.

Parlamentarizm tamoyillari konstitutsiyada ko'rsatilgan va unga binoan mamlakat hukumati parlament ko'pchiligining ishonchidan foydalanishi kerak. Shunday qilib, hukumat a'zolari boshqa partiyalar bilan doimo hamkorlik qilishlari kerak. Kamchilik hukumatlari ham ittifoqdoshlarga muhtojdir. Malakali ko'pchilik to'g'risidagi qoidalar ham o'z ahamiyatini namoyon qildi.

Ilgarigi davrlarda hukumat almashinuvi tez-tez uchraydigan holat edi. yetmishinchi yillarning o'zidayoq sanab ko'rilganda, Finlyandiya mustaqilligi davomida almashgan hukumatlarning faoliyat muddati o'rtacha bir yilga teng bo'lgan. Ammo, oxirgi 25 yil ichida to'liq muddat davomida faoliyat yuritgan ko'pchilik

hukumatlari tashkil bo'lishgan Ushbu koalitsiyalarning ba'zilarida, mantig'i har doim ham aniq bo'lmagan g'oyalar kuzatildi.

Hukumat faoliyati uchun javobgarlikning, har holda o'z dasturlari bo'yicha bir-birlaridan uzoq bo'lgan partiyalar zimmasida ekanligi muhim omil edi. Finlyandiya Yevropaning boshqa mamlakatlaridagi kabi populist partiyalarni begonalashtirish kuzatilmadi. Finlyandiya oxirgi o'n yilliklar davomida ekstremistik harakatlarning bo'lmaganligini tan olish kerak.

1987 yilning bahorida prezident Mauno Koyvisto tomonidan sotsial-demokrat va tsentristlardan tashkil topgan va ko'k-qizil deb atalgan hukumat tashkil qilindi. Ushbu partiyaning yutuq va xatolarining tahlili alohida mavzudir, lekin u yanada demokratik va parlamentga ochiqroq hukumat siyosatiga yo'l ochib berganligini ham yodda saqlash lozim. Ushbu hukumatning vazifasi, partiyalar hamkorligi o'tmishdan kelib chiqqan holda emas, balki kelajakka yo'nalgan bo'lishi mumkinligini ko'rsatishdan iborat edi.

Deyarli 90 yil avval bizning mamlakatimiz, xalqning xotirasida qayg'uli xotiralari hamon saqlanib kelayotgan grajdanlar urushini o'z boshidan kechirdi. Bunga qaramasdan, milliy muammolarni yechishga bo'lgan harakat g'oyaviy kelishmovchiliklarni yengib chiqdi. Bu esa Finlyandiyaning barqaror rivojlanishi uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qildi. Shunday qilib, koalitsion hukumatlar finlar uchun siyosiy an'ana va jamoa faoliyatining markazidir.

**Xarri Xolkeri,**

*1987-1991 yillarda Finlyandiya Bosh vaziri*

## **8. TRIADA**

Triada Finlyandiya mehnat bozori modelining asosidir. U uchta eng muhim tarkibiy qismdan iboratdir: mehnat va tashkilotlar bilan kapital uchburchakning asosida joylashgan, uning cho'qqisida esa hukumat joylashgan. Bu uchburchak mehnat bozorida muzokaralar jarayonida qaror qabul qilish strategik triadasini tashkil qiladi. Triadaning strategik uchburchagida ish beruvchi, ishchilar va hukumat birgalikda strategik tanlovni amalga oshiradilar. Tomonlar

milliy iqtisodiyot va siyosat maqsadlari, shuningdek, ijtimoiy, moliyaviy va global siyosat maqsadlari bo'yicha kelishib oladilar. Buning natijasida yaxlit siyosiy qaror o'rtaga chiqadi. Qaror asosida kasaba uyushmalari muzokaralar olib boradilar va qonuniy ravishda majburiy bo'lgan mehnat shartnomasini imzolaydilar. Kasaba uyushmalari qarorlaridan kelib chiqqan holda, triadaning ta'siri ushbu ish joylarining talablariga binoan mehnat shartnomalari foydalaniladigan ish joylariga ham tarqaladi. Triadaning tashkil bo'lishi tarixi XX asrning boshlariga taqaladi. 1907 yilda ish beruvchi va ishchilarning markaziy kasaba uyushmalari tashkil qilindi va Ikkinchi Jahon urushigacha bo'lgan davrda sanoatning bir qator sektorlarida kasaba uyushmalar o'rtasida ikki tomonlama shartnomalar tuzildi. O'sha tajribani ijobiy deb bo'lmas edi va ish davomidagi ziddiyatlardan qochishning imkoni yo'q edi. Yanada samaraliroq modelni yaratish zarurati paydo bo'ldi.

Triada modeli Qish urushi bosimi ostida tashkil qilingan edi. 1940 yildagi «yanvar unashtirishi» orqali ish beruvchilar ishchilarning uyushganliklarini tan oldilar, ishchilar esa, o'z navbatida ish beruvchilarning mehnatni boshqarish va bo'lib berish huquqlarini tan oldilar. Hukumat ushbu «unashtirish» davomida quda va sovchi rolini bajardi. «Yanvar unashtirishidan» triada tug'ildi.

1945 yilda ilk uch tomonlama shartnoma tuzildi. Ish beruvchilar tomonidan Finlyandiya Markaziy ish beruvchilar ittifoqi vakil bo'lib qatnashdi. Ishchilar tomonidan Finlyandiya Markaziy kasaba uyushmalari ittifoqi vakillik qildi. Davlat esa narx va maoshlarni tartibga solish qonuni orqali kafolat beruvchi tariqasida qatnashdi. Ilk uch tomonlama shartnomalar istiqbolli edi. Biroq, urushdan keyingi yillarda ularning yordamida haqiqiy daromadlarning ortishi va tinch munosabatlarning saqlab qolinishiga imkon bo'lmadi. Muammolarga qaramasdan, tomonlar shartnoma natijalarining ijobiyligiga amin edi. Ayniqsa 1956-1977 yillardagi ittifoqlar bilan ikki tomonlama shartnomalar amaliyotiga qaytish harakatlari behuda ketganidan so'ng. Iqtisodiy, mehnat va sotsial-siyosiy tomonlar bo'yicha uch tomonlama kelishilgan tayyorgarlik yo'q edi.

1968 yildagi mehnat bozorida qiyin ahvol mobaynida yana uch tomonlama shartnomalarga e'tibor qaratildi. O'sha vaqtda daromadlarni tartibga solish siyosati bo'yicha ilk kelishuv - TUPO imzolandi. Ushbu kelishuvdagi tomonlar sifatida ishchilar, xizmatchilar, ta'lim va ilmiy birlashmalar manfaatlarini himoya qiluvchi ishchilar birlashmasi, shuningdek, xususiy biznes manfaatlarini himoya qiluvchi ish beruvchilar birlashmasi, hokimliklar va davlat qatnashdi. Ushbu model 40 yildan ortiq vaqt mobaynida ishlab kelmoqda. Negizida uch tomonlama kelishuvlar yotgan qarorlar yordamida Finlyandiya skandinavchasiga ijtimoiy farovonlik davlati modeli amalga oshirildi.

Turli xildagi mehnat bandligi shakllarining paydo bo'lishi, 2007-2011 yillar mobaynida ikki tomonlama modelning tajriba tariqasida foydalanish uchun qabul qilinishiga undadi. Buning natijasida raqobatbardoshlikni kuchaytirish va bandlik ko'rsatkichlarini oshirish bo'yicha qo'yilgan maqsadlarga erishmagan holda inflyatsiyaning o'sishi kuzatildi. 2012 yilda hukumatning kuchli bosimi ostida uch tomonlama modelga qaytish amalga oshirildi. Ikki yillik hadli bitim ishlab chiqildi: ishchilar va ish beruvchilar birlashmalari qabul qilinyotgan qarorning iqtisodiy ta'siri, kasaba uyushmalari ham hadli bitim asosida ish haqi miqdorining oshirilishi bo'yicha kelishib olar edi. Hadli bitim qoidalarini buzolmaydigan tafsilotlar ish joylarining o'zidayoq aniqlanadi va kelishiladi. Fin modeli - bu uch pog'onali va uch tomonlama qarordir.

O'zining samaradorligi bo'yicha fin modeli juda muvaffaqiyatli chiqdi. Uning ichida mamlakatning iqtisodiyoti, xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshlik, shuningdek, ijtimoiy rivojlanish e'tiborga olingan. Xalqaro iqtisodiy forum tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarga asosan, ushbu tizim Finlyandiya dunyodagi eng raqobatbardosh mamlakatlardan biriga aylantirdi. Yevropa Ittifoqi tomonidan o'tkazilgan taqqoslashga asosan, Finlyandiya dunyoda axborot texnologiyalarini ishlab chiqish va foydalanish bo'yicha birinchi o'rindadir. Triada tufayli ish joyida ta'lim olish tizimini rivojlantirish bo'yicha ham ijobiy natijalarga erishish mumkin bo'ldi. Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti tomonidan o'tkazilgan PISA (Programme for International Student Assessment) Xalqaro

talabalar ta'lim yutuqlari tadqiqotlari natijalariga ko'ra, Finlyandiyaning ta'lim tizimi yetakchi o'rinlardan birini egallamoqda.

Triadaning o'ziga xos xususiyatlaridan biri shuki, u jamiyatga ochiq va shaffof bo'lishga imkon beradi. Shartnoma bor ekan, demak, u bajariladi. Natijada ishonch darajasi ham oshdi. Mehnat bozori qatnashchilari bir-birlari va davlatning faoliyatlarini kuzatib turadilar. Bu Finlyandiyaning nima uchun eng kam korruptsiyaga moyil davlatlar qatorida ekanligiga ham izoh beradi. Triada yordamida ijtimoiy va mehnat qonunchiligi ishlab chiqilgan. Shuningdek, fuqarolarning teng huquqliligini ta'minlashda ham ijobiy natijalarga erishilgan. Topilgan keng qamrovli yechimlar, Finlyandiyaning iqtisodiy teng huquqlik masalalarida Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan taqqoslaganda ko'proq natijalarga erishganiga izoh beradi. Finlyandiya triada yordamida, Yevropada aholisi o'zini eng baxtlilar qatorida his qilayotgan, yetakchi ijtimoiy farovon mamlakatlardan biriga aylandi.

**Timo Kauppinen,**

*1999-2008 yillarda Yevropa yashash va mehnat shartlarini yaxshilash jamg'armasining ilmiy-tadqiqot ishlari bo'yicha Direktori*

## **9. AYOLLAR UCHUN OVOZ BERISH HUQUQI VA 40 FOIZLIK KVOTA**

Istalgan darajada va istalgan bosqichdagi qaror qabul qilish davomida gender masalalarini e'tiborga olish juda muhimdir. 1995 yilda Pekinda ayollar huquqlari inson huquqlari deb e'lon qilindi. Agarda ayolning qaror qabul qilishda qatnashish imkoniyati yo'q bo'lsa, demak ushbu huquqlar amalga oshirilishi mumkin emas.

Finlyandiyada siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonidagi ayollarning foizi nisbati ijobiy rivojlanish tendentsiyasiga ega edi. Siyosiy hayot uzoq vaqt mobaynida ayollar va erkaklar sohalariga bo'linar edi. Siyosatdagi ayollar sohalari bo'lib ijtimoiy siyosat, hamda sog'likni saqlash va ta'lim sohalari bo'lgan edi. Keyinchalik, ayollar odatda erkaklarniki deb hisoblangan siyosatning turli xil sohalari masalalari bilan ham muvaffaqiyatli

faoliyat yuritishdi. Misol uchun, ular bosh vazir, mudofaa vaziri va moliya vaziri lavozimlarini egalladilar. Amalda ayollar ham erkaklar kabi bilimdon mutaxassis va qaror qabul qilishda mutasaddi bo'lib chiqdilar. Navbatdagi maqsad iqtisodiyot sohasida ham ayollarning sonini oshirishdan iboratdir.

XX asrning boshlarida Finlyandiyaning ayollar harakati, ayollarga ovoz berish va saylovlarda qatnashish huquqini berish uchun kurashgan edi. Ayollar ishchi sinfi vakillari, 1905 yildagi ish tashlashni tashkillashtirishda qatnashgan edi. Ayollar saylovlardagi to'liq siyosiy huquqlarni yuz yil oldin, 1907 yilda qo'lga kiritdilar. Ayni o'sha paytda to'rt tabaqali seym, Yevropadagi eng demokratik bo'lgan bir palatali parlamentga aylandi.

Parlamentning ilk tarkibiga, barcha deputatlarning o'ndan bir qismini tashkil qilgan 19ta ayol-deputat kirdi. Ulardan to'qqiz nafari sotsial-demokratik va o'n nafari burjua partiyalarining vakillari edi.

Ayollar ovoz berish huquqidan faol foydalanmoqdalar va 1991 yildan boshlab saylovlarda erkaklardan faolroq ishtirok etmoqdalar. Davlat hukumati ayollar qo'lida to'plangan. Tarya Xalonen 2000 yilda to'g'ridan-to'g'ri saylovlarda prezident lavozimiga saylandi. 2006 yilda u ikkinchi muddatga qaytadan saylandi. Riitta Uosukaynen parlament spikeri vazifasidagi ilk ayol edi va ushbu lavozimni 1994-2002 yillar davomida egallab turdi. Anneli Yaatteenmyaki 2003 yilda bosh vazir lavozimidagi ilk ayol bo'ldi.

Ijtimoiy ta'minot va sog'likni saqlash vaziri Miyna Sillanpyaya, 1926 yilda Finlyandiya vazir lavozimidagi ilk ayol bo'ldi. 1990 yillarda vazirlik portfelini qo'lga kiritgan ayollar ulushi 40 foizdan oshdi va 2003 yilda Finlyandiya tarixida ilk marotaba, mamlakat hukumatidagi ayollar va erkaklar soni tenglashdi. Uzoq vaqt mobaynida deputatlar orasidagi ayollarning foizi ko'p emas edi. 1962 yilda ayollar deputat korpusining 13,5 foizini tashkil qilar, 2015 yilda esa ayollar nisbati deyarli 40 foizga bordi. Parlamentga saylov davomida o'z nomzodlarini qo'ygan ayollar ulushi kvota qilishsiz ham oshdi. Ayollar hokimlik saylovlarida ham faolroq ishtirok etishni boshladilar.

Finlyandiya 1995 yildan boshlab qaror qabul qiluvchi organlar faoliyatida gender kvotalari tamoyillaridan foydalanilmoqda. Asosiy qoida shundan iboratki, tenglik 40 foizni



tashkil qiluvchi minimal kvota bilan kafolatlanadi. Gender kvotasi degani, to'g'ridan-to'g'ri bo'lmagan saylovlar tizimi foydalaniladigan har bir organda, u yoki bu jins vakillarining ulushi 40 foizdan kam bo'lmasligi kerak. Misol uchun, ijtimoiy himoya qilish va sog'likni saqlash organlaridagi erkaklar soni 40 foizdan kam bo'lmasligi, texnik sohalardagi boshqaruv organlarida esa kamida 40 foiz ayol bo'lishi kerak. Ayollar va erkaklar hukumat yoki hokimlik korxonalari boshqaruvida, yuqori boshqaruv lavozimlarida, shuningdek, ichida ishonchli shaxslar kiritilgan boshqa boshqaruv va ma'muriy organlarda ham bir xil qatnashishlari kerak.

Hozirgi kunda hukumat tomonidan davlat korxonalari boshqaruviga tayinlanishdagi ayollar sonining foiz nisbati masalasi muhokamaga qo'yildi. Iqtisodiy masalalarni yechish davomida ayollar hanuzgacha kamchilik holatidalar. Bunga birjada ro'yoxatdan o'tgan xususiy korxonalarda ham e'tibor berish kerak. Ayollarning siyosiy qarorlarni qabul qilishda katnashishidan mamlakat iqtisodiyoti ham yutgan bo'lar edi.

**Tuula Xaataynen,**

*1995-2003 yillarda Gender tengligi masalalari bo'yicha komissiya raisi. 2003-2005 yillarda Ta'lim vaziri.*

*2005-2007 yillarda ijtimoiy masalalar va sog'likni saqlash bo'yicha Vazir, Gender masalalari bo'yicha Vazir*

## **10. KORRUPTSIYA BILAN KURASHISH**

Finlyandiya uzoq vaqt davomida korrupsiya darajasi eng kam bo'lgan oltita mamlakatning biri edi. 2017 yilda esa hatto birinchi o'rinda edi. Transparency International xalqaro tashkiloti turli xil mamlakatlarda biznes bilan shug'ullanayotgan tadbirkorlarning maxsus tajribalariga tayangan holda mamlakatlar ro'yxatini tuzib kelmoqda. Tajriba davomida qonunchilik, qonunga bo'ysunish va adolat samaradorligi tahlil qilinadi.

Ushbu tadqiqot usuli korrupsiyaning barcha ko'rinish shakllarini yoritmasa ham, u kundalik hayotdagi pora olish holatlarini samarali fosh etadi. Mamlakatning ushbu ro'yxatdagi

egallagan o'rni, qonunchilik va qonunga bo'ysunishning hozirgi kun talablariga to'liq mos kelishi, ma'muriy hukumat organlarining yetarlicha samaradorligi, jamiyat tamoyillarining adekvatligini yetarlicha batafsil izohlab beradi. Shu paytgacha qadar Shimoliy Yevropa mamlakatlarining ushbu ro'yxatdagi egallagan o'rinlariga da'vo qilinmagan. 2016 yilda o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, eng kam korruptsiyaga yo'liqqan mamlakatlar qatoriga Daniya, Yangi Zelandiya, Finlyandiya, Shvetsiya, Shveytsariya va Norvegiya kiradilar.

Finlyandiya'dagi korruptsiyani samarali cheklashni qanday usulda amalga oshirganmiz va buning siri nimada? Xalqaro faoliyatim davomida men bu savolni uzoqroq madaniyat vakillaridan tez-tez eshitishimga to'g'ri kelgan. Yevropada bizning ro'yxatda tutgan yetakchi o'rinlarimiz odatiy hol bo'lib tuyuladi.

Oddiy so'z bilan aytganda, ochiq boshqaruv ma'muriyati va rivojlangan shaffoflik omillari, o'zini o'zi boshqarish organlarining keng vakolatlari, politsiya va adliya organlarining aniq tuzilishi, shuningdek, hukumatning ustidan qat'iy nazorat ushlab turuvchi ommaviy axborot vositalari, boshqacha qilib aytganda, amaldagi so'z erkinligi obyektiv omillar bo'lib xizmat qiladi.

Korruptsiyaga qarshi bo'lgan kurashda mansabdor shaxslar tomonidan qaror qabul qilishdagi ochiqlik asosiy rolni o'ynaydi. U qabul qilingan qarorlarni baholash va ularni asoslab berish imkonini beradi. Misol uchun, Yevropa Ittifoqi pul oqimlarining bir qismi norasmiy «kulrang» kanallar orqali kelib tushadi va shubha uyg'onishiga sabab bo'ladi.

Korruptsiyaning oldini olishda ikkinchi muhim element bo'lib mahalliy organlarning jamiyat uchun ochiqligi xizmat qiladi. Hokimliklardagi hukumat ishonchli odamlarning qo'lida, protokollar olib borish va qarorlar qabul qilish esa ochiq bo'lgan vaqtda korruptsiyaga chek qo'yiladi. Misol uchun, qurilish ishlari bo'yicha loyihalash va shartnomalar imzolash vaqtida.

Hukumat faoliyatini nazorat qilishda finlarning mahalliy nashrlarni ham o'z ichiga olgan holda gazetalarning faol obunachilari va o'quvchilari ekanligi ham o'z afzalligini ko'rsatadi. Ma'muriyatning adekvatligi ustidan nazoratni amalga oshirishga

aholining savodxonlik darajasi, hamda kutubxonalarning rivojlangan tizimi ko'maklashadi.

Shuningdek, zamonaviy qonunchilik yordamida iqtisodiy jinoyatlarning oldini olish, soliqqa tortish ustidan yetarli darajada moliyalashtirilgan nazorat, jinoyatchilik bo'yicha malakali tergov va samarali faoliyat yurituvchi adliya instituti ham muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Finlyandiyada poraxo'rlikka qarshi kurashdagi asosiy urg'u ham ta'lim sohasida, ham politsiya, prokuratura va mustaqil sudlar sohalariga beriladi. Harakatlarning qonunga mos holda ekanligini arizalar asosida korruptsiyada gumondorlik bo'yicha ishlar bilan shug'ullanuvchi ombudsmen va huquqiy kantsler ham kuzatib turadilar.

2007 yilda Finlyandiyada yuz bergan va parlament saylovoldi kompaniyasining keng miqyosda noqonuniy moliyalashtirilishiga aloqador bo'lgan janjaldan so'ng, saylovoldi kompaniyalarini moliyalashtirish bo'yicha qonunchilik kuchaytirildi. Partiya va nomzodlar saylovoldi byudjetlari, saylovoldi kompaniyasining harajatlari va moliyalashtirish manbalarini chop etishga majburlar.

Finlyandiyadagi namunali qonunga itoatkorlikning tarixiy sababi 1809-1917 yillardagi muxtoriyat davrlarida paydo bo'ldi. Shved-fin tartib-intizomi chor hukumati va Rossiya tomonidan muntazam ravishda amalga oshirilgan bosimga qarshi holda qo'llab-quvvatlashga ega edi. Sudya va mansabdor shaxslarning pulga sotilmasligi va halolligi, shuningdek kuchli ma'naviyat tartib-intizom uchun kurashda almashinmas qurol bo'ldi. Qat'iy qonuniylik omillari mustaqil Finlyandiya hukumatining shakllanishida, shuningdek qonunga rioya qilish ustidan nazorat qilishda ham amalda bo'ldi.

**Yoxannes Koskinen,**

*1999-2005 yillarda Adliya vaziri,*

*2005-2011 yillarda Konstitutsion qonunchilik bo'yicha Qo'mita*

*Raisi,*

*2015 yildan buyon Yevropa taraqqiyot va tiklanish banki*

*Boshqaruvi a'zosi*

## 11. IKKI TILLILIK

Ikki tillilik, fin va shved tillariga rasmiy tarzda davlat tili maqomi berilgan mamlakat bo'lmish Finlyandiyadagi hayotning muhim tarkibiy qismidir. Ushbu ikki tilni yaxshi bilgan mamlakat fuqarolarining davlat hukumati va hokimlik organlari, hamda xususiy sektorda yaxshi ish joyiga ega bo'lish imkonlari bor.

Men doimo o'zimni ikki tilli deb hisoblaganman. Mening ona tilim shvedcha bo'lsa ham, bu menga Xelsinki shahridagi universitetda professor lavozimini egallashga va fin tilida dars berishga halaqit bermadi. Balkim, men qandaydir o'simlik va hayvon turlarining fin tilidagi nomini bilmadirman, lekin men tabiatshunos emasman va ba'zi vaqtlarda lotinchadagi qobiliyatlarimga murojaat qilishim men uchun kechirimlidir.

Eslatib o'tish joizki, hozirgi kunda Finlyandiyadagi til masalasi, nomutanosib ravishda ko'p sonli yetakchi lavozimlar, ona tili shvedcha bo'lgan odamlar tomonidan egallagan davr bo'lgan 1930 yillardagi talabalik davrimdagi kabi ahamiyatga ega emas. Ikkala tilni bilish bo'yicha talab, biroq bu talabga mos kelmaydiganlar eng avvalo o'zlarini ayblashlari lozim.

Bizning jamiyatimizda til bo'yicha ayrimchilik kuzatilmaydi. Bu oilalarida faqatgina fin yoki shved tillarida muloqot qiladigan, hozirda birinchi xorijiy til deb aniqroq qilib atalgan «ikkinchi milliy tilni» o'rganishlari keyinchalik qon va ko'z yoshlari bilan kechgan odamlarga taalluqlidir. Lekin, aslida ham ikki tilli bo'lgan, ota-onasining biri bilan fin tilida, ikkinchisi bilan esa shved tilida gaplashadigan va ikkala tilda ham bir xil va oson ravishda fikr yuritishi mumkin bo'lgan aholi bo'yicha holat qanday?

Belgiyada men o'zlarini ikki tilli deb hisoblaydigan insonlar bilan uchrashganman, lekin belgiyaliklarning qanchasi frantsuz yoki flamand tilida o'z ona tilidagi kabi so'zlashaolishi haqidagi aniq ma'lumot yo'qdir. Finlyandiyada esa hammasi boshqachadir. Bu yerda barcha fuqarolarning tug'ilganidan boshlab yo fin tilida, yoki shved tilida so'zlashishi ro'yxatga olinishi lozim. Chindan ham ikki tilli bo'lgan mamlakat fuqarolari esa o'z tanlovlarini qanday qilishadi?

Statistika professori Gunnar Fogshtedt ushbu masalalarni o'zining «Tilni tanlashga ta'sir qiluvchi ijtimoiy omillar» nomli kitobida muhokama qilgan edi. U birinchi til tanlovi, eng avvalo uch omilga asosan bo'lishi to'g'risidagi xulosaga keldi: ona tili, ta'lim olish tili va yaqin insonlari tili. Bundan tashqari, uning tomonidan bir necha boshqa omillar va albattaki, bir necha qoidadan tashqari hollar ham belgilab o'tildi.

Shunday qilib, agarda sizning onangiz fin tilida so'zlashsa va siz shved tilida so'zlashadigan aholining deyarli yashamaydigan Sharqiy Finlyandiyadagi maktabga borayotgan bo'lsangiz, u holda tug'ilganingizda fin tilida so'zlashuvchi sifatida ro'yxatga olinishingizning ehtimoli ko'proqdir. Ayni shunday ehtimol bilan siz shved tilida so'zlashuvchilar ro'yxatiga olinasiz, agarda onangizning ona tili shved tili, Finlyandiyaning janubiy-sharqiy sohilida, shved tilida so'zlashuvchilar soni umumiy aholining ko'pchilik qismini tashkil qiluvchi Tammisaari shahridagi maktabga borayotgan bo'lsangiz.

Kelajakda holat qanday rivojlanadi? Til chegaralarini buzib o'tuvchi nikohlar (menga "aralash nikoh" atamasi yokmaydi) soni ortmoqda, lekin bu ona tili sifatida fin tilining avtomatik tarzda tanlanishi deganimi? Men doimo buvimning fennoman (fin tili va madaniyatini rivojlantirish harakati) bo'lganini, otamning atigi yuz yil avval konstitutsionalistlarga yondashganligini va Shved xalq partiyasi a'zosi bo'lganini xushmuomalalik bilan eslatib turaman. O'sha paytlarda siyosat hal qiluvchi omil bo'lgan edi.

Bundan tashqari, fin tilida so'zlashuvchi aholining mamlakat janubiga ko'chishi natijasida jamiyat muntazam ravishda o'zgarimoqda. Tabiiyki, bu fin tili ta'sirining kengayib borishi nuqtai nazaridan foydalidir. Boshqa tomondan esa, jamiyatda borgan sari fin tilida ko'proq so'zlashilayotganligi omili, ota-onalarning o'z bolalarini shved tilini o'rganishlari uchun tilga sho'ng'ish sinflariga yoki ikki tillilikni rivojlantirish uchun shved maktablariga berishlari holatiga olib kelishi mumkin. Bu ikki omil bir-biriga tenglashtirilishi mumkin edi. Va nihoyat, globallashuvning ikki tillilikka qanday ta'sir o'tkazayotganligini e'tiborga olishimiz lozim. Bu savolga javob berish ancha murakkabdir. Avvalom bor, globallashuv sababli yoshlarning ingliz tili bo'yicha qobiliyatlari ancha yaxshilanmoqda.

Bundan tashqari, globallashuv boshqa tillarning ham o'rganilishiga ko'maklashadi: bitta xorijiy tilni bilish boshqa tillarni o'rganish jarayonini osonlashtiradi.

Bundan kelib chiqqan holda, xorijiy tilni o'rganish shved tilida so'zlashuvchilar uchun osonroqmi yoki fin tilida so'zlashuvchilar uchunmi? Ingliz va nemis tili bo'yicha bo'lgan hollarda ehtimol ha, lekin umumiy qilib olganda tillarni o'rganishga bo'lgan munosabat eng asosiy omildir. Ikki tillilik doimo yaxshi insoniy munosabatlar uchun boshlang'ich nuqta bo'lib qoladi.

**Yoran fon Bonsdorff,**  
*faxriy professor*

## **12. ALAND OROLLARI – FINLYANDIYANING AVTONOM HUDUDI**

Aland orollari va uning aholisi maxsus avtonom maqomga egalar. Orollarda Finlyandiyaning ayni shu nomli avtonom hududi joylashgan. Avtonomiyaning rasmiy tili shved tilidir. Aland orollari ushbu maqomga 1921 yildagi Aland inqirozidan so'ng ega bo'ldilar. Orollar maqomi xalqaro qonunchilik bo'yicha tasdiqlangan, biroq uning o'ziga xosligi Yevropaning muntazam ravishda o'zgarayotganligi sharoitida beqarorlikka olib kelishi mumkin. Shu sababli, Aland orollari aholisi Yevropaning hudud avtonomiyasiga hurmat bilan munosabatda bo'lishiga umid qiladilar, chunki ularni Yevropa Ittifoqi huquqlari himoya qiladi.

Aland orollari – Baltika dengizida Finlyandiya va Shvetsiya orasidagi Botnik ko'rfaziga kirish joyidagi arxipelagdir. Arxipelagning umumiy maydoni 6 784 kvadrat kilometrni va uning 80 foizini suv tashkil qiladi. Arxipelag umumiy maydoni 1 550 kvadrat kilometrni tashkil qiladigan va atigi 80tasida aholi yashaydigan 6 500ta oroldan iboratdir. Hozirgi kunda Aland orollari aholisining soni 26 000 atrofidadir. Shulardan 93 foizining ona tili shved tili, 5 foizi fin tili va 2 foizi boshqa tillardir. Aland orollarining shved tilida so'zlashuvchi aholisi, Finlyandiyaning jami shved tilida so'zlashuvchi aholisining 8,4 foizini tashkil qiladi.

Ohirgi 600 yil mobaynida, Aland orollari hudud uchun nima yaxshi ekanligi bo'yicha qaror qabul qiluvchi boshqa davlatlar hukmronligi ostida edi. Shvetsiya XIX asrning boshiga qadar Finlyandiyaning ustidan hukmron bo'lib yurdi. Aland orollari ma'muriy sabablarga ko'ra Finlyandiyaning tarkibi sifatida edi. Shved hukmronligi davri 1809 yilda, Finlyandiyaning Rossiya hukmronligi ostiga o'tganida tugadi. Rossiya hukmronligi 1917 yilda barham topdi. Shu vaqtga qadar Aland orollari Rossiya tarkibidagi Buyuk Finlyandiya knyazligi ichida edi. Shunga qaramasdan, shved tili ham, o'z madaniyati va hududning iqtisodiy tizimi ham saqlanib qoldi.

Aland inqirozi Birinchi jahon urushidan so'ng, Amerika Qo'shma Shtatlari prezidenti Uilsonning insonning o'zbelgilash huquqlari bo'yicha ta'limoti natijasida paydo bo'ldi. Aland orollari Finlyandiya tomonidan mustaqillikni e'lon qilinishigacha Shvetsiya bilan yana birlashmoqchi edi. Ularni Rossiyadagi beqaror holat xavotirga solar, shuningdek, shved tili va madaniyatiga xavf solishi mumkin bo'lgan Finlyandiyaning kuchli dominant holati qo'rquvga solar edi. Shuningdek, mustaqil Finlyandiyaning kommunistik davlat bo'lishi mumkinligi xavotiri ham bor edi.

Orollarni tamomila yo'qotishdan qo'rqqan holda, parlament 1920 yilning may oyida, hatto orol aholisi bilan muhokama qilmasdan turib, Aland orollari avtonomligi to'g'risida qaror qabul qildi. Biroq qonun inkor qilindi, arxipelag aholisi uni tan olishni hohlamadi va shu yo'l bilan Finlyandiya va Shvetsiya o'rtasidagi aloqalar ham keskinlashdi. Birlashgan Qirollikning tashabbusi bilan qaror qabul qilish, endigina tashkillashtirilgan Birlashgan Millatlar Tashkilotiga berildi va uning 1921 yilning iyun oyida qabul qilingan qarori Shoh Sulaymonning donoligini ko'rsatdi. Qaror barcha tomonlar uchun foydali edi: Finlyandiya Aland orollari ustidan hukmronlikni qo'lga kiritdi; Aland orollari avtonom maqomga ega bo'ldilar; Shvetsiya Aland orollarining demilitarizatsiya qilinganligi va betarafligidan mamnun edi. (65 innovatsiya)

Hozirgi kunda Aland orollari siyosati avtonomiya to'g'risidagi uchinchi qonun bo'yicha tartibga solinadi. Birinchisi 1920 yildan 1951 yilgacha, ikkinchisi 1952 yildan 1993 yilgacha amal qildi. Amaldagi qonun esa 1993 yilda qabul qilindi va hozirgi kunda

uning islohoti yana faol muhokama qilinmoqda. O'tmishdagi kunlardan farqli ravishda, hozirda arxipelag aholisi huquqiy demokratik jamiyat sharoitida o'z taqdirini o'zlari boshqarishga harakat qilmoqdalar. Finlyandiya parlamenti arxipelag hududida maxsus qonunchilik vakolatlariga ega bo'lgan Aland orollari Qonunchilik Assambleyasining roziligisiz Aland orollari avtonomligi to'g'risidagi Qonunga o'zgartirish kiritishi mumkin emas.

Finlyandiya tomonidan imzolangan va ratifikatsiya qilingan, avtonom hududga aloqador bo'lgan xalqaro kelishuvlarga, ular Aland orollari uchun qonun bo'lib qolishdan avval Assambleya tomonidan rozilik berilishi lozim.

Hududni boshqarish Finlyandiya hukumati va Aland orollari hukumatlarining birgalikdagi faoliyati orqali amalga oshiriladi. Avtonomiyadagi huquqiy normalarni bajarish, mamlakatning qonunchiligiga asosan davlat sudi orqali tartibga solinadi. Aland orollari aholisiga istiqomat huquqini beruvchi hujjat deb ham nomlangan o'z grajdanligi beriladi. Ushbu hujjat o'z egasiga imtiyozli siyosiy va iqtisodiy huquqlarni, shuningdek fuqarolarni harbiy xizmatdan ozod qiluvchi, amalda esa umuman harbiy majburiyatlardan forig' bo'lish kafolatini beradi.

Aland orollari 1970 yildan beri Shimoliy Kengash a'zosi va Parlament Assambleyasi, hamda Vazirlar Kengashining yig'ilishlariga qatnashish huquqiga egalar. Finlyandiya 1989 yilda Yevropa Kengashi a'zosi (va nihoyat) aylangan vaqtda, Aland orollari Qonunchilik Assambleyasi inson huquqlari bo'yicha Yevropa standartlarining orollarda ham amal qilishi mumkinligini bildiruvchi o'z roziligini berdi.

Aland orollari Finlyandiyaning Yevropa Ittifoqiga kirishi bo'yicha muzokaralarda ham qatnashdilar. Biroq, 1921 yilda Millatlar Ligasi bilan bo'lgan holatdan farqli o'laroq, Aland orollari avtonomiyasi vakillari muzokaralarda avtonomiya to'g'risidagi Qonunning talablaridan kelib chiqqan holda Finlyandiya delegatsiyasi tarkibida qatnashdilar. Avtonomiyada ikkita referendum o'tkazilganligi va Qonunchilik Assambleyasining roziligidan so'ng, Finlyandiya hukumati Yevropa Ittifoqini tashkil qilish Shartnomasi, ko'mir va po'lat bo'yicha Yevropa Ittifoqi va atom energiyasi bo'yicha Yevropa hamjamiyati qoidalarining, Yevropa Ittifoqiga Avstriya,



Finlyandiya va Shvetsiyaning kirishi bo'yicha Qonunning 2-Protokolida ko'rsatilgan qoidalarga asosan Aland orollari avtonomiyasiga ham qo'llanilishini bayon qildi.

Bu hodisa 1995 yilning 1-yanvarida yuz berdi.

Avtonomiya to'g'risidagi Qonunga binoan, Finlyandiya va Aland orollari o'rtasidagi qonunchilik hukumatining bo'linganligi tufayli huquqni muhofaza qilish faoliyatidagi kamchiliklarni aniqlashda hech qanday rasmiy yechimlarga ega emasligiga qaramasdan, Finlyandiya Yevropa Ittifoqi a'zosi sifatida Aland orollari hududida Yevropa Ittifoqi qonunchiligining amalga oshirilishi bo'yicha javobgardir. Ushbu vaziyat Finlyandiya va Aland orollari hukumatlari orasida, Finlyandiyaning Yevropa Ittifoqida 2006 yilning ikkinchi yarmidagi prezidentligi davrida kuzatish mumkin bo'lgan yanada yaqinroq munosobatlarning rivojlanishiga olib keldi.

**Gunnar Yansson,**

*1983-2003 yillarda Aland orollarining Finlyandiya  
Parlamentidagi deputati*

### **13. SAAMLAR**

Saam xalqi hozirgi Finlyandiya hududida ko'hna zamonlardan buyon yashagan. Boshqa xalqlar tomonidan lo'par deb nomlanadigan xalq vakillari, o'zlarini saam tilidagi so'z – saamlar deb ataydilar. Saam xalqiga mansublik avvalo til va madaniyat asosida belgilanadi. Saam xalqiga mansublik madaniy guruhga mansublik sifatida belgilanadi. Ushbu etnik guruhga mansublikni ham, boshqa etnik guruhga mansublikni ham irqiy belgilardan kelib chiqqan holda belgilashning iloji yo'q. Saam xalqi tub aholidir, faqatgina lingvistik yoki etnik ozchilik emas.

Finlyandiyada yashaydigan tub aholi hisobida bo'lgan saamlar konstitutsiyaga binoan 1973 yildan buyon saamlar parlamenti boshqargan, 1996 yildan esa xalq kengashi tomonidan boshqarilayotgan madaniy o'zini o'zi boshqarishga egalar. 21 a'zo saylovlarda to'rt yil muddatga saylanadilar. Xalq kengashi saam xalqi huquqlarining saqlanishini nazorat qiladi va ularning maqomi bilan yuz berayotgan o'zgarishlarni kuzatib turadi. Kengash a'zolari parlamentga takliflar beradilar va yangi tashabbuslarni ilgari

suradilar. Shuningdek, saamlarning umumiy boyliklaridan foydalanish bo'yicha qarorlar qabul qiladilar.

Tub aholi tushunchasi xalqaro sud tomonidan belgilangan. Tub aholi o'zi yashayotgan mamlakat bilan chambarchas bog'liq. Shuningdek, ular saqlanib qolgan va ko'p yillar mobaynida faoliyat yuritayotgan, shulardan bir misol tariqasidagi qishloq kengashi, kabi o'z boshqaruv institutlariga ham egalar. Tub aholi huquqlari ijtimoiy, xalqqa oid huquqlar toifasiga kiradi. Ayni vaqtda ozchilik huquqlari esa shaxsga oid toifasidandir. O'zbelgilash huquqi tub aholiga tegishli bo'lgan huquqlarning muhimidir. Finlyandiya konstitutsiyasida saamlarning tub aholi sifatida tan olinganliklariga qaramasdan, finlarning saamlarga bo'lgan tub aholi sifatidagi munosabatlari har doim ham aniq emasdir.

To'rtta davlat hududida saam xalqining jami 100 000 vakili istiqomat qiladi. Ularning yarmidan ko'proq qismi Norvegiyada, qolganlari esa Shvetsiya, Finlyandiya va Rossiyada yashaydi. Saam xalqiga mansublik har bir mamlakatda har xil yo'l bilan aniqlanadi. Shuning uchun aholi ro'yxatidan aniq ma'lumotlarni olish anchagina mushkuldir. Saamlarning yarmi Finlyandiyada asli o'zlariga tegishli bo'lgan Inari, Enontekie, Utsyoki yoki Vuotso viloyatidagi Sodankyula hududlarida yashaydilar.

Saam dialektlari jami o'ntagachadir va Finlyandiyada ularning uchtasida so'zlashiladi: shimoliy, skold yoki kolt-saam va inari. Inari – eng yirik bo'lgan lapland hokimligidir. Ushbu hudud aholisi birvarakayiga to'rtta tilda so'zlashadilar: hududning shimoliy saam shevasidagi nomi Anar, inari shevasida Aanaar, kolt-saam shevasida esa Aanar deb talaffuz qilinadi. Finlyandiyada istiqomat qiluvchi saam xalqi vakillarining taxminan 70% so'zlashadigan shimoliy saam shevasi, til egalari soni jihatidan eng ko'p tarqalgandir. Ayni shu shevada Shvetsiya va Norvegiyada ham so'zlashishadi. Saam shevalari bir-biridan anchagina farq qiladi. Har xil sheva egalari bir-birlarini arang tushunadilar. Katta yoshdagi saam aholisining ko'pchilik qismi o'z ona tilida yozishni bilmaydi va bu holat oldingi avlodning maktablarda ko'pchilikning tili, ya'ni fin tilida ta'lim olganligi bilan izohlanadi. Shunga qaramay, saam yozuvi 400 yildan beri mavjuddir.

Finlyandiya da saam tillari maqomini qonunchilik orqali kuchaytirish harakatlari olib borilmoqda. Qonunga binoan, saamlar o'zlari yashaydigan manzillarda hujjatlarni o'z ona tillarida yuritish huquqiga egalar. Ammo mansabdor shaxslar odatda saam tilini bilishlari shart emas. Ular tarjimonlar xizmatlaridan foydalanishlari mumkin.

Bug'u boqish, ov qilish va baliqchilik saamlarning an'anaviy mashg'ulot turlaridir. Saamlar doimo tabiat boyliklaridan yirtqichlarcha foydalanishga qarshi chiqqanlar. Saamlar madaniyatida tabiiy resurslar eng muhim o'rin tutadi. Ulardan shaxsiy maqsadlarda ortiqcha foydalanish yoki yo'q qilishga ijozat berilmaydi. Misol uchun, shimol bug'usi yagel bilan oziqlanadi va o'rmon chizig'ining har ikkala tomonida ham iqlimga yaxshi moslashadi. O'rmonlardan muntazam ravishda foydalanish, o'rmonlarni ochiq kesish o'simlik qoplamini shikastlaydi va bug'ularning asosiy ozuqasi bo'lgan yagelni yo'q qiladi. Bu esa qo'shimcha ozuqalantirish talabini va qo'shimcha harajatlarni keltirib chiqaradi.

Bugungi kunda saam madaniyati anchagina parchalanib ketgan. Tezkor assimilyatsiya jarayoni yuz bermoqda. Fin faylasufi Olli Lagerspettsning aytishicha, mamnun tub aholi kolonizatsiyadagi dominant madaniyatning muvaffaqiyat belgisidir, ayni vaqtda norozi tub aholi kolonizatsiya va assimilyatsiyaning yakunlanmaganligi, shuning uchun ham davom etishi kerakligidir. Finlyandiya nuqtai nazaridan faqatgina saam-bug'uchilari o'rmonlarni yo'q qilishga qarshi chiqqanlardandir. Bu esa, ularga o'z madaniyatlariga xos bo'lgan asosiy qadriyatlarni saqlab qolishga yordam berdi.

Finlyandiya hukumati xuddi saamlarni mamlakatning asosiy aholisi bilan assimilyatsiya qilishga hali ham harakat qilayotgandek tuyuladi. Har holda, bu bo'yicha saamlarning tub aholi sifatidagi holati va ularga tegishli huquqlarni amalga oshirish yuzasidan fikr yuritish mumkin. Assimilyatsiya jarayonini tugatish va Finlyandiyaning boshqa hududlariga migratsiya tendentsiyasini to'xtatish uchun saam parlamenti, faoliyati tarkibiga zamonaviy yashash tarzi va o'z qadriyatlarini saqlab qolish maqsadida an'anaviy madaniyat kiritilishi mumkin bo'lgan madaniy markaz

yaratish loyihasini ishlab chiqdi. Shimoliy hududlar universitetlari hamkorlikda qatnashishga, shuningdek markazning faoliyatiga ta'lim berish va tadqiqot faoliyatini kiritishga va'da berdilar.

Finlyandiya hukumati madaniy markazga assimilyatsiya jarayoniga to'sqinlik qiluvchi omil sifatida to'g'ri baho berdi va balkim shu sababli ham markaz qurilishini moliyalashtirishga shoshilmadi. Shunga qaramay, saamlar o'z madaniy qadriyatlariga asoslangan jamiyat qurishga harakat qilmoqdalar.

**Pekka Aykio,**

*1996-2008 yillarda Saamlar xalq kengashi raisi*

## **FUQAROLIK JAMIYATI**

### **14. JAMOAT TASHKILOTLARI MAMLAKATI**

Hozirgi kunda Finlyandiyada mamlakat umumiy aholisining 4/5 qismi qatnashadigan 90-100 mingta tashkilotlar faoliyat yuritmoqda. Ulardan ko'pchiligi birvarakayiga bir necha tashkilot a'zosi. Boshqa shimoliy mamlakatlarning aholisi kabi finlar ham ijtimoiy faoliyatda faol ishtirok etishadi va ushbu ko'rsatkich bo'yicha dunyoda yetakchi o'rinlardan biridalar. Vaqt o'tgan sari o'sish ko'rsatkichi kamaygani yo'q, 1996-2016 yillarda 53 mingdan ortiq yangi tashkilotlar tashkil etildi. Jamoat tashkilotlari va birlashmalari instituti juda tez yangilanmoqda, 2017 yilning boshida jamoat takilotlari ro'yxatidan 35 mingta faoliyat yuritmaydigan tashkilotlar olib tashlangan edi. Ularning ko'pchilik qismi siyosiy tashkilot va harakatlar, tashkilot va harakatlarning so'lib borayotgan chekka qishloqlardagi filiallari, yo'qolib ketayotgan kasb va hunarmandchilik birlashmalari, shuningdek, yangi hordiq chiqarish shakllari tomonidan siqib chiqarilgan an'anaviy qiziqishlarga oid aholi birlashmalaridir.

Jamoat tashkilotlarining tashkil bo'lish tarixi tomirlari bilan XIX asrning ikkinchi yarmiga borib taqaladi, agarda undan ham erta bo'lmasa. Sog'lom hayot tarzi tarafdorlari harakati, ishchilar xalq harakati, yoshlar birlashmasi harakati va kooperativ harakati kabi «progressiv jamoatlar» uyushgan jamiyat doirasida harakat olib borgan vaqtlarida turli xildagi joriy masalalarni va o'zlarining kim ekanliklarini namoyish etish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Ularda ziyolilarning millat va davlatni qurish va xalqaro tushunchalarga ko'ra ijtimoiy sinflarga bo'linganligi bilan juda farq qilgan jamiyatni shakllantirish harakatlari bir markazga to'plandi.

Mamlakatning siyosiy apparati qaltis vaziyatda qolgan paytda jamoat tashkilotlari siyosiy masalalarni o'z zimmalariga oldilar. Ular ko'pgina guruhlarning jamiyat bilan aloqalarini ma'lum bir ma'noda ifodalaydigan ovozi bo'ldilar. 1906 yildagi umumxalq va teng saylash huquqining tan olinishidan so'ng partiyalar tizimi va tashkilotlar madaniyati yuzaga keldi. Ayollar, yoshlar, o'spirinlar va

nafaqaxo'rlar tashkilotlari, sog'lom hayot tarzi tarafdorlari harakatlari, madaniy va ta'lim faoliyati, aktyorlar klublari va xorlar, sport jamiyatlari va professional faoliyatlar partiya tashkilotlariga birkittilar. Ushbu holat avvalo agrariy-tsentristlarda, sotsial-demokratlarda va keyinchalik xalq demokratlari harakatlarida yuz berdi.

Biroq, hamma tashkilotlar ham biron-bir yirik g'oyaviy yoki siyosiy guruhga mansub emas edi. Urushlar bo'lgan davrlarda ishchilar nafaqat o'z partiyalari uchun ovoz berishar, balki o'z tashkilot va korxonalarida o'qish, musiqa bilan shug'ullanish, kundalik tovarlarni xarid qilish va pullarini saqlash bilan ham shug'ullanishar edi. Ikkinchi jahon urushidan so'ng xalq demokratik partiyasi faoliyati paydo bo'ldi. 60-70 yillarning o'zidayoq, asr boshining ko'pgina ijtimoiy-siyosiy mavzulari yangi xalqaro masalalar bilan bir qatorda kun tartibiga tushib qoldilar va ko'ngilli tashkilotlar tomonidan qo'llab-quvvatlandilar. Har yili yuzlab yangi so'l tashkilotlar, yoshlar tashkilotlari, madaniyat sohasidagi tanqidchilar birlashmalari, do'stlik jamiyatlari va rivojlanayotgan mamlakatlarga ko'maklashish tashkilotlari tashkil qilindi.

Lekin, 70-yillarning oxiridan boshlab sinflar va guruhlarga asoslangan tashkilotlar faoliyati kamayishni boshladi. 80-yillarda a'zolari turli xil manfaatga ega, siyosiy g'oyalar bilan bog'lanmagan jismoniy shaxslar bo'lgan tashkilotlar faol ravishda tashkil qilinib bordi. Kelgusi o'n yillikda bu yo'nalish kuchayib bordi. 90-yillarning o'rtalarida tashkil qilingan tashkilotlarning beshdan uch qismi turli xildagi madaniy va sport tashkilotlari edi. Ularga odamlar o'zlarini ilgari g'oyaviy-siyosiy tashkilotlari davridagidan ko'ra anchagina kamroq baxshida etdilar.

Sport to'garaklari, mototsiklistlar klubi yoki it va mushuk egalari klublari «xususiy madaniyat»ga kiradilar. Yoshlar vatanparvarlik jamiyati yoki biron-bir g'oyaga yo'naltirilgan ayollar tashkilotiga a'zolikda esa a'zolar yanada kattaroq mafkuraviy butunlikka jalb qilinadi. Shuning uchun ular a'zolari jalb qilish bo'yicha kompaniyalarni odatda tashkil qilmaydilar va kamdan-kam hollardagina biron-bir davlat markaziy tashkilotiga aloqador bo'ladilar. Faoliyatlari xalqaro modellar yoki yaqin atrofdagilar, odamlarning OAVdagi ma'lumotlar orqali kirmaydigan va ijtimoiy

faoliyatning keng maydonida yoki ijtimoiy tarmoqlarda kompaniyalar olib bormaydigan «o'z shaxsiy metodlari»ga asoslanadi. Eski tashkilotlar bilan taqqoslaganda, yangi tashkilotlar faoliyati qisqa muddatli yoki kamroq doimiy deb tushuniladi. Shuningdek, ular hajm jihatidan uncha katta emas va a'zolarining aloqalari «engilroq» edi. Ularning faoliyati ishlab chiqarish masalalari yoki mehnat bozorida vaziyatdan ko'ra ko'proq odamlarning shaxsiy manfaati va qiziqishiga asoslanar edi. Yangi tashkilotlarning ko'pchilik qismi o'z atrofidagi dunyoni emas, balki a'zolarining ichki dunyosini o'zgartirishga harakat qilgan edi.

Bunday rivojlanish tashkilotlar faoliyatini «siyosatdan tashqariga» qo'ydi. Tashkilot faoliyatiga faqatgina inson shaxsiyatining kichik bir qismi bog'langan paytda, bundan siyosatga yo'nalgan ommaviy ishtirok rivojlanishi mumkin emas. Misol uchun, to'pli xokkey jamiyatidagi a'zolik sport yurishi jamiyatiga a'zolikni taqiqlamaydi. Oldingi davrda esa skautlar tashkiloti a'zosi bir vaqtning o'zida pioner klubining ham a'zosi bo'lolmas edi. Boshqa insonlarning muammolaridan yuz o'girish osondir, agarda ularni ilgari tashkilotlarning kuchli madaniyati mavjud bo'lgan vaqtlardagi kabi umumiy tajribalarga asoslangan aloqalari birlashtirmasa.

Bunga qaramasdan, Finlyandiya tashkilotlarida haligacha ham siyosiy salohiyat mavjuddir. Tashkilotlar faqatgina hanuzgacha faoliyat yuritayotgan fin ijtimoiy faoliyatining katta yo'li bo'libgina qolmay, ularning doirasida tanqid madaniyati va yangi siyosiy g'oyalar ham yuzaga kelmoqda. Ko'ngilli faoliyatning anchagina qismi tashkilot shaklini olib bo'ldi. Hozirgi kunda ko'pgina muhim harakatlarning ro'yxatga olingan tashkilotlar doirasiga kirmaganliklari yangi davrning misoli bo'lishi mumkin. Ushbu holat, ham tashkilotlar faoliyatining zamonaviy siyosiy befarqligini, ham ijtimoiy faoliyatdagi tashkilotlar an'analariga bo'lgan shubhalarni ta'kidlab o'tadi. Inson guruhlari manfaatlarini ifodalash faoliyati o'rniga ularda qisman bo'lgan harakatlar va uyushganlikning kuchsiz shakllari mavjud.

2000 yillarda jamoat tashkilotlarining an'anaviy ko'rinishiga muqobil bo'lgan, Internet tarmog'idagi o'zini tashkil qilishning yangi virtual shakli shakllandi. Bunday tashkiliy shakllar ular atrofida

tuzilayotgan qiziqishlar kabi mustahkam jamoaviy o'ziga xoslikning shakllanishi qiyinligini ko'rsatishi mumkin. Shuningdek, ular prognozlash va birlashishning korporativ xususiyatlariga asoslangan boshqaruv shaklidan, ularga kutilmaganlik, siyosiy va jamoaviy tebranishlar xos bo'lgan fuqarolik jamiyati va siyosiy tashkilot shakliga o'tishni ham ko'rsatishlari mumkin. Internet tarmoqlaridan ijtimoiy faoliyatning yangi raqobatbardosh ko'rinishi paydo bo'lishi mumkinligi yoki bo'lmasligini kelajak ko'rsatadi.

**Risto Alapuro, Martti Siisiaynen,**

*Xelsinki va Yuvyaskyulya shaharlari universitetlarining professorlari*

## **15. SHAHAR JAMOAT HAYOTINING YANGI MADANIYATI**

2010 yillarda Finlyandiyada va ayniqsa Xelsinki shahrida, internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali Finlyandiya tashqariga ham tarqalib ketgan yangi shahar madaniyati shakllandi. Ushbu holatning yangi bo'lishiga qaramay, jamoa ichida ishlash va shanbaliklarda qatnashish fin madaniyati tarkibiga ancha oldinroq kirib kelgan. Ushbu an'ana urbanizatsiya jarayoni davomida qisman yo'qolib ketdi, lekin ko'rinishi o'zgargan shaklda yana paydo bo'ldi. Fin shaharlari o'zlarining qisqa vaqt davomidagi mavjudlik tarixi va kichik o'lchamlari tufayli hayotning aynan shahar tarzi bilan farqli bo'lmadilar, lekin keyingi yillarda urbanizatsiya jarayoni va shahar madaniyatining shakllanishi keskin ravishda faollashdi. Ushbu jarayonning o'rnak bo'luvchi xususiyati shundaki, uning harakat kuchi jamiyatning o'zidir.

Shahar madaniyatining eng mashhur namunaviy misoli, 2011 yilda alohida shaxslarning tashabbusi bilan ilk marotaba amalga oshirilgan Restoranlar kunidir (Ravintolapäivä). Ushbu tadbirning g'oyasi shundan iboratki, har qaysi inson ma'lum bir kunda faqatgina bir kun davomida faoliyat yuritishi mumkin bo'lgan o'z restoranini ochishi mumkindir. Restoranlar kuni tagzaminida vaqtni qiziqarli o'tkazishdan tashqari yana umumiy ovqatlanish korxonasini ochishga aloqador qiyinchiliklar bo'yicha tanqidiy kayfiyatlar ham yotmoqda. Avvaliga Restoranlar kuni mansabdor



shaxslarning roziligisiz paydo bo'lgan bo'lsa ham, u juda qisqa vaqt ichida hukumat e'tirofiga sazovor bo'ldi. Yiliga to'rt marotaba o'tkaziladigan Restoranlar kuni Finlyandiyada tezda mashhur bo'lib ketdi va hatto uning tashqarisida, ayniqsa Rossiya va Markaziy Yevropa mamlakatlarida ham tarqaldi.

2012 yilda ilk bora juda tez mashhur bo'lib ketgan boshqa bir tashabbus – Tozalik kuni amalga oshirildi. Yiliga ikki marotaba mamlakat bo'yicha o'n minglab odamlar foydalanilgan tovarlarni sotish yoki xarid qilish uchun ko'cha va parklarga chiqadilar. Ushbu holat boshqa mamlakatlar qatorida Yaponiyada ham tarqaldi.

2010 yillarda shahar hayoti faollashuvining yana bir to'liqini boshlandi. Hammasi 2011 yilda Kallio (Xelsinki tumanlaridan biri) tumanini obodonlashtirish maqsadida tashkil qilingan «Kallio Harakati» tufayli boshlandi. «Kallio Harakati» shaklli birlashma emas va uning boshqaruvi yo'qdir. Shunga qaramay, ushbu harakat ijtimoiy tarmoqlar tufayli o'zi tashkil qilayotgan faoliyatga juda ko'p sonli ko'ngillilarni jalb qilishga va boshqa tadbirlar qatorida, Kallio shahri ko'chalarida 20 mingda ortiq odamni to'plagan Kallio tumani bayramini (KallioBlockParty) o'tkazishga muvaffaq bo'ldi. «Kallio Harakati» va Kallio tumani bayrami Finlyandiya bo'yicha shunday tashabbuslarga namuna bo'ldi.

Resurslarni tarqatish va ulardan foydalanish bo'yicha yangi innovatsion yondashuv shahar sharoitidagi ijtimoiy hayotning yangi shakllariga xosdir. Endilikda har bir kishi shahar hokimligiga tegishli joylardan foydalanish imkoniga ega va ayni vaqtda, xususiy egalikda bo'lgan xona va binolar jamoaviy xususiyatlarga ega bo'ladi. «Ijodiy mehmonxona» (Olohuonenäyttely), uy teatrlari festivali, shuningdek, saylovlar arafasida tashkillashtiriladigan muzokaralar chodir-mehmonxonalarini Bunday o'zgarishlarga misoldir. 2016 yildan buyon Helsinki shahrida tashkil qilinadigan, uning davomida oddiy odamlar, firma va jamoat tashkilotlari o'z saunalari eshiklarini ochadigan va har bir kishi ushbu taklifdan umuman bepul foydalanishi mumkin bo'lgan Sauna kuni ham yana bir misoldir.

Yangi shahar madaniyatini shakllantirish negizida ko'pgina omillar yotmoqda va ulardan eng muhimlari yangi texnologiyalardir: ijtimoiy medianing keng tarqalishi, undan foydalanish imkoniyatlari

bo'lmaganida, loyihalarning sezilarli qismi hech qachon amalga oshmagan bo'lar edi. Ilgarigi vaqtlarda bir necha kunlar yoki haftalarda bajarilgan axborot ishlariga endilikda Feysbukdagi bitta postning o'zi kifoya bo'lishi mumkin.

Biroq, ijtimoiy medialar rivojlanishning yagona omili emaslar. Ushbu jarayonning qoq markazida Finlyandiya uchun xos bo'lgan va jamoat faoliyati suyangan tenghuquqlilik muhiti yotmoqda. Finlarning boshqa insonlarga bo'lgan yuqori darajadagi ishonchining ham ahamiyati kam emas. Buning natijasida odamlarning ko'pchiligi ko'chadagi ochiq osmon ostida ishlayotgan vaqtinchalik restoranda taom harid qilish yoki umuman begona bo'lgan odamlarga o'z uyi eshiklarini ochib berishda hech qanday muammo ko'rmaydilar.

Finlyandiya – bu kabi loyihalar amalga oshirilayotgan – yagona mamlakat emasdir. Ammo, sodir bo'layotgan voqealarning hajmi, qamrovi va noyob ekanligi shahar jamoat hayotining yangi madaniyatining o'ziga xosligini ta'minlaydi. Finlyandiyadagi holatning o'ziga xosligi, o'zgarishlarning yuqori tezlikda ekanligi bilan izohlanadi: hali o'n yildan ham kam vaqt ilgari shahar aholisining faolligi katta miqdordagi chegaralashlar orqali qiyinlashgan edi. Hozirda esa shaharliklarning faoliyati Xelsinkida qo'llab-quvvatlash va marketing oldinga surishga ega bo'lmoqda.

**Yaaakko Blomberg,**

*Madaniyatchi-tadqiqotchi va ommaviy tadbirlar tashkilotchisi,  
Yhteismaary tashkiloti asoschisi*

## **16. YO'L O'RTOQLIGI**

Davlat yoki munitsipalitetlarning mas'uliyatida bo'lgan yo'l va trassalar, xususiy ko'chmas mulk obyektlari bilan xususiy yo'llar tarmog'i orqali bog'langan. Xususiy yo'llardan foydalanuvchi ko'chmas mulk obyektlari egalari, ushbu xususiy yo'llarni ta'mirlash uchun tashkil qilingan yo'l o'rtoqliklari hissadorlaridir.

Yo'l o'rtoqligi hissadorlari xususiy yo'lni qurish va uni ta'mirlashni o'z mablag'lari hisobidan amalga oshirishlari lozim. Yo'l o'rtoqliklari ko'rinishidagi xususiy yo'llarni ta'mirlashni

tashkillashtirish, xususiy yo'llar tarmog'i kabi o'ziga xos, hatto yagona bo'lgan tizimdir va ushbu tashkillashtirish tamoyillari o'nlab yil davomida o'zgarmay qoldi. Xuddi shunday tizim Shvetsiyada ham bor va aynan o'sha yerdan Finlyandiya kelgan.

Yo'l o'rtoqliklari hissadorlarining yo'llarni ta'mirlash bo'yicha ishlarni moliyalashtirishlari boshlang'ich davrda ko'zda tutilganligiga qaramay, yo'l harakatini ta'minlash va aholi yashash joylariga yetishish nuqtai nazaridan o'ta muhim bo'lgan xususiy yo'llar uchun davlat yoki munitsipalitet byudjetidan subsidiya olish mumkin. Subsidiyani olish sharti bo'lib odatda yo'l o'rtoqligining mavjudligi xizmat qiladi. Yo'l o'rtoqligini tashkil qilish hissadorlarning ko'p ekanligi va yo'lning muntazam ta'mirga muhtojligi hollarida tavsiya qilinadi. Yo'l o'rtoqliklari va yo'llarni ta'mirlash o'rtoqliklari faoliyatlari xususiy yo'llar to'g'risidagi Qonunga binoan tartibga solinadi. Xususiy yo'llarni ta'mirlashga yo'naltirilgan davlat ko'magi 1990 yillarning boshida, uning miqdori 35 million yevroga yetgan payti o'z cho'qqisiga yetgandi. Lekin, misol uchun, 2016 yilda davlat subsidiyalari atigi 8 million yevroni tashkil qildi, ayni vaqtda Shvetsiyada esa davlat ko'magi deyarli 100 million yevro bilan o'lchanar edi.

Finlyandiya'dagi xususiy yo'llar tarmog'ining umumiy uzunligi 360 ming kilometrni tashkil etadi va bu son, misol uchun, umumiy uzunligi 79 ming kilometrdan sal ko'proq bo'lgan umumiy foydalanishdagi yo'llar tarmog'i bilan taqqoslaganda salmoqli ekanligi ayon bo'ladi. Xususiy yo'llarning taxminan 100 ming kilometri doimiy aholi punktlariga, yana 120 ming kilometri yog'och tashish yo'llari va taxminan 110 ming kilometri o'rmon va dala hovli yo'llaridir. Yo'l harakatini ta'minlash nuqtai nazaridan muhim bo'lgan va davlat subsidiyalarining ajratilishi mezonlariga mos keladiganlari 55 ming kilometr atrofidadir.

Butun dunyo miqyosida ushbu tizim o'zining yagonaligi bilan tavsiflanadi. Xususiy yo'llarga taalluqli barcha masalalar 1963 yilda qabul qilingan Qonunga binoan tartibga solinadi. Ushbu qonundan avval, ehtimol, yo'llarni ta'mirlashga aloqador qoidalari XX asr boshiga borib taqaluvchi umumiy foydalanish yo'llari qonunchiligidan meros qilib olingan tuproq yo'llari to'g'risidagi qonun mavjud edi. O'sha davrda mahalliy yer egalari umumiy

foydalanish yo'llarining ta'miri uchun qisman javobgar edi va ularning har biri ushbu javobgarikka o'z ulushini keltirgan. Finlyandiya aholisi kam mamlakat bo'lganligi tufayli ushbu yo'llar ham umumiy foydalanish yo'llari, ham mahalliy aholi punktlarida yashovchilar foydalanidigan yo'llar edi. Ushbu mavzuda Finlyandiyadagi qishloq aholisining kamayib borishi sharoitlarida, xususiyo yo'llarni ta'mirlashga bo'lgan talabni saqlashga yordam beradigan dala hovlilarda dam olish an'anasi alohida ta'kidlashga sazovordir. Aks holda, mamlakatning chekka qismlarida joylashgan bunday yo'llarda yo'l harakati juda sust bo'lar edi.

Uzoq vaqt mobaynida va hozirgi kunga qadar, aholining hududda teng taqsimlangan holda joylashishi Finlyandiya uchun o'ziga xosdir. Misol uchun, ko'p jihatlar bilan Finlyandiyaga o'xshash bo'lgan Shvetsiyada, aholining ko'pchilik qismi aholi punktlarida jamlangan. Ayni vaqtda Finlyandiyada esa xutorlarning yashash joyi sifatidagi o'rni kattadir.

2015 yilda Finlyandiya yo'llari Assotsiatsiyasi tomonidan chop etilgan «Yo'l o'rtoqligi va uning hissadorlari» nomli kitobda tizimning tavsifi berilgan. Kitob tarkibining o'ziyoq yo'l o'rtoqligining mohiyati to'g'risida tushuncha beradi: yo'nalish huquqlari va hissalar bo'yicha umumiy egalik, yo'l o'rtoqligi boshqaruvi (qaror qabul qilish vakolatlari), majburiyatlarni taqsimlash tamoyillari, yo'l o'rtoqligiga to'lovlar va subsidiyalar ajratish tizimlari.

O'nlab yillar davomida eski qonunchilik bilan belgilanib kelingan bunday yondashuv haqiqatan ishlovchi va demokratik bo'lganligi bilan tavsiflangan bo'lsa ham, mulkning umumiy boshqaruvi sharoitlarida vujudga keluvchi anchagina bahs va kelishmovchiliklardan qutqarib qololmadi. Shunga qaramay, qonunchilik bilan tasdiqlangan o'yin qoidalari tizimning faoliyat ko'rsatishi uchun mustahkam asos yaratdi.

Xususiyo yo'llarni ta'mirlash umumiy foydalanish yo'llarini ta'mirlash uchun ajratiladigan harajatlarning taxminan uchdan bir qismiga to'g'ri keladi. Xususiyo yo'llar tarmog'ini ta'mirlash uchun ajratiladigan subsidiyalar hajmining ortishi muqarrardek ko'rinadi, chunki ko'pgina xususiyo yo'llar yo'l harakatini ta'minlash nuqtai nazaridan ahamiyatga ega bo'lgan maqomni oldilar. Ayni paytda

umumiy foydalanish yo'llaridagi harakat demografik o'zgarishlar va mehnat bozorining o'zgarishi tufayli kamayib ketdi.

Shuning uchun, xususiy va davlat yo'llari chegaralarini qaytadan ko'rib chiqish kerakligi dolzarb bo'ldi va bunday qaytadan ko'rish yangi innovatsion yechimlar uchun turtki bo'lishi mumkin. Umumiy e'tiborni talab qiluvchi omillar yo'llarga xizmat ko'rsatish bo'yicha pudratni tashkil qilishning mavjud yo'nalishlari, yo'l ta'mirini boshqarish, tekshirish va qaytadan ko'rib chiqish obyekti bo'lgan ishlarga mahalliy tadbirkorlarni jalb qilishni o'z ichiga oladi. Rasmiy ravishda tashkil qilingan va qonuniy kuchga ega bo'lgan yo'llardan foydalanish va ularni ta'mirlash bo'yicha boshqaruv tizimi, oxirgi yillar ichida amalga oshirilgan eng muhim qadamlardan biri desak bo'ladi. Hozirgi kunda mamlakatda shu sohada taxminan 200 kishi faoliyat yuritmoqda va ularning 150 nafar faoli ishtirokchisi hattoki o'z ishlarini ham tashkil qildilar.

Hozirgi kunda, samaradorlikni oshirish va faoliyatni optimallashtirish maqsadida, xususiy va davlat yo'llaridan foydalanish va ularni ta'mirlashni birlashtirish uchun yechimlar izlanmoqda. Biroq, masala biron-bir yagona ish modelini ishlab chiqishda emas, balki har bir alohida holat uchun eng dono yechimni topishdadir. Ko'pincha masala ishlarni tashkillashtirishning eng mos shakli va pudrat shartnomasini tuzishga aloqadordir.

**Lasse Vekstryom,**

*Texnika fanlari doktori, 1996-2000 yillarda Avtoyo'llar va suv inshootlarini qurish, ularga xizmat ko'rsatish va ta'mirlash Boshqaruvi bosh direktori*

## **17. O'YIN AVTOMATLARI ASSOTSIATSIYASI**

1938 yilning 1 aprel kuni tashkil qilingan o'yin avtomatlari assotsiatsiyasi, davlat hukumati va jamoat tashkilotlarini ko'prik kabi bog'lab turgan ijtimoiy innovatsiyani o'zida aks ettiradi. Tashkilot o'zining faoliyat yo'lini o'n yilliklar davomida izlagan edi. Natija o'laroq, mamlakatning hamma joylaridagi barcha o'yin

avtomatlari jamoat tashkilotlari va davlatning boshqaruviga tushdilar.

Nemis va fin tadbirkorlari 20-yillarning o'rtalaridan boshlab o'yin avtomatlari faoliyatini «Payatso» o'yin avtomatidan boshladilar. Biroq, odamlarning qimor o'yninlariga bo'lgan ishqibozligidan foydalangan holda, alohida tadbirkor shaxslar tomonidan katta miqdordagi mablag'larning qo'lga kiritilgani fosh etilganidan so'ng tez orada jamoat fikri bong urdi. Hukumat organlariga o'tkazilayotgan bosim kuchayib bordi va ko'p o'tmay, 1933 yilda pullik o'yin avtomatlarini yetkazib berish va egalik qilish, hamda o'yin faoliyatini amalga oshirish huquqi faqatgina xayriya tashkilotlariga ruxsat berilganligi to'g'risidagi qaror qabul qilindi.

O'yin avtomatlari assotsiatsiyasi (RAY) 1938 yilda davlat tomonidan aholining sog'ligini saqlashga pul yig'ish bo'yicha umumiy faoliyat shakli berilgan sakkizta ta'sis tashkilotlarining harakatlari bilan o'z faoliyatini boshladi. Bunday jamoat birlashmasi o'z xususiyatlariga ko'ra yagona bo'lgan tuzilma edi va xalqaro qiziqish obyektiga ham aylandi. Oddiy ro'yxatga olingan birlashmadan farqli o'laroq O'yin avtomatlari assotsiatsiyasi boshidan boshlab, jamoat tashkilotlari va ularning xayriya ishlari uchun o'yin avtomatlaridan kelib tushuvchi pullar hisobidan mablag' yig'ish vazifasi yuklatilgan bo'lgan davlat va jamoat tashkilotlarining umumiy loyihasi edi.

Davlat ta'sischi tashkilotlarni qo'llab-quvvatladi va shu yo'l bilan faoliyatning to'siqsizligini ta'minladi.

O'yin avtomatlari assotsiatsiyasi 1938 yilning 1 aprelida o'z faoliyatini boshladi. O'sha vaqtda assotsiatsiyaning 670 dona o'yin avtomati bor edi. Birinchi yilning foydasi hisobidan 84ta tashkilotga 12 million marka miqdoridagi subsidiyalar tarqatildi.

O'yin avtomatlari assotsiatsiyasi, asosan restoran egalari bo'lmish tadbirkorlar bilan shartnoma tuzish vakolatiga ega bo'lgan vakillar tarmog'ini tashkil qildi. Shuningdek, tashkilot avtomatlarni ishlab chiqarish va ularga xizmat ko'rsatish, ulardan pullarni yig'ish va tashkilot va jamiyatlarga tarqatishga ham qaror qildi. Bundan tashqari, o'yin avtomatlari assotsiatsiyasi moliyaviy yordam uchun murojaatlarni ko'rib chiqqan va subsidiyalarni taqsimlash bo'yicha hukumatga o'z takliflarini bergan. Assotsiatsiya mablag'lardan

foydalanishni ham nazorat qilgan. Bu degani, assotsiatsiya tomonidan, pullarning o'yin avtomatlaridan olinishi paytidan boshlab, moliyaviy yordam berish qarori bo'yicha ulardan foydalanishgacha bo'lgan pul aylanmasini kuzatib turardi. Subsidiyalar ma'lum bir shartlar asosida barcha jamiyatga foydasi tegadigan tashkilotlarga berilar edi. Kazino o'yinlari assotsiatsiyaning javobgarlik doirasiga 1960 yillarning oxirlarida kiritilgan edi. 1980 yillarning oxirlarida assotsiatsiya o'z o'yin hududlarini va 1990 yillarning boshlarida xalqaro kazinolarni ham ochish imkoniga ega bo'ldi.

2016 yilgacha bo'lgan davrda O'yin avtomatlari assotsiatsiyasi jamoat tashkilotlariga jami bo'lib 10,5 milliard yevroga yaqin miqdorda subsidiyalar tarqatdi. Jami subsidiya olgan jamoat tashkilotlarining soni 3,5 mingtaga yaqin edi. Bu chinakamiga juda salmoqli raqamlar va ularga boshqa yo'l orqali yetishish juda ham qiyin bo'lar edi.

2016 yilda O'yin avtomatlari assotsiatsiyasining daromadi tarixiy rekord o'rnatdi. Vazirlik assotsiatsiya tomonidan berilgan taklifga binoan jami bo'lib 317,6 million yevro miqdoridagi subsidiyalarni tarqatdi. Ushbu mablag'dan urush faxriylariga imtiyozlar va urush davrida olingan jarohatlar uchun kompensatsiyalar to'lash bilan shug'ullanuvchi davlat g'aznachiligiga ham to'lov qilindi. Faxriylarga g'amxo'rlik qilish ishi ularning oxirgisining oramizdan ketgunicha davom etadi. O'yin avtomatlari assotsiatsiyasining daromadlaridan faxriylar uchun jami bo'lib 2,4 milliard yevro ajratilgan edi!

Assotsiatsiyaning bunday katta muvaffaqiyati uchun rahmatni qimor o'yinlari ishqibozlariga aytish kerak. Finlyandiyaning balog'at yoshiga yetgan har uchinchi fuqarosi, Assotsiatsiyaning boshqaruvida bo'lgan qimor o'yinlarini o'ynash orqali ushbu katta miqdordagi pulni to'plashda ishtirok etgan.

Tangalar, qog'oz pullar, hozirda esa bank kartalari va internet hisob raqamlaridan kelgan pullar, oxir oqibatda ma'lum bir ko'mak oluvchiga yetib borish zanjirini harakatga tushirdilar.

Subsidiyalar yordamida O'yin avtomatlari assotsiatsiyasi aholining alohida toifalari o'rtasidagi tengsizlikni kamaytirish borasida ko'p narsalarga erishdi. Subsidiya olgan jamoat

tashkilotlari, o'z hayotlarini bir maromga solish imkoniyatlari o'rtachadan past, yoki turmush holati yomon tomonga o'zgargan va ularga shu paytgacha jamiyatning yordami hali yetib bormagan insonlar orasida uzoq vaqt mobaynida muhim faoliyat olib bordilar. O'yin avtomatlari assotsiatsiyasi bunday qiyin ahvolda qolgan insonlarga yordam berishga mo'ljallangan ijtimoiy faoliyat yo'nalishlarini qo'llab-quvvatlaydi.

O'yin avtomatlari assotsiatsiyasi boshqa ijtimoiy innovatsiyalarni tug'ilishi uchun imkon yaratdi. Jamoat tashkilotlari keyinchalik davlat boshqaruvi tizimi yoki munitsipalitetlar miqyosidagi xizmatlarni taqdim qilish tarkibiga kiritilgan yangi g'oyalarni tashkillashtirish bilan shug'ullanar edi. O'yin avtomatlari assotsiatsiyasi boshqa xizmatlar yetkazib berish tizimlarida tarqalishi mumkin bo'lgan yangi faoliyat shakli va usullarini yaratishga intilgan edi.

Jamoat tashkilotlari bilan olib boriladigan ishlar hanuzgacha va kundalik hayotning deyarli barcha sohalarida davom etmoqda. Fin jamiyatida O'yin avtomatlari assotsiatsiyasining ishtirok etmagan joyini topish juda mushkul. Hozirgi kunda xayriya faoliyati go'daklik davrilaridan boshlab, to keksayib qolgunlaricha odamlarga o'z ta'sirini o'tkazadi. Haddim sig'ib aytishim mumkinki, jamoat tashkilotlarisiz Finlyandiya hozirdagidek bo'lmas edi.

O'yin avtomatlari assotsiatsiyasi o'zining faoliyatini juda oqilona olib bordi. U sog'likni saqlash va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash sohalarida faoliyat yuritayotgan jamoat tashkilotlarining, Finlyandiya aholisi farovonligi bo'yicha o'z vazifalarini bajarishlarini muvaffaqiyatli ravishda qo'llab-quvvatladi.

2017 yilda barcha qimor o'yin yo'nalishlari bitta boshqaruvga birlashtirildi. FintotoOy, RAY va VeikkausOy kompaniyalari, davlatning boshqaruvida bo'lgan VeikkausOy nomli yakka kompaniyaga birlashtirildi.

Monopol tizimi qimor o'yinlari bilan bog'liq ehtimoliy suiste'mol qilishlarning oldini olish, shuningdek, qimor o'yinlarining salomatlik va ijtimoiy farovonlikka bo'lgan zararini kamaytirish uchun eng yaxshi usuldir. Qimor o'yinlari yo'nalishlaridagi barcha sohalarning birlashganligi monopol bozorni yanada mustahkamladi. Qimor o'yinlarining yangi boshqaruvi, fuqaroning yagona o'yin hisobi



orqali qimor o'yinlariga bog'lanib qolgan odamlarga ko'maklashishning yangi va yanada samaraliroq usullarini ishlab chiqish imkoniyatiga ega.

78 yil avval, boshlang'ich davrda qo'yilgan maqsad o'zgarishsiz qoldi. Subsidiyalar oluvchi jamoat tashkilotlarining ovozi, amaliy faoliyatda eshinishi mumkinligi va jamoat tashkilotlarining fikrlari e'tiborga olinishi juda muhimdir. Ko'p yillik tajriba donolikka yetaklaydi va uni e'tiborga olish zarur.

Qimor o'yinlari bozori kelajakda ham Finlyandiya aholisining sog'ligi va ijtimoiy farovonligini himoya qilish va kambag'allikni kamaytirish borasida faoliyat yuritadi. Sog'likni saqlash va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash sohalarida faoliyat yurituvchi jamoat tashkilotlari, muhtojlar uchun ushbu yo'nalishda juda katta ahamiyatga egalar.

Veikkaus nomli yangi qimor o'yinlari boshqarmasi moliyaviy muvaffaqiyat va amaliy faoliyat nuqtai nazaridan O'yin avtomatlari assotsiatsiyasidan meros sifatida ko'rgazmali misol oldi.

**Raymo Vistbaka,**

*2016-2017 yillarda O'yin avtomatlari assotsiatsiyasining so'nggi  
boshqaruv kengashi raisi,  
1989-1990 yillarda transport vaziri, 1987-2011 yillarda parlament  
deputati*

## **18. KASABA UYUSHMASI HARAKATINING SHAKLLANISHI**

Finlyandiyada kasaba uyushmasi harakati XIX asrning ikkinchi yarmida paydo bo'ldi. O'zining kasbiy birlashmalarini birinchi bo'lib mashinistlar, matbaachilar va dengiz ofitserlari tuzdilar. Boshlang'ich davrda faqatgina o'ntadan bir kishi biron-bir kasaba uyushmasiga a'zo edi. Keyinchalik kasaba uyushmalariga a'zolik darajasi yuksaldi.

1968 yildagi ish haqi bo'yicha birinchi milliy kelishuvda, kasaba uyushmasiga a'zolik badallari ish beruvchi tomonidan to'g'ridan-to'g'ri ish haqidan ushlab qolinishi va ushbu mablag'larning soliqqa tortilmasligi to'g'risida kelishib olinganidan so'ng kasaba

uyushmalari a'zolari soni juda ko'paydi. Ishchilarning 80 foizidan ortig'i kasaba uyushmalarida a'zo bo'lgan 1993 yilda, kasaba uyushmalariga a'zolik darajasi eng yuqori bo'ldi.

Fin kasaba uyushmasi harakati g'arbiy demokratik mamlakatlar tomonidan dunyodagi eng nufuzlilardan biri deb hisoblanadi. Albattaki, bunday baholash juda yuqori darajadagi kasaba uyushmasiga tegishlilikni talab qildi. Ammo, eng avvalo kasaba uyushmasi harakatining ishonchli kelishuv tomoni ekanligi va o'z a'zolarining farovonligini oshirishni uddalaganligi, jamiyatdagi farovonlik darajasining yuksalishiga o'z ta'sirini ko'rsatdi.

Yevropa Ittifoqi doirasida mehnat bozorlari faolligi ham muhim o'ringa ega. Uch tomonlama hamkorlik va muzokara jarayoni Yevropa Ittifoqining barcha hududlarida mehnat munosabatlarining rivojlanishiga asos bo'ldi. Kasaba uyushmasi harakati Yevropadagi integratsiya jarayoniga kuchli dastak bermoqda va mamlakatlar orasidagi mavjud bo'lgan iqtisodiy va ijtimoiy farqlarni bor kuchi bilan tenglashtirishga harakat qilmoqda.

Globalizatsiya va mehnat munosabatlarining beqarorligi (vaqtinchalik mehnat shartnomalari, to'liq bo'lmagan ish kuni, bandlik agentliklari orqali yollanadigan xodimlar, ish va maosh berish kafolati bo'lmagan mehnat shartnomalari), mehnat shakli va usullarining o'zgarishi, yangi axborot texnologiyalarining ta'siri – bularning barchasi kasaba uyushmalari harakati uchun yangi sinovlarni aniqlab berdi. Boshqa tomonlama esa, tarix davomida mehnat munosabatlari avvallari ham o'zgarib turar edi. Shunga qaramay, mehnat munosabatlarining ko'pchilik qismi hanuzgacha doimiy va to'liq ish kunilik bo'lsa ham, mehnat munosabatlarining beqarorligi kuchli tendentsiyaga aylanmoqda.

Hozirgi kunda ish stajining boshlanishi kechroq bo'lmoqda, chunki ko'pchilik yoshlarning mehnat hayotlari boshidagi vaqtinchalik ishlarda mashg'ulligi tabiiy holdir. Mehnat munosabatlarining barqarorligi esa odatda kasaba uyushmasiga a'zolikka qiziqishga ijobiy ta'sir qiladi.

Vaziyat noaniqdir, chunki mehnat bozoridagi beqaror holat paytida birinchi o'rinda kasaba uyushmalariga a'zolik orqali kafolatlarga ega bo'lish zarurdir. Ko'pchilik buni ortiqcha yuk hisoblab bunday qilmaydi. Fin ishchilarining, shu jumladan to'liq

bo'lmagan ish kuni davomida, vaqtinchalik shartnoma asosida yoki bandlik agentliklari orqali ishlovchilarning kasaba uyushmalariga a'zoliklarining yuqori darajasi - himoyalanganlikning eng kuchli kafolatidir.

Mehnat kollektivlari o'Ichamlarining kichrayib borishi mehnat munosabatlari beqarorligining bo'lagidir. Korxonalarining ko'pchiligida o'n nafardan kamroq odam ish bilan band. Bunday ish joylarida kasaba uyushmasi bo'limining faoliyat yuritishi dargumondir. Hamma ish joylarida ham kasaba uyushmasi masalalari bilan shug'ullanadigan ishonchli odam bo'lmasligi mumkin.

Avvallari kasaba uyushmasiga a'zolik o'z-o'zidan ma'lum holat kabi tushunilardi. Hozirda esa «Menga bundan qanday naf bo'ladi» degan savol tug'iladi, yoki «Albattaki men o'z kuchim bilan eplayman» degan fikr keladi. Ko'pincha ma'lumotning yo'qligi kasaba uyushmasiga a'zo bo'lmaslikka sababdir; bu masalani surishtirish uchun hech kim kelmadi. Shuning uchun kasaba uyushmasini yana qayta yaratish, hatto kichik mehnat kollektivlari bilan ham uchrashuvlar o'tkazish kerak. Shu bilan bir vaqtning o'zida, misol uchun tsex kengashlari, kasaba uyushmasi bo'limlari tashkillashtirish yoki ishonchli odamni tanlash orqali kasaba uyushmasi harakatini tajribada qanday amalga oshirish mumkinligi misollarini ko'rsatish mumkin.

Kasaba uyushmasi harakati vaqtinchalik ishchilar va hunarmandlarning o'z hayotlarining yaxshilanib borayotganligini his qilishni boshlagan vaqtlarida paydo bo'ldi. Tarix zamonaviy yoshlarga ham professional o'zini o'zi boshqarish masalasini qanday yechish kerakligini misollarda ko'rsatib berdi.

**Lauri Lyulyu,**

*Elektriklar kasaba uyushmasi kengashining (Sähköliitto) va Fin kasaba uyushmalari markaziy birlashmasining (SAK) sobiq raisi*

## **19. PARTIYALARNI MOLIVAVIY QO'LLAB- QUVVATLASH**

Finlyandiyaning 2017 yil byudjeti loyihasi, siyosiy partiyalar faoliyatlarini qo'llab-quvvatlash uchun belgilangan miqdordagi mablag'larni ajratish alohida ravishda ko'zda tutilgan. Loyihaning izohlar uchun ajratilgan qismida ushbu harajatlar bo'yicha 29 635 000 yevro miqdoridagi mablag' ko'rsatilgan. Ushbu mablag'lar Finlyandiya Parlamentida ko'rsatib o'tilgan, partiyalar to'g'risidagi Qonunning 9-paragrafi va partiyalarga subsidiyalar ajratish to'g'risidagi Farmonning 1-qismiga ko'ra, hamda o'z ta'sis hujjatlari va dasturlari doirasidagi partiyalarning ijtimoiy faoliyatlarini qo'llab-quvvatlash uchun ishlatilishi mumkin.

Subsidiyalar parlament partiyalariga deputatlar soniga qarab ajratiladi. Subsidiyalar ajratish to'g'risidagi Farmonga ko'ra, partiyalar subsidiyalar miqdoridan kamida 8% ayollarga aloqador faoliyatlar va kamida 8% tuman tashkilotlarning faoliyatlarini qo'llab-quvvatlash uchun sarflashlari lozim. Avvallari farmonda mablag'larning kamida 8% partiyalarning xalqaro faoliyati uchun sarflanishi ko'zda tutilgan edi.

Partiyalarning moliyaviy qo'llab-quvvatlanishini o'z ichiga olgan partiyalar to'g'risidagi Qonun 1969 yildan beri kuchda qolmoqda. Bundan so'ng qonunning ko'rinishi biroz o'zgardi, lekin umumiy jihatdan Mauno Koyvistoning tasavvuridagi kabi qoldi.

Hozirgi kun tili bilan aytganda, subsidiyalar ajratishda asosiy bo'lib partiyalarni moliyalashtirish jarayonining shaffofligini ta'minlash bo'lmoqda. Asosiy maqsad bo'lib, partiyalarni xususiy moliyaviy qo'llab-quvvatlashdagi kulrang sxemalar va ularga bog'liq ehtimoliy bosimdan xalos qilish xizmat qildi. Ushbu vazifa subsidiyalar ajratish tufayli muvaffaqiyatli ravishda amalga oshirilmoqda. Boshqa tomondan esa, siyosiy partiya qarorlariga bosim o'tkazish juda qiyin bo'lib qolmoqda. Bosim o'tkazilgan bo'lsa ham, odatda u qarorlarni qabul qilish bo'yicha muhim o'rin egallagan alohida shaxslarga nisbatan bo'lmoqda.

Subsidiya ajratishning ikkinchi vazifasi partiyalarni moliyalashtirishning taxmin qilinishi mukinligi va barqarorligini ta'minlashdan iboratdir. Subsidiyalarning haqiqiy miqdori 1970

yildan so'ng anchagina kamayishiga qaramay, 2004 yildagina byudjetdagi subsidiyalar bo'yicha qaror qilish davomida pulning xarid qilish qobiliyati e'tiborga olindi. Yillar davomida subsidiyalarning miqdori davlatning iqtisodiy ahvoriga bog'liq tarzda o'zgarib bordi. 2004 yildan boshlab partiyalar asosiy moliyaviy qo'llab-quvvatlashdan tashqari, saylov yili uchun subsidiyalarning 10-20% tashkil qiluvchi qo'shimcha yordamni ham oladilar. Yevropa parlamenti sayloviga axborot ishlarini o'tkazish uchun alohida subsidiya ajratiladi.

Subsiyalar partiyaviy faoliyatni moliyalashtirishning salmoqli qismidir. Misol uchun, sotsial-demokratik partiyaning umumiy daromadida subsidiyalar 45%ni tashkil qiladi. Tayanch uyalar va hududdagi tashkilotlar o'z moliyalashtirish va a'zolik badallari hisobidan faoliyat yuritishadi. Ko'pincha subsidiyalarning partiya faoliyatini to'liq qoplashi haqidagi bayonotlarni eshitish mumkin. Biroq, yuqorida keltirilgan misollardan aslo bunday emasligini ko'rish mumkin.

Partiyalar to'g'risidagi qonunga binoan, Finlyandiya Adliya vazirligi partiyalar faoliyatidagi ajratmalardan foydalanish va faoliyatning qonunga mos kelishini kuzatib kelmoqda.

Partiyalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash bunyodga kelganidan buyon xalqning ham muhabbati, ham nafratiga duchor bo'ldi. Ko'pgina populist siyosatchilar haqiqiy kuchga subsidiyalar tufayli ega bo'ldilar. Ajratilgan mablag'lar tufayli fin tilida «tangali umurtqalilar» neologizmi paydo bo'ldi. Ayni shu so'z bilan Finlyandiyaning Agrar partiyasining (hozirda Tsentrist partiyasi) partiyaviy boshlig'i 70-yillarning boshlarida o'z murtadlariga izoh berdi.

Subsiyalarga demokratiya nuqtai nazaridan qaralganda uning zaif tomonlarini aniqlash juda mushkuldir. Xalq parlamentning tarkibini belgilaydi. Parlament a'zolarining partiyaviy mansubligi partiya tomonidan olinadigan subsidiyalarning miqdorini belgilaydi. Ya'ni, parlament saylovlari partiyalar uchun iqtisodiy tomondan ham qaltis biznesdir. Ammo natijasi mamnun bo'lishga arzigulikdir.

Maqola yozish vaqtida, partiyalarga to'lanadigan subsidiyalardan hosil bo'ladigan moliyaviy yuk bir yilda kishi

boshiga taxminan 2 litr benzin, ya'ni 3 yevro atrofidadir. Agarda bu pul bilan har bir 15 yoshga to'lgan fuqaroning saylovlar orasidagi davrda ham qatnashishi mumkin bo'lgan ochiq va demokratik usullarda qarorlar qabul qilishga biron-bir imkoni bo'lsa, bu jamiyat uchun hech ham moliyaviy yuk hosil qilmaydi.

Finlyandiyadagi partiyalarga subsidiyalar ajratish kabi qo'llab-quvvatlashning bunday ochiq va ommaviy tizimi munitsipalitetlar miqyosiga ham yetib borishi mumkin. Aniq siyosiy qarorlar aynan munitsipalitetlarda qabul qilinadi. Munitsipalitetlar mahalliy byudjetdan foydalanish bo'yicha qaror qabul qilish huquqidan foydalanadilar, masalan shaharni loyihalashtirish masalalarida. Partiyalar faoliyatiga munitsipalitetlar miqyosida subsidiyalar ajratish bo'yicha ko'pgina muzokaralar olib borilmoqda va men umid qilamanki, yaqin yillarda aniq natijalar ko'rinib qoladi.

Partiyaviy tizim hali ham demokratiyaning o'zagi bo'lib qolmoqda. Partiyalarni ro'yxatga olish chegarasi yuksak emas, 5000 kishining ovoziga ega bo'lish kifoyadir.

Partiyalarning moliyaviy qo'llab-quvvatlanishining tuzilishi oxirgi yillar davomida o'zgarmagan holdadir, lekin olingan mablag'lar bo'yicha ma'lumotlarning shaffofligi va ommaviyligi birinchi o'ringa o'tdi. Amaldagi farmoyishga binoan, turli xildagi saylovlarda o'z nomzodini qo'ygan siyosatchilar, agarda ularning moliyaviy qo'llab-quvvatlanishi ma'lum bir chegaradan oshgan taqdirda moliyalashtirish manbalari to'g'risidagi ma'lumotlarni chop etishlari zarur. Bundan tashqari, bir nomzodni moliyaviy qo'llab-quvvatlash bo'yicha xususiy homiylar uchun eng yuqori chegara belgilab qo'yilgan. Turli xil pog'onadagi saylovlar uchun bunday chegaralar har xildir.

Bunday ma'lumotlarni chop etish bo'yicha javobgarlik nomzodlarning o'zlaridadir, lekin prezident saylovlari bundan mustasno. Prezident saylovlaridagi nomzod vakili bunday ma'lumotlarni ommaga taqdim qilish bo'yicha javobgardir.

Saylov kompaniyasining moliyalashtirish manbalarini chop etish bo'yicha javobgarlik va eng yuqori chegara – bu yanada ochiq va shaffof saylash faoliyati tomon qo'yilgan qadamdir. Biroq, shu bilan birga saylov kompaniyasining aynan o'ziga ham, nomzodlarning saylovlarda yanada tengroq sharoitlarda

kurashishlariga imkon beruvchi eng yuqori chegarani o'rnatish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

**Risto Salonen,**  
*Finlyandiya Sotsial-demokratik partiyasi ma'muriyatining sobiq  
boshqaruvchisi*

## **20. TALABALAR ITTIFOQNING IQTISODIY MUXTORIYATI**

Finlyandiyaning yagona bo'lgan universitet darajasidagi o'quv muassasasi – Turku shahri Akademiyasi 1828 yildagi shahar yong'inidan so'ng Xelsinkiga ko'chirilgan edi. Yangi nizomga binoan akademiyaning nomi Imperator Aleksandr universitetiga o'zgartirildi.

Universitet faoliyatining birinchi yilida unda 340 nafarga yaqin talaba ta'lim olayotgan edi. Ammo, 1870 yillarga kelib talabalar soni mingtagacha yetdi. Turku shahrida mavjud bo'lgan talabalar birlashmalari Xelsinkida biroz o'zgargan ko'rinishda saqlanib qoldi. Universitet faoliyatining boshlang'ich yillarida talabalar universitet binosi yoki o'qituvchilarning uylarida yig'ilishar edi. Shunga qaramay, talabalar yanada «erkin muhit»ga ehtiyoj sezishar va o'z yig'ilishlari uchun uy-joy ijaraga olishar edi. Uy-joyning ijara haqi oshib borar va ushbu holat talabalarning o'z mulki bo'lgan bino xarid qilinishi kerakligi to'g'risidagi fikrlarini keltirib chiqardi.

Talabalar ittifoqining birinchi kengashida uy qurilishi to'g'risida qaror qabul qilindi. Qisman homiylik yordami va to'plangan mablag'lar, qisman kredit mablag'lari hisobidan 1870 yilning 26 noyabrida tantanali ochilish marosimi o'tkazilgan Talabalar uyi (hozirda Eski talabalar uyi) qurildi. yer maydonini xarid qilish va qurilish ishlarini olib borish talabalar uchun hamkorlik va birdamlikning yaxshi namunasi bo'lib xizmat qildi. Talabalar uyining qurilishi tufayli, 1880 yilda erkin yig'ilish huquqiga ega bo'lgan talabalar ittifoqi talabalar assotsiatsiyalarining birlashmasi bo'lib qoldi. Binoning frontonida lotin tilida yozilgan yozuv mavjud:

Speisuaepatriadedit («Vatanning o'z umidiga sovg'asi»).

Talabalar uyi xonalarini ijaraga berishdan tushgan mablag'lar avvaliga uyning qurilishi va jihozlanishiga bog'liq xarajatlarni, keyinchalik esa uyni qoniqarli darajada tutish xarajatlarini qopladi. Talabalar ittifoqi yanada kattaroq ta'mir ishlari uchun o'z ko'chmas mulki garovi bo'yicha kredit oldi. 1910 yilda borgan sari soni ortib borayotgan talabalarning ehtiyojlari uchun Yangi talabalar uyi qurildi. Binoda ofis va savdo maydonlari uchun xonalar ijaraga berilar edi. Talabalar ittifoqi o'zining ilk savdo-tijorat binosini talabalar ittifoqining tijoriy faoliyati boshlangan 1950 yillarda qurdi.

Talabalar ittifoqi, keyinchalik Finlyandiya talabalar ittifoqi, 1927 yildan boshlab esa Xelsinki universiteti Talabalar ittifoqining o'zini o'zi boshqarish tamoyillari qonunchilik yoki farmonlar bilan belgilangan edi. Universitet rahbariyati talabalar ittifoqi faoliyatini kuzatib turar, ammo boshqaruvda qatnashmas edi. Talabalar ittifoqi faoliyati bo'yicha qarorlar, juda ko'p vaqt davom etadigan talabalarning umumiy yig'ilishlari davomida qabul qilinar edi. Biroq, qarorlar qabul qilish 1932 yildan boshlab ovoz berish orqali saylanadigan tashkilot vakillariga o'tdi. Talabalar ittifoqini bevosita boshqarish uchun rasmiy shaxslar yollandilar.

Universitetlar faoliyati to'g'risidagi amaldagi qonun (27.6.1997/645) bo'yicha talabalar ittifoqining ta'rifi quyidagicha belgilangan: «Talabalar ittifoqining maqsadi – o'z a'zolarining bog'lab turuvchi bo'g'ini bo'lish va ularning ta'lim olishdagi jamoaviy, ijtimoiy va ruhiy intilishlari va harakatlariga ko'maklashish». Ta'rif aniq, lekin juda keng ma'nodadir. Mustaqil bo'lgan va amaliy faoliyatga yo'naltirilgan talabalar ittifoqi, saylanadigan vakillar yoki boshqaruv kengashlarida o'zining aniq va ahamiyatga ega bo'lgan vazifalarini muntazam ravishda qayta ko'rib chiqadi. Bu Xelsinki universiteti talabalar ittifoqi va Finlyandiyadagi boshqa talabalar ittifoqlariga tegishlidir. Xelsinki universiteti talabalar ittifoqining saylanadigan vakillari kengashi, 2005 yil 27 apreldagi strategiyasida o'zining vazifalarini quyidagicha ko'rinishda belgilab qo'ygan:

- Xelsinki universitetining turli kampus va fakultet talabalarini, har bir talaba o'zini umumiy talabalar tashkiloti a'zosi sifatida his qilishi uchun birlashtirish;



- o'z a'zolariga talabalarning hayotlarini qulaylashtirish xizmatlarini taklif qilish;
- talabalar tashkilotlari faoliyati uchun zamin yaratish va talabalar birlashmalari tomonidan ko'rsatilayotgan faollikni qo'llab-quvvatlash;
- boshqaruvda talabalar huquqlarini himoya qilish, universitet va boshqa talabalar birlashmalari o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish, hamda universitet manfaati uchun harakat qilish;
- talabalar manfaatlari uchun qarorlarni qabul qilish va ijtimoiy fikrga ta'sir o'tkazish;
- talabalar huquqlarini himoya qilish masalalarida boshqa talabalar birlashmalari bilan davlat miqyosida hamkorlik qilish;
- universitet talabalarining qadriyatlarini va fikrlariga binoan jamiyatni faol va mas'uliyatli ravishda rivojlantirish;
- o'qimishli, ongli va tanqidiy fikr yurituvchi ziyoli fuqarolarni o'stirish.

Xelsinki universiteti talabalar ittifoqi o'zining moliyaviy faoliyatini uzoqni ko'zlovchi va mas'uliyatli loyihalashtirish bo'yicha olib boradi. Moliyaviy boshqaruv negizida ko'chmas mulkning bosqichma-bosqich to'planishi va undan oqilona foydalanish, hamda tijoriy faoliyatni muntazam ravishda kengaytirish yotmoqda. Bularning hammasi, oxir oqibatda ittifoq uchun bugungi kunda o'z a'zolariga keng miqyosdagi xizmatlar to'plamini taklif qilish imkonini beradi. Talabalar ittifoqi o'zini o'zi boshqarish organi bo'lganligi tufayli, o'z mulkini qanday boshqarish va tijoriy faoliyatini qanday olib borishga o'zi qaror chiqaradi.

**Linnea Meder,**

*2003-2007 yillarda Xelsinki universiteti talabalar ittifoqining Tijoriy direktori*

## **21. «NYTKIS» NOMLI AYOLLAR TASHKILOTLARI KOALITSIYASI**

Ba'zi vaqtlarda ayollarning o'zaro hamkorlik qilishni bilmasliklari haqidagi fikrlarni eshitish mumkin. Fin ayollar jamoat tashkilotlari buning teskarisining misolidir. Boshqaruv va siyosiy o'rinlarni egallab turgan ayollar hamkorligi, Finlyandiyadagi ayollar harakatining rivojlanishi doirasida uzoq tarixga egadir. 1907 yilda mamlakat parlamenti deputati mandatlarini olgan ilk ayollar, turli tashkilotlarda ishlagan vaqtlarida o'zaro yaqin munosabatlarda bo'ldilar va ularning ko'pchiligi ayollarga ovoz berish huquqini berish harakatida qatnashdilar.

1987 yilda feministlar guruhi hamkorlik qilish maqsadida parlamentda vakil bo'lgan barcha siyosiy partiyalarning ayollar tashkilotlarini birlashtiruvchi ayollar tashkilotini tuzish fikriga keldi. Shu yo'l bilan avvaliga qo'mita shaklida, keyinchalik esa ro'yxatga olingan jamoat birlashmasi shaklida «Ayollar tashkilotlari hamkorligi» koalitsiyasi, yoki NYTKISry koalitsiyasiga asos solindi. Koalitsiya fin jamiyatidagi teng huquqlilik harakatining ahamiyatga molik ishtirokchisidir. U ayollarning huquqlarini ta'minlashni kuzatib borib, ijtimoiy va siyosiy masalalar bo'yicha o'z tutgan yo'lini shakllantiradi, ayollarning ahvolini yaxshilash va to'liq gender tengligi manfaatlarini borasida o'z faoliyatini olib boradi.

1988 yildagi ta'sis yig'ilishining o'zidayoq, ishchi guruhining qarorlarni konsensus asosida qabul qilishga harakat qilishi to'g'risida qaror qabul qilindi. Boshqaruv yildan yilga bir tashkilotdan ikkinchisiga o'tib boradi va barcha a'zo tashkilotlarning qo'mitadagi vakilliklari tengdir. Qo'mitaga turli xildagi partiyalarning ayollar tashkilotlaridan tashqari yana Ayollar tashkilotlarining markaziy ittifoqi, Finlyandiyadagi ayollar masalalari bo'yicha ittifoq va Ayollar tadqiqotlari jamiyati (hozirgi Gender tadqiqotlari jamiyati) kirdilar. Hozirgi vaqtda 470 ming kishi Ayollar tashkilotlari koalitsiyasiga a'zo bo'lgan tashkilotlar a'zolaridir. Bundan tashqari, Koalitsiyaning 15ta munitsipalitetlarida faoliyatlari hamkorlik asosida olib boriladigan va siyosiy tarafdorlikni tan olmaydigan o'z hududiy qo'mitalari mavjud.

Juda ham kam mamlakatlardagina ayollar tashkilotlari, bunday zich o'zaro hamkorlikni siyosiy maydonda partiyaviy mansublikdan qat'iy nazar amalga oshiradilar. Turli mamlakatlardan kelgan amaldor shaxslar va jamoat tashkilotlaridan iborat bo'lgan delegatsiyalar, Ayollar tashkilotlari koalitsiyasining faoliyati bilan tanishish uchun har yili keladilar va doimo hamkorlikka bo'lgan qobiliyatga hayron qoladilar. Ammo, Ayollar tashkilotlari koalitsiyasiga hamkorlik qilishga bo'lgan xohish va tayyorlik barcha faoliyatlarning boshlang'ich nuqtasi bo'lgan, hatto Koalitsiyaning tuzilishi ham hamkorlik bilan to'yintirilgan sharoitlarda hal qilish uchun umumiy masalalar topish qiyin emas. Aslini olganda, juda ko'p zaruriy masalalar, misol uchun ayollarning mehnat hayotidagi ahvoli, ayollarga nisbatan zo'ravonlik va siyosiy qarorlar qabul qilish vaqtida gender masalalarini e'tiborga olish, 100 yildan ko'proq vaqt davomida Finlyandiyadagi ayollar harakatining kun tartibida turmoqda.

Koalitsiya ham Finlyandiyada, ham xalqaro miqyosda, misol uchun ayollar tashkilotlarining yirik Yevropa koalitsiyasi bo'lgan Yevropa ayollar lobbisida, ayollar tashkilotlarining turli xildagi organlardagi vakili sifatida qatnashadi. Xalqaro faoliyatda Fin ayollar tashkilotlari Koalitsiyasi tomonidan, BMT Qo'mitasi uchun ayollarga nisbatan diskriminatsiyani bartaraf etish bo'yicha mustaqil hisobotni tayyorlash bo'yicha ishlarni muvofiqlashtirish o'ta muhim yo'nalishlardan biridir. Bunday hisobot har to'rt yilda tayyorlanadi. Mustaqil hisobotni tayyorlash bo'yicha ish yaxshi natijalarga erishishga imkon berdi, chunki BMTning ayollarga nisbatan diskriminatsiyani bartaraf etish Qo'mitasi, jamoat tashkilotlaridan olingan ma'lumotlarga asoslangan holda fin hukumatidan gender tengligi borasida qanday ishlar amalga oshirilayotganligi to'g'risidagi yanada batafsilroq hisobotni talab qildi. Oxirgi yillarda ayollar va erkaklar ish haqlari o'rtasidagi tafovutni tenglashtirishning sust ketayotgan progressi, hamda ayollarga nisbatan zo'ravonlikka yetarli darajada aralashmaslik alohida tanqidga sazovor bo'ldi.

2015 yilda Stambul konventsiyasi, yoki Yevropa Kengashining ayollarga nisbatan zo'ravonlik va oiladagi zo'ravonlikka qarshi kurashish va uning oldini olish to'g'risidagi Konventsiyasi ish

boshladi. Fin ayollari koalitsiyasi boshqa tashkilotlar bilan birgalikda Konventsianing amalga oshirilishini diqqat bilan kuzatib bormoqda. Ayollar tashkilotlari koalitsiyasi uchun, inson huquqlarini himoya qilish tashkilotlari, hukumat, shu jumladan ayol-parlamentariylar bilan keng miqyosda hamkorlik qilish hayotiy ahamiyatni kasb etadi. Katta bo'lmagan davlatdagi hamkorlik – bu kuchdir.

**Yoxanna Pakkanen,**

*Ayollar tashkilotlari Koalitsiyasining 2017 yildagi bosh kotibi*

## **22. «KEPA» NOMLI RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLAR BILAN HAMKORLIK QILISH MARKAZI**

«KEPA» nomli rivojlanayotgan mamlakatlar bilan hamkorlik qilish markazi 1985 yilda, rivojlanayotgan mamlakatlar bilan hamkorlik qiluvchi fin nodavlat tashkilotlarini birlashtirish maqsadida tashkil qilingan edi. Markazni ochish uchun ikki sabab bor edi. Bulardan birinchisi, 1960 yillardagi qisqa va muvaffaqiyatsiz urinishdan so'ng, rivojlanayotgan mamlakatlar bilan hamkorlik faoliyatini qaytadan boshlash maqsadidan iborat edi. Ikkinchisining maqsadi, «bir foiz» harakatining natijasida hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha ijobiy tajriba paydo bo'ldi va ushbu tajriba hamkorlikning mustahkam tuzilishlarini jamoat tashkilotlari va harakatlarining o'zlari tomonidan yaratilishi ko'rinishida foyda keltirishi mumkinligidan iborat edi.

1979 yilning oxirlarida vujudga kelgan «bir foiz» harakatining g'oyasi juda sodda edi. Ushbu harakat har bir finga o'z foydasidan hech bo'lmasa kamida 1 foizini rivojlanayotgan mamlakatlarga yordam berish bo'yicha loyihalarni, yoki janubiy mamlakatlardagi boshqa shu kabi faoliyatlarni moliyalashtirayotgan biron bir jamoat tashkilotiga o'tkazib berishga da'vat qilar edi. Harakat Finlyandiya dan YalMning kamida 0,7 foizini rivojlanayotgan mamlakatlar bilan hamkorlik qilish va qashshoqlik chegarasi ortida qolgan insonlarga yordam berish uchun ajratishni talab qildi. «Bir foiz» harakati 1980 yillarning boshlarida uncha katta bo'lmagan

tashabbus guruhlari loyihalaridan, o'nlab katta va kichik jamoat tashkilotlarining kampaniyasigacha o'sib bordi. Harakatning eng yuqoriga ko'tarilishi davrida o'z moliyaviy hissalarini 100 mingga yaqin finlar qo'shgan edi. «Bir foiz» harakati o'zining siyosiy maqsadiga ham erishdi va 1991 yilgacha Finlyandiya rivojlanayotgan mamlakatlar bilan hamkorlik uchun YalMning 0,7 foizini ajratar edi. Ammo, ushbu yutuq vaqtinchalik edi, chunki keyinchalik ushbu ko'rsatkich qo'yilgan maqsaddan kamayib ketdi.

Deyarli barcha sanoati rivojlangan mamlakatlardagi ko'ngilli guruhlar faoliyatidan yangi mehnat shakli paydo bo'ldi. Ta'lim olgan va ko'pincha katta tajribaga ega bo'lmagan yoshlarni, aholi ichida kichik ish haqi bilan mehnat qilish uchun rivojlanayotgan mamlakatlarga jo'natishar edi. Asta-sekinlik bilan hamkorlikning bu shakli ham yanada jiddiroq tus oldi, yanada malakali va yaxshi haq to'lanadigan mehnatga aylandi.

Jamoat tashkilotlarining rivojlanayotgan mamlakatlar bilan hamkorliklariga baho berilganda, Finlyandiya tomonidan rivojlanayotgan mamlakatlarga yordam berish faoliyatini boshlash uchun yana bir bor harakat qilish vaqti kelganligi to'g'risidagi xulosaga kelindi. Faqat, ilk muvaffaqiyatsiz harakatdan olingan saboq bo'lgan bir shart bilan: rivojlanayotgan mamlakatlarga ko'maklashish bo'yicha faoliyat to'liq ravishda rivojlanayotgan mamlakatlarni qo'llab-quvvatlashga mo'ljallangan byudjet mablag'lari hisobidan olib borilishi mumkin, lekin amaliy faoliyatni tashkillashtirish bo'yicha javobgarlik fin jamoat tashkilotlari zimmasiga yuklatiladi.

1982 yilda rivojlanayotgan mamlakatlarga ko'maklashish masalalarini ham o'z ichiga olgan, tashkilotlar manfaatlarini birlashtirilgan holda ilgari surishni muvofiqlashtiruvchi, rivojlanayotgan mamlakatlar bilan hamkorlik qilish masalalari bo'yicha nodavlat tashkilotlar Kengashi (KAKENE) tuzildi. Kengash tomonidan, hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha mustahkam zamin yaratish imkoniyatlarini o'rganib chiqish vazifasi yuklatilgan bo'lgan, rivojlanayotgan mamlakatlar Instituti direktori Marya-Liisa Svants (Marja-LiisaSwantz) boshqaruvi ostida ishchi guruh tuzildi. 1983-84 yillarda Davlat kengashi tomonidan tayinlangan komissiya ham rivojlanayotgan mamlakatlar bilan hamkorlik faoliyati yo'llarini tahlil

qilish va o'rganish bilan shug'ullandi. «KEPA» nomli rivojlanayotgan mamlakatlar bilan hamkorlik Markazini tashkil qilish g'oyasi, 1983 yilning kuzida rivojlanayotgan mamlakatlar bilan hamkorlik qilish markazini tashkil qilish ehtiyoji va uning faoliyat yo'nalishlarini o'z ichiga olgan ish xatini tayyorlagan Marya-Liisa Svantsga tegishli edi. «KEPA» Markazining vazifalari doirasiga jamoat tashkilotlarini axborot va o'quv-uslubiy tomondan qo'llab-quvvatlash, qo'shma kompaniyalarni muvofiqlashtirish, shuningdek, «qo'shimcha maslahat markazi» sifatidagi faoliyatni kiritish taklif qilindi. Rivojlanayotgan mamlakatlar bilan hamkorlik faoliyati komissiyasi (a'zo tashkilotlarning dastagi bilan) tomonidan, yangi tashkil qilinayotgan rivojlanayotgan mamlakatlar bilan hamkorlik Markaziga ma'muriy vazifalar yuklatildi.

Qolgani esa tarixda yozilgan. 05.03.1985 yildagi «KEPA» markazini tashkil qilishga bag'ishlangan yig'ilishda, jamoat tashkilotlari va davlat vakillari «ikki quyinni bir o'q bilan o'ldirishga» harakat qildilar. Ya'ni, zimmasiga rivojlanayotgan mamlakatlar bilan hamkorlik qiluvchi jamoat tashkilotlari uchun kompaniya va xizmatlar tashkil qilish, hamda rivojlanayotgan mamlakatlarga ko'maklashish faoliyatini boshqarish bo'yicha ikkita hal qiluvchi vazifa yuklatilgan «KEPA» Markazini yaratishga qaror qildilar. Qabul qilingan qarorda o'z-o'zidan sof fin xususiyatlari bor edi. Davlat hukumati va fuqarolik jamiyatining ehtiyoj va maqsadlari, ikki tomonni ham qoniqtiruvchi bir butunga birlashtirilgan edi. Tashqi ishlar vazirligining rivojlanayotgan mamlakatlar bilan hamkorlik faoliyati bo'yicha mas'uliyatni zimmasiga yuklatish mumkin bo'lgan, qolaversa xizmat ko'rsatish masalalarida tashkilotlar ehtiyojlariga javobgar bo'luvchi vakil tashkilotga ehtiyoji bor edi. Nodavlat tashkilotlar esa ushbu masalada o'z manfaatlarini boshqacha ko'rayotgan edi. O'z zimmalariga rivojlanayotgan mamlakatlar bilan hamkorlik qilish mas'uliyatini olgan tashkilotlar, jamoat kompaniyalari va xizmatlar tashkillashtirish imkoniyatiga (shuningdek, davlat tomonidan moliyalashtirishga ham) ega bo'ldilar. Amalda esa rivojlanayotgan mamlakatlar bilan hamkorlik qilish faoliyati «KEPA»ning asosiy faoliyati edi, chunki boshqa yo'nalishlar kam miqdordagi moliyalashtirish sababli orqa o'rinlarda qoldi.

90 yillarning o'rtalarida markaz faoliyatiga baho berildi va shundan so'ng «KEPA»ning faoliyat sohasi qaytadan ko'rib chiqildi. Rivojlanayotgan mamlakatlar bilan hamkorlik qilish faoliyati «KEPA»ning yangi «janubiy dasturi» qismi bo'lib qoldi. Markazning axborot ta'minoti, xizmat ko'rsatish va rivojlanayotgan mamlakatlar bilan hamkorlik siyosatini ishlab chiqish faoliyatlari yanada kengroq doira va moliyaviy qo'llab-quvvatlashga ega bo'ldi.

«KEPA» markazi rivojlanayotgan mamlakatlar bilan hamkorlik qilish bozoridagi yagona va yaxlit tuzilmadir. Turli xildagi jamoat tashkilotlarini birlashtiruvchi forum, tashkilotlar orasidagi barcha chegara va andozalarni oshib o'tgan holda hamkorlikni amalga oshirishga tayyordir, lekin ayni vaqtda davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi pragmatik aloqalar asosida qurilgan hamkorlikka intiladi.

1980 yillarning o'rtalarida «KEPA» markazi qanoti ostida, rivojlanayotgan mamlakatlar bilan hamkorlik qilish sohasidagi «Imkoniyatlar yarmarkasi» nomi bilan hayotga yo'llanma olgan g'oya vujudga keldi. Maqsadi rivojlanayotgan mamlakatlar bilan hamkorlikni ko'rsatish va u haqida so'zlab berish bo'lgan ushbu yarmarka tadbiri, o'zining shakli bo'yicha bozorga o'xshab ketadi. U butun mamlakat bo'yicha mashhurlikka ega bo'ldi va endilikda har yili o'tkazilmoqda. Xelsinkida ushbu tadbir «Bir qishloqdagi butun dunyo» nomi bilan o'tkaziladi. U bahorda, hafta oxiri kunlarida tashkillashtiriladi va o'n minglab odam qatnashuvchi ko'p madaniyatli tadbirni o'zida aks etadi. «KEPA» markazi hanuzgacha ham yarmarkalar va «Bir qishloqdagi butun dunyo»ning bosh koordinatori sifatida faoliyat ko'rsatadi.

**Folke Sundman,**

*1986-2003 yillarda «KEPA» Markazining Ijrochi direktori, 2003-2007 yillarda Finlyandiya Tashqi ishlar Vazirining mahsus masalalar bo'yicha maslahatchisi, 2008-2016 yillarda Finlyandiya Tashqi ishlar Vazirligining klimat masalalari bo'yicha tadqiqotchi-mutaxassisi va maslahatchisi*

## 23. TINCHLIK STANTSIIYASI

Fin tinchlik mustaqil harakatining ofisi joylashgan bino «Tinchlik stantsiyasi» deb nomlanadi. Xelsinki shahrining Pasila tumanida, katta tosh binolar orasida joylashgan chiroyli ikki qavatli yog'och uycha, aslida sobiq temir yo'l vokzalining binosidir.

«Tinchlik mustaqil harakati» tushunchasi ozroq ta'rifga loyiqdir. Ushbu holat sovuq urush davridan qolgan va G'arbiy davlatlarning Sharqiy blok ekspansiyasi, shuningdek, G'arbiy Yevropa mamlakatlarida faoliyat yurituvchi, o'z tanqidlarini faqatgina G'arbning qurollanish poygasiga qarshi yo'naltiruvchi, yetarlicha kuchga ega bo'lgan Umumjahon tinchlik kengashi a'zosi tashkilotlaridan uzoqlashish istagi natijasida paydo bo'lgandir. Tinchlik mustaqil harakati hoh G'arbda, hoh Sharqda olib boriladigan har qanday qurollanish poygasining xavf keltirib chiqarishi nuqtai nazaridan fikr yuritadi.

Bino Tinchlik stantsiyasiga aylanishiga qadar, 70 yil davomida temir yo'l vokzali sifatida xizmat qilgan. Bino 1915 yilda Kareliya hududi yo'nalishidagi Vammelyoki temir yo'l stantsiyasi sifatida qurilgan edi. Finlyandiya mustaqillikka erishganidan so'ng, sobiq Buyuk Finlyandiya knyazligidan sobiq Rossiya imperiyasining poytaxti bo'lmish Sankt-Peterburggacha bo'lgan temir yo'l qatnovi Vammenyoki stantsiyasining joylashgan kesimida to'xtab qoldi. Shu tariqa, keraksiz bino yog'ochlarga bo'linib tashlandi, lekin 1923 yilda Xelsinki shahrining temir yo'l stantsiyasidan poezdga yurganda 5 daqiqalik uzoqlikda joylashgan Pasila temir yo'l stantsiyasi sifatida qaytadan qurildi.

1980 yillarning boshlarida Finlyandiyaning tinchlik Ittifoqi va uning bir necha a'zo tashkilotlarining idoralari, Pasiladagi yangi qurilgan katta beton binolarning birida joylashgan edi. 1984 yilning boshida Finlyandiyaning tinchlik Ittifoqi vakillari, Finlyandiya temir yo'llari Boshqaruvining Pasila temir yo'l stantsiyasi binosini sotish bo'yicha aukcion tashkil qilayotganligi, chunki uning joyida Xelsinki vokzalining yangi zamonaviy binosini qurish rejalashtirilayotganligidan xabar topdilar. Binoni boshqa joyga ko'chirish va ayni vaqtda uni saqlab qolish vazifasi bitimning sharti edi.



Avvaliga, stantsiya yaqinidan oltita temir yo'ldan iborat bo'lgan maydon qurish rejalashtirilgan edi, ammo ushbu hudud oxir-oqibatda park bo'lib qoldi. O'sha vaqtlarda Finlyandiya tinchlik Ittifoqining ijrochi direktori bo'lgan Ilkka Tappaleda, stantsiya binosini o'sha park hududiga ko'chirib o'tish va shu orqali ham parkni bezatish, ham tinchlik Ittifoqiga yangi markaz yaratish fikri tug'ildi. Natijada tinchlik Ittifoqi xarid qilish bo'yicha taklif berdi. Taklif qilingan mablag' miqdori uncha katta emas edi (hozirgi kundagi 5000 yevro atrofida), lekin shunga qaramay auksionda g'alaba qozonildi.

O'sha yilning 8 sentyabr kunida, tinchlik Ittifoqining raisi professor Yoran fon Bonsdorff, boshiga temir yo'l stantsiyasining so'nggi boshlig'ining qizil furajkasini kiygan holda, signal berish bayrog'i orqali jo'nash uchun buyruq berdi. «Tinchlik uchun safarbarlik» shunday boshlangan edi. Bino butunligicha yangi joyga ko'chirib o'tildi va u hozirgi kungacha ham o'sha joyda joylashgan. Masofa atigi bir necha yuz metrdan iborat, lekin uni tog' yo'nalishidagi notekis yo'ldan ko'tarib borish kerak edi. Binoning og'irligi 150 tonnani tashkil qilar edi. Ro'y berayotgan voqealarni kuzatib turgan kichik bola «U ko'k kitdan atigi 10 tonna yengilroq» dedi.

Finlyandiya tinchlik Ittifoqi, 1907 yilning 10 fevralida, Finlyandiyaning hali avtonom bo'lgan vaqtlarida tashkil qilingan edi. Senator Leo Mechelin Finlyandiya tinchlik Ittifoqini 1910 yilda Stokgolmda o'tkazilgan Xalqaro tinchlik byurosining (InternationalPeaceBureau) yig'ilishida tanishtirdi. Birinchi jahon urushi davrida Tinchlik ittifoqlari Rossiya imperatori buyrug'iga asosan man qilingan edi.

Tinchlik Ittifoqi mustaqil Finlyandiyada 1920 yilda qaytadan tashkil qilingan edi. Ittifoq yangi nomga ega bo'ldi – Finlyandiya tinchlik Ittifoqi – Xalq Ittifoqi. Ushbu nom orqali tashkilotning mafkurasini ifodalashga harakat qilishdi. Ittifoq o'qimishli odamlar orasida nisbatan ma'lum edi, lekin milliy harakatlar tufayli yigirmanchi va ayniqsa o'ttizinchi yillarda ittifoq uchun oson bo'lmadi.

Ikkinchi jahon urushidan so'ng, ittifoqning nomini Finlyandiya tinchlik Ittifoqi - Birlashgan millatlar tashkilotining bo'limiga

almashtirdilar. Uning nomi avvalgiday xalqaro huquqqa tayanuvchi va xalqaro hamjamiyatga tinchlik elchisi sifatida ko'maklashuvchi tashkilotning mafkurasini ifodalardi. 1940 yillarning oxirida boshlangan sovuq urush, Tinchlik Ittifoqining oldiga 1930 yillardagidan farq qiluvchi yangi vazifalarni qo'ydi. SSSRning tashqi siyosatini qo'llab-quvvatlovchi Umumjahon tinchlik kengashi va uning barcha a'zo tashkilotlari, butun Yevropa bo'yicha o'z ustunligini mustahkamlash borasidagi faoliyatlarini olib borardi. Shu sababli ham g'arbiy targ'ibot barcha tinchlik tashkilotlariga kommunist tamg'asini bosardi. Yuzaga kelgan holat ko'pgina tinchlik uchun harakat qilayotgan mustaqil tashkilotlarni juda qiyin ahvolga solib qo'ydi. Ommaviy axborot vositalari ularni kommunist deb atamagan taqdirda ham, ularga hech bo'lmasa sodda idealist sifatida qarashardi.

Va huddi shunday siyosiy va ruhiy shart-sharoitlarda Buyuk Britaniyada 1958 yilda yadroviy qurolsizlantirish kampaniyasi (CND) vujudga keldi. Ushbu Kampaniyaning mafkuraviy boshlang'ich harakat nuqtasi bo'lib, yadro quroli davridagi qurollanish poygasiga asoslangan xavfsizlik siyosati, jahon miqyosidagi o'zini o'zi o'ldirishga tayyorgarlik ekanligini anglatishardi. Yadroviy qurolsizlantirish Kampaniyasi ushbu mafkuraviy boshlang'ich harakat nuqtasidan kelib chiqqan holda, Buyuk Britaniyadan o'z yadroviy qo'rqitish choralaridan bir tomonlama ravishda voz kechish va o'zining siyosatini jamoat xavfsizligi yo'nalishiga qaratishni talab qildi. 1960 yilda faylasuf Bertrand Rassel tomonidan «Yuz qo'mitasi» - Kampaniyaning yadroviy qurolsizlantirish faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun tuzilgan, akademik va olimlarni a'zo qilgan tashkilotni tashkil qildi.

1960 yillarning boshlaridan Yevropa mamlakatlarida tinchlik uchun kurashuvchi mustaqil tashkilot va harakatlarning qaytadan tashkil qilinishi boshlandi. 1963 yildagi bu to'lqin davomida va Xelsinki shahri universiteti doirasida, ta'sischilar tomonidan butun Yevropada tanilishini ta'minlash maqsadida Bertrand Rassel tashkil qilgan tashkilot nomidan foydalanishga qaror qilingan o'z «Yuz qo'mitasi» paydo bo'ldi. «Yuz qo'mitasi» tez orada Finlyandiyaning barcha universitet shaharlarida qo'llab-quvvatlanishga erishdi. «Yuz qo'mitasi»ning 1960 yillardagi faoliyati, harakatning talabalari

orasida faol yosh avlodning shakllanishiga turtki bo'ldi. Hamma «Yuz qo'mitasi»ning a'zosi bo'lishni va ko'kraklarida tinchlik posbonlari nishonini taqib yurishni xohlar edi (ayni vaqtda ko'pchilik nishonning aniq kelib chiqish tarixini ham bilmas edi!).

1970 yilning o'rtalarida «Yuz qo'mitasi» tomonidan, mamlakatdagi eng yoshi ulug' bo'lgan Finlyandiya tinchlik Ittifoqini tinchlikni saqlash bo'yicha barcha mustaqil tashkilot va harakatlarning markaziy birlashmasi etib tayinlash bo'yicha taklif kiritildi. Ushbu taklif mantiqqa mos ko'rinishda edi, chunki barcha tashkilotlarning asosiy mafkuralari tashkilotlarning yoshidagi farqqa qaramay o'xshash edi.

1980 yillarda, Yevropadagi xalqaro yadroviy qurolsizlantirish mustaqil harakatining muvaffaqiyatli faoliyati davrida, Pasila temir yo'l stantsiyasini ko'chirish va uni tinchlik stantsiyasiga aylantirish amalga oshirildi. Bino ko'chirilishi jarayoni keng ravishda yoritib borildi. Yangi joydagi qurilish vaqtida binoda yong'in yuz berdi. Yumor hissidan xolis bo'lmagan Finlyandiya temir yo'llari Boshqaruvi kutubxonasi mudiri o'sha paytda binoning ikkita urushdan omon qolganini, lekin Ittifoqning qo'lida deyarli butkul yonib kul bo'lganini belgilab o'tdi. Ittifoqning ko'ngillilari tashabbusga to'lib-toshgan holda yong'in keltirib chiqargan shikastlarni tuzatish va loyihani yakuniga yetkazishni xohlar edi. Shu o'rinda belgilab o'tish joizki, shanbaliklar ham Finlyandiyaning ijtimoiy innovatsiyalaridir. Finlyandiyada shanbaliklar davomida juda ko'p uylar qurilgan va umumiy kuchlar yordamida juda ko'p turdagi loyihalar amalga oshirilgan. Qurilish ishlari yakunlanganidan so'ng, bino Yevropadagi yadroviy qurolsizlantirish harakati faoliyatining mashhurligi, ommaviyligi va faollashuvining, keyinchalik ham tinchlik uchun amalga oshirilgan boshqa ko'pgina jamoat kompaniyalarga bo'lgani kabi ortib borishiga turtki bo'ldi. Professor Yoran fon Bonsdorff stantsiya kuzatuvchisi hushtagi orqali jo'nash uchun signal bergan vaqtida, tadbirga «Tinchlik uchun safarbarlik» nomini berishdi. Temir yo'l stantsiyasining ko'chirilishi va uning yangi joydagi qurilishi, ko'p ma'noda ushbu nomning indikatori bo'ldi. Hozirgi kunda Tinchlik stantsiyasi Tinchlik Ittifoqidan tashqari yana «Yuz qo'mitasi», quoldan bosh tortish birlashmasi, ko'ngilli faoliyat bo'yicha xalqaro jamoat birlashmasi,

Ydin gazetasi tahririyati, ko'pgina do'stlik jamiyatlari va do'stlik jamiyatlari Ittifoqining uyidir. Tinchlik Ittifoqining barcha a'zo tashkilotlari boshqa jamoat tashkilotlari kabi binoning yaxshi jihozlangan va qulay auditoriyalaridan foydalanishi mumkin. Bino ko'zga ko'rinarli joyda joylashgan va shu bilan o'z faoliyatini reklama qilmoqda.

Tinchlik stantsiyasi ko'zga tashlanadigan joyda joylashgan. Bino o'zining go'zalligi va o'zgacha ko'rinisdagi beton qurshovi bilan diqqatni jalb qiladi. Xelsinki aholisining ko'pchilik qismi Tinchlik Stantsiyasi qaerda joylashganini biladi.

**Kalevi Suomela,**

*Finlyandiya Tinchlik Ittifoqining ko'p yillar davomidagi raisi, hozirgi kunda uning faxriy raisi*

## **24. «PROMETHEY» OROMGOHLARI VA YOSHLAR FALSAFIY YIG'ILISHI**

Ulg'ayishga aloqador ko'pgina an'analar yoshlarga uydin, maktabdan va do'stlardan yiroq joylarda muloqot qilishga imkon beradi. Finlyandiyada yevangelik-lyuteran cherkovining konfirmatsion maktabi, Finlyandiyada dindorlik ikkinchi o'ringa tushib qolgan bo'lsa ham yoshlar orasida o'z shuhratini saqlab qoldi.

Cherkovga mansub bo'lmagan yosh finlar uchun 1984 yilda din tarixi va falsafa fanlari maktablarda dars jadvaliga kiritildi. Tez vaqt ichida yoshlar konfirmatsion oromgohning alternativ variantini tashkillashtirish istagini bildirdilar va 1989 yilda o'qituvchilar bilan birgalikda ilk «Prometey» oromgohi tashkillashtirildi.

O'qituvchilar tomonidan tashkillashtirilgan dunyoqarashlar tarixi oromgohi o'z o'zidan unchalik muhim innovatsiya emasdir. Tez orada tashkilotga o'tgan yilda oromgohda bo'lgan yoshlarni va ko'ngillilar sifatida yigirma nafar yoshlar bilan hayot, jamiyat va insonning borlig'i masalalarini muhokama qilgan holda vaqt o'tkazishni xohlagan kattalarni jalb qildilar.

Shuningdek, dunyoqarash masalalarini ko'pincha oromgohlarda yodlash kerak bo'lgan tayyor yo'naltiruvchi g'oyalarsiz ko'rib chiqish mumkinligi ham innovatsiyadir. Barcha

oromgoh qatnashchilarining tajribasi, qarashlari, fikr va tuyg'ulari jiddiy ravishda e'tiborga olinadi va tanqidlar hurmat bilan ifodalanadi. Katta yoshdagi o'qituvchilar, tarbiyachi va bolalarning dialogi, fikr yuritish va o'z fikrini yetkazish bo'yicha maxsus mashqlar orqali bajariladi. Natijani hech kim oldindan bilmaydi.

Oromgohlarning yosh tashkilotchilari, ularni o'tkazish uchun odatda yuqori malakali katta yoshdagilar kerak bo'lgan bu turdagi tadbirlarni tashkillashtirish va o'tkazish orqali o'z zimmalariga katta mas'uliyat oldilar. Ular turli xildagi qiyinchiliklarga bas kelar va nufuzli mehmonlar bilan suhbatlar o'tkazar edi.

2002 yilda «Prometey» oromgohlari an'analaridan «Mofim» (NuortenfilosofiatapahtumaNufit) yoshlar falsafiy harakati vujudga keldi. «Prometey» oromgohlaridagi ijodiy suhbatlar mashhur faylasuflar, siyosatchilar, ideologlar, san'at va madaniyat arboblarni ma'ruzachilar sifatida yirik tadbirga taklif qilishga va ularni yoshlar bilan yoshlarning shartlari bo'yicha suhbatga chaqirishga ruhlantirdi.

Ma'ruzachilarga «Mofim» yig'ilishida nutq so'zlashlari uchun avvaliga 15 daqiqqa berilar edi. So'ngra, ma'ruzachiga yosh «opponent» bilan dialogning yosh ishtirokchisiga oldindan ma'lum bo'lgan ikkita mavzu bo'yicha suhbat qilishga yarim soat vaqt berilar edi. Dialogning yakunida tomoshabinlar suhbatga qo'shilar edi. Yig'ilish bir yarim soat davom etadi va ko'pincha ma'ruzachining mavzusiga juda chuqur kirib ketiladi. Dialogdagi bosh urg'u, ma'ruzachida yoshdagidan ko'ra anchagina ko'proq bo'lishi mumkin bo'lgan bilimlarni o'rganishga emas, balki o'zaro hurmatga beriladi.

«Prometey» oromgohi va «Mofim» yig'ilishi tijoriy shaklga asoslanmagan, hamda partiyalar va jamg'armalardan pullik qo'llab-quvvatlashni olmasalar ham takroriy, rivojlanayotgan va o'sayotgan tadbirlardir. Ko'ngilli munosabat minglab yosh finlarga mustaqil ravishda voyaga yetish va mafkuraviy rahbarlarga ko'r-ko'rona ergashmaslik bo'yicha antiqa imkoniyat taqdim etdi.

**Matti Myakelya,**

*«Prometey oromgohini qo'llab-quvvatlash» jamiyatining 2000-2005 yillardagi Raisi*

## 25. UMUMIY JAVOBGARLIK KAMPANIYALARI

1945 yilda urush tugaganidan so'ng, finlarda odamlarning g'amlariga umumiy javobgarlik va hamdardlik hissi uyg'ondi. Ayni vaqtda cherkovning katta ijtimoiy javobgarlikni o'z zimmasiga olishni boshlashi kerakligi ma'lum bo'ldi. Urushdan keyin chet eldan yordam tariqasida olingan mablag' va tovarlarni tarqatish yangi shafqat cherkov tashkilotining ustivor vazifasi edi. Ikkinchi muhim qadam birgalikdagi mablag' yig'imi edi.

1949 yilning oxirida Finlyandiyaning Markaziy cherkovlar ittifoqining (hozirda Cherkov xizmati deb nomlanadi) bosh kotibi va ijtimoiy masalalar bo'yicha kotibi birgalikda Sharqiy va Shimoliy Finlyandiya'dagi ishsizlik va hosilsizlikka doir qiyin ahvol bilan tanishdilar. Muhtojlik juda qo'rqinchli edi. Sillasi qurigan va kasal bolalarning ko'rinishi ularga juda kuchli ta'sir ko'rsatdi. O'sha vaqtda har yilgi umumdavlat birgalikdagi mablag' yig'imini boshlashga qaror qilindi. Birgalikdagi yig'im urush davrida boshlangan «Xalq yordami» yig'imining davomi sifatida qabul qilingani tufayli, uning homiysi Finlyandiya prezidenti Paasikivi edi. Prezidentning radio va televideniedagi chiqishlari, birgalikdagi mablag' yig'imiga boshidan boshlab ko'mak bo'ldi.

Birgalikdagi mablag' yig'imining yordam berishdan tashqari boshqa bir vazifasi ham bor edi – u muhtoj ahvolda bo'lgan insonlarning tayanchi bo'lib xizmat qildi. 1963 yildan boshlab yordam berish doiralari xalqaro miqyosgacha kengaydi. Yordamni bevalar, och qolganlar, ishsizlar, boshpanasizlar, qochoqlar, tashlab ketilgan bolalar, OITS-kasallik yetimlar, nogironlar, ruhiy xastalar, shuningdek, bemorlarga qarovchi ularning yaqinlari, psixoaktiv moddalarga qaram bo'lgan onalar, maktabda o'zlashtirishi past bo'lgan bolalar, keksalar va yana boshqa ko'pchilik olar edi.

Ayni vaqtda mablag' yig'ish bo'yicha jamoat aksiyalari salmoqli darajadagi moliyaviy ko'maklashishni amalga oshirdilar va ijtimoiy sohada faoliyat yurituvchi ko'pgina tashkilotlarning faoliyatiga e'tibor qaratdilar. Oxirgi yillarda mablag' yig'ish bo'yicha Jamoat kampaniyasi tufayli ijtimoiy ishonch zarurati, palliativ davolash

bo'yicha hududiy tengsizlik, hamda Finlyandiya ham mavjud bo'lgan odam savdosi kabi masalalar ommaviy muhokamalarning nigohiga tushdi. Har yilgi birgalikdagi yig'im vaqtida to'plangan mablag'lar hisobidan bolalar bog'chalari, maktablar va cherkov qavmlaridagi ahloqiy tarbiya ham moliyalashtiriladi.

Yordam berish va tarbiyaviy ishlardan tashqari jamoaviy ta'sir ham birgalikdagi yig'imning vazifasi bo'lib xizmat qiladi. Jamiyatni tanqid qiluvchi cherkov sadosi 1990 yilda kuchaydi. Birgalikdagi mablag' yig'imi tashabbusi bilan tuzilgan «Ovqat banki» loyihasi tufayli paydo bo'lgan «Cherkov ochlik guruhi» buning misolidir. Mablag' yig'ish bo'yicha kompaniya har yili keng ommaga, jamiyat uchun ahamiyatli bo'lgan biron-bir masalani siyosiy darajada muhokama qilish uchun olib chiqishga va ushbu masalaning samarali yechimini taklif qilishga harakat qiladi.

Birgalikdagi mablag' yig'imi – bu insonlarga Finlyandiya yoki rivojlanayotgan mamlakatlardagi kelib chiqishi, dini va siyosiy qarashlaridan qat'iy nazar, qiyin hayotiy ahvolga tushib qolgan odamlarga yordam berishga da'vat qiluvchi bo'lgan Finlyandiya yevangelist-lyuteran cherkovining har yilgi kampaniyasidir. yetmish yildan ortiqroq vaqt o'tgan bo'lsa ham, birgalikdagi mablag' yig'imi hanuzgacha ham minglab odamlar tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgan o'z yaqinlarini sevish xalq harakati bo'lib qolmoqda.

**Kalle Kuusimiyaki,**  
*«Diakoniya» jurnalining Bosh muharriri, 2001-2008 yildagi  
yig'implarni o'tkazish faoliyati boshqaruvchisi,  
Cherkov boshqaruvining diakon xizmati rahbari*

## **26. «QIZIL XOCH»NING OCHLIK KUNI**

Fin Qizil Xoch jamiyati tomonidan tashkillashtiriladigan Ochlik kuni, bir necha yillar davomida o'tkazib kelinayotgan juda muvaffaqiyatli tadbirdir. O'nlab yillar o'tgan bo'lsa ham, Ochlik kuni haligacha ham Falokat qurbonlari uchun mablag' yig'imi kabi Qizil Xochning mablag' to'plash bo'yicha eng muhim yillik tadbirlari qatoridadir. Ochlik kunining doimiy maqsadi ham Finlyandiya,

ham chet ellardagi muhtojlarga yordam berish uchun iloji boricha ko'proq miqdorda ochlik tutish yo'li bilan tejalgan mablag'larni to'plash bo'lgan. Lekin, mablag' yig'imi Qizil Xoch tomonidan tashkil qilinadigan ko'ngilli faoliyat va safarbarlikka tayyorlikning ham ahamiyatga molik qismidir.

Umummilliy darajadagi mablag' yig'ish doirasida faqatgina turli usullar bilan pul yig'ish amalga oshirilibgina qolmay, balki shahar va kichik aholi punktlaridagi aholining safarbarlikka tayyorlik darajasi ham ishlab chiqiladi. Misol uchun, ichimlik suvining ifloslanishi holatida.

Qizil Xoch tomonidan o'tkaziladigan Ochlik kuni bir kishining fikri tufayli paydo bo'ldi. 1980 yil davom etar va Somali yarim orolini qamrab olgan ochlik haqida barcha yangiliklarda xabar berilar edi. Finlyandiyaning Xyame hududining qoq markazida joylashgan Pyalkyan shahridadagi farmatsevt Maylis Korxonon, Qizil Xoch butun mamlakat miqyosida mablag' yig'ishni amalga oshirishi kerakligi haqidagi fikrga birinchi bor kelmayotgan edi. Bunday qamrovdagi mablag' yig'ishni birdan tashkil qilishning iloji bo'lmadi. Biroq, Qizil Xochning hududiy bo'limi raisi Erkki Korkama ushbu g'oyaga kirishib ketdi va 1980 yilning noyabr oyidagi Siskoning tavallud kunida ilk marotaba mablag' yig'ish tadbiri o'tkazildi. Kelasi yili ushbu tadbir butun mamlakat miqyosida olib borildi va Ochlik kuni nomini oldi.

Avvaliga Ochlik kuni odatda oziq-ovqatga bog'liq edi. Ushbu kun davomida maktablar, ish joylari va uylarda faqatgina eng kerakli bo'lgan mahsulotlarni yeyishga da'vat qilinay va shu yo'l bilan tejab qolingan mahsulotlar Qizil Xochga berilar edi.

Ammo, 1990 yillarning boshlarida Ochlik kuni ko'cha va maydonlarga ham chiqib bo'ldi. Finlyandiyaning turli chekkalarida xayriya ishlari uchun ehson qilingan nonlar sotilar, no'xat sho'rvalar tayyorlanar va quymoqlar pishiriladi. Ushbu ovqatlarni sotishdan kelib tushadigan mablag'lar, yig'ilayotgan mablag'lar jamg'armasiga tushar edi.

Minglab ko'ngillilar ezgu maqsadlar uchun mablag' yig'ish bilan shug'ullanishni xohlashar va ko'chalar, maydonlar, uylar, maktablar va korxonalarga bir necha soatlik shanbaliklarga borishar edi. Hozirgi vaqtda mablag'larni yig'ish bilan 10-15 mingtaga yaqin kishi



shug'ullanmoqda. Ba'zan esa ko'proq, masalan shoshilinch yordam lozim bo'lgan yirik halokatga aloqali bo'lgan vaqtlarda.

Ochlik kuni faol va e'tibor tortuvchi tadbirga ham aylandi. Ushbu kunda mablag' yig'ish uchun velosiped poygalari, yugurishlar, qo'shiq aytish va boshqa konkurs va musobaqalar o'tkaziladi. Ochlik kunidagi tadbirlarda do'stlar guruhlarini ishtirok etadilar, korxonalar va tashkilotlarda xodimlar o'rtasida konkurs va musobaqalar o'tkaziladi. Mablag' yig'uvchilar hattoki restoranlarga ham «kirib borishdi».

Ochlik kuni va halokatlarda jabr ko'rganlarga ko'maklashish jamg'armasi – nodir fin innovatsiyalaridir. Tashkilot yig'ilgan mablag'lar tufayli shu zahoti yordam berishga tayyor holdadir, chunki ko'maklashish jamg'armasida doimo bo'sh turgan bir necha million yevro pul bor.

Vaqt o'tgan sari, halokatlarda jabr ko'rganlarga ko'maklashish jamg'armasiga mablag' yig'ish sezilarli darajada o'zining qamrovini kengaytirdi va hozirgi kunda har oyda ehson qilib turuvchi tashkilot va odamlar asosiy o'rin egallab turmoqdalar, lekin Ochlik kuni hali ham markaziy o'rindadir. Shu bilan bir vaqtda mablag' yig'ish faoliyatida halokatlarda jabr ko'rganlarga ko'maklashish jamg'armasining ahamiyati oshdi.

Oxirgi o'n yillik mobaynida Ochlik kuni halokatlarda jabr ko'rganlarga ko'maklashish jamg'armasiga har yili o'rtacha 2,4 million yevrodan, yaxshiroq yillarda esa hatto 4 million yevrodan ham ko'proq mablag' tushirgan. Ochlik kunlarini o'tkazish tufayli odamlarga yordam berish faoliyati uchun jami bo'lib 84 million yevro to'plashga muvaffaq bo'lindi. Qizil Xoch to'plangan ehsonlar hisobidan ko'pgina yillar davomida qiyin ahvolga tushib qolgan insonlarga yordam berib kelmoqda. Ularning orasida doimiy ochlikdan azob chekayotgan Afrika aholisi va boshqa toifadagi odamlar, shu jumladan tabiiy ofatlardan jabr ko'rgan odamlar bor.

Fuqarolik urushlari va mojarolar davomida jabr ko'rganlar, o'z uylariga qaytgan qochqinlar va zilzilalar tufayli buzilgan uylarini qaytadan qurayotgan oilalarga yordam berildi.

Finlyandiyada Qizil Xoch halokatlarda jabr ko'rganlarga ko'maklashish jamg'armasidan avtohalokat yoki baxtsiz hodisaga uchragan odamlarga mablag' ajratadi. Shuningdek, mablag'lar

ushbu jamg'armadan Finlyandiyaga kelayotgan qochoqlar oqimi uchun ham ajratiladi. Ijtimoiy-psixologik yordam katta o'lchamdagi tabiiy ofatlar, misol uchun tsunami, maktabdagi otishma yoki yirik yo'l-transport hodisalaridan jabr ko'rganlarga yetkazildi.

Shunga qaramay, Finlyandiyada yordam oluvchilarning asosiy qismi - bu uyi va mol-mulki yonib ketgan oilalardir. Qizil Xochning hududiy bo'limlari oilalarga shu zahoti eng zarur narsa va ashyolar bilan yordam berishlari mumkin. Qizil Xochning hududiy bo'limlarida eng zarur narsalarning hattoki yarim kechasi yoki dam olish kunlarida ham olinishi mumkin bo'lgan sanoat mollari do'konlari bilan shartnomalari mavjud.

Shuningdek, Fin Qizil Xochi qo'llab-quvvatlash faoliyati uchun mablag'larni hukumat, Yevropa Ittifoqi va tijorat korxonalaridan ham oladi, biroq yordamni shoshilinch tarzda ko'rsatish kerak bo'lgan, qaror qabul qilish faqatgina Qizil Xochning qo'lida bo'lgan vaqtlarda halokatlarda jabr ko'rganlarga ko'maklashish jamg'armasi yordamga keladi. Halokatlarda jabr ko'rganlarga ko'maklashish jamg'armasidan keluvchi mablag'lar hisobidan, favquloddagi vaziyatlar vaqtida yordam berish uchun foydalaniladigan, ziyon yetgan hududlarga Qizil Xoch tomonidan ijaraga olingan transport vositalarida olib boriladigan tovar va jihozlar ham xarid qilinadi. Bunday tovar va jihozlar, misol uchun dala gospitallari, chodirlar, kiyim-kechak, yopinchiqlar, dori-darmon va oziq-ovqat katta hajmlarda Qizil Xochning Tampere shahridagi logistika markazida to'plab qo'yiladi. Bu narsalar o'sha yerdan halokat hududlariga tezkor ravishda yetkaziladi.

Halokatlarda jabr ko'rganlarga ko'maklashish jamg'armasidan tashqari, fin Qizil Xochining yana bir xalqaro miqyosdagi o'ziga xos tomoni bor – yordamchilarning salmoqli darajadagi zahirasi. 1960 yillarning ikkinchi yarmidan boshlab Qizil Xoch ikki mingdan ziyod turli xil sohalar bo'yicha mutaxassislarni tayyorladi. Shifokorlar, hamshiralar, logistika, suv-oqava va texnik-sanitariya sohalar muhandislari, aloqa va axborot ishlari mutaxassislari, bularning ming nafaridan ortiq qismi hanuzgacha bir necha soat yoki bir kun ichida dunyoning istalgan qismiga ko'maklashish uchun yetib borishga tayyor holdalar. Fin Qizil Xoch jamiyatining turli mamlakatlar mutaxassislariidan tashkil topgan ushbu kadrlar

zahirasi, muhtojlarga ko'maklashish uchun yetib borishga tayyor bo'lgan dunyodagi eng yirik guruhlardan biridir. Fin Qizil Xoch jamiyati har yili ikki yuzdan ortiq ko'ngillilarni qisqa yoki uzoq muddatli vazifalarni bajarish uchun jo'natadi. Ammo, tayyor holdagi zahiradan mamlakat ichida ham foydalaniladi. Masalan, Finlyandiya 2015-2016 yillarda kirib kelgan qochqinlar oqimi vaqtida bo'lgani kabi.

Halokatlarda jabr ko'rganlarga ko'maklashish jamg'armasiga kelib tushgan mablag'larning 90 foizidan ko'prog'i jismoniy shaxslar tomonidan ehson qilingan, qolgan 10 foizi tashkilot va korxonalaridan kelib tushgan. Fin Qizil Xoch jamiyatining halokatlarda jabr ko'rganlarga ko'maklashish jamg'armasi bo'yicha belgilab qo'ygan qoidalariga binoan, mablag' yig'imi harajatlari to'plangan jami mablag'ning 15 foizidan oshishi mumkin emas. Bu degani, Ochlik kuni davomida o'tkazilgan aksiya va yig'implardan kelib tushgan mablag'larning 85 foizi to'g'ridan-to'g'ri muhtojlarga yordam berishga yo'naltiriladi.

Fin Qizil Xoch jamiyati, Xalqaro Qizil Xoch va Qizil Yarim oy jamiyatining mustaqil milliy tashkilot huquqidagi a'zovidir. Bu kabi milliy tashkilotlar 190 mamlakatda faoliyat yuritmoqda. Ushbu milliy tashkilotlar faqatgina mutaxassislarining hamkorlik tarmog'inigina emas, balki favqulodda holatlarda yordam berishga shay holda bo'lgan va tayyorgarlik ko'rgan ko'ngillilarni ham tashkil qiladi.

**Xannu-Pekka Layxo,**

*2001-2015 yillarda Fin Qizil Xoch jamiyatining jamoatchilik bilan aloqalar va mablag' yig'ish bo'yicha bo'limi boshlig'i*

## **XALQARO HAMKORLIK**

### **27. SHIMOLIY MAMLAKATLAR HAMKORLIGI**

Shimoliy mamlakatlarning hamkorlik tarixi XIX asrdagi panskandinav harakatining paydo bo'lish vaqtidan boshlangan. 1860 yillarda boshlangan hamkorlik asosan madaniy va intellektual harakat sifatida edi, lekin asrning oxiriga kelib huquq va qonunchilik doirasidagi hamkorlik tuzilishiga ham ega bo'ldi.

XX asrning boshlarida, ko'pgina tashkilot va jamoat harakatlarining faoliyati boshqa Shimoliy mamlakatlar bilan aloqa va hamkorlikni rivojlantirish va mustahkamlashni o'z ichiga olar edi. Birinchi jahon urushi yakunidan so'ng, Shimoliy mamlakatlarning beshalasini ham birlashtiruvchi Shimoliy harakat tashkil qilindi.

Birinchi va Ikkinchi jahon urushlari orasidagi davr mobaynida, tashqi siyosatdagi betaraflik tamoyilida yagona fikrni ifodalagan Shimoliy mamlakatlar hamkorligida uzluksiz chuqurlashish jarayoni davom etdi. Ikkinchi jahon urushi yakunidan so'ng, mamlakatlar davlat mudofaasi va milliy xavfsizlikni ta'minlash borasida har xil yo'lda ish yuritishlariga qaramay, hozirgi kunda ham mavjud bo'lgan zamonaviy yaqin hamkorlik vujudga keldi.

1952 yilda Shimoliy mamlakatlar Ittifoqi tashkil qilindi (Finlyandiya unga Sovet Ittifoqining pozitsiyasi tufayli 1955 yilga qadar a'zo bo'lolmadi). 1950-1960 yillarda bundan keyingi integratsiyaga asos bo'lgan pasport ittifoqi tuzildi, yagona mehnat bozori tashkil qilindi va ijtimoiy himoya bo'yicha shartnoma imzolandi.

Shimoliy Mamlakatlar hamkorligi ijtimoiy faoliyatning deyarli barcha sohalarini qamrab oldi. Ammo, Shimoliy Mamlakatlar hamkorligiga xos bo'lgan bitta muntazamlikni belgilab o'tish lozim. Misol uchun, Mudofaa Ittifoqi (1940 yillarda) va Iqtisodiy Ittifoq (1960 yillarda) kabi mamlakatlar o'rtasidagi kelishuvlar imzolalanishi ko'zda tutilgan yirik loyihalar muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Ayni vaqtda ham hukumat organlari, ham jamoat tashkilotlari ishtirok etgan va oddiy fuqarolar uchun foyda keltiradigan mahalliy miqyosdagi amaliy yechimlar va o'zaro faoliyat esa samarali natijalarga erishdi.

1960-1970 yillarda Finlyandiyaning o'sha paytdagi prezidenti Urxo Kekkonen tomonidan ilgari surilgan va Shimoliy mamlakatlarni yadroviy quolsiz hudud deb e'lon qilish tashabbusi Shimoliy mamlakatlarda keng ravishda muhokama qilindi. Ushbu tashabbus amalga oshirilmaganligiga qaramay, u harbiy sohadagi hamkorlikni kuchaytirish va turli mamlakatlarning u yoki bu masalalarda tutgan o'rinlarini anglash uchun turtki bo'ldi.

1970 yillar boshlarida, «Nordek» iqtisodiy ittifoqini tuzish loyihasi muvaffaqiyatsizlikka uchraganidan so'ng, Shimoliy mamlakatlar hamkorligining rasmiy organlari tuzilmasi tashkil qilindi. Tarkibiga mamlakatlar parlamentlarining deputatlari kiritilgan Shimoliy mamlakatlar Ittifoqidan tashqari yana kotibiyatga ega bo'lgan Shimoliy mamlakatlar vazirlari Kengashi ham tuzildi. Vazirlar va vazirlik xodimlari muntazam uchrashuvlarni o'tkazishni boshladilar. Ayni vaqtda Shimoliy mamlakatlarning Investitsiya banki ham tashkil qilindi. 1960 yillardayoq Shimoliy mamlakatlarning hududiy miqyosdagi hamkorligi rasmiy statusga ega bo'ldi va Shimoliy Kalot guberniyasi hududida Norvegiya, Shvetsiya va Finlyandiyaning o'zaro hamkorlikdagi faoliyati boshlandi.

Sovuq urushning yakunidan so'ng, Shimoliy mamlakatlar Baltika dengizi hududida ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirgan holda endigina mustaqillikka erishgan Baltika mamlakatlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha faol faoliyatlarini boshladilar. Ayni vaqtda siyosiy urg'u Yevropadagi integratsion jarayonlar tomon siljidi va buning natijasida Finlyandiya va Shvetsiya Yevropa Ittifoqi a'zolari bo'ldilar.

O'tgan o'n yillik dunyoda davom etayotgan globallashuv jarayoni va xavfsizlik siyosati jihatlariga urg'u beruvchi hamkorlikning yanada chuqurlashishi bilan ifodalandi. Bularning barchasidan tashqari, o'zining odatiy shaklida Shimoliy mamlakatlar hamkorligi insonlar va tashkilotlarning o'zaro hamkorligi va munosabatlarini amalda murakkablashtiruvchi, mamlakatlar orasidagi to'siq va to'g'onlarni bartaraf etishga katta e'tibor beradi.

**Larserik Xaggman,**

*1998-2011 yillarda «PohjolaNorden» assotsiatsiyasining Bosh sekretari*

## 28. «SHIMOLIY O'LCHOV»

«Janubiy o'lchov», «Shimoliy o'lchov» va yangi «Sharqiy o'lchov» Yevropa Ittifoqi siyosatining yangi vositalaridir. Ularning asosiy jihati shundan iboratki, ular barcha YI davlatlarini qamrab oladilar va Yevropa Ittifoqining yagona siyosatini olib borishni talab qiladilar. 1997 yilda Yevropa Ittifoqi doirasida «Shimoliy o'lchov» konsepsiyasi kiritilishining boshlanishi ayni shu maqsadda edi. Yevropa Kengashining 1997 yilning dekabr oyi sanasi bilan qabul qilingan qarorida, Finlyandiyaning «Shimoliy o'lchov» siyosatini ishlab chiqish tashabbuskori ekanligi qayd etilgan.

Ilk harakatlar rejasi 1999 yilda qabul qilindi. YI va Rossiya Federatsiyasi o'rtasidagi hamkorlik siyosati va aniq mavzular bo'yicha o'zaro munosabatlarning ma'lum bir qismi, «Shimoliy o'lchov» tomonidan tuzilgan doimiy faoliyatdagi tuzilmalar asosida olib boriladi. «Shimoliy o'lchov» doirasidagi munosabatlar shakli bo'lib, hozirgi kunda to'rttadan iborat bo'lgan hamkorliklar xizmat qiladi: «Shimoliy o'lchovning Ekologik hamkorligi», «Shimoliy o'lchovning jamoat salomatligi va ijtimoiy farovonlik sohalaridagi hamkorligi», «Shimoliy o'lchovning transport va logistika sohalaridagi hamkorligi» va «Shimoliy o'lchovning madaniyat sohalaridagi hamkorligi». «Shimoliy o'lchov»ning tashkiliy tuzilmasiga yana ikkita unsur qo'shilgan: «Shimoliy o'lchov instituti» va «Shimoliy o'lchovning Ish kengashi».

Shimoliy o'lchovning iqtisodiy hamkorligi uch asosiy yo'nalishda faoliyat yuritadi: misol uchun, oqava suvlarni tozalash kabi atrof muhitni himoya qilish; Rossiya Federatsiyasi hududidagi yadroviy chiqindilarni yig'ish va yo'q qilish; va Kaliningrad viloyatida atrof muhitni himoya qilish. Hozirgi kunda Rossiya bilan hamkorlikdagi eng yirik bo'lgan, qiymati 200 million yevroni tashkil qiluvchi Sankt-Peterburgdagi suvni tozalash inshootlari loyihasini Ekologik hamkorlikning natijasi sifatida ko'rsatish mumkin. Ushbu loyiha Baltika dengizi hududidagi tabiatni muhofaza qilish bo'yicha tarixdagi eng yirik va ayni paytda Rossiya Federatsiyasi bilan amaldagi hamkorlikning eng ahamiyatli loyihasidir. Loyiha Fin ko'rfazining janubiy akvatoriyasidagi suvni tozalashga qaratilgan.

Loyihani amalga oshirish davomida, Sankt-Peturburg suvni tozalash inshootlari operatori «Vodokanal» DUK zamonaviy va samarali faoliyat yurituvchi korxonaga aylandi. Suvni tozalash inshootlari bo'yicha harajatlar, Rossiya uchun yangilik sifatida foydalanish tariflariga qo'shiladi. Ayni paytda suvni tozalash inshootlari butun mamlakat uchun standart chizig'ini belgilab qo'yadi. Shimoliy investitsiya banki ushbu loyihani moliyalashtirish uchun xalqaro moliyalashtirishning yangi modelini ishlab chiqdi. Yevropa Ittifoqi, Shimoliy investitsiya banki, Yevropa taraqqiyot banki va yana ko'pgina YI davlatlari jami bo'lib 96,8 million yevro ajratdilar. Ekologiya hamkorligining qatnashchi-davlatlar tomonidan yaratilgan jamg'armasining hajmi 5,8 million yevroni, jalb qilingan kredit mablag'larining hajmi deyarli 40 barobardan ortiq bo'ldi.

Ushbu loyiha tufayli atrof muhitni himoya qilish eng muhim o'rin tutgan masalalardan biriga aylandi. RF prezidenti Vladimir Putin «Shimoliy o'lchov»ning kafili bo'lib kelmoqda va shuning uchun ham loyiha Rossiya va YI o'rtasidagi hamkorlikning muhim bosqichidir. Finlyandiya va Rossiya prezidentlari hamda Shvetsiya bosh vazirining suv inshootlarining ochilish marosimida shaxsan qatnashganliklari, loyihaning iqtisodiy va siyosiy ahamiyatining isboti bo'ldi.

Yadroviy xavfsizlik sohasida Kolskiy yarim orolidagi yadro chiqindilarini yig'ish va yo'q qilish bo'yicha beshta loyiha ish boshladi, yana bir nechitasi ko'rib chiqish holatidadir. YI va Rossiya o'rtasidagi aloqalarda bu kabi yaqin va keng qamrovli hamkorlik hali bo'lmagan edi.

Shimoliy o'lchovning jamoat salomatligi va ijtimoiy himoya sohasidagi hamkorligi, Norvegiya bosh vaziri Kyel-Magne Bondevik (Kjell-Magne Bondevik) tomonidan ilgari surilgan tashabbus bilan boshlangan. Shimoliy o'lchovning bu sohadagi hamkorligi, 2004 yilda Shimoliy o'lchovning ikkinchi ish rejasiga kiritilgan edi va Shimoliy o'lchov hududiga kiruvchi barcha davlatlar yangi Hamkorlikning a'zolari bo'ldilar. Na davlat chegaralari, na Yevropa Ittifoqi chegaralari kasalliklarning tarqalib ketishiga to'siq bo'lolmaydi. Hozirgi kunda Shimoliy o'lchovning jamoat sog'ligini saqlash va ijtimoiy farovonlik sohasidagi Hamkorligida, Baltika dengizi davlatlaridan tortib to Frantsiya va Kanadagacha bo'lgan

13ta mamlakat ishtirok etmoqda. Alohida mamlakatlardan tashqari, Xalqaro migratsiya tashkiloti, Xalqaro mehnat tashkiloti, Umumjahon sog'likni saqlash tashkiloti va Birlashgan Millatlar Tashkilotining UNAIDS dasturi kabi sakkizta xalqaro tashkilot Hamkorlikka a'zolar.

Shimoliy o'lchovning siyosati 2006 yilda, Finlyandiyaning Yevropa Ittifoqidagi raisligi vaqtida qaytadan ko'rib chiqildi. Buning natijasida Shimoliy o'lchov to'rtta (YI, Rossiya, Norvegiya va Islandiya) teng huquqli hamkorlarning siyosatiga aylandi. Shu bilan bir vaqtda, Shimoliy o'lchovning Deklaratsiya va Hadli hujjatni o'z ichiga olgan asosiy hujjatlari to'plami ham ma'qullandi.

Hadli hujjat yangi hamkorliklar uchun imkon yaratadi. Finlyandiyaning maqsadi, ushbu masalalarning YI va Rossiya o'rtasida yagona iqtisodiy hududni rivojlantirishdagi tutgan ustivor o'rnini hisobga olgan holda transport va logistika sohasidagi hamkorlik, hamda, samaradorlikka erishish maqsadidagi transport bo'yicha hamkorlik edi.

Umid qilamanki, xalqaro moliyaviy institutlar, yel, Rossiya va boshqa manfaatdor mamlakatlar, ayniqsa Germaniya, Polsha, Shvetsiya va Baltika davlatlari hamkorlik tashabbuslarini davom ettiradilar. Yana umid qilamanki, AQSh va Kanada ham ushbu hamkorlik mexanizmining faol kuzatuvchilari va ishtirokchilari bo'lishni davom etadilar.

Biz Rossiya bilan teng huquqli hamkorlik ruhida ishlashimiz va hamkorligimiz doirasida kelajakdagi rivojlanishning ustivor yo'nalishlarini birgalikda belgilashimiz kerak.

**Paavo Lipponen,**

*1995-2003 yillarda Bosh vazir,*

*2003-2007 yillarda Parlament spikeri*

## **29. TORNIO VA XAAPARANTA – EGIZAK SHAHARLAR**

«Chegara bu imkoniyat, to'siq emas». Ta'lim masalalari bo'yicha maslahatchi Yuryo Alamyakining ushbu so'zlari, Tornio-Xaaparanta egizak shaharlarining hamkorligi loyahasiga yo'lboshlovchi yulduz bo'lib xizmat qildi. Albattaki, shaharlarning



umumiy tarixi ham, aholining qarindoshlik rishtalari ham shaharlar orasidagi ruhiy chegarani oshib o'tishga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Yangi amallar uchun eng katta to'siqlar mavjud hayotda emas, balki «quloqlar orasida», ya'ni kallalardadir. Yo'l ustida to'siqlar paydo bo'lgan vaqtda ular shunchaki olib tashlanadi. Ayni shu harakat omillari Tornio va Xaaparanta shaharlarining, aslida hech qanday chegaralar huddi yo'qdek bir shahar sifatida birlashishiga ta'sir qildi.

Botnik ko'rfazining shimoliy qismidagi qirg'oqda joylashgan Tornio shahri, 1621 yildan 1809 yilga qadar Shvetsiya va Finlyandiyaning umumiy shahri tariqasida edi. Biroq, Xamin tinchlik shartnomasiga asosan shahar «Torne daryosi yoqalab, hududiy printsip bo'yicha noodatiy usulda bo'lingan edi» - gubernator Ragnar Lassinantti shunday belgilab o'tgan edi. Oradan o'n yillar o'tgandan keyingina (1842 yilda), Shvetsiya hududida qolgan Tornio shahri sobiq hududining bir qismida Xaaparanta shahri tashkil qilingan edi. Finlyandiya uchun Tornio-Xaaparanta hududining g'ulg'ula va kulfatlar vaqtidagi ahamiyati doimo o'ziga xos edi. Birinchi jahon urushi davomida shaharlar orasidagi temir yo'l Finlyandiya va Shvetsiya o'rtasidagi tovarlar tashishni ta'minladi. Shuningdek, Germaniyaga yo'nalgan maxfiy yeger so'qmoqlari ham shu hududdan o'tar edi. Shvetsiyaga evakuatsiya qilish va Xaaparantadagi «bitlarga qarshi hammomlar» Ikkinchi jahon urushi vaqtida minglab finlarga ma'lum bo'ldi.

Munitsipalitetlarning yaqin hamkorligi 1960 yillar oxirlarida Xaaparanta shahrida umumiy foydalanish uchun basseyn qurilishidan boshlandi. Keyinchalik, 1970 yillarning boshlarida o'sha yerda umumiy suv tozalash inshootlari, Tornio shahrida esa shahar chiqindixonasi qurildi.

1970 yillarning oxirlarida, o'sha vaqtlardagi ta'lim qonuniga zid bo'lgan, bolalarning chegara oralab maktabga borish imkoniyati to'g'risidagi kelishuv ham tuzildi. Ta'lim vazirligi bilan, ularning bu haqida xuddi hech narsadan xabarlari yo'qdek kelishildi.

Botniensis viloyatining 1980 yillarning o'rtalarida tashkil qilinishi, keng miqyosdagi hamkorlik yo'lidagi haqiqiy turtki bo'lib xizmat qildi. Shuningdek, ikki nafar faxriy konsul ham saylangan edi – biri Stokgolmgga, ikkinchisi Xelsinkiga. O'z hukumatidan

tashqari, viloyatning haligacha barcha markaziy boshqaruv sohalaridagi hamkorlik faoliyati organlari bor.

Viloyat tashkil qilinganidan so'ng hamkorlik jadal rivojlanishni boshladi. Misol uchun, hozirgi kunda barcha sport mashg'ulotlari o'tkazish inshootlari umumiydir va barcha muhim madaniy tadbirlar birgalikda o'tkaziladi (masalan KalottiJazz, Rajasoitto). Shaharlarda umumiy til maktabi (Xaaparantadagi to'qqiz yillik o'rta maktab) va Yevropa litseyi, shuningdek umumiy axborot-turist markazi va hokazolari mavjud. Tornio shahrining sport guruhi, to'p xokkeyi bo'yicha muntazam chempionatdagi o'z o'yinlarini Xaaparanta shahridagi sun'iy muz maydonida o'tkazadi va u yerda Finlyandiyaning ko'pgina chempion unvonlarini qo'lga kiritdi. Hozirgi kunda shaharlarning shved ligasida o'ynaydigan umumiy guruhi mavjud.

Yevropa Ittifoqiga a'zolik tufayli, shaharlar chegarasidagi umumiy shahar markazini rejalashtirish bo'yicha yangi g'oyani amalga oshirish haqiqatan ham mumkin bo'ldi. Ammo loyiha Xaaparantada qarshilikka duch keldi. Shu tufayli, munitsipalitetlar saylovi doirasida referendum tashkil qilindi va natijada, «Chegarada» loyihasi «Ha» ovozlariidan salgina ko'proq «Yo'q» ovozlariiga ega bo'ldi. Xaaparanta shahrining IKEA do'konini mamlakatning shimoliy chegarasida joylashtirish bo'yicha konkursda g'olib chiqqanidan so'ng barcha eshiklar ochildi va loyiha chegaraning ikkala tomonida ham jadal rivojlana boshladi. Infratuzilmaning qurilishi uchun Yevropa Ittifoqi jamg'armalarining Interreg dasturi orqali olingan qo'llab-quvvatlash, loyihaning amalga oshishiga juda ham katta yordam berdi.

Ko'chalar, xonadonlar, idora binolari va mehmonxonalar chegaraning har ikkala tomonida ham qurilar va rejalashtiriladi. Tornio shahri hududida Shimoliy Finlyandiya eng yirik savdo markazi bo'lgan, o'nlab do'konlar uchun yangi va hashamatli «Rajalla – På Gränsen» qo'shma savdo markazi qurilmoqda edi. 2011 yilning kuzida savdo markazi yonidan, malika Viktoriya tomonidan tantanali ravishda ochilgan va keyinchalik uning ismi bilan atalgan savdo maydoni qurilgan edi.

Shved hududida, IKEA va Ikano korxonalaridan uzoq bo'lmagan joyda juda ko'p biznes va idoraviy maydonlar qurilgan

edi. 2017 yilda Xaaparantada litsey va katta mehmonxonani o'z ham ichiga olgan yirik ish markazi ochilgan. Umumiy turistik markaz bir necha yil avval qurilgan edi. 2015 yilda u Finlyandiyaga yopirilgan bir necha o'n ming qochoqlarni qabul qildi.

Hudud butun Shimoliy Kalot guberniyasidagi eng yirik va jozibador savdo markaziga aylandi. Amalga oshirilishi uchun avvaliga 20-30 yil ajratilgan loyiha, bu muddatning yarmida bajariladiganga o'xshaydi. Mahalliy aholi kayfiyatining qanday o'zgarganligini tomosha qilish juda hayratlanarli edi.

Tornio va Xaaparanta hech bo'lmasa jismonan qaytadan birlashmoqda. Bu g'oya va qarashlarning ularga ishonilgan va ularni amalga oshirish uchun to'g'ri vaqt tanlangan taqdirda amalga oshishi mumkinligini bildiradi. To'g'ri tushunilgan narsa osondir.

**Xannes Manninen,**

*1973-1995 yillarda Tornio shahrining Hokimi,*

*2003-2007 yillarda Munitsipalitetlar masalalari bo'yicha Vazir,*

*1995-2001 yillarda Parlament deputati*

### **30. CHO'QINTIRGAN JAMOALAR HARAKATI**

Ikkinchi jahon urushi vaqtida Finlyandiya va Shvetsiya o'rtasida paydo bo'lgan «Cho'qintirgan jamoalar harakati», ixtiyoriy milliy tashabbusga asoslangan insonparvarlik yordamining shakli edi. Shvedlarning Finlyandiyaga yordam berish niyati juda kuchli edi va xalq biron narsa qilish yoki biron-bir yordam berishni xohlar edi. Ko'maklashish niyati cho'qintirgan jamoalar harakati orqali to'g'ri yo'lga yo'naltirildi.

Barcha fin bolalarini chegara ortiga jo'natishning iloji yo'q edi, lekin 70 000 nafarga yaqin bola Shvetsiya va Daniyada vaqtinchalik oilaga ega bo'ldilar. Urushda halok bo'lganlarning bolalariga, ikki yil davomida muayyan bir yetim bolaga g'amxo'rlik qilish majburiyatini olgan cho'qintirgan harbiylar tomonidan yordam berildi. Urushda halok bo'lgan finlarning bolalari 1958 yilgacha bo'lgan davrda Finlyandiya va chet elda, Shvetsiya va AQShdagi cho'qintirgan harbiylardan jami bo'lib 2,2 million marka oldilar. Ko'pchilik shvedlar Finlyandiyaga kuchi yetganicha yordam

berdilar. Munitsipalitetdagi har bir fuqaro cho'qintirgan jamoa yig'imiga, kelajakdagi majburiyatlarni o'z zimmasiga olmagan holda ozroq bo'lsa ham o'z hissasini qo'shishi mumkin edi.

Cho'qintirgan jamoalar o'rtasidagi aloqalar rasm bo'lib qolgan amaliyotga tayangan holda o'rnatilar edi. Masalan, dengiz bo'yidagi jamoa hamkor sifatida boshqa dengiz bo'yidagi jamoani, sanoat shahri boshqa sanoat shahrini va qishloq jamoasi ayni shunday qishloq jamoasini olar edi. Umumiy jihatda qishloqlar, jamoalar, shaharlar va shaharlarning bo'limlari o'rtasida jami bo'lib 653ta aloqa o'rnatildi. Shvetsiyada birlashma va ittifoqlar tuzildi, Finlyandiyada esa Mannergeym nomidagi bolalarni himoya qilish Ittifoqining mahalliy bo'limi ayni shundaylardan edi. Shu tariqa faoliyat fuqarolar faolligiga asoslangan holda, hukumatning qaramog'i ostida emas va yordam to'g'ri joyga borayotgan edi.

Munosabatlar yillar davomida yaqin do'stlikka olib keluvchi yozishmalar va o'zaro tashriflarga tayangan holda olib borilar edi. Ko'maklashish obyektlari birgalikda tanlanar edi. Shvedlar yordamning yetkazilishi kerak bo'lgan manziliga yetib borganligi to'g'risidagi dalolatnomani va mablag'larning sarf qilinishi bo'yicha hisobotni olishar edi. Bundan maqsad, misol uchun hamshiralarni yollash, bolalar maslahatxonalari va mahalliy shifokorlar uchun tibbiy punktlar qurish orqali uzoq vaqt mobaynida sharoitlarni yaxshilash edi. Shior «O'ziga ko'maklashishi uchun yordam» edi.

Cho'qintirgan jamoalar harakati yordamining ahamiyati, urush tugaganidan so'ng olingan mablag'lar hisobidan zeb-ziynat buyumlarini xarid qilib, keyinchalik ularni normalashtirilgan mahsulotlarga qo'shimcha tarzda yuqori narxlarda sotilishidan so'ng bir necha barobarga oshdi. Avvaliga, keyinchalik «Shakar toji» nomini olgan shakarni xarid qildilar. «Shakar tojlari» munitsipalitetlardagi 500ta salomatlik markazlari qurilishiga ko'maklashdi va Mannergeym nomidagi bolalarni himoya qilish Ittifoqi qoshidagi 27ta salomatlik markazlarini qurdi. Xelsinki va Kuopio shaharlaridagi bolalar shifoxonalari va keyinchalik ko'pgina bolalar bog'chalari, o'z asosiy sarmoyasini ayni shu mablag'lar hisobidan oldilar. Fin jamoalari cho'qintirgan jamoalar harakati yordamida jami bo'lib 1,4 million marka oldilar.

1946 yilda «Norden» birlashmalari Finlyandiya, Shvetsiya va Daniyada qardosh jamoalarga jamoalar o'rtasidagi madaniy hamkorlikka asoslangan yordam berish faoliyatini boshladilar. «Poxyola-Norden» nomli fin birlashmasi ularga kelasi yilda qo'shildi va fin jamoalari sheriklik qilish uchun shved cho'qintirgan jamoalari va ularning shimoliy hamkorlariga ega bo'ldilar.

1950 yillarda bir tomonlama ko'maklashish madaniy hamkorlik shaklini oldi va tashkilot Mannergeym nomidagi bolalarni himoya qilish Ittifoqidan ajralib chiqdi. Keyingi o'n yilliklarda «Norden» birlashmalari bilan faol hamkorlik qildilar. Shuningdek, birgalikdagi safarlar, orkestr gastrollari, sport musobaqalari va hokazolarni tashkil qildilar. Faoliyat shunchalik o'xshash ekanligi sababli, 1980 yillarning boshlarida kuchlar birlashtirildi. Cho'qintirgan jamoalar harakati tugatildi va «Poxyola-Norden» nomli qardosh-jamoalar birlashmasi faoliyati bilan umumlashtirildi.

Cho'qintirgan jamoalar va qardosh jamoalar faoliyatlari, fin jamoalarining xalqaro faoliyatini boshlab berdi va Finlyandiyaga urush tufayli yuzaga kelgan xalqaro izolyatsiya muammosini yechishga yordam berdi. Keyinchalik bu kabi rasmiy do'stona munosabatlar boshqa mamlakatlar bilan ham o'rnatilgan edi.

**Aura Korppi-Tommola,**

*Professor, Finlyandiyaning ilmiy jamoalari Federatsiyasining ijrochi  
direktori*

## **31. DEMILITARIZATSIYA QILINGAN ALAND OROLLARI**

Aland orollariga aloqador ilk ahamiyatga ega bo'lgan xalqaro shartnoma, bundan deyarli 160 yil avval Parijda imzolangan edi. Ushbu bitim 1853-1856 yillaridagi Qrim urushi yakunlari bo'yicha, 1956 yilda tuzilgan Parij shartnomasining bir qismi edi. G'olib chiqqan Buyuk Britaniya va Frantsiya mamlakatlari, hamda mag'lub bo'lgan Rossiya shartnomaning tomonlari edi. Shartnomaga binoan, Rossiya Aland orollarida o'z istehkomlarini qurmaslik majburiyatini oldi.

Ushbu shartnoma hozirgi kunga qadar amal qilmoqda. Uning mazmuni va shakli, 1921 yildagi Jeneva shartnomasi va 1940 va 1948 yillardagi Finlyandiya va Sovet Ittifoqi o'rtasida tuzilgan tinchlik shartnomalariga asosan yangilandi va kengaytirildi. Sovet Ittifoqi tarqalib ketganidan so'ng, Finlyandiya va Rossiya Federatsiyasi 1992 yilda Aland orollari bo'yicha avvalgi shartnomalarning muddatini uzaytirish haqida kelishib oldilar.

Shu tariqa, 1856 yilning 30 martida tuzilgan shartnoma, eng eski o'z kuchini yo'qotmagan xalqaro harbiy-siyosiy hujjatlardan biridir. Shartnoma negizida 1809 yildagi Shved Finlyandiyasi va Rossiya o'rtasidagi tinchlik bo'yicha og'ir muzokaralar yotmoqda. Shvetsiya Rossiyaga keyinchalik buyuk chor davlatining g'arbiy avanpostini bo'lib qolgan Aland orollarini boy berdi. Rossiya 1830 yilda orollarda Bomarzd qal'asini qurishni boshladi. Qal'ada 8000 nafar harbiy joylashtirish rejalashtirilgan edi (Aland orollarining o'sha vaqtdagi aholisi 12 000 kishi edi).

1853 yildagi Qrim urushi vaqtida qal'aning asosiy qo'rg'oni tayyor va uning ichida 2000 askar bor edi. Frantsiya va Buyuk Britaniya 1854 yilda Rossiyaga orqa tomondan, Baltika dengizidan hujum qildilar (urush ko'proq Qora dengizda o'tayotgan bo'lsa ham), biroq Kronshtadt va Sveaborg qal'alari Sankt-Peterburga va Xelsinkiga qarshi bo'lgan hujum vaqtida to'siq bo'ldilar. Shunga qaramay, Bomarzd qal'asining ishg'oli (xalq orasida Aland urushi deb ataladi) askariy kuchlarda ustunlikka ega bo'lgan ittifoqchilar uchun oson vazifa bo'ldi. Ishg'ol qilinganidan so'ng qal'a portlatildi.

Parijdagi tinchlik muzokaralari davomida Shvetsiyaning Aland orollarini qaytarib olish harakatlari zoe ketdi. Buyuk Britaniya va Frantsiya Rossiyani orollardagi o'z istehkomlarini olib tashlashga majbur qildilar va kelajakda orollarda boshqa istehkomlar qurmaslik vazifasini unga yukladilar. Shu tariqa, 1856 yilning 30 martida Aland orollarining demilitarizatsiyasi to'g'risidagi Shartnoma ma'qullangan edi.

Birinchi jahon urushining boshlang'ich davrida, Rossiya demilitarizatsiya to'g'risidagi shartnomaning qisman bekor qilinishini talab qildi, hamda Angliya va Frantsiya bunga rozilik berdilar. Aland orollarida mudofaa istehkomlari qurilib Rossiya va fin qo'shinlari joylashtirildi. Urush tugaganidan so'ng Finlyandiya

mustaqillikka erishdi, ammo Aland orollarining siyosiy hukumati orollarni Shvetsiyaga qaytadan qo'shishni talab qildi. Ushbu holat Finlyandiya va Shvetsiya o'rtasidagi murakkab mojaroga olib kelgan «Aland masalasi»ning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Finlyandiya Aland orollariga o'zini o'zi boshqarishni taklif qildi, biroq Aland orollari aholisi bunga rozi bo'lmadi.

Masala yaqindagina Jenevada tashkil qilingan Millatlar Ligasining muhokamasiga topshirildi va 1921 yilda Finlyandiyaning Aland orollarida egalik qilishiga qaror qilindi. Finlyandiyaning orollarga keng qamrovli o'zini o'zi boshqarish bo'yicha qonun, shved tili va madaniyatiga kafolat berishi zaruriy shart bo'ldi.

Ayni vaqtda demilitarizatsiya bo'yicha yangi qonun qabul qilindi va unga binoan Aland orollari neytral hudud deb e'lon qilindilar. Shuningdek, 1856 yildagi demilitarizatsiya to'g'risidagi shartnoma ham uzaytirildi. Yangi shartnomani 11 davlat imzoladi, shu jumladan Finlyandiya ham. Sovet Ittifoqi shartnomalarni imzolamadi, chunki mamlakat Millatlar Ligasi a'zoliciga qabul qilinmagan edi. Shartnomaning 6-paragrafiga asosan, urush davomida Aland orollari neytral hudud bo'lib qoladilar va ulardan biron-bir boshqa davlatga xavf solishni ko'zda tutuvchi harbiy harakatlar jarayonida foydalanish ma'n qilingan. Betaraflikni tasdiqlash uchun 6- va 7-paragraflar ichiga, Finlyandiyaga tegishli bo'lgan vakillik qilish punkti ham qo'shildi. Bu Finlyandiyada shunday talqin qilindi: xavf tug'ilgan yoki urush boshlangan vaqtda, Finlyandiya Aland orollarining betaraflicini saqlash uchun kerakli bo'lgan harbiy mudofaa choralarini ko'rishi lozim. Bunday harbiy mudofaa harakatlari to'g'risida darhol Millatlar Ligasiga xabar berish lozim edi. Keyinchalik bu jarayon, arizaning shartnoma a'zolari bo'lgan davlatlarga taqdim qilinishi lozim ekanligi sifatida tushunildi.

Shartnomaning 7-paragrafida harbiy holat yoki urush xavfi vaqtida, Aland orollarining betaraflicini saqlab qolish uchun shartnoma tomonlarining javobgarligi belgilab qo'yildi. Paragrafga binoan, shartnoma ishtirokchilari bo'lgan davlatlarga Finlyandiyadan ham ko'proq majburiyatlar yuklatilgan. Finlyandiya va Jeneva shartnomasini imzolagan davlatlar, 1939 yilda Ikkinchi jahon urushi bo'sag'asida shartnoma shartlariga aynan mos

ravishda harakat qildilar. Finlyandiya kerakli mudoafaa harakatlarini bajarishni boshladi va Aland orollarining betarafiligini deyarli to'liq saqlab qoldi. 1940 yildagi Finlyandiya va Sovet Ittifoqi o'rtasidagi murakkab tinchlik kelishuviga, 1921 yildagi shartnomadagi kabi Aland orollarining demilitarizatsiyasi to'g'risidagi bitim qo'shildi, faqat 6- va 7-paragraflari bundan mustasno.

Shuningdek, urushning 1941-1944 yildagi davomi vaqtida Finlyandiya Aland orollari uchun betaraflikni ta'minladi va hudud harbiy harakatlarda ishtirok etmadi. Finlyandiya Sovet Ittifoqi va Germaniyaning Aland orollarini bosib olish bo'yicha rejalari amalga oshmasligi ustidan ham kuzatib bordi. Agarda Aland orollarini himoya qilish bo'yicha, Aland orollari aholisidan iborat xalq lashkarlarini ham o'z ichiga olgan Finlyandiyaning mudofaa rejasi va 6-, 7- paragraflar bo'lmaganida, dushmanning bosib olish harakatlari yanada haqiqatga yaqinroq bo'lar edi.

Aland orollarining harbiy betarafiligini o'z ichiga olgan 1921 yildagi shartnomaning aynan o'zi, butun Baltika dengizi hududining barqarorligi va Aland orollarining holatida katta ahamiyatga ega va bundan keyin ham ega bo'ladiganga o'xshaydi. Shu tariqa, betaraflik bo'yicha talab urush davrida amalda bo'ladigan demilitarizatsiyadan ham ko'proq ahamiyatga egadir.

Aland orollari asrlar davomida ko'pgina bosqichlardan oshib o'tdi: ular turli davlatlarning 1809, 1856 va 1921 yillardagi shatranj o'yinlarida piyoda sifatida bo'ldilar. 150 yil davomida hudud demilitarizatsiya qilingan edi. 1921 yilda Aland orollari Finlyandiya avtonomiyasiga aylandi va harbiy harakatlarga betaraf bo'ldi. Orollar o'z betarafiligini Ikkinchi jahon urushi vaqtida saqlab qoldi va umid qilamizki, uni kelajakda ham saqlab qoladi.

**Roger Yansson,**

*2003-2007 yillarda Parlamentning Aland orollaridan deputati*

## **32. KARELLARNING KO'CHIRILISHI**

Finlyandiya va Sovet Ittifoqi o'rtasidagi Qish urushi va urushning davomidan keyingi tinchlik muzokaralari (1940 va 1944 yillarda Moskvada, 1947 yilda Parijda), Parij tinchlik shartnomasi



bo'yicha karel aholisining ilgari Finlyandiyaga qarashli bo'lgan Viborg guberniyasidan Finlyandiya hududiga ommaviy tarzda ko'chirilishiga olib keldi. Tinchlik shartnomasi shartlariga binoan Finlyandiya o'z hududining 10 foizini yo'qotayotgan edi. Sovet Ittifoqiga shu jumladan 3tasi shahar bo'lgan 44ta aholi punktlari o'tib ketdi. Bundan tashqari, yangi chegara 21ta aholi maskanlaridan o'tar edi. Tarix o'zini o'zi takrorladi. Karellar ming yillar davomida ikki madaniyat, ikki cherkov va ikki davlat o'rtasida yashadilar. 1323 yildagi Orexov tinchlik shartnomasiga binoan Kareliya ikki qismga bo'lingan va karellar chegaraning har ikkala tomonida ham kolgan edi. Bundan so'ng chegara 9 marotaba surildi va bu mamlakatning sharqiy sarhadlari uchun o'tgan 600 yil davomida odatiy hol edi.

Qish urushi 1940 yilning mart oyida yakunlanganidan so'ng, Sovet Ittifoqiga o'tgan hududlardan o'z uy-joy va mulklarini tashlab ketishga majbur bo'lgan 440 ming karell evakuatsiya qilindi. Evakuatsiya qilinganlarning birinchilari 1939 yilning kuzida keldilar. Evakuatsiya qilinganlar masalalari bilan avvaliga, shu uchun alohida ravishda tuzilgan mahalliy ijtimoiy ko'maklashish komissiyalari shug'ullandilar. Lekin keyingi yildan boshlab, evakuatsiya qilinganlarning o'sib borayotgan masalalari bilan parlamentning Kareliyadan saylangan deputati Urxo Kekkonen tomonidan boshqarilgan, ko'chib kelganlarni ijtimoiy ta'minlash Markazi shug'ullanishni boshladi. Karel immigrantlari 1940 yilda karellarning huquqlarini himoya qilish maqsadida ish yurituvchi Karel Ittifoqini tashkil qildilar. Parlament tomonidan 1940 yilning iyun oyida tezkor ko'chirib o'tish to'g'risida va avgust oyida karellarning yo'qotgan mulklarini qoplash to'g'risidagi qonunlar amaliyotga kiritildi. Davom urushidan so'ng, ularga qo'shimcha tarzda yerlarni xarid qilish to'g'risidagi qonun qabul qilindi (1945). Joylashish to'g'risidagi qonun fin munitsipalitetlari, cherkov va xususiy fermalarga o'z yerlarining bir qismini davlatga topshirish majburiyatini yukladi. Ushbu yerlar evakuatsiya qilingan karellarga topshirildi.

Qonunlarning bajarilishini Qishloq xo'jalik Vazirligi qoshidagi, Laxdenpoxyadan bo'lgan karel immigranti Veykko Vennamo tomonidan boshqarilayotgan Aholi maskanlari masalalari Bo'limi

kuzatib bordi. Karellarni joylashtirish ishi fin va dunyo miqyosida juda og'ir edi. Bunday loyiha boshqa hech qaerda amalga oshirilmagan edi. yerlarni xarid qilish qonuniga har bir aholi punkti va qishloq uchun, yaxshi qo'shnihilik munosabatlarini saqlab qolish maqsadida joylashtirish rejasini ham qo'shdilar. Ushbu joylashtirish rejasi bo'yicha yangi joylarni karellarning avvalgi yashagan joylariga o'xshashliklari, misol uchun iqlim sharoiti, savdo aloqalari va iqtisodiy shartlar e'tiborga olingan holda tanlanar edi.

Joylashtirish ixtiyoriy asosda kechdi. Kareliyaning g'arbiy bo'ynining aholisi fin tilida so'zlashuvchi janubiy sohilga, Markaziy va Sharqiy bo'yin aholisi esa janubiy Finlyandiyaga joylashtirildi. Shimolroqda, asosan Savo, Poxyos-Poxyanmaa, Kaynuu va Kayanigacha bo'lgan hududlarda Ladoga Kareliyasi aholisi joylashtirildi. Kareliya aholisi faqatgina shved tilida so'zlashiladigan hududlarga ko'chirilmadi. Bosh vazir Paasikivi talabiga binoan, karellarni joylashtirish bo'yicha qonunga tilga oid punkt qo'shildi va unga ko'ra karellarni joylashtirish til munosabatlariga ta'sir qilmasligi kerak edi.

Joylashtirish bo'yicha qonun va reja karellarning qishloq hududlari va janubiy Finlyandiyaga ko'chirilishini belgilab qo'ygan, hamda agrar markazlariga urg'u berilgan edi. Karell fermerlariga beriladigan yerning maydoniga Kareliyadagi yo'qotilgan yerning maydoni ta'sir ko'rsatar edi. Odatda eng yaxshi badallarni o'z yerlarini yo'qotganlar olar edi. Ayni vaqtda o'z yerlariga ega bo'lmagan qishloq aholisi yoki shaharliklar yomonroq ahvolda edi. Unumdorligi past botqoq hududlaridagi kichik fermalarni olgan ko'pgina kichik yer egalari ham yomon ahvolda qoldilar. Shahar ishchilarining ustunligi shunda ediki, ularni joylashtirishda ishchi kuchiga talabgor bo'lgan aholi punktlari o'zaro raqobatda edi.

Urushdan so'ng o'zini qaytadan qurayotgan Finlyandiyadagi evakuatsiya davri ham ko'chib o'tayotganlar, ham ularni qabul qilayotganlar uchun qiyin edi. Yangi sharoitlar, qo'shnilar va madaniyatga o'rganish uyni sog'inish hissini kuchaytirar edi. Yangi joyga o'rganish jarayonini haqoratlash, maktabdagi ajratishlar va yangi aholiga bo'lgan ishonchsizlik ham qiyinlashtirar edi.

Karellar bir-birlariga ko'maklashishar va endilikda bu holat ularni, avvallari har xil mayda madaniyatlarga bo'linib ketganlarni birlashtirib turar edi: Salmidan bo'lgan pravoslav karellar va Viborgdan kelgan aslzoda xonimlar endilikda evakuatsiya qilinganlarning umumiy taqdirini yashar edi. Karel madaniyati va urf-odatlarini saqlab qolish uchun turli xildagi jamiyat va birlashmalar paydo bo'ldi.

Karel madaniyatining mohiyati 1970 yillarning boshlaridagina hamma tomonidan tan olindi. Ish yurishib ketdi va endilikda karel madaniyati rasm bo'ldi. Yevropa Finlyandiyasida o'z ildizlarini topishga o'sib boruvchi qiziqish paydo bo'ldi. Geneologiyaning o'sishi 2 millionga yaqin finda karel ildizlari borligini ko'rsatdi. Karel madaniyati va Kalevala urflarini fin madaniyatining tarkibiy qismi, hattoki fin madaniyatining dastlabki vatani sifatida tan olinishi, finlar orasidagi karel madaniyatiga bo'lgan qiziqishni orttirdi. Bularning barchasi karellarning doimo karell bo'lib qolganliklari va vatanlaridan ayrilsalar ham, o'ziga xosliklarini saqlab qolganliklaridandir. Shuning uchun ham hozirgi kunda Finlyandiyadagi har bir katta va kichik novvoyxona karel kalitkalarini pishiradi, pivo yorlig'ida «Karjala» (Kareliya) yozuvi va P. Xannikaynenning «Karel Qo'shig'i» Finlyandiyadagi eng mashhur madhiyalarning biri bo'lib qolmoqda

**Xannu Kilpelyaynen,**

*2003-2007 yillarda Karellar Ittifoqining Ijrochi direktori*

### **33. PASSIV QARSHILIK**

XIX asrning oxirida rossiyalik millatchi doiralar tomonidan Rossiya chegara bo'yi hududlarida, shu jumladan Finlyandiyada ham batartib ruslashtirish jarayoni boshlatildi.

1898 yilda Nikolay Ivanovich Bobrikov Buyuk Finlyandiya Knyazligining gubernatori etib tayinlandi. Uning fikriga ko'ra, finlar konstitutsiya va mustaqillik to'g'risidagi g'oyalarni juda ham ochiq ravishda tarqatishni boshladilar va endilikda ushbu g'oyalarni xalq ongidan haydab chiqarish vaqti kelgan edi. Bobrikov Finlyandiyadagi boshqaruv va madaniyatni ruscha usulga o'girish

bo'yicha batafsil harakatlar dasturini tayyorladi. Finlar uchun dasturni amalga oshirish Finlyandiya Konstitutsiyasiga zid va «davlat to'ntarishi» va «Finlyandiyaning o'ldirish» bilan teng edi.

Finlyandiyaning «ruscha usul» bo'yicha o'zgartirish bo'yicha rejalar tufayli yuzaga kelgan finlar qarshiligi, uning odatiy holatlariga nisbatan keskin ravishda o'zgardi. Qarshilik ko'rsatish usullari samarali va madaniy edi. Hamkorlikni muntazam ravishda rad etish asosiy g'oya edi. Qarshilik ko'rsatish harbiy harakatlarsiz urush olib borish edi. Urush olib borishning bunday dohiyona harakatlari butun mamlakatni qamrab oluvchi tarmoqning shakllanishiga ta'sir ko'rsatdi.

Fin va shved yoshlarining konstitutsiyaviy partiyalari a'zolari, g'oyaviy kelishmovchiliklariga qaramay, o'z kuchlarini birlashtirdilar. Passiv qarshilikni boshqarayotgan «Kagaali» tashkiloti, ishchilarga hukumatga qarshi harakatlarida moliyaviy yordam berayotgan edi. Talabalar va ishchilar joylardagi faol da'vatchilar bo'ldilar. Ayollar ham o'z qarshilik harakatlarini tashkil qildilar.

Finlarning qarshiligi shundan iborat ediki, ular o'zlariga yoki o'zlarining qonunlariga qarshi bo'lgan harakatlarni tan olish, qo'llab-quvvatlash va bajarishdan bosh tortar edi. Qarshilik orqali finlar bu kabi jamoat kuchiga zo'ravonlik ishlatmasdan erishdilar va oxir-oqibatda hukumat ularning xohishlarini tan olishga majbur bo'ldi.

Qarshilik harakatini Tolstoyning ixtiyoriy qullik to'g'risidagi g'oyalari ruhlantirar edi: agarda odamlar o'zlarining insoniy huquqlari to'g'risidagi ma'lumotga ega bo'lmasalar va o'zlariga o'tkaziladigan zulmga qarshi hech narsa qilmagan bo'lsalar, u holda ularga zulm o'tkazilayotgani uchun faqat o'zlarini ayblashlari mumkin.

Finlarning zo'ravonliksiz qarshilik bo'yicha tasavvuri keng edi. Himoyaning asosiy usullaridan biri xalqni o'qitish edi. Ikkinchi muhim usul qat'iy e'tiroz edi. Kurashning boshlanishida harakat a'zolarining ko'pchiligi e'tirozlar, da'vatlar va shijoatli so'zlardan keyin keskin choralarga – hamkorlikni batamom rad qilish va umummilliy bo'sunmaslikni xohladilar. Bular siyosiy qarshilikning muhim choralari deb hisoblanar edi. Bundan tashqari, ijtimoiy va iqtisodiy hamkorlikni rad etish, hamda ruslar va ruschilik tomonida

bo'lgan rus va finlarga boykot e'lon qilishga odamlarni da'vat etardilar.

Qarshilik harakatining boshlanishida finlar Yevropaning atoqli arboblari, Finlyandiyaning konstitutsiyaviy huquqlarini himoya qilish bo'yicha ommaviy norozilikka jonlantirishga harakat qildilar. Rus podshosiga «Pro Finlyandiya» (ProFinlandia) harakatining jami bo'lib, Yevropaning 1050 nafar obro'li adabiyot, fan, san'at va siyosat arboblari tomonidan imzolangan 12 arznomasi yuborildi. «Pro Finlyandiya» harakati o'z tuzilishi bo'yicha ijtimoiy fikrni ko'tarishga muvaffaq bo'lgan yagona tarixiy xalqaro harakat edi.

Finlyandiyadagi qarshilik harakati butun mamlakat bo'yicha bo'limlarga ega bo'lgan tashkilotning paydo bo'lishiga olib keldi. Shuningdek, rasmiy tsenzurani aylanib o'tishga va targ'ibot adabiyotlarini chet eldan xufiyona ravishda olib kelishga erishgan yashirin nashriyotlar tarmog'i ham tashkil qilindi.

Eng faol kurash qurolli kuchlar masalasida olib borilgan bo'lsa kerak. Rus hukumati fin armiyasini tarqatishni va fin yoshlarini harbiy xizmatni Rossiya armiyasida o'tashga majburlamoqchi edi. 1901-1904 yillardagi armiyaga chaqiruvga qarshi bo'lgan ish tashlash o'z mevasini berdi: fin qo'shinlari rus armiyasi tarkibiga kirmadi va finlarga Rossiya va Yaponiya o'rtasidagi urushda qatnashishga to'g'ri kelmadi. Chaqiruv 1905 yilda urush tugaganidan so'ng to'xtatildi. Finlarning ko'pchilik qismi avvallari kuzatilmagan va uning natijasida Rossiya podshosining yon berishiga majbur qilgan, 1905 yildagi ommaviy ish tashlashda qatnashdilar. Zulmning birinchi davri tugadi.

Finlar XX asrning ilk zo'ravonliksiz kurash shakllaridan birini yaratdilar. Bunday kurash shakllaridan M. Gandi ham foydalangan.

**Stiv Xakslı,**

*Ijtimoiy-siyosiy fanlar doktori*

## **34. MARTTI AXTISAARINING TINCHLIKPARVARLIK FAOLIYATI VA MEROSI**

1989 yilning 1 aprel tunida Martti Axtisaari mijja qoqmay chiqdi. Janubiy G'arbiy Afrika Xalqlari Tashkilotining (SVAPO) askarlari Angolaga Namibiya hududidan hujum qildilar. Angola

hududida joylashgan Janubiy Afrika Respublikasining harbiy qo'shinlari darhol javob qaytardilar va hujum qilganlarning ko'pchiligini qirib tashladilar.

Namibiya endigina o'rnashayotgan tinchlik va mustaqillikka halokat xavf solayotgan edi. BMTning Namibiya'dagi maxsus vakili bo'lgan Axtisaari, keng qamrovli urush xavfidan tashvishlanmoqda edi.

Axtisaari davlat qo'shinlarining mamlakatda tartib o'rnatishlari va ahvolni barqarorlashtirishlari uchun, Janubiy Afrika askariy birliklarini o'z mudofaa pozitsiyalarini tashlab ketishga ko'ndirdi.

Axtisaari o'zining «Yo'lda» nomli memuarlarida: «Bu mening hayotimdagi eng qiyin qaror edi» - deb eslagan.

Davom etayotgan janglar yana jonlarni oldi, biroq bir haftadan so'ng otishma to'xtadi. 1990 yilning mart oyida Namibiya mustaqillikka erishdi va JAR hukmronligidan qutuldi. Bu Martti Axtisaari uchun oxirgi 15 yil davomida ko'tarib yurgan og'ir yukidan xalos bo'lishni anglatar edi. Namibiyaning mustaqillikka yetishish yo'li, Axtisaari kutganidan ancha uzunroq va mashaqqatliroq edi. Axtissarining kuchli irodasi va maqsadga intiluvchanligi, shuningdek, uning tinchlikparvarlik va muzokarachilikdagi iste'dodi tufayli ushbu yo'l bosib o'tildi.

Namibiya Axtissarining dunyodagi eng muvaffaqiyatli tinchlikparvarlardan biriga aylanishiga boshlang'ich joy bo'ldi. Balki, bu tajriba bo'lmaganida, u 2000 yilda «Krizis boshqaruvi tashabbusi» (CrisisManagementInitiative) nomli mojarolarni hal qilish tashkilotini ham tashkil qilmagan bo'lar edi.

2017 yilning iyunida Nobel mukofotining sovrindori 80 yoshga to'ldi. «Krizis boshqaruvi tashabbusi» Axtisaaridan qolgan merosdan qanday foydalanadi?

Burchak boshida ishonch turadi. Ishonchsiz tinchlik bo'lishi mumkin emas. Mojarodagi qarama-qarshi tomonlar faqatgina bir-birlariga emas, balki o'rtada turganlarga ham ishonishi kerak. Axtissarining aytishicha, bu tinchlikparvarlarning obro'-e'tiborga ega bo'lishi va nizo tomonlari bilan ochiq va ishonchli aloqalarni o'rnatish qobiliyatlari mavjud bo'lishini talab qiladi.

«Krizis boshqaruvi tashabbusi» tashkilotining eng kuchli tomonlaridan biri – bu mustaqil faoliyatdir. Mojaro tomonlari bizning

hech qaysi tomonning manfaatlari bo'yicha harakat qilmasligimizga ishonishlari mumkin. Va bizning fin ekanligimiz ham ega bo'lgan obro'-e'tiborimizning bir qismidir. Finlyandiya yirik davlatlar manfaatlari to'qnashuvidan uzoq yurishga harakat qiladi. Bundan tashqari, Finlyandiya harbiy-siyosiy bloklarga kirmaydi.

Mustaqillik va harbiy ittifoqlarga kirmaganlik xususiyati, dunyodagi siyosiy ahvolning beqarorligi va janjalli holatlarning yanada ko'proq chigallashganligi davrida birinchi o'ringa o'tadi. «Krizis boshqaruvi tashabbusi» mustaqil va erkin tashkilot sifatida, boshqa yirik davlat yoki tashkilotlarning faoliyat olib borish imkoniyati bo'lmagan joylarda ishlash imkoniyatiga egadir. Ayni shu xususiyat Finlyandiyaning boshqalardan ajratib turadigan va xususiyl diplomatiya tomonidan taklif qilinadigan qo'shimcha ahamiyatdir. Biroq, Axtisaari doimo «Krizis boshqaruvi tashabbusi» kabi uncha katta bo'lmagan tashkilotlarning o'z orqalarining ishonchligini muntazam ravishda tekshirib turishlari kerakligini eslatib turadi. Yanada kuchliroq va qudratliroqlar tomonidan beriladigan qo'llab-quvvatlashsiz yiqilib tushish hech gap emas.

Tinchlikparvarning guruhi qay darajada samarali ish olib borayotgan bo'lsa, uning o'zining muvaffaqiyatligi ham shu darajadadir. Axtissari yaxshi mutaxassislar bilan ish yuritish, uning uchun birinchi darajali ahamiyatda bo'lganligini doimo ta'kidlaydi.

Axtisaari fevral oyida Bryusseldagi tinchlikparvarlik faoliyati bo'yicha xalqaro konferentsiyada: «Agarda biron-bir kishi, nizolarni yolg'izlikda hal etish mumkin deb o'ylasa, demak u adashmoqda» - deb ta'kidlagan.

Yaxshi ishchi guruhini tashkil qilish uchun, uning tarkibiga qo'yilgan maqsadga erishishda o'ylab o'tirmasdan harakat qiluvchi odamlarni tanlash zarur. Tanlov davomida ish tajribasi va bilim darajasini ham e'tiborga olish kerak. Axtisaari guruh a'zolariga mas'uliyat yuklash va yaxshi bajarilgan ish uchun rag'batlantirish kerakligini maslahat beradi. Guruhning har bir a'zosi muhimdir. «Krizis boshqaruvi tashabbusi» hozirgi kunga qadar o'z faoliyatini ushbu tamoyillar bo'yicha yuritmoqda.

Axtisaari doimo oldin maqsadni shakllantirib, keyin esa unga erishish rejasini ishlab chiqqan. Samarali tinchlikparvarlik faoliyatining eng muhim shart-sharoitlaridan biri, doimo aniq va

haqiqatga yaqin maqsadlardir. Mojarodagi tomonlar nimaga erishishlari mumkin va nimadan voz kechishlari kerakligini shu tariqa biladilar. Ish jarayonida e'tibor muammolarga emas, balki ularning yechimlariga qaratilishi zarur. Bu narsada esa fin ishbilarmonligi yordam beradi.

Achex harakati bilan bo'lgan muzokaralar jarayoni maqsadlarni aniqlashtirishning yorqin misolidir. Sal kam 10 yil oldin Indoneziyaning «Ozod Achex» harakati o'zining mustaqilligi bo'yicha talabini bekor qildi, chunki Axtisaari bu talabni amalga oshmaydigan deb hisoblar edi. Qo'zg'olonchilar to'g'ridan-to'g'ri va ochiq ravishda gapirayotgan Axtisaarini hayron qolib tinglar edi. Shunga qaramay, Axtisaari tomonidan qo'yilgan ultimatumning tugashiga bir necha soat qolganda, qo'zg'olonchilar muzokaralarga tayyor ekanliklarini xabar qildilar.

Agarda biz barqaror tinchlik uchun haqiqatga yaqin shart-sharoitlarni yaratishga qurbimiz yetmasa, u holda yaxshi obro'-e'tibor, uyg'un guruh va aniq maqsadlardan foyda yo'qdir. Axtisaari zo'ravonlikning yo'qligi, tinchlik belgilari orasidagi faqatgina bir unsur ekanligini tez-tez ta'kidlaydi.

Axtisaari Bryusseldagi tinchlikparvarlik faoliyati bo'yicha xalqaro konferentsiyada: «Tenghuquqlilik siyosatisiz biz hech qachon mojarolardan qutulmaymiz» - deb ta'kidlagan.

«Krizis boshqaruvi tashabbusi»ning faoliyati Axtisaari tomonidan dastaklanayotgan Shimoliy Yevropa qadriyatlariga tayanadi. Biz nizo holatidagi tomonlarga, huquq va adolat tamoyillari bo'yicha faoliyat yuritadigan jamiyat qurishga ko'maklashamiz. Bu siyosiy va iqtisodiy hukumatning taqsimlanishi va oddiy inson hayotining yaxshilanishini ifodalaydi. Ushbu shart-sharoitlarning mavjudligi yangi nizolar kelib chiqishining oldini oladi. Mojarolarda jabr ko'rgan aholi qatlamlarini oyoqqa turg'izish jarayonini keng holatda ko'rish muhimdir. Unda tinchlik o'rnatish va shoshilinch insonparvarlik yordamini ko'rsatishdan tashqari, yana turli xil hayot sohalaridagi rivojlanish bo'yicha uzoq muddatli hamkorlik olib borish ham zarur.

Finlyandiyada tinchlikparvarlarning yangi yosh avlodi yetishib kelayotganligi belgilab o'tish quvontiradi. Maktablarda har yili, tinchlikparvarlik ishining nima ekanligini tushuntirish, hamda o'smir



va yoshlarga nizolarni mustaqil ravishda hal etish vositalarini berish maqsadida ishlar olib boriladi.

O'tgan yilning noyabr oyida, Axtisaari Tampere shahridagi kasb-hunar maktablari talabalariga qiyinchiliklarga qaramay o'zlariga ishonishlariga da'vat qilgan edi. «Namibiyada bo'lgan vaqtlarimda, menda ko'p marotaba hamma narsani tashlab ketish istagi paydo bo'lar edi».

**Tuyya Talvitie,**

*«Krizis boshqaruvi tashabbusi» markazining ijrochi direktori*

## **35. YARADOR ASIRLARNI AYIRBOSHLASH OPERATSIYASI**

1915-1918 yillarda, Birinchi jahon urushi davrida raqiblar Tornio va Xaaparanta shaharlari orqali 63,5 ming urush asirlarini ayirboshladilar. O'sha damda bu urushlar tarixidagi eng yirik insonparvarlik operatsiyasi edi. Ushbu ayirboshlash operatsiyasi harbiy memuarlarda jang harakatlarining izohlari soyasida qolib ketdi.

Sharqiy frontda bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan davlatlar, ya'ni Rossiya, Germaniya va Avstro-Vengriya 1915 yilning qishida, shved shahzodasi Karl boshchiligida va Xalqaro Qizil Xochning himoyasida, yarador urush asirlariga ko'maklashish va ularni ayirboshlash uchun o'z vakillarini Stokgolm shahriga jo'natdilar. Muzokaralar 1906 yildagi Jeneva va 1907 yildagi Gaaga shartnomalari bo'yicha olib borildilar. Qizil Xochning yarador va quolsiz urush asirlarining endilikda dushman emas, balki yordamga muhtoj bo'lgan yaqin odamlar ekanligi to'g'risidagi g'oyasi ushbu muzokaralar uchun tagzamin bo'lib xizmat qildi.

Finlyandiya o'sha vaqtlarda ham aloqalar o'rnatishdagi vositachi sifatida faol ish olib borayotgan edi. Urushdagi qarama-qarshi tomonlar orasidagi pochta xizmati asosan shimoliy yo'llar orqali o'tar edi. Tornio va Xaaparanta orqali asirlar va ularning qarindosh-urug'lari o'rtasidagi xat tashish, hamda asirlarga mo'ljallangan pochta jo'natmalarini yetkazish faoliyati bundan avvalroq ham yo'lga qo'yilgan edi. Urush davrida Tornio va Xaaparanta shaharlari o'rtasidagi daryo ustidan pochta yetkazish

uchun arqon yo'li qurilgan edi. Tayanchlari yog'och minoralardan tashkil bo'lgan arqon yo'li yerdan 20 metr balandlikda o'tgan edi va uning uzunligi 1 kilometrdan ortiq edi. Arqon yo'li bo'yicha 45ta transport savatlari yurar edi.

Urush asirlarini ayirboshlash operatsiyasi uchun Rossiya Sankt-Peterburgdan Tornioyacha temir yo'l o'tkazdi, hatto boshlang'ich vaqtda Tornioning shimoliy qismidagi, o'sha paytda shved tomonidan ham temir yo'l o'tkazilgan Karunkigacha vaqtinchalik yo'lni ham qurdi. Shvetsiya Germaniyadagi Sassnits va Shvetsiyadagi Trelleborg shaharlari o'rtasida ikkita sanitar kemasi uchun ikki tomonlama suv aloqasini yo'lga qo'ydi. Trelleborg va Xaaparanta o'rtasida mahsus ravishda jihozlangan sanitar poezdlarini yo'lga qo'ydilar. Yarador asirlarni Tornioyoki daryosidan qishda ot chanalari, yozda esa barjalar orqali olib o'tar edi. O'sha vaqtlarda Tornio va Xaaparanta o'rtasida temir yo'l ko'prigi yo'q edi. Shu tariqa, umumiy marshrut bunday edi: Sankt-Peterburg – Tornio – Xaaparanta – Trelleborg – Sassnits har ikkala yo'nalish bo'yicha ham. Hisob-kitoblar bo'yicha, haftasiga bir marotaba 230-250 urush asirlari tashib o'tilishi kerak edi.

Yarador asirlarni davolash va parvarish qilish, shuningdek ularni tashish ishlarida Qizil Xochning Shvetsiya, Rossiya va Finlyandiyadagi xodimlarining kattagina qismi ishtirok etdi. Rossiyalik asirlarni Xaaparantada tashkil qilingan o'nta barak-gospitalga tashib o'tishar va Uchlar Ittifoqilik asirlarni Sankt-Peterburgdan ular uchun Tornioda qurilgan vaqtinchalik harbiy hospitalga tashib kelishar edi.

Ilk sanitar poezd Sankt-Peterburgdan Tornioyaga 1915 yilning avgustida yetib keldi va bir haftadan so'ng, Xaaparantaga Terezienshtadtdagi urush asirlari lagerlaridan poezd keldi.

Urush asirlari kelayotgan ilk poezdlar baland martabali amaldor va harbiylar vakillari tomonidan kutib olindi. Ularning orasida general-gubernator Frans Seyn o'z rafiqasi bilan va gubernator af Enexyelm ham bor edi. Shahzoda Karl, Rossiya Qizil Xochining Finlyandiyadagi oliy komissari, general-mayor Paul fon Etter va buyuk knyaz Kirill Vladimirovich Qizil Xoch tomonidan vakil bo'ldilar. Asirlar olib kelingan eshelonlar faxriy rota va harbiy

orkestrlar, hamda katta jamoat tomonidan stantsiyada kutib olinar edi.

1915 yilning avgustidan boshlab to 1918 yilning yanvarigacha Tornio va Xaaparanta o'rtasida, jami bo'lib 63465 nafar yarador va majruh bo'lgan asir tashib o'tildi. Rossiyalik asirlar soni 37295 nafar, nemis asirlari 3617 nafar va avstro-venger asirlari 22123 nafar edi. Turk asirlari 428 kishi edi.

Ayirboshlangan asirlarda jiddiy jarohat va mayibliklar bor edi. Ko'pchilikning kamida bir tana a'zosi kesib tashlangan, ko'plarining ikkala oyog'i ham yo'q, ba'zilarining deyarli barcha qo'l-oyoq a'zolari kesib tashlangan edi. Askarlar yuzlarida snaryad parchalaridan qolgan va jiddiy termik yaralar mavjud edi, ba'zilar jarohatlardan ko'r bo'lib qolgan edi. Urush va yaradorlik natijasida kelib chiqqan ruhiy jarohatlar yengil bo'lmagan bo'lsa kerak. Yaradorlar dala gospitalarida eng asosiy muolajalar va parvarish bilan ta'minlanar edi. Ularni cho'miltirishar, ularga yangi kiyim, dori-darmon va qisqa muddatli hordiq berishar edi. Yaradorlarning chechakka qarshi emlangan va yuqumli kassaliklarga chalinmagan bo'lishlari majburiy shart edi.

Qo'l-oyoq a'zolari kesib tashlanganlar qo'ltiq-tayyoqlar yordamida vagonlarga chiqishlari, hattoki o'zlarini tortib chiqarishlari o'ta hayratlanarli manzara edi. Shved fotografi Mia Grinning fotosuratlaridan, hozirgi kungacha saqlanib qolgan pochta otkritkalari uchun foydalanildi.

Yo'l davomida jarohat va kasalliklar kuchlarni shunchalik yo'qotar ediki, natijada yuzlab yaradorlarga o'z uylarini ko'rish ham nasib etmadi. Yo'lda halok bo'lgan Uchlik Ittifoqi askarlari Xaaparantada, Rossiya askarlari esa Torniodagi qabristonda ko'milar edi.

Rossiyadagi inqilobdan so'ng, 1917 yilning apreldan Torniodagi dala gospitalida qiyinchiliklar yuz bera boshladi. Oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazish va dala gospitalini ta'minlash holati yomonlashdi, hamda moliyalashtirish bo'yicha kechikishlar boshlandi. So'nggi eshelonlar 1918 yilning yanvari oyida o'tdilar.

Birinchi Jahon urushi shafqatsizligi vaqtida va uning yakunidan so'ng, qarama-qarshi tomonlarning eng yuqori darajadagi odamiylik va keng qamrovli insonparvarlik operatsiyasini amalga

oshirishga muvaffaq bo'lganlari e'tiborga loyiqdir. Finlyandiya ushbu operatsiyada yetakchi o'rinlardan birini egalladi. Amalga oshirilgan operatsiyalarning majmuasi jahon tarixi uchun chinakamiga yagona bo'ldi. Finlyandiya keyinchalik ham dunyoning turli joylarida paydo bo'layotgan mojarolar holatlarida «qozi bo'lib emas, aynan shifokor bo'lib» qatnashishga harakat qildi.

**Seppo Seytsalo,**  
*professor, «Orton» kasalxonasining faxriy bosh vrachi*

### **36. SARHADSIZ TARIXCHILAR**

Tarixchilar qanday qilib mojarolarni hal etish va ularning oldini olishda yordam berishlari mumkin?

Hattoki, eng qadimgi tarixiy voqealar bo'yicha turli xildagi talqin va nuqtai nazarlarning nizo holatlarini keltirib chiqarishi va ularni hal etishda to'g'anoq bo'lishi to'g'risida juda ko'p misollar mavjud. Mojarolar tinchlik bitimlari orqali barham topgandek tuyulsa ham, tarix zarvarag'i butunlay ag'darilsa ham, bu uning atrofidagi eng yomon holatda yangi to'qnashuvlarga olib kelishi mumkin bo'lgan bahs-munozaralarning qaytadan boshlanmasligiga kafolat bermaydi.

Mojarolar tugaganidan keyingi davrdagi ish, ushbu mojaroga aralashgan barcha tomonlarni qoniqtiruvchi nizo tarixini yozib qoldirishni ko'zlaydi. Biz Kiprning umumiy tarixini, ayniqsa Isroil va Falastin o'rtasida tinchlik o'rnatilganligidan so'ng, agarda u umuman qachonlardir o'rnatilsa, Yaqin Sharq tarixini yozish qanday murakkab bo'lishini juda yaxshi faraz qilamiz.

Tarixchilarning ko'pchiligi, nizolarni keltirib chiqarish va kengaytirishda o'z nomlari va ishlaridan foydalanish uchun yo'l qo'yishga tayyor bo'lgan hamkasblarini qoralaydilar. Buning natijasida, siyosatchi va safsatabozlarning tarixchilar tadqiqotlaridan o'z shubhali niyatlarida foydalanishi holatlarining vujudga kelish ehtimoli yuqori bo'ladi.

Tarix va siyosat doimo bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Biroq, tarixiy xotira tushunchasi nisbatan yangidir va uning tomiri *vergangenheitsbewältigung* (o'tmishdan oshib o'tish)

tushunchasi tomonidan, o'zining noodatiy tarixiga bo'lgan munosabatida to'g'ri yo'l ko'rsatilgan Germaniyadan chiqqan. Bu tarixning g'arazli niyatlarda foydalanilishi uchun qaytadan ko'rib chiqilishi degani emas, balki o'z tarixiy o'tmishini uning barcha xunuk tomonlari bilan birgalikda ochiqchasiga qabul qilishni ko'zlaydi.

O'z tarixini ochiqchasiga qabul qiladigan mamlakatlar ro'yxati, tarixiga ochiq ravishda nazar solish bo'yicha har qanday harakatlarni rad etgan davlatlarning uzun ro'yxatidan qisqaroqdir. Miyaga darhol Rossiya va Yaponiya keladi. Biz liberal-demokratik deb hisoblagan hamma davlatlar ham tanqidiy baholashdan o'tolmaydi. Bu ularning Aljir, Keniya va boshqa mamlakatlarda olib borgan mustamlakachilik urushlarining qorong'u sahifalari bo'yicha, hanuzgacha ham ochiq bahs-munozaralarni olib borishga qiynalayotgan sobiq mustamlakachi davlatlarga tegishlidir.

Tarix Finlyandiya ham XIX asrda milliy ongimiz va davlat institutlarimizning qurilishida markaziy o'rin tutgan va bu holat Rossiya tarixshunoslari bilan tortishuvlarga sabab bo'lgan. Faqat ancha vaqtdan keyingina Rossiya tomonida ham fin muxtoriyatini himoya qilish kurashida foydalanilgan va fin milliy pozitsiyalariga asoslangan dalillarni tanqid qilish uchun jiddiy asoslari bo'lishi mumkinligini tan olishga imkon paydo bo'ldi.

Bundan tashqari, Finlyandiya 1917 yilda mustaqillikka erishganida, tarixchilar mehnati bilan Buyuk Finlyandiyaning millatchilik ambitsiyalariga asoslar tayyorlanayotgan edi. 1944 yildagi tinchlik kelishuvidan so'ng, tarixchilar Germaniyaning ittifoqdoshi bo'lgan va mustaqil ravishda Sovet Ittifoqiga qarshi urush olib borayotgan Finlyandiya to'g'risidagi fikrni tarqatish uchun yana chaqirildilar. Sovuq urush davrida ham finlar biz, ya'ni Sovet Ittifoqining soyasida yashovchilar uchun foydali bo'ladigan tarixiy faktlarni noto'g'ri talqin qilingan holda izoh berishdan foydalanganlar.

1918 yilda Finlyandiya mustaqillikka erishganidan so'ng boshlangan fuqarolik urushi, bizning jamiyatimizda chuqur jarohatlar qoldirdi va qarama-qarshi bo'lgan tomonlarning ushbu urushni qanday esga olganliklari bu jarohatlarning bitib ketishiga yo'l qo'ymadi. Tarixchilar ham o'zlari tomondan ushbu

jarohatlarning bitib ketishiga har doim ham ko'maklashmas, ba'zan esa aksincha, yaraga tuz ham sepishardi. Biroq, 1960 yillardan boshlab xoh adabiyotchi, xoh tarixchilar bo'lgan yozuvchilarning yangi oqimi tushunish va yarashish jarayonini boshlab berdilar. Hozirgi kunda fuqarolik urushi voqealariga, turli xildagi talqin va fikrlarni, biron-bir ahamiyatli yo'l orqali hozirgi vaqtdagi fin jamiyatiga tegishli savollarga bog'lamagan holda nazar solishning imkoni mavjud.

Finlyandiyada 1918 yilda ro'y bergan holat o'sha yoki hozirgi vaqtdagi dunyo uchun noyob emas edi. Yaxshiyamki, biz inson huquqlarini buzuvchi harakatlar va urush jinoyatlarining oldini olish va ularga yo'l qo'ymaslikdagi jamiyat mas'uliyatini belgilab turuvchi dunyoqarashni asta-sekinlik bilan shakllantirishga erishdik.

Hozirgi kunda mamlakatda boshqa mamlakatlar bilan munosabatlardagi tarixning ochiq masalalari yo'qligi singari, o'tmish bo'yicha ham biron-bir haqiqatga yaqin kurashlar kuzatilgani yo'q.

Finlyandiya o'z mustaqilligining yuz yillik tarixi davomida, davlat tuzumining to'satdan yoki zo'ravonlik natijasida almashishini boshidan kechirmagan, dunyodagi ozchilik bo'lgan davlatlar qatoridadir. Davlat tuzumining almashishi doimo ma'lum ma'nodagi tozalash va tarixning qaytadan yozilishiga olib keladi. Diktaturaning inqirozi, uni olqishlayotgan haykal va yodgorliklarning ham inqirozi demakdir. Buni tushunsa bo'ladi, bu hattoki zarur ham bo'lishi mumkin.

Davlat tuzumining almashishidan keyingi holatlarda tarixchilarning mehnati keraklidir. Ularning yangi tuzumni shakllantirishda to'g'ridan-to'g'ri qatnashayotganlarga o'z bilim, tajriba va tadqiqot natijalarini berishga tayyor bo'lgan vaqtlarida, ular o'zlariga yangi tuzumning ajralmas qismi bo'lib qolishga va hakam rolini o'ynashga yo'l bermasliklari zarur.

Davlat tuzumining o'zgarishi, eski tuzumning qanchalik buzuq bo'lishiga qaramasdan, ushbu tuzumdan qolgan tarixni o'chirib tashlash yoki barcha yuqori ahamiyatga ega sana va haykallarni buzib tashlashga olib kelishi shart ham emas, mumkin ham emasdir. Tarixiy obidalarga nisbatan bo'lgan madaniyatli yondashish, yoqimsiz va xunuk tomonlarini ham o'z ichiga olgan

butun tarixiy yo'limiz kuzatilgan muhitni saqlab qolishga mo'ljallangan. Vaqt o'tgandan so'ng ushbu haykallarga tarixiy obidalar sifatida qaraladi va kelajak avlodlar ularni ko'zdagi dog' emas, balki umumiy o'tmishimizni anglashdagi tayanch sifatida qabul qilishadi.

Ham tarixchi, ham tashqi ishlar vaziri sifatida men, tarixga nisbatan muntazam ravishda bo'layotgan suiste'mol qilishlardan xafa bo'lar edim. Ammo, bu meni vaziyatni orqaga burish fikri va tarixchilarga ularning tadqiqotlarini suiste'mol qilishga yo'l qo'ymaslik, shuningdek, mojarolarning oldini olish va ularni hal qilish uchun nimalar qilishlari mumkinligi to'g'risidagi savol bilan murojaat qilishga ham olib keldi.

Ushbu masalaning Finlyandiya va boshqa mamlakatlardagi nizolarni hal qilishda ishtirok etayotgan tarixchi va diplomatlar bilan muhokama qilinishi, 2015 yilning iyun oyida «Sarhadsiz tarixchilar» nomli jamoat tashkilotini tashkil qilishga turtki bo'lib xizmat qildi. Hozirgi kunda bizning tashkilotimiz tarkibiga, u yoki bu yo'l orqali tarix va nizolar masalalari bilan shug'ullanuvchi, universitetlarimizdagi tarix professorlarining ko'pchiligi va yana yuzlab insonlar kirgan.

Ta'rischilarimiz yig'ilishida tinchlik bo'yicha Nobel mukofotining fin sovrindori Martti Axtisaari so'zga chiqdi va o'z ma'ruzasida, o'zining vositachi sifatidagi faoliyati davomida, tarixiy o'tmish sababli kelib chiqqan nizolardagi tinchlikparvarlik jarayonining qiyinchiliklariga juda ko'p marotaba duch kelganligini eslab o'tdi.

Bizning maqsadimiz ushbu tashabbusni dunyo miq'yosiga olib chiqish edi. Shuning uchun ham biz o'tgan yilning may oyida Xelsinki shahrining universitetida, nizo holatlarida tarixdan foydalanish va uni suiste'mol qilish bo'yicha xalqaro konferentsiya tashkillashtirdik. «Sarhadsiz tarixchilar» tarmog'ining tashkil qilinishi to'g'risidagi, uch yuzdan ortiq konferentsiya qatnashchilari tomonidan ovoz berilgan deklaratsiyaning qabul qilinishi ushbu konferentsiyaning avjiga chiqqan nuqtasi bo'ldi.

Deklaratsiyani imzolagan tomonlar o'z ishlarini quyidagi maqsadlarda davom ettirish majburiyatini oldilar:

- umumiy va har tomonlama bilimlarni kengaytirish va tarixni anglash;

- tarixiy hujjatlar va arxivlardan ochiq va erkin foydalanishga ko'maklashish;
- o'zaro hamjihatlikka erishish uchun ko'maklashish maqsadida, tarix bo'yicha turli xildagi nuqtai nazar va talqinlarga ega bo'lgan tomonlar o'rtasida interaktiv muloqot olib borishga yordam berish;
- nizolar keltirib chiqarish va ularni qo'llab-quvvatlash maqsadidagi tarixni suiste'mol qilish amallarini fosh etish harakatlariga ko'maklashish;
- nizolarni bartaraf etish va to'g'ri yo'lga solishga hissa qo'shish;
- berilgan deklaratsiya ruhidagi tarix bo'yicha dars berishga ko'maklashish;
- tinchlikka erishish va nizo holatlarini bartaraf etish harakatlarida ayollarning o'rnini anglab yetish va gender tengligi masalalarini kiritish.

Biz tarix masalalari va xalqaro munosabatlar bilan shug'ullanuvchi, tarixni o'zaro anglab yetishni yaxshilash va tarixdan nizo holatlarini keltirib chiqarish va ularni kuchaytirishda foydalanishga yo'l qo'ymaslikka tarafdor bo'lgan barcha professional tarixchi va boshqa mutaxassislarni ishtirok etishga taklif qildik.

Bizning tashabbusimiz konferentsiyagacha bo'lgan va konferentsiyadan keyingi davrlarda ham dunyoning turli burchaklarida biz bilan ko'p marotaba uchrashgan tarixchilar tomonidan ko'tarinki ruhda qabul qilindi.

Bizning faoliyatimiz boshqa vazifalar qatorida nizo masalalari bilan shug'ullanuvchi tarixchilarning harakatlarini birlashtirish, ularning bilim va tajribalaridan nizolarni bartaraf etishdagi vositachilik faoliyati bo'yicha ish olib borayotgan xalqaro tashkilotlarning erkin foydalanishi va bizning maqsadlarimizga yetishish uchun foydali bo'lishi mumkin bo'lgan masalalarda tadqiqotlarni amalga oshirish bo'yicha tashabbuskorlikni ham o'z ichiga oladi.

Biz odamlarning hozirgi kunga qadar qanday tarixiy yo'l bosib o'tilganligidan voqif bo'lish va uni anglash darajasining ortib



borishidan ko'ra ko'proq tushib borayotgan davrida yashamoqdamiz. Ushbu xabarsizlikdan kelib chiqqan holda, kelajakka nazar tashlash va uning rivojlanishi bo'yicha taxminlar keltirish tobora qiyinlashib bormoqda. Bu holat esa «hozir va shu yerda» omiliga asoslangan postmodernik kaltabinlikning shakllanishiga olib kelmoqda.

O'z tarixini bilmaganlarning uni takrorlashga mahkumligi to'g'risidagi fikr doimo ham to'g'ri bo'lmasligi mumkin, lekin jaholat doimo o'zi bilmagan holda tarix asiriga aylanish va o'z qing'ir ishlarida tarixdan foydalanishni qo'msab turgan siyosatchilar kirdikorlarining qurboni bo'lish tahlikasini oshiradi.

«Sarhadsiz tarixchilar» tarixning nizo chiqarish vositasi va nizolarni hal etishdagi to'siq bo'lib xizmat qilishiga yo'l qo'ymaslikka faol hissa qo'shish niyatidalar. Tarix hamjihatlikni shakllantirish va nizolarning oldini olish vositalari bo'lib xizmat qilishi kerak.

**Erkki Tuomioyya,**

*2000-2007 va 2011-2015 yillarda Tashqi ishlar Vaziri,  
«Sarhadsiz tarixchilar» tarmog'ining Raisi*

## MADANIYAT

### 37. FIN ADABIYOTI JAMIYATI

Elias Lyonnrot (EliasLönnrot) 1831 yilning 16 fevralidagi Fin adabiyoti jamiyatini tashkil qilishga bag'ishlangan yig'ilish bayonnomasida: «Yig'ilganlar o'rtasida fin kitoblari, fin tili va uni adabiyotda qanday qilib eng yaxshi usulda qo'llash mumkinligi to'g'risida suhbat ketdi. Yig'ilish yakunida hamjihatlikda ishlash har qanday holatda ham yakka tartibda ishlashdan ko'ra yaxshiroq ekanligiga qaror qildilar va shuning uchun ham jamiyatni tashkil qilishga kelishib oldilar» - deb yozib qoldirgan. Ushbu amaliy maqsad tez orada fin milliy o'z- o'zini anglash namunasini yaratish vositasiga aylandi.

Maorif, romantizm va millatchilik o'z vaqtida fin tili islohoti, xalq ijodi asarlarini saqlash, tarixni yozish, adabiyotni yaratish va fin milliy o'z-o'zini anglashni shakllantirishni o'z ichiga olgan fennomaniyaning yirik rivojlanish loyahasini shakllantirish uchun asos bo'lib xizmat qildi. Fin adabiyoti jamiyatining dasturi doirasida yangi so'zlar yaratilar, lug'atlar va «Kalevala» xalq eposi, roman va pyesalar, shu jumladan Aleksis Kivining «Etti aka-uka» asari nashr etilar, xalq ijodi to'planar, adabiy mukofotlar topshiriladi. Boshqacha qilib aytganda, jamiyat Finlyandiyaning hozirgi kundagi fan va maorifi uchun tagzaminni shakllantirishda asosiy o'rin tutdi. Bularsiz mamlakatimiz hech qachon zamonaviy sanoatlashgan davlat va fuqarolik jamiyati bo'lolmas edi. Jamiyat ushbu islohotlar orqali o'z a'zolarining fan bilimlari va madaniyatdan foydalanishlarini, shuningdek, siyosiy faoliyatga yo'l olishlarini ta'minlashga intildi.

Jamiyatning faoliyati natijasida, odatda xotira va eshitilgan gaplar asosida to'planadigan ma'lumot va madaniy meroslarni olish, saqlash va foydalanishga yo'naltirish ishi yozma ravishda o'tkaziladigan bo'ldi. Bu adabiyotning rivojlanishiga yetakladi, hamda bilimlarni faqatgina saqlab qolish va keyingi avlodlarga yetkazishga aloqador bo'libgina qolmay, balki borliqni ko'rsatish davomidagi yangi tushunchalarni ham paydo bo'lishiga olib keldi.

Jamiyat doiralarda XIX asrda ijtimoiy fanlar sohalaridagi barcha fin ilmiy jamiyatlari kabi ko'pgina institutlar paydo bo'ldi. Ushbu holat o'z navbatida Milliy teatrning tashkil qilinishi, tadbirkorlik hayoti va kapital, shuningdek partiyaviy faoliyatning paydo bo'lishiga ta'sir o'tkazdi. Jamiyatning 1890 yilda poytaxtdagi chiroyli uyga ko'chib o'tishiga va uning faoliyatini poytaxtning oliy tabaqali janoblari olib borishiga qaramasdan, u jamiyat va madaniyatga chuqur ildiz otgan va uning narigi tomonida fin an'analari va xalq ijodini asrab keluvchilar turgan ma'lum ma'nodagi markaziy o'qqa aylandi.

Yillar o'tgan sayin fuqarolik jamiyatini shakllantirishdan bilimlarni to'plash bo'yicha faoliyatga o'tildi. Jamiyat o'zining 175 yillik tarixi davomida finchasiga o'z-o'zini anglash, mamlakat ichida va tashqarisida fin adabiyoti haqida ma'ruzalar o'qish, shuningdek, badiiy va ilmiy adabiyotlar va entsiklopediyalarni nashr qilish faoliyatlari bilan shug'ullandi.

Til va o'z-o'zini anglash har qanday jamiyatning faoliyatida tengi yo'qdir, biroq til va o'z-o'zini anglash asoslarini qo'llab-quvvatlash, ularning g'oyalari, an'ana va tarixiy voqealariga tanqidiy yondashish bulardan ham muhimroqdir.

Fin adabiyoti jamiyatining maqsadi, fin madaniyatini bizning o'zimiz va boshqa madaniyatga mansub kishilar uchun yanada tushunarliroq qilish edi va hozirgacha ham shundaydir.

**Tuomas M.S. Lextonen,**  
*Fin adabiyoti jamiyatining Bosh kotibi*

## **38. FIN-UGOR JAMIYATI**

Qadimda, fin o'xshashlik konsepsiyasining yuzaga kelishiga qadar fin-ugor xalqi mavjud bo'lgan. Fin tilining yahudiy, yunon, injil va ko'hna tillarga qardosh emasligi ma'lum edi. yevroosiyoning shimoliy qismida tarqalgan tillar va o'sha yerda yashovchi xalqlar yordamida tarixning bundan avval ma'lum bo'lmagan varaqlarini ochish imkoni mumkinligi to'g'risidagi nazariya ilgari surilgan edi. Bir necha avlod davomida davom etgan ushbu vazifani bajarish uchun g'ayratli tadqiqotchi va jasur sayohatchilar zarur edi.

Fin-ugor jamiyati 1883 yilda ural va oltoy xalqlarining tili, madaniyati va tarixini o'rganishga ko'maklashish uchun tuzilgan edi. Grant olgan o'nlab tadqiqotchilar yillar davomida fin-ugor tillari, aniqroq qilib aytganda Atlantika va Tinch okeanlari oralig'idagi hududdagi ural va oltoy tillari bo'yicha ma'lumotlar to'plash bilan shug'ullanganlar. Jamiyat tomonidan yuzlab kitob va tadqiqotlar, ma'lumotlar to'plami va tahliliy maqolalar chop etilgan edi. To'plangan ma'lumotlar tufayli fin-ugor xalqlari va tillarining tarqalish manzarasi, fin-ugor jamiyatining tashkil qilingan vaqtidagidan ko'ra anchagina ravshanroq va aniqroq bo'ldi, lekin yangi ma'lumot va axborotlar hozirgacha ham to'planib kelinmoqda. Fin va boshqa fin-ugor xalqlarining qaerdan kelganliklari to'g'risidagi savolga bo'lgan yakuniy javob hali ham olinmagan. Tillar qardoshligining mohiyati va shakllangan til xilmaxilligi uchun necha mingyillik zarurligi to'g'risidagi savolga yana va yana qaytishga to'g'ri kelmoqda.

Tadqiqotlar geografiyasi eng boshidan boshlab, har birining o'z urf-odatlari va e'tiqodlari bo'lgan o'nlab etnik turkumlar yashayotgan ural va oltoy tillarining tarqalish hududlarini o'z ichiga olar edi. Keng qamrovli dala tadqiqotlari o'tkazilgan davrlarda, fin-ugor qabilalari asosan o'z ajdodlari tilida so'zlashishar va meros qolgan madaniy qadriyatlarini kelgusi avlodlariga o'zgartirgan holda yetkazishar edi. Biroq bu jarayon dunyoni o'zgartirgan Oktyabr inqilobi, Stalin tozalashlari, Ikkinchi jahon urushi va urbanizatsiya tufayli buzildi. Skandinaviya saamlari, mordva, mari, udmurt, xant, mansi, samoedlarning ko'pchilik qabilalari va oltoy tillarida so'zlashadigan mo'g'o'l qabilalari – ushbu etnik guruhlarning har birida fin-ugor jamiyatidan tadqiqot granti olgan olim ish olib borar edi.

Mordva bo'yicha Xeykki Paasonen (HeikkiPaasonen) tomonidan to'plangan ma'lumotlar va mansi xalqlari to'g'risidagi Artturi Kannisto (ArtturiKannisto) tomonidan tuzilgan ma'lumotlar to'plami yuz yil davomida ishlab chiqildi va nashrga tayyorlandi. Mo'g'o'l xalqlari bilan shug'ullangan tadqiqotchi-olim G.Y. Ramstedtga (G. J. Ramstedt) grant olgan olimlar orasida eng katta muvaffaqiyatsizlikka uchradi: uning ilk to'plangan ma'lumotlar to'plami o'g'irlab ketildi. O'z uyiga deyarli bo'sh qo'llar bilan

qaytgan Ramstedt qayg'uga berilmadi va davomida Koreya va Yaponiya chegarasigacha bo'lgan Sharqning yanada uzoqroq hududigacha yetib borgan yangi tadqiqot safarini amalga oshirdi. Ramstedt 1939 yilda chop etilgan, ingliz tilidagi ilk va ancha vaqtgacha yagona bo'lgan koreys tili darsligini yozib qoldirdi. Koreya urushi boshlangan vaqtda AQSh armiyasi kitobning hamma sonini sotib oldi.

1906-1908 yillarda Fin-ugor jamiyatining eng mashhur stipendianti bo'lgan K.G. Mannerxeym (C. G. Mannerheim), asl maqsadi razvedka ma'lumotlarini to'plashdan iborat bo'lgan o'zining mashhur Osiyo ekspeditsiyasini amalga oshirdi. Mannerxeym ekspeditsiyaning asl maqsadlarini yashirish uchun, barcha ishni qishin-yozin ot ustida olib borgan holda, qiymatini o'lchab bo'lmaydigan etnografik ma'lumotlarni, ayniqsa Xitoyning g'arbiy va shimoliy viloyatlaridagi turmush tarzining suratlarini to'plash bilan shug'ullandi. Boshlang'ich paytda nashr qilishga yaroqsiz deb topilgan oq-qora negativlar, oxir-oqibatda raqamlashtirildilar. Hozirgi paytda ushbu suratlar haqqoniyligi tufayli Xitoyda juda ham qadrlanadi.

Fin-ugor jamiyatining ko'pchilik stipendiantlari XIX asrning oxirlari va XX asrning boshlarida, tillar muhitidagi o'zgarish jarayonlarini kuzatar va fin-ugor tillari asosan aholining ruslashishi natijasida yo'q bo'lib ketishini bashorat qildilar. Prognozlarining ko'p qismi amalga oshdi va XXI asrda ko'pchilik fin-ugor xalqlari chegaralangan til huquqlariga ega bo'lgan, yoki umuman ega bo'lmagan tub milliy ozchiliklari deb ta'riflanadilar. Fin-ugor jamiyati tomonidan nashr qilingan liv tili (1938 y.) va kamasin tili (1944 y.) lug'atlari o'lik tillarning eng muhim hujjatlaridir. O'z uslubining mumtoz turkumiga, tadqiqot ma'lumotlari to'plami ekanligi bilan bir qatorda tegishli tillar haqidagi ma'lumotlar manbai bo'lgan xant (1948), koltt va kolskiy loparlari (1958), karel (1968-2005) va mordva (1990-1999) tillarining lug'atlari kiradi. Shuningdek, jamiyat tomonidan fin tilining etimologiya lug'ati (1955–1981) ham chop etilgan.

Fin-ugor jamiyati o'z sohasida hanuzgacha ham xalqaro darajadagi ilmiy-tadqiqot ishlari nashriyotlarining eng ahamiyatlilaridan biri va turli mamlakatlar tadqiqotchilarining

uchrashish joyidir. Fin-ugor tillarida so'zlashadigan va o'z tillarini o'rganish va rivojlantirish kerak deb hisoblaydigan kam sonli xalqlarning ko'pchiligi, fin-ugor jamiyatining maqolalarini o'z madaniy merosining tarkibi deb hisoblaydilar. An'analarning eng kuchlisi, 1884 yildan beri har yili 2 dekabrda, jamiyat ilmiy bo'limining asoschisi bo'lgan M.A. Kastren(M. A. Castrén)ning tug'ilgan kunida tashkillashtiriladigan yig'ilishdir.

Lekin xotimada fin-ugor tillari guruhi bo'yicha, venger olimlari tomonidan XVIII asrning o'zidayoq to'g'riligi anglangan bayonot berish kerak. Tillarning fin-ugor turkumi hozirgi kunda yetarli darajada yaxshi o'rganilgan, ammo ba'zi tillarning ahvoli hech qachon bu darajadagi kabi yomon bo'lmagan. Shuning uchun ham tadqiqotchi-olimlar uyushmasining yuksak vazifasi hali davom etmoqda.

**Rino Gryuntxal,**

*Xelsinki universitetining fin-ugor tillari fakultetining professori*

## **39. KUTUBXONALAR**

Finlar butun dunyoni kutubxonalardan foydalanish bo'yicha ortda qoldirganlar: Finlyandiya fuqarosi bir yilda o'rtacha 11 marotaba kutubxonaga tashrif buyuradi va 17 dona kitob, audio-yoki boshqa turdagi ma'lumotlarni oladi. Qo'llarda jami bo'lib 3 millionta kutubxona kartochkasi mavjud. Nega finlar kutubxona xizmatlaridan bunchalik faol foydalanadilar?

Kutubxonalar finlar hayot tarzining bir qismidir. Bilimlar Finlyandiyada juda ham qadrlanadilar. Finlar – kitobxon bo'lgan millatdir. Bu kitoblarning sotilish darajasi, matbuotni o'qiydigan odamlar soni va har yilgi kitob yarmarkalarining juda ham mashhurligida bilinadi. Ayniqsa, bolalar va yoshlar uchun mo'ljallangan kitoblar yaxshi sotiladi.

Kutubxonalar kishilarning turli xildagi aqliy talablarini qondirishga qodir bo'lganliklari uchun ham bunchalik katta talabga sazovorlar. Kutubxonalar o'z assortimentlarini kengaytirdilar va endilikda faqatgina kitoblar emas, balki musiqa va video materiallarini ham taklif qilmoqdalar. Oxirgi o'n yillikda kutubxonalar

tomonidan taklif qilinayotgan assortiment elektron kitoblar hisobiga kengaydi. Ilmiy nashrlarning elektron nusxalari universitetlar kutubxonalari uchun nodir va ahamiyatli manba bo'lib qoldi.

So'nggi yillarda ishonchli ma'lumotlarga ega bo'lish masalasi jamiyatdagi muhokamalarning mavzusi bo'lib qoldi. Internet tarmog'idagi izlash tizimlari, ma'lumotlar qidirishning samarali natijasini ta'minlashga muvaffaq bo'lolmadi. Ma'lumotlarning ishonchligini baholash bilan shug'ullanuvchi yuqori malakali mutaxassislar javobgar bo'lgan kutubxona axborot tizimlaridagi dalillarning ishonchligini tekshirish vazifasi, o'z xususiyati bilan ajralmasdir.

Internet-media va axborotlar bilan ishlash qobiliyati va bilimlari, axborot izlash bo'yicha ta'lim dasturlari va maslahatlarning tarkibiy qismi bo'lib qoldi. Savol qanchalik murakkab bo'lsa, kutubxonadagi axborot ishlari bo'yicha mutaxassisning Guglda qidirishdagidan ko'ra yaxshiroq javobni topishi ehtimoli shunchalik ko'payadi.

O'zaro foydalanish iqtisodiyoti keng amaliyotdagi timsolini aynan kutubxonada topdi. Kutubxonalar xarid qilishga hammaning ham qurbi yetmaydigan uskunalar, misol uchun kompyuter va 3-D printerlarni o'zaro foydalanish uchun tobora tez-tez ravishda taklif qilmoqdalar. Kundalik hayotning boshqa zaruriyatlari ham esdan chiqarilmagan. Kutubxonalarda o'z qon bosimini o'lchash, skandinavchasiga yurish tayoqlarini ijaraga olish yoki tikuv mashinkasida ishlab ko'rish imkoniyatlari mavjud bo'lishi mumkin.

Shuningdek, kutubxonalar oldida ijtimoiy vazifalar ham bor. Kutubxonalar o'z hududida bepul uchrashuv joyini taklif qiladilar va bunday vazifaning ahamiyatini e'tiborga olmaslik mumkin emas. Kutubxonalar tomonidan tashkillashtiriladigan tadbirlar barcha yosh toifalariga mo'ljallangandir – kichkintoylar uchun ertaklar o'qib berish va maktab o'quvchilari uchun uy vazifalarini bajarishda ko'maklashishdan boshlab, to internet tarmog'ida ishlash bo'yicha keksalarga maslahat berishgachadir. Migrantlar kutubxonalar uchun mijozlarning muhim guruhi bo'lib qoldilar va ularga «til kafelari» yangi xizmat sifatida taklif qilinmoqda. Kutubxona tadbirkorlikni va masofaviy faoliyatni qo'llab-quvvatlash uchun, ishlash yoki majlis o'tkazish mumkin bo'lgan xonani taqdim qilishi mumkin. Bunday xizmatlarda ushbu hududga ko'chib kelish istagi

va ushbu hududdagi xonadonlarning narxlarida kuzatilishi mumkin bo'lgan ishchi kuchini chaqirish omili ham bordir

Finlyandiyaning har bir hokimligida jamoat kutubxonasi bor – jami Finlyandiya bo'yicha taxminan 800 kutubxona mavjud. Kutubxonalar asosiy shahar xizmatlarining tarkibiy qismi bo'lib qoldilar. Ustiga ustak, kutubxona xizmatlari bepuldir. Bu Finlyandiya yashovchilar uchun ma'lumotlarga ega bo'lish va jamiyat faoliyatida qatnashishdagi tenglikni anglatadi.

Kutubxonalarimiz muvaffaqiyatining garovi bir necha omildan iboratdir. 1990 yillargacha qo'shib borilgan davlat hissasi muhim edi. Finlyandiyaning jamoat kutubxonalari munitsipalitetlar byudjetidan boshqa Yevropa mamlakatlari kutubxonalaridan ko'ra kamroq qaram edi. Axborotlashtirilgan jamiyatni shakllantirish bo'yicha hukumat dasturlarida kutubxonalarga salmoqli o'rin ajratilgan. Kutubxona xodimlari axborot ishlari bo'yicha yuqori malakali mutaxassislariga aylandilar.

Mamlakatdagi barcha kutubxonalar yagona tarmoqni tashkil qiladi. Ushbu o'zaro faoliyat kutubxona mijozlariga mahalliy darajada xizmat ko'rsatishda ko'zga tashlanadi. Masalan, poytaxt hududidagi kutubxonadan olingan kitobni, ayni shu hududda joylashgan har qanday kutubxonaga qaytarib berish mumkin. Shuningdek, hamkorlik xizmatlarni yaratishda sinergetik ta'sirni ham ko'rsatadi. Kirjastot.fi kabi qo'shma forumlar yoki Milliy kutubxonaning onlayn-servislari, xizmatlarni muvofiqlashtirilgan holda tashkil qilishga, maxsus xizmatlarni birgalikda ishlab chiqish va taklif qilishga, shuningdek, manbalarni tejashga imkon beradi.

Fin kutubxonalarining asosiy strategik chizig'i, vazifalarni har bir darajadagi eng zaruriy vazifalarga e'tibor berishga imkon yaratish uchun mahalliy, hududiy va milliy miqyosda oqilona taqsimlashdan iboratdir. Masalan, uncha katta bo'lmagan munitsipalitet kutubxonasi o'z hududidagi aholi o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashga diqqat qaratishi mumkin. Ayni vaqtda, milliy miqyosda esa umumiy foydalanish xizmatlarini ishlab chiqish imkoni mavjuddir. Kutubxona, arxiv va muzeylar birlashtirilgan FINNA qidiruv tizimining mijozlar interfeysi bunga misol bo'lishi mumkin.



2000 yillarda kutubxonalar uchun yangi binolarga ham e'tibor qaratildi. Xelsinki shahri universitetining «Kaysa» kutubxonasi, o'z me'morchiligi tufayli mashhur turistik joylardan biriga aylandi. 2018 yilda ochiladigan Xelsinki shahrining markaziy shahar kutubxonasi loyihalashtirish bosqichidayoq, jamiyatning loyihalash jarayonidagi qisman ishtiroki tufayli keng ommaviy e'tiborga sazovor bo'ldi.

Fin kutubxonalari mamlakat fuqarolariga ma'lumot olish va jamiyat hayotida ishtirok etishda ko'maklashuvchi, shuningdek, turli xildagi ijtimoiy va madaniy xizmatlarni taklif qiluvchi, samarali ravishda tashkillashtirilgan tarmoqni shakllantirdilar. Fin kutubxonalari turli va zaruriy xizmatlar tufayli internet-texnologiyalarni uzviy ravishda singdirishni va o'z ahamiyatini mustahkamlashni uddaladilar. Kutubxona tashkilot sifatida, mijozlarning xohish va zaruriyatlarini o'rganish va tadqiq etishda yetakchi bo'lib turibdi.

Hozirgi kunda kutubxona – finlar orasida eng keng foydalaniladigan madaniy muassasadir. Bundan tashqari, kutubxona – iqtisodiy jihatdan eng manfaatli bo'lgan axborot-madaniyat muassasalaridan biridir - munitsipalitetlar byudjetlaridagi kutubxonalarning o'rtacha hissasi 1 foizdan kamroqdir. Byudjetning bir foizini kutubxonalarga ajratish, barqaror rivojlanish shaklida bir necha barobar o'zini qoplaydi. Kapitalning o'sishi bilim va qobiliyatlar, farovonlik va iqtisodiy foydaning oshib borishida aks etadi. Agarda kutubxonalar bo'lmaganida, ularni o'ylab topish kerak bo'lar edi.

**Kaarina Dromberg,**

*2002-2003 yillarda Madaniyat vaziri*

## **40. BOSHLANG'ICH O'RTA MAKTAB**

1968 yilda parlament tomonidan qonun qabul qilindi va ushbu qonunga binoan har bir bola yoki o'smir, o'z yashash joyi va ota-onasining moliyaviy ahvolidan qat'iy nazar, to'qqiz yillik sifatli tamal ta'lim olish huquqiga ega edi. Ta'lim olish huquqi insonning asosiy huquqlaridan biri bo'lganligi sababli, imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarga ta'lim berish va ularni parvarish qilish ham yangi

qonunga binoan umumiy ta'limning tarkibiga kirdi. Boshlang'ich o'rta maktab barcha yoshdagi guruhlar uchun chindan ham umumiy maktab bo'lib qoldi.

Finlyandiya o'z mustaqilligining yuz yilligini nishonlayotgan yilda, boshlang'ich o'rta maktab yarim asrdan beri faoliyat yuritmoqda. Xalq maktablari va pullik o'rta ta'limdan chiqib ketishda qarshiliklar kuzatildi. Islohotlarga qarshi chiqqanlar, yangi tizim ta'lim darajasining pasayib ketishiga olib kelishi va iqtidorli bolalarga o'zlarini ko'rsatishga imkon berolmasligini ta'kidladilar. Biroq, o'tgan yarim asr bizning qarorimiz to'g'ri bo'lganligini ko'rsatdi. O'rta maktablarimiz o'quvchilari PISA (Xalqaro talabalar ta'lim yutuqlari tadqiqotlari) xalqaro tadqiqotlarida qoyilmaqom natijalarga erishdilar va bizning ta'lim muassasalarimiz keng xalqaro e'tibor obyektlaridir.

Muvaffaqiyatimizning siri nimada? Barchasining asosida boshlang'ich o'rta maktabning yagona tuzilmasi va unga birlashtirilgan holda, o'quvchilarning farovonligini ta'minlashga yo'naltirilgan turli toifadagi xizmatlar yotibti. Boshlang'ich o'rta maktab – bu ma'lum ma'nodagi fin jamiyatining mitti holatidir. Turli xil oilalardan kelgan va turli darajadagi iqtidorga ega bo'lgan o'quvchilar bir guruhda o'qimoqdalar. Turli toifadagi ko'maklashuvchi xizmatlar, o'quv qo'llanmalari va issiq ovqatni o'z ichiga olgan ta'lim jarayoni o'quvchilar uchun tamomila bepuldir.

Ikkinchi muhim omil – bu ta'lim vazifalari bilan bir qatorda, bolalarning ijtimoiy, axloqiy va jismoniy rivojlanishi bo'yicha farqlarini ham e'tiborga oluvchi o'quv rejasidir. Tabiiyki, oliy ma'lumotga ega va o'z ishiga sodiq bo'lgan malakali o'qituvchi markaziy omil bo'lib xizmat qiladi. O'qituvchilar o'z ishlarida keng miqyosdagi pedagogik muxtoriyatga va ham o'z o'quvchilarining ota-onalari, ham boshqaruvning ishonchiga egalar. Bu Finlyandiya'dagi maktablarga davlat komissiyalarining tekshiruvlar bilan kelmasligini va faoliyat ustidagi ta'lim organlari nazoratining ham yo'qligini anglatadi. Kuchli kasaba uyushmasi tashkiloti ham o'qituvchilarga ko'maklashadi.

Shuningdek, fin siyosatining ta'lim sohasidagi barqarorligi, hamda an'ana va urf odatlarni amaliy ravishda birlashtirish qobiliyatimiz muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Biz islohotlarni

inqilobiy emas, balki evolyutsion jarayonlar orqali amalga oshiramiz. Bu holat ham siyosiy qarorlarni qabul qilish, ham pedagogik o'zgartirishlarga tegishlidir. Va nihoyat, boshlang'ich o'rta maktabning faoliyati va rivojlanishi bo'yicha javobgarlik, oxir-oqibatda munitsipalitetlar zimmasida ekanligini belgilamaslik mumkin emas. Qarorlar avvalo, fuqarolar tomonidan qabul qilinadi. Boshlang'ich o'rta maktab fin demokratiyasining muhim bo'lagidir, umumiylik omilining amaliyotda amalga oshirish qismidir.

Finlyandiya mustaqilligining yuz yilligini nishonlash vaqtlarida, oldimizda keng qamrovli muhim vazifalar paydo bo'lmoqda. Globallashtirish jarayoni va raqamli texnologiyalar mehnat bozorida a'holni juda ham o'zgartirib yubordi, ijtimoiy va hududiy tengsizlik muammosi o'sish bilan xavf solmoqda, migratsiya an'anaviy madaniy tuzilmalarni zaiflashtirmoqda va yer sayorasining ekologik butligi bo'yicha bo'lgan havotir ham mamlakat, ham yakka shaxs darajasida qaror qilish vaqtida kuchayib bormoqda. Va uncha katta bo'lmagan millatning kuchi uning o'qimishli ekanligidadir. Shuning uchun ham bizning tirik qolish strategiyamiz ta'lim manbalari va ilimiy-tadqiqot ishlarimizga asoslangan holda ishlab chiqilmoqda.

Bizning boshlang'ich o'rta maktabimiz qanday qilib ushbu qarshilikka javob berishi mumkin? Mantiqqa ziddek tuyulsa ham, lekin biz keskin larzalar markazida bo'lgan holatimizda, yuqorida ko'rsatib o'tilgan va ko'pgina inqiroz holatlarida sinalgan kuchli tomonlarimizdan qaytmaymiz. Ta'lim sohasidagi siyosatimizning maqsadi - ta'lim olish tenghuquqligini ta'minlashdan iboratdir. Va bu savdolashish mavzusi emasdir. Kuchli xislatlarni aniqlash va rivojlantirishga yanada ko'proq tayangan maktab madaniyatini shakllantirish, tarbiyaviy va ta'lim ishlaridagi boshlang'ich nuqta bo'lib xizmat qiladi. Har bir o'quvchining o'z kuchli xislatlarini aniqlash va rivojlantirish huquqi bordir. Shu tariqa, har bir sinfda turli xildagi madaniyatlarga mansub bo'lgan iste'dodlarning turfa xilligi shakllanadi va ushbu holat, o'z navbatida yakka shaxs darajasi va sinf darajasidagi ishonchni shakllantirishga ko'maklashadi. Ta'lim – bu kelajakka ko'prikdir va boshlang'ich o'rta maktab ushbu ko'prikn ko'tarib turuvchi ustundir.

**Erkki Axo,**

*Professor, 1973-1991 yillarda Milliy maktablar boshqaruvi raisi*

## **41. BOSHLANG'ICH MAKTABDAN UNIVERSITETGACHA BO'LGAN BEPUL TA'LIM**

Fin maorifi butun dunyoda yuqori obro'ga egadir. Fin ta'lim tizimining farq qiluvchi xususiyatlari quyidagilardir:

- Bepul ta'lim
- Har bir bola va o'smir ta'lim olish huquqiga ega va maktabga borishga majbur
- O'quv rejasining yagona milliy asoslari
- Ta'lim faoliyatini tashkillashtirish va boshqarish vazifalarini mahalliy darajaga o'tkazib berish
- O'qituvchilarning malakasi va kompetentsiyasiga bo'lgan ishochning yuqori darajasi
- O'quv jarayonini moslashuvchan ravishda tashkillashtirish imkoniyati
- Butun mamlakat o'rta maktablaridagi ta'lim o'zlashtirish darajasining yuqoriligi

Finlyandiyada yashovchi barcha bolalar va yoshlarga, ularning yashash joyi, jinsi, ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli va madaniy qadriyatlaridan qat'iy nazar ta'lim olishni taklif qiluvchi ta'lim berish sifati, ta'lim sohasining poydevor toshi bo'lib xizmat qiladi. Maorifni boshqarish masalalari hukumat tomonidan munitsipalitetlar darajasida taqsimlangan, lekin maktablarning o'quv rejalari davlat tomonidan belgilangan asoslar bo'yicha bo'lishi kerak. Bularning barchasi turli hududlarning xususiyatlarini inobatga olgan holda, ham qishloqlarda, ham shaharlarda ta'lim berish sifatining mamlakat bo'yicha yuqori bo'lishiga imkon beradi. O'rta maktablarni bitirayotgan o'quvchilar uchun davlat bitiruv imtihoni o'tkazilmaydi, shuningdek maktablar bo'yicha o'zlashtirish natijalari va baholari ham chop etilmaydi. Maktab va o'quvchilar o'rta maktabni bitirish yakunlariga baho berishning davlat normativ tavsiyalari bo'yicha ish tutadilar. Ta'lim muassasasiga kirish va baholash jarayoni o'z shaffofligi, tenghuquqliligi va abituriyentning qaysi maktabni bitirganligiga bog'liq bo'lmaganligi bilan

tavsiflanadi, chunki baholash omillari aniq va batafsil ravishda yozib qoldirilgan va butun mamlakat uchun yagonadir.

Fin maorif tizimida qat'iy ta'lim yo'nalishi bo'lmaganligi kabi ta'lim «tupik»lari ham yo'qdir. O'rta maktabni bitirgan har bir o'quvchi, o'zi istagan holda har qanday darajasi yuqoriroq ta'lim muassasasiga hujjat topshirishi va kirishga harakat qilishi mumkin. Ta'lim olish bepuldir. O'qishga qabul qilish baholar asosida olib boriladi, tanish-bilish, pul yoki ertaroq hujjat topshirish orqali emas.

Fin boshlang'ich o'rta maktabi umumiy ma'lumot beradigan maktablardandir. Xalqaro qiyoslash tadqiqotlari natijalari bo'yicha, 15 yoshli boshlang'ich o'rta maktabi bitiruvchilari ona tili, matematika va tabiiy fanlar bo'yicha juda yaxshi bilimga egalar. Boshlang'ich o'rta maktabni bitirgandan so'ng ta'lim olishni davom etish mumkin va bu barcha uchun tavsiya qilinadi. O'rta maktab bitiruvchilarining deyarli 92 foizi darhol litsey yoki kasb-hunar kollejlariga hujjat topshiradilar (2009 y.). Litsey yoki kasb-hunar kollejida olinadigan ikkinchi bosqich ta'limi, o'quvchini keyinchalik Finlyandiya yoki chet eldagi oliy o'quv yurtiga kirishga tayyorlaydi. O'rta maktabni bitirgandan keyin ta'lim olishni davom ettirmaslikka qaror qilganlar uchun, bepul ta'limning muqobil turlari taklif qilinadi.

Finlyandiyadagi kasb-hunar ta'limi o'zining yuqori sifatligi bilan ajralib turadi va hunarga ega bo'lish uchun bepul imkoniyat yaratadi. Kasb-hunar ta'lim dasturi ham nazariy, ham amaliy o'qitishni o'z ichiga oladi. Shuningdek, ta'lim muassasasini bitirishdan keyin o'z mehnat faoliyatini boshlashi uchun kerak bo'ladigan ijtimoiy ko'nikmalarni ham beradi. Kasb-hunar ta'lim muassasalari ham litseylar kabi mashhurlar. Kasb-hunar kollejlarining ko'pchilik bitiruvchilari darhol mehnat faoliyatlarini boshlaydilar. Bitiruvchilarning bir qismi ta'lim olishni davom ettirishga qaror qiladilar va oliy toifadagi kasb-hunar ta'lim muassasalari yoki universitetlarga hujjat topshiradilar.

Umumiy ta'lim xususiyatlariga ega bo'lgan litsey (to'liq o'rta) ta'limini boshlang'ich o'rta maktab bitiruvchilarining taxminan yarmi tanlaydi va litseyini tamomlagandan so'ng davlat imtihonlarini topshiradilar. Litseydagi ta'lim bepuldir. O'qitish o'quvchining o'zlashtirish qobiliyatlariga asoslangan holda 2 yildan 4 yilgacha davom etadi. Milliy umuta'lim o'quv rejasi majburiy predmetlar

shakliga ega. Bundan tashqari, o'quvchi o'z xohishi bo'yicha bir qator predmetlarni litsey o'qitish kursini bajarish uchun tanlaydi.

Ikkinchi bosqich ta'limi diplomini olgandan so'ng, o'quvchi oliy o'quv yurtida ta'lim olishni davom ettirishi va universitet yoki oliy kasb-hunar ta'lim muassasasiga hujjat topshirishi mumkin. Abiturient universitet yoki oliy kasb-hunar ta'lim muassasasiga kirish uchun kirish imtihonini topshirishi kerak. Kirish imtihonidan muvaffaqiyatli ravishda o'tgan talaba, oliy ta'limning ikki bosqichli kursini olish huquqiga va bakalavr unvoniga ega bo'lishi, yoki yanada uzoqroqqa ketib, qo'shimcha kirish imtihonini talab qilmaydigan magistr unvoniga ham ega bo'lishi mumkin. Ta'lim olish va bitiruv imtihonlari bepuldir. Amalga oshirilayotgan talabalar, o'qituvchilar va tadqiqotchi-olimlar almashinuvi xalqaro bog'lanishlarni ta'minlaydi. Ta'lim olishning bepulligi, fin oliy ta'lim muassasalarining boshqa davlatlarning talabalari uchun jozibador bo'lishining muhim omilidir. Ta'lim bir vaqtning o'zida ham tekin, ham bepul bo'lishi mumkinligi, xorijiy mutaxassislarining ancha hayron bo'lishlariga olib keladi.

Fin ta'lim tizimining asosiga ham iqtidorli, ham harakatchan, ham boshqalarning ko'magiga muhtoj bo'lgan barcha o'quvchilarga istisno qilmagan holda, ta'lim darajasini yuksaltirishning bepul muqobil turlarini taklif qilish g'oyasi kiritilgan. Ta'lim olish imkoniyatlari bo'yicha ma'lumot berish maktab kuratori orqali amalga oshiriladi. Talaba kreditlari tizimi o'qish davrida iqtisodiy yordam berish uchun mo'ljallangan. Finlyandiya ta'lim olishning bepulligi, ta'lim tizimining tenghuquqli va adolatli ekanligini ko'rsatmoqda.

**Sonya Kosunen,**

*Doktorant, ta'lim vazirining parlamentdagi sobiq yordamchisi*

## **42. PEDAGOGIK TA'LIM**

Fin o'rta maktablari xalqaro taqqoslashlar davomida qoyilmaqom natijalarni ko'rsatdi. O'rta maktab tenghuquqlilik omili bo'yicha quriladi. Barcha yosh guruhlari, o'quv rejasi hamma uchun

yagona bo'lgan bir xil maktabga boradilar. Maktab bepuldir. Jamiyat maktab ta'limini tashkillashtirish uchun javobgardir.

Xususan, PISA (Xalqaro talabalar ta'lim yutuqlari tadqiqotlari) xalqaro tadqiqotlaridagi Finlyandiyaning natijalari ortida, fin o'qituvchilarni tayyorlash tizimi turibti.

O'qituvchilik kasbi Finlyandiya doimo yuqori obro'ga ega bo'lgan. Mamlakatimizda XIX asrning o'rtalarida ilk xalq maktablari tashkil qilinganda, ular bilan bir vaqtda Yuvyaskyulya shahrida o'qituvchilarni tayyorlash seminariyasi ham tashkil qilingan. O'qituvchilik faoliyati ayollar uchun kasbiy mashg'ulotlar olamini ochib berdi va dehqon farzandlariga xo'jalik oilaning to'ng'ich farzandiga o'tgan vaqtlarda munosib daromad manbasini taklif qildi.

O'sha paytlarda xalq maktablari o'qituvchilarini xalq ma'rifatchisi deb atashar edi. Ta'lim maskanining vazifasi, agrar Finlyandiya uchun ma'rifatli asos qurish, kelajakdagi mustaqil davlatning fuqarolarini tarbiyalash, hamda Finlyandiya xo'jalik faoliyatlarining yo'nalish va turlarining xilma-xilligini yangi ma'lumot va bilimlar yordamida ta'minlashdan iborat edi. Ushbu vazifani bajarish bo'yicha javobgarlik xalq maktabi o'qituvchisi va u bilan birga ishlovchi, qishloq yig'ilishida saylanadigan maktab kengashi zimmasida edi. Maktab inspektorlari o'qitish sifatini kuzatib borar edi. Xalq maktablari fuqarolik jamiyati arxitekturasi muhim bo'limi edi.

Jamiyat fikrini o'rganish natijalariga ko'ra, o'qituvchilik kasbi hanuzgacha ham fin jamiyatidagi eng katta hurmatga ega bo'lgan kasblardan biridir. Ohirgi baholashlar bo'yicha o'qituvchilik kasbi beshinchi o'rindadir.

1960 yillarda ta'lim siyosati xalq maktablariga nisbatan yanada demokratik bo'luvchi muqobilni tashkillashtirishni ko'zladi. Natijada, umumiy farovonlik davlatini yaratishning bir qismi bo'lgan boshlang'ich o'rta maktab paydo bo'ldi. Maktab islohotining maqsadi, maktabni tanlashda o'quvchining ijtimoiy kelib chiqishining ta'sirini tenglashtirishdan iborat edi. Boshlang'ich o'rta maktabning vazifasi, har bir o'quvchini har qanday katta maktab ta'lim muassasasida o'qishni davom etish uchun yetarli bo'lgan bilim va qobiliyatlar miqdori bilan ta'minlashdan iborat edi.

Maktabning vazifasi hanuzgacha ham yangi ish kuchini shakllantirish va fuqarolikni tarbiyalashdan iboratdir. Zamonaviy maktab o'zining atrof muhiti bilan chambarchas bog'liqdir. Ota-onalarni maktab faoliyatiga o'z farzandlari bilan birga jalb qilishga harakat qilishmoqda, madaniyatlar xilma-xilligi ta'lim jarayoni uchun yangi vazifalarni yaratmoqda va jamiyat yuqori tezlikda o'zgarimoqda. O'qituvchilik kasbi ham dars berilayotgan fanlar, ham ilmiy isbotlangan ma'lumotlarga tayanish qobiliyatiga keng qamrovda ega bo'lish, psixolog bo'lish va pedagogik tarzda ish yuritishni bilish va bir-biridan farq qiluvchi o'quvchilar uchun murabbiy sifatida bo'lishni talab qiladi.

Sinf o'qituvchisi va fan o'qituvchisining malakasi, universitetda olinadigan oliy ma'lumotni talab qiladi. Sinf o'qituvchisi uchun asosiy predmet tarbiya berish asoslaridir. Fan o'qituvchilari tegishli fanlarni o'rganadilar va shuningdek, pedagogikani ham o'rganadilar. O'quv kursi yakunida talabalar magistr unvoni olish uchun dissertatsiya yozadilar. Shu yo'l bilan ilmiy, amaliy va axloqiy kasb kompetensiyasi shakllanadi. Pedagoglarni tayrlash universitetlar o'quv rejalarining tarkibidadir va shuning uchun ham universitetlar sifatining ilmiy mezonlariga bo'ysunadilar.

Pedagoglarning faqatgina ilmiy darajada tayyorligi yetarli emasdir. Pedagogik ta'limda ham nazariy tayyorgarlik, ham amaliy bilimlar, ham pedagogik amaliyot davomida qo'lga kiritiladigan qobiliyatlar birlashadi. Amaliyot bo'lg'usi pedagogning tajribali pedagog boshqaruvida sinf bilan ishlaydigan universitet maktablari yoki munitsipalitet maktablarida o'tib boradi. Universitet maktablarida o'quv fanlarini o'qitish uslubiyatini ham o'rgatishadi.

Finlyandiyada o'qituvchilik kasbi ayniqsa o'z davrining iqtidorli odamlarini jalb qiladi. Pedagogik ma'lumot oliy ma'lumot talab qilinadigan boshqa faoliyat yo'nalishlariga ham eshiklarni ochib beradi. Ta'lim dasturi shunday ishlab chiqilganki, u faqat pedagogik talablar bilangina chegaralanib qolmaydi. O'qituvchi diplomini olganlar o'z pedagogik bilimlarini har qanday insoniy faoliyat turida ham qo'llashlari mumkin.

Yevropa Ittifoqi komissiyasi pedagoglarda oliy ma'lumot bo'lishi va ular pedagogik bilim va qobiliyatlarga ega bo'lishlari kerakligini tavsiya qiladi. Ta'lim olish oliy o'quv yurtida tashkil qilinishi va



doktorlik unvonini olish uchun o'qishni davom ettirish imkoni bo'lishi kerak. Shuningdek, pedagoglar malakasini oshirishni ham esdan chiqarmaslik zarur. Fin pedagogik ta'lim modeli shuning ustida qurilgandir.

Fin pedagogik ta'limining qolganlardan farq qiluvchi xususiyati, o'qituvchi faoliyatidagi ilmiy-tadqiqot yondashuvini tuzishdan iboratdir. Tadqiqotchi-pedagog modeli o'z ishini muntazam ravishda tahlil qilib borish, o'z ish muhitini anglab yetish, o'z pedagogik faoliyatida ilmiy-tadqiqot ishlari natijalarini aniqlash va undan foydalanish, mustaqil bilim olish jarayonini baholash, o'z-o'ziga baho berish natijalari bo'yicha pedagogik faoliyatini rivojlantirish va ta'lim olish zaruriyatlarini tan olish qobiliyatlarini ko'zda tutadi.

O'qituvchilarning malakalarini oshirish ish joyining o'zida tashkillashtirilgan. Jamiyatdagi bo'lib o'tayotgan o'zgarishlar davomida, bolalar va yoshlarda paydo bo'luvchi o'quv muammolari ham o'zgarib va kengayib boradi. Muammo qanchalik yaxshi darajada aniqlangan bo'lsa, uni yechish ham shunchalik samarali bo'lishi mumkin. Hozirgi kunda Finlyandiyada, yangi axborot texnologiyalarining innovatsion o'quv faoliyatiga taqdim qiluvchi o'quv muhiti va imkoniyatlarini axborotlashtirishga aloqador bo'lgan, keng qamrovli o'qituvchilar malakasini oshirish kurslari tashkil qilingan.

**Pyayvi Lipponen,**

*Falsafa fanlari doktori, tarix va jamiyatshunoslik o'qituvchisi, 2011-2015 yillarda Parlament deputati*

### **43. FIN BOLALARI ORASIDAGI SAVODXONLIK DARAJASI**

Oxirgi yillarda mamlakatlar orasida musobaqaning yangi turi paydo bo'ldi: o'quvchilarning o'zlashtirishini baholash. Xususan, Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (OECD) ushbu masalada qiziqish bildirdi, hamda o'qish va imlo, matematika va tabiiy fanlar bo'yicha o'quvchilarning bilim, qobiliyat va ko'nikmalarini taqqoslashni tashkillashtirdi. Ushbu tadqiqot PISA (PISA= Programme for International Student Assessment, yoki

Xalqaro talabalar ta'lim yutuqlari tadqiqotlari) nomini oldi. Baholash dasturiga 30dan ortiq mamlakatlarning 15 yoshli o'quvchilarining ta'lim bo'yicha yutuqlari kiritiladi.

Fin o'quvchilari barcha PISA tadqiqotlarida yaxshi natijalar ko'rsatdilar. Fin o'quvchilarining ayniqsa o'qish va imlodagi qobiliyatlari xalqaro miqyosdagi e'tiborga sazovor bo'ldi. Xorijiy olim va o'qituvchilar mahalliy maktablar va maktab ta'limi tizimi bilan tanishish uchun Finlyandiyaga muntazam ravishda kelib turadilar. Bundan tashqari, fin mutaxassislari ham Finlyandiyaning ta'lim siyosati bo'yicha ma'ruzalar o'qish uchun turli mamlakatlardan takliflar oladilar. Barcha xorijiy mutaxassislarning bitta umumiy savoli bor edi: fin bolalarining o'qish va imlodagi bunday yuqori ko'nikmalari nimaga asoslangandir?

Bunchalik sodda tuyulgan savolga sodda javob berishning iloji yo'qdir. O'zlashtirishning yaxshi ko'rsatkichlari bir qator omillarning faoliyati natijasidir: ta'lim tizimining tuzilishi (sinf 9 yil davomida birgalikda va bir xil tarkibda o'qiydi), qaror qabul qilishning taqsimlangan vakolatlari va maktablarning ta'lim-tarbiya berishdagi muxtorligi, ta'lim jarayoni o'quvchiga yo'naltirilgan, o'qishdagi qiyinchiliklarga ega bo'lgan o'quvchilar uchun yaxshi ishlab chiqilgan maxsus ta'lim tizimi, o'quvchilarga har tomonlama ko'maklashish tizimi (ta'lim masalalari bo'yicha maslahatlar berish, maktab psixologlari va ijtimoiy xodimlar, maktablardagi sog'likni saqlash), malakali va o'z ishiga sodiq o'qituvchilar tarkibi, bepul ta'lim.

O'qishdagi yutuqlarni faqatgina maktabga aloqador hollar bilan izohlab bo'lmaydi, chunki maktabni o'rab turgan atrof-muhitni ham e'tiborga olish kerak. Fin o'quvchilari orasidagi o'qish va imlarning yuqori darajasiga ta'sir qiluvchi eng muhim omillar sifatida ikkitasini eslab o'tish joiz: o'qishni rag'batlantirish madaniyati va azalgi o'qish odati.

Asrlar davomida fin aholisi savodxonligining boshlang'ich ko'nikmalari uchun cherkov javobgar edi. Protestantchilikning har bir kishi Injil va boshqa diniy kitoblarni o'zi o'qishga qodir bo'lishi kerakligi to'g'risidagi g'oyalaridan biri, ikkita oqibatga olib keldi: birinchidan, ona tilidagi kitoblar kerak edi, ikkinchidan, odamlarga o'qishni o'rgatish kerak edi. Shuning uchun ham, XVI asrning

o'rtalarida fin tilida chop etilgan ilk kitobning alifbe bo'lganligi tasodif emasdir.

Aholining umumiy savodxonligi nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda, 1660 yillarda qabul qilingan va unga binoan o'qishning elementar ko'nikmalariga ega bo'lmaganlarning uyulanish va turmushga chiqishi mumkin emasligi to'g'risidagi farmoyish juda ham katta turtki bo'lib xizmat qildi. Cherkov o'z qavmlarini o'qishga o'rgatish uchun o'qituvchilarni yollar edi. Bundan tashqari, cherkov psalomchisi majburiyatlariga, qavmlar ichida o'qish bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazish va tinglash kirar edi. Shuningdek, ota-onalarning ham o'z bolalari bilan uyda mashg'ulotlar o'tkazishlari shart edi. O'sha vaqtlarda cherkovda so'zsiz bo'ysintirish huquqi bor edi.

Aholi orasida savodxonlikning umumiy tarqalganligini alohida belgilab o'tish joyiz. Eng boshidan boshlab, tabaqa yoki moliyaviy ahvolidan qat'iy nazar barcha fuqarolarning o'qitilishiga e'tibor berilgan edi. Bu vazifani bajarish oson kechmadi, chunki bolalarning hammasi ham o'qishga bir xil darajada tayyor emas, o'sha vaqtdagi o'qituvchilarning esa o'zlashtirishi qiyin bo'lgan bolalar bilan ishlashi uchun pedagogik tayyorgarliklari yo'q edi. Biroq qat'iylik va iroda ushbu muammoni ham yechishga yordam berdi. O'qish-yozishni bilish har bir voyaga yetgan fuqaro uchun umumiy ta'limning milliy tizimi tashkil qilingan vaqtgacha ham majburiy deb hisoblangan edi. Ijtimoiy bosim majburiy ta'limga tegishli qoidalar qabul qilinganiga qadar ham savodxonlikni o'rganishga turtki bo'lar edi. Aholiga savodxonlikni o'rgatishdagi kamchilik va muammolar, boshlang'ich ta'lim uslubiyatini rivojlantirishga bo'lgan zaruriyatni shakllantirish uchun turtki bo'ldi.

XIX asrda boshlangan milliy o'z-o'zini anglashning rivojlanish jarayonlari, ko'p hollarda musiqa va adabiyot tufayli ro'y berayotgan edi. Finlyandiyaning ma'rifatli mamlakatga aylantirish rejaları paydo bo'ldi. Buning uchun esa yangi ta'lim muassasalari, ona tilidagi adabiyot, yoshlar birlashmalari va ishchilar harakati kerak bo'ldi. Ko'pchilik adabiy asarlarning mazmunida oddiy xalqning hayoti yotar edi va bu narsa aholi o'rtasidagi o'qishga bo'lgan ijobiy munosabatni shakllantirishga yordam berar edi.

Finlar kitob va matbuotni o'qishni yaxshi ko'radilar va Finlarning uylarida Yevropa bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichlarga nisbatan anchagina ko'proq miqdorda kitoblar mavjud. Shuningdek, aholi soni boshiga to'g'ri keladigan gazetalar soni ham dunyodagi eng yuqorilaridan biridir. Fin bolalari obuna bo'lingan gazetalarning uyga olib kelinishiga o'rganib qolganlar (Finlyandiyada matbuot nashrlari pochta tomonidan uyga olib kelinadi va bu nodir holatdir) va ularni o'qish oiladagi odatiy vaqt o'tkazish tariqasidir. Har bir oilada hech bo'lmasa bir necha dona kitob bor va kitob javonlari standart mebel parchasidir. Shuning uchun ham kitob Rojdestvo, tug'ilgan kun, ta'lim muassasini bitirish kabi turli xil sabablar bo'yicha tez-tez beriladigan sovg'a bo'lib qolgan. Tadqiqotlar va hayotiy kuzatuvlar uyda kitoblar qanchalik ko'p bo'lsa, bolalar ham ulardan shunchalik ko'proq foydalanishini ko'rsatmoqda.

Finlyandiyada ham shaharlarda, ham qishloq hududlarida aylanib yuruvchi ko'chma kutubxonalarini ham o'z ichiga olgan keng tarmoqda rivojlangan kutubxonalar tizimi mavjuddir. Finlarning kitob o'qishni yaxshi ko'rishlari to'g'risida so'z borar ekan, bunda tovuq va tuxum dilemmasini ko'rish mumkin: kitoblar borligida ularga talab ham paydo bo'ladi, xalq kitob so'ragan vaqtda esa, demokratik jamiyatda doimo taklif bo'ladi.

**Yukka Saryala,**

*Professor, 1995-2002 yillarda Milliy ta'lim kengashining Bosh direktori*

#### **44. FINLYANDIYA OLIY TA'LIM MUASSASALARINI MARKAZSIZLASHTIRISH**

1920 yillarning boshlarigacha, Finlyandiyada universitet darajasidagi ta'lim muassasalari Xelsinki shahri chegarasida joylashgan edi va ushbu holat 1950 yillarning oxirlarigacha ham unchalik o'zgarmadi. Poytaxtda Xelsinki Umumiy ta'lim yo'nalishi universiteti, Xelsinki texnologiya universiteti, Iqtisodiyot oliy maktabi va shved tilidagi Shved iqtisodiyot maktabi, Ijtimoiy fanlar oliy maktabi va Veterinariya oliy maktabi joylashgan edi.

Shuningdek, badiiy ta'lim ham Xelsinkida jamlangan edi va o'sha vaqtda oliy badiiy ta'limning rivojlanish jarayoni boshlandi.

Turku shahrida 1919 yildan boshlab Finlyandiyaning shved tilidagi Abo Akademiya universiteti va 1922 yilda fin tilidagi Turku shahri universiteti ish boshladi, Biroq, 1950 yillarning oxirida deyarli barcha talabalar avvaldagidek Xelsinki shahrida o'qir edilar.

1960 yillarda fin oliy ta'lim tizimining faol rivojlanishi boshlandi. Prezident Urxo Kekkonenning tashabbusi bo'yicha va parlamentdagi keng hukumat koalitsiyasiga tayangan holda, oliy o'quv yurtlariga bosqichma-bosqich o'sib boruvchi manbalarni kafolat beruvchi oliy ta'lim tizimini rivojlantirish qonunchiligi qabul qilindi. Bir vaqtning o'zida davlat talabalar stipendiyasi tizimi va bir necha yangi universitet bo'linmalar tarmog'i ham yaratildi.

Oulu shahri universitetidagi o'qitish jarayoni 1959 yilning kuzida boshlandi. Yuvyaskyulya shahridagi pedagogika bilim yurti bosqichma-bosqich universitetga aylantirildi. 1966 yilning bahorida yangi qonunchilik tufayli Kuopio shahri Universiteti, Yoensuu shahri Universiteti, Lappeenranta shahri Texnika Universiteti, Tampere shahri Texnika Universiteti tashkil qilindi. Shuningdek, hukumat qaroriga binoan Vaasa shahrida ham universitet ta'limi boshlatildi. Oliy ta'lim tizimiga 1979 yilning kuzida ta'lim jarayoni boshlangan Rovaniemi shahridagi Lapland universiteti qo'shimcha bo'ldi. Ba'zi oliy o'quv yurtlari yaqin-atrofdagi shaharlarda o'z filiallarini ochdilar. Oliy ta'lim tizimining bunday rivojlanishi natijasida, 2000 yillarning boshlarida talabalarning ko'pchilik qismi poytaxt Xelsinkidan tashqarida o'qir edi.

Fin oliy o'quv yurtlarining boshqalardan farq qiluvchi tomoni shundaki, 1970 yillardan boshlab ulardagi pedagogik ta'lim, boshqa ko'pgina mamlakatlardagidan farqli ravishda to'liq oliy darajada olib boriladi. Bu Finlyandiyaning Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti tomonidan olib boriladigan PISA (Xalqaro talabalar ta'lim yutuqlari tadqiqotlari) xalqaro taqqoslashlaridagi yetakchi o'rinlardan birini egallashining ahamiyatli omilidir. Butun mamlakat bo'yicha oliy o'quv yurtlarining ko'payishiga aynan pedagogik ta'lim ko'maklashgan edi.

Urushdan keyingi davrlarda huddi shunday o'zgarishlar musiqaviy ta'lim sohasida ham ro'y berdi. Musiqaviy ta'lim

muassasalarining keng tarmog'i iste'dod egalarini aniqlashga ko'maklashadi. Bu Finlyandiyaning musiqa sohasida erishgan xalqaro muvaffaqiyatlaridagi eng asosiy xizmatlaridan biri bo'lsa kerak. Fin dirijer va solistlari musiqa sahnalariga dunyo bo'yicha chiqadilar.

1990 yillarning boshlaridan Finlyandiyaning oliy ta'lim tizimi qo'shimcha sifatida, undagi ta'lim darajasi oliydan bir bosqich pastroq bo'lgan amaliy texnik ta'lim tizimiga ega bo'ldi. Oliy texnika ta'lim maktablari ham oliy o'quv yurtlari bor hududlarda, ham Finlyandiyaning boshqa shaharlarida joylashganlar. 2010 yillardan buyon mamlakatda oliy o'quv yurtlari va oliy texnika ta'lim maktablari o'rtasidagi o'zaro aloqalar bo'yicha munozaralar olib borilmoqda. Ba'zi hududlarda birlashish jarayoni ro'y bermoqda, ba'zilarida esa ular mustaqil holda qolmoqdalar.

Finlyandiya oliy o'quv yurtlarini markazsizlashtirish jarayoni, butun Yevropa bo'yicha eng tez va faol ravishda o'tkazilgani bo'lsa kerak. U ko'p tomonlama muvaffaqiyatli bo'ldi. Oliy o'quv yurtlarining Finlyandiya bo'yicha tarqalgan holda ekanligi tufayli, barcha yoshlar uchun ularning yashash joylaridan qat'iy nazar, ta'lim olishga teng imkoniyatlar yaratilgan edi. Boshqa tomondan esa, universitetlar tufayli butun mamlakat bo'yicha iste'dodli manbalarni aniqlash va ulardan foydalanish mumkin bo'ldi.

Oliy ta'lim tizimini kengaytirish fan va ta'lim sohasida keng va mustahkam xalqaro aloqalarni yaratishga imkon berdi. Janubiy sohildagi universitetlar, misol uchun Shimoliy Skandinaviya, Tromsyo va Umeo, yoki Rossiyaning Shimoliy-G'arbiy universitetlari bo'lmish Petrozavodsk, Arxangelsk, Siktivkar va Sankt-Peterburg shaharlari universitetlari, shuningdek Amerikaning eng shimoliy universitet markazlari bilan jonli va novatorcha aloqalarni yakka holda olib borishlari dargumon edi. Markaziy Yevropaning keng universitetlar tarmog'i bilan jonli aloqalarni saqlash, Finlyandiyaning ko'pgina universitetlarining ham hissa qo'shishlarini talab qildi.

Rovaniemi shahrida Lapland universiteti negizida faoliyat yurituvchi Arktika markazi, Finlyandiyaning Arktika hududidagi siyosatiga ko'maklashish markazi sifatida xizmat qiladi va

«Shimoliy o'lchov» hududidagi keng xalqaro aloqalar uchun imkoniyatlar yaratadi.

Oliy o'quv yurtlarining keng tarmog'i tufayli mamlakat turli sohalardagi oliy ma'lumotli mutaxassislar bilan ta'minlandi. Universitet tayyorgarligi yo'nalishlarining keng tanlovi tufayli Turku va Tampere shaharlari, Xelsinki hududiga deyarli barcha fanlar bo'yicha raqobatchilik qiladilar. Yangi universitet shaharlari bo'lmish Oulu, Yuvyaskyulya, Vaasa, Kuopio, Yoensuu va Lappeenranta o'z muvaffaqiyatlari va o'sishlari uchun birinchi navbatda o'z universitetlariga qarzdorlar. Eski markazlar ularsiz so'nib bo'lar edi. Oliy o'quv yurtlari ma'lum bir darajada, mamlakatning deyarli barcha hududlarida aholi yashashini ta'minlashga erishdilar.

Albatta, fin oliy ta'lim tizimi o'zining juda ham tarqoqligi va ilmiy-tadqiqot ishlari uchun yetarli darajada keng va zamonaviy talablarga javob beradigan muhitni yaratishga qodir emasligi uchun tanqid qilinadi.

Bu kabi muammolarni hal etish maqsadida, mamlakatning aynan bir hududida, eng avvalo Xelsinki, Turku va Tampere shaharlarida joylashgan yetakchi oliy texnik ta'lim maktablarini ma'muriy tarzda birlashtirish amalga oshirilmoqda. Yoensuu va Kuopio shaharlari universitetlari bitta Sharqiy Finlyandiya universitetiga birlashtirildilar, lekin shu o'rinda har ikkala shaharda ham kampuslar saqlanib qoldilar. Ayni bir fan bo'yicha bo'lgan o'qitish va ilmiy-tadqiqot ishlarini, alohida bir ta'lim muassasasida huddi shunday usulda birlashtirishga harakat qilishmoqda. Universitetlarga o'z mutaxassisliklarini chuqurlashtirish taklifi berilgan edi.

Aslini olganda, Finlyandiyaning zamonaviy va yaxshi ta'minlangan oliy o'quv yurtlari tizimi o'zining tuzilishidan kelib chiqqan holda, manbalarning yetarli miqdorda ekanligi, hamda universitetlar va iqtisodiyot sohalari orasida rivojlangan hamkorlik tarmog'ining mavjud ekanligi sharti ostida yangi innovatsiyalarni rivojlantirish, yangi xalqaro va ilmiy aloqalarni yaratish uchun chinakam imkoniyatlar taklif qilmoqda. Shuningdek, boshqa mamlakatlardan katta miqdorda talabalarni qabul qilishga imkon bermoqda.

**Yaakko Numminen,**

*1973-1994 yillarda Vazir, Ta'lim vazirligining kanselyariyasi mudiri*

## **45. DAVLAT TALABALAR STIPENDIYASI**

Fin talabalarga moliyaviy ko'maklashish tizimini to'rtta davr bosqichiga ajratish mumkin. To 1969 yilgacha davom etgan birinchi bosqich, faqatgina o'zing va o'z yaqinlaringga tayanishing mumkinligi bilan ifodalanadi. Davlat talabalarining faqatgina yashash uchun mablag'lari bo'lmagan, ozchilik qismiga ko'maklashar edi. Kredit foizlarini to'lash uchun subsidiyalar, kreditlar bo'yicha kafilliklar va stipendiyalar faqatgina kam ta'minlangan talabalar uchun mo'ljallangan edi. Yashash uchun mablag'lar asosan talabaning o'zi yoki oilasining daromadlari, shuningdek, yaqinlardan kelgan moliyaviy yordam hisobidan ta'minlanar edi.

1969 yildan 1977 yilgacha bo'lgan ikkinchi bosqichni davlat kredit kafolatlari davri deb nomlasa ham bo'ladi. O'sha vaqtda alohida holda bo'lgan moliyaviy ko'maklashish va stipendiya tizimlari birlashtirildi va natijada talabalar uchun davlat stipendiyasi tizimi paydo bo'ldi. Talabalar stipendiyalari tizimi paydo bo'lganidan so'ng, har bir talabada talabalik krediti olishga imkoniyat paydo bo'ldi. Davlatning imtiyoz berishni ta'minlashda kafil va kredit foizlarini to'lashda subsidiyalar beruvchi tomon sifatidagi hissasi unchalik ahamiyatli bo'lmasa ham, universal talabalar stipendiyasi tizimi va barcha talaba unvoniga ega bo'lgan odamlar uchun imtiyozlar tizimi tushunchasi aynan o'sha vaqtda shakllandi. Kredit bo'yicha davlat tomonidan kafil bo'linishi, talabalarining o'qish davridagi yashash bo'yicha daromadlarini ta'minlashdagi o'z mas'uliyatlarini mustahkamlashga imkon yaratdi.

Talabalarga moliyaviy jihatdan ko'maklashishning 1977 yildan 1992 yilgacha davom etgan bosqichi, davlat ko'magining muntazam ravishda o'sib borishi bilan farq qildi. Ushbu davrda talabalik stipendiyasi kreditlarga avvalgidek kuchli ravishda yo'naltirilgan edi, lekin stipendiyani olish shartlari va maqsadli yo'naltirish ko'lami kengaydi, hamda talabalik stipendiyasi tarkibiga istiqomat va ovqatlanish ustamallari qo'shildi.

1992 yildan 2017 yilgacha, ta'lim maqsadlariga ko'maklashish uchun yo'naltirilgan talabalik stipendiyasining faoliyat bosqichi



davom etdi. Talabalar stipendiyalari tizimi 1992 yildagi talabalarga moliyaviy yordam berishdagi islohotlar tufayli butunlay o'zgardi. Ta'lim olish uchun stipendiya miqdori uch barobar oshdi va foizsiz kreditlar tizimidan, bozor sharoitlari bo'yicha bank kreditlari tizimiga o'tish amalga oshirildi. Ayni vaqtda, talabalar stipendiyalari tizimidan ko'pgina ikkinchi darajali omillar olib tashlandi. Misol uchun, biron kimsaning qaramog'idalik bo'yicha ustama va stipendiya miqdoriga ota-ona yoki sherikning daromadi miqdorining ta'sir qilishi bo'yicha shart olib tashlandi. 1992 yilda talabalar stipendiyasida imtiyozlarning hissasi, davlat tomonidan kafolat berilgan kreditning hissasidan birinchi marotaba yuqori bo'ldi.

1992 yilda o'tkazilgan talabalarga moliyaviy ko'maklashish islohotidan so'ng talabalar stipendiyasi unsurlari o'zgarmadi, lekin talabalar stipendiyalari tizimi g'alati ravishda siyosiy o'yinlar obyektiga aylandi. XXI asrning birinchi o'n yilligida, talabalar stipendiyalari to'g'risidagi qonun ichiga qonunni chigallashtirgan, uni amalga oshirishni qiyinlashtirgan va talabalarning ijtimoiy himoyasini susaytirgan bir necha o'zgartirishlar kiritildi. Talabalarga moliyaviy ko'maklashish tizimini muntazam ravishda o'zgarishi sababli, alohida qonunchilik o'zgartirishlarining ta'sirini baholashning imkoni yo'qdir. Buning natijasida, talabalar stipendiyasini tayinlashga qaror qilish bo'yicha baho berish kun sayin kamroq ishonchga ega bo'lmoqda va bir tomonlamalikdan ko'proq aziyat chekmoqda.

Finlyandiya mustaqilligining yuz yilligini nishonlash yili talabalar stipendiyalari tizimi uchun burilish yilidir. 2017 yilning avgustidan boshlab talabalar stipendiyasidagi kredit hissasi davlat hissasidan anchagina oshmoqda. Ayni vaqtda, talabalarga ko'maklashish tizimida 1992 yildan buyon eng ahamiyatli bo'lgan o'zgarish yuz bermoqda: talabalar yashash uchun talabalik imtiyozlari tizimidan, yashash uchun umumiy imtiyozlar tizimiga o'tmoqdalar. Bunday o'tish uy-joy ijarasi haqining o'sib borishiga ko'proq mos keladi va talabalarga kunduzgi o'qishlarini davom ettirishlari uchun kafolat bo'ladi, deb hisoblanmoqda.

Talabalar stipendiyasi zaruriyatlarga asoslangan kompensatsiyani ifodalaydi. Stipendiyani olish uchun o'qishdagi yutuqlarni ko'rsatib berish kerak. Mabodo o'quvchining boshqa

daromadlari mavjudligi aniqlansa, u holda stipendiya bo'yicha to'langan pullarni qaytarishni talab qilishlari mumkin. Talabalik stipendiyasi yordamida, turli xil ijtimoiy ahvoldagi talabalarga to'liq kunduzgi ta'lim olish imkoniyati beriladi. Talabalar stipendiyalari tizimi oliy texnik ta'limning yoyilish siyosati va yuqori sifatli boshlang'ich o'rta va katta o'rta ta'limi bilan birgalikda, butun Finlyandiya bo'yicha dunyo miqyosida yagona bo'lgan ta'lim olish tenghuquqligini shakllantirish uchun sharoitlar yaratib berdi.

Davlat byudjetidagi talabalar stipendiyasi uchun ajratilgan mablag'larning miqdori bir yilda taxminan 800 million yevroni tashkil qiladi. 2017 yilda kiritilgan o'zgartirishlardan keyin, talabalarga moliyaviy ko'maklashishda yana biron-bir narsani o'zgartirish istaklarining kamayishi amrimaholdir. Oliy texnik ta'limi sohasidagi investitsiyalarning, jamiyat yoki alohida bir shaxsning yaxshiroq kelajagini ta'minlashga yo'naltirilganligi yoki yo'naltirilmaganligi bo'yicha bahslar haligacha ham davom etmoqda. Munozaralar davomida talabalar stipendiyalari tizimining rivojlanish tarixi va o'tmish xatolari esdan chiqmaydi degan umiddamiz.

**Silya Silvasti,**

*2015 yildan buyon Fin talabalar uyushmalari ittifoqining ijtimoiy siyosat bo'yicha eksperti*

## **46. FIN TAMAL SAN'AT TA'LIMI IJODIY YONDASHUVNING NOVATORI SIFATIDA**

Fin tamal san'at ta'limi xalqaro o'lchamlar bo'yicha yagonadir. Tamal san'at ta'limi tashkil qilingan o'quv muassasalari butun dunyoni qamrab olgan tarmoqni tashkil qiladi. Fin davlati 30 yildan ortiq vaqt davomida ijodiy tafakkur va ijodiy yondashishni shakllantirish va rivojlantirishga ko'maklashuvchi tamal san'at ta'limini qo'llab-quvvatlab kelmoqda.

Tamal san'at ta'limi L633/1998 qonuni bilan o'rnatilgan, bir bosqichdan ikkinchisiga o'tishni nazarda tutgan, eng avvalo bolalar va yoshlar uchun mo'ljallangan, badiiy san'atning turli sohalarida tashkil qilinadigan va maqsadga yo'naltirilgan ta'lim berishdir. Unda

o'quvchilarga bir vaqtning o'zida o'zini namoyon qilish bo'yicha bilim va qobiliyatlarga ega bo'lish, hamda o'qishni badiiy san'atning tanlangan mutaxassisligi bo'yicha yanada yuqoriroq bosqichdagi kasb-hunar ta'limi doirasida davom ettirish imkoni berilgan. Tamal san'at ta'limi bolalarga musiqadan boshlab, to tsirk san'atigacha bo'lgan sohalarda o'zini ko'rsatish imkonini beradi va bir vaqtning o'zida bolalar va yoshlar orasidagi farovonlikni qo'llab-quvvatlashga yordam beradi. Tamal san'at ta'limi maktabning boshlang'ich, o'rta yoki litsey ta'limi doiralari kirmaydi. Tamal san'at ta'limi, misol uchun musiqiy ta'lim muassasalari, raqs maktablari, amaliy san'at maktablari, rassomchilik maktablari, shuningdek, boshqa yo'nalishdagi ta'lim muassasalari negizida tashkil qilingan badiiy tarbiyaning fakultativ shaklidir. Bunday ta'lim muassasalarining o'quv rejaları, Ta'lim boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan asoslanishlar bo'yicha muvofiqlashtiriladi. Tamal san'at ta'limi umumiy ta'lim maktablarining barcha o'quvchilariga o'tiladigan san'at ta'limi asoslarining o'rniga tushmaydi. U bolalar va yoshlarga o'z bilimlarini chuqurlashtirish, hamda mahorat va qobiliyatlarini kelgusida rivojlantirish imkoniyatini beradi.

Finlyandiya da tamal san'at ta'limini san'atning musiqa, adabiyot, raqs, tsirk maktabi va teatr maktabi tomonidan taqdim qilinuvchi tomosha ko'rsatish san'ati kabi turlari va me'morchilik, audiovizual san'at, tasviriy san'at, amaliy-dekorativ san'at kabi ifodali san'at turlari bo'yicha olish mumkin. Ta'lim olish standart va kengaytirilgan shaklda bo'lishi mumkin. Tamal san'at ta'limining maqsadi ijodiy fikrlash va ijodiy faoliyatga ko'maklashish, butun umr davomida ishqivozlik izlash uchun shart-sharoit yaratib berish, jo'shqin-sezuvchan ta'sirchanlik hissini shakllantirish, o'qishdagi o'zlashtirish va ijtimoiy munosabatlar bo'yicha qo'shimcha bilim va ko'nikmalarni berish, boshqa madaniyat va idrok shakllarini tushunish qobiliyatini rivojlantirish, o'quvchilarni o'z o'sishi va atrof dagi voqelikda qatnashish uchun qobiliyatlarini rivojlantirishda ko'maklashishdan iboratdir.

Tamal san'at ta'limini moliyalashtirish davlat va munitsipalitet byudjetlari, o'quvchilar tomonidan to'lanadigan mablag'lar, shuningdek, byudjetdan tashqari moliyalashtirish manbalaridan amalga oshiriladi. 2017 yilda Finlyandiyaning 251ta hokimligida

(Finlyandiyaning barcha munitsipalitet tuzilmalarining 85%) 393ta san'at ta'lim muassasasi va tamal umumta'lim maktablaridagi o'quvchilarning deyarli 15 foizini tashkil qiluvchi 126 mingta o'quvchi bor edi. Tamal san'at ta'limi o'quv dasturidagi darslarni o'tishda ko'p miqdorda san'atning turli toifa va yo'nalish mutaxassislari ishtirok etmoqda. Musiqa bo'yicha o'qitishning o'zidagina 3,6 ming kishi banddir.

Keyingi yillarda tamal san'at ta'limi muassasalari tufayli Finlyandiya'dagi san'at hayoti, xalqaro miqyosda yuqori baholar olishga imkon beruvchi yangi bosqichga ko'tarildi. San'at maktablarining farovonlik va salomatlikni shakllantirish masalalarida tutgan o'rnini ham inobatga olmaslikning iloji yo'q. Fin san'at maktablari fin jamiyatini oldinga boshlab borayotgan yaratuvchi kuchlardan biridir. Madaniyat – bu jamoa resursidir va badiiy didni tarbiyalash bolalik yoki yoshlik davridan boshlanadi.

Biroq, biz finlar rivojlanishning hali ertagi bosqichida ekanligimiz va umumiy madaniyat jamiyatini shakllantirish jarayonidagi yakuniy nuqta bir necha o'n yilliklar uzoqda ekanligini tan olish kerak. Inson kapitalini rivojlantirish madaniyat sohasi va san'atdan kelib chiquvchi doimiy rag'batlantirishlarni talab qiladi. Lekin, bizning innovatsiyalarimizning kelajakda ham yashashi va rivojlanishi uchun yangi va yangi rag'batlantirish dastaklari kerak bo'ladi.

**Minna Lintonen,**

*2003-2007 yillarda Parlament deputati*

## **47. KATTALAR UCHUN OCHIQ TA'LIM**

Voyaga yetgan aholi uchun ochiq ta'lim tizimi doirasidagi mashg'ulotlarda har yili 1 milliondan ortiq inson, ya'ni deyarli har beshinchi kishi qatnashadi. Xalqaro miqyosda taqqoslaganda ushbu son haqiqatan ham rekord sifatidadir. Bundan tashqari, yaqinda amalga oshirilgan voyaga yetgan aholi o'rtasidagi tadqiqot (PIAAC) natijasida finlar birinchi o'rinlardalar.

Ochiq ta'lim katta yoshdagi aholi uchun ixtiyoriy, umumta'rifatli, jamiyatning barcha qatlamlari uchun baravar va

bo'sh vaqtda o'tkaziladigan ta'lim shaklidir. Ta'lim dasturlarini katta yoshdagilar maktablari, xalq universitetlari, ochiq universitet va yozgi universitetlar, o'quv markazlari va sport ta'limi muassasalari taklif qiladilar. O'quv kurslari ham qisqa muddatli va jadal, ham to'liq o'quv yili davom etadigan va kunduzgi-sirtqi ta'limni ko'zda tutgan bo'lishlari mumkin. Davlat tomonidan katta yoshdagi aholi uchun ochiq ta'lim dasturlarini amalga oshirishni qo'llab-quvvatlash miqdori umumiy harajatlarning 50-65 foizini tashkil etadi.

Yevropada ochiq ta'lim, Finlyandiya va Shimoliy Yevropaning boshqa mamlakatlarini e'tiborga olmagan holda, faqatgina qisman mavjuddir va ta'lim dasturlari odatda biron-bir aniq kasb bo'yicha olib borishni ko'zda tutadi. Shu sababli, ta'lim berish faoliyatining ushbu turi ta'lim sohasidagi Yevropa Ittifoqi siyosatida kerakli e'tiborga ega bo'lmadi.

Agarda, boshqa mamlakatlardagi holat bilan taqqoslansa, Finlyandiya va Shimoliy Yevropa mamlakatlaridagi ta'lim tizimi kuchli darajada institutlashtirilgan va undagi katta yoshdagi aholining ishtiroki kengroqdir. Umuman olganda, ochiq ta'lim tizimi bo'yicha yaxshi tasavvur mavjud.

Katta yoshdagilar uchun ochiq ta'limning ildizlari tarixga chuqur kirib ketgan. XIX asrning o'zidayoq aholining keng qatlamlari orasida ma'rifat tarqatish ishlarini olib boruvchi harakatlar paydo bo'la boshladi. Cherkov, sog'lom hayot tarzi olib borish harakati, ishchi aholining siyosiy harakati, Shimoliy Yevropa mamlakatlari aholisiga ma'rifat tarqatish harakati tomonidan olib borilgan ilm tarqatish ishlari ahamiyatli o'ringa ega edi.

2014 yilda bizning mamlakatimizda o'z negizida katta yoshdagi aholi uchun ta'lim dasturlarini taklif qiluvchi 313 muassasa faoliyat yuritar edi: katta yoshdagilar uchun 187ta maktab, 80ta xalq universiteti, 20ta yozgi universitet, 14ta sport o'quv markazi va 12ta o'quv markazi.

O'quv markazlari tarmog'i butun mamlakatni qamrab olgan. Finlyandiya istiqomat qiluvchi har bir insonning yashash hududida, katta yoshdagi aholi uchun ochiq ta'lim xizmatlarini taklif qiluvchi tashkilot mavjud.

O'quv muassasalari katta yoshdagi aholining ta'lim olishdagi zaruriyatlarini e'tiborga oladilar va ta'lim dasturlarini Finlyandiyaning

barcha munitsipalitetlarida tashkil qiladilar. Mashhur bo'lgan ta'lim yo'nalishlar doirasiga boshqa narsalar qatorida tillar, nasl-nasab shajarasini o'rganish, amaliy-dekorativ ishlar, falsafa va san'at ham kiradi.

Kattalar uchun maktablarning bir qismi davlat ta'lim muassasalari, bir qismi esa munitsipalitetlarnikidir. Katta yoshdagilar uchun maktablarning ba'zilarida, ta'lim muassasalarining birlashishi natijasida hosil bo'lgan bir necha kampus va o'quv korpuslari mavjud. Kattalar uchun maktablar, ta'lim muassasalari qoshida bilim olish ularga yaxshi shart-sharoitlarni yaratib berayotgan yosh voyaga yetgan avlod uchun ta'lim dasturlarini tashkil qilishda katta tajribaga egalari.

Kattalar uchun maktablar migrantlar uchun ta'lim muassasalari o'rnini ham egallab turmoqdalar. 2012-2013 o'quv yilida uzoq muddatli o'quv kurslaridagi migrantlarning hissasi 20 foizni tashkil qilardi. Kattalar uchun maktablarning yarmi migrantlar uchun o'qishni taklif qiladi.

Barcha fin universitetlari ochiq yozgi universitet shaklini taklif etadilar. Yozgi universitetning ta'lim dasturlarida yosh, bilim saviyasi va qo'yilgan maqsaddan qat'iy nazar ishtirok etish mumkin. O'qishni tashkillashtirish bo'yicha universitet fakultetlari javobgarlar. Katta yoshdagi aholi uchun ochiq ta'limni taklif qiluvchi ta'lim muassasalari, ochiq universitet ta'limini bir yoki bir necha fakultetlar bilan birgalikda tashkil qiladilar. Shuningdek, barcha yozgi universitetlarda ochiq universitet o'quv kurslari ham faoliyat yuritadi.

Sport ta'lim markazlarining o'ntasida davlat roli va to'rttasida hududiy vazifalar mavjud. Ta'limning siyosiy maqsadi, o'quv jarayonida sust ishtirok etuvchi aholi guruhlariga ta'lim berishga ko'maklashishdan iboratdir. 2010-2011 o'quv yilida aholining maqsadli qismidagi taxminan 80 ming kishiga ta'lim olishda qatnashishga moliyaviy yordam ko'rsatildi.

O'quv markazlari Finlyandiyaning turli qismlarida ta'lim olishni tashkillashtiradigan davlat ta'lim muassasalaridir. Jismoniy tarbiya, madaniyat, ekologiya va siyosat kabi sohalarda faoliyat yurituvchi jamoat tashkilotlarida ishlovchi yoshlar va katta yoshdagilar o'quv markazlarining maqsadli guruhlarini tashkil etadilar. O'quv

dasturlari jamoat tashkiloti faoliyatini tashkil qilish, olib borish va boshqarish sohalari bo'yicha bilim va qobiliyatlarga mo'ljallanganlar va bunday dasturlar odatda ta'limning kunduzgi-sirtqi shakllarini ko'zda tutadilar.

Katta yoshdagi aholi uchun ta'lim tizimi hozirgi paytda rivojlanishning qaysi bosqichidadir? Mamlakatdagi yangi liberal iqtisodiy va ta'lim siyosatining bosimi natijasida, katta yoshdagilar uchun ta'lim tizimi tez-tez ravishda o'z borligi uchun kurashish va ahamiyatli ekanligini isbotlashga majbur holatda qolmoqda. Professor Yuri Manninen tomonidan yaqinda o'tkazilgan tadqiqot natijasiga binoan, katta yoshdagilar uchun ta'limga sarflangan har bir yevro kamida uch barobar ko'payib qaytmoqda. Katta yoshdagilar o'quv markazlariga kiritilgan bir yevro, 3 yevrodan 6 yevroga olib kelmoqda! Ma'rifat faoliyatiga qo'shilgan mablag'lar sog'likni saqlash va ijtimoiy himoya sohalaridagi mablag' tejashga olib keladi.

Katta yoshdagilar uchun mo'ljallangan ochiq ta'lim tizimida tahsil olish, shu tariqa ham insonga, ham jamiyatga foyda keltiradi. Tadqiqotlar va kundalik hayot tajribalari shuni ko'rsatadiki, katta yoshdagi aholi uchun ochiq o'quv kurslari yangi bilim va ko'nikmalar, yangi tanishlar va muloqot doirasi, yangi kuchlar va qobiliyatlar beradilar. Ochiq ta'lim kurslarida qatnashish, o'quv jarayonida qatnashish umumiy jihatda yahlit farovonlik hissini qo'llab-quvvatlashish va rivojlantirishga ko'maklashadi.

Katta yoshdagi aholining ta'limi doirasida ro'y berayotgan ijtimoiy va ma'naviy kapitalning o'sishi va ijtimoiy mas'uliyatning uyg'onishi, demokratik omillar va asoslarni amalga oshirishdagi eng muhim omillar bo'lmoqdalar.

Katta yoshdagi aholi uchun ochiq ta'lim olishni taklif qilayotgan ta'lim muassasalari madaniyat markazlari sifatida faoliyat yuritmoqdalar, aholiga ma'rifat xizmatlarini taklif qilmoqdalar va demokratik jamiyatdagi faol fuqarolik o'rnini egallashga tayyorlamoqdalar. Shu bilan birga, taklif qilinayotgan dastur va tadbirlardagi jamoatchilik bilimlarining hissasi muntazam ravishda kamayib bormoqda. Ham iqtisodiy xokimiyat kontsentratsiyasi nuqtai nazaridan, ham iqtisodiy va ma'rifiy tengsizlikning o'sishi nuqtai nazaridan dolzarb mavzu: 1990 yillarning boshlarida ham

katta yoshdagilar uchun ochiq ta'lim tizimining ajralmas qismi bo'lgan, kishi va jamiyatdagi o'zgarishlarning katalizatori sifatidagi o'rin yo'qolmadimikan?

To'liq ta'limni olishga muvaffaq bo'lmagan insonlarni ta'lim faoliyati bilan qamrab olish, ta'lim muassasalarining istiqbolli vazifasidir. Jamiyatning yaxshi ta'lim olgan va faol fuqarolari bir tomonda, kam ta'lim olgan va ijtimoiy jihatdan ajralib qolgan fuqarolari esa ikkinchi tomonda bo'lgan holda qatlamlarga bo'linib ketishi bo'yicha xavotir, keng ko'lamdagi qayta qurish va rivojlanish jarayoniga olib kelishi kerak. Hozirgi rivojlanish yo'nalishlariga qarshi chora topish kerak: sof ta'lim faoliyati, mediatsiya va fuqarolik jamiyati. Finlyandiya va butun jahon uchun uzluksiz ta'lim.

**Yukka Gustafsson,**

*2011-2013 yillarda Ta'lim vaziri, 1987 yildan buyon Parlament deputati*

## **48. RANGLI RASMLARDAGI NOTA SAVODXONLIGI**

Inson musiqa chalishni xohlasayu, lekin notalarni o'qishni bilmasa nima qilish kerak? Barcha musiqiy asarlarni eshitib yodlab olishning iloji yo'qdir, lekin musiqa yozish uchun notalardan tashqari yana biron bir usul bormi? Ushbu maqsadda musiqani o'rganish jarayonini osonlashtiruvchi notalarni rangli rasmlar bilan yozish uslubi o'ylab topildi.

Rangli rasmlardagi nota savodxonligini musiqa terapevti Kaarlo Uusitalo (KaarloUusitalo) 1996 yilda o'ylab topdi va o'qituvchi Markku Kaykkonen (MarkkuKaikkonen) bilan birgalikda, aqliy faoliyatidagi buzilishlari bor odamlarni rangli rasmlardagi nota savodxonligiga asoslangan musiqaga o'rgatish dasturi va uslubiyatlarini ishlab chiqishni boshladi. Uusitalo va Kaykkonen, musiqani o'rganish bo'yicha odatdagi o'quv dasturlari bo'yicha u yoki bu sabab bilan musiqa o'rganishning ilojini qilolmagan odamlarga musiqani o'rgatish maqsadida, «HelsinkiMissio» ijtimoiy markazi xonasida joylashgan «Resonaari» (Resonaari) nomli maxsus musiqa o'quv studiyasini tashkil qildilar. 1998 yildan boshlab, Finlyandiyaning O'yin avtomatlari assotsiatsiyasining



qo'llab-quvvatlashi bilan rangli rasmlar orqali nota savodxonligi uslubiyatini istiqboldagi rivojlanishi sohasida tadqiqotlar boshlandi va shuningdek, ushbu sohadagi o'qituvchi va mutaxassislarni tayyorlash tashkillashtirildi.

Rangli rasmlar orqali notalarni o'rgatish uslubida, notalar o'z rangi va shakli bilan farq qiladilar. Xususan, turli ranglardan foydalanish, rivojlanishda ehtiyoji bo'lgan odamlar va bolalarga notalar orasidagi farqni yanada aniqroq farqlay olish imkonini beradi. Bu tufayli ko'pchilik, musiqiy asarlarni ular notalarni odatiy uslubiyat orqali o'rgangan bo'lganlaridan ko'ra tezroq ijro etishni boshladilar. Va bularning barchasidan tashqari, inson muvaffaqiyat va qo'yilgan maqsadga erishganlik tuyg'usini his etish, o'ziga baho berish va o'z kuchlariga ishonish darajasining o'sishi imkoniyatiga ega bo'ladi.

Bularning barchasi o'quvchining rag'batlantirilishini kuchaytirishga imkon beradi. Ta'lim olish natijasida o'quvchida bilim o'zlashtirish qobiliyatlari shakllanadi, axborotni qayta ishlash va tahlil qilish jarayonlari, hamda mavhumlashtirish mexanizmi ham yaxshilanadi.

Rangli rasmlardagi nota savodxonligi, alohida ehtiyojlarga ega bo'lgan odamlarga jamiyatga aralashish ko'nikmalarini rivojlantirishda ko'maklashadi. Sahnaga chiqish va musiqiy asarni birgalikda ijro etish davomida, o'z atrofida bo'layotgan voqealar va boshqa ijrochilarga e'tibor berish kerak va ushbu uslub guruh tarkibida ishlashni o'rganishga ko'maklashadi. Olinayotgan tajriba alohida ehtiyojlarga ega bo'lgan odamlarga jamiyat ichiga osonroq kirishib ketish va o'zini jamiyat a'zosi sifatida his etish, yangi tanishlar orttirish va ro'zg'orda ishlarni eplashga imkon beradi.

Avvaliga rangli rasmlardagi nota savodxonligi uslubi, aqliy faoliyatida nuqsonlari bo'lgan odamlarni musiqaga o'rgatish uchun ishlab chiqilmoqda edi, lekin so'nggi vaqtda ushbu uslubdan maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarni ham musiqaga o'rgatish davomida foydalanish mumkinligi belgilab o'tildi. Bolalar faqat musiqiy asarlarni ijro etibgina qolmay, balki o'z asarlarini yaratishdan ham quvonch oladilar. Yaponiyada ushbu uslubdan kunduzgi xizmat markazlariga qatnovchi keksalarga musiqani o'rgatish jarayonida foydalanishga baho bermoqchilar.

Nota savodxonligiga o'rgatishning innovatsion uslubi ham akademik, ham kasb-hunar ta'lim muassasalarining tadqiqot mavzusiga aylandi va har holda bitta doktorlik dissertatsiyasi ushbu uslubga bag'ishlangan.

Rangli rasmlar orqali notalarni o'rgatish uslubi bo'yicha boshqa mamlakatlar bilan hamkorlik o'sib bormoqda. Hozirgi paytda ushbu uslub bo'yicha o'qitish Estoniya, Italiya, Yaponiya, Irlandiya va Latviyada olib borilmoqda. O'quv qo'llanmalari Finlyandiyadan tashqari yana Yaponiya, Estoniya va Italiyada ham tayyorlandilar va chop etildilar.

Bularning barchasi rangli rasmlardagi nota savodxonligi uslubining odamlar, shu jumladan alohida ehtiyojlari bor shaxslar uchun musiqani o'rganishni osonlashtirgan va ularga musiqadan zavqlanishlari uchun yo'l bergan ijtimoiy innovatsiya ekanligini ta'kidlashga imkon beradi.

**Machiko Yamada,**  
*tilshunoslik fanlari doktori*

## **49. FINCHA HIKOYALAR AYTISH USLUBI**

Hikoyalar aytish uslubi – bu birdamlik hissini uyg'otishga yordam beruvchi muhim fin ijtimoiy innovatsiyasidir. U faqatgina bir necha qo'l ostidagi vositalarni talab qiladi. Lekin, albattaki yoningizda ham katta yoshdagilar, ham bolalarga nisbatan bo'lgan to'g'ri munosabat va har bir insonning yoshi, jinsi, madaniyati, ma'lumoti yoki qobiliyatlaridagi cheklanishlaridan qat'iy nazar, boshqalarga aytib berish uchun biron-bir shaxsiy va muhim bo'lgan voqeasining mavjudligiga ishonch bo'lishi kerak.

«Hikoyalar aytish» uslubi 1980 yillarda bolalar psixologlari faoliyati doirasida o'ylab topilgan edi. Bolalarning hikoyalarini tinglar va yozib olar ekanman, men bolalarni holat rivojlanishini har qanday taxmin qilish yoki yo'llovchi savollarsiz ham tinglash mumkinligini aniqladim. Ushbu uslub og'zaki hikoyalarning boshqa usullaridan farq qiluvchi to'rtta bosqichdan iborat edi: 1. Hikoyani e'tirozlarsiz tinglash. 2. Hikoyani yozib olish. 3. Uni o'qish. 4. Hikoyachi xohishiga ko'ra ehtimoliy xatoliklarni tuzatish.

Hikoyani yozib oluvchiga faqatgina qog'oz va qalam kerak. Keyin u hikoyachiga o'zining nimani eshitishni xohlashini tushuntiradi: «O'zing xohlagan hikoyangni aytib ber. Sen uni qanday aytib bersang, men uni so'zma-so'z yozib olaman. Ertak tayyor bo'lganda, men uni senga o'qib beraman va agarda sen xohlasang unga o'zgartirishlar kiritishing mumkin».

«Hikoyalar aytish» uslubidan foydalanishda suhbatning mavzusi va borishi oldindan kelishib olinmaydi. Hikoya baholanmaydi. Nima haqida va qanday so'zlab berishni hikoyachining o'zi hal qiladi. Shuningdek, nima haqida gapirishni istamasligini ham o'zi hal qiladi.

«Hikoyalar aytish» uslubi, bu hikoyani yozib olayotgan tinglovchining hikoyachining ichki suhbatida ishtirok etadigan tomonlarning o'zaro munosabatidir. Ushbu uslub har bir kishida tanish va barchaga ma'lum bo'lgan ma'lumotlardan tashqari, boshqa yana hech kimda bo'lmagan o'z tajribasi va atrofdagi olam haqidagi yig'ilgan ma'lumoti ham mavjuddir. Hikoyani so'zlab beruvchiga baho berilmaydigan vaqtlarda, u shuningdek o'z fikr va tajribalarini ham bayon etadi.

Tadqiqotlar «Hikoyalar aytish» uslubi yordamida odamlarning o'zaro munosabat jarayonlari ko'proq demokratik tarzda bo'lishini ko'rsatdi. Osoyishta va kamtar kishilar o'zlarini dadil tarzda ifodalashga o'rganadilar, sergaplar esa tinglashni o'rganadilar. Tadqiqotda ishtirok etuvchilar bir-birlarining yangi qirralarini kashf etadilar. Har bir hikoya qilish boshqalaridan farq qiladi, har bir hikoyachining o'z lug'ati bor, hatto kichik bolalar ham o'z so'zlari va hikoya qilish usullaridan foydalanadilar.

Hikoya qilish uslubi o'qish va yozishni o'rganishga ko'maklashadi, uning tinglanayotgan va tushunilayotgan ekanligiga ishonch xosil qilishga yordam beradi. Uslubdan ham juftlikda, ham guruhda foydalanish mumkin. Hikoyalar ortidan hikoyalar so'zlab berish mumkin. Shuningdek, guruh ichida bitta voqeani ham o'ylab topish ham mumkin. Hikoyani grafik yoki musiqiy shaklda so'zlab berish mumkin, lekin barcha to'rt bosqichning mavjud bo'lishi va hikoyani tinglash shartlarini qoniqtirishi eng asosiysidir.

Ushbu uslub turli mamlakat vakillariga boshqa madaniyat va an'analarni yaxshiroq o'rganishga ko'maklashadi. Yozishmalar

bo'yicha do'stlarning hamkorligi va o'z ertaklarini finlar, Shimoliy Yevropadagi boshqa mamlakatlar, Estoniya, Falastin, Janubiy Afrika, Namibiya, Zambiya, Keniya va Uganda aholisi o'rtasida so'zlab berishlari bunga misol tariqasidadir.

«Hikoyalar aytish» uslubi turli yosh guruhlariga moslashtirilgan va 30 yildan ko'proq vaqt davomida odamlarning uylari, bolalar maslahatxonasi, maktab, kutubxona, kasalxona, muruvvat uylari va san'at ko'rgazmalarida; bolalar o'rtasida, ishchi majlislari, ta'lim olish va terapiya, xalqaro saviya va birdamlik hissini shakllantirishda foydalaniladi. Uslubdan foydalanish holatlaridan qat'iy nazar, bildirilgan fikrlar doimo ijobiy edi.

**Monika Riixelya,**  
*Ijtimoiy fanlar doktori, psixolog*

# SALOMATLIK

## 50. SALOMATLIK MARKAZLARI

Aholining sog'ligini saqlash qonuni Finlyandiyada 1972 yilning 1 aprelida kuchga kirdi. Qonunning kuchga kirishidan avval puxta tayyorgarlik ishlari bajarildi. 1960 yillardagi katta yoshdagi fin aholisi salomatligining yaxshilanib borish jarayoni to'xtab qolgan edi. O'rta yoshdagi erkaklar orasidagi o'lim darajasining yuraktomir kasalliklari tufayli yuqori ekanligi xavotirga solayotgan edi. Bir yilda mingdan ortiq inson yo'l-transport hodisalari tufayli nobud bo'lar edi. Ishlab chiqarishda juda ko'p baxtsiz hodisalar ro'y berar edi. Ruhiy shifoxonalar katta va doimo bemorlar bilan liq to'la edi. Onkologiya kasalliklari tobora ko'proq ro'yxatga olinar edi. Mamlakatning mehnatga layoqatli aholisi o'rtasidagi nafaqaga chiqish sabablarida, tayanch-harakat tizimi kasalliklarining ulushi yildan yilga ortib bormoqda edi. 1950 va 1960 yillarda markaziy tuman kasalxonalarining keng tarmog'i qurib bitirilgan edi. Kasalxonalariga sog'likni saqlash uchun byudjetdan ajratilgan mablag'larning 90 foizi sarflanar edi. Kasalliklar profilaktikasi, ambulator davolash va parvarish qilish tomon burilish zaruriyati tug'ilgan edi.

Salomatlik markazi ushbu muammoga finchasiga yechim bo'ldi. Dastlabki sog'likni saqlashning avvallari bir-biridan ayrilgan holda faoliyat yuritgan funksional unsurlari, bitta yaxlit ma'muriy birlikka birlashtirildi. Tibbiyot hamshiralari, munitsipalitet shifokorlari va maktab stomatologlari munitsipalitet xizmatchilariga aylandilar. Yangi infrastrukturaning qurilishiga ham shunchalik tez kirishildi. So'zlashish tilida, salomatlik markazi nomi bilan ko'pincha yangi bino nazarda tutilar edi. Salomatlik markazlari rasmiy ravishda munitsipalitet tuzilmalari, yoki ular uncha katta bo'lmagan holda bir necha munitsipalitetning barcha aholisiga xizmat ko'rsatuvchi dastlabki sog'likni saqlash tizimini ifodalay edi. Davlat tomonidan yangi tizimni kengaytirishda kuchli uslubiy qo'llab-quvvatlash berilayotgan edi. Yangi lavozim va yangi binolar uchun davlat organlari bilan muvofiqlashtiruv kerak edi va davlat tomonidan, aholiga xizmat ko'rsatishdagi harajatlarning sezilarli qismini

qoplagan subsidiyalar ajratildi. Avvaliga manbalar Sharqiy va Shimoliy Finlyandiyada to'plangan edi. O'sha yerdagi aholining sog'ligi darajasi eng yomon ahvolda edi. Xususiy sektorda, hattoki yirik ish beruvchilarda ham sog'likni saqlash xizmatlariga ega bo'lish minimal darajada edi. Mening o'zim ham ish faoliyatimni 1978 yilda Turku shahrida, salomatlik markazida shifokor sifatida boshlaganman. Aholisi soni 165 mingta bo'lgan shaharda 9 nafar salomatlik markazi shifokori bor edi, ya'ni 18 mingta odamga bitta shifokor to'g'ri kelardi. Bundan tashqari, maktab va maslahatxonalarda shahar byudjetidan maosh oluvchi shifokorlar ishlar edi.

Dastlabki tibbiy yordam ko'rsatish faoliyati, rasmiy ravishda aholining sog'ligini saqlash deb yuritilardi. Aholining sog'ligini saqlash bo'yicha xizmatlarning rivojlanish jarayoni 1970 va 1980 yillar davomida faol tarzda kechib bordi. Shuningdek, 1990 yillarning boshiga qadar shaharlarda ham yetarli miqdorda ish joylari yaratildi va moddiy-texnik bazalar rivojlantirildi. Misol uchun, 1960 yillarda Pori shahrida, sog'likni saqlash to'g'risidagi qonun qabul qilingan vaqtgacha atigi uchta munitsipalitet shifokori lavozimi va aholining eng muhtoj qatlamlariga yordam berish uchun alohida bitta sanitar shifokor lavozimi mavjud edi. 1990 yilda Porida 40ta salomatlik markazi shifokori lavozimi bor edi. Shulardan har uchinchisi bo'sh turgan edi!

Salomatlik markazlarining xizmatlar doirasi, bizning mamlakatimizda qaror qabul qiluvchi shaxslar tomonidan zarur ravishda e'tibor berilmaydigan eng katta masalalardan biridir. «Sen salomatlik markaziga bordingmi?» degan savol «Sen shifokor qabuliga bordingmi?» ma'nosida tushuniladi. Salomatlik markazi shifokorining bemorlarni qabul qilish vaqtidagi faoliyatining kengligi masalasi, salomatlik markazlarining faoliyat olib borish davomidagi eng ko'p munozaralarga sabab bo'lganlardandir. Aholini shifokor qabuliga oson va tez yetib borish qiziqtiradi. Dastlabki davrda, shifokorning qabuli bemor uchun 3 marka turar edi. Keyinchalikda to'lovdan umuman voz kechishdi. Undan so'ng shifokor qabuli yana pullik bo'ldi. Ba'zi munitsipalitetlar o'z qarorlari bo'yicha shifokor qabulini bepul qilib qo'ydilar. Shunisi ravshanki, aholining asosiy qismi salomatlik markazlari tizimining ish beruvchanligini

aynan shifokor qabuliga kirishning osonligi bo'yicha baho beradi. Hisob-kitob yo'llaridan kelib chiqqan holda, salomatlik markazlari manbalarining 10-15 foizi shifokorlar qabullarini tashkil qilishga sarflanadi. Agarda munitsipalitetdagi barcha ijtimoiy va tibbiy xizmat ko'rsatishlar (shu jumladan statsionar davolash va ijtimoiy faoliyat) inobatga olinsa, u holda salomatlik markazlaridagi shifokorlar qabullarining hissasi 4 % atrofida bo'ladi.

Salomat markazlarida yana qanday xizmatlar mavjud?

Ushbu savolga turli xil usullarda javob qaytarish mumkin. Men o'z tavsifimda eng tanish va tushunarli bo'lgan tushunchalarni izohlab o'taman. Salomatlik markazlari vazifalarining hammasini ham sanab o'tmayman. Maslahatxona xizmatlari salomatlik markazlari faoliyatida ahamiyatli o'rin egallaydi. Bir yoshgacha bo'lgan bolalar, shulardan uchtasida shifokor ham ishtirok etadigan to'qqizta tibbiy ko'rikdan o'tishi kerak. Bir yoshdan olti yoshgacha bo'lgan bolalar, shulardan ikkitasida shifokor ham ishtirok etadigan oltita tibbiy ko'rikdan o'tishi kerak. Homiladorlik davridagi ayollar maslahatxonasi faoliyatini tashkillashtirish ham turli xildagi xizmatlarning keng jamlanmasi bilan farq qiladi. Maslahatxonalarning oilani rejalashtirish va kasalliklarning oldini olish bo'yicha faoliyati ham muhim o'rin tutadi. Sog'likni saqlashning maktab va talabalar bo'yicha yo'nalishi tegishli yosh guruhlarini qamrab olgan. Vaksinatziya tibbiy profilaktika bo'yicha xizmatlar jamlanmasining tarkibiy qismidir. Shuningdek, keksa yoshdagi aholi uchun ham o'z maslahatxona xizmatlari mavjud. Bundan tashqari, salomatlik markazlari ishlab chiqarishda ham sog'likni saqlash xizmatlarini taklif qiladi. Boshqa turli toifadagi maslahatxona xizmatlari va sanitariya-tushuntirish ishlari ham salomatlik markazlarining vazifalari doirasiga kiradi. Stomatologiya xizmati ham profilaktika, ham davolash faoliyatini qamrab olgan alohida yo'nalishdir. Men tomonimdan yuqorida eslab o'tilgan Pori shahrida, 1950 yillarning ohirida faoliyatlari eng avvalo maktab o'quvchilariga yo'naltirilgan ikkita shahar stomatologi bor edi. 1990 yilda Pori shahrida 30ta stomatolog va yana 30ta stomatologiya xizmatida band bo'lgan mutaxassis ham mavjud edi. Bachadon nayi saratoni bo'yicha skrining (Papanikolau bo'yicha mazok olish) va ko'krak bezlari saratoni bo'yicha skrining salomatlik markazlari

vazifalariga kiradi. Skrining o'tkazish bo'yicha xizmatlar odatda xususiy yetkazib beruvchilardan xarid qilinadi.

Salomatlik markazlari faoliyatlarining boshqa qismi maxsus xizmatlar (logoped, psixolog, diyetolog, ijtimoiy xizmatchi va hokazolar), kasallarga uylarida qarash, uylarda statsionar davolashni tashkil qilish, kunduzgi xizmat ko'rsatish markazi, reabilitatsiya ishlari va tez va shoshilinch yordam ko'rsatishning statsionar bo'limi («kasalxona»), reabilitatsiya bo'yicha texnika vositalari markazi, yuqumlik kasalliklar bo'yicha parvarish qilish, profilaktika va davolash vositalari bilan ta'minlash markazi, turli maqsadlar bo'yicha ma'lumotnoma va xulosalar taqdim qilish, dori-darmonlar bilan reabilitatsiya, fizioterapiya, ijtimoiy yordam (keksa odamlarga qarash, giyohvandlarga ko'maklashish, nogironlar uchun xizmatlar va boshqalar), shifokorlar xizmatlari va yana boshqa tibbiy xizmatlarni o'z ichiga oladi. Bu yerda men salomatlik markazlari zimmasiga yuklatilgan vazifalarning faqatgina bir qismini sanab chiqdim. Salomatlik markazi o'zida sog'lik fabrikasini ifodalaydi desa bo'ladi. O'rta toifadagi tibbiyot xodimlarining vazifalariga bemorlarni oldindan ro'yxatga olish bo'yicha qabul qilish, navbatchilik, retseptlar muddatlarini uzaytirish, telefon qo'ng'iroqlarini qabul qilish va hokazolar kiradi. Shifokorlar va o'rta toifadagi tibbiyot xodimlarining faoliyatlariga misol uchun, salomatlik markazlari mas'uliyatida bo'lgan, lekin ushbu xizmatlarni tashkil qilish tez va shoshilinch tibbiy yordam, hamda sanitariya trasportlari singari kasalxona okruglarining tuzilish bo'linmalariga o'tkazib berilgan laboratoriya va rentgen kabi diagnostika xizmatlari ko'maklashadi.

Fin salomatlik markazi o'zini yagona tuzilma sifatida ko'rsatadi. Tabiiyki, salomatlik markazi oldida muammolar ham bor. Bir tomondan, ijtimoiy ko'maklashish xizmati va maxsus tibbiy xizmatlar bilan birlashish, ya'ni tik va yotiq integratsiya. Boshqa tomondan esa, xususiy tibbiyot markazlari bilan yangi vaziyatning shart-sharoitlarida, bemorning tibbiy xizmatlarni yetkazib beruvchilarni tanlash huquqi borligida raqobatlashishdir. Shunga qaramay, salomatlik markazining fin sog'likni saqlash tizimidagi poydevor toshi sifatidagi tutgan o'rni e'tibor va qo'llab-quvvatlashni talab qiladi - salomatlik markazining o'zi ahamiyatli bo'lgani uchun



emas, balki Finlyandiya aholisining salomatligi va ijtimoiy farovonligi uchun.

**Aki Linden,**

*Boshqaruv bo'yicha direktor, Xelsinki shahri va Uusima hududining kasalxona okrugi (HUS)*

## **51. AYOLLAR VA BOLALAR MASLAHATXONALARI**

Hali yuz yil avval ham tug'ish xavfli bo'lgan edi. Finlyandiyada 170 tug'ruqdan bittasi o'lim holati bilan yakunlanar, 100 boladan 3tasi o'lik tug'ilar edi. Bola tirik tug'ilgan vaqtida xavf-xatar shu bilan tugamas edi. Go'daklarning nobud bo'lish ko'rsatkichi ham yuqori edi – 100ta boladan 15tasi 1 yil yashamasdan vafot etardi. XX asrning boshlaridagi badavlat Uryala okrugidagi fermer oilasida tug'ilgan to'qqiz farzanddan bittasi o'lik holda tug'ilgan, uchtasi bir yil yashamasdan vafot etgan va yana bittasi uch yoshida ko'kyo'taldan o'lgan edi. Tirik qolgan farzandlarning eng kichigi, keyinchalik tibbiyot hamshirasi bo'ldi.

Ilk ayollar va bolalar maslahatxonalari 1890 yillarda Parijda ochilgan edi. Ularning maqsadi tug'ruqlarni xavfsizlantirish va go'daklar ovqatlanishini yaxshilashdan iborat edi. Bu kabi maslahatxonani Finlyandiyada tashkil qilish fikri marshal Mannergeym nomidagi Bolalarni himoya qilish ittifoqi tomonidan berildi. Germaniyada pediatr kasbi bo'yicha o'qib kelgan Arvo Yulppyo, 1920 yilda Ittifoqning bolalar kasalxonasini boshqarishga taklif qilindi. Arvo Yulppyo taklifni qabul qildi va hamshiralar uchun onalarga go'daklar va yosh bolalar parvarishi bo'yicha maslahatlar berishni o'z ichiga olgan qo'shimcha tayyorgarlikni tashkil qildi. Xuddi shu kabi, faqat shved tilida bo'lgan kurslar boshqa xayriya jamg'armasi - SamfundetFolkhälsan – tomonidan avvaliga amaliyot shaklida, 1927 yildan boshlab esa o'quv kurslari shaklida tashkil qilindi. 1931 yilda davlat hamshiralarni tayyorlash mas'uliyatini o'z zimmasiga oldi va ayni damda doyalarni ishga olish, munitsipalitetlarning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlangan ilk harakati edi.

Ilk bolalar maslahatxonasi 1922 yilda, ayollarniki esa 1926 yilda ochildi. Faoliyat sekinlik bilan, asosan jamoat tashkilotlari hisobidan rivojlanar edi. Bundan so'ng munitsipalitetlar ham maslahatxonalar tashkil qilishni boshladilar. 1944 yildagi munitsipalitetlarning ayollar va bolalar maslahatxonalarini to'g'risidagi qonun, barcha munitsipalitetlarda bepul maslahatxonalar tashkil qilishni talab qildi. O'sha vaqtda ayollarning tug'ruq vaqtidagi o'lim ko'rsatkichi 2500 tug'ruqqa bir o'lim, go'daklarning nobud bo'lishi esa yuzta chaqaloqqa bir o'limga tushib qoldi. 1960 yillarda Finlyandiyaga tashrif buyurgan shifokorlar, bolalar orasidagi o'lim ko'rsatkichlariga hayron qolishardi – yuzta chaqaloqqa atigi 2ta. Ayni vaqtda, shifokorlarning umumiy aholi soniga bo'lgan nisbati Yevropada oxiridan uchinchi edi. Buning siri, maslahatxonalarning ko'pchilik ishlariga javobgar bo'lgan va zaruriyat tug'ilganda munitsipalitetdagi mahalliy shifokorlarga ham maslahatlar beradigan hamshira va doyalarning faoliyatida edi. Ular uyma-uy yurib, oilalarning yashash sharoitlarini juda yaxshi o'rganib oldilar.

Maslahatxonalardagi gimnastika kurslarida ayollarni tug'ruqqa 1940 yillarning oxirlaridayoq tayyorlashar edi. 1960 yillarda ruhiy tayyorgarlik olib borilar, 1970 yillarda esa otalar ham tug'ruqqa tayyorgarlikka jalb qilinar edi. Homiladorlikning kechishi eng eskilari qon bosimi, shishganlik, gemoglobin miqdori, peshobdagi oqsil miqdori va qondagi shakar miqdorini o'lchashdan iborat bo'lgan ko'p sonli tadqiqotlar yordamida kuzatilar edi. Hozirgi kunda diagnostika sil kasalligi belgilarini topishdan boshlab to qondagi antijismlarni, OITS va homilaning rivojlanishidagi og'ishlarni aniqlashgacha kengaydi. Homiladorlikning ko'ngildagidek kechishiga ovqatlanish bo'yicha bilim berish, shuningdek chekishdan voz kechish bo'yicha tavsiyalar ko'maklashadi.

Ayollar maslahatxonalarini xizmatlaridan deyarli barcha onalar foydalanar edi, lekin 1950 yillarning oxiriga borgandagina bolalar maslahatxonalarida ham hamshiralarning yetarli soni ishlay boshladi. Onalarga maslahatlar berish va bolalarning o'sishi va rivojlanishi ustidan kuzatib turishdan tashqari, yuqumli kasalliklar tarqalishining oldini olish eng muhim vazifa edi. Bolalarni emlash majburiy bo'lmasa ham, bolalarning 95 foizi maktab yoshiga

yetganlariga qadar, ro'yxatda bo'lgan barcha kasalliklarga qarshi emlangan edi. Ijtimoiy tarmoqlardagi ba'zi emlashlarning tavakkalchiligi (qisman o'ylab chiqarilgan) bo'yicha munozaralar, vaksinatsiyada qatnashish ulushini sezilmas miqdordagina kamaytirdi.

2015 yilda Finlyandiyadagi go'daklar o'limi 0,17 foizni, dunyodagi eng past ko'rsatkichni tashkil qildi. Ayollarning tug'ish vaqtidagi o'limi 20 mingta tug'ruqqa bittani tashkil qildi. Jamoa farovonligining yaxshilanishi ushbu ijobiy moyillikka o'z ta'sirini ko'rsatgan bo'lsa ham, maslahatxonalarning bepul va barcha uchun mo'ljallangan xizmatlari ham e'tibordan xoli emas. Kasalliklar skriningi va sanitariya bo'yicha bilim berish faoliyati malakali tibbiyot xodimlarining vazifasidir. Butun aholi yashash joyi va ma'lumot darajasidan qat'iy nazar, maslahatxonalarning xizmatlaridan foydalanadi.

**Maryukka Myakelya,**

*Tadqiqotchi-professor, Sog'likni saqlash va ijtimoiy farovonlik milliy instituti*

## **52. TALABALAR SOG'LIGINI SAQLASH JAMG'ARMASI**

Talabalar sog'ligini saqlash jamg'armasi oliy o'quv yurtlari talabalariga umumiy amaliyot shifokorlari, psixolog va stomatologlarning xizmatlarini taklif qiladi va Finlyandiyada yashovchi har bir talaba ushbu xizmatlardan foydalanishi mumkin. Finlyandiya sog'likni saqlash tizimining o'ziga xos xususiyatlaridan biri, bu talabalarning o'z sog'likni saqlash xizmati borligidadir.

Tibbiy xizmatlar talabalarning o'qish joylari bo'yicha beriladi. Ijtimoiy yordam va nafaqalar boshqarmasi, talabalarning o'zlari, ta'lim muassasalari joylashgan shaharlar va shuningdek, Ta'lim vazirligi tomonidan moliyalashtiriladigan jamg'arma Finlyandiya sog'likni saqlash tizimining ajralmas bo'lagidir.

Jamg'armaning maqsadi, talabalarning samarali ta'lim jarayonlari uchun zarur bo'lgan sog'liklarini profilaktika va davolash choralari bilan saqlash va yaxshilashdan iboratdir. Talabalar uchun

mustaqil sog'likni saqlash xizmatlarini tashkil qilish qarori yoshlar o'rtasidagi tibbiyot xizmatlari bo'yicha, avvalo ruhiy salomatlik, og'iz bo'shlig'i va reproduktiv organlar salomatligiga aloqador bo'lgan o'ziga xos zaruriyatlarga tayanadi. Talabalarning sog'likni saqlash sohasidagi zaruriyatlarini tushunish jamg'arma faoliyatining asosi bo'lib xizmat qiladi. Talabalarning jamg'arma faoliyatiga faol ravishda qo'shayotgan hissalar ham qarorlar qabul qilishda, ham uning faoliyatini baholash va uni mukammallashtirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.

Jamg'arma 1954 yilda Talabalar ittifoqi tashabbusiga asosan yaratilgan edi. Jamg'armani tashkil qilishga talabalar sog'ligini saqlash tizimini rivojlantirishga bo'lgan qiziqish sababchi bo'ldi. Sil kasalligiga qarshi kurashish assotsiatsiyasining, 1932 yilda talabalarning o'pkalarini tekshirishni boshlagan vaqtini jamg'arma faoliyatining boshlangan vaqti, deb hisoblasa bo'ladi. 1945 yilda Talabalar ittifoqi, talabalar sog'ligini saqlash kelgusida, urush tugaganidan so'ng qanday tashkil qilinishi to'g'risida qaror qilishi kerak bo'lgan qo'mitani tashkil qildi. Talabalar ittifoqi o'sha yilning o'zidayoq talabalar sog'ligini saqlash xizmatini yaratish to'g'risidagi qarorni qabul qildi.

1946 yilda Talabalar ittifoqi qoshida, sil kasalligini ommaviy tarzda skrining qilish va bemorlarni qabul qilish bilan shug'ullanuvchi talabalar sog'ligini saqlash bo'limi o'z ishini boshladi. Bo'lim faoliyatini doktor Yota Tingvald Xannikaynen (GötaTingvaldHannikainen) boshqarar edi. Ayni vaqtda Jinsiy yo'llar orqali o'tuvchi kasalliklarga qarshi kurashish Assotsiatsiyasining moliyaviy yordami orqali, talabalarni zaxmkasalligi bo'yicha skrining qilish boshlandi. Talabalar sog'ligini saqlash xizmati faoliyatining ilk yillarida boshlatilgan ushbu loyihalar, faoliyatning boshlanishidan aynan yoshlarning zaruriyatlariga yo'naltirilganligi bo'yicha xususiyatlarni yaxshi namoyish etadi.

1947 yilda Parlament bo'limning faoliyatini moliyalashtirish maqsadida talabalarning shifokorlarda majburiy ko'rinishi bo'yicha qaror qabul qildi va talabalar zimmasiga semestr davomida bir marotaba sog'likni saqlash xizmatlari uchun mablag' kiritish majburiyatini yukladi. Keyinchalik, bo'limning faoliyati uning

negizida tashkil qilingan jamg'armaga o'tkazildi va moliyalashtirish manbalariga Finlyandiyaning O'yin avtomatlari assotsiatsiyasi qo'shildi. Bino va xonalar esa universitetlar tomonidan ajratiladigan bo'ldi. 1955 yilda jamg'arma faoliyati uchun mablag'lar, ilk marotaba davlat byudjetidagi harajatlarning alohida moddasi sifatida ko'rsatib o'tildi. Jamg'armaning faoliyatini qo'llab-quvvatlash maqsadida, 1956 yilda jamg'arma uchun moliyalashtirish manbalari va binolar topish bilan shug'ullanuvchi Talabalar salomatligi jamiyati tashkil qilindi.

1970 yillarda talabalar salomatligi masalalarini munitsipalitetlarning sog'likni saqlash tizimlari mas'uliyatiga o'tkazish bo'yicha jiddiy ko'rib chiqishlarga qaramasdan, talabalar salomatligi hozirgi kunga qadar ham jamg'armaning asosiy vazifasi bo'lib kelmoqda. Talabalar sog'ligini saqlash jamg'armasining tizimga oliy kasb-hunar ta'lim muassasalari talabalarini ham qo'shish bo'yicha taklifi, oliy kasb-hunar ta'lim muassasalari tizimining tashkil qilinishi bilanoq muhokama qilinishni boshladi. Uzoq mulohazalardan so'ng, 2011-2014 yillarda amalga oshirilgan uch yillik tajribaviy loyiha boshlatildi. Ushbu uch yillik pilot loyiha yakunlari bo'yicha olingan natijalar ko'ngilni to'q qilmoqda. Jamg'arma tomonidan qo'llanilayotgan ish uslubi, oliy kasb-hunar ta'lim muassasalari talabalariga ham mos kelar ekan. 2016 yilning dekabr oyida Jamg'arma boshqaruvi, mamlakatda olib borilayotgan aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish tizimidagi islohotlar doirasida, Jamg'arma xizmatlarini 2019 o'quv yilidan e'tiboran oliy kasb-hunar ta'lim muassasalari talabalarini ham qamrab olgan holda kengaytirish to'g'risida qaror qabul qildi.

Talabalar sog'ligini saqlash jamg'armasi avvalgidek ham bitta oddiy sabab bo'yicha talabalar sog'ligini saqlash xizmatlarini taklif qiluvchi tashkilot bo'lib qolmoqda: buning uchun shak-shubhasiz asoslar mavjuddir.

**Vesa Vuorenkoski,**

*2004-2005 yillarda Jamg'arma boshqaruvi a'zosi*

### **53. ISHLAB CHIQRISHDA MEHNAT VA SOG'LIKNI SAQLASH**

Finlyandiya hali Shvetsiyaning hukmronligi ostida bo'lgan vaqtidagi, hunarmandlar gildiyasining hunarmandchilik ustaxonalarida 14 yoshga to'lmagan bolalarning mehnat qilishi ma'n etilganligi to'g'risidagi 1770 yildagi qoidalari, mehnatni himoya qilishni tashkillashtirishga ilk misol bo'lib xizmat qiladi. Biroq, vaqt o'tgan sayin adolatli mehnat bandligi g'oyasi ham qishloq xo'jaligida, ham faol ravishda rivojlanayotgan sanoatlashgan ishlab chiqarishda unutilib bordi. Shvetsiya qirolining katta yer egalari zimmasiga o'z yollanma ishchilari bo'yicha javobgarlikni yuklatuvchi yollanma ishchilar to'g'risidagi 1805 yildagi farmoyishi, ushbu yo'nalishdagi alohida tashabbuslar sifatida ko'rsatib o'tilishi mumkin. 1889 yilda barcha ishchi toifalarining mehnatini himoya qilish shartlari, ayniqsa ayollar va bolalar ish kunining davomiylik me'yorlarini belgilovchi qator farmoyishlar qabul qilindi.

Ishchi kuchini qimmatbaho milliy manba sifatida ko'rishni boshladilar va ushbu holat professor E.G. Palmenning tabaqalar assambleyasidagi ishchi kuchi va uning ahamiyati bo'yicha aytib o'tgan: «milliy kapital, hattoki eng qimmat milliy kapital ham – bu bizning ishlab chiqaruvchi kuchlarimizning jismoniy va moddiy rivojlanishidir» - obro'li fikrida o'z aksini topgan. Finlyandiyaning 1919 yildagi birinchi konstitutsiyasining 6-bob 2-paragrafida: «Finlyandiya aholisining ishchi kuchi davlatning alohida himoyasi ostidadir» - deb huddi shunday holatda berilgan va konstitutsiyaning barcha kelgusidagi tahrirlarida ham ishchi kuchini himoya qilish ayni shu yo'sinda belgilangan

1920 va 1930 yillarda yosh mustaqil davlatning me'yoriy-qonunchilik asoslarini ishlab chiqish bo'yicha faol ishlar olib borilayotgan va boshqa qonunlar qatorida mehnat inspeksiyasi to'g'risidagi qonun, ish joyidagi baxtsiz hodisalardan sug'urta qilish to'g'risidagi qonun, mehnat shartnomasi to'g'risidagi qonun va kasb kasalliklari to'g'risidagi qonunlar ham qabul qilindi. Ishlab chiqarishdagi salomatlik va xavfsizlikni himoya qilishga tenghuquqlilikni amalga oshirishdagi muhim vosita sifatida ham qaralayotgan edi. Mehnat aloqalarida qatnashish imkoniyati ayollar

o'rtasida mustaqillik va erkinlikni ta'minlashning ahamiyatli vositasi edi. Yangi qonunchilik homilador ayollar va yangi tug'ilgan chaqaloqlarning sog'ligini saqlashni yaxshilashga ko'maklashdi va dunyodagi birinchilar qatorida, mehnat qonunchiligi tarkibiga aholining emizikli onalar kabi toifasini kiritdi.

Qonunchilik bazasi va belgilangan me'yorlar taxminan har 25-30 yilda, mehnat aloqalari rivojlanishining vujudga kelgan yangi masalalari va voqeliklariga mos kelish uchun yangilanib turadi. Qonunchilikning eng keng miqyosda yangilanishi 1970 yillarda amalga oshirildi. O'sha vaqtda ish joyida mehnatni himoya qilish, mehnat inspeksiyasi va mehnatni himoya qilish bo'yicha tadbirlarni muvofiqlashtiruvchi qonunlar qabul qilindi. Ushbu qonunchilikni amalga oshirish, ish joyida qarorlar qabul qilishdagi korporativ demokratiya me'yorlari bilan belgilangan umumiy ishtirok omillarini ham o'z ichiga oldi. Shu bilan ayni bir vaqtda hammani bezor qilgan «ishchining mas'uliyatsizlik oqibatidagi aybi falsafasi» ham tarixda qolib ketdi. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarga avvaliga mehnat muhitidagi tavakkalchilik omillarining oqibatlari sifatida, keyinchalik esa yana ish joyida xavfsiz sharoitlarni ta'minlashni boshqarishdagi xatolar sifatida qarashni boshladilar. 1977 yilda dunyo miqyosida hozirgi kungacha yagona bo'lgan, ish joyidagi sog'likni saqlash to'g'risidagi alohida qaror qabul qilindi.

Finlyandiya mehnat inspektorlari va mehnat inspeksiyasining ajoyib ish beruvchanligi bo'yicha Yevropadagi eng yuqori bo'lgan ko'rsatkichlari bilan ajralib turadi. Ish joylari darajasida 60 mingdan ortiq mehnatni himoya qilish boshqaruvchilari, mehnatni himoya qilish bo'yicha vakil yoki ularning o'rinbosarlari va mehnatni himoya qilish komissiyasi a'zolari ishlab kelmoqda. Mehnatni himoya qilish faoliyati ilmiy-tadqiqot ishlari va barcha manfaatdor tomonlarni o'qitish orqali qo'llab-quvvatlanadi va ushbu ilmiy-tadqiqot ishlari va ta'lim faoliyatining darajasi Yevropadagi eng yuqorilardan biridir.

Ish joylaridagi baxtsiz hodisalar ko'rsatkichi, mehnatni himoya qilish tizimining an'anaviy va eng muhim, hattoki yagona bo'lgan ish beruvchanlik mezonidir. Mehnatni himoya qilish tizimining 1970 yillarda o'tkazilgan islohotidan so'ng, Finlyandiya ishlab chiqarishdagi o'lim holatlariga olib kelgan baxtsiz hodisalar darajasini 85 foizdan ko'proq kamaytirishga muvaffaq bo'ldi va

hozirgi kunda Finlyandiya ushbu ko'rsatkich bo'yicha Yevropa Ittifoqi mamlakatlari orasidagi beshinchi o'rinni egallamoqda. Agarda uslublar va statistik ro'yxat qamrovi inobatga olinsa, balki undan ham yuqori o'rindadir. Malta, Lyuksemburg, Buyuk Britaniya va Gollandiya ushbu ro'yxatda peshqadamlar.

Ishlab chiqarishdagi sog'likni saqlash faoliyati qirol Kustaa Vaasa zamonida boshlangan: armiya va flotda askarlarning jarohatlari va kasalliklarini davolash bilan shug'ullanuvchi tabiblar ishlar edi. So'ngra, shved qirolining 1805 yil 15 maydagi farmoyishida (2-modda, 4-paragraf), dehqonlarning zimmasiga o'z yollanma ishchilarining yaxshi ovqatlanish va kasalliklarini (jarohat yoki kasalliklar ishchining aybi natijasida yuz bergan holatlar bundan mustasno) davolash bo'yicha harajatlarni qoplash mas'uliyatlari yuklatildi. Aslini olganda davlat, sog'likni saqlashni rivojlantirishda ilk qadamni tashlaganlardan edi. Davlat harbiy piyoda va dengiz kuchlari askarlariga tibbiy xizmat ko'rsatish uchun tabiblarni yollar edi. XVIII asrning o'rtalarida Suomenlinna qal'asi quruvchilari va XIX asrning o'rtalarida Saymen kanali quruvchilari uchun, davlat hazinasi hisobidan tibbiy xizmat ko'rsatish tashkil qilingan edi.

Sanoat inqilobining boshlanish vaqtigacha bo'lgan davrda, ilk sanoat korxonalari 1850 yillardan boshlab o'z ishchilari uchun ham profilaktika xizmatlari, ham davolashni o'z ichiga olgan tibbiy xizmat ko'rsatishni amalga oshirish bilan shug'ullanar edi. Korxonada fin tibbiy xizmat ko'rsatish uslubi va amaliyotini shakllantirish shunday bosqichma-bosqich ravishda amalga oshirilayotgan edi va ushbu uslub o'z xodimlari uchun tibbiy xizmatlarni tashkil qilgan ilk korxonalardan birining sharafiga «Kyumi korxonasi uslubi» deb nomlandi.

Ikkinchi Jahon Urushidan so'ng, agrar Finlyandiyaning sanoat rivojlanishiga Yevropadagi eng tez sur'atlarda o'tayotgan vaqtida, «Kyumi korxonasi uslubi» deyarli barcha yirik korxonalar, shuningdek, davlat sektori va kooperativ harakatlaridagi ish joylariga kiritildi. 1963 yilda kasallik bo'yicha sug'urta qilish qonuniga, taklif qilinayotgan tibbiy xizmatlarni kasallik holati bo'yicha sug'urta badallari hisobidan qoplash mexanizmi ham kiritildi. Taxminan o'sha vaqtda, markaziy kasaba uyushmalari



tashkilotlari ishlab chiqarishdagi tibbiy xizmatlar to'g'risidagi, o'nlab yillar davomida ishchilarning ish haqi miqdori bo'yicha siyosiy shartnomaning tarkibiy qismi bo'lib qolgan shartnomani imzoladilar.

Ishlab chiqarishdagi tibbiy xizmatlar to'g'risidagi qarorning 1978 yildagi tahriri, mehnat tibbiyoti tizimidagi eng ahamiyatli o'zgarish bo'ldi. 1978 yildagi qonunchilik o'zgarishlari, dunyo ko'lamida eng ilg'or va xalqaro miqyosda kuchli e'tibor obyekti bo'lib qoldi. Ushbu qonun faoliyat sohasi, kasbi, mehnat aloqalarining sifati, tashkilot yoki korxonaning kattaligi yoki joylashgan joyidan qat'iy nazar, ish beruvchining o'z xodimlari uchun tibbiy xizmatlarni o'z hisobidan tashkillashtirish mas'uliyatini belgilar edi. Shuningdek, munitsipalitetlarning salomatlik markazlarida frilanser va xususiy tadbirkorlarga ham mehnat tibbiy xizmatlarini olish huquqi birlashtirib qo'yildi. Tibbiy xizmat ko'rsatishning tarkibi ishlab chiqarishdagi sog'likka ziyon yetkazuvchi ta'sirlar va jarohatlanish profilaktikasi, ishchilarning sog'ligi va ish qobiliyatini kuchaytirish, shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish va davolash, shuningdek, hozirgi kundagi keksayib borayotgan va mehnat qobiliyatida muammolarga duch kelayotgan personalni qo'llab-quvvatlash nuqtai nazaridan oqilona qaror bo'lgan reabilitatsiya xizmatlarini olish uchun yo'llanma berish ham keng ravishda belgilab qo'yilgan edi.

Harajatlarning ustidan nazorat qilish va ayni vaqtda xizmatlarning tarkibi bo'yicha tavsiyalarni taklif qilish uchun, Nafaqa va ijtimoiy nafaqalar boshqarmasi (KELA) tomonidan boshqariladigan, lekin uni moliyalashtirish mehnat bozori ishtirokchilarining bevosita o'zlari tomonidan olib boriladigan kompensatsiyalar tizimi yaratildi. Bunday tizim ish beruvchi uchun ham rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi. Yangilangan qonunchilik fin mehnat tibbiyoti tizimi darajasining dunyodagi eng yuqori pog'onalardan biriga ko'tarilishiga, ish bilan band aholining 90 foizi va eng avvalo qishloq joylardagi tadbirkorlarning 50 foizini qamrab olishga ko'maklashdi.

Xizmat ko'rsatish tarkibi qonunchilik bo'yicha belgilanadi, harajatlar nazorat ostida tutiladi. Xizmat ko'rsatish tarkibini rivojlantirish jarayoni, qonunchilikka qo'shimchalar va kompensatsiyalar hisoblab berish uchun shart-sharoitlar ro'yxatini

muntazam ravishda kiritish yo'li orqali olib boriladi. Masalan, ish joyidagi tibbiy xizmatlar va mehnatga layoqat bo'yicha ilg'or amaliy yondashuvlarni kiritish, shuningdek, harakatlanish qobiliyatini qisman yo'qotish hollarida mehnat hayotiga qaytish va mehnat jarayoniga ko'nikishga ko'maklashish.

Fin mehnat tibbiyoti tizimi ko'pgina mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar uchun model bo'lib qoldi. Xalqaro mehnat tashkilotining ishlab chiqarishdagi tibbiy xizmat ko'rsatish bo'yicha shartnomasining asosiy qismi, Finlyandiyaning ish joyida tibbiy xizmatlarni ko'rsatish sohasidagi o'rnagi asosida tayyorlangan edi. Fin mehnat tibbiyoti tizimi Jahon sog'likni saqlash tashkilotining strategiya va tavsiyalari uchun stimuly bo'lib xizmat qildi. BMTning barcha tashkilotlari xodimlariga tibbiy xizmat ko'rsatish ko'pincha fin yondashuvi bo'yicha yo'naltirilgan. Afsuski, Yevropa Ittifoqining yo'riqnomalari fin mehnat tibbiyoti tizimining rivojlanishiga ko'maklashmadi: Finlyandiya mehnat tibbiyoti sohasidagi YI yo'riqnomasini ishlab chiqish bo'yicha tashabbusni bir-ikki marotaba ilgari surdi, lekin ushbu tashabbus Yevropa Ittifoqidagi barcha a'zo davlatlar tomonidan qo'llab-quvvatlanishga ega bo'lmadi.

Mehnat hayotini globalashtirish va internatsionallashtirish, tadbirkorlik, mehnat hayoti va mehnat aloqalarining parchalanishi, misol uchun, yangi material va texnologiyalardan foydalanishdagi salomatlik uchun yangi xavf-xatar va tavakkalchiliklar, shuningdek, ish vaqtining yangicha tashkil qilinishi, ishchi kuchining tobora o'sib borayotgan turfaligi, keksayib borayotgan va qisman harakatlari cheklangan mehnat manbalari va xizmat ko'rsatish tizimlarining tuzilishga oid islohotlari mehnatni himoya qilish va mehnat tibbiyoti uchun yangi masalalar bo'lib qoldilar.

**Yorma Rantanen,**

*Mehnat tibbiyoti Institutining faxrli bosh direktori*

## **54. O'LIMGA OLIB KELUVCHI YTH SONINI IKKI BAROBAR KAMAYTIRISH**

Yo'l harakati xavfsizligining past darajasi uzoq vaqt davomida jamiyatning katta muammosi bo'lib kelgan. Ommaviy axborot vositalarini ko'proq yirik aviahalokatlar va alohida yo'l transport

hodisalari qiziqtiradi. Finlyandiyada ushbu sohada ma'lum darajada tadqiqotlar 1960 yillarga qadar olib borilgan, lekin amalga oshirilgan aniq choralar (qonunchilik darajasida, jamiyatdagi ochiq muloqot yoki bilim berish ko'rinishida) kam bo'lgan.

Siyosatchilar statistika bo'yicha 1960 yillarning oxirlarida, yo'llardagi holatning yomonlashib borishi davom etayotgani aniqlanganda va Finlyadiyani boshqa Yevropa mamlakatlari orasidagi ola qarg'a deb atashganidan keyingina o'ylanib qoldilar. 1972 yilning bahorida hukumat transport masalalari bo'yicha parlament komissiyasi va uning qoshidagi yo'l harakati xavfsizligi bo'yicha maxsus bo'limni tashkil qildi. O'sha vaqtlarda yo'llarda yiliga 1200 nafarga yaqin odam halok bo'lar edi.

Hamma narsa shundan boshlandi. Yo'ldagi yagona baxtsiz hodisa, amaldor shaxsning faolligi, siyosatchilarning yaxshi tomonlarni to'plashi va hattoki prezident Kekkonenning yangi yil tabrigi tufayli emas. Har bir inson o'z hissasini qo'shdi. Lekin eng muhimi, bu Yo'l harakatini tashkillashtirish boshqarmasida hukmron bo'lgan o'zaro harakatlarning kayfiyati va darajasi edi. Men ham minglab insonlarni qayg'u, o'lim, azob va harajatlardan qutqarib qolgan ushbu jarayonda qatnashganimdan faxrlanaman.

Avvalambor tezlik chegaralari belgilab qo'yildi. O'sha vaqtdagi qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar ittifoqining raisi mening xonamga yugurib kirib, agarda tezlik chegaralari qabul qilinsa, u holda poytaxtimiz yangi sutsiz qolishi haqida baqirganini yaxshi eslayman. Sutni hozirgi kunga qadar butun Finlyandiya bo'yicha ertalabki nonushta vaqtida yangiligicha iste'mol qilishadi, biroq poytaxt janoblarning shunqorligini chegaralash kerak edi va shunday qilindi ham.

Tezlikni chegaralashni qabul qilishga ilk neft inqirozi madad bo'ldi. Biroq yanada kattaroq kurash xavfsizlik kamaridan majburiy foydalanishda boshlandi. Boshqa mamlakatlardagi xavfsizlik kamaridan foydalanish tajribasi yaxshi taassurot qoldirgan bo'lsada, parlamentda yangilik umumiy qarshilikka duchor bo'ldi. Meni «liberal bo'lmagan» niyatlarim sababli hattoki sudga ham chaqirirdilar. Va nihoyat, men muxoliflarimni xavfsizlik kamaridan foydalanmagani uchun ko'pgina jarohat va siniqlarga ega bo'lgan yo'l-transport hodisalari qurbonlari bilan tanishish uchun

kasalxonaga olib borishga qaror qildim. Bundan foyda chiqdi va qonun loyihasi parlamentdagi eshitishlardan muammosiz o'tib oldi.

Yo'l-transport hodisalaridagi o'lim holatlari soni tezda kamayib borishni boshladi. Natijalarga quyidagi choralar orqali erishishga muvaffaq bo'lindi:

- 1 Alohida yo'llar uchun tezlikni chegaralash choralarini qabul qilish (eng muhim chora)
- 2 Avtomobilning oldingi o'rindiqlarida xavfsizlik kamaridan majburiy foydalanish
- 3 Mototsiklistlarning shlemlardan majburiy foydalanishi (mopedlar haydovchilari uchun shlemlardan foydalanish 10 yildan so'ng majburiy bo'ldi)
- 4 Chorrahalarini tartibga solish
- 5 Shahar chizig'idan tashqarida 600 kilometrdan ortiq velosiped yo'laklari qurilgan edi, turli xildagi transport vositalari oqimlari ajratildi
- 6 Shaharlardagi yo'l harakatini tashkil qilishdagi o'zgarishlar. Agarda bir-birlaridan farqlari mavjud bo'lsa, u holda yo'l-transport hodisalarining soni o'nlab marotaba ortishi payqab qolindi.
- 7 Temir yo'l o'tkazmalarini tekshirish kuchaytirildi.

Agarda avvallari birinchi o'rinda inson omili, ikkinchi o'rinda yo'llar va uchinchi o'rinda transport vositasining ahvoli yo'l-transport hodisalarining vujudga kelish sabablari bo'lib hisoblangan bo'lsa, endilikda yo'llardagi baxtsiz hodisalarning eng muhim sababi sifatida yo'l harakatini tashkillashtirishga qaraldi. Shuning uchun ham urg'u alohida olingan haydovchilar, velosiped haydovchilari yoki piyodalarni ayblashga emas, balki yo'l harakatining o'zini qaytadan tashkil qilishga qaratildi.

Shuningdek, e'tibor maktab va reklama kompaniyalarining ushbu muammoning hal qilinishidagi tutgan o'rni, transport vositalarining yomon ahvoli, yo'llar ahvolining yomonlashgani, mast va charchagan haydovchilarning tutgan o'rniga ham qaratildi. Ushbu ish o'z mevalarini berdi. Besh yil ichida o'lim holatlari 600 kishigacha, ikki marotaba kamaydi. Vaqt o'tgan sayin yo'l

harakatini tashkillashtirish masalasiga bo'lgan qiziqish so'nib qoldi va yo'llardagi qurbonlar soni yana oshishni boshladi. To'liq davraning qaytarilishi va siyosatchilar, OAV va jamiyatning ushbu muammoni hal qilish kerakligini tushunib yetganiga qadar bir necha yil o'tdi.

Yana ayni o'sha harakatlar qaytarildi: yo'l harakatini tashkillashtirish bo'yicha parlament komissiyasi qaytadan tuzildi, yo'l harakati xavfsizligining bir necha muhim masalalari ajratib olindi, bir qator eski va yangi g'oyalar kiritildi. Natijada, yo'llardagi o'lim holatlari miqdori kamayishni boshladi va ushbu tendentsiya bir necha yillar davom etdi. Keyinchalik statistika mashinalar soni va harakat tig'izligining uch barobardan ko'proq oshganiga qaramay barqarorlashdi. 2016 yilda yo'l-transport hodisalarida 2,4 ming nafardan ko'proq inson halok bo'ldi.

**Pekka Taryanne,**

*1972-1975 yillarda Yo'l harakati Vaziri*

## **55. «SHIMOLIY KARELIYA» LOYIHASI**

Urushlardan keyin yashash darajasi tez yaxshilanib bordi. Yuqumli kasalliklarni yuqtirib olish xavfi anchagina kamaydi. Birinchi o'ringa surunkali kasalliklar, ayniqsa yurak-tomir tizimi kasalliklari va onkologiya kasalliklari chiqib qoldi. 1970 yillarning boshlarida Finlyandiyadagi yurak kasalliklari oqibatidagi o'lim darajasi dunyodagi eng yuqorisi edi. Ayniqsa mehnatga layoqatli yoshdagi erkaklar o'rtasida o'lim darajasining yuqoriligi, butun aholi salomatligining yomonligini anglatar edi.

Ayniqsa Shimoliy Kareliya guberniyasidagi yurak kasalliklari bo'yicha kuzatilgan holat eng jiddiysi edi. 1971 yilning yanvarida Yoensuu shahrida, turli xil tashkilotlar vakillari hukumat vakillariga ahvolni yaxshilash uchun tezkor choralar ko'rish to'g'risidagi iltimos bilan murojaatnoma imzoladilar. Ushbu murojaatnoma tayyorgarlik ishining boshlanishi edi va natijada «Shimoliy Kareliya» loyihasi boshlatildi.

Loyihaning boshlanish vaqtiga qadar, yurak-tomir tizimi kasalliklari sanoati rivojlangan mamlakatlardagi o'lim holatlarining

eng keng tarqalgan sabablaridan edi. O'sha paytda yurak tomirlari kasalliklarining profilaktikasi uchun kerakli ma'lumotlar juda kam edi va asosiy e'tibor davolash va reabilitatsiya ishlariga qaratilar edi. Biroq, o'sha vaqtlarda ham qator tadqiqotlar natijalari kasallikning oldini olish mumkinligiga ishora qilar edi. Kasallikning ko'payishiga epidemiya tarqalishi vaqtidagi kabi bakteriya va viruslar emas, balki yashash tarzi va odatlarga aloqador bo'lgan xavf omillari sababchi ekanligi ayon bo'ldi. Natijada, aholi salomatligining holatidagi haqiqiy o'zgarishlar faqatgina profilaktika faoliyati orqali amalga oshirish mumkinligi bo'yicha xulosaga kelindi. Shu tariqa, Shimoliy Kareliyada aholi o'rtasidagi xavf omillarining tarqalishini kamaytirish bo'yicha misli ko'rilmagan faoliyat boshlandi.

Mavjud bo'lgan ma'lumotlar aniqlangan xavf omillarining fin aholisi, ayniqsa Shimoliy Kareliyada yashovchi erkaklar orasida keng tarqalganligiga ishora qilar edi. Qondagi xolesterinning yuqori darajasi, ko'p miqdorda to'yingan moy va tuzni iste'mol qilishni nazarda tutgan ovqatlanish odatlari bilan izohlanar edi. Sabzavotlarni iste'mol qilish darajasi past, boshqa tomondan esa sariyog', yog' va yog'li sutni iste'mol qilish darajasi yuqori edi. Erkaklarning ko'pchiligi chekar edi.

Loyihaning strategiyasida butun aholi miqyosida olib boriladigan yashash tarzini o'zgartirish, misol uchun, ovqatlanish odatlarini o'zgartirish va chekishni tashlash muhim o'rin tutar edi. Butun aholi miqyosidagi profilaktika ishlari strategiyasi shunday paydo bo'ldi. Bundan maqsad faqatgina davolash-profilaktika muassasalari bemorlari yoki aholining yuqori xavfli guruhlarga emas, balki butun aholiga keng ravishda ta'sir o'tkazish edi. Bunday yondashuv 1970 yillarning boshlari uchun tamomila yangilik edi. Loyihaning amaliy faoliyati eng avvalo yashash tarzini (ayniqsa chekish va ovqatlanish odatlari) o'zgartirishni ko'zlagan edi va qishloq aholisining kuchli qarshiligiga duch keldi. Butun aholi miqyosida faoliyat olib borish degani, loyihaning o'zi aholi miqyosida aralashuvlar olib bormaganligini, balki bu ishlarni aholi bilan ishlaydigan tashkilot va muassasalar olib borishini anglatar edi. Loyihaning vazifasi faoliyat vositalari bilan ta'minlash, o'rgatish, turtki berish, faoliyatni muvofiqlashtirish, nazorat qilish va

baho berish, hamda faoliyatga yangi tashkilot va muassasalarni jalb qilishdan iborat edi.

Besh yillik loyiha 1972 yilning bahorida o'tkazilgan keng umumiy aholi tadqiqoti bilan boshlandi va 1977 yilning bahorida o'tkazilgan yangi tadqiqot bilan yakunlandi. Bundan so'ng, to'plangan bilim va tajribalardan umummilliy miqyosda faol foydalanishni boshladilar. Loyiha 1997 yilga qadar ham Shimoliy Kareliyada davom etdi, faqat bu safar milliy loyihaning ko'rgazmali qismi sifatida. 1997 yilda, loyiha boshlanishidan 25 yil keyin loyiha o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni bajaribgina qolmay, balki ortig'i bilan bajarganligi to'g'risidagi xulosaga kelindi.

«Shimoliy Kareliya» loyahasining maqsadi ham milliy miqyosda, ham xalqaro miqyosdagi tadqiqotlarda foydalanish mumkin bo'lgan turli xildagi va ishonchli ma'lumotlarni to'plashdan iborat edi.

Nazorat tadqiqoti loyiha tomonidan mo'ljalga olingan xavf omillarining tarqalishi sezilarli darajada kamayganini ko'rsatib berdi. Chekuvchi erkaklarning soni ham sezilarli darajada kamaydi. Iste'mol qilinayotgan yog'larning sifati va miqdori ham anchagina o'zgardi. Masalan, 1972 yilda aholining 80 foizdan ko'proq qismi sariyog'dan buterbrodlar tayyorlashda foydalanar edi, 1997 yilda esa 10 foizdan kamroq qismi foydalanar edi. Ushbu o'zgarishlar tufayli qondagi xolesterin miqdori ham sezilarli darajada, deyarli 20 foizga kamaydi va qon bosimining sezilarli darajada pasayishi ham kuzatildi.

Xavf omillari darajasining kamayishi tufayli, yurak kasalliklari natijasidagi o'lim darajasi tezda pasaydi. Shimoliy Kareliyada mehnatga layoqatli yoshdagi erkaklar o'rtasidagi yurak-tomir kasalliklaridan vafot etish darajasi birdan tushib ketdi va ushbu tendentsiya Shimoliy Kareliyada va butun Finlyandiyada loyihaning birinchi bosqichi yakunlanganidan keyin ham saqlanib qoldi. «Shimoliy Kareliya» loyahasining tajribasi, misol uchun keng omma uchun mo'ljallangan teleko'rsatuvlar, milliy loyiha va dasturlar kabi turli yo'nalishlarda amaliy qo'llanildi. «Shimoliy Kareliya» loyihasi, aholi o'rtasida keng tarqalgan kasalliklarning profilaktikasi haqiqiy ekanligi bo'yicha tan olingan misoli bo'lib qoldi.

«Shimoliy Kareliya» loyahasining samaradorligiga baho berish uchun yaratilgan tizimdan, keyinchalik Finlyandiyaning salomatlik

va ijtimoiy farovonlik milliy instituti (THL) tomonidan boshqarilayotgan mamlakat salomatligining holatini monitoring qilish tizimi shakllandi. 2007 yilda o'tkazilgan aholi salomatligining monitoringi, aholi o'rtasida tamaki chekishning kamayishi va ovqatlanish odatlarining o'zgarishi insonlar orasidagi xavf omillarining kamayishiga qanday ta'sir o'tkazganini ko'rsatib berdi. Mehnatga layoqatli yoshdagi erkaklar o'rtasidagi yurak kasalliklari oqibatidagi o'lim darajasi, loyihaning boshlanish vaqtidagi ko'rsatkichlardan 80 foizga kamayib ketdi. Shuningdek, erkaklarning onkologiya kasalliklari oqibatida vafot etishi ham kamaydi. Finlyandiyaning mehnatga layoqatli aholisi o'rtasidagi umumiy o'lim darajasi ham 50 foizdan ortiqroqqa tushib ketdi va aholi o'rtasidagi salomatlikning subyektiv holati o'sdi. Finlarning o'rtacha umr ko'rish davomiyligi deyarli 10 yilga uzaydi va ushbu yillar asosan sog'lom va to'liq hayot kechirish yillaridir.

Loyiha yurak-tomir kasalliklari profilaktikasini qanday olib borish mumkin va qanday olib borish kerakligi bo'yicha xalqaro miqyosda ahamiyatga ega bo'lgan o'rnak bo'lib qoldi. Hozirgi kunda, yurak-tomir va surunkali kasalliklarining rivojlanayotgan mamlakatlarda ham kasalliklarning asosiy qismi va o'lim holatlarining yetakchi sababi bo'lgan vaqtda (dunyodagi o'lim sonining 60 foizidan ko'p), «Shimoliy Kareliya» loyihasi va Finlyandiya tomonidan profilaktika ishlari bo'yicha to'plangan tajriba alohida ahamiyatga ega bo'ldi.

«Shimoliy Kareliya» loyihasi va uning natijalariga bo'lgan xalqaro qiziqish juda yuqoridir. Uning natijalaridan ham ilmiy maqsadlarda, ham turli xil tashkilotlar, shu jumladan Umumjahon sog'likni saqlash tashkiloti tomonidan, turli mamlakatlarda o'xshash dasturlarni olib borishda foydalaniladi.

2011 yilda Nyu-Yorkda, BMT Bosh Assambleyasining yuqumli bo'lmagan surunkali kasalliklarning profilaktikasi va ular bilan kurashishga bag'ishlangan yuqori darajadagi uchrashuv o'tkazildi. Uchrashuvda masala faqatgina aholi salomatligining holati bo'yicha emas, balki barcha mamlakatlarda, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlardagi ulkan ijtimoiy-iqtisodiy zarar to'g'risida ekanligi belgilab o'tildi. Uchrashuvda berilgan tavsiyalarda «Shimoliy Kareliya» loyihasi va Finlyandiyaning tajribasi o'z aksini topdi.



Bunday kasalliklar bilan kurashish va aholining salomatligini yaxshilash maqsadlariga erishish mumkindir va aholi o'rtasidagi sog'lom yashash tarzini shakllantirishga yo'naltirilgan profilaktika faoliyati, iqtisodiy jihatdan eng samarali chora va jamiyatning barqaror rivojlanishi garovidir.

**Pekka Puska,**

*Finlyandiyaning salomatlik va ijtimoiy farovonlik milliy instituti(THL)ning Faxrli bosh direktori*

## **56. «SHIZOFRENIYA» LOYIHASI**

Finlyandiyadagi ruhiy xastaliklar shifoxonalaridagi joylarga 1980 yilda har ming kishiga 4,2 kishi to'g'ri kelar edi. Bundan ko'proq ko'rsatkich faqatgina Irlandiyada mavjud edi. Bundan ikki yil avval, uning yordamida bemorlarni ambulator sharoitlarda davolashga imkon yaratish uchun o'tkazilgan ruhiy shifoxonalar bo'yicha qonunning islohoti sezilarli natijalarga olib kelmadi. 1979 yilda Ruhiy xastaliklar shifoxonalari ittifoqi shizofreniyani davolash bo'yicha milliy dasturni yaratish fikrini ilgari surdi. Ushbu tashxis kasalxonalar bemorlarining yarmidan ko'piga qo'yilgan edi, ularning ko'pchiligi faol davolash va reabilitatsiya choralari ko'rilmagan holda statsionarda qolar edi.

Finlyandiya Sog'likni saqlash boshqarmasi ushbu tashabbusga asoslangan holda 1980 yilning kuzida shizofreniyani tadqiq qilish, shuningdek kasallikni davolash va bemorlarning reabilitatsiya qilish ishlari bo'yicha ish rejasi tuzish uchun ekspert guruhini tashkil qildi. Ishchi guruh darhol amalga oshirilishi mumkin bo'lgan faol rivojlanish dasturini tashkil etishni tavsiya qildi. Ishchi guruhning xulosasi 1981 yilning bahoriga kelib tayyor bo'ldi va bundan so'ng Finlyandiya sog'likni saqlash boshqarmasi, Shifoxonalar ittifoqi va Ruhiy xastaliklar shifoxonalari ittifoqi hamkorligida uni amalga oshirish ishi boshlandi. Ishchi guruh tomonidan qabul qilingan qaror noyob edi – Finlyandiyada ham, shizofreniya bilan kasallanish holatlari ro'yxatga olingan boshqa biron-bir mamlakatda ham hali hech qachon bunday qamrovdagi birona dastur amalga oshirilmagan edi.

Shizofreniyani davolash bo'yicha milliy loyiha 1981 yildan to 1987 yilgacha olib borildi, 1992 yilda olingan natijalar bo'yicha monitoring qo'shildi. Loyihaning maqsadi shizofreniya bilan kasallangan ham eski, ham yangi bemorlar sonini o'n yil davomida ikki marotaba qisqartirishdan iborat edi. Bemorlarni jarayon davomida oila a'zolari qatnashgan va bemorning yaqinlari jalb qilingan holda davolash va rehabilitatsiya qilishning yangi faol uslublarini rivojlantirishga ushbu muammolarni hal etishning eng muhim usuli sifatida qaralar edi. Uchinchi maqsad kasallarni uyda parvarish qilishni ham sifat, ham miqdor bo'yicha rivojlantirishdan iborat edi. Shuningdek, kasallarning ma'lumotlariga asoslangan tadqiqotlar yordamida, ushbu maqsadlarni amalga oshirish ustidan hududlar bo'yicha kuzatuvlar ham olib borilar edi.

Loyihani amalga oshirishda xodimlari loyihaning maqsadi, amalga oshirilishi va monitoringi to'g'risida ma'ruza qilingan seminarlarda qatnashib yurgan mamlakatimizning barcha hududiy ruhiy kasalliklar shifoxonalari qatnashdi. Shizofreniya bilan kasallangan yangi bemorlarni davolashni rivojlantirish uchun kichikroq loyihalarni o'tkazish, shuningdek, uzoq vaqt davomida davolangan bemorlarni davolash va rehabilitatsiya qilish loyihani amalga oshirishning asosiy shakli bo'lib xizmat qilar edi. Loyihada jami bo'lib mamlakatimizning hududiy ruhiy kasalliklar shifoxonalarning uchdan ikki qismi qatnashdi, ya'ni 21tadan 14tasi.

Asosiy loyiha bo'yicha ishlarni amalga oshirish uchun kerakli shart-sharoitlar, avvalroq ishlab chiqilgan yangi ish uslublari tufayli yaratilgan edi. Turku shahridan bo'lgan professor Yuryo Alanen o'z hamkasblari bilan shizofreniya bilan yangi kasallangan bemorlarga mo'ljallangan, yakka tartibdagi va bemorning oilasi jalb qilingan holdagi psixoterapiya bo'yicha ishlash uslubiyatini ishlab chiqdi. Shu bilan birga, ushbu uslubiyat davlat sog'likni saqlash tizimi doirasida ham foydalanish uchun mos kelar edi.

Professor Alanen yangi shizofreniya holatlarini davolash uslubiyatini rivojlantirish bo'yicha loyihaning boshqaruvchisi bo'ldi. Talablarga javob beruvchi davolashning yangi usuli butun mamlakat bo'yicha tarqalib ketdi. Eng avvalo, bemorning davolanishini olib boruvchi mutaxassislar tomonidan, bemorning o'zi va oila a'zolari yoki boshqa yaqin kishilari bilan birgalikda,

davolash kursining boshlanishi va davolash harakatlaridagi zaruriyatlar muhokama qilinadigan konsilium yoki uchrashuvlar mashhurlikka erishdi. Ushbu usul Shimoliy Yevropadagi boshqa mamlakatlarda ham qo'llanila boshladi va davolashning yangicha uslubiga bo'lgan qiziqish boshqa mamlakatlarda ham yuzaga chiqishni boshladi.

Shuningdek, professor Erik E. Anttinenning o'z hamkasblari bilan birgalikda «TampereenSopimusvuori» jamoat tashkiloti faoliyati doirasida ishlab chiqqan surunkali kasallar bilan o'tkaziladigan reabilitatsiya ishlari uslubi ham keng e'tiborni jalb qildi. Professor Anttinen loyihaning ilmiy boshqaruvchisi sifatida ish olib borar edi. «TampereenSopimusvuori»ning reabilitatsiya kursidan, natijada ruhiy kasalliklar shifoxonalaridan sog'aygan holda chiqib ketgan surunkali kasallarning ko'pchilik qismi o'tib bo'lgan.

Loyiha ustida ish olib boruvchi guruh, «Shizofreniya va dastlabki sog'likni saqlash» mavzusida hisobot tayyorlash uchun yangi mahsus ishchi guruhini tuzdi. Ushbu guruh kasallikning profilaktikasiga tegishli masalalarni o'rganish bilan ham shug'ullanar edi.

Loyiha doirasidagi faoliyat 15ta turli nashrlarda yoritib borilar edi. Yakuniy hisobot rivojlanish dasturining natijalariga asoslangan va o'nta asosiy mavzuga ajratilgan tavsiyalarga bag'ishlangan edi: preventiv choralar, davolash, reabilitatsiya, parvarish tizimi, sifatli manbalar, dastlabki sog'likni saqlash xizmatlarini olish huquqi, malaka oshirish, ko'nikmalarni takomillashtirish, tadqiqot ishlari va qonunchilik.

1985 yilda chop etilgan oraliq hisobotida, uzoq vaqt davomida davolanuvchi bemorlarning reabilitatsiyasi, loyihaning boshlang'ich davridayoq ijobiy natijalarga olib kelganligi aytib o'tilgan. Shuningdek, shifoxonalardagi davolanishda shizofreniyaning nisbatan yengil shakli bilan kasallangan va kasalxonadan tashqaridagi mustaqil hayotga qaytish uchun tezda reabilitatsiya qilinishi mumkin bo'lgan ko'pgina bemorlarning borligi ham aniqlandi. Yangi bemorlar sonini kamaytirish anchagina ko'proq vaqt va ish olib borishning umuman yangi uslublarini talab qilar edi. Loyiha doirasidagi faoliyat tibbiyot xodimlari uchun motivatsiya

manbasi bo'lib ham xizmat qildi va kasalxonalaridagi muhitni yaxshiroq tomonga o'zgartirdi.

Loyihaning miqdor bo'yicha maqsadlari rejalarga asosan bajarildi. O'tkazilgan monitoring natijalariga ko'ra, 1982 yildan to 1992 yilgacha bo'lgan davrda shizofreniya bo'yicha uzoq muddatli davolash kursini o'tayotgan yangi bemorlar soni 60 foizga, uzoq muddatli davolash kursini o'tayotgan eski bemorlar soni esa 67 foizga kamaydi. Ruhiiy kasalliklar shifoxonalariidagi yotoq joylari soni 51 foizga kamaydi. Yangi ish uslublarini ishlab chiqish davom etmoqda edi. Shuningdek, bemorlarga qarash ishi ham rivojlanayotgan edi: 1982 yilda 10 000 aholiga 2,7 tibbiyot xodimi to'g'ri kelgan bo'lsa, 1992 yilda esa bu ko'rsatkich 5,1 xodimni tashkil qildi. Yangi ish uslublari rivojlanib borar va shizofreniya bilan kasallangan insonlarning yashashlari uchun reabilitatsiya markazlari, uy va xonadonlarning soni o'sib borar edi.

Ushbu sohadagi rivojlanish 1990 yillarning boshlaridagi iqtisodiy inqiroz vaqtida to'xtab qoldi. Shifoxonalardagi joylar soni avvaldagidek kamayib borar, lekin ambulator davolash va parvarish qilish uslublarining rivojlanishi to'xtadi, moliyalashtirish kamaytirilgan edi. Lekin, 2000-yildan so'ng ahvol yana qaytadan barqarorlashishni boshladi. Ruhiiy kasalliklar shifoxonalariidagi joylar soni 5 mingtani tashkil etmoqda va ularning sonini 2-3 mingtagacha pasaytirish maqsad qilib olinmoqda. 2010 yillardagi psixiatriya xizmatlaridagi ahvol 1970-1980 yillardagisidan butunlay farq qilgan. Ruhiiy kasalliklar shifoxonalariining tutgan o'z o'rni bor, lekin ambulator davolanishning qadri anchagina oshdi.

Shizofreniyani davolash loyihasi tomonidan singdirilgan yakka tartibdagi va insonparvar yondashuv an'analari, hanuzgacha bizning mamlakatimizda bir tomondan o'zining kuchli va doimiy rivojlanadigan ko'rinishida, ikkinchi tomondan zaiflashgan holatida yashamoqda. Davolashdagi yondashuv bemorning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olishni yo'qotib qo'yishi va ko'proq dori-darmon bilan davolashga o'tib ketishining qisman xavfi mavjuddir.

**Yuryo Alanen,**  
*Fahriy psixiatriya professori*

## 57. O'Z JONIGA QASD QILISHNING OLDINI OLISH

O'zini o'zi o'ldirishlar global muammoni kasb etadi. Hisob-kitoblarga qaraganda, o'z joniga qasd qilishlar har yili 800 ming insonning umrini olib ketadi va o'z joniga qasd qilishning o'lim bilan tugagan har biriga o'ntagacha muvaffaqiyatsiz harakat to'g'ri keladi. O'zini o'zi o'ldirish va o'z joniga qasd qilish o'z joniga qasd qiluvchi, uning oilasi, do'stlari va jamiyatga yillar davomida unutilmaydigan dahshatli taassurot qoldiradi.

1970 yillarda Finlyandiyaning erkak jinsidagi aholisi o'rtasidagi o'z joniga qasd qilishning baland darajasiga e'tibor qaratildi. 14 yoshdan katta bo'lgan fin erkaklari o'rtasidagi o'z joniga qasd qilish natijasidagi o'lim darajasi 100 ming kishiga 60 kishini tashkil qilardi. Bunday diqqat-e'tibor 1974 yilda o'z joniga qasd qilish bo'yicha qo'mita tashkil qilishga, hamda o'z joniga qasd qilishlarning oldini olish bo'yicha dunyodagi ilk milliy dasturni ishlab chiqishga olib keldi. Loyihani amalga oshirish uchun 1987 yilda yuz bergan har bir o'z joniga qasd qilish holati bo'yicha boshlang'ich ma'lumotlar to'plandi. 1997ta holatning har biri bo'yicha batafsil ma'lumotlar, professor Youko Lyonkvist (Jouko Lönkvist) boshchiligida o'z joniga qasd qilganlarning yaqinlari, hamda ularni davolash va parvarish qilishda qatnashgan mutaxassislar bilan o'tkazilgan suhbatlar davomida, shuningdek, sog'likni saqlash xizmatlari, ijtimoiy yordam xizmatlari va politsiyaning axborot bazalaridagi o'lgan odam to'g'risidagi ma'lumotlarni o'rgangan holda to'plab borildi.

1992 yilda, barcha manfaatdor tomonlarning ishtirokidagi keng qamrovdagi muzokaralar va tayyorgarlik ishlaridan so'ng, amalga oshirilishi ko'p tomonlama hamkorlik orqali 1992 yildan 2002 yilgacha davom etgan o'z joniga qasd qilishlar profilaktikasi bo'yicha davlat strategiyasi chop etildi. Dasturni amalga oshirishda qurolli kuchlar, ta'lim boshqarmasi va ommaviy axborot vositalari kabi turli xildagi boshqaruv sektorlari ishtirok etdi. Profilaktika dasturida o'z joniga qasd qilishlarning negizida yotgan psixologik va jamoat omillari, o'z joniga qasd qilishlarning oldini oluvchi umumiy aholi bo'yicha tadbir va omillarga katta e'tibor berilgan edi. O'z joniga qasd qiluvchilarning xizmatlari, kundalik hayoti va

madaniy tomonlari dasturning obyektlari edi. O'z joniga qasd qilishga harakat qilgan shaxslarning reabilitatsiyasi, o'zini o'zi o'ldirgan insonning yaqinlarini qo'llab-quvvatlash va tushkunlik holatidan mustaqil ravishda chiqib ketish bo'yicha choralar dasturda alohida o'rin tutar edi. Dasturda mahalliy miqyosdagi turli xil faoliyat yo'nalishlari va sohalari mutaxassislarining hududiy dastur muvofiqlashtiruvchilari yordami orqali ishtirok etishlari ko'zda tutilgan edi. Mahalliy miqyosda, dastur bajaruvchilarning harakatlarini birlashtirish orqali amalga oshiriladi edi. Dasturning byudjeti dasturning davlat miqyosidagi muvofiqlashtirilishini ta'minlovchi mutaxassislarning uncha katta bo'lmagan guruhining xizmatlariga pul to'lashga yetar edi, lekin mahalliy miqyosda dastur choralari amalga oshirish uning bajaruvchilari hisobidan qoplanar edi. Shu tufayli dasturning byudjeti anchagina kichik va 1,6 million yevrodan oshmagan edi.

Dasturni amalga oshirish davomida notijorat tashkilotlarining profilaktika ishlari ko'lami kengaydi va Fin ruhiy salomatlik jamiyatining krizis markazlari tarmog'i butun mamlakat bo'yicha tarqalib ketdi. Hozirgi kunda 22ta krizis markazi, turli xildagi murakkab hayotiy ahvollarga tushib qolgan insonlarga bepul va qulay maslahatlar bilan madad bermoqda. O'z joniga qasd qilishlarning odini olish, dori-darmon paradigmasidan chetda ishlayotgan ushbu markazlarning maqsadlaridan biridir.

Dastur ta'sir ko'rsatish va iqtisodiy samaradorlik nuqtai nazaridan qoyilmaqom natijalarga erishdi. Dasturni amalga oshirish davomida o'z joniga qasd qilish ko'rsatkichlari 15 foizga kamaydi va undan so'ng, erkak jinsidagi aholi o'rtasidagi o'z joniga qasd qilishning kamayib borish tendentsiyasi davom etdi. 2015 yilga kelib o'z joniga qasd qilish ko'rsatkichlari, butun 1990 yillar davomidagi o'z joniga qasd qilishning eng yuqori ko'rsatkichlari ro'yxatga olingan 1990 yilning ko'rsatkichlariga nisbatan ikki barobar kamaydi. Finlyandiya tarixidagi o'z joniga qasd qilish ko'rsatkichlari hali hech qachon hozirdagidek past bo'lmagan edi. Finlyandiya Yevropa miqyosidagi statistik ko'rsatkichlar bo'yicha yetakchi mamlakatlar guruhidan o'rtamiyonalar qatoriga tushib qoldi.

O'z joniga qasd qilish ruhiy kasalliklar bilan chambarchas bog'liqdir, lekin ijtimoiy muammolarga ham bog'liq tomoni bor. Finlyandiya'dagi o'zini o'zi o'ldirishlarning ko'rsatkichi aholining eng zaif ijtimoiy-iqtisodiy guruhlarida yuqoridir. O'zini o'zi o'ldirishlar turli xil ijtimoiy-iqtisodiy guruhlarining kutilayotgan umr davomiyligi o'rtasidagi farqning 10 foizini izohlab beradi. Loyiha 2014 yilga kelib yakunlanganidan so'ng, erkaklar orasidagi o'z joniga qasd qilish, baxtsiz hodisa va zo'ravonlik natijasidagi o'lim ko'rsatkichlari aynan eng kam ma'lumotga va eng kam daromadga ega bo'lgan guruhlarda eng tez ravishda kamayib bordi va ushbu holat turli xil ijtimoiy-iqtisodiy guruhlar o'rtasidagi o'lim ko'rsatkichlarini biroz tenglashtirishga imkon berdi. Spirtli ichimliklardan zaharlanish natijasidagi o'lim ko'rsatkichlari ham huddi shu tariqa eng tez ravishda aholining eng kam ta'minlangan guruhlarida o'rtasida kamayib bordi.

Aholining ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan eng zaif bo'lgan qatlamlari uchun o'z guruhi ichida kuchli yakkalanib qolish o'ziga xos xususiyatdir. Yakkalanib qolish o'z joniga qasd qilishlar bilan chambarchas bog'liqdir. Ish yoki o'qish joyiga ega bo'lmagan yoshlarning o'rtasidagi o'z joniga qasd qilish natijasidagi o'lim ko'rsatkichi, boshqa balog'atga yetgan yoshlarnikidan deyarli 20 barobar yuqoridir. Shunday qilib, ijtimoiy yakkalanib qolish profilaktikasini o'zini o'zi o'ldirish profilaktikasi bilan tenglashtirish mumkin.

O'z joniga qasd qilishlarning kamayishi bilan bir vaqtda antidepressantlarning iste'mol qilinishi o'sib bordi, lekin mahalliy miqyosda olib borilgan tahlil antidepressantlar savdosining hajmi va o'z joniga qasd qilishlar o'rtasidagi bog'liklikni ko'rsatmadi. Spirtli ichimliklar iste'mol qilinishining kamayishi ijobiy intilishlarga shak-shubhasiz o'z ta'sirini ko'rsatdi, chunki xorijda olib borilgan tadqiqotlarda spirtli ichimliklarning arzonligi va o'z joniga qasd qilishlar o'rtasidagi bog'liklik ko'rsatib berilgan edi.

O'z joniga qasd qilishlarning oldini olish hozirgacha ham Finlyandiya uchun dolzarb mavzudir. Spirtli ichimliklar va o'z joniga qasd qilish uchun ishlatiladigan vositalarga yetishishni cheklash, o'z joniga qasd qilishga olib borish xavfi bo'lgan holatlarni aniqlash bo'yicha aholi va mutaxassislar o'rtasidagi ko'nikmalarni

rivojlantirish, ushbu mavzuda ochiq munozaralarni olib borish, ommaviy axborot vositalarida o'z joniga qasd qilishlar bo'yicha ishonchli statistika ma'lumotlarini chop etish bo'yicha ishlarni olib borish davom etmoqda.

Finlyandiyadagi spirtli ichimliklarning cheklanishi, hanuzgacha o'z joniga qasd qilishlarning profilaktikasidagi asosiy ijtimoiy-siyosiy chora bo'lib qolmoqda. Aholi o'rtasida o'q-otar qurollarni cheklash, yosh erkaklar orasidagi g'ayri ixtiyoriy o'zini o'zi o'ldirishlarning kamayishiga ko'maklashgan bo'lar edi. Tengsizlik va ijtimoiy yakkalanib qolish profilaktikasi ham o'zini o'zi o'ldirishlar sonini o'z tomonidan kamaytirishga imkon beradi.

Urushlar va qurolli mojarolar ruhiy holatga salbiy ta'sir ko'rsatadi va ruhiy jarohat olgan qochoq va noilojlikdan ko'chganlar, o'z joniga qasd qilishning oldini olish bo'yicha maqsadli guruhga aylandilar. Ijtimoiy siyosatdan tashqari yana migrantlarga nisbatan olib borilayotgan siyosat ham o'z joniga qasd qilishlarning oldini olish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Vaqtinchalik istiqomat qilish huquqini qonunchilikka qaytarish, Finlyandiya migratsiya organlari tomonidan istiqomat qilishga rad javobini olgan ko'pchilik insonlarning hayotini saqlab qolishga yordam berar edi.

**Kristian Valbek,**

*Fin ruhiy salomatlik jamiyatining rivojlanish masalalari bo'yicha  
boshqaruvchisi*

## **58. JINSIY YO'L ORQALI YUQADIGAN INFEKSIYALAR TARQALISHINING OLDINI OLISH**

Finlyandiyadagi tanosil kasalliklarining tarqalishi Yevropa ko'rsatkichlaridan farq qilmaydi. Sharqiy tomonidagi qo'shnisi Rossiya bilan taqqoslaganda, Finlyandiyadagi holat unchalik ham keskin emas – Rossiyada zaxm va so'zak kasalliklarining tarqalish ko'rsatkichlari Finlyandiyaga nisbatan yuz marotaba ko'proqdir. 2016 yilda Finlyandiyadagi OIV-infeksiyasining tarqalish ko'rsatkichlari, Germaniya bilan teng holatda G'arbiy Yevropadagi eng past ko'rsatkichlardan edi (1 million odamga 33 holat). Ushbu holatlarning yarmidan ko'pi chet elliklarda aniqlandi. Shimoliy



Yevropaning qolgan mamlakatlarida ushbu ko'rsatkich ikki marotaba yuqori, Rossiyadagi ko'rsatkichlar ushbu sonni o'n marotaba, Estoniyada esa 20 marotaba oshgan edi. Ro'yxatga olishni boshlash davridan to 2017 yilgacha, 20 yoshgacha bo'lgan yoshlar o'rtasida OIV-infeksiyasini yuqtirib olish bo'yicha jami bo'lib 68ta holat aniqlangan va shularning ichida Finlyandiya fuqarolarida faqatgina 28ta holat aniqlangan edi. Umuman olganda Finlyandiya, shu jumladan yoshlar o'rtasida ham OIV-infeksiyasining yuqishini oldini olish bo'yicha yaxshi natijalarga erishilgan.

Finlyandiya jinsiy yo'l orqali yuqadigan infeksiyalar va OIV-infeksiyasining oldini olish uchun nimalar qilingan? Yoshlar o'z hayoti va sherigining hayoti uchun mas'uliyatni zimmalariga olgan qilib tarbiya qilinmoqda. 1970 yildan boshlab jinsiy tarbiya maktablarning o'quv rejalaridagi majburiy predmet bo'lib qoldi, 1972 yildan boshlab esa, istalmagan homiladorlikning oldini olish bo'yicha xizmatlar, o'sha vaqtda qabul qilingan qarorga asosan mamlakatdagi poliklinikalarda ko'rsatila boshladi. Maktablarda o'quvchilarning jinsiy tarbiyasida faol qatnashishni boshlagan hamshiralar ishlashni boshladilar. Prezervativlardan foydalanish 1960 yillarning oxirlaridayoq, yoshlarning yarmisi ilk jinsiy aloqalarida prezervativlardan foydalanishni boshlaganlarida odatiy hol tusiga kirib qoldi. OITSning tarqalishiga qadar Finlyandiya, dunyodagi prezervativlardan foydalanish ommaviy holat bo'lib qolgan mamlakatlarning ichida Yaponiyadan keyin ikkinchisi edi. 2010 yillarda yoshlarning 70 foizdan 80 foizigacha bo'lgan qismi ilk jinsiy aloqalarida kontratseptiv vositalaridan foydalanishar edi.

Boshlang'ich bosqichda jinsiy tarbiya va jinsiy salomatlik sohasidagi xizmatlarning sifati unchalik yaxshi emas edi, lekin malaka oshirilishi, hamda yo'l-yo'riq va munosobatlarini erkinlashtirish tufayli faoliyat jiddiy va professional darajaga erishdi. Monitoring tadqiqotlariga binoan, 1970 yillardan to 2010 yillargacha bo'lgan davrda yoshlarning jinsiy hayot sohasidagi bilim saviyasi va kontratseptiv vositalardan foydalanish darajasi sezilarli tarzda ortib bordi. Buning natijasida istalmagan homiladorlik holatlari va abortlar soni, jinsiy yo'l orqali yuqadigan infeksiyalar bilan kasallanishlar singari sezilarli darajada kamaydi.

Ushbu holatning yomon tomonga qarab ketmaganining sababi, Finlyandiyada narkotiklarni tomir orqali yuborish hech qachon qo'shni mamlakatlardagidek mashhur bo'lmagani tufaylidir. Oxirgi yillarda ushbu muammoga juda ham jiddiy ahamiyat berildi va infeksiya yuqishi bo'yicha yangi holatlarning oldini olish maqsadida yangi ignalar tarqatildi.

Finlyandiya boshqa Shimoliy Yevropa mamlakatlari qatorida, qolgan ko'pchilik Yevropa mamlakatlaridan bizdagi gender tengligining juda ham rivojlanganligi va ikki xil ma'nolik to'g'risida boshqa so'z ham borishi mumkin emasligi bilan farq qiladi. Ayollar ahvolining yaxshilanishi tanosil kasalliklari bilan kasallanish holatlarining kamayishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Yosh qizlar ham yosh yigitlar kabi prezervativlardan tortinmasdan foydalanishadi va xavfsiz jinsiy aloqa bo'yicha o'z huquqlarini himoya qilishni bilishadi. Yaxshi sheriklardan vafodorlikni tobora ko'proq kutishmoqda va bu tufayli tanosil kasalliklarning tarqalishi bilan yanada samarali kurashish imkoniyati paydo bo'ldi.

Kelajak jinsiy ehtiyojlarning xavfsiz virtual aloqa shuhratining oshishiga qay darajada sababchi bo'lishini ko'rsatadi. Ushbu holat yolg'iz insonlar sonining ko'payishi bilan jinsiy hayotga aloqali muammolarning haqiqatan ham yechimi bo'lishi mumkin. Odamlar o'z jinsiy ehtiyojlarini qondirishga imkoniyat yo'qligiga tobora kamroq ko'nikmoqdalar. Finlyandiya esa, axborot texnologiyalarining rivojlanishi bo'yicha peshqadam sifatida, Yevropada ushbu soha bo'yicha ilk qadamni tashlagan bo'lishi mumkin edi.

**Osmo Kontula,**

*tadqiqotchi-professor, Fin oila federatsiyasi*

## **59. TAMAKIGA QARSHI QONUNCHILIK VA TAMAKI KOMPANIYALARIGA QARSHI SUD DA'VOLARI**

Finlyandiyada tamaki chekishning tarqalganligi 1978 yildan boshlab muntazam ravishda kamayib bormoqda. Finlyandiyada chekishning tarqalishini kamaytirish borasida amalga oshirilayotgan faoliyat, poydevor toshi tamakiga qarshi qonunchilik

bo'lgan keng miqyosdagi tamakiga qarshi siyosatga asoslangandir. Bundan tashqari, narx siyosati, keng ravishdagi o'zaro hamkorlik, monitoring va tadqiqot ishlari ham muhim o'rin tutmoqda. Chekishning tarqalishi bo'yicha muntazam monitoring ma'lumotlari va uzoq muddatli tadqiqot loyihalari, chekishga qarshi faoliyatning rivojlanishi uchun o'ta muhim asosni tashkil qiladi.

Finlyandiyada tamaki mahsulotlarining xavfli ekanligini 1960 yillarning boshlarida, parlamentning hukumat zimmasiga zudlik bilan chekish oqibatidagi zararlarni kamaytirish choralari ko'rish majburiyatini yuklagan vaqtda to'liq angladilar. Finlyandiya chekishning tarqalishini kamaytirish bo'yicha qonuniy choralarni qabul qilishni boshlagan, dunyodagi birinchi mamlakatlardan biridir.

1976 yilda qabul qilingan, o'sha vaqtning chekish bo'yicha eng ilg'or qonuniga asosan tamaki mahsulotlarining reklamasi taqiqlangan, ularning ustida chekishning zararli ekanligi haqida ogohlantiruvchi belgining bo'lishi shart, 16 yoshgacha bo'lgan bolalarga tamaki mahsulotlarini sotish taqiqlangan, shuningdek, maktablarda, jamoat transporti va jamoat binolarida ham chekish taqiqlangan edi.

Keyingi yillarda tamakiga qarshi qonunchilik ichiga juda ko'p o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi, masalan:

- tamaki mahsulotlarining bilvosita reklamasi 1995 yildan boshlab taqiqlandi;
- chaynaladigan tamaki savdosi 1995 yildan boshlab taqiqlandi;
- ish joylarida chekish 1995 yildan boshlab taqiqlandi;
- tamaki mahsulotlarini sotish uchun ruxsat berilgan eng kichik yosh 18 yoshgacha ko'tarildi;
- 2009 yilda bar va restoranlarda chekish ma'n qilindi;
- 2009 yildan boshlab tamaki mahsulotlarini sotish faqatgina ruxsatga ega bo'lganlarga ruhsat berildi;
- qonunchilik darajasida tamaki mahsulotlarini iste'mol qilishdan tamomila voz kechish maqsad sifatida belgilab qo'yildi;
- 2012 yilda tamaki mahsulotlarini ochiq ko'rsatish va namoyish etishni taqiqlovchi o'zgartirish kuchga kirdi;

2016 yilda tamakiga qarshi qonunchilikda tubdan o'zgartirishlar amalga oshirildi. O'sha vaqtda uzuq-yuluq va bir necha bor o'zgartirilgan tamakiga qarshi qonunchilik yangi qonun bilan almashtirildi. Shu bilan bir vaqtda, qonun Yevropa Ittifoqining tamaki mahsulotlari bo'yicha yo'riqnomasi bilan muvofiqlashtirildi va o'zgartirishlar bo'yicha jamiyatning ehtiyojlari ham e'tiborga olindi.

Finlyandiya – tamaki va tarkibida nikotin bo'lgan mahsulotlarni iste'mol qilishni qonunchilik doirasida yakuniy maqsad qilib belgilab olgan dunyodagi ilk va haligacha ham yagona bo'lgan mamlakatdir. Maqsad 2030 yilga kelib, tamaki va boshqa tarkibida nikotin bo'lgan mahsulotlarni iste'mol qiluvchilar soni, mamlakatning katta yoshdagi aholisining 5 foizidan oshmasligiga erishishdir.

2016 yilda kiritilgan asosiy o'zgartirishlar:

- Maqsad boshqa turdagi nikotinga ega mahsulotlardan ham voz kechishni nazarda tutadi;
- Sigaret qutilari ustidagi grafik tasvirlar;
- Tamaki va tarkibida nikotin bo'lgan mahsulotlarda aromatizator va ta'm qo'shimchalaridan foydalanish (masalan, shokolad, qulupnay, vanil), mentol 2020 yildan boshlab taqiq ostiga tushadi;
- Qonunchilikda elektron sigaretalar ham tamaki mahsulotlari bilan tenglashtirilgan holda ko'rib chiqiladi (masalan, sotish ruxsat berilgan eng kichik yosh – 18 yoshdan boshlab; 18 yoshgacha saqlash taqiqi; ichida chekishga ruxsat berilmagan binoda chekish taqiqi; reklama va namoyish taqiqi; ruxsatsiz sotish taqiqi; mamlakatga olib kirish bo'yicha taqiq va cheklov)
- Shaxsiy avtomobilda chekish taqiqi, agarda ichida 15 yoshga to'lmagan bola bo'lsa;
- Chaynaladigan va hidlanadigan tamakini olib kirish taqiqi (jismoniy shaxs olib kirkandagi cheklov – 24 soat ichida 1 kilogrammdan oshmasligi);
- Tamaki mahsulotlari va tarkibida nikotin bo'lgan suyuqliklarni YI tashqarisidan olib kirish (masalan, Rossiyadan) Finlyandiyaning tashqarisida 24 soatdan ko'proq bo'lishni nazarda tutadi;

- Elektron sigaretalar va tarkibida nikotin bo'lgan suyuqliklarni onlayn tarzda sotish taqiqlash;
- Uy-joy boshqarmalarida xususiy xonadonlarning balkonlarida chekishni taqiqlash imkoniyati paydo bo'ldi (tutunning bir balkondan ikkinchisiga borishi ma'n qilish uchun yetarlidir; sog'lik uchun xavfli ekanligini dalil qilishga hojat yo'q).

Finlyandiya mahsulotlari iste'mol qilinishi sababli rivojlanayotgan kasalliklar uchun tamaki kompaniyalarini javobgarlikka tortishga harakat qilgan Yevropadagi ilk mamlakat bo'ldi. Finlyandiyadagi ilk sud ishi 1988 yilda boshlandi va 2001 yilgacha davom etdi.

Javobgarlar sifatida Oy Rettig Ab va Suomen Tupakka – BAT Nordic Oy kompaniyalari qatnashdi. Da'vogar sifatida 16 yoshdan chekishni boshlagan va da'vo arizasi bo'yicha, tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarganlar o'z mahsulotlarini zararsiz deb tayyorlagan va sotganliklari sababli o'z sog'ligiga yetgan zarar uchun tovon puli to'lashni talab qilgan nafaqaxo'r Pentti Kalevi Axo (Pentti Kalevi Aho) edi. Bundan tashqari, tamaki mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar o'z mahsulotlarining sog'lik uchun bo'lgan ziyoni to'g'risidagi ma'lumotlarni yashirdilar, iste'molchilarni aldadilar va uchinchi shaxslarning iste'molchilarga bunday zararlar haqidagi ma'lumotlarni yetkazishiga to'sqinlik qildilar. Shunga qaramasdan, Xelsinki shahridagi shahar sudi, appelyatsiya sudi va oliy sud da'voni rad etdi.

2005 yilning mart oyida «yengil» nomini olgan sigaretlarga tegishli da'vo arizasi rad qilindi. Da'vogarlarning ta'kidlashlariga ko'ra, Amer Oy va Suomen Tupakka – BAT Nordic Oy kompaniyalari ishlab chiqarayotgan mahsulotlari yordamida, o'z iste'molchilarida nikotinga bog'lanib qolish hissini paydo qilishga harakat qilganlar. Javobgar-kompaniyalar o'z sigaretalarini reklama qilish davomida, hali 1950 yillardan boshlab o'z mahsulotlaridagi bog'lanib qolish xususiyatlarining mavjudligini yashirishgan va tortishishgan. 2008 yilning oktyabr oyida, Xelsinki shahrining shahar sudi «yengil sigaretalar» bo'yicha da'vo arizasini rad qildi va da'voni rad qilish apellyatsiya sudi tomonidan 2010 yilning may oyida tasdiqlandi.

Sud ishlarining tamaki mahsulotlari ishlab chiqaruvchi kompaniyalar nuqtai nazari bo'yicha ijobiy hal qilinishiga qaramasdan, ular siyosatchilar, amaldor shaxslar va fuqarolarni tamakining xavfliligi va tamaki mahsulotlari ishlab chiqaruvchi kompaniyalarning harakat uslublari to'g'risida xabardor qildilar.

**Mervi Xara,**

*Ijrochi direktor, ASH jamoat tashkiloti  
(Salomatlik yo'lida chekishga qarshi)*

## **60. FIN TISHLARINING SOG'LOMLIGINING YUZ YILLIK TARIXI**

Finlyandiya stomatologiya yutuqlari nuqtai nazaridan ko'pgina xalqaro mutaxassislar uchun o'rnak sifatidadir. Hozirgi ming yillik boshlarida, mamlakatda butun aholining og'iz bo'shlig'i salomatligiga aloqador bo'lgan va ilgari kuzatilmagan o'zgarishlar yuz berdi. 2005 yilda kuchga kirgan davolash sifatining kafolati, og'iz bo'shlig'i salomatligini ma'muriy jihatdan sog'likni saqlashning boshqa yo'nalishlari bilan bir qatorga qo'yib qo'ydi.

Tishlar salomatligi parvarishining fin tizimi o'z tarixida rivojlanishning uch bosqichidan o'tgan. O'tgan asrning birinchi yarmidagi birinchi bosqich qonli va shafqatsiz bo'lib o'tdi. Ushbu bosqich uchun simptomatik davolash o'ziga xosdir. Tishlarning muammolari ularning paydo bo'lishi davomida va eng avvalo ombur yordamida hal etilar edi. Maktab stomatologiyasining rivojlanishi natijasida, Finlyandiya 1950 yillarda tishlarni plomba qilish zamoniga o'tdi. O'sha vaqtlarda tish shifokorlari tishlardagi teshiklarni ular rivojlangan sari plomba qilishga harakat qilishar edi. Lekin, ushbu ish uslubi tez orada o'z foydasizligini ko'rsatdi: tish shifokorlari tishlarni kariesning rivojlanish tezligi qadar tez plomba qilishga ulgurmayatgan edi! Va 1970 yillarda, aholi sog'ligini saqlash qonuniga binoan, asta-sekinlik bilan tishlar salomatligi bo'yicha profilaktika va muntazam parvarish bosqichiga o'tildi. Salomatlikning umumiy ahvoli va og'iz bo'shlig'i salomatligining o'zaro ta'siri va ahamiyati chuqur ravishda tushunilayotgan bir vaqtda, fin tishlar salomatligini parvarish qilish tizimi stomatologiya zamoniga o'tgan deb hisoblanishi mumkin. Hozirgi kundagi

umumiy tibbiy xizmat ko'rsatish tizimining tarkibiy qismi sifatida mavjud bo'lgan tishlarni davolash va ularni parvarish qilish xizmatlari, o'zida ushbu rivojlanish bosqichiga tarixiy o'tish pog'onasini aks etadi.

Bugungi ahvolda olib borgan yo'l uzoq edi. 1964 yilda kuchga kirgan tibbiy sug'urta to'g'risidagi qonun tishlar salomatligini qamrab olmagan edi. Xuddi shu holatning aholi sog'ligini saqlash to'g'risidagi qonun bilan ham yuz berishiga bir baxya qoldi. Aholining sog'ligini saqlash bo'yicha faoliyat, avvaliga bolalar va yoshlar uchun ko'zlangan edi va aholining ushbu toifalari bilan ishlash o'z samaradorligini ko'rsatdi. Aholining sog'ligini saqlash to'g'risidagi 1972 yilda qabul qilingan qonunga binoan, 17 yoshgacha bo'lgan barcha bolalar tishlarning muntazam va bepul davolanishi huquqlariga ega bo'ldilar. Hozirgi kunda Finlyandiyaning har bir fuqarosi, 18 yoshga to'lganga qadar bepul stomatologik yordam olish huquqiga haligacha ham ega.

Aholining sog'ligini saqlash to'g'risidagi qonunning qabul qilish paytida, har bir o'n ikki yoshli finda karies bilan kasallangan o'rtacha yettita tish bor edi. Hozirgi kunda o'sha ko'rsatkich 1,1ni tashkil qiladi va Yevropadagi eng past ko'rsatkichlardan biridir. Bunday ko'rsatkichga yetishishga og'iz bo'shlig'ini tarkibida ftor bo'lgan suyuqlik bilan muntazam ravishda chayish va ksilitoldan foydalanish qatorida, maktab stomatologiyasi va sanitariyaga amal qilish dasturining o'zaro harakati imkon berdi. Hozirgi kunda bolalarning ko'pchilik qismi sog'lom yoki yaxshi qaralgan tishlarga egadir. Bolalarning tishlar salomatligi bo'yicha ko'pgina muammolari to'planib borayotgan ozchilik qismi muammo bo'lib qolmoqda. Bunday bolalar ham stomatologlar, ham sog'likni saqlash sohasidagi boshqa mutaxassislarining doimiy mijozlari bo'lib qolmoqdalar.

Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda bo'lgan ambulator-poliklinika tarmog'idagi stomatologga murojaat qilish imkoniyati, vaqt o'tgan sayin katta yoshdagi aholi uchun ham amal qilindi. Shuningdek, avvalambor shaharlarda faoliyat yurituvchi va ularda mamlakatdagi stomatologlarning deyarli yarmi ishlovchi xususiy stomatologik kabinet va klinikalar ham tibbiy sug'urta tomonidan qoplanadigan stomatologik yordamni taklif qilishmoqda. Bolalar va

yoshlarda sog'lom va tuzalgan tishlarning soni ortdi. Biroq, bepul stomatologik xizmatlar tugaganidan so'ng, ayniqsa yordam uchun muntazam ravishda murojaat qilmaydigan yoshlardagi tishlar bo'yicha muammolar anchagina tez paydo bo'lishni boshlaydi. Katta yoshdagi aholi o'rtasidagi kariesning tarqalishi sezilarli darajada kamaydi. Milk kasalliklari stomatologiya xizmatlari uchun avvaldagidek katta muammo bo'lib qolmoqda: bunday kasalliklar aholining yarmidan ko'p qismida kuzatiladi.

Tishlarning yo'qligi muammosi ham anchagina kamaydi. Ushbu muammo eng ko'p keksa yoshdagi aholida kuzatiladi, holbuki 55 yoshgacha bo'lgan kishilarning 1 foizigina tishsizlikdan aziyat chekadi. Zamonaviy inson, o'tgan asrning birinchi yarmida tug'ilgan fin aholisi o'rtasida yuz bergani kabi, tishlardan batamom ayrilib qolishga muhtalo emas.

Zamonaviy stomatologik yordamning yuksak darajasi yuqori texnologiyalar, maxsus material va malakali mutaxassislardan foydalanishni nazarda tutadi. Fin stomatologi hozirgi kunda optik hisoblash uskunasi yordamida, muammoli tishdan ma'lumotni raqamlashtirilgan holda yechib olish va tish uchun plomba yoki qoplamani qisqa vaqt ichida tayyorlab berishi mumkin bo'lgan, kompyuterlashtirilgan tokarlik ministanokka o'tkazishi mumkin. Mutaxassislarning ixtiyorida bo'lgan Terveysportti nomli milliy internet-portali va uning Dental Mammoth nomli xalqaro analogi, fin stomatologlariga klinik qarorlar qabul qilish vaqtida maslahatlar va eng zamonaviy axborotlarni, istalgan vaqtda berishga tayyordir. Stomatologlar o'z ish vaqtlarining anchagina qismini, og'iz bo'shlig'ining o'ta murakkab kasalliklarini aniqlash va davolashga sarflashga majburlar. Tish bo'yicha zamonaviy gigienachilar og'iz bo'shlig'i salomatligini shakllantirish va saqlash uslublariga egalik qilishar, og'iz bo'shlig'i salomatligining ahvolini malakali baholashni bilishar, hamda tishlarni ko'zdan kechirishadi. Ular rentgenografik tadqiqotlar, karies va milk kasalliklari profilaktikasi va ertagi aralashuvlarni, shuningdek, yana ko'pgina vazifalarni bajaradilar. Hozirgi kunda bunday mutaxassislarga bo'lgan talab juda ham yuqoridir.

Aholining keksayib borishi o'zi bilan sezilarli darajadagi muammolarni olib keladi. Ko'pgina kasalliklarga ega va turli xildagi



dori-darmon vositalarini qabul qiluvchi keksa kishilar, stomatologik xizmat ko'rsatishga borgan sari ko'proq muhtoj bo'lmoqda. Yordam ko'rsatish ham keksa kishining uyida, ham davolash maskanida kerak bo'lib qolishi mumkin. Bu esa, mutaxassislar va davolash uskunalarida mobillik mavjud bo'lishini ko'zda tutadi. Og'iz bo'shlig'ining gigienasi keksa kishining umumiy gigienasining ajralmas qismi bo'lishi kerak. Agarda u mustaqil ravishda gigienaga amal qilolmasa, u holda ushbu vazifani biron-bir boshqa kishi albatta o'z zimmasiga olishi kerak. Og'iz – bu zavq, sezgi va hislarning turfaligi manbaidir. Og'iz bo'shlig'iga aloqador bo'lgan asosiy ehtiyojlar keksaygan sari yo'qolmaydi ham, kamaymaydi ham.

Og'iz bo'shlig'i salomatligi borgan sayin salomatlikning umumiy holati va hayot sifatining bo'lagi sifatida tushunilmoqda. Og'iz bo'shlig'i salomatligiga tegishli eng keng tarqalgan tavakkalchilik omillari xulq-atvorga bog'liqdir. Misol uchun, ovqatlanish odatlari, gigienaga amal qilmaslik va tamaki chekish kabi ushbu tavakkalchilik omillaridan ko'pchiligi, shuningdek yurak-tomir kasalliklarining rivojlanishi, diabet, turli xildagi yangi shishlar va aholi salomatligining boshqa muammolarini keltirib chiqarish bo'yicha ham tavakkalchilik omillari bo'lmoqda. Ushbu tavakkalchilik omillari hayot tarzi bilan bog'liqdir va tegishli hayot tarzini shakllantirish hayotiy ahamiyatga egadir. Tishlar muammosi stomatolog qabulida osongina hal qilinmaydi. Ularni odatiy hayotda va milliy miqyosda hal etish kerak. Eng ko'p tarqalgan og'iz bo'shlig'i kasalliklarining rivojlanish sabablari, shuningdek ularni profilaktika qilish vositalari yaxshigina ma'lum va xohish bo'lgan taqdirdagina, ushbu kasalliklarning oldini olish mumkindir.

**Xeykki Murtooma,**

*Xelsinki shahri universitetining og'iz bo'shlig'i salomatligini saqlash bo'limining faxrli professori*

# IJTIMOY SIYOSAT

## 61. IJTIMOY UY-JOYLAR QURILISHI

Ikkinchi jahon urushi tugaganidan so'ng, Finlyandiyada uy-joylar yetishmasligi kuzatildi. Ahvolni jamoat tuzilmasining ijtimoiy o'zgarishlari natijasida yuzaga kelgan, mamlakat viloyatlaridan shaharlarga ko'chib kelish tendentsiyasi jiddiylashtirdi. Ayni vaqtda, banklarning uy-joy harid qilish uchun kredit berish imkoniyatlari ancha cheklangan edi. 1949 yilda ushbu muammoning hal qilinishi va ijtimoiy uy-joylarning qurilishi uchun ARAVA tizimi tashkil qilingan edi.

Banklar tavakkalchilikning yuqori darajasiga ega bo'lgan kreditlarni berishi mumkin emasligi tufayli, ushbu dasturning asosiy vazifasi sifatida kreditlarning ajratilishini ta'minlash belgilandi. Davlat bunday kreditlarni ajratishni boshlagan vaqtida kredit muassasalari ham ijtimoiy uy-joyni kreditlashga ancha qiziqib qoldi.

1950 va 1960 yillarda, ARAVA xususiy uy-joylarni kreditlash va qurishni ma'qul ko'rar edi. Tijoriy va siyosiy sabablarga ko'ra, 1970 yillardan boshlab ijara uy-joylarini ham qo'shishga qaror qilingan bo'lsa ham, xususiy uy-joylar qurilishining ulushi yuqori edi, ayniqsa 1970 yillarning birinchi yarmida.

Tizimning asosiy g'oyasi shundan iborat ediki, xalq xonadonni xarid qiluvchilarning banklar kreditlarni ajratganidan so'ng to'lab borishi mumkin bo'lgan badallari to'lovchilar uchun og'irlik qilmaydigan, foizi yuqori bo'lmagan kreditlarga muhtoj edi. Ushbu tizimning ijtimoiy jihati shundan iborat ediki, ham o'rta darajada ta'minlangan, ham o'rtadan past darajadagi daromadga ega bo'lgan odamlar, uning yordamida xonadon sohiblari bo'lishi mumkin edi. Xarid qilinuvchi xonadonlar foizi anchagina tez ortib bordi, 1990 yilga kelib 70 foizga yetdi va shundan so'ng 65 foizgacha tushib qoldi. Shunday qilib, tizim yuz minglab finlarga o'z ijtimoiy ahvollarini yaxshilash uchun imkon berdi. Bu esa, ta'lim sohasi tizimi bilan bir qatorda, tenghuquqli jamiyatni yaratish maqsadida olib boriladigan siyosatning eng muhim omillaridan biridir.

Tizimning uy-joy va siyosiy maqsadlaridan tashqari yana bitta maqsadi bor edi: fuqarolarga uy-joylarni xarid qilish uchun omonatlarini saqlash tizimini rivojlantirish orqali ko'maklashish edi. Ushbu jihat milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi va bank tizimining mustahkamlanishini ta'minlash borasidagi eng muhimi deb hisoblanar edi. Moliyaviy-kredit institutlarining xususiy uy-joylarni xarid qilish bo'yicha kreditlash imkoniyatlari yaxshilanganidan so'ng va ayni vaqtda, xonadonlarni ijaraga olish bo'yicha yuqori talab ham saqlanib qolgan vaqtda, ARAVA tizimining faoliyat yo'nalishi ijaraga beriladigan uy-joylarni qurish tomon burildi. Shu bilan bir vaqtda, ijara uy-joylarining qurilishida aholining alohida guruhlari, misol uchun talabalar, keksa kishilar, hamda aholining boshqa alohida turdagi guruhlari uchun asosiy urg'u berildi. 1990 yillarning oxirlarida, xususiy uy-joylar qurilishidan tamoman voz kechishga qaror qilindi.

ARAVA tizimining faoliyati, faqatgina davlat tomonidan foizlari katta bo'lmagan kreditlarni ajratishga yo'naltirilgan emas edi. Faoliyatning yana boshqa, ahamiyati kam bo'lmagan shakllari sifatida, qurilayotgan uylarning me'morchiligi, hamda qurilayotgan tumanlarning qulayligiga diqqatni jalb qilish maqsadidagi qurilish ishlarining sifati va harajat darajalarining kafolatini ta'minlash edi. Yangi tumanlarni shunday qurish rejalashtirilgan ediki, ular o'z ijtimoiy tuzilmalari bo'yicha turfa xillarda bo'lishlari kerak edi. O'sha tumanlar imkon sari erkin moliyalashtirish hisobidan qurilar edi. Yangi uylar o'z turlari bo'yicha xilma-xil bo'lishlari kerak edi. Ko'p qavatli uylar juda yuksak emas, odatda 3-4 qavat bilan kifoyalananar edi.

Sifatdan tashqari yana moliyaviy harajatlarni ham e'tiborga olinar edi va ular iloji boricha past bo'lishi kerak edi. 1970 yillardan boshlab, maqsadli ravishda qurilish korxonalari uchun pudratli qurilish bo'yicha konkurs o'tkazilar edi.

1970 yillardan boshlab, ARAVA tizimida mavjud inshootlarni qoniqarli darajada tutish va ulardan foydalanishga alohida e'tibor qaratila boshladi. Shuningdek, qurilgan uylardagi elektr energiyasining tejalishiga ham e'tibor berila boshladi. ARAVA uylarining derazalarida uch qavatli oynalardan 1973 yildan

boshlaboq, erkin moliyalashtirish hisobidan qurilgan uylardan ancha ertaroq foydalanilmoqda.

Moliyaviy bozor 1980 yillarning oxirlariga kelib sustlashganda, tizimning faoliyatiga sezilarli o'zgartirishlar kiritildi. Bularning eng muhimlari qatorida davlat uy-joy jamg'armasining (jamg'arma zarur depozitlarni moliyaviy bozor va kapital bozorlaridan oladi) tashkil qilinishi va foizlarni to'lashni keyinchalik moliyaviy qo'llab-quvvatlashga ega bo'lgan kreditlash tizimiga (davlat qurilish tashkilotlariga bozor kreditlarining foizlarini to'lash bo'yicha moliyaviy yordam beradi) o'tish bo'ldi.

1949 yildan to 2005 yilgacha bo'lgan davrda ARAVA tizimi yordamida bir milliondan ortiq xonadonlar qurilgan. 2015 yilgacha qurib bitirilgan uy-joylarning 35 foizi ARAVA tizimiga mansubdir. Kapital ta'mirlangan xonadonlarning umumiy soni 380 mingtaga yetgan. ARAVA tizimi xonadonlarining 445 mingtasi xususiy, 540 mingtasi ijarada va 45 mingtasi uy-joy kooperativlari mulkidir. Ijaraga beriladigan xonadonlarning 60 foizi, munitsipalitetlarning to'liq yoki qisman mulklari edi. Qolgan xonadonlarning ko'pchiligi turli xildagi jamiyatlarning mulkidir va ularning bir qismi keksa kishilar, talabalar va boshqa qiyin ahvolda qolgan odamlarning yashash sharoitlarini yaxshilash bilan shug'ullanadi. Bunday faoliyatning ahamiyati hanuzgacha ortib bormoqda.

Umuman olganda, ARAVA tizimi uy-joy siyosati va milliy siyosatning rivojlanishi nuqtai nazaridan o'ta muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

**Martti Luyanen,**

*A'trof-muhit vazirligining fahrli bosh direktori*

## **62. XAROBA UYLARGA – YO'Q!**

Xelsinki shahri 1550 yilda tashkil qilingan, lekin ko'p sonli yong'inlar tufayli 1809 yildan keyingina qaytadan qurilgan. Eski qo'rg'onlar hisobga olinmasa, Xelsinkida shaharning badavlat kishilari uchun alohida tumanlar qurilmagan edi. Masalan, shaharning qoq markazidagi Kruununxaka va Ullanlinna tumanlarida, uylardagi qimmat xonadonlar qatorida uncha katta

bo'lmagan, ularga kirish joyi ko'pincha hovli tomonida joylashgan xonadonlar ham doimo ijaraga berilar edi.

Ko'pincha xorijiy mehmonlar xaroba uylarning Xelsinkida qaerda joylashganligi haqida so'raydilar. Ularning mavjud emasligi bo'yicha javobga ishonqiramay qaraydilar.

Xaroba uylarning yo'qligiga izoh bo'luvchi umumiy iqtisodiy rivojlanishga aloqador sabablar bo'lib, boshqalar qatorida daromadlardagi uncha sezilmaydigan farqlar, rivojlangan davlat va aholi ichidagi chet elliklarning nisbatan kamligi xizmat qiladi. Lekin, ushbu masalada Xelsinki shahrining uy-joy siyosati ham alohida o'ringa ega.

Birinchidan, Finlyandiyadagi shaharlar munitsipalitet siyosati va soliqqa tortish bo'yicha Yevropadagi biron-bir boshqa mamlakatlardagidan ko'ra anchagina ko'proq vakolatlarga ega. Ikkinchidan, Xelsinki shahri qisman tarixiy sabablar, qisman ongli ravishda olib borilayotgan siyosat tufayli, o'zi egallab turgan maydonning eng katta qismi, deyarli 70 foiziga egadir. Finlyandiyadagi rejalashtirishni ham munitsipalitetlar olib boradi. Shunday qilib, Xelsinki shahri anchagina qattiqqo'l uy-joy siyosatini olib borishi mumkin.

Oxirgi 50 yil mobaynidagi Xelsinki shahrining uy-joy siyosati ayniqsa yorqin ijtimoiy tusga ega edi. Shunchalikki, hatto qo'shni shaharlardagi soliqqa tortish darajasi oxirgi yillarda poytaxtga nisbatan sezilarli darajada o'sib ketdi.

Xelsinki shahridagi yangi uy-joy kvartallarini rejalashtirish davomida deyarli har doim, xonadonlarning barcha aholi qatlamlarining moliyaviy imkoniyatlariga mos kelishidan kelib chiqqan holda istisnalarsiz harakat yuritadilar. Badavlatlar va kam ta'minlanganlar yonma-yon yashaydilar, ularning xonadonlari bir-biridan ko'rinishi bilan ham, sifati bilan ham farq qilmaydi.

Haqiqatda, Xelsinki shahridagi xonadonlar masalasi siyosatiga ham davlatning moliyalashtirishi, ham shu kabi boshqaruv o'z ta'sirini ko'rsatdi. Xelsinki shahri uzoq vaqt davomida boy shahar bo'lgan va xonadonlar qurilishidagi davlatning moliyaviy yordami muhim o'rin egallamoqda. XX asrdan boshlab davlatning xonadonlar masalasiga qo'shgan ulushi muntazam kamayib bormoqda edi. Ayni vaqtda, davlat shaharning Xelsinki shahridagi

korxonalarni soliqqa tortishdan kelib tushadigan daromad hajmlarini ancha kamaytirdi. Shunday qilib, munitsipalitetlar «yaxshi soliq to'lovchilar»ni qo'lga kiritish uchun o'zaro musobaqalashishga majburlar.

Xelsinki shahrida amal qilinayotgan xonadonlar masalasining ijtimoiy siyosat modeli, yangi yuzaga chiqayotgan to'g'onoqlarga dosh berishi mumkin yoki mumkin emasligini kelajak ko'rsatadi.

Ijtimoiy turfa-xillik omilini e'tiborga loyiq ijtimoiy innovatsiya deb hisoblash mumkin. Yashash joyini va yashash sharoitini tanlashdagi tenghuquqlilikning yo'qligi, meros bo'lib qoluvchi siqib chiqarish siyosatiga olib boradi. Har holda, Xelsinki shahrida shu vaqtgacha bundan qochib-qutulishga erishilmoqda edi.

**Pekka Korpinen,**

*1991-2007 yillarda Xelsinki shahri xokimining o'rinbosari*

### **63. UY-JOY BIRINCHI O'RINDA Y JAMG'ARMASIGA**

Jamiyatdagi odatiy hayot, uy-joy qilish uchun mos keladigan joy va yashash uchun xavfsiz muhitni anglatadi. Uy – bu har bir insonning o'z shaxsiy hududidir. Bu himoyalanganlik degani va ayni vaqtda, jamoat tomonidan ma'qullanadigan hayot tarzining kalitidir.

Agarda ularga xonadon berilsa va yetarlicha yordam ko'rsatilsa, ko'pchilik boshpanasiz insonlar mustaqil hayot kechirishlari mumkin. Inson o'zini o'z uyidagidek his qilishi uchun, insoniy aloqalar va o'z xohishi bo'yicha o'z hayotini qurish uchun rivojlanadigan zaminni shakllantirish sharoitlari lozim. O'z vaqtida va insonning zaruriyatlariga mutanosib ravishda ko'rsatilgan yordam, o'z uyini topish masalasini hal etish bo'yicha muhim omildir. Bu ham uysizlikka qaytishning oldini olish bo'yicha muhim vositadir.

Boshpanasi yo'qlar sonini kamaytirish qimmatga tushadi. Biroq, agarda ushbu muammoni hal qilish bilan shug'ullanilmasa, u holda uysizlik tufayli kelib chiquvchi moliyaviy va insoniy harajatlar yanada ortadi. Uy-joyning yo'qligi muammosini batamom hal qilish

arzon uy-joy qurish va ehtiyojlarga ko'ra ko'maklashish shakllarini talab etadi.

Y jamg'armasi 1985 yilda, o'sha vaqtda mavjud bo'lgan jiddiy uysizlik muammosini hal qilish uchun tashkil qilingan. Jamg'arma nomidagi «Y» harfi, tarjimai «bir» so'zi bo'lgan «yksin» so'zini anglatadi. Boshpanasizlar odatda oilasizlar, ko'pchiligi ajrashgan va ishsiz erkaklar edi. Ko'proq oilalarga yo'naltirilgan uy-joy siyosati ularni payqamas ham edi. Y jamg'armasi uysizlikni yo'q qilish bo'yicha aniq ishlarni bajarishni boshladi. Jamg'arma qiyin uy-joy ahvolidagi insonlarga ijaraga uy taklif qiladi. Jamg'armaning ta'sischi a'zolari Finlyandiya ruhiy salomatlik assotsiatsiyasi, Fin Qizil Xoch jamiyati, Cherkov boshqaruvi, Finlyandiya qurilish sanoati ittifoqi, quruvchilar kasaba uyushmasi, Finlyandiya munitsipalitetlari ittifoqi, shuningdek, Xelsinki, Espoo, Vantaa, Tampere va Turku shaharlaridir. Tomonlarning bunday keng qamrovli hamkorligidagi faoliyat 25 yildan beri davom etmoqda va ushbu faoliyat yolg'iz va boshpanasiz insonlarni o'rab olgan stereotiplarga yo'l-yo'lakay barham berishga ham imkon yaratmoqda.

Jamg'arma bir xonalik xonadonlarni xarid qiladi va ijaraga beradi. Shuningdek, ijaraga berish uchun ko'p xonadonli uylarni qurish bilan ham shug'ullanadi. Xonadonlar shaharning turli joylaridagi oddiy xonadonlar o'rtoqliklarida joylashgan. Ijaraga berish uchun qurilayotgan ko'p xonadonli uylarni rejalashtirishdagi joylashish va xizmatlarning qulayligi ham muhim mezonlardir. Shu tariqa, jamg'arma jamiyatga kirishib ketishga ko'maklashadi.

Y jamg'armasining bosh maqsadi, xonadonlarni ijara shartlari asosida doimiy yashash uchun taklif qilishdan iboratdir. Jamg'armaning faoliyati davlat kreditlari, Finlyandiya O'yin avtomatlari assotsiatsiyasining kreditlari, Ijtimoiy soha va sog'likni saqlash sohasida faoliyat yurituvchi tashkilotlarga ko'maklashish markazining (STEA) subsidiyalari, shuningdek, o'z mablag'lari hisobidan olib boriladi.

Xonadonlarda yashovchilarga berilayotgan qo'llab-quvvatlash va xizmat ko'rsatish choralari munitsipalitetlar, cherkov qavmlari va jamoat tashkilotlari bilan birgalikda amalga oshiriladi. Mahalliy miqyosdagi qalin o'zaro munosabatlar tufayli davlat muassasalari

va ko'ngilli tashkilotlarning hissalaridan samarali foydalanish ta'minlanadi. Qo'llab-quvvatlash va rehabilitatsiya qilish bo'yicha taklif qilinadigan xizmatlarni muvofiqlashtirish, turar-joy bo'yicha barqaror yechimlarni topishga imkon beradi.

Finlyandiyada 1987 yilda taxminan 20 mingta boshpanasiz kishi bor edi. 2016 yilning oxirida ularning soni 6,7 ming atrofida edi. Ushbu raqam krizis markazlarida yashovchilarni ham, o'z qarindoshlari va tanishlarinikida yashovchilarni ham o'z ichiga olgan. 2017 yilning boshida Y jamg'armasining 56ta munitsipalitetlarda deyarli 17 mingta xonadoni bor edi.

Y jamg'armasi arzon uy-joylar qurilishidan tashqari yana turar-joy xizmatlarini rivojlantirishda ham faol qatnashadi. Shuningdek, jamg'arma amaliy faoliyat va haq to'lanadigan ish variantlarini taklif qilish orqali o'z mijozlarini ish bilan ta'minlashga ham ko'maklashadi. Bundan tashqari, jamg'arma «Birinci navbatda uy-joy» omilini qo'llab-quvvatlash bo'yicha tarmoq loyihaning bosh markazidir. «Birinci navbatda uy-joy» omilining g'oyasi oddiydir – boshpanasiz inson eng avvalo uyga muhtojdir va undan keyingina odatiy hayotga qayta kiritish choralari amalga oshirilishi mumkindir.

Shuningdek, jamg'arma boshpanasizlar bilan ishlovchi Yevropa milliy tashkilotlar federatsiyasining (FEANTSA) faoliyatida ham faol ishtirok etadi. 2016 yilda Y jamg'armasi va FEANTSA Federatsiyasi tomonidan muvofiqlashtiriladigan, Yevropada boshpanasizlarga ko'maklashish ishlarini takomillashtirish bo'yicha axborot-ta'lim platformasini ifodalaydigan «Birinci navbatda uy-joy»ning Yevropadagi markazi tashkil qilindi. Ushbu hamkorlik qiluvchi tashkilotlar platformasi, «Birinci navbatda uy-joy» omiliga asoslangan boshpanasizlarga yordam berish uslubiyatini tarqatishda ko'maklashish va yangi yondashuvlarni ishlab chiqish bilan shug'ullanadi. Hamkorlik tarmog'ining faoliyati ta'lim va tadqiqot ishlarini tashkillashtirish, hamda turli darajalarda lobbi ishlarini amalga oshirishdan iboratdir.

**Yuxa Kaainen,**

*Y jamg'armasining ijrochi direktori*



## 64. TALABALAR UY-JOYI

Finlyandiyaning universitetlarga ega bo'lgan barcha shaharlarida talabalar xonadonlarini qurish, ta'mirlash, hamda qoniqarli ahvolda tutish vazifasiga ega jamg'arma yoki kompaniya faoliyat yuritadi. Finlyandiya 2015 yilda 65 ming nafar talaba yashaydigan 30 mingta xonadon bor edi. Tadqiqot va so'rovlar natijasiga ko'ra, hozirgi kunda Finlyandiya uquv muassasalariga ega bo'lgan va uncha katta bo'lmagan munitsipalitetlarda talabalar uchun yetarli miqdorda xonadonlar mavjuddir va ayni vaqtda, katta shaharlarda yetishmovchilik kuzatilmoqda. Ijtimoiy harakatchanlikning ahamiyatga molik to'siqlari yo'q qilingan edi, chunki endi hech kim arzon ijara to'lovilik xonadonning yo'qligi sababli universitetdagi joyidan voz kechishga majbur emas edi.

Talabalar xonadonlari bilan shug'ullanuvchi assotsiatsiyalarning ko'pchilik qismi, davlat 1966 yildan boshlab talabalar xonadonlarini qurishni moliyalashtirishni boshlaganidan so'ng, 1960 yillarning oxirlaridan to 1970 yillarning boshlarigacha bo'lgan davrda tashkil qilingan edi. Talabalar tashkilotlari jamg'armalar kabi harakat qiluvchi, o'xshash assotsiatsiyalarni tashkil qildilar, shaharlar aksionerlik jamiyatlari shaklidagi assotsiatsiyalarni tashkil qildilar. Assotsiatsiyalar boshqaruviga o'z faoliyatlaridan qat'iy nazar ham talabalar va yashovchilar vakillari, ham shahar vakillari kiradilar.

Talabalar xonadonlari muammosini yechish, fin jamiyatidagi shunga o'xshash muammolar qanday yechilayotganligi haqidagi odatiy misoldir. Oz bo'lgan byudjetga qaramay, 30 yildan ko'proq vaqt oldin mamlakatning turli shaharlarida xonadonlar qurilishi boshlandi. Uylar davlat krediti hisobidan munitsipalitetlar ajratgan maydonlarda bosqichma-bosqich, bittalab qurilar edi. Hozirda esa, 40 yil o'tganidan so'ng ishlar tamomlandi. Kreditlar avvalgidek to'lab borilmoqda, eskiroq uylar yaxshi ta'mirlab bo'lingan, lekin talabalar xonadonlari bilan bo'lgan holat muntazam ravishda yaxshi tomonga qarab ketmoqda. Talabalar xonadonlarini qurishning boshlanishi bilan bog'liq holda, talabalar tashkilotlari va uy-joy birlashmalari o'rtasida xonadonlarni qurish, hamda ulardan foydalanishning umumiy omillari bo'yicha kelishuv tuzildi. Ushbu

omillar hozirgi kunga qadar ham amal qilmoqda va ko'pgina qabul qilingan qarorlar, qolgan Yevropa mamlakatlarida amaliyotda bo'lganlaridan farq qiladi.

Har bir shaharda bittadan talabalar assotsiatsiyasi tashkil qilingan edi. Ushbu tashkilot yangi uy-joy qurish va talabalarining eski xonadonlarini qoniqarli darajada tutish bilan shug'ullanadi. Ushbu masalalar o'quv muassasalarining vakolatiga kirmaydi.

Talabalar xonadonlari o'quv muassasalarining izmida bo'lmagani va ularning qurilishida davlat kreditidan foydalanganligi sababli barcha talabalar, o'zlari ta'lim olayotgan o'quv muassasasidan qat'iy nazar, asosiy maktabni bitirganlaridan so'ng ular ta'lim olish vaqtida yashash huquqiga ega. Ko'pchilik Yevropa mamlakatlarida, talabalar xonadonlari faqatgina oliy o'quv yurtlari talabalari uchun mo'ljallangan. Shuningdek, Yevropa mamlakatlarida oilali talabalar o'zlari uchun odatda boshqa uy-joy izlaydilar. Finlyandiyada esa talabalar xonadonlarining uchdan bir qismi oilali talabalar uchun bo'lgan xonadonlardir.

Agarda bir necha istisnolar inobatga olinmasa, Finlyandiyada talabalar shaharchalari qurilmaydi. Xonadonlarning odatiy uy-joy tumanlarida joylashishi umumiy xohish edi. Fin talabalar xonadonlari umumiy yotoqxonalar emas, ular talabalarga ijaraga beriluvchi oddiy xonadonlardir. Odatda, ular bir necha talabaning birgalikda yashashlari yoki oilaning yashashi uchun mos keladigan, ikki yoki uch xonali xonadonlardir.

Finlyandiyada o'quv muassasalari yaqinida arzon va xavfsiz uy-joy qurilishi bo'yicha maqsadlarga erishilgan edi. Talabalar xonadonlari bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar, o'quv muassasalarining xorijiy talabalarni jalb qilish siyosatini ham qoyilmaqom darajada uddaladilar. 2016 yilda barcha talabalar xonadonlarini ijaraga olganlarning 17 foizi chet ellik talabalar edi. Internatsionallashtirish – talabalar xonadonlarida ham odatiy holatdir.

**Ulla-Mari Karxu,**

*2000-2008 yillarda «Talabalar uy-joyi» jamg'armasining ijrochi direktori*

## **65. 24-SOAT XIZMAT KO'RSATILADIGAN XONADONLAR**

Yuzlab tadbirlarda men tinglovchilarga, Finlyandiyadagi xizmat ko'rsatiladigan xonadonlarda yashovchilarning eng katta guruhiga kim kirishi to'g'risidagi savolni berar edim. Ushbu tushuncha barcha qulayliklarga ega bo'lgan va yashovchilarga kechayukunduz personal tomonidan xizmat ko'rsatiladigan yoki kuzatib turiladigan xonadonlar ifodalanadi. Hech kim to'g'ri javob berolmadi. Ko'pchilik javob tariqasida keksa insonlarni, ba'zan hattoki qamoqdagi mahbuslarni ham keltirdi.

To'g'ri javob: bu biz, oilali odamlar. Uylangan erkakning turmush o'rtog'i doimo qo'ng'iroq qiladi va boshlaydi: qachon uyga kelasan, muzlatgich bo'm-bo'sh, mushukning ovqati yo'q, kim bilan pivo ichasan, kechagidek ko'p ichmagin. Nazorat qattiq, lekin ertalabgi nonushtada uni bir soatdan beri o'choqda kutib turgan tayyor kasha kutmoqda. Xizmat ko'rsatish a'lo darajadadir. Yolg'iz kishilarchi? Kim ularga qaraydi?

Finlyandiya keksa va yolg'iz insonlarga g'amxo'rlik qiluvchi muassasalar soni bo'yicha, dunyodagi yetakchi o'rinlardan birini egallar edi. 1980 yillarda ularning o'rniga ambulator tizimi keldi. Keksalar insonlar sonining oshishi va aholining keksayib borishi davomida, avvaliga qariyalar uylari, so'ngra vasiylik uylari, keyinchalik esa yaxlit uylar qurilishi boshlandi. Bora-bora ushbu muassasalardagi yashovchilar uchun kunduzgi vaqtda ham xizmat ko'rsatish yo'lga quyildi. Va nihoyat, xizmat ko'rsatish kechayukunduz amalga oshiriladigan bo'ldi.

65 yoshga to'lmaganlar jamiyat tomonidan umuman unutilgan edilar. Ruhiiy kasalliklar shifoxonalari sonini qisqartirish tufayli, ularning soni 20000tadan 6000tagacha tushib qoldi, bemorlar takroriy ijaraga beriluvchi va qoniqarsiz ahvoldagi umumiy yotoqxonalariga, shuningdek, g'amxo'rlik uylari va reabilitatsiya uylariga o'tkazilgan edi. Ushbu o'zgarishlar rivojlanishidagi nuqsonlarga ega odamlarga ham ta'sir o'tkazdi. Ichkilikbozlikdan aziyat chekayotgan odamlar ham, ozodlikka chiqqan mahbuslar singari qoniqarsiz ahvoldagi tor yotoqxonalariga joylashtirildi.

1970 yillarda, Shvetsiyadan 20 yil kechroq, takroriy ijara amaliyotiga talabalar xonadonlarining qurilishi tufayli barham berildi. Bunday sharoitlarda ruhiy kasallar, rivojlanishidagi nuqsonlarga ega insonlar, keksalik skleroziga chalingan keksalar, hamda nevrologik faoliyatlaridagi buzilishlarga ega bo'lgan insonlar yashashga majbur edi. Bunday odamlar minglab miqdordadir.

1988 yilda qabul qilingan va rivojlanishida nuqsonlarga ega insonlarga xizmat ko'rsatish to'g'risidagi qonunga binoan, ushbu insonlar guruhining yashash sharoitlari 1992 yilga kelib yaxshilanishi kerak edi. Qonun amalga kiritildi, lekin o'zgartirishlar ko'rish va eshitish qobiliyati, hamda tayanch-harakat tizimining yomon ekanligi sababli nogironlikka ega bo'lgan odamlargagina ta'sir qildi. Nogironlar ishlari bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar tomonidan, bunday odamlar uchun bir necha mingta bir xonalik alohida xonadonlar qurib berildi. Biroq, nogironlarga aloqador qonun va farmoyishlar, ruhiy kasallar va rivojlanishidagi nuqsonlarga ega bo'lgan insonlar bo'yicha amal qilinmadi. Shu sababli, ularning yashash sharoitlari ularning ijtimoiy mavqesi singari, o'sha darajada qoldi. Yoshligida kasal bo'lganlar, yoshlar hayoti uchun shart-sharait yaratib berish uchun emas, balki keksalarga madad berishga mo'ljallangan qarilik va mehnatga layoqatsizlik bo'yicha nafaqanigina oladilar Xizmat ko'rsatiladigan xonadonlarni uch yirik guruhga ajratish mumkin:

- 1 Yolg'izlar qismi: ruhiy kasalliklarga ega bo'lgan insonlarning alohida yashayotgan, uy yumushlarini mustaqil epolmayotgan 10 foizga yaqin qismi;
- 2 Xizmat ko'rsatiladigan xonadonlarning tarmog'i yordamida, ruhiy kasalliklar shifoxonalarida yashovchi minglab bemorlarni olib chiqish va katta mablag'larni sarflamagan holda, ularga qolgan odamlar kabi yashashga imkon berish mumkin bo'lar edi;
- 3 70000 nafarga yaqin fin o'z keksa qarindoshlarinikida yashamoqda. Ular qatorida amaldorlar, talabalar, shuningdek o'z keksa ota-onasiga qarayotgan bo'ydoq farzandlar ham bor. Lekin, eng ko'p qismini uylanmagan erkaklar (85%) va

turmushga chiqmagan ayollar (15%) tashkil qilmoqda.

Hozirgi kunga qadar, butun guruhni qamrab oladigan to'laonli tadqiqot olib borilmagan edi. Antti Myaki o'z ota-onasinikida yashayotgan va rivojlanishida nuqsonga ega bo'lgan 3500ta voyaga yetganlar to'g'risida doktorlik dissertatsiyasini tayyorladi. Dissertatsiyaning nomi ham ko'p narsani anglatmoqda: «Men o'z farzandlarimdan ko'ra bir kun ko'proq yashashni istar edim». Ushbu guruhga mansublarning ko'pchiligi yanada mustaqil hayotga ega bo'lishni, masalan, xizmat ko'rsatiluvchi xonadonlarda yashashni xohlar edi. Lekin, ular odatiy yumushlarni mustaqil ravishda bajarishga qodir emaslar, pansionat yoki shifoxonada yashashni esa, tabiiyki istamaydilar.

Hisob-kitoblarga qaraganda, kamida 2000ta xizmat ko'rsatiluvchi xonadon ruhiy kasallar uchun, ayni shuncha miqdorda rivojlanishida nuqsонlarga ega insonlar uchun, xonadonlarning bir qismini nevrologik faoliyatlaridagi buzilishlarga ega insonlar, ichkilikbozlikdan aziyat chekayotganlar va qamoqxonadan chiqib kelganlar uchun qurish maqsadga muvofiqdir. Bunday xonadonlarni qurmasdan Finlyandiyaning uy-joy masalasiga yechim topishning iloji yo'qdir. Ularning qurilishini qisman davolash muassasalarini moliyalashtirish mablag'larini tejash hisobidan amalga oshirish mumkindir. Qolaversa, muammo qurilishning o'zidagina emas, balki bu masala bo'yicha qarorlarning hanuzgacha ham xususiy uy-joylar, ko'pincha xizmat ko'rsatuvchi sifatsiz xonadonlar qurilishiga sarmoya kiritishni ma'qul ko'radigan 500ta munitsipalitetlarda qabul qilinishidadir. Asosiy shart bo'lib xonadonning ahvoli bo'lishi kerak, xizmat jismoniy shaxs tomonidan ham ko'rsatilishi mumkin.

Finlyandiya O'yin avtomatlari assotsiatsiyasi, «Y» jamg'armasi, «ASPA» Xonadon xizmatlarini ko'rsatish jamg'armasi va boshqa turdagi jamg'armalar, misol uchun Xelsinkidagi «Nurmikoti» jamg'armasi, Tamperedagi «Sopimusvuori», Xyameenlinnadagi Mahsus uy-joy jamg'armasi, hamda maxsus parvarish qilish bo'yicha tashkilotlar va Finlyandiyadagi nogironlik masalalari bilan shug'ullanuvchi ko'pgina boshqa tashkilotlar xizmat ko'rsatiluvchi xonadonlar tarmog'ini qurish bilan shug'ullana boshladilar.

Hozirgi kunda, 65 yoshga to'lmaganlarning chorak qismigina o'z ehtiyojlariga qoniqmoqda. Ushbu muammoning yechimi yanada tezroq sur'atlarga muhtojdir.

**Illka Taypale,**

*1971-1975, 2000-2007 yillarda Parlament deputati*

## **66. FINLYANDIYADAGI LO'LILARNING AHVOLI**

Lo'lilar Finlyandiyaga XVIII asrning oxirlarida, Shvetsiya va Rossiyadan keldilar. Butun Yevropadagi kabi, Finlyandiyada ham ularga salbiy munosabatda bo'linar edi. Lo'lilarning aholi ichiga to'liq singib ketishi hali 1900 yillarning boshlaridanoq Finlyandiyaning maqsadi bo'lgan edi. Lo'lilar Qish urushi va 1941-1944 yillardagi sovet-fin urushi vaqtida frontda jang qilganlar.

1953 yilda lo'lilar masalasini o'rganish, xususan ularni jamiyatning odatiy yashash tarziga o'rgatish, ularning mehnat faoliyatini boshlatish va ta'lim olish bo'yicha ularning majburiyatlarini bajarish doirasidagi vazifalar yuklatilgan Lo'lilar masalalari bo'yicha Qo'mita tashkil qilindi. 1956 yilda hukumat lo'lilarning yashashlaridagi ijtimoiy sharoitlarning rivojlanishini kuzatish, hamda parlamentga zarur takliflarni ishlab chiqish va taqdim qilish maqsadida Maslahat komissiyasini ta'sis qildi. Maslahat komissiyasi lo'lilar ahvolini yaxshilash bo'yicha eng ahamiyatli tashkilotdir.

1960 yillarning radikalizmi kam ma'lumotli lo'lilarning hayotdagi yo'qotishlariga zarba berdi va ozchiliklar, kambag'allar, kasallar va kamsitilganlarning jarchisi bo'ldi. Shu munosabat bilan Noyabr harakatini eslatib o'tish kerak. 1967 yilda jamoatchilik uchun muhim maqola bo'lgan «Majburiy yordamchilar» chop etildi va unda birinchi bor jamiyatning kam ma'lumotli qatlamlari, shu jumladan lo'lilar to'g'risida ham ochiqchasiga so'z bordi.

Shuningdek, 1967 yilda parlamentga yo'naltirilgan «Lo'lilar muammolarini hal etish va amalda chora-tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha subsidiyalar to'g'risida»gi petitsiya 1960 yillardagi radikalizmning timsoli bo'ldi. Bu lo'lilarning «imtiyozlari»ga rioya qilish va ushbu jarayonda qatnashish bo'yicha «ozchilik huquqi»

aniq ko'rsatilgan ilk taklif edi. Ayni o'sha vaqtda lo'lilar Maslahat komissiyasi tarkibida o'z vakiliga ega bo'ldilar.

Lo'lilarning ahvoli masalasi uy-joy masalasida aniq shaklga ega bo'ldi. 1975 yilda uy-joy to'g'risidagi vaqtinchalik qonun va unga kiritilgan maxsus moliyalashtirish dasturi qabul qilindi. Ushbu qonunning maqsadi, 1980 yilga kelib lo'lilarning yashash sharoitlarini boshqa aholining ahvoli bilan bir xil darajaga yetkazishdan iborat edi. Keyinchalik, qonunning amal qilish muddati yana bir yilga uzaytirildi. Ushbu qonun unga boshqa ozchiliklarga nisbatan alohida maqom berish orqali imtiyozlar beradigan, etnik guruhning hayotini yaxshilashga qaratilgan qonun namunasi bo'ldi. Boshqa so'z bilan aytganda, ushbu qonun ijobiy kamsitishning misoli bo'ldi. Lo'lilarning yashash sharoitlari sezilarli darajada yaxshilangan bo'lsada, tajriba qiyin ahvolda qolgan barcha lo'lilarning yashash sharoitlarini maxsus qonun orqali o'zgartirishning iloji yo'qligini ko'rsatdi. Ushbu qonunda belgilangan maqsadlarga to'liq erishilmadi. Lo'lilarning uy-joy holatini yaxshilashning yanada samarali usuli – bu ijaraga beriladigan xonadonlarning qo'shimcha qurilishidir.

1980 yillarda belgilangan Lo'lilar ishlari bo'yicha yangilangan Maslahat komissiyasining vazifalaridan biri, lo'lilarning o'zlariga tegishli masalalarga yanada ko'proq ta'sir qilishlari uchun sharoit yaratib berish edi. Fikrlash tarzidagi bunday o'zgarish 1992 yilda Finlyandiyaning asosiy huquqlar Qo'mitasi tomonidan tayyorlangan hisobotda yaqqol ko'zga tashlangan edi. Unda barcha fuqarolarning huquqiy himoya qilish, o'z tili va madaniyatidan foydalanishda teng huquqlarga ega ekanliklari ta'kidlangan.

1995 yilda asosiy huquqlarga tegishli qonun kuchga kirdi. Bundan buyon kamsitish ta'qiqlandi: hech kim biron bir sababsiz jinsi, tili va dini, kelib chiqishi, aytgan fikri, e'tiqodi yoki inson sog'ligining ahvoli asosida kamsitishga haqli emas edi. Kelib chiqishi deyilganda ham milliy va etnik kelib chiqishi, ham jamiyatdagi tutgan o'rni nazarda tutiladi. «Kelib chiqishi» so'zi irq va tana rangini o'z ichiga oladi deb ko'riladi.

Qonunda aytilishicha: «Saamlar tub xalq sifatida, lo'lilar va qolgan guruhlar kabi o'z tili va madaniyatini saqlash va rivojlantirish huquqiga ega». Qonunda faqatgina saamlar va lo'lilar esga olingan

bo'lsada, qonun Finlyandiyada yashovchi barcha etnik ozchiliklarga ham tegishlidir. Ona tili shaxsning shakllantirilishida muhim omil hisoblanadi. Ona tilini o'qitish to'g'risidagi qonunga binoan, ona tillari saam tili, lo'lilar tili yoki imo-ishora tili, yoki mamlakatda yashovchi immigrantlar so'zlashadigan boshqa biron-bir til bo'lgan o'quvchilar, haftasiga kamida ikki soatga teng miqdorda o'z ona tilida ta'lim olish huquqiga egalar. 1996 yilda Finlyandiya Til tadqiqotlari instituti qoshida, lo'lilar tilini o'rganish va rivojlantirish bilan shug'ullanuvchi Lo'lilar tilini o'rganish Qo'mitasi tuzildi. Bolalarni bolalar bog'chasida tarbiyalash to'g'risidagi qonunda, lo'lilar tili va madaniyatini lo'lilarning o'zlari bilan birgalikda qo'llab-quvvatlash haqida aytilgan. Ushbu qonun boshlang'ich maktablar, gimnaziyalar va katta yoshdagilar uchun maktablarga ham tegishlidir.

Bugungi kunda lo'lilar barcha fuqarolik huquqlari va majburiyatlariga bo'ysunadilar. Finlyandiyada yashovchi lo'lilar bir vaqtning o'zida ham finlar, ham lo'lilardir. Ularning o'zlari ham shunday hisoblaydilar. Fin lo'lilarining deyarli chorak qismi Shvetsiyada istiqomat qiladi, shuning uchun ular ushbu ikki mamlakat orasida ko'p sayohat qiladilar. Ularning ko'pchilik qismi shaharlarda istiqomat qiladi va ko'plari o'z xonadonlariga ega. Ularning ko'pchiligi lyuteran cherkoviga mansub. Garchi qonunchilik xolis bo'lsada, jamoatchilikning munosabatlari ko'pincha eski qarashlar bilan tavsiflanadi. Lo'lilar mamlakatning boshqa aholisi kabi oliy ma'lumotga ega bo'lmaganliklari sababli, ular iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan zaif ahvoldalar. O'n ming fin lo'lilaridan qariyb yarmi ish joyiga ega emas va ish beruvchilarning ularga bo'lgan munosabatlari tufayli ishga kirish qiyindir.

Oxirgi yillarda yosh lo'lilarning ma'lumot darajasi sezilarli darajada o'sdi. Maorif boshqaruvida lo'lilar ta'limi bo'yicha bo'lim ishlab kelmoqda va universitetda lo'li tili va madaniyati o'qitilmoqda. 2012 yilda Fin adabiyoti jamiyati tomonidan nashr qilingan «Fin lo'lilari tarixi» kitobi chop etildi. Lo'lilar musiqasi faol hayot kechirmoqda. Romani Mirits radio dasturini lo'li-boshlovchi olib bormoqda. Finlyandiya mustaqilligini nishonlash bo'yicha prezident qabuliga, lo'lilar diasporasi vakillari 1990 yillarning o'rtalaridan beri muntazam ravishda taklif qilinmoqda.

**Kyuosti Suonoyya,**

*dotsent, 2004-2006 yillarda «Romano missio» jamiyatining raisi*



## 67. UY-JOY BOSHQARUVLARI

Ko'p qavatli uylarga egalik qilish va boshqarishni qanday qilib samarali tashkillashtirish mumkin? Ushbu savol dunyodagi ko'pchilik mamlakatlarga tegishlidir. Umumiy binolar va bino inshootlarining (tomlar, devorlar, kirish qismi, lift, hamda suv-oqava tizimi va elektr jihozlari) uzluksiz ishlashi va xizmat ko'rsatilishini ta'minlash alohida masala kasb etadi. Aksariyat mamlakatlarda bunday holatlardagi yuridik yechim sifatida kondominium modelidan foydalaniladi. Ushbu model xususiy mulk sifatida xonadonlarga egalik qilish tamoyiliga asoslanadi va undagi umumiy xona va inshootlar xonadon sohiblarining umumiy mulki sifatida, ya'ni umumiy mulk unsurlari bo'lib qoladi.

Kondominium modelining muammosi, hissalariga birgalikda egalik qiluvchilar (istiqomat qiluvchilar) tomonidan uy-joydagi umumiy xonalarni birgalikda tashkil qilingan ta'mirlash va saqlashni bu ish uchun maxsus tarzda yaratilgan ishchi guruhsiz amalga oshirishdir. Tabiiyki, bunday qaror o'zidan ma'muriy qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Shubhasiz, kondominium va sherikchilik modellarini birlashtirish yanada yaxshiroq yechimdir. Biroq, bu modelning ham o'z kamchiliklari mavjud. Umumiy inshoot va xonalar bo'yicha qarorlar qabul qilish, har doim ham aniq va tez jarayon emas. Umumiy xona va inshootlarni ta'mirlash uchun kredit olish amalda juda qiyindir. Ko'pchilik hollarda kredit olish uy-joy egalari barchasidan kreditni qaytarish bo'yicha kafillik olishni nazarda tutadi. Boshqacha qilib aytganda, kredit olish uchun mulk egalari barchasidan imzo talab qilinadi. Buni amalga oshirish ko'pchilik hollarda juda qiyindir. Lekin bu qismda ham, rivojlangan mamlakatlarda qonunchilik orqali biriktirilgan va amalda qo'llanilishi mumkin bo'lgan yechimlardan foydalaniladi.

Finlyandiyada ushbu muammo 1920 yillardan boshlab, qatorli va ko'p xonadonli turar-joy uylarining egalik modeli orqali hal qilinmoqda. Model inshootlarning xonadonlar aksiyador jamiyatiga qarashli ekanligiga asoslanadi va undagi aksiyalar ma'lum xonadonlarga mo'ljallangan tarzda bo'linadi. Egalik qilishning

ushbu modeli bo'yicha alohida qonun tayyorlangan edi. Xonadonlar aksiyador jamiyatidagi mulkka egalik qilish, ma'lum bir xonadonga egalik qilish huquqini berish tarzida bo'lib chiqilgan aksiyalarga ega bo'lishga asoslanadi. Har bir xonadonning ushbu xonadon bo'yicha kredit olishga garov bo'lishi mumkin bo'lgan o'z aksiyalar paketi mavjuddir.

Qarorlar qabul qilishdagi oliy organ bo'lib, bir yilda kamida bir marotaba to'planadigan aksiyadorlar yig'ilishi hisoblanadi. Aksiyadorlar yig'ilishi qolgan narsalar qatorida oylik istiqomat va kommunal to'lovlar miqdori ham ko'rsatilgan byudjetni tasdiqlaydi. Yig'ilishda yirik ta'mirlash ishlariga aloqador qarorlar ham qabul qilinadi. Qarorlar odatda ko'pchilik tamoyili bo'yicha qabul qilinadi.

Yig'ilish o'zi tomonidan qabul qilingan qarorlarning bajarilishini, xonadonlar jamiyatining ma'muriy boshqaruvini, uy-joydan to'g'ri foydalanish va boshqa tadbirlarning bajarilishini ta'minlaydigan boshqaruvni saylaydi. Boshqaruv buxgalteriya ishlari va mablag'larni sarf qilishni to'g'ri tashkil qilish uchun ham javobgardir. Ko'pgina uy-joy boshqaruvlarida boshqaruv tomonidan saylanadigan boshqaruvchi ham bor. Boshqaruvchi kommunal xizmatlarini to'lab borish va o'rtoqlikning buxgalteriyasi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Boshqaruvchilar qoida sifatida ushbu xizmatlarni taklif qiluvchi idoralar qoshida ishlaydilar. Odatda boshqaruvchiga buxgalter va ko'p hollarda, binolarni ta'mirlash va saqlash bo'yicha ixtisosga ega bo'lgan texnik masalalar bo'yicha boshqaruvchi yordam beradi.

Kirish qismini tozalash va ta'mirlash ishlarini bajarish kabi boshqa xizmatlar, chetdagi tashkilotlardan buyurtma qilinadi. Ayni shu narsa katta ta'mirlash ishlarini rejalashtirish va turli xildagi xizmatlarni bajarish bo'yicha tender o'tkazishni tayyorlashga ham tegishlidir.

Xonadonlarga tegishli bo'lgan aksiyalardan xonadonni xarid qilish yoki ta'mirlash uchun kredit olishda foydalanish mumkin. O'rtoqlik ta'mirlash ishlarini amalga oshirish uchun kredit olishi ham mumkin. Bu esa, juda qulay shartlar bo'yicha kredit olishga imkon beradi.

Kredit bo'yicha foizlar o'rtoqlik tomonidan oyma-oy ravishda, ularning miqdori o'rtoqlik boshqaruvining maoshi, ta'mirlash ishlari

va markaziy isitish tizimining harajatlarini qoplashga yetarli bo'lgan kommunal to'lovlar bilan birgalikda to'lab boriladi. Agarda xonadon egasi kommunal to'lovlar va o'rtoqlik tomonidan olib borilayotgan ta'mirlash ishlari bo'yicha to'lovlarni amalga oshirmasa, u holda o'rtoqlik ushbu xonadonni kerakli muddatga o'z foydalanishiga olishi va undan kelib tushadigan ijara haqi hisobidan, to'lanmay qolgan mablag'ni shu yo'l bilan qoplashi mumkin. Ushbu holatda mulk egasi mulkka egalik huquqini yo'qotmaydi.

Ushbu tizim ko'pgina afzalliklarga ega. Birinchidan, qarorlarni qabul qilishdagi vakolatlarining taqsimlanishi aniq va ko'chmas mulkning egasi yagona bo'lmoqda. Ikkinchidan, kreditning olinishi ham o'rtoqlikdagi, ham xonadonlardagi ta'mirlashga imkon yaratmoqda. Qarorlar qabul qilishning aniq jarayoni natijasida, uy-joy umumiy xonalar va inshootlar singari yaxshi ahvolda tutilmoqda. Ushbu holatda xonadonning narxi pasayib ketmaydi va yashashning qulayligi yuqori darajada qoladi.

Aksiyalarning egasi sifatida ham jismoniy, ham yuridik shaxs bo'lishi mumkin. Jismoniy shaxs xonadonda o'zi ham yashashi mumkin, uni ijaraga ham berishi mumkin. Yuridik shaxslar sifatida firma, munitsipalitet yoki tashkilotlar bo'lishi mumkin. Shunday qilib, xonadonlar aksiyadorlik jamiyati modeli, xususiy va ijaradagi xonadonlarni ayni bir uyga birlashtirishga imkon beradi va ijtimoiy yakkalanib qolishning oldini oladi.

**Martti Luyyanen,**

*Atrof-muhit vazirligining faxrli bosh direktori*

## **68. MEHNAT NAFAQALARI TIZIMI**

Mehnat nafaqasiga bo'lgan ehtiyoj fin innovatsiyasi emasdir: barcha rivojlangan mamlakatlarda daromadlarning ko'p qismi ish haqiga asoslanadi. Inson ma'lum bir yoshga yetganda yoki sog'ligi yomonlashganda va endi ishlashning iloji bo'lmagan vaqtda, mehnat nafaqasini to'lash boshlanadi. Mehnat nafaqasi ish haqini yo'qotish holatidan sug'urta qilishdir.

Nafaqa tizimlari doirasidagi asosiy yechimlar (sug'urta (yoki mehnat) nafaqasi yoki nafaqaning ixtiyoriy qismi) yoki moliyaviy-

texnik tafovutlar (taqsimlash tizimi yoki nafaqa rejasi) ham, ularning turli oraliq variantlari singari fin innovatsiyalari emasdir.

Mehnat nafaqalari va mehnat bozori o'rtasidagi murakkab o'zaro munosabatlar tizimi ham fin topilmasi emasdir. Ko'pgina mamlakatlarda nafaqa tizimlari ham Finlyandiyadagidek rivojlanish bosqichlaridan o'tdi: avvaliga mehnat bozorini yosh avlod uchun bo'shatish maqsadida erta nafaqalar tizimidan foydalanish imkoniyati payqab olindi, keyinchalik esa ushbu nafaqa modeli keltirib chiqaruvchi qiyinchiliklar sezilib qoldi.

Mehnat nafaqasiga tegishli ko'p sonli sxemalarni yagona amaliy yechimga birlashtirish usulini Fin innovatsiyasi deb hisoblash mumkindir. Uning yordamida ushbu yaxlit yechimning jamiyatdagi har qanday vaziyatga mos kelishi va o'zgarishlardan qat'iy nazar, uning asosiy tushunchasining o'zgarmasligini, jamiyatda yuz berayotgan o'zgarishlar esa barcha jamiyat qatlamlariga bir xil darajada ta'sir qilishini tartibga soladigan qaror qabul qilish modeli ham fin ixtirosidir.

Biz nafaqani ish haqi o'rniga olamiz. Nafaqaning miqdori ish haqining miqdoriga bog'liq va ish haqining 60 foizi atrofidadir. Ushbu kafolat barchaga taalluqli bo'lishi kerak, shuning uchun ushbu tamoyil qonunda belgilab o'tilgan va hamma uchun amal qilinadi. Shuningdek, qonunchilik ish joyi o'zgarganda ham nafaqaning saqlanib qolishini kafolatlaydi. Nafaqa tizimi shu tarzda Yevropa Ittifoqining to'rtta asosiy erkinliklaridan biri bo'lgan mehnat harakatini qo'llab-quvvatlaydi.

Agarda nafaqada kafolat sifatida iste'mol narxlariga mos keladigan indeksatsiya bo'lmasa, u holda nafaqa inflyatsiya oshganda samarasiz bo'lib qoladi va o'z vazifasini bajara olmaydi. Shuning uchun inflyatsiyaga mos keladigan yoki undan ham oshadigan indeksatsiya kerak. Inflyatsiya undan sug'urta qilsa bo'ladigan xavf emasdir, shuning uchun inflyatsiya natijasidagi harajatlar bo'yicha javobgarlik, indeksatsiyani kafolatlaydigan umumiy taqsimlash tizimi zimmasidadir.

Qisman, ammo sezilarli bo'lgan oldindan moliyalashtirish, turli avlodlarning nafaqalaridagi farqlarni bartaraf etadi. Natijada, bu milliy iqtisodiyot doirasida sezilarli mablag'larning shakllanishiga olib keldi (180 milliard yevro, ya'ni YaMMning 85 foizi). Mablag'lar

tufayli to'lovlar bo'yicha foizlar nafaqa harajatlariga nisbatan ancha sekinroq va kamroq o'smoqda.

Finlyandiyada nafaqa masalalari bilan bir qator tashkilotlar shug'ullanadi: nafaqa bo'yicha sug'urta jamiyatlari, nafaqa jamg'armasi va nafaqa kassalari. Foyda nafaqa tashkilotiga bog'liq bo'lmagan vaziyatda, jamg'armadan olinmaydigan foyda va to'lovlarning barcha nafaqa tashkilotlari o'rtasida taqsimlanishi va jamg'armaga joylashtirilishi shart bo'lgan usul kerakdir. Ushbu jarayon puxta tadqiq qilish va harajatlarni aniq taqsimlash bilan birgalikda olib boriladi.

Monopoliyaning yo'qligi ham ma'lum darajadagi raqobatni yaratishga imkon beradi. Qonunchilikda belgilangan nafaqani ta'minlashdagi raqobat bilan ish dunyosidagi raqobatni solishtirish mumkin emas. Biroq, sarmoya kiritish sohasida xizmat ko'rsatishning ham sifat, ham samaradorligi bo'yicha monopoliyaning yo'qligi, raqobat uchun odatdagi davlat nafaqa tizimlaridagi amaliyotlardagidan ko'ra yaxshiroq shart-sharoitlarni yaratib beradi.

Markazsizlashtirish tufayli milliy iqtisodiyot doirasidagi kapitalning katta miqdori, kattaligi jihatidan xavf keltiruvchi tahlikali jamg'armalargacha o'sib bormaydi. Monopoliyaning yo'qligi sug'urtalangan mijoz nuqtai nazari bo'yicha nafaqa jamg'armalari bilan amaliyotlarni murakkablashtirmaydi. Bu yerda oxirgi muassasa tamoyili amal qiladi - mijoz uchun bitta nafaqa muassasasi bilan ish olib borish yetarlidir.

Nafaqa ta'minoti tizimi ijtimoiy sohadagi fin innovatsiyalarining eng yorqin misolidir. Bu turli xil davrlarda jamiyatning ehtiyojlarini qondirish uchun, birgalikdagi harakat orqali rivojlanayotgan bir necha unsurlardan tashkil topgan yaxlit bir butundir.

**Kari Puro,**

*1991-2006 yillarda «Ilmarinen» nafaqani sug'urtalash  
jamg'armasining ijrochi direktori*

## 69. BOLALAR MAKTABGACHA TA'LIMI

Ikkinchi jahon urushidan so'ng Finlyandiya kambag'al, ko'p jihatdan vayron bo'lgan mamlakat edi. Ayollar ish joylarida erkaklarni qisman o'rnini egallagan va o'zlari pul topayotgan edi. Odatda qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanadigan mamlakatimiz, 1960 yillarda yoshlar shaharga o'qish va ishlash uchun jo'nab ketganida, Yevropadagi urbanizatsiyaning eng tez jarayonini boshidan kechirdi. Bu mehnat bozoridagi ayollarning ishtirok etishi zarurligini yanada kuchaytirdi. O'sha paytlarda bolalarga qarashning rivojlangan tizimi hali yo'q edi.

1973 yilda munitsipalitetlarga bolalarga qarashni tashkillashtirish majburiyati, davlatga esa ushbu faoliyatni subsidiyalash orqali qo'llab-quvvatlash majburiyatini yuklagan, bolalarga qarash to'g'risidagi qonun kuchga kirdi. Qonunni ishlab chiqish jarayoni davomida, mamlakatda bolalarni muassasalarga joylashtirish mavzusidagi qizg'in munozaralar olib borilgan edi. Ular davomida o'ng qanotdagilar, tarbiyani uy sharoitida olishning ahamiyatli ekanligini ta'kidlagan holda qonunga qarshi chiqdilar. Chap qanotdagilar esa aksincha, mehnat bozoridagi haqiqiy vaziyatga ishora qildilar. Ushbu qonun ijtimoiy innovatsiya bo'lib qolgan, oilaviy bolalar bog'chasi tarbiyachisi kasbini keltirib chiqardi. Oilaviy bolalar bog'chasi tarbiyachisi o'z bolalari va boshqa ota-onalarning bolalariga qarash bilan shug'ullanar edi. Guruh jami beshta boladan iborat edi. Bu ish uchun ular maosh (uni ota-onalar va munitsipalitet to'lar edi) olishar va nafaqalari yig'ilib borar edi. Ish uchun tegishli ma'lumot talab qilinar edi.

1980 yillarning boshlarida bolalarga qarash tizimining rivojlanishi, jamiyatdagi vaziyatning talab qilganidek yetarli darajada samarali emas edi. Bolalarga qarash bo'yicha ota-onalarga beriladigan ish ta'tili 9 oygacha uzaytirildi. Sobiq agrar partiya bo'lgan tsestristlar partiyasi, uyda bolalarga qarash uchun nafaqa to'lash bo'yicha qonunni ishlab chiqdi. Qonun maktabgacha yoshda bo'lgan bolalarga uyda qarash uchun ota-onalarning biriga nafaqa to'lashni nazarda tutadi. Chap qanotdagilar ushbu qonunga qarshi chiqdilar. Ular qonunning ayollar uchun tuzoq bo'lib qolishidan xavfsiradilar. Ayollar mehnat hayotidan chetda qolib

ketishlari, shu tarzda mehnat bozoridagi eng yomon ahvolda qolishlari va keyinchalik, o'z nafaqa to'lovlari bo'yicha yutqazib qo'yishlari mumkin edi. 1984 yilda yana bir ijtimoiy innovatsiyani keltirib chiqargan siyosiy kelishuvga erishildi – 1990 yilga qadar bir necha bosqichda kuchga kirgan, maktabgacha yoshdagi bolalarga qarash qonun qabul qilindi.

Maktab yoshigacha bolalarga qarash to'g'risidagi qonun, o'ta-onalarga dekret (o'sha vaqtda 11 oy davom etardi) ta'tilidan so'ng munitsipalitet yoki oilaviy bolalar bog'chasidagi joyni olish, yoki o'z xohishlari bo'yicha ishlatishlari mumkin bo'lgan bolalarga uyda qarash uchun nafaqa olishni tanlash huquqini berdi. Tanlash huquqi 3 yoshdan kichik bolalarga ega bo'lgan oilalarga berilar edi. Bolalarga qarash to'g'risidagi qonunning maqsadi, eng kichik bolalarning parvarishini ta'minlashdan iborat edi. Bu munitsipalitetlar uchun bolalarga qarash bo'yicha xizmatlar sonining sezilarli darajada ortib ketishini anglatar edi, ammo bunga davlatning moliyalashtirishi orqali erishildi.

1990 yillarning o'rtalarida, Finlyandiyaning iqtisodiyoti Yevropa Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkilotiga a'zo bo'lgan mamlakatlar boshidan kechirgan eng kuchli iqtisodiy inqirozdan so'ng yana o'sishni boshlagan vaqtda, bolalarga qarash masalasi yana dolzarb bo'lib qoldi. O'sha vaqtda parlamentda qiziqarli voqeani kuzatish mumkin edi – barcha partiyalarning ayollari birlashdilar va birgalikdagi harakatlar orqali bolalarga qarash huquqi 1996 yildan boshlab barcha maktabgacha yoshdagi bolalarga qo'llanilishiga erishdilar. Bu boshqa innovatsiyaning kelib chiqishiga asos bo'ldi: barcha oilalarning ixtiyori bo'yicha o'z bolalarini munitsipalitetning bolalar bog'chalariga jo'natish huquqiga. Munitsipalitetlar bolalarga kunduzgi qarashni tashkil qilishga majburlar. Buni amalga oshirish uchun xususiy bolalar bog'chalari xizmatlaridan ham foydalanish mumkin.

Hozirgi paytda Finlyandiya'dagi bolalar bog'chalaridagi bolalar soni Yevropa Ittifoqidagi o'rtacha darajadan kamroq – yarmidan salgina ko'proq (2016 yilda 54%). Uch yoshga to'lmagan bolalarning deyarli yarmi uyda tarbiyalanadi. Oilaviy bolalar bog'chalariga avvaldagidek maktabgacha yoshdagi bolalarning 10 foizi boradi. Hozirgi kunda bolalar maktabga borish vaqtidan bir yil

avval tayyorlov sinfiga borishlari mumkin. Maktabgacha ta'lim 2015 yilda Ta'lim Boshqaruvi vakolatiga topshirildi. Bepul maktabgacha ta'lim ko'pgina siyosiy partiyalarning vazifalari qatoridadir.

**Vappu Taypale,**

*1982-1984 yillarda Ijtimoiy masalalar va sog'likni saqlash bo'yicha vazir,*

*1992-2008 yillarda «Stakes»(Ijtimoiy xizmat va sog'likni saqlash sohasidagi ilmiy-tadqiqot markazi) Bosh direktori*

## **70. BOLALARGA UYDA QARASH UCHUN NAFAQA**

Bolalarga uyda qarash bo'yicha nafaqa oilaviy siyosatning bir qismidir va uch yoshdan kichik bolalarga o'z uylarida qarovchi va munitsipalitet bog'chalaridagi joy olish huquqidan foydalanmayotgan ota-onalarga mo'ljallangandir. Bolalarga uyda qarash bo'yicha nafaqa berish tizimini men birinchi bor 1950 yillarning oxirida taklif qilgan edim. Ya'ni, ushbu yangilikni hayotga tadbiq etish uchun o'ttiz yil kerak bo'ldi!

Hamma narsa men o'qishimni tugatgan, ishlayotgan va uch bolamiz bilan ma'lum muddat davomida uyda qolishni xohlab qolgan vaqtimda boshlandi. Bolalar psixologining farzandning to'g'ri rivojlanishi uchun boshlang'ich davrda kamida ikki yil (uch yil bo'lsa undan ham yaxshi) davomida bir kishi tomonidan parvarish qilinishi kerakligi bo'yicha fikri bunga turtki bo'ldi. Bog'chalarda o'sha vaqtda odatiy bo'lib qolgan xodimlarning almashishi bolalar uchun nomuvofiq edi. 1950 yillarda bolalarga uylarimizda qarash uchun birontasini topishimiz amrimahol bo'lib qoldi. Boshqa tomondan esa, ayollar o'sha vaqtda umumiy ishchi kuchining 40 foizini tashkil qilar, Shvetsiyadagi bu ko'rsatkich esa 26 foizni tashkil qilar edi.

Biroq, haqiqat shunda ediki, ona o'z bolalariga uyda qarash uchun qolgan vaqtlarda, oilaning daromadi darhol kamayib ketar va sotib olish qobiliyati tushib qolar edi. Farzandlar bolalar bog'chasiga borganda esa, ona mehnat qilish va maosh olishni davom etar edi. Oila bolalar bog'chasi uchun imkon qadar to'lov qilar, lekin to'lov haqiqiy harajatlarning faqatgina bir qismi edi.



Mehnat qilayotgan onaning nafaqasi ham yig'ilib bora edi. Ayni vaqtda uyda bolalari bilan o'tirib qolgan ayol esa, bundan ham quruq qolar edi. Mening fikrimcha, yosh oilalar o'zlarining eng qadrli insonlariga qarash sababli tengsiz ahvolga tushib qoldilar.

O'zim jurnalist bo'lganim uchun, men ushbu jamoatchilikdagi adolatsizlik haqida yozishni boshladim. Men ushbu mavzuda hattoki aholi siyosati masalalari bo'yicha tashkilotning boshqaruvida ham so'zga chiqqanman. Ular ushbu masalaga qiziqib qoldilar, chunki o'sha vaqtlarda mamlakatdagi tug'ilish ko'rsatkichlari keskin kamayib bormoqda edi. Men ushbu savolni o'zim a'zo bo'lgan va o'sha vaqtlarda onalar maoshi deb nom olgan, bolalarga uyda qarash bo'yicha nafaqani 1962 yildagi o'z dasturiga kiritgan Tsentristlar partiyasiga ham berganman. Biz oilaviy siyosat masalalari bo'yicha ishchi guruh tuzdik va qonun loyahasini ishlab chiqdik.

Men Sovet Ittifoqidagi inqilobdan keyin tashkil qilingan bolalarga qarash tizimi bilan tanishib chiqdim. Kichik bolalarning onalari jamiyatni qurish uchun ishga, bolalar esa davlat bolalar bog'chalariga borardilar. Biz esa, bolalarni uyda tarbiyalashning tarafdorlari sifatida, oilalarda bolalarga qarash shakllari ichidan tanlashga imkon bo'lishi va jamiyat tenglikni ta'minlash maqsadida, bolalarni uyda parvarish qilishni ham moliyaviy jihatdan ta'minlashi kerak deb hisoblar edik. Uydagi parvarish ushbu masalani ko'rib chiqish bilan shug'ullanuvchi davlat qo'mitasida qo'llab-quvvatlandi, lekin ushbu yangilikka qarshi chiqqanlar g'oyani hukumat muzokaralarida rad etishdi. Tsentristlar partiyasi hukumatda ozchilik bo'lgan 1976 yilda, tajriba tariqasida nafaqalarning tarqatilishi boshlandi.

Yangilik darhol ma'qullanadi deb taxmin qilsa bo'lar edi, lekin hammasi o'zgacha o'tdi. Eng ashaddiy qarshilik ko'rsatganlar, nafaqalar to'lovi aynan mehnat qiluvchi onalar uchun mo'ljallangan bo'lishi kerak deb hisoblaydigan sotsial-demokratlar partiyasi edi. Tsentristlar partiyasi shusiz ham uyda o'tirgan qishloq hududlarida yashovchi ayollarga nafaqa berishni boshlashni xohlamoqda deb hisoblanar edi. Statistika bo'yicha esa, xo'jalik yurituvchi ayollarda bolalarning umumiy tug'ilgan 60 mingta bola ichidan atigi bir necha mingtasi tug'ilgani ko'rsatilgan.

Qonunchilikka qarshi chiqqanlar orasida, bolalarga uyda qarash bo'yicha nafaqa ayollar karyerasining rivojlanishiga to'sqinlik qiladi deb hisoblaydigan olim ayollar tashkilotlari ham bor edi. Yillab davom etgan bahs-munozaralarni ikki yirik partiya olib bordi. Ham deputalarning o'zlari, ham hukumat a'zolari. Men ham, shu qatorda o'z hamkasbim, vazir Vappu Taypale bilan munozaralar olib bordim. Bolalarga uyda qarash bo'yicha nafaqa 1986 yilda tasdiqlandi. U uch yoshgacha bo'lgan bolalarga, ota-onalar nafaqasidan keyin to'lanar edi. Nafaqani oiladagi 6 yoshdan kichik bo'lgan boshqa bolalar ham olar edi. 1990 yilda barcha uch yoshga to'lmagan bolalar, bolalar bog'chasiga borish bo'yicha subyektiv huquqqa ega bo'ldi. Ushbu qaror ushbu masala bo'yicha siyosiy yarashuvni kafolatlar edi. Bolalar psixologlarining fikriga ko'ra, aynan uch yoshdan katta bo'lgan bolalar, o'zlarining rivojlanishlari uchun bolalar bog'chalariga borishlari kerak edi, lekin bu ham yaxshi boshlanish edi. Vaqt o'tgan sayin o'z ish joylariga qaytgan ayollar soni ham oshdi, shundan kelib chiqqan holda bolalar bog'chasiga boradigan bolalar soni ham oshdi. Bolalarga uyda qarash uchun nafaqa oluvchi ayollarning soni asta-sekin kamayib borayotgan bo'lsada, 2016 yilda bunday nafaqa 110 mingta ota-onaga to'langan edi.

Uch yoshgacha bola uchun nafaqa miqdori 338 yevroni (2017y.) tashkil qiladi. Shu oiladagi 6 yoshgacha bo'lgan boshqa bolalarga kamroq mablag' to'lanadi.

Ayollarning mehnat karyeralari, ularning bir necha yil davomida uylarida bolalarga qarashga majburligi tufayli zarar ko'rishi bo'yicha fikrlar mavjuddir. Shuning uchun, bolani munitsipalitetning bolalar bog'chasiga jo'natish kerakligi tavsiya qilinadi. Hozirgi kunda bolalar bog'chalarimiz «to'lgan». Shunga qaramay, bolaga uyda qarash bo'yicha nafaqani saqlab qolish asoslidir. Bolali oilalar va onalarning yashash sharoitlari, hamda bolalarni parvarish qilish va tarbiyalash tamoyillari turlichadir. Bolaga uyda qarash bo'yicha nafaqa, bizning mamlakatimizdagi ko'pgina ayollar uchun farzandlarni eng nozik rivojlanish davrlarida uy sharoitida o'stirish va tarbiyalash uchun iqtisodiy imkoniyatdir. Ijtimoiy nuqtai nazardan kelib chiqqan holda, bolalar psixologlarining fikriga ko'ra

bolalar uch yoshlarida o'z tengdoshlari bilan «guruh» faoliyatini olib borish uchun tayyor bo'ladilar.

**Maryatta Vyayanyanen,**  
*1982-1983 yillarda Ijtimoiy masalalar bo'yicha vazir*

## **71. BOLAGA QARASH UCHUN OTALARGA MEHNAT TA'TILI**

Britaniya ayollar tashkilotlari bir necha yillar avval «I'd rather be a mother in Finland» (Men yaxshisi Finlyandiyada ona bo'lar edim) nomli kompaniyani olib bordilar. Xuddi shu muvaffaqiyat bilan «I'd rather be a father in Finland» (Men yaxshisi Finlyandiyada ota bo'lar edim) shiori ostida ham kompaniyani olib borish mumkin edi.

Yevropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlar orasida ota-onalarga beriladigan imtiyozlarni solishtirganda, Shimoliy Yevropa mamlakatlari yosh otalar uchun alohida imtiyozlarni berish orqali ushbu o'rinlarda yetakchi ekanliklari ravshan bo'ladi. Yevropaning boshqa mamlakatalarida istiqomat qiluvchi otalar uchun, bolaga qarash bo'yicha otalik nafaqasi va otalik ta'tili olish juda murakkabdir.

1970 yillarda, yosh otalarni turli xildagi kurslarga jalb qilishga harakat qilishganda, otalikka nisbatan alohida e'tibor berila boshladi. O'sha vaqtlarda erkaklarga ortiq oila boquvchisi yoki farzandlarning otasi kabi munosabatda bo'lmasdan, balki ularni faol otalar deb hisoblashar edi. 1980 yillarda tug'ruq jarayonida otalarning qatnashishi yangilik bo'ldi. Otalarni bolalar maslahatxonalar va poliklinikalarga ham jalb qilishga harakat qilishardi.

Finlyandiyada otalar bolalarga qarash bo'yicha ta'til olish huquqiga 1978 yildayoq ega bo'ldilar. Ushbu yangilik 10 yil davom etgan munozaralardan keyin yuzaga keldi va ikki jinsning yangi mafkurasini rivojlantirishga turtki bo'ldi. 1985 yilda onalar nafaqasi, uning bir qismini onaning roziligi bo'yicha ota ham olishi mumkin bo'lgan ota-onalar nafaqasiga almashtirildi. 1990 yillarda butun ota-onalar nafaqalari tizimi o'z mazmuni jihatidan o'zgarishlarni boshdan kechirdi va otalar foydasiga o'zgartirildi. Otalar uchun olti

ish kuni davomida to'lanadigan «o'z» ota-ona nafaqasi to'g'risidagi qonun 1991 yilning boshida kuchga kirdi. 1993 yildagi og'ir iqtisodiy inqiroz vaqtida, otalik nafaqasini to'lash muddatlari qisqartirildi, biroq farzand tug'ilgani uchun otalik ta'tilidan foydalanish endilikda otalik nafaqasini to'lash muddatlarini qisqartirmas edi. 1997 yildan boshlab, otalik ta'tilidan foydalanish faqatgina farzand tug'ilgan vaqtdagina emas, balki istalgan boshqa vaqtda ham mumkin bo'lib qoldi.

Finlyandiyada ota-onalar nafaqasi 263 ish kuni davomida to'lanib boriladi. Ilk 105 ish kuni uchun nafaqani bolaning onasi oladi. Ushbu davr dekret ta'tili deb ataladi. Keyingi 158 kun ota-onalar ta'tilini tashkil etadi va uning davomida nafaqa bolaning yo onasiga, yo otasiga to'lanadi.

Bundan tashqari ota, bolaga qarash nafaqasini ko'pi bilan 54 ish kuni davomida olishi mumkin. Ushbu davr bolaga qarash uchun otalar ta'tili deb ataladi va bolaning 2 yoshga to'lganiga qadar undan foydalanish mumkin. Bolaning onasi bilan bir vaqtda 3 haftadan ortiq ta'til o'tkazib bo'lmaydi. Odatda bu bola tug'ilganidan keyin darhol o'tadi.

Bolaga qarash bo'yicha ta'tildan foydalanuvchi erkaklarning soni asta-sekin o'sib borishni davom etmoqda. Ta'tilning uch haftalik qismidan erkaklarning deyarli 80 foizi, to'liq ta'tildan esa uchdan bir qismi foydalanmoqda. Ota-onalar o'rtasida bolaga qarash bo'yicha ota-onalar ta'tilini yangi, yanada radikal qayta taqsimlanishi Finlyandiyada to'xtamayotgan munozaralar mavzusi bo'lib qolmoqda.

Ta'til olish huquqidan asosan o'rta darajadagi daromadga ega erkaklar, ijtimoiy, hamda sog'likni saqlash va ta'lim sohalaridagi, ishlab chiqarish va sanoatda mashg'ul bo'lgan mutaxassislar foydalanishadi. Xususiyl sektorida mehnat qiluvchi erkaklar, davlat sektoridagilarga nisbatan qisqaroq ta'til olganlar. Ta'tildan foydalanish ijtimoiy va sog'likni saqlash sohasining xodimlari, shuningdek qishloq xo'jaligi ishchilari orasida eng ko'p tarqalgan.

Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, to'lanadigan nafaqalarning miqdori daromad nuqtai nazaridan yetarli darajada emasligi, shuningdek, ta'tilning mehnat karyerasiga salbiy ta'sir qilishi erkaklarning uzoq muddatli ta'tildan har doim ham

foydalanmasliklarining asosiy sabablari edi. Ushbu sabablar otalarning o'zleri tomonidan ta'kidlangan.

Men Paavo Lipponenning hukumatida adliya vaziri bo'lib xizmat qilgan vaqtimda (Paavo Lipponenning o'zi ham Finlyandiya bosh vaziri bo'lgan vaqtda bolaga qarash ta'tilidan foydalangan), ushbu imkoniyatdan ikki bora foydalanishdan baxtli edim. Men ikkala qizim tug'ilganidan keyin bir haftalik ta'tilda bo'lganman. Qolgan 18 kunni, bolaga qarash nuqtai nazaridan yozgi ta'til bilan birlashtirish bizning holatimizda maqsadga muvofiqroq edi. Men o'z ishimga hech qanday salbiy ta'sirni sezmadim. Lekin, shu jumladan ota-onalar tenghuquqligiga yetishish nuqtai nazaridan ham ijobiy taassurotlar yetarli edi.

**Yoxannes Koskinen,**

*1999-2005 yillarda Adliya vaziri,*

*2011 yildan hozirgi kunga qadar Konstitutsiyaviy qonunchilik*

*Qo'mitasining raisi,*

*2015 yildan hozirgi kunga qadar Yevropa rivojlanish va taraqqiyot  
banking boshqaruvi a'zosi*

## **72. ONALIK PAKETI**

Fin onalik paketi o'zida muhim ijtimoiy innovatsiyani namoyish etadi va haligacha ham miqdor va tarkibi jihatidan o'ziga xosligini saqlab kelmoqda. Boshqa ko'pgina mamlakatlar ham onalar uchun kiyim-kechak to'plamlarini berish amaliyotidan foydalaniladi, lekin ular odatda alohida kiyimlardan iborat bo'ladi. 1990 yillarda Avstriyaning Vena shahri okrugida, onalarga ichida bir necha kiyim va juda ko'p reklama materiallaridan iborat bo'lgan to'plamlar berishni boshladilar. Sloveniyada ham Finlyandiyaning o'rnagi bo'yicha onalik paketi shakllantirildi, lekin u o'z prototipidek u darajada keng va turli-tuman emas. Xuddi shunday yangilik Lotin Amerikasida ham, masalan Urugvayda kiritildi.

Finlyandiya ijtimoiy masalalari vazirligining katta shifokori Raakel Yalas (Raakel Jalas), fin onalik paketining otasi sifatida shubhasiz tan olinadi. 1937 yilga kelib, ayni shu vaqtda Finlyandiya ushbu ijtimoiy xizmatning amalga oshirilishi

boshlangan va o'sha vaqtda uni faqatgina kam ta'minlangan oilalar olishi mumkin bo'lgan, onalarga farzand tug'ilganda yordam berish g'oyasi o'z-o'zidan yangilik emas edi. Moddiy yordam boshqa mamlakatlarda ham berilar, shu jumladan Finlyandiyada ham farzand tug'ilganda har doim yordamning pullik shaklini tanlash (hech bo'lmasa tamoyil bo'yicha) mumkin edi. 1940 yillarda yuzaga kelgan qiyin iqtisodiy ahvol va uning davomida deyarli barcha tovarlarning kamyob bo'lib qolganligi, ularning ba'zilarini hattoki katta pul evaziga ham topishga imkoniyatning yo'qligi, farzand tug'ilganda onalik paketi shaklida yordam berishning rivojlanishiga turtki bo'ldi. O'sha paytda «Davlatning fin onalariga sovg'asi» ayni muddao bo'ldi.

Boshlang'ich yillarda ijtimoiy yordam berish bo'yicha munitsipalitet komissiyalari, ariza beruvchiga bola tug'ilishi sababli onalik paketini qanday shaklda berishga qaror qilardilar. Onalik paketlarining uchta turi mavjud edi. Birinchisi ham ona, ham bola uchun mo'ljallangan tovarlarni, ikkinchisi faqat bola uchun tovarlarni (shu jumladan kindik bandaji va konvert-adyol) va uchinchisi faqatgina ona uchun mo'ljallangan tovarlarni, misol uchun ko'rpa-to'shak qoplamalari, sochiqlar va tikuvchilik to'plamini o'z ichiga olar edi. Inqirozli yillarda onalik paketi ichiga ko'pgina qog'oz mahsulotlari kirar edi. Onalik paketlari uchun kiyim-kechak xayr-ehson hisobidan, shu jumladan chet eldan, misol uchun ko'rpa-to'shak qoplamalari AQShdan kelar edi. Sovg'alar hattoki Rim Papasidan ham fin chaqaloqlari uchun koftacha va kurtkacha ko'rinishida kelar edi.

1949 yilda onalik paketini olish huquqi, moliyaviy ahvolidan qat'iy nazar barcha ayollarga berildi. Onalik paketi huquqiga 1977 yildagina ega bo'lgan, ruhiy kasalliklar shifoxonalari yoki qamoqxonalarda bo'lgan vaqtlarida farzand ko'rgan ayollar bundan mustasno edi.

Avvaliga bolalar kiyimlarining barchasi trikotajdan tayyorlanar va kiyimlarni burma qilib tayyorlash odatiy hol edi. 1950 yillarda bolalar kiyimlari to'plamiga ichki kiyim va slayderlar qo'shildi. 1960 yillarda chepchik, spalnik va bir marotabali tagliklar yangilik bo'ldi. 1970 yillarda trikotajdan tikilgan kiyimlar o'rniga slayderlar va rangli paxmoq streychdan tikilgan kiyimlar keldi. O'sha paytgacha onalik

paketi ichiga kiruvchi bolalar kiyim-kechagi, onalarning o'zlari tomonidan bezak beriladigan va tikib chiqiladigan oq bo'yalmagan paxtadan tayyorlanar edi. 1980 yillarda onalik paketi ichiga paypoqlar, spalnik/kombinezon va tugmasiz yaktakcha kirdi. O'sha paytda onalik paketining rang-barangligiga e'tibor berishni boshladilar; ungacha har bir kiyimning sifatli qilib tayyorlanganligi yetarli edi. Oxirgi o'n yilliklar davomida tolstovkalar, kundalik kiyimlar, ko'p martalik tagliklar, bodi, kolgotkalar va qishki kombinezonlarni o'z ichiga olgan holda ko'pgina rasm bo'lgan yangiliklar paydo bo'ldi.

Onalik paketi har doim kiyim-kechakdan tashqari chaqaloqni parvarish qilish uchun yana boshqa narsalarni ham o'z ichiga olar edi. Ehtimol, hali vannaxonalar davrining kirib kelishidan avval, uning ichida bolalar cho'miltirilgan, yoki bolalarning kiyimlari yuvilgan, ko'pincha u ham, bu ham qilingan sirli tog'oralar odamlar uchun eng esda qolarli bo'lib qolgandir. Sirli tog'ora onalik paketi ichidan 1970 yillarda g'oyib bo'ldi. Oilani rejalashtirish va yuqumli kasalliklarning oldini olish maqsadida onalik paketlari ichiga qo'shilgan prezervativlar, o'z vaqtida jamiyatdagi munozaralarga sabab bo'ldi. Onalik paketini shakllantirish davomida otalar ham esdan chiqarilgani yo'q. Shuning uchun, o'z vaqtida «onalik paketi» nomini o'zgartirish ham taklif qilingan edi. 1980 yillardan boshlab, onalik paketidan foydalanish qo'llanmasi «Bizning farzandimiz bo'ladi» (avvaldagidek «Ona uchun» emas) deb nomlanadi.

1980 yillarda, onalik paketi bilan Ijtimoiy himoya bo'yicha milliy boshqarma shug'ullangan vaqtda, e'tibor umumiy estetikadan tashqari ko'proq bolaning ruhiy salomatligini qo'llab-quvvatlashga qaratila boshladi. Kitob bozorida eng kichiklar uchun mos keladigan rasmlı kitobchalar topilmaganidan so'ng, «Kichkintoyimiz uchun kitobcha» nomli kitobcha onalik paketi uchun alohida ravishda ishlab chiqildi. Onalik paketi ichiga sariq rangdagi gazlamadan tayyorlangan, uning bir tomonida jilmayib, ikkinchi tomonida esa xo'mrayib turgan chehra tasvirlangan shaqildoq ko'rinishidagi kichkintoyning birinchi o'yinchog'i ham kiritilgan edi. Kitobcha ham, shaqildoq ham uzoq vaqt davomida kichkintoylar uchun eng sevimli o'yinchoq bo'lib qoldi.

Defitsit vaqtlari faqatgina xotira bo'lib qolganiga qaramay, onalik paketi o'z ahamiyatini yo'qotmadi. Ayniqsa uni ilk farzandini kutayotgan oilalar qadrlashadi, chunki uning ichiga bolani parvarish qilishdagi eng muhim narsalar kiritilgan. Hattoki onalik paketi solingan quti ham uzoq vaqt davomida chaqaloqning birinchi karavotchasi sifatida qo'llanilishi mumkin va uzoq vaqt davomida ko'pgina oilalarda undan narsalarni saqlashda foydalaniladi. Ilk farzandi dunyoga kelgan oilalarning juda ko'pchilik qismi moddiy yordamni emas, balki aynan onalik paketini tanlaydilar. Do'konda bunday katta to'plamni bu pullarga hech qachon xarid qilib bo'lmaydi. Onalik paketi konsepsiyasi, avvalambor ota-onalarning fikr va xohishlariga asosan muntazam ravishda rivojlanib bormoqda.

Onalik paketi fin jamiyatining rivojlanishida burilish nuqtasi ahamiyatiga ega edi. Homiladorlikning to'rtinchi oyining yakuniga qadar poliklinika yoki ayollar maslahatxonasidagi shifokorning qabulida bo'lish, onalik paketini olish sharti bo'lib xizmat qiladi. Amalda barcha homilador ayollar sog'likni saqlash xizmatlarining kuzatuv ostiga tushadi. 1950 yildan boshlab onalar va bolalarning o'lim ko'rsatkichlari shu darajada tushib ketdiki, natijada Finlyandiya ko'pgina yillar davomida ushbu ko'rsatkich bo'yicha dunyodagi yetakchilar uchligi ichidadir. Onalik paketining jozibadorligisiz bunga yetishish amrimahol bo'lar edi.

**Sirpa Taskinen,**

*Falsafa fanlari doktori, Finlyandiyaning ijtimoiy va sog'likni saqlash sohalarini tadqiq qilish va rivojlantirish Milliy markazining (Stakes) faxrli bo'lim boshlig'i*

## **73. MAKTABDAGI BEPUL OVQATLANISH**

Finlyandiya davlatidagi boshlang'ich o'rta maktab, hamda gimnaziya va kasb-hunar ta'lim muassasalarining o'quvchilari o'quv kuni vaqtida tushlikka issiq ovqat olish imkoniga ega. Ushbu an'ana chuqur ildizlarga ega – u yuz yildan ko'proq oldin qonun tomonidan belgilangandir. Hozirgi kunda maktab tushliklari ta'lim dasturi va o'quvchilarga g'amxo'rlik qilishning asosiy tamoyillaridan biridir.



Maktab tushliklarining o'quv jarayonidagi ahamiyati XVII asrda, qishloq hududida ta'lim olayotgan o'g'il bolalarga oziq-ovqat mahsulotlari to'plami bilan yordam berilgan davrlarda qayd etildi. Lotin tilini o'rganish vaqtida ham tushliklarga ahamiyat berilgan. Issiq ovqat masalasi 1896 yildagi Xalq maktablari yig'ilishida ilk bora rasmiy ravishda taqdim qilindi. Maktab tushliklari 1913 yilda davlat tomonidan moliyalashtirildi.

1930 yillarda yangi qonun tayyorlandi. Maktab kengashining «O'quvchilarning ovqatlanish masalalari» nashriyotida esa maktab tushliklarining kerakligiga hech kimning shubhasi yo'q edi. 1943 yilda Finlyandiyada, dunyoda birinchi bo'lib o'quvchilar uchun maktab tushliklarini kafolatlaydigan qonun qabul qilindi. O'quvchilar dars soatlaridan tashqari, maktab oshxonasi uchun mahsulotlarni yetishtirish va yig'ishtirish bo'yicha ma'lum miqdordagi soatlarni ishlab berishlari kerak edi. Besh yil davomida xalq maktablarining barcha o'quvchilari, maktab tushliklarini har kuni olishlari kerakligi bo'yicha maqsad qo'yilgan edi. 1948 yildan boshlab, barcha maktab yoshidagi o'quvchilar uchun bepul ovqatlanish berilishni boshladi.

Hozirgi kunda har kuni 900 000ga yaqin bola bepul maktab tushligi oladi. XX asrda qonunchilik bir necha bor o'zgartirildi va ushbu an'ananing shakllanishida o'z o'rniga ega bo'ldi. Maktab tushliklari va alohida parhezga ehtiyoji bor o'quvchilarning salomatligiga bo'lgan e'tibor, o'quvchilar va ularning farovonligi to'g'risidagi g'amxo'rlikning bir qismidir.

Maktabdagi ovqatlanish tizimi o'quvchilar tomonidan har o'qish kunida bepul va mutanosib tarzda tayyorlangan issiq ovqatni olishlarini kafolatlaydi va shu tarzda o'quvchilar salomatligi va butun maktab kollektivining farovonligi to'g'risida g'amxo'rlik qiladi. Maktabdagi ovqatlanish va alohida parhezdagi o'quvchilarning salomatligini nazorat qilish, o'quvchilarning salomatligi va farovonligi bo'yicha g'amxo'rlikning ajralmas qismidir.

Maktabdagi ovqatlanish turli xilda va muvozanatlashtirilgan bo'ladi. Maktabdagi ovqatlanish turini tanlashda o'quvchilarning yoshi, salomatligi, bo'yi va rivojlanishi e'tiborga olinadi. Tushlik to'liq va ovqatlanishning barcha ehtiyojlariga javob beradi, hamda kun davomidagi qo'shimcha quvvat manbaiga aylanadi. Ovqat

tanlovida sog'lom, foydali, turli-tuman va mazali taomlarga, shuningdek qulay va ozoda xonalar va tinch muhitga alohida e'tibor beriladi. O'quvchilarning o'zlari ham tushlik tayyorlashda ishtirok etishlari mumkin. Masalan, kichik sinfdagi o'quvchilarga yordam berish vaqtida yoki amaliyot davomidagi xodimlarning mehnati bilan tanishish paytida. O'quvchilarning tushlikni tayyorlashdagi ishtiroki, maktab tushliklarining ahamiyatini saqlash davomida e'tiborga loyiq.

Maktab tushliklari fin pazandachilik madaniyatining ajralmas bir bo'lagidir. Maktab tushliklari odatda an'anaviy fin taomlarini o'z ichiga oladi. Maktab tushligi issiq taom, salat, qiymalangan yangi sabzavot yoki meva, yog' surtilgan non va ichimlikdan tashkil topgan. Menyuni tayyorlash davomida milliy, mavsumiy va mahalliy mahsulotlar e'tiborga olinadi. Menu o'quvchilar va maktab xodimlari bilan birgalikda ishlab chiqiladi. Tematik kunlar tashkil qilinadi, fin bayramlari vaqtidagi menyularda o'sha davrlarga xos bo'lgan taomlarni e'tiborga olishga harakat qilinadi. Turli xil madaniyatlarning oshxonalari ham esdan chiqarilmaydi. Agarda bolalar erta tongdan maktab tadbirlariga yoki uzaytirilgan kunlik guruhlariga qatnashsalar, ularga yengil nonushtalar ham taklif qilinadi.

Maktab tushligi maktabdagi ta'lim-tarbiya ishlarining ham ahamiyatli qismidir. Ertagi davrlarda shakllangan ovqatlanish odatlari, hayotning oxiriga qadar sog'likka ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkindir. XXI asrning boshlarida, bolalardagi ortiqcha vaznga alohida e'tibor qaratila boshlandi. Ushbu tendentsiyani to'xtatish zarur, bu muammoga maorif va maktab tomonidan qabul qilinadigan qarorlar orqali ta'sir o'tkazish mumkindir. Kun tartibi, ovqatlanish va harakatlardan bir-birlari bilan uyg'unlikda foydalanish zarur va shu yo'l orqali maktabdagi bolalar, ta'lim jarayoni, hamda umuman olganda fin bolalarining kundalik hayotlarining farovonligiga ko'maklashish mumkin. Maktabdagi bepul ovqatlanish ta'lim tizimidagi yutuqlarning ayniqsa eng muhim shartlaridan biridir.

**Kirsi Lindroos,**

*2003-2007 yillarda Finlyandiyaning maorif masalalari bo'yicha  
milliy kengashining Bosh direktori*

## 74. URUSH NOGIRONLARIGA G'AMXO'RLIK QILISH

Aholisining umumiy soni 4 million bo'lgan Finlyandiyada, Ikkinchi jahon urushidan keyin 100 mingga yaqin urush nogironlari mavjud edi. 1939-1945 yillardagi urushlar davomida 200 mingga yaqin inson yaralangan edi. Ulardan 96 ming nafariga, urush harakatlari davomida olingan jarohat va majruhliklar to'g'risidagi qonunga asosan, urush harakatlari natijasidagi yetkazilgan umrbod jarohatlar uchun tovon puli to'lab berildi.

Birinchi o'rinda davlat hukumati jang maydonlarida halok bo'lgan o'sha 94 mingta askarning qarindosh va yaqinlariga ko'maklashishi, Sovet Ittifoqiga boy berilgan hududlardan ko'chishga majbur bo'lgan o'sha 500 ming nafar ko'chmanchilarni joylashtirishi, hamda reparatsiyalarni to'lashi kerak edi. Urush nogironlariga g'amxo'rlik qilish ikkinchi darajali edi. Urush nogironlarini davolash va reabilitatsiya qilish ikkinchi o'rinda qoldi. O'sha vaqtda yuzaga kelgan ehtiyojlar, kasalxona va poliklinika muassasalari tarmog'ining imkoniyatlaridan bir necha barobar ko'p edi.

Sovet Ittifoqining 1944 yilning sentyabr oyida tuzilgan tinchlik shartnomasidagi qo'yilgan talablari ayniqsa juda og'ir edi. Hukumat kelajakdagi ro'y berishi mumkin bo'lgan okkupatsiya va boshqa bosimdan qutilish maqsadida, sobiq dushmanning istagi bo'yicha o'rnatilgan talablarni aniq bajarishi kerak edi. Ushbu siyosiy va iqtisodiy ahvolda davlatning urush nogironlariga g'amxo'rlik qilish bo'yicha imkoniyatlari deyarli yo'q edi. 1940 yilda Urush nogironlari birodarligi tashkil qilindi va u ittifoqqa a'zo bo'lganlarga yordam berish vazifasini o'z zimmasiga oldi. Buning uchun tegishli qonunchilik kerak edi. Parvarish, reabilitatsiya va dispanserizatsiya qilish tizimlarini qaytadan tashkil qilish lozim edi. Buning uchun kerakli muassasalarni yaratish yoki xarid qilish kerak edi.

Ularning faoliyati va qurilishini yig'im va ehsonlar yoki o'zlari ishlab chiqargan mahsulotlar hisobidan moliyalashtirish kerak edi.

Urush nogironlari birodarligi, davlatning kelajakda kasalxona faoliyati bilan bog'liq harajatlarning bir qismini to'lash majburiyatini o'z zimmasiga olishi bo'yicha va'dasini olgan holda, og'ir yaradorlar

uchun kasalxonani qurish va moliyalashtirish vazifasini o'z zimasiga oldi. Kaunila shahridagi shifoxona 1946 yilda o'z faoliyatini boshladi va hozirgi kunga qadar ham Ittifoq va Vantaa shahrining moliyaviy ko'maklashishi tufayli faoliyat yuritmoqda.

Finlyandiya tashkil qilingan va qonunchilik bilan mustahkamlangan urush nogironlarini davolash va reabilitatsiya qilish tizimi xalqaro miqyosda qadrlanadi. Hali qonunchilik tomonidan tasdiqlanmay (Urush nogironlari to'g'risidagi qonun 1948 yilda qabul qilingan) turib, o'z a'zolariga g'amxo'rlik qilish faoliyatini tashkilotning o'zi rejalashtirganligi, boshlaganligi va qisman moliyalashtirganligi, shuningdek ushbu faoliyatning hanuzgacha ham to'xtamasdan davom etayotganligi yagona bo'lgan holatdir. Urush nogironlariga g'amxo'rlik qilish siyosati, ko'p ma'noda fin ijtimoiy siyosatining o'tmishdoshi bo'lib qoldi.

Finlar Qish urushi (1939-1940), Davom urushi (1941-1944) va Laplandiya urushini (1944-1945) himoya tariqasidagi urushlar deb hisoblaydilar, shuning uchun ham bu urushlarning qurbonlarini hurmat qiladilar va ularga ehtirom ko'rsatadilar. Finlyandiya dagi nogironlarning ahvoli Qish urushigacha juda yomon edi, lekin urush nogironlariga bo'lgan hamdardlik munosabati, urushda bo'lmagan nogiron fuqarolarga bo'lgan munosabatni ham o'zgartirdi. Ularga tegishli bo'lgan va nogironlarga g'amxo'rlik qilish to'g'risidagi qonun ham urushdan keyin (1948 yilda) qayta ko'rib chiqildi. Urush nogironlari birodarligining kashshoflik ishi, fin nogironlari tarixining eng muhim qismi bo'lib qoldi.

Birodarlik Qish urushidan keyin boshqa tashkilotlar bilan birgalikda urush nogironlari uchun kasb-hunarga qaytish va ularning malakasini oshirish kurslarini tashkil qildi, shuningdek ish topishga yordamlashar edi. Reabilitatsiya qilish va malaka oshirishdagi birodarlikning shiori bo'lib – “biz ishga qaytamiz, bo'shashish – bu zahar, bizning ishimiz keraklidir” degan gap xizmat qildi. Nogironlarning shifoxonadan boshlab to tuzalishlari va ish joylarigacha bo'lgan yo'llari, fin jamiyatidagi eng muhim omon qolish tarixidir. Bu urushdan keyingi davrda jamiyatimizning tiklanishi, ishchi kuchiga bo'lgan talab va o'sha paytdagi ijtimoiy sug'urtalashning past darajasi natijasida yuzaga kelgan mo'jiza edi. Avvallari og'ir jarohatli nogironlar ish joylariga faqatgina istisno

tariqasida olinar edi. Urush nogironlari boshqa odamlarning rahm-shafqatiga tayanishni istamadilar. Ular o'z harakatchanliklari tufayli, boshqa odamlar bilan teng ishlagan holda ayni yutuqlarga erishdilar. Urushdan keyingi yillarda ular hozirgi kundagi farovon davlatimizning asosini, jamiyatning qolgan a'zolari bilan birgalikda qurdilar.

Nogironlar birodarligi oddiy nogironlar, oddiy askarlar tomonidan tashkil qilindi. Lekin, ular marshal G.Mannergeym tomonidan sezilarli darajada qo'llab-quvvatlandilar. Yoshlar o'z ahvollari va kelajagining mo'rtligini his qilishar, lekin ularning barchasini jang maydonlarida vujudga kelgan birodarlik tuyg'usi birlashtirar edi.

Birodarlik jamiyati o'z a'zolariga turli xildagi xizmatlar ko'rsatar, faoliyatning yangi modellarini ishlab chiqish, hamda ularni amalga oshirish bilan shug'ullanar edi. Keyinchalik, ushbu faoliyatni olib borish bo'yicha qisman javobgarlik, boshidan boshlab ham ushbu masalalar bilan shug'ullanishi kerak bo'lgan davlatning zimmasiga yuklatildi. Faoliyatning rivojlanish yo'nalishi, hozirgi kundagi munitsipalitetlarning aholiga ijtimoiy va tibbiy xizmat ko'rsatish vakolatlarini jamoat tashkilotlari va xususiy firmalarga berayotgan vaqtidagi «uchinchi sektor»ning faoliyatiga nisbatan teskarisi edi.

Davlatda nogironlarning uzoq muddatli parvarish qilinishi bo'yicha rejalar bo'lmagan vaqtda, Birodarlikning o'zi ushbu muammoga yechim topishga majbur bo'ldi. Kauniladagi shifoxona tayanch-harakat tizimi bo'yicha nogironlar uchun maxsus tashkil qilingan edi. Shuningdek, bosh miyasi shikastlangan nogironlar uchun ikkita shifoxona va urush davrida sil kasalligini boshidan kechirgan urush faxriylari uchun professional reabilitatsiya markazi tashkil qilingan edi. Birodarlik 1950 yillarda, tanasining biror-bir a'zosi kesib tashlanganlar uchun o'z reabilitatsiya markazini tashkil qildi. Protezlar yordamida harakat qilish va ulardan foydalanish, reabilitatsiya uslubiyatlarida keyinroq qo'llanildi. Hozirgi kunda ularning yordamida keksa yoshdagi nogironlarning harakat qilish va kundalik vazifalarini bajarish qobiliyatlariga yordam berilmoqda.

Birodarlikning faoliyatiga na siyosatdagi, na jamoatchilikdagi kelishmovchiliklar halaqit beraoldi. Birodarlikka siyosiy qarashlari yoki ijtimoiy kelib chiqishlaridan qat'iy nazar, barcha nogironlar

kirar edi. Keyinchalik, Birodarlik yengilroq jarohatlarga ega bo'lgan nogironlarni ham o'z a'zolari qatoriga olishni boshladi. Ular jiddiyroq jarohatlarga ega bo'lgan o'z birodarlariga yordam berishlari mumkin edi. Keyinroq, nogironlarning turmush o'rtoqlari va bevalari ham Birodarlikka a'zo bo'lib kirishi mumkin bo'ldi. Birodarlik hissi hozirgi kunga qadar ham kuchli bo'lib qolmoqda. Birodarlik o'rtoqlik kuchining ahamiyatini ta'kidlaydigan yagona tashkilotdir.

Finlyandiyada 2017 yil yanvar oyi holatiga 2,5 ming nafar urush nogironi bor edi. Ularning o'rtacha yoshi 93 yosh bo'lishiga qaramasdan, ularning 70 foizdan ko'p qismi haligacha ham o'z uylarida mustaqil hayot kechirmoqdalar. Birodarlikning hozirgi kundagi eng muhim vazifalari, uyda xizmat ko'rsatishni ta'minlash va zarurat tug'ilganda davolanishga tezkor ravishda yo'naltirishdir.

Hozirgi kunda Urush nogironlari Birodarligi uchinchi sektorning faol vakilidir. Birodarlik tomonidan alohida e'tibor nogironlar va ularning turmush o'rtoqlariga kundalik turmushda ko'maklashish, uylarida yordamlashishni tashkil qilish, hamda uy-joyni ta'mirlashga qaratilgan. Birodarlik yordamchilar topish loyihasi orqali, taxminan 2 mingta urush nogironlari va ularning turmush o'rtoqlari uchun uyda ko'maklashishni tashkil qiladi. Yordamchilar faxriylarni parvarish qilishda ko'maklashishar, hovlidagi ishlarni bajarishar, turli tashkilotlarda maishiy masalalarni hal etishda yordam berishar edi. Ijtimoiy aloqa ushbu faoliyatning muhim qismidir. Hozirgi kunda ushbu faoliyatga 250 nafarga yaqin ishsiz jalb qilingan.

**Velli-Matti Xuyttinen,**

*Kaunialadagi urush fahriylari  
shifoxonasining Faxrli direktori*

## **75. «ABILIS» JAMG'ARMASI**

«Abilis» jamg'armasi rivojlanayotgan mamlakatlardagi nogironlar va ularning tashkilotlariga ko'maklashadi. Jamiyatning o'z-o'zidan hayron qolishga arzigulik tomoni yo'qdir, lekin uning faoliyati bilan yaqinroq tanishilsa, uning boshqalardan naqadar farqli ekanligi ayon bo'ladi.

1970 yillarning boshlarida, talabalar tomonidan mening ishtirokimda «Kynns ry» nomli nogironlarning huquqlari himoya qilish tashkiloti tashkil qilingan edi. Uning tashkil bo'lishi bilan deyarli bir vaqtda, men nogiron talabalar va ularning manfaatlarini himoya qiluvchi harakat bilan tanishish uchun Amerikaga ketdim. Ushbu tajriba menga juda qattiq ta'sir qildi: men imkoniyatlari chegaralangan insonlarning o'zlari bilan faxrlanishlari va nogironliklaridan uyalmasliklarini ko'rdim. Men uchun bu juda kuchli quvvat manbai bo'lib qoldi. Shuning uchun ham men xalqaro faoliyatni, mahalliy miqyosdagi amaliy faoliyat qatorida doimo juda muhim deb hisoblayman.

1980 yilda Xalqaro nogironlar tashkiloti (Disabled People's International) tashkil qilindi va men uning faoliyatida faol qatnashdim. Men 1990 yilda jamiyat raisining o'rinbosari etib saylandim, 1994 yilda esa raisi etib saylandim. Men ko'pgina mamlakatlarga bordim va shunday tashkilotlar bilan tanishdim.

Xalqaro hamkorlik bilan shug'ullanuvchi fin nogironlari tashkilotlari birlashdilar va «Fidida» Nogironlar hamkorligini rivojlantirish tashkilotini tashkil qildilar. Tashkilotning o'zi va uning tarkibiga kiruvchi tashkilotlar tomonidan, nogironlarga ko'maklashuvchi loyihalar ishlab chiqilar va amalga oshiriladi edi.

Finlyandiya hukumat tashkilotlarning loyihalarini Tashqi ishlar vazirligi orqali tasdiqlangan harajatlarning 80 foizini (hozirgi kunda nogironlarga ko'maklashish loyihalari harajatlarining 92,5 foizi) to'lab berish yo'li bilan qo'llab-quvvatlar edi. Tizim yaxshi edi, lekin juda sust va samarasiz edi. Men rivojlanayotgan mamlakatlardagi nogironlar jamiyatlarining, boshlang'ich bosqichda «Kynns ry» kabi moliyaviy qiyinchiliklar bilan qanday kurashganliklarini kuzatdim. «Kynns ry» jamiyatining birinchi byudjetining miqdori 30, ikkinchisniki esa 300 fin markasi edi. Kichik pul miqdorlari ham muhim o'rin tutishi mumkin. Men nobop vaqtda va juda oson olingan pullarning bir necha tashkilotlarni barbod qilganining guvohi bo'lganman. Yevropa tashkilotlari rivojlanayotgan mamlakatlarga pul to'la xaltalar bilan kelishar, ketishar va ulardan keyin mavjudliklaridan iz ham qolmas edi. Faqatgina korrupsiya qolar.

1990 yillarning o'rtalarida, Pertti Paasio xalqaro sohadagi hamkorlikning ahvoli bo'yicha tadqiqot olib bordi va tadqiqotning tavsiyalaridan biri bo'lib, moliyalashtirishning yangi manbalarini ochish xizmat qildi. Ushbu g'oya meni qiziqtirib qoldi, men avvallari ham nogironlar jamiyatlari faoliyatlarini qanday yanada samaraliroq tashkil qilish mumkinligi to'g'risida bosh qotirar edim. Men tashkilotlarga to'g'ridan-to'g'ri ko'maklashadigan va moliyalashtirishni Tashqi ishlar vazirligidan oladigan jamg'arma tashkil qilish g'oyasini ishlab chiqdim. O'sha vaqtda rivojlanayotgan mamlakatlar bilan hamkorlik qilish bo'yicha vazir Pekka Xaavisto javobgar edi. U fikrni ma'qullaganidan so'ng, men uning o'rinbosari bo'lgan Kirsti Lintonen bilan uchrashdim va u menga: «Quloq sol, Kalle, agarda sen bunday jamg'arma tashkil qilsang, TIV uni qo'llaydi, faqat jamg'armaning ustav fondini o'zing topishing kerak» - deb aytdi.

Pullar qanday topilgani haqida bu yerda so'zlashni xohlamayman. Ammo bu narsa ko'p vaqt, quvvat, do'stlarim va men bilan do'stona bo'lgan tashkilotlar bilan uchrashishlarimni talab qildi. Pullar topildi, «Abilis» jamg'armasi esa 1998 yilda tashkil qilindi.

«Abilis» jamg'armasi xususiy mablag'lar hisobidan tashkil qilingan edi. Uning boshqaruviga asosan nogironlar tashkilotlarining faollari bo'lgan nogironlarning o'zlari kiradi. Imkoniyatlari cheklangan insonlarga nogironlarning o'zlari tomonidan yordam berilishi, jamg'arma faoliyatining asosiy ma'nosini tashkil qiladi. Tashkiliy-huquqiy shakl sifatida jamg'arma shakli afzal ko'rildi, chunki unga hech kim egalik qilolmaydi va mablag'lardan faqatgina ustavda ko'rsatilgan maqsadlar uchungina foydalanish mumkin. Nodemokratik deb tuyulishi mumkin bo'lgan ushbu tizim, jamg'arma faoliyatining rivojlanayotgan mamlakatlar nogironlariga ko'maklashishining kafolatidir. Jamg'arma o'z faoliyatida ulardan eng asosiysi, rivojlanayotgan mamlakatlarda nogironlarning muammolari bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarga oz miqdorda moliyaviy yordam berish bo'lgan ma'lum bir mezonlarga amal qiladi. Moliyaviy yordamning miqdori ko'pi bilan 10000 yevroni tashkil qiladi. Yanada kattaroq mablag'lar faoliyatlarini bizga tanish bo'lgan va yirik loyihalarni amalga oshirish uchun



imkoniyatlari mavjud tashkilotlarga to'lanadi. Odatda, biz bir marotabalik mablag'lar to'laymiz. Ayollar faoliyati, inson huquqlarini yaxshilash, turli xildagi ta'lim kurslarini olib borish, hamda daromad keltiruvchi loyihalarni amalga oshirish faoliyatlarini afzal ko'ramiz.

Jamg'arma juda oddiy harakat qiladi: rivojlanayotgan mamlakatdagi nogironlar tashkiloti jamg'arma bilan aloqaga chiqadi, moliyalashtirishni olish uchun so'rovnoma oladi, uni to'ldiradi va «Abilis» jamg'armasiga yuboradi. Jamg'arma arizaning firibgarlik emasligini tekshirib chiqadi. Boshqaruv devonxonaning taklifiga binoan ijobiy qaror qabul qiladi va loyihaning moliyalashtirilishi boshlanadi. Avvaliga loyihaga mablag'ning 50 foizi ajratiladi, birinchi oraliq hisobotidan keyin yana 40 foizi, qolgan 10 foizi esa yakuniy hisobot berilganidan so'ng to'lab beriladi.

Hammasi osondek tuyuladi, lekin so'rovchilarning eng past darajada faoliyat yurituvchi tashkilotlar ekanligini hisobga oladigan bo'lsak, ba'zi bir qiyinchiliklarga duch kelish mumkin. Tajriba va ma'lumotning yo'qligi, rivojlanmagan infratuzilmalar bilan bir qatorda loyihani amalga oshirishda qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin. «Abilis» jamg'armasi do'stona grant beruvchidir va biz tashkilotlarga byurokratik masalalarni hal etishda ko'maklashishga harakat qilamiz. Bizning qo'llanma va eslatmalarimiz ko'pgina tillarga tarjima qilib bo'lingan.

Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, ko'rsatilgan yordam belgilangan obyektlarga, muayyan tadbirlarga yetib bordi. Bizning mablag'larimiz yosh nogiron ayollar uchun ikkita sigir xarid qilishga, uncha katta bo'lmagan qishloqdagi kichik tovuqxonaga, inson huquqlari bo'yicha kurslar o'tkazishga, internet-kafe va yana ko'pgina boshqa narsalarga harajat qilindi. Bularning barchasi alohida nogironlar va ularga vakillik qiluvchi tashkilotlar uchun ahamiyatlidir. Bizning siyosatimiz bo'yicha, biz faqatgina nogironlarning o'zlari aralashgan loyihalarni moliyalashtiramiz. Shubhasiz, ko'p sonli boshqa tashkilotlarning, nogironlarga ko'maklashishga yo'naltirilgan loyihalari ham mavjuddir, lekin ular loyihani rejalashtirish va amalga oshirishda qatnashmaydilar.

2016 yildagi davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash 2,75 million yevroni tashkil qildi va bir yil oldin uning miqdori 2,9 million yevroni tashkil qilardi. Kelgusi yillardagi byudjet va moliyalashtirish katta

gumon ostidadir. Kelgusi yillardagi moliyalashtirishning noaniqligiga, fin hukumati tomonidan rivojlanayotgan mamlakatlarga ko'maklashish bo'yicha ajratiladigan mablag'larning qisqarishi, hamda rivojlanayotgan mamlakatlarga berilayotgan yordamga nisbatan jamiyatda o'sib borayotgan tanqidlar sababchi bo'lmoqda.

«Abilis» moliyalashtirishning qisqarishiga qaramay o'z faol faoliyatini davom etmoqda, har yili 250tacha loyihani moliyalashtirmoqda va shu jumladan Finlyandiyaning tashqarisida ham moliyalashtirish manbalarini izlash bilan shug'ullanmoqda. Moliyalashtirishning eng ko'p qismi Efiopiya, Tanzaniya, Uganda kabi Afrika mamlakatlari, shuningdek Nepal, Kirg'iziston, Tojikiston va Vyetnam kabi Osiyo mamlakatlaridagi loyihalarga ajratilmoqda. Oxirgi yillarda «Abilis» Myanma, Ukraina va Somali kabi qiyin zamonlarni boshidan kechirayotgan mamlakatlarga muvaffaqiyatli ravishda yordam yuborgan edi.

Ushbu mamlakatlardagi bizning ishonchli hamkorlarimiz, moliyalashtirish bo'yicha arizaning ortida kim turganligi va loyihalarni amalga oshirishni kim nazorat qilayotganligini tekshiradilar. Mablag'larni maqsadga muvofiq ishlatmaslik holatlari juda ham kam uchraydi. Ayni vaqtda biz loyihalarning aniq natijalari bo'yicha ko'proq ma'lumotlarga ega bo'lmoqdamiz. Loyiha qatnashchilarining amaliy imkoniyatlarining kuchayishi va jamiyat a'zolari o'rtasidagi nogironlarga bo'lgan munosabatning o'zgarishi, «Abilis» tomonidan moliyalashtirilayotgan loyihalarning alohida natijalaridan eng kattasidir. Avvallari jamiyat tomonidan rad etilgan nogironlar, endilikda o'z joylaridagi rivojlanish jarayonlarida boshqalar bilan bir qatorda qatnashish va ularga ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Har yili 20 mingtadan ortiq nogironlar faoliyatda qatnashish, ta'lim olish, o'z ahvolini yaxshilash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ularning ko'pchilik qismi ish joyi va daromad olishga ega bo'ladi. Bu kambag'allik sharoitlarida bo'lganlar uchun birinchi o'rindagi vazifadir. Shuningdek, nogironligi bor insonni, o'z uyiga pul olib kelishga qodir bo'lganida qanday qadrlanishlaridir.

**Kalle Kyonkkyoia,**

*«Abilis» jamg'armasining raisi,  
1983-1986 yillarda Parlament deputati*

## **76. YAQINLARGA G'AMXO'RLIK QILISH UCHUN NAFAQA**

O'z yaqinlari va tug'ishganlarini davolash va ularga g'amxo'rlik qilishni ta'minlashda, yaqinlar va qarindoshlar doimo muhim o'rin tutganlar. Jamiyat avvallari to'liq oila va qarindoshlar zimmasida yotgan majburiyatlarni o'z javobgarligiga olgan bo'lsada, yaqinlarga parvarish qilishdagi qarindoshlarning ahamiyati hech ham kamaygani yo'q. Aksincha, odamlar zarur bo'lgan yordam va g'amxo'rlikning sezilarli qismini o'z yaqinlari va qarindoshlaridan oladilar. Ushbu norasmiy g'amxo'rlikda, uning insoniy bog'lanib qolish va unga aloqali tuyg'ular tufayli kuchli me'yoriy asos mavjuddir. Qarindoshning qarindoshga berayotgan yordami mutaxassislarning yordamidan tubdan farq qiladi: ajdodlar va jinslarning ichki madaniy me'yorlari g'amxo'rlikning bir qismi sifatidadir. Yaqinlariga g'amxo'rlik qilish, negizida his-tuyg'u va bog'lanib qolish orqali yaratilgan majburiyat yotgan, insonlar orasidagi alohida shaxsiy aloqalarga asoslanadi. Yaqin munosabatlar g'amxo'rlik qilishning eng muhim sababi va o'zgaras shartidir. Munosabatlar zaruriyat tufayli paydo bo'lmaydi, ular unga bog'liq bo'lmagan holda mavjud.

Oxirgi kunlarda uyda keksa, kasal yoki nogiron insonga g'amxo'rlik qiluvchi odamlar to'g'risida juda ko'p gapirilmoqda. Qarindoshlarga g'amxo'rlik qilishga insonlarni uyda parvarish qilish faoliyatiga ko'maklashish imkoniyati va harajatlar nuqtai nazaridan qaralganda, uyda parvarish qilish uydagi intensiv davolash, qariyalar yoki nogironlar uyiga jo'natish, yoki kasalxona yotog'idagi davolashning o'rniga kelish vaziyatlaridagi foydali tanlov sifatida qaralmoqda.

Yaqinlarga g'amxo'rlik qilish tizimi bo'yicha munozaralar 1980 yillarning boshlarida, keksa yoshdagilar va nogironlarga uyda qarashni qo'llab-quvvatlash to'g'risidagi qonun (Ijtimoiy himoya to'g'risidagi qonun 710/1982) tasdiqlangan vaqtda boshlandi. Yaqinlarga g'amxo'rlik qilish 1990 yillarda, iqtisodiy inqiroz sababli shifoxonalarda ham bemorlarga qarash qisqartirilgan va yaqinlarga uyda qarash qo'llab-quvvatlangan, hamda qariyalar uylarida yashash xizmatlari qo'shilgan vaqtda jamoat e'tiborining markaziga

tushib qoldi. Yaqinlarga g'amxo'rlik qilish bo'yicha nafaqa 1993 yildan boshlab, ijtimoiy xizmatlar to'g'risidagi qonun (710/1982) va yaqinlarga g'amxo'rlik qilish uchun nafaqa tayinlash to'g'risidagi farmoyishda (318/1993) ko'rsatib o'tilgan, qonunchilik tomonidan tasdiqlangan ijtimoiy xizmat bo'lmb qoldi. 2006 yilning boshida yaqinlarga g'amxo'rlik qilish to'g'risidagi qonun (937/2005) kuchga kirdi.

O'z yaqin kishisiga g'amxo'rlik qilishga ko'maklashish, o'z ichida parvarish qilish bo'yicha xizmatlar, gonorar va yaqin kishilar tomonidan olib boriladigan dam olish va g'amxo'rlik qilish xizmatlarini mujassam qilgan yagona to'plamdir. Gonorar parvarish qilish va yonida bo'lish zaruriyatining talab darajasidan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Gonorarning eng kam miqdori oyiga 393 yevroni tashkil qiladi. Agarda o'z yaqiniga g'amxo'rlik qiluvchi kishi, parvarishning o'ta og'ir bosqichi vaqtida ishini vaqtincha tashlashga majbur bo'lsa, u holda 784 yevroni tashkil etadi. O'z yaqinini parvarish qilayotgan kishida, bir oyda kamida ikki kun dam olish huquqi mavjud. Yaqin kishiga qarash kechayu-kunduz parvarishni talab qilganda, uni parvarish qiluvchi kishida bir oyda uch kun dam olish huquqi mavjuddir.

Yaqinlarga g'amxo'rlik qilish bo'yicha nafaqa, insonning susaygan harakat qilish qobiliyati, kasallik, jarohat yoki boshqa shunga o'xshash sabab tufayli qarov yoki parvarishga muhtoj bo'lgan, uning qarindoshlari yoki yaqin kishisi unga qarash va g'amxo'rlik qilish majburiyatini o'z zimmasiga olishga tayyor bo'lgan, uning sog'ligi va harakat qilish qobiliyatlari parvarish qilish talablariga javob beradigan, yaqinlarga qarash sog'likni saqlashning boshqa xizmatlari qatorida yaqinining o'zini yaxshi his qilishi va xavfsizligi uchun yetarli bo'lgan, parvarishga muhtoj bo'lgan yaqin kishi yashaydigan uyning sanitariya mezonlari va boshqa mezonlar bo'yicha uyda qarashga mos kelgan, to'lanayotgan nafaqaga esa bemorga foyda keltiruvchi sifatida qaralgan vaqtlarda beriladi.

O'z yaqinlariga g'amxo'rlik qilish faoliyatida ishtirok etuvchi odamlar soni, g'amxo'rlik qilish bo'yicha nafaqalarning sonidan ko'proqdir. Finlyandiyada o'z yaqinlariga g'amxo'rlik qiluvchi odamlarning sonini aniqlash juda mushkuldir, chunki bungan

tegishli bo'lgan ro'yxat yo'qdir. Dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, ularning soni 60 yoshdan oshganlar orasidagi 150 000 nafardan, to barcha yosh toifalari orasidagi 300 000 nafargacha o'zgarib turadi.

G'amxo'rlik qilish bo'yicha to'lanadigan nafaqa, butun xizmat ko'rsatish tizimiga qo'shimcha qiymatni ta'minlagan va keksa insonlarga g'amxo'rlik qilish tizimining bir qismi bo'lib qolgan 1980 yillarning muhim tizimli innovatsiyasi edi. Yaqin kishisiga g'amxo'rlik qilishni tashkillashtirish imkoniyatining ijtimoiy xizmat ko'rsatish bo'yicha rasmiy tizimga qo'shilishi, ham alohida shaxs, ham jamiyatga ularning huquq va majburiyatlarini qaytadan qurib chiqish orqali ta'sir ko'rsatadi.

O'z qarindoshlari va yaqinlariga g'amxo'rlik qilish, hozirgi kunda rivojlanish bo'yicha tadqiqotlar va ishlar mavzusidir va biz bundan behad hursandmiz. Turli xildagi loyihalar yordamida o'z yaqinlarini qo'llab-quvvatlayotgan oilalarga yakka tartibda ko'maklashishning turli xil uslubiyatlari ishlab chiqilmoqda. Yaqinlarga g'amxo'rlik qilishga ko'maklashishning xilma-xilligi munitsipalitetlar, tashkilotlar, cherkov qavmlari va xizmatlarni taklif qiluvchi xususiy firmalar o'rtasidagi keng ko'lamlik hamkorlikni anglatadi.

**Pyayvi Voutilaynen,**

*Ijtimoiy va sog'likni saqlash masalalari vazirligining Ijtimoiy  
masalalar bo'yicha maslahatchisi,*

*Reyya Xeynola, Keksalar bilan ishlash bo'yicha markaziy ittifoqning  
dasturi boshqaruvchisi*

## 77. KAMBAG'ALLIK BILAN KURASH

Finlyandiya uzoq vaqt davomida kambag'al va ajralib qolgan mamlakat edi. Aholining turmush darajasini ilk o'rganib chiqish, ya'ni 1830 yillarda Fin iqtisodiyot jamiyati tomonidan tayyorlangan hisobot, mamlakatning qit'a qismidagi barcha qishloq aholisining daraxt po'stlog'i bilan aralashtirilgan nonni iste'mol qilayotganini ko'rsatdi. Qashshoqlik Finlyandiyaning qishloq hududida yashovchi uchun butun umrlik taqdirni anglatar edi. Pekka Xaatanenning (Pekka Haatanen) ta'kidlaganidek: «Beshikdan gadoylikka, yoshlikdan yollanma ishchilikka, uylangandan so'ng uysiz va yersiz qashshoqlikka, keyin esa qarilik va kasallik yuki bilan yana cherkov eshigi tagiga. Xo'mraygan kun shu tariqa o'tdi».

Kambag'allarga g'amxo'rlik qilish ilk davrlarda cherkovning zimmasida edi. Cherkov qavmlari qashshoqlarga ko'maklashishni ta'minlash uchun, shu jumladan cherkov devorlari yoki minoralari tagida o'rnatilgan, odatda urush nogironlarini timsol qiluvchi yog'och haykalchalar yordamida pul yig'ishar edi. Qashshoqlarga g'amxo'rlik qilish munitsipalitetlar zimmasiga 1879 yilda o'tdi. Pul yig'ish uchun yasalgan yog'och haykalchalar, vaqt o'tgan sayin yo'q bo'lib ketishdi yoki yaroqsiz holga kelishdi va ulardan foydalanish to'xtatildi. Keyinchalik faqatgina bitta haykalchani topilgani, o'sha vaqtdagi jamiyatda bo'lgan munosabatlarga yaxshi ta'rif beradi.

Munitsipalitetlar o'z qashshoqlik bilan kurashish siyosatlarida o'rtacha kambag'allikka, ya'ni kam ta'minlangan odamlar va daromadga ega bo'lmagan kishilar, o'z hayot tarzlarini mahalliy aholining qolgan toifalari bilan bir qatorda qanday olib borishlariga ham e'tibor berishardi. Munitsipalitetlar XIX asr mobaynida va XX asrning boshlarida, kambag'al oilalar uchun sigirlarni olib berish yoki ijaraga berish orqali yordam berishar edi. Kambag'al oilalar jamoatga tegishli sigirlar yordamida, kishloq hududidagi odatiy hayot tarzini davom etish, fermerlik bo'yicha ko'nikma va bilimlarni olish, hattoki sariyog' va pishloq sotish orqali ozgina bo'lsa ham daromad olish imkoniyatiga ega bo'lardilar. Keyinchalik, qashshoqlik bilan kurashish siyosatining vositalari bo'lib, kichik

fermerchilik va yollanma ishchilar bozorining rivojlanishi xizmat qildi.

1970 yillarda va ayniqsa 1980 yillarda, Finlyandiya aholisining kambag'al qatlamlari uchun umumiy farovonlik davlati modelini qurish, bu tozalikka rioya qilish va sil kasalligi bilan kurashish uchun antibiotiklardan foydalanish singari bir xil ma'noga ega edi. Yashash darajasi butun jamiyatda ko'tarildi, lekin kam ta'minlanganlar yaxshi ta'minlanganlardan ko'ra ko'proq narsaga ega bo'ldilar: daromadlar o'rtasidagi farq ancha kamaydi. Daromadlarning umumiy taqsimlanishi va xizmatlarning hammaga tegishliligi, 1990 yillarning boshiga kelib kambag'allik muammosini butunlay bartaraf etdi. Kambag'allik faqatgina aholining marginal qatlamlarining muammosi bo'lib qoldi.

Kambag'allik bilan kurashishda ishsizlik, kasallik va keksalik kabi turli xildagi ijtimoiy xavf-xatarlardan ijtimoiy sug'urta qilishni keng ko'lamda rivojlantirishning boshlanishi, kambag'allikni bartaraf etishdagi ijtimoiy innovatsiya bo'lib xizmat qildi. Ikkinchi yechim sifatida, Amerikaning ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlarida yo'lga qo'yilgani singari, qayta taqsimlangan daromadlarning bir qismini faqatgina aholining kambag'al qatlamlariga yo'naltirish bo'lar edi.

Finlyandiyaning kambag'allikka qarshi kurashidagi ikkinchi muhim omil, bu gender tengligiga ko'maklashuvchi oilaviy siyosat va mehnat siyosatidir. Ota-onalar uchun imtiyozlar va ayniqsa, davlat maktabgacha ta'lim muassasalarining rivojlanishi, mehnat faoliyatiga ayollarning qatnashishiga ko'maklashishni ta'minladi. Onalarda ham to'liq ish kuni davomida mehnat qilish imkoniyatining paydo bo'lishi, Finlyandiyaning o'ziga xos xususiyati bo'lib qoldi. Kam ta'minlangan va bolalari bor oilalar ham, oilada bitta boquvchi o'rniga ikkitasi paydo bo'lganda kambag'allikdan qutulishga muvaffaq bo'ldilar.

Fin farovon davlati modelining kambag'allik bilan kurashish imkoniyatlari avvaliga 1990 yillarning boshlarida, yana bir bora 2008 yildan keyin qiyin sinovlardan o'tdi. Iqtisodiy tushkunlik ishsizlik darajasining nazoratsiz o'sishiga va fin aholisining katta qismining, daromadlari yashash darajasidan tushib ketganligi sababli ijtimoiy himoyaga murojaat qilishiga olib keldi. Ishsizlik

nafaqasi va asosiy ta'minot nafaqasini oluvchilar soni muntazam ortib bordi. Imtiyozlar qaysi bir ma'noda kamaytirilgan edi, lekin tizimning asosiy tabiati o'zgarmay qoldi. Kambag'allik bilan kurashda Finlyandiya avvalgidek umumiy ijtimoiy himoya tamoyiliga tayanadi.

Fin umumiy farovonlik davlati qashshoqlikning o'sishiga qarshi tura oldi. Qiyin hayotiy ahvollarda yordam berishdagi fin ijtimoiy ko'maklashish tizimi, boshqa mamlakatlar bilan taqqoslaganda yaxshi o'rinda turmoqda. 1990 yillardagi iqtisodiy tushkunlikdan keyin, bepul oziq-ovqat to'plamlari olish uchun navbatlar odatiy hayotning bir qismi bo'lib qoldi. Xalqaro iqtisodiy inqiroz tufayli ushbu navbatlar yana ko'paydi. Ushbu navbatlar ijtimoiy himoya tizimidagi bo'shliqlar, lekin ayni vaqtda uchinchi sektorning qashshoqlik muammosi bilan kurashishdagi faolligi to'g'risida bayon qiladi.

Finlyandiyada qashshoqlik bilan kurashish uchun, iqtisodiy tushkunlik yillaridagi qiyinchiliklarga ham dosh bera olgan kuchli qonunchilik asosi tashkil qilingan. 1990 yillarda, insonning asosiy erkinliklarining konstitutsiyaviy islohotlaridan keyin, Finlyandiya Konstitutsiyasining 19 paragrafida bunday deyilgan edi: «Insonga munosib hayot kechirish uchun yetarli mablag' topishga muvaffaq bo'lmaganlarning barchasi, majburiy ijtimoiy ta'minot va g'amxo'rlik olish huquqiga ega». Asosiy ta'minot nafaqalari Finlyandiyadagi juda kuchli inson huquqiga aylandi. Asosiy ta'minot nafaqalarini tayinlash bo'yicha mahalliy darajada qaror qabul qilish vakolatlari, 1980 yillarda nafaqa uchun mezonlarning yaxlitlashtirilganidan keyin qisqartirildi. Asosiy ta'minot nafaqalarini tayinlash va to'lab berish vakolatlari, navbatdagi islohot natijasida 2017 yilning boshlarida Ijtimoiy yordam va nafaqalar Boshqarmasiga (Kela) o'tkazildi.

Fin umumiy farovonlik davlati asosiy ta'minot nafaqasi tufayli, munosib hayot kechirish uchun deyarli istisnolarsiz sharoitlar yaratib berish imkoniyatiga ega. Finlyandiyada hatto o'rtacha kambag'allik darajasi ham YI mamlakatlaridagi o'rtacha ko'rsatkichlardan pastroqdir.

Shunga qaramay, mamlakatning barcha fuqarolari uchun teng imkoniyatlar yaratish Fin umumiy farovonlik davlatining vazifasi



bo'lib qolmoqda. Asosiy ta'minot nafaqasi to'lash davrining uzaytirilgani singari, ishsiz yurish davri ham uzaytirildi. Yoshlar uchun, ayniqsa ta'lim olmaganlar uchun ish topish mushkuldir.

Finlyandiya asosiy ta'minot nafaqasini to'lash bo'yicha 2017 yilda boshlangan tajriba, kambag'allik bilan kurashdagi yangi innovatsiya bo'ldi. Tajribaning maqsadi g'arb mamlakatlarini tashvishga solayotgan qashshoqlikning sabablariga yetib borish, ya'ni surunkali ravishda ishsiz bo'lgan va mehnat bozorida ajralib qolgan odamlarning, mehnat hayotiga qanday kirib borishi va yashashlari uchun qisman bo'lsa ham daromad topishlari mumkinligini aniqlashdan iboratdir.

**Xeykki Xiilamo,**

*Xelsinki universitetining ijtimoiy siyosat professori*

## **78. YOLG'IZ YASHASH – YANGI GLOBAL TREND**

Dunyoda ikkita katta demografik tendentsiya kuzatilmoqda: aholining qarishi va bir kishidan iborat uy xo'jaliklarining ko'payishi. Dunyo bo'yicha odamlar yakka yashashni afzal ko'rmoqdalar. Ushbu hodisaning sabablari noma'lumdir va jamiyatshunoslar bu to'g'risida hanuzgacha taxminlar ilgari surmoqda. Yakka bo'lib yashash tendentsiyasi, ayniqsa skandinaviya mamlakatlari va Singapurda juda ko'p namoyon bo'lmoqda va Finlyandiya yetakchi mamlakatlar qatoridadir.

Finlyandiya 2,56 millionta uy xo'jaliklari mavjud, ularning bir milliontadan (41%) ortiq qismi bir kishidan iboratdir. Ko'pincha yakka holda yashovchilar, bu keksa bevalar deb o'ylanadi, lekin bu unday emas. Ushbu toifadagilarning eng ko'p qismi 35 yoshdan 64 yoshgacha bo'lgan, shulardan ko'pchiligi erkak (42%) bo'lgan insonlar, uchdan bir qismi 65 yoshdan kattalar va chorak qismi 35 yoshgacha bo'lganlardir. Agarda 65 yoshdan katta bo'lgan aholi guruhlariga batafsil ravishda nazar tashlansa, u holda yakka holda yashovchilarning nisbatan ulushi eng yuqori bo'ladi, ularning deyarli uchdan ikki qismi yolg'iz yashamoqda. Xelsinkining poytaxt okrugidagi uy xo'jaliklarining yarim qismi bir kishidan iboratdir. Fin

uzoq muddatli davolash va parvarish qilish muassasalarida asosan yolg'izlar yotmoqda.

Yolg'iz yashash ma'lum ma'noda muammo bo'lmasa ham, yolg'iz yashovchi insonning iqtisodiy, ijtimoiy, tibbiy, amaliy tuzilishga ega bo'lgan, hamda insonlar bilan o'zaro munosabat va xizmatlarni olish bo'yicha ancha qiyinchiliklari mavjuddir.

2010 yilda fin uy xo'jaliklarining 13,1 foizi, Yevropa Ittifoqining qashshoqlik chegaralari bo'yicha mezonlariga asosan, qashshoqlik chegarasidan pastda edi. Bu Yevropa Ittifoqidagi oxiridan oltinchi o'rindir. Aynan shu mezonlarga asosan, mamlakatimizda bir kishidan iborat bo'lgan 31,5 % kambag'al uy xo'jaliklari mavjud va Finlyandiya ushbu ko'rsatkich bo'yicha Bolgariyadan keyin ikkinchi o'rinda edi.

Sog'lik ahvollaridagi farqlar bo'yicha so'z borsa, aholining boshqa toifalariga nisbatan yolg'iz yashovchi insonlarning sog'lik ahvoli yomonroq va o'lim darajasi yuqoriroqdir. Ruhiy kasalliklardan aziyat chekuvchi, nogironlik va surunkali kasalliklarga ega bo'lgan ko'pgina odamlar yoshlik davrlaridan beri yolg'iz yashamoqdalar. O'z keksa ota-onalari bilan yashovchi odamlar alohida guruhni tashkil qiladilar. Ularning soni 70 mingga yaqin. Ota-onasining vafotidan so'ng bunday odamlar yolg'izlikda qoladi.

2010 yilda asosiy ta'minot nafaqalarini oluvchilarning 71 foizi yolg'iz yashayotgan insonlar edi. Yolg'iz yashayotgan odamlar uy-joy olish uchun navbatda turganlarning eng katta guruhini tashkil qiladi, chunki yirik shaharlarda ijara haqi arzon bo'lgan kichik xonadonlarning ulushi juda pastdir.

Xizmatlarning ko'p qismi yolg'iz yashovchi insonlardan ko'ra ko'proq oilalar uchun mo'ljallangandir. Uylarda olib boriladigan xizmatlar sonining qisqarishi, yolg'izlikda yashovchi nafaqaxo'rlarning hayotiga ta'sir qilishi mumkin. Bunday hayot tarziga yolg'izlik hissi, ijtimoiy ajralib qolish va jinsiy muammolar aloqador bo'lishi mumkin.

Yolg'iz yashovchi insonlar ulushining shiddat bilan o'sib borishi, jamiyatni shakllantirish va uy-joyni rejalashtirish tushunchasini o'zgartirishni talab etadi. Finlyandiyaning nisbatan muvaffaqiyatli va mustahkam bo'lgan oilaviy siyosati, qonunchilik

tomonidan belgilangan ko'p sonli tadbirlar tufayli amalga oshiriladi. Ayni vaqtda, ushbu qonunchilikning oilasiz odamlar ahvoriga bo'lgan ta'siriga baho berilmagan. Fin tenghuquqlilik siyosati hech kim o'z yoshi, jinsi, irqi, dini yoki jinsiy moyilligidan qat'iy nazar himoyasiz ahvolda qolmasligini talab qiladi. Oilali va oilasiz insonlar o'rtasida tenghuquqlilik yondashuvi o'ylab ko'rilmagan. Ehtimol, oilaviy qonunchilikni ushbu nuqtai nazardan ko'rib chiqishga bahona bordir.

Y jamg'armasi yolg'iz yashovchi odamlar uchun uy berish va qurish uchun bir necha o'n yil muqaddam tashkil qilingan edi. Valli ry nomli keksa insonlar va yaqinlarga xizmat Assotsiatsiyasi va Y jamg'armasi tomonidan, yolg'iz yashovchi insonlarning ahvoli bo'yicha jamoat munozaralari boshlandi. Bundan maqsad, Finlyandiya tomonidan ushbu munozaralarning xalqaro miqyosga olib chiqarilishidir. Bir kishidan iborat uy xo'jaliklari – bu Yevropa Ittifoqi va BMTning e'tiborini tortish kerak bo'lgan xalqaro hodisadir.

### **Ilkka Taypale,**

*1971-1975, 2000-2007 yillarda parlament deputati,*

*Vappu Taypale, 1982-1984 yillarda Ijtimoiy masalalar va sog'likni saqlash bo'yicha vazir.*

*1992-2008 yillarda «Stakes» (Ijtimoiy va sog'likni saqlash sohalarini tadqiq qilish va rivojlantirish Milliy markazi) Bosh direktori*

## **79. QARZLARNI UZISH VA KAFOLAT JAMG'ARMASI**

Injilda: «Oralaringda doimo kambag'allar bo'ladi» - deb aytilgan edi. U holda, yevangelik-lyuteran cherkovini 1980 yillarning oxirlarida sobiq mahbuslar, spirtli ichimlik va giyohvand moddalarga ro'jo' qo'rganlar, ruhiy kasallar kabi eng qashshoqlarga yordam berish usullarini ishlab chiqishga nima majbur qildi? Bu bozor sharoitlari ko'tarilgan davr edi, hammaning ishlari yaxshiga o'xshar edi. Ammo ahvol unday emas edi: o'z taqdiriga tashlab qo'yilganlar batamom unutilgan edi. Qaysi bank sobiq mahbusning o'z mijozi bo'lishini hohlar edi?

Cherkov odamlarning bankdan kredit olish va shu yo'l bilan barcha majburiyatlarini to'lab berish imkoniyatini yaratadigan kafilliklarni berish bilan shug'ullanuvchi Kafolat jamg'armasini tashkil qilish bo'yicha loyihani taqdim qildi. Bitta qarzni to'lash boshqa bir necha qarzlarni to'lashdan ko'ra osonroqdir. Kredit foizi majburiy undirish foizidan kamroq edi. Cherkov tomonidan berilgan loyihaga omad kulib boqdi: jamg'armaning ta'sischilari bo'lishga Finlyandiya ruhiy kasallari jamiyati, «A-klinika» Jamg'armasi va Jinoiy sanksiyalar assotsiatsiyasi rozi bo'ldi. Jamg'arma ustavi qisqa vaqt ichida ma'qullandi.

Bundan keyin omad yuz o'girdi. Cherkov jamg'arma tomonidan kafilliklarni to'lash bo'yicha kapitalning «Birdamlik» mablag' to'plash kampaniyasi hisobidan yig'ilib borishiga qaror qildi. Finlar ushbu fikrni qo'llab-quvvatlamadilar. Avvallari mablag' yig'ish bilan shug'ullangan odamlar kelgusidagi hamkorlikdan bosh tortishdi, homiyar esa yo'qoldi. Hech kim jinoyatchi va o'g'rilarning qarzlarini uzish uchun pul berishni hohlamadi. Iqtisodiy inqiroz boshlanayotgandi, yordamga muhtoj boshqa odamlar ham bor edi. 1991 yildagi yig'imler avvalgi yillarga qaraganda sezilarli darajada kam edi.

Biroq, Kafolat jamg'armasi 1992 yilning bahorida o'z faoliyatini boshladi. O'qigan xodimlar qarzlarni qanday uzish mumkinligi bo'yicha maslahatlar, jamg'arma esa buning uchun kreditlar berar edi. Jamg'armaning faoliyat ko'lami keng bo'lmasa ham, unga e'tibor berishdi. Qarzlarni qayta tuzish to'g'risidagi 1993 yildagi qonun ayniqsa kredit kafillari va bolalik oilalarga juda ko'p muammolarni keltirib chiqardi. Sog'likni saqlash va ijtimoiy siyosat vazirligi Kafolat jamg'armasidan kafillikni faqatgina yuqorida sanab o'tilgan muammoli guruhlar emas, balki jamiyatning boshqa a'zolariga ham olishi imkoniyati berilgan tarzda o'z faoliyatini kengaytirishni so'radi. Shunday yo'l bilan, qarzi bo'lmaganlar orasida qarzni to'lash bo'yicha muammolarning tarqalishiga yo'l qo'yilmadi. Taklif qabul qilindi va faoliyat sezilarli darajada o'sdi. Jamg'armaning kafillik berish bo'yicha faoliyati qarzlarni qayta tuzishning samarali usulidir. Bizning jamiyatimiz tufayli 30 000taga yaqin fin qarzlari bo'yicha muammolarini hal etdi. Jami bir milliard

yevro miqdoridagi qarzlari bizning kafilliklarimiz yordamida qayta tuzildi.

Finlarning qarzlari 2002 yildan boshlab ikki barobar ko'paydi. Uy-joy bo'yicha kredit qarzlari aholining 25 yoshdan 34 yoshgacha bo'lgan guruhida ayniqsa yuqoridir: o'rtacha 120 ming yevro atrofida. Lekin, qarzlarning kelib chiqish sabablari o'zgardi va eng ko'p muammo, hozirgi kunda ularni atigi sms-xabar yuborish orqali olish mumkin bo'lgan, qisqa muddatli iste'mol kreditlar sababli paydo bo'lgan. Qisqa muddatli kreditlar olish uchun arizalar soni misli ko'rilmagan tezlikda ortib bormoqda. 2016 yilda umumiy miqdori 94,5 million yevrodan ortiq bo'lgan, taxminan 400 mingta qisqa muddatli kredit berilgan edi. Qisqa muddatli kreditning o'rtacha miqdori 246 yevro va qaytarish muddati 34 kunni tashkil qiladi. Bunday kreditlar bo'yicha yillik foiz deyarli ming foizni tashkil qiladi. Hozirda deyarli 400 mingta finda foiz to'lovlari bo'yicha kechikishlar qayd etilgan. Qisqa muddatli iste'mol kreditlari bozorini tartibga solish maqsadida, parlamentga ko'rib chiqish uchun foiz miqdori va komissiyaning eng yuqori darajasini chegaralaydigan qonunchilik loyihasi taqdim qilindi.

Kafolat jamg'armasi mamlakatimizning ijtimoiy ta'minot bo'yicha yangi usullarini rivojlantirishga ham o'z hissasini qo'shdi. Bizning tashabbusimiz orqali qo'llab ko'rilgan kreditlash tizimi, hozirgi vaqtda qonun tomonidan belgilangandir. Kafolat jamg'armasining o'zi ham uncha katta bo'lmagan ijtimoiy kreditlarni berish bilan shug'ullanadi. Biz qarz bo'yicha muammolarni hal etish dasturini ishlab chiqdik va u tufayli 10 000dan ko'proq fuqaro, haddan tashqari baland qarzlarni to'lash bo'yicha muammolarni hal etdi. 1995 yilda biz telefon orqali bepul maslahatlar berishni boshladik. Biz ishlab chiqqan Penno ilovasi yordamida o'z mablag'larning sarflanishini nazorat qilish mumkin. Endilikda biz, qarzni to'lashdagi qiyinchiliklarga olib keluvchi, misol uchun, haddan tashqari baland xonadon kreditlari yoki ularni to'lash bo'yicha haddan tashqari uzoq muddatlari kabi omillarning ham oldini olishimiz mumkin.

Ehtimol, bunday faoliyat boshqa biron-bir mamlakatda mavjud emas, lekin natijalar ma'lumdir. Ustavimizda ta'kidlanganidek, adolatning boshqa tomoni – mo'tadillikdir.

**Leena Veykkola,**

*1991-2012 yillarda Kafolat Jamg'armasining boshqaruvchisi*

## 80. IJTIMOYIY KREDITLASH

Finlyandiyada qarzni qaytarish odatda or-nomus ishidir. 1990 yillarda Finlyandiyaning larzaga keltirgan iqtisodiy tushkunlik aholi uchun katta muammolarni keltirib chiqardi. Kichik biznes tomonidan samarasiz bo'lib qolgan valyuta kreditlari olingan bo'lishi, yoki uy-joy bo'yicha to'lanmagan kreditlari bor odamlarni ishsizlik vahimaga tushirishi mumkin edi. Xonadon narxlarining keskin ravishda arzonlashishi, bir vaqtning o'zida qarzning to'lanmagan qismi uni to'lash imkoniyatlaridan baland bo'lib qolgani bois, ko'chmas mulkni kutilmaganda yo'qotib qo'yishga olib kelar edi. Xarid qilish qobiliyatlarini iste'mol kreditlari bilan yamashga harakat qilindi, lekin bu ko'pincha odamlarning qarz ilmog'iga tushib qolishiga olib kelar edi.

1993 yilda jismoniy shaxslarga ko'maklashish uchun, qarzdorliklarni to'lash tartibi to'g'risidagi qonun qabul qilindi, lekin u ko'pincha uzoq muddatli sud jarayonlariga olib keldi. Kafolat jamg'armasi ham o'z tomonidan, qarzdorlarga qarzlarni qayta tuzish bo'yicha kreditlar berish vaqtida kafil bo'lish orqali yordam berar edi.

2003 yilda juda ham kam daromadga ega va kam ta'minlangan odamlar uchun, munitsipalitetlarga ixtiyoriy bo'lgan va ijtimoiy ta'minot sohasiga kiradigan ijtimoiy kreditlar to'g'risidagi qonun qabul qilindi.

Qarzlarni to'lash tartiblari to'g'risidagi qonun qabul qilinganidan so'ng, iqtisodiy inqirozni bartaraf etish natijasida qarzlarni qayta tuzish sxemalariga bo'lgan ehtiyoj asta-sekin pasayadi deb taxmin qilingan edi, ammo iste'mol kreditlari va tezkor kreditlar, hamda ishsizlik xususiy uy xo'jaliklari uchun qiyinchiliklar sabablari bo'lib qolmoqda. Bunday hollarda qarzdorlikni to'lashga ko'maklashishning turli xildagi sxemalaridan avvaldagidek foydalanish kerak.

Ham maktabgacha tarbiya, ham maktab ta'limi davomida moliyaviy bilimga katta e'tibor berishga ehtiyoj mavjuddir, chunki pul to'lash davomida naqd pullardan foydalanishni kredit kartasi orqali to'lash imkoniyati siqib chiqarganligi va muammolarsiz

berilayotgan tezkor kreditlar, yosh avlodga o'z moliyaviy imkoniyatlari to'g'risidagi noto'g'ri tushunchalarni berishi mumkin.

Ijtimoiy kreditlash munitsipalitetlar uchun ixtiyoriydir va 2017 yilda Finlyandiya 30taga yaqin munitsipalitet shunday kreditlarni berar edi. Ijtimoiy kreditlash poytaxt okrugidagi yirik munitsipalitetlarda mustahkam asosga ega va ushbu tumanlardagi yashash bahosi mamlakatda eng yuqoridir.

Ijtimoiy kreditlashning maqsadi, mijozga o'z moliyaviy masalalarini mustaqil ravishda hal etishga ko'maklashishdan iboratdir. 1999-2003 yillarda Xelsinki shahrida, ijtimoiy kreditlar berish bo'yicha pilot loyiha amalga oshirilgan edi. Faoliyat qonunchilik asoslariga 2003 yilda, ijtimoiy kreditlash sohasida qonun qabul qilingan vaqtga ega bo'ldi. 1999 yildan 2015 yilgacha bo'lgan davrda Xelsinki shahrida, umumiy qiymati 18,3 million yevroni tashkil qilgan ijtimoiy kreditlar berilgan edi.

Kreditlashning zarar keltirishiga kam ta'minlangan mijozning o'limi, qarzdorlikning sud pristavlarini orqali undirilishi yoki mijozga berilgan qarzdorlik bo'yicha to'lovlarning qayta tuzilishi ta'sir qiladi. Ammo bunday holatlar juda ham kam. Qarzdorlar orasida kreditni to'lab borish davrida vafot etgan mijozlarning ulushi 0,9 foiz, yana 3 foizining mulki hatlab qo'yilgan va 0,5 foiziga kreditni qaytarish bo'yicha qayta tuzish rejasini berilgan.

Xelsinki shahrida ijtimoiy kredit berish, mijozning to'lov qobiliyatiga ega ekanligini isbotining borligini nazarda tutadi. Kredit miqdori 500 yevrodan 15 ming yevrogacha bo'lib, 5-7 yilga beriladi. Shuningdek, mijoz 12 oylik yevribo'ri (Yevropa banklararo taklif stavkasi) stavkasi bo'yicha hisoblangan kredit foizini ham to'laydi. Kredit bo'yicha boshqa to'lovlar olinmaydi. Moliyaviy va kredit masalalari bo'yicha maslahatchi, mijozga arizani rasmiylashtirishda ko'maklashadi. Ijtimoiy kredit alohida shaxs yoki oilaning qayta kreditlash, arzon narxda uy-joy xarid qilish yoki kichik ta'mirlashni amalga oshirish, mehnat uchun kerakli kichik uskuna xarid qilish, to'lov muddati kechikkan qarzlarni, ijara to'lovlari yoki boshqa turdagi kichik miqdorli qarzlarni to'lash (lekin davlat sog'likni saqlash muassasalaridagi tibbiy xizmat harajatlarini emas) kabi muammolarini mustaqil ravishda hal etishga ko'maklashish uchun beriladi.

Ijtimoiy kredit deb, yomon kredit tarixi sababli ta'lim krediti uchun davlatning kafilligini olishga muvaffaq bo'lolmagan talabalarga, ta'lim maqsadlari bo'yicha beriladigan ijtimoiy kreditga ham aytiladi. So'rovchining bundan avvalgi kreditlar bo'yicha qarzdorligi yoki to'lov muddati kechikishlari, yoki kredit limitining oshib ketishi, yoki so'rovchining aniq yashash manzili pochta qutisidagina (talab qilingunga qadar) bo'lsa, bank kreditni davlatning kafilligi bo'lishiga qaramay bermaydi.

Ta'lim maqsadlari uchun ijtimoiy kredit o'quv oyi uchun 400 yevro hisobida beriladi. Ta'lim olishning professional o'quv muassasasida va Finlyandiya hududida o'tishi shartdir. Kredit ta'lim olish jarayoni odatdagidan ko'ra ko'proq vaqt olganda ham berilishi mumkin, faqatgina mutaxassislikka ega bo'lishga kelajakda hayotni mustaqil davom ettirish imkoniyati deb qaralgan holatlarda. Agarda ilgari olingan kreditlar bo'yicha qarzdorlik 15 ming yevrodan ko'p bo'lsa, u holda kredit berilmaydi.

Ijtimoiy kredit olish uchun berilgan arizani qabul qilgandan so'ng, so'rovchining asosiy ta'minot bo'yicha nafaqa olish huquqlari tasdiqlanishi kerak. Maqsad shundan iboratki, asosiy ta'minot nafaqasi yoki ijtimoiy kredit olish xohishini so'rovchining o'zi tanlashi kerak. Ijtimoiy kreditni olganlar, ijtimoiy kredit ularning yashash ahvoriga ijobiy ta'sir qilganini isbotlashdi.

Ijtimoiy kredit uni olganlarga o'z mulklarining xatlovga olinishi va undan keyin paydo bo'ladigan asosiy ta'minot nafaqasini olish zaruriyatidan qutilib qolishga imkon yaratdi. Insonning davlat xizmatlariga tobeligi kamaydi va u o'z moliyaviy mablag'larini rejalashtirish va harajat qilishdagi o'rnini faollashtirdi. Qarzdorliklarni qaytarishdagi keraksiz ustama va jarimalardan xalos bo'lish, shuningdek, qarzlarni kafolatlash va ijtimoiy ajralib qolishdan ham qutulishga erishildi. Insonning muammolarni mustaqil ravishda hal etish imkoniyati kelajakka ishonch beradi va ruhiy hotirjamlikni bag'ishlaydi. Insonning muammolarni mustaqil hal qilaolish imkoniyati kelajakka ishonch tug'diradi va ma'naviy hotirjamlik baxsh etadi.

**Marianne Rikama,**

*1993-2010 yillarda Xelsinki shahri Ijtimoiy ta'minot boshqarmasining kredit va moliyaviy masalalari bo'yicha maslahat berish bo'limi boshlig'i*



## 81. SPIRTLICHIMLIKLAR MONOPOLIYASI

Finlyandiyadagi davlatning spirtli ichimliklar monopoliyasi 1932 yilda, umumdavlat referendum natijasida, 1919 yildan beri amalda bo'lgan spirtli ichimliklarni taqiqlash to'g'risidagi qonunni bekor qilishga qaror qilingan vaqtda tashkil qilindi. Bu kabi monopoliyalar Shimoliy Yevropadagi boshqa mamlakatlarda (Daniyadan tashqari) ham, shuningdek, Amerikaning ba'zi shtatlarida va Kanada provintsiyalarida qo'llaniladi.

Davlatning spirtli ichimliklar monopoliyasi, spirtli ichimliklar savdosining cheklanishi ular keltiradigan zararining samarali ravishda kamayishiga olib kelishi g'oyasiga asoslanadi. Uning yordamida spirtli ichimliklar iste'molini sezilarli darajada kamaytirishga va natijada, spirtli ichimliklarning aholi salomatligi, insoniy munosabatlar va umumiy intizomga bo'lgan salbiy ta'sirini pasaytirishga muvaffaq bo'lindi. Ushbu fikr ilmiy adabiyotlar bilan ham qo'llab-quvvatlanmoqda, garchi boshqa fikrlar ham doimo paydo bo'layotgan bo'lsa ham. Spirtli ichimliklar savdosini cheklashdan tashqari, soliqqa tortish, ya'ni narxlarga o'tkaziladigan ta'sir, spirtli ichimliklar iste'molini tartibga solishning ikkinchi vositasi bo'lib xizmat qiladi. Spirtli ichimliklar savdosini cheklash va narxlarni tartibga solish nafaqat monopoliyalashtirish orqali mumkindir, ammo monopoliya amaliy nuqtai nazar bo'yicha samarali vositadir. Oldingi o'n yilliklarda spirtli ichimliklar savdosi bo'yicha davlat monopoliyasi uchun yana bir sabab shunga asoslanganki, u xususiy shaxslarning salomatlik uchun zararli bo'lgan mahsulotlarni sotishdan foyda olishini cheklab qo'ydi.

Finlyandiyada spirtli ichimliklarni taqiqlash qonuni parlamentning birinchi tarkibi tomonidan 1907 yilda qabul qilindi, lekin Finlyandiya 1919 yilda mustaqil bo'lganidan keyingina kuchga kirdi. Ushbu qonunning ta'siri qarama-qarshi edi: bir tomondan u kontrabanda va uyushgan jinoyatchilik, shuningdek, qonunga nisbatan umumiy befarqlikning rivojlanishiga turtki bo'ldi, boshqa tomondan esa aholi sog'ligining yaxshilanishiga yordam berdi. Salomatlik nuqtai nazaridan ko'rsatkichlar past darajada qoldi. Ehtimol, Finlyandiyadagi spirtli ichimliklar iste'moli hali spirtli

ichimliklarni taqiqlash qonuni kuchga kirgan vaqtga qadar ham nisbatan past bo'lgani uchundir.

Monopoliyaning kiritilishidan keyin ham spirtli ichimliklarga yetishish avvaldagidek cheklangan edi, chunki qishloq hududlarida spirtli ichimliklar do'koni yo'q edi. Ikkinchi jahon urushi davrida, kishi boshiga beriladigan spirtli ichimliklar soni bo'yicha cheklash tizimi kiritildi. Ushbu tizimdan 1950 yillarda voz kechildi, chunki tadqiqotlar natijasida u na iste'molga, na salbiy oqibatlarga kerakli ta'sirni ko'rsatmadi.

Qonunchilikdagi navbatdagi sezilarli o'zgarish 1969 yilda, o'rta quvvatli pivoning savdosiga ruxsat berilgan, «Alko» spirtli ichimliklar do'konlari esa qishloq hududlarida ham ochilgan vaqtda ro'y berdi. Ushbu yangilik spirtli ichimliklar iste'moli va salbiy oqibatlar sonining keskin ortishiga olib keldi va ushbu holat islohotning mualliflarini hayratda qoldirdi. Ular o'rta quvvatdagi spirtli ichimliklarga oson yetishish, quvvati kuchli ichimliklarning iste'molini kamaytirishi va ichkilikbozlikning oldini olishiga ishonishardi. Spirtli ichimliklarning erkinligiga o'zgartirish kiritish, uni iste'mol qilish darajasi va spirtli ichimliklar iste'moli natijasidagi salbiy oqibatlarning tarqalishiga haqiqatdan ham ta'sir ko'rsatishi bo'yicha dars olindi, lekin siyosiy sabablar bo'yicha taqiqlash tizimiga qaytishning iloji yo'q edi.

Finlyandiyaning Yevropa Ittifoqiga 1995 yilda a'zo bo'lishi va alkogol sanoatining kuchli iqtisodiy manfaatlari, hamda jamoatchilik fikrining kuchli tebranishlariga qaramay, davlat monopoliyasi Finlyandiya hozirgi kungacha ham amal qilmoqda. Yevropa Ittifoqi monopoliyani fuqarolar sog'ligini saqlashdagi harakatlari tufayli ma'qulladi. Tizim avvaldagidek tanqid qilinmoqda, masalan, hozir vinolarning oddiy oziq-ovqat do'konlarida sotilishi bo'yicha munozaralar ketmoqda.

2017 yilda hukumat tomonidan, spirtli ichimliklar bo'yicha qonunchilikka o'zgartirish kiritish bo'yicha taklif parlamentga ko'rib chiqish uchun kiritildi. Agarda taklif qabul qilinsa, u kuchli pivoni erkin savdoga chiqishi orqali monopoliya huquqining ozroq qisqarishiga olib keladi. Qonunchilikdagi bunday o'zgarish spirtli ichimliklar iste'moli va spirtli ichimliklar iste'moli natijasidagi zararli oqibatlarning ko'payishiga olib kelishi mumkin, lekin mamlakat

hukumat iqtisodiy foyda, bandlikning o'sishi va soliq tushumlarini olishni kutmoqda, masalan, fin sayyohlari tomonidan chet eldan keltiriladigan pivo hajmining pasayishi tufayli. Agarda taklif o'tsa, u holda monopoliya ostida juda kuchli pivo, vinolar va kuchli spirtli ichimliklar qoladi, ya'ni Finlyandiyada iste'mol qilinadigan spirtli ichimliklar hajmining chorak qismi atrofida.

Finlyandiyadagi narx siyosatining spirtli ichimliklarni iste'mol qilish va zararli oqibatlar darajasiga bo'lgan ta'sirining kuchli isbotlari, Finlyandiya Estoniyaning Yevropa Ittifoqiga qo'shilganda spirtli ichimliklar narxini tushirgandan keyin qo'lga kiritildi. Estoniyada spirtli ichimliklar Finlyandiyaga qaraganda ancha arzon. Bundan tashqari, Yevropa Ittifoqi spirtli ichimliklar xarid qilish uchun xususiy shaxslarga ko'proq huquq berishni ham talab qildi. Ushbu yangilik spirtli ichimliklar iste'molining o'sishiga, natijada zararli oqibatlarining ko'payishiga olib keldi. Soliq bo'yicha imtiyozlar amalda bir qator spirtli ichimliklar bo'yicha soliqlarning oshishi bilan qoplandi.

Umumdavlat referendumlarining Finlyandiya mustaqillikka erishganidan keyingi birinchi yuz yillik davomida faqatgina ikki marotaba: 1931 yilda taqiqlash qonunini bekor qilish va 1994 yilda Finlyandiyaning Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lishi bo'yicha o'tkazilgani, fin siyosatidagi spirtli ichimliklar monopoliyasi va spirtli ichimliklar iste'moli bo'yicha masalalarning ahamiyatini ko'rsatadi.

**Yussi Simpura,**

*Tadqiqotchi-professor, Finlyandiyaning sog'likni saqlash va ijtimoiy farovonlik milliy instituti*

## **82. NOYABR HARAKATI**

Finlyandiya nafaqat kuchli nazoratga ega mamlakat sifatida, balki kuchli institutsional an'analarga ega mamlakat sifatida ham tanilgan. 1960 yillarda Finlyandiyadagi mahbuslar soni Shimoliy Yevropaning boshqa mamlakatlarga nisbatan 4 barobar ko'p, umumiy aholi sonining 0,4 foizi ruhiy kasalliklar shifoxonalarimizda davolangan, ya'ni Irlandiya va Shvetsiyadan keyin, dunyodagi boshqa mamlakatlarga nisbatan eng ko'p, spirtli ichimliklardan

mast bo'lish tufayli hibsga olinishlar Daniyadagi ko'rsatkichlardan o'n barobar ko'p edi. Harbiy majburiyatlarni bajarishdan bosh tortgan legova guvoxlari ikki yil va yetti oy davomida lagerlarda o'tirar, odamlar daydilik singari to'lanmagan alimentlar uchun ham mehnat lagerlariga jo'natilar, hushyorxonalar o'z faoliyatini amalga oshirilayotgan majburiy harakatlar hisobidan davom ettirar edi. Tartib-intizom hamma joyda, hattoki maktablarda ham kuchli edi. Uysizlik muammosi yaqqol ko'rinib turardi.

Turli mamlakatlar tadqiqotchilari, birinchi navbatda yuqorida qayd etilgan jamiyat guruhlariga taalluqli deviant xatti-harakatlar sotsiologiyasi bo'yicha tadqiqotlarini chop etardi. Shuningdek, Finlyandiyada Spirtli ichimliklar muammolari tadqiqotlari jamg'armasi va Kriminologiya tadqiqot markazi tomonidan o'tkazilgan vahimali tadqiqotlar ham paydo bo'la boshladi. 1966 yilda Xelsinki shahri universitetining talabalar tashkiloti mahbuslar, ruhiy kasallar, ishlashni xohlamaydiganlar, daydilar, uysizlar, piyanistalar va hokazolar to'g'risidagi beshta tortishuv seriyasini tashkillashtirdi. O'sha vaqtda pamfletlar Finlyandiyada ham keng tarqalgan edi. Jamiyatshunoslar, huquqshunoslar, yozuvchilar va shifokorlardan iborat bo'lgan guruh, Lars D. Eriksson tomonidan nashr qilingan va barcha doiralarda turli xildagi muassasalar va majburlashlarga qarshi qizg'in munozaralarga sababchi bo'lgan «Majburiy yordamchilar» nomli asarni yozishdi. Tanqidga ayniqsa o'sha paytda amalda bo'lgan ijtimoiy ta'minot tizimi va nazorat siyosati uchradi. O'sha vaqtda Shimoliy Yevropa mamlakatlarida mahbuslar huquqlarini himoya qiluvchi «Krum» va «Krim» tashkilotlari tashkil qilib bo'lingan edi.

1967 yil 7 noyabrda Finlyandiyada davlat siyosati ustidan nazorat qiluvchi «Noyabr harakati» nomli uyushma tashkil qilindi. Uning maqsadi, yuqorida ko'rsatib o'tilgan guruhlarining manfaatlarini himoya qilish, hamda jamiyatda ularning ahvolini yaxshilashdan iborat edi. Tashkilot faoliyatining boshlanishi shov-shuvga sabab bo'ldi – ayni o'sha vaqtda Xelsinki ko'chalarida 40 nafar boshpanasiz odam sovuqdan halok bo'ldi, chunki 500 o'rinlik uysizlar boshpanasi yozda yopilgan edi. Jamoatchilik 1967 yilning 6 dekabrda, Finlyandiya mustaqilligining 50 yilligi nishonlanayotgan vaqtda yangi tashkilot to'g'risida so'z yuritdi.

Prezident Kekkonen butun dunyodagi aslzodalarni prezident saroyiga taklif qildi, «Noyabr harakati» esa barcha uysizlarni talabalar uyiga, pivo va kolbasa tanovul qilish uchun taklif qildi. Jami bo'lib 500 nafarga yaqin odam to'plandi, dasturga norozilik sifatidagi ma'ruza va qo'shiqlar kiritilgan edi. Ushbu tadbir prezidentning qabulidan ham kengroq ravishda yoritildi. Ushbu tadbirning uchta tashkilotchisi bor edi. Ulardan biri, keyinchalik Finlyandiyaning bosh vaziri va undan keyin parlamentning spikeri bo'lgan Paavo Lipponen edi. Uysizlar uchun tashlandiq bo'yoq omborxonasi binosida 1000 o'rinlik boshpana endigina ochilgan va unda odamlar tobutga o'xshash qutilarda uxlashar edi. Mustaqillik kunida «Noyabr harakati» mamlakatimizning 50ta adolatsizliklari ro'yxatini ham chop etdi.

Shuningdek, harakat namoyishlar o'tkazish, ma'lumotlar to'plash, memorandumlar yozish, xatlarni tahrir qilish, tadqiqotlar o'tkazish va yashirin qo'mitalar tuzish bilan shug'ullanadigan ishchi guruhlarini tashkil qildi. Lekin, vaqt o'tgan sari haqiqiy jamoat qo'mitalari ham tashkil qilingan va ularning eng ahamiyatlisi ijtimoiy ta'minot asoslari bo'yicha qo'mita edi. Ushbu qo'mitalarning a'zolaridan ba'zilari, keyinchalik davlat hukumat organlarida yetakchi o'rinlarga ega bo'lishdi. Ular san'atkor va siyosatchilarni muassasalarga borishga taklif qilishar, hamda saylovlar o'tkazish arafasida munozaralarni tashkil etishardi.

Harakat a'zolari qatorida, nazorat va ozodlikni cheklash obyekti bo'lgan toifalarning vakillari ham bor edi, ammo uning ko'pchilik qismi yosh talabalardan iborat edi.

«Noyabr harakati» yadro quroliga qarshi harakat, «Yuzlar qo'mitasi» birlashgan patsifist tashkiloti, gender masalalari bilan shug'ullanuvchi «Birlashma 9», «Trikont» uchinchi dunyo mamlakatlari harakati, hamda avtomobil haydashni tanqid qiluvchi, piyoda yurish va velosiped haydashni tavsiya qiluvchi «Ko'pchilik» uyushmasi qatorida 1960 yillardagi eng taniiqlilardan biri edi.

1967-1971 yillarda faoliyat yuritgan «Noyabr harakati», shu kabi tashkilotlarni tuzish uchun yordam berishga ham intilar edi. 1967 yilda lo'lilar uyushmasi, 1970 yilda Finlyandiya harbiy xizmatga chaqiriluvchilari uyushmasi, jinsiy tenghuquqlik uchun kurashuvchi «SETA» va psixiatrik reabilitatsiyadan o'tuvchi

odamlarning «PKE» jamiyati, 1971 yilda Ruhiy salomatlik ittifoqi, 1974 yilda esa Qurolsizlantirish ittifoqi tashkil qilgan edi. Keyinchalik, uysizlarning o'z tashkilotlari, «Doimiy xonadonsiz» uyushmasi va yolg'izlar uchun uy-joy qurish bilan shug'ullanuvchi «Y jamg'armasi»ga navbat keldi.

«Noyabr harakati» faoliyatini 1972 yilda to'xtatishga qaror qilindi. U o'z vazifasini bajardi. U tufayli bir necha tashkilot tashkil qilindi, u davlat faoliyatiga ta'sir ko'rsatishga va fikr yuritishni o'zgartirishga muvaffaq bo'ldi.

**Ilkka Taypale,**

*1971-1975 va 2000-2007 yillarda parlament deputati*

### **83. UCH FOIZ NAZARIYASI**

Men 1993 yilda, Aulankodagi Politsiya boshqarmasi tomonidan o'tkazilayotgan va qotilliklar muammosiga bag'ishlangan ikkinchi seminarda qatnashish vaqtimga qadar, detektivlarni hisoblamagan holda, jinoyatchilik bo'yicha barcha fin adabiyotini o'qib chiqdim. Yussi Payuoyya (Jussi Pajujoja) Finlyandiyada har yili yuz berayotgan 160ta qotillikni amalga oshirgan odamlarning ikkidan uch qismi, mamlakat erkak aholisining 5 foizlik guruhidan ekanligini payqab qoldi. Ushbu guruhga mansub erkaklar hattoki iqtisodiy o'sish vaqtida ham ish topolmadilar. Agarda, ushbu sondan qotillik sodir qilmaydigan guruhlar (ona tili shvedcha, birinchi va ikkinchi ijtimoiy sinf nafaqaxo'rlari, nogiron-nafaqaxo'rlar, ruhiy kasalliklarga ega odamlar, harakat qilish qiyinchiliklariga ega odamlar) olib tashlansa, u holda 40 000 kishidan iborat bo'lgan va ularning asosiy qismini yo uylanmaganlar, yoki ajrashgan va yolg'izlar tashkil qiluvchi, erkaklarning 3 foizi hosil bo'ladi.

Ushbu guruhga kimlar mansub? Finlyandiyaning barcha uysizlari (ulardan 80% erkaklar) va mahbuslari (ulardan 94% erkaklar), shartli ravishda mahkumlikni o'tayotgan odamlar, sobiq maktab internatlarida yashovchilar, armiyadan bo'shatilganlar, surunkali ishsizlar, pianistalar va giyohvandlarning ancha katta guruhi. Shuningdek, bularga qashshoq va yoki janjalli oilalarda o'sganlar, yoki miyasida minimal nuqsonlarga, e'tibor yetishmasligi

va giperfaollik muammolari, disleksiya, aqliy rivojlanish nuqsonlariga ega bo'lgan odamlar kabi uncha katta bo'lmagan va tanilmagan odamlar guruhlar ham kiradi.

Odamlarning ushbu guruhi jamiyat uchun anchagina muammolarni keltirib chiqaradi: jinoyatchilik, kasalliklar, ular bilan politsiya va sudlar, tibbiyot xodimlari va ijtimoiy yordam xodimlari va boshqalar shug'ullanadi. Ichki ishlar vazirligining talabnomasiga binoan, Finlyandiyaning milliy xavfsizligiga tahdid soluvchi xavflar tahlili tayyorlanganda shu narsa ayon bo'ldiki, eng katta xavf kompyuter jinoyatchilari, parranda grippi, OITS yoki iqlimning isib ketishi emas, balki jamiyatdan hech narsa kutmayotgan (jamiyat ham ulardan hech narsa kutmaydigan), 20-40 yoshdagi yolg'iz va kambag'al erkaklar ekan.

Ular bilan ushbu maqsadlarda foydalanish uchun yollangan 20 000 nafar xodim: pedagoglar, ijtimoiy yordam xodimlari, tibbiy personal, shifokor va tez yordam haydovchilari, politsiya va qo'riqlash xizmati, farrosh va o't o'chiruvchilar, cherkov ishchilari va alkogolizm bilan kurash bo'yicha ko'ngillilarning butun bir guruhi shug'ullanadi. Hech narsa sodir bo'lmiganday tuyuladi. Keksaroq kishilar qariydi va vafot etadi, kimdir quyiladi, lekin yoshlar ichidagi uch foizning qatori yana to'ladi.

Odamlarning ushbu guruhi bilan nima sodir bo'ladi? Professor Tapani Valkonenning hisoblashicha, bizning mamlakatimizda o'limning to'rtinchi tendentsiyasi paydo bo'ldi. Ilgari erkaklar urushda (urushda qatnashganlarning oltidan bittasi halok bo'lgan) halok bo'lar edi, keyinchalik odamlarni 1950 yilga qadar sil kasalligi halok qilardi. Undan keyin erkaklarning o'lim sabablari bo'lib yurak-tomir kasalliklari qayd etildi. Endi esa, Valkonen ta'kidlashi bo'yicha, 45 yoshgacha bo'lgan erkaklar shunchalik tez o'lmoqdaki, xuddi o'lim ularni belo'roq bilan emas, balki gazonokosilka bilan o'rgandek. Ularning o'lim sabablari zo'ravonlik, baxtsiz hodisa, spirtli ichimliklardan zaharlanish, o'z joniga qasd qilish va chekishdir. Farq shunda ediki, ilk uchta tendentsiya holatlarida ham boy, ham kambag'al odamlar vafot etardi, shu sababli jamiyat yuqori o'lim ko'rsatkichlari bilan kurashar edi. Faqatgina kambag'allar orasidagi o'lim umuman boshqacha vaziyatni yuzaga

keltirdi – hech kim shaxmat taxtasidan tashqaridagi piyodaga g'amxo'rlik qilishni istamasdi.

Uch foiz nazariyasiga binoan, Bismark ijtimoiy siyosatining kuchli choralarini ushbu qoldiq guruhga yo'naltirish, ushbu muammoning ko'p tomondan hal etilishiga imkon yaratadi. Bizning ro'paramizda juda ko'p mitti jamiyatlar namunalari mavjud: insonlarga yaxshi muomalada bo'lsang, ular ham senga yaxshilik bilan javob qaytaradi.

Finlyandiya to 1995 yilga qadar, dunyodagi uysiz va mahbuslar soni kamaygan yagona mamlakat edi.

Jamiyatda tinchlik va osoyishtalikni saqlash, bu yerda ta'riflangan odamlar guruhining ahvolini sezilarli darajada yaxshilash choralarini ko'rishni anglatadi. Agarda kambag'allar va boylar bir-birlarining ko'zlariga qaray olmasalar, demak bu ikki tomonlamadir.

Huquqni saqlash organlarining fikriga ko'ra, qotilliklar sonini uchdan bir qismga qisqartirish mumkin. Hozirgi kunda Finlyandiya qotilliklar 1930 yillarga nisbatan uch baravar kam, lekin boshqa rivojlangan mamlakatlardagidan uch baravar ko'p sodir etilmoqda.

Tegishli choralar ko'rilishi lozim. Masalan, uy-joy masalasini hal etish uchun katta bo'lmagan xonadonlar va kechayu-kunduz xizmat ko'rsatiladigan xonadonlar qurilishi kerak. Ikkinchidan, sog'ligining ahvoli sababli ishsiz bo'lgan odamlarga nafaqa to'lash kerak. Uchinchidan, daromad darajasining pastligi sababli kambag'allikni kamaytirish va to'rtinchidan, ommaviy hordiq va bo'sh vaqtdan unumli foydalanishni rivojlantirish kerak. Shuningdek, yoshlar bilan ishlash faoliyatini ham rivojlantirish kerak. Ko'riladigan choralarning qiymati, muammolar keltirib chiqaradigan zararlardan anchagina kamroqdir. Ish davom etmoqda, chunki 2010 yillarning o'rtalariga kelib, yil davomidagi qotilliklar soni 100tadan kamroqni tashkil qilmoqda.

**Ilkka Taypale,**

*1971-1975 va 2000-2007 yillarda parlament deputati*



## **84. HUQUQIY YORDAM VA JINOYAT NATIJASIDA YETKAZILGAN ZARARNI QOPLASH**

Ta'lim ideallari, inson huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi xalqaro qonunlar va Finlyandiya konstitutsiyasiga binoan barcha odamlar qonun oldida tengdir. Biroq, ishni sudga berish uchun insonning imkoniyatlari bo'lmasa yoki sudda o'zini malakali advokat yordamida himoya qilolmasa, u holda ushbu asosiy huquq bajarilmay qoladi. Shu sababli Finlyandiya yuridik yordam olish imkoniyati, shuningdek, o'z sifati bo'yicha hattoki xalqaro miqyosdagi barcha taqqoslashlarga ham dosh bera oladigan, jinoyatdan jabr ko'rganlarga kompensatsiya to'lash tizimining mavjudligi ham juda muhimdir.

Yuridik yordam berish amaliyoti XIX asrning oxirlaridayoq, vaziyatdan xabardor bo'lgan oliy tabaqa vaqillari aholining kambag'alroq qatlamlari o'z ishlarining sudga ko'rib chiqilishini orzu ham qilolmasligini adolatsizlik deb hisoblagan vaqtda rivojlanishni boshladi. Xelsinki shahri 1886 yildan boshlab yuridik yordam berishni boshladi va shu yildan beri shaharda yuridik yordam berish byurosi ishlab kelmoqda. Yuridik yordam berish to'g'risidagi ilk qonun 1973 yilda kuchga kirdi. 1998 yilda yuridik yordam berish faoliyati bilan avvalgidek munitsipalitetlar emas, balki davlat shug'ullana boshladi. 2002 yilda esa yuridik yordam berish faoliyati o'rta sinf vakillarini ham qamrab oldi.

Hozirgi kunda uncha katta bo'lmagan, hamda sug'urta to'lovlari sud harajatlarini qoplaydigan ishlardan tashqari, istalgan sud ishi bo'yicha yuridik yordamni olish mumkin. Yuridik xizmat deganda, sud ishlarini olib borish jarayonida foydalanishda, shaxsning (firma yoki korxonaga emas) davlat tomonidan to'liq yoki qisman to'lab beriladigan yuristkonsult xizmatlaridan foydalanishi tushuniladi. Ushbu xizmatdan foydalanishga imkon beruvchi daromadlar miqdori bo'yicha batafsilroq ma'lumotni, adliya vazirligi sayti yoki yuridik xizmatlar ko'rsatish byurosidan olish mumkin.

Ba'zi holatlarda ayb qo'yilayotgan shaxsni sudga himoya qilish, ayblanuvchining daromad darajasidan qat'iy nazar davlat tomonidan amalga oshiriladi. Og'ir jinoyatlar (masalan, zo'ravonlik va jinsiy jinoyatlar) jabrlanuvchisi o'z daromadlari darajasidan qat'iy

nazar, davlat hisobidan yuriskonsult yoki yordamchi xizmatlaridan foydalanishi mumkin. Finlyandiya boshqa turdagi jinoyatlardan jabr ko'rganlar uchun, xalqaro miqyosda yagona bo'lgan kompensatsiya va moliyaviy yordam berishning keng ko'lamli tizimi yaratilgan edi. Jinoyat natijasida yuzaga kelgan zararlar to'g'risidagi qonun 2006 yilda yangilangan edi. Og'ir jinoyatlardan (zo'ravonlik va jinsiy jinoyatlar) jabr ko'rganlarning davlatdan yetkazilgan moddiy, hamda muhim yangilik sifatidagi ma'naviy zarar uchun kompensatsiya olish huquqlari yaxshilangan edi.

Finlyandiyaning yuridik xizmat ko'rsatish va kompensatsiyalar to'lash bo'yicha dunyoda yetakchi o'rinlarga ega bo'lishiga qaramay, tizim haligacha ham yaxshilanishga muhtojdir. Qonundagi so'nggi o'zgarishlardan so'ng, parlamentda ushbu yangilikning o'rta sinfning ishini sudga berishiga imkoniyat bermasligi to'g'risidagi xavotirlar kuzatildi, chunki yuridik yordam ikkinchi tomonning jarimadan oshib ketgan va odatda ishini yutqizgan tomon hisobidan to'lanadigan harajatlarini qoplamaydi. Shu sababli parlamentda, yuridik yordam berish bo'yicha manbalarning yetishmasligi, yuridik xizmat ko'rsatilishining o'rta sinfga ham tarqalishi, yordam oluvchilarning esa o'rta daromadga ega odamlar hisobidan chiqarilishini anglatadigan, oxir-oqibatda hech qanday natijasiz holatga olib kelishi bo'yicha xavotir bildirildi. Yurist va ommaviy sektor yuristkonsultlari o'rtasida mehnatning bo'linishi eng samarali bo'lmagani ham tanqidga uchradi.

Fuqarolarning fikrlari va sud siyosati bo'yicha tadqiqot instituti tadqiqotlarining natijalari, parlamentdagilarning xavotirlari o'rinni ekanligini tasdiqladi. Ochig'ini aytganda, tizim qo'shimcha moliyalashtirishga muhtojdir. So'nggi yillarda sud ishlarini olib borish vositalari davlat byudjetining juda oz qismini tashkil etdi va bu yuridik yordam olish huquqiga ega bo'lgan shaxslarning o'zlari uchun to'lashlari kerak bo'lgan javobgarlik ulushida sezilarli edi. Yaqinda advokatlarining siyosiy boshpana so'rash bo'yicha ishlarni ko'rib chiqishdagi huquqlari cheklab qo'yildi.

**Tuyya Braks,**

*2007-2011 yillarda Adliya vaziri*

## 85. SUDNING TOMONLARNI YARASHTIRISHI

Tomonlarni yarashtirish bo'yicha faoliyatning ildizlari, jamiyatning maori, inuit va amerika hindulari kabi qabila tuzilmalarida kuzatiladi. Shuningdek, yarashtirish unsurlari markaziy o'rin yaqin kishilar o'rtasidagi tinchlik, kechirim va hamjihatlikka ajratilgan xristianlik etikasida ham mavjud. Adliya tizimidan qoniqmaslik va sud jarayoniga ko'proq insoniylik fazilatlarini berish istagi, tomonlarni yarashtirish faoliyatining harakat kuchi bo'lib xizmat qildi. Insonning qobiliyatlari va unga nizolarni hal qilish va o'z ishining ko'rib chiqilishiga ta'sir o'tkazish bo'yicha berilgan imkoniyatlar, ijtimoiy kapital va madaniy asosning bir qismidir.

Tomonlarni yarashtirish g'oyasi Finlyandiyaga mahbuslar, jinoyat qurbonlari va ularning oilalari bilan cherkovning ishlashi orqali kirib keldi. Faoliyat 1983 yilda, Vantaa shahridagi Finlyandiya fanlar akademiyasi tomonidan moliyalashtirilgan pilot loyiha orqali boshlandi. Jinoyatchilik va nizo tomonlarini yarashtirish modeli, Vantaa shahridan Finlyandiyaning boshqa shaharlariga ham tez tarqaldi. Keyinchalik Finlyandiyada maktab o'quvchilari va qo'shnilar o'rtasidagi nizolar, oilaviy janjallar, ishdagi mojarolar va odamlarning o'zaro munosabatlaridagi boshqa vaziyatlarni hal qilishda nizolarni muqobil bartaraf etish usullari qo'llanila boshladi. Shuningdek, hozirgi kunda sud instituti ham, misol uchun, vasiylik bo'yicha bahslarni hal qilishda muqobil hal qilish usullaridan foydalanadi.

Finlyandiyadagi tomonlarni yarashtirish amaliyoti qonun tomonidan tartibga solinadigan, nazorat qilinadigan, har ikkala tomonning ham ixtiyoriy ravishda ishtirok etishini nazarda tutadigan usuldir va u insonning asosiy huquqlari, nizolarni muqobil bartaraf etish qadriyatlarini va tamoyillariga asoslangandir. Jinoyat va alohida mojaroviy vaziyatlar sodir bo'lganda tomonlarni yarashtirish to'g'risidagi qonun 2006 yilda kuchga kirdi. Qonunga binoan, tinchlik bilan hal etish bo'yicha bepul huquqiy maslahatlar butun mamlakat bo'yicha olib borilishi kerak. Bunday maslahat berish xizmatlari munitsipalitet organlari, jamoat tashkilotlari va uyushmalari tomonidan ko'rsatilishi mumkin. Yarashtiruvchi

tomonning yarashtirish xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha harajatlari davlat byudjeti tomonidan qoplanadi. Qonunning kuchga kirish vaqtidan boshlab, davlatning tomonlarni yarashtirish mexanizmini tashkillashtirish va faoliyatini olib borish bo'yicha yillik harajatlari 6,3 million yevroni tashkil qiladi.

Tomonlarni yarashtirish faoliyatiga tashkiliy-uslubiy va nazorat jihatidan ko'maklashish, Finlyandiya ijtimoiy masalalar va sog'likni saqlash vazirligi tomonidan amalga oshiriladi. Davlat kengashi tomonidan har uch yilda tomonlarni yarashtirish masalalari bo'yicha maslahat kengashi tuziladi va u tomonlarni yarashtirish amaliyotining faoliyat yo'nalishlarini aniqlab, rivojlanish jarayonini kuzatib boradi. Yarashtirish xizmatlarini tashkillashtirish, muvofiqlashtirish, rivojlantirish va statistika ma'lumotlarini to'plash bo'yicha javobgarlik Finlyandiya sog'likni saqlash va ijtimoiy farovonlik milliy instituti (THL) zimmasiga yuklatilgan. THL instituti shuningdek, yarashtirish jarayonida ishtirok etuvchi mutaxassislarining malakasini oshirish, tomonlarni yarashtirish xizmatlarini olib boruvchi tashkilotlarga uslubiy jihatdan ko'maklashish, ularga yarashtirish xizmatlarini tashkillashtirish va amalga oshirish uchun belgilangan davlat mablag'larini ajratish, hamda mablag'larning ishlatilishini nazorat qilish bo'yicha javobgardir. THL instituti tomonidan, tomonlarni yarashtirish faoliyatini rivojlantirish bo'yicha 2016-2020 yillarga mo'ljallangan, maqsadi tomonlarni yarashtirish bo'yicha yaxlit, yuqori sifatli va samarali xizmatlarni rivojlantirishdan iborat bo'lgan davlat dasturini amalga oshirish boshlatildi.

Tomonlarni yarashtirish to'g'risidagi qonunga binoan, yarashtirish uchun tomonlarining berilgan baho bo'yicha yarashishga imkoniyati mavjud jinoyatlar qabul qilinadi va ayni vaqtda, jinoyatning og'irlik darajasi va sodir etish uslubi, gumonlanuvchi va jabrlanuvchi o'rtasidagi munosabat, hamda jinoyatni sodir qilishdagi boshqa tomonlar jamlangan holda e'tiborga olinadi. Yevropa Ittifoqi parlamentining jinoyatdan jabrlanganlarni himoya qilish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha Ko'rsatmasiga (2012/29/EU) binoan, jinoyat tomonlarini yarashtirish gumon qilinuvchining jinoyatning asosiy dalillarini tasdiqlashini va yarashish jabrlanuvchining manfaati uchun amalga

oshirilishini anglatadi. Agarda nizoning ko'rib chiqilishi amaliy natijaga olib kelishi mumkin va nizoning kamida bitta tomoni jismoniy shaxs bo'lsa, u holda nizo ko'rib chiqish uchun qabul qilinishi mumkin. Barcha tomonlarning ixtiyoriy ravishda, ularga bosim o'tkazilmagan holda yarashishi, yarashishning asosiy shartidir. Yarashtirish jarayoni tomonlarida istalgan vaqtda ushbu jarayondan chiqib ketish huquqi mavjud. Tomonlarni yarashtirish bu huquqni qo'llash amaliyoti emasdir. U jinoyatni ko'rib chiqish bilan parallel ravishda olib borilishi yoki uni to'ldirishi mumkin bo'lgan, sud jarayonidan tashqaridagi usuldir. Yarashtirish davomida aybdorlik yoki aybsizlik aniqlanmaydi, jazo qo'llash yoki jazodan ozod qilish belgilanmaydi, chunki jinoiy ish bo'yicha qaror qabul qilish politsiya va prokuraturaning vakolatidadir.

Nizolarni hal qilish bo'yicha mutaxassislar tomonlarni yarashtirish bo'yicha ariza olinganidan so'ng, aniq shu jinoyat yoki bahsdagi murosaga kelish imkoniyatlariga baho berishadi. Tayyorgarlik ko'rgan va maxfiylikni saqlovchi, yarashtirish bo'yicha ko'ngilli mutaxassislar, muzokaralar o'tkazishda tomonlarga yarashtiruvchilar sifatida xizmat qilishadi. Finlyandiyada jami 1,1 ming nafar ko'ngilli yarashtiruvchi mehnat qiladi.

Tomonlarni yarashtirish to'g'risidagi qonunning kuchga kirishi bilanoq, har yili ko'rib chiqish uchun 3,5-4 ming atrofidagi ishlar kelib tushgan. So'nggi yillarda ushbu amaliyotning mashhurligi shunchalik oshib ketganki, yuridik ko'rib chiqish uchun yiliga 12,5-13 ming atrofidagi ishlar jo'natilmoqda. Tashabbus ko'pchilik, ishlarning taxminan 80 foizi hollarida huquqni muhofaza qilish organlaridan chiqmokda. Tomonlarni yarashtirish imkoniyatlarini ko'rib chiqish uchun kelgan ishlarning deyarli 16 foizi prokuror organlari tomonidan jo'natiladi. Tomonlarni yarashtirish imkoniyatlarini ko'rib chiqish uchun kelgan ishlarning deyarli 70 foizida tomonlarni yarashtirish jarayoni boshlatiladi. Ko'rib chiqish uchun jo'natilgan barcha ishlarning yarmidan ko'pi zo'ravonlikka aloqador jinoyatlarga tegishlidir. Bahslarga tegishli vaziyatlarda esa, tashabbus ko'pchilik hollarda jismoniy shaxs yoki advokatdan kelib chiqadi. Munozaralarning eng keng tarqalgan turlari bu qo'shnilar yoki merosga da'vogarlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, uy hayvonlari bo'yicha bahslar, hamda bolalar va

o'smirlar o'rtasidagi tajovuz vaziyatlariga aloqadordir. Tomonlarni yarashirishga muvaffaq bo'lingan ishlar bo'yicha jami hisoblangan kompensatsiyalar miqdori 1,7 million yevro atrofidadir.

Tomonlarni yarashirish uchun taklif qilingan barcha ishlarning 36 foizida 21 yoshgacha bo'lgan yoshlar gumonlanuvchi sifatida qatnashmoqda. Gumonlanuvchilar sifatida ko'rib chiqishdagi 15 yoshgacha bo'lgan o'smirlarning ulushi 10 foizdir. Kelajakdagi maqsad – yarashirish uchun yoshlarning gumonlanuvchilar bo'lib qatnashayotgan ishlarini taklif qilishni ko'paytirishdir. Jinoyatlarning oldini olish bo'yicha milliy dastur ham, javobgar sifatida yoshlar qatnashayotgan jinoiy ishlarda yarashirish jarayonidan faol foydalanishga e'tibor qaratadi. Tomonlarni yarashirish imkoniyatining ahamiyati, yoshlar o'rtasidagi jinoyatga qayta qo'l urishning oldini olish nuqtai nazaridan ahamiyatlidir, shuning uchun ham ishning tomonlarni yarashirishga jo'natilishi yosh insonning kelgusi hayoti nuqtai nazaridan katta ahamiyat kasb etishi mumkin. 15 yoshga to'lmagan o'smirlar sodir etilgan jinoyatlari uchun jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin emas, lekin baribir ular yetkazilgan zararni qoplashga majbur. Tomonlarni yarashirish yosh insonga sodir etgan jinoyati natijasida hosil bo'lgan zarar bo'yicha moddiy va ma'naviy majburiyatni o'z zimmasiga olish imkonini berishi mumkin.

2015 yilda sodir etilgan jinoyat yoki janjal bo'yicha tomonlarni yarashirish doirasida ko'rib chiqilgan har bir ishning harajati, davlat byudjeti uchun o'rtacha 522 yevroni tashkil qildi. Tomonlarni yarashirish jarayoni doirasida ko'rib chiqilgan ishlarning harajatlari bilan jinoyatlarni tuzatish tizimi harajatlari taqqoslanganda aytish mumkinki, jinoiy ishni ko'rib chiqishning erta bosqichidagi tomonlarni yarashirish iqtisodiy jihatdan ma'qulroqdir. Masalan, o'ta og'ir jinoyat bo'yicha tergov ishlari bahosi 3 ming yevro atrofida va ishni jinoiy yoki iqtisodiy sudda ko'rib chiqish bahosi 5 ming yevro atrofidadir.

Tomonlarni yarashirish jarayonining yakuniy natijasi, tomonlarning huquqiy holatiga jinoiy ishning turli bosqichlarida ta'sir ko'rsatishi mumkin. Erishilgan yarashirish tergov ishlarini to'xtatish, ayblovni olib tashlash, jazo og'irligini pasaytirish yoki jazo choralari o'zgartirishga asos bo'lishi mumkin. Huquqni

saqlash organlari, prokuratura va sud har bir holatni alohida ravishda ko'rib chiqadi va jinoiy ishning ko'rib chiqilishida tomonlarni yarashtirish va erishilgan kelishuvlarning qanday o'rin tutishi bo'yicha mustaqil tarzda qaror qabul qiladi.

**Aune Flink,**

*Tibbiyot fanlari doktori, dotsent, Finlyandiya sog'likni saqlash va ijtimoiy farovonlik milliy instituti (THL)*

## IJTIMOYIY TEXNIKA

### 86. LINUXS

21 yoshli Linus Torvalds 1990 yilda o'zining «Uniks» operatsion tizimi yadrosini rivojlantirayotgan vaqtida, u o'zining ushbu harakati orqali eng yirik dastur ta'minotchisi bo'lgan Maykrosoftga qarshi chiqqanligi va elektron-hisoblash texnikasi ixlosmandlari uchun sajdagoh bo'lishini o'ylaganligi dargumondir.

Torvaldsning ilk «Linuks» namunasining manba kodini Internetga, u yerdan har bir kishi uni yuklab olishi va rivojlantirishi mumkin bo'lgan joyga ochiq ravishda qo'yishga qaror qilishi, «Linuks»ning bu daraja mashhur bo'lishiga olib keldi. Torvalds «Linuks» foydalanuvchilaridan badal tariqasida o'z izohlarini yozishni so'radi.

Izohlar juda ko'p keldi va tez orada «Linuks»da dunyoning 90ta mamlakatidan minglab ko'ngillilar Internet orqali ishladi. Linus Torvaldsning muhim hissasiz, ushbu foydalanuvchilar tarmog'ida faoliyatning yo'nalishi va maqsadi bo'lmagan bo'lardi.

«Linuks» texnik innovatsiya emas, balki ijtimoiydir. Bir qarashda bebosh, ko'ngillilikka asoslangan «Linuks» hamjamiyati, a'zolarining turtkisi va vafodorligi haqiqiy bo'lgan samarali va novatorlik jamiyatiga aylandi.

«Linuks» hamjamiyati axborot texnologiyalari tufayli vujudga kelgan yangi tarmoq hamjamiyatlarining yorqin misolidir. «Linuks»ni rivojlantirishda qatnashgan odamlarning ko'pchilik qismi bir-biri bilan hech qachon uchrashmagan, ular tarmoq orqali tanishdir.

«Linuks» – bu ochiq manba kodiga ega bo'lgan mashhur dasturdir. Ochiq manba kodiga ega bo'lgan dastur Open Source Initiative (OSI) tashkilotining dastur foydalanish uchun bepul va uning manba kodi barcha xohlovchilar uchun bepul bo'lishi kerakligi bo'yicha tamoyili shartlarini bajarishi lozim. Bundan tashqari, o'zgartirilgan dasturning boshqa dastur foydalanuvchilari tomonidan erkin foydalanishi mumkinligi sharti bilan, dasturni har kim erkin o'zgartirishi mumkin.



Dasturiy ta'minotni tijoriy ishlab chiqishdagi manba kodlari odatda jiddiy ravishda himoya qilinadigan tijorat siridir. Shuning uchun, manba kodidan hech qanday boshqa usulda foydalanishning, foydalanuvchilar tomonidan esa dasturning sifati va mukammalligiga baho berishning iloji yo'q edi.

«Linuks» kabi dasturning manba kodidagi har bir qator bilan ko'p sonli odamlar tanishadi. Sinov o'tkazish sifatining tijoriy nazoratiga nisbatan yanada samaraliroq usuldir va «Linuks» dasturi o'z ishonchliligi va tezligi bilan mashhurdir. Masalan, Xitoy xalq armiyasining aynan «Linuks» dasturidan foydalanishga qaror qilishi, ko'p tomondan foydalanuvchilarning o'z kompyuterlarining nima qilayotganini, dasturning manba kodiga qarab o'zlari aniqlab olishiga bog'liqdir.

«Linuks» va boshqa ochiq dasturlar rivojlanayotgan mamlakatlarda juda keng tarqalgan. Tijorat dasturlarining litsenziyalari qimmat turadi, «Linuks» esa rivojlanayotgan mamlakatlarda haligacha mavjud bo'lgan eski kompyuterlarda ham ishlaydi. Dasturning biron-bir vazifasi bo'lmaganda esa, uni joyida dasturlash mumkin.

«Linuks»ning bepul dastur bo'lishiga qaramay, uning atrofida tijoriy faoliyat va turli toifadagi xizmatlar paydo bo'ldi. Misol uchun, IBM, Sun va Novell o'z serverlarida «Linuks» dasturidan foydalanadi va uning rivojlanishiga katta mablag'lar kiritgan.

Shuningdek, ko'pgina kodlangan tizimlarda, masalan, mobil telefonlari va videomagnitofonlarda ham «Linuks»dan foydalaniladi. Dunyodagi 50ta eng tez kompyuterlarning deyarli 70 foizida, operatsion tizim sifatida «Linuks»dan foydalaniladi.

Shaxsiy kompyuterlarda «Linuks»dan avvaldagidek juda kam foydalaniladi, chunki uni o'rnatish texnika bo'yicha katta bilim va qobiliyatlarni talab etadi. So'nggi yillarda o'rnatilishi uncha qiyin bo'lmagan yangi to'plamlar paydo bo'ldi. Lekin, u hali umuman muammosiz bo'lgani yo'q.

So'nggi vaqtlarda «Linuks» va boshqa ochiq dasturlar siyosiy masala ham bo'lib qoldi. Davlat hukumati organlari axborot tizimlarining bitta ishlab chiqaruvchining dasturlariga juda ham tobe ekanligi bo'yicha tanqidlar bildirildi. Natija – durang bo'ldi: ochiq dasturlarga bo'lgan talab o'sib bormoqda, o'z navbatida tijoriy

dasturlarning mosligi esa, shu qatorda ochiq dasturlar bilan ham yaxshilanib bormoqda.

**Yurki Kasvi,**

*Texnika fanlari doktori,*

*2003-2011 yillarda, 2015-hozirgi kunga qadar parlament deputati*

## **87. MATNLI XABARLAR**

Butun dunyo bo'yicha deyarli 2 milliarddan ortiq GSM tarmog'i foydalanuvchilari biznesga bog'liq, xushchaqchaq yoki his va kayfiyatni aks ettiruvchi matn xabarlaridan foydalanadilar. Matn xabarlarining qabul qiluvchiga tez vaqt ichida yetib borishi va qisqa ekanligi uning eng asosiy sifatidir. Matn xabari o'zining samarali ekanligiga qaramay, atrofdagilarga e'tiborli bo'lgan bog'lanish usulidir. Matn xabari odatda hech kimga halaqit bermasdan cho'ntakka tushadi va ushbu xabarga unga to'g'ri keladigan vaqtda javob qaytarish mumkin.

Matn xabarining g'oyasi boshqa ko'plab ixtirolar kabi paydo bo'ldi: muhandislar topilgan muammoni hal qildilar. 1980 yillarning boshlarida shiddat bilan tarqalgan peydjerlar, boshqa narsalar qatorida matn xabarlarini ham ko'rsatishi mumkin edi. Matn xabari jo'natuvchisining aloqa markaziga qo'ng'iroq qilishi va o'z xabarini aytib berishi kerak edi. Operator o'z uskunolari yordamida qabul qiluvchining aloqa vositasiga (peydjer) jo'natishi kerak edi. Ushbu xizmat ham foydalanuvchilar, ham operatorlar uchun qimmat va noqulay edi, odamlar o'rtasida mashhur bo'lib ketmadi.

NMT mobil tarmog'ining shiddat bilan mashhur bo'layotganligi tufayli, 1981 yilda Shimoliy mamlakatlar telekommunikatsiya kompaniyalari tomonidan Framtida Mobila Kommunikationer FMK (Kelajakning mobil kommunikatori) nomli ishchi guruhi tashkil qilindi va uning maqsadi kelajakning raqamli mobil aloqa texnologiyalarini rivojlantirish edi. Eng asosiy intilish, o'sha vaqtda ushbu istiqbol faqatgina jilmayishga sabab bo'lgan bo'lsa ham, cho'ntak universal mobil telefonini yaratish edi.

FMK ishchi guruhining kichik guruhlar 1982, 1983 yoki 1984 yillarning yozlarida, Kopengagenda bir vaqtning o'zida yig'ilish o'tkazdilar. Pochta va telegraf boshqarmasidan bo'lgan Yuxani

Tapiola, Seppo Tiaynen va men o'z guruhlarimizni kechgi yig'ilishlarga tayyorlayotgan edik. Kelajakning mobil aloqa tizimlarining xususiyatlari to'g'risida gap borar edi.

Yuxani Tapiola matn xabarlarini abonentni izlash orqali jo'natish qiyin ekanligi to'g'risida qayg'urayotgan edi. Men esa cho'ntak telefonlariga ishonar edim. Seppo Tiaynen biron-bir ixtironi qanday qilib amalga oshirishni odatda tez o'ylab topar edi. Bizning suhbatlarimiz hozirgi kunda ko'pchilik odamlar foydalanayotgan g'oyaning paydo bo'lishiga olib keldi. Biz dunyoda birinchi bo'lib, kelajakdagi aloqa vositalari qisqa matn xabarlarini bir mobil telefondan ikkinchisiga jo'natish qobiliyatini o'zida mujassam qilishi kerakligi to'g'risidagi fikrga keldik.

Avvaliga biz kelajakdagi mobil aloqa tizimining qisqa matnlarni jo'natish muammosini hal qilishi kerakligi to'g'risidagi qarorga keldik. Tapiola kichik uskunadagi tugmachalar sonining matn yozishni chegaralab qo'yishini cho'ntak kalkulyatori misolida isbotlab berdi. Tez orada men uyali telefon tizimida abonentni izlash kelajakda kerak bo'lmay qolishini ta'kidladim. Mobil telefoni boshqalar tomonidan yuborilgan xabarlarni ko'rsatadi.

Tez orada biz matn xabarlarini uchun yangi foydali qo'llash usullarini o'ylab topdik. Biz «matn teruvchi» terminini ham o'ylab topdik. O'sha vaqtda hech qaysi birimiz, ushbu ixtironing dunyodagi odamlar hayotiga qanday kuchli ta'sir qilishini tushunmas edik.

Tapiola matn xabarlarini o'z ishchi guruhida, kelajakdagi mobil aloqa tizimi uchun majburiy talablarni o'z ichiga olgan xizmatlar ro'yxatiga kiritishi kerak edi. Tiaynen tizimning zarur texnik xususiyatlari muhokama qilinadigan texnik ishchi guruhda edi. Haqiqiy texnik ish FMK guruhida olib borilgan tayyorgarlik ishlari asosida, keyinchalik Yevropa GSM ishchi guruhi tomonidan amalga oshirildi.

Ixtironing negizida imkoniyatlar, texnikaning tezlik bilan rivojlanishi va mos kelgan ochiq rivojlanish muhiti, hamda ishda ishtirok etgan odamlarning beminnat hissasi yotar edi. 1970-1980 yillarda axborotni tarqatish obro'li va shartli talab hisoblanar edi. Biz, matn xabarlarini ixtiro qilganlar, hujjatlarni masalan, patent olish uchun saqlab qolishni hayolimizga ham keltirmaganmiz.

**Matti Makkonen,**

*Telefon matn xabarining ixtirochisi*

## 88. IRC, YOKI INTERNET-CHAT

IRC Oulu shahri Universitetining kompyuter ma'lumotlarini qayta ishlash kafedrasida, 1988 yilning avgustida paydo bo'ldi. Men o'sha vaqtda Oulu universitetining elektron uskunalar kafedrasining uchinchi kursini boshlagan edim. Yozda kompyuter ma'lumotlarini qayta ishlash kafedrasida ishlar edim. Boshlig'im Xeykki Putkonen menga BBCning OuluBox tizimini boshqarishni topshirdi. U orqali xohlagan odam, tarmoqning boshqa foydalanuvchilari bilan modem yordamida bog'lanishi va boshqa foydalanuvchilarning o'qishi mumkin bo'lgan xabarlarini yuborishi mumkin edi. OuluBox tizimidan Oulu universiteti Internetining ichki tarmog'ida foydalanish mumkin edi va bu bir necha foydalanuvchining OuluBox tizimida bir vaqtning o'zida bo'lishiga imkon berar edi: ikkitasi telefon tarmog'i orqali va universitetning ichki axborot tarmog'i orqali bir necha o'ntagacha.

Men IRCni avvalambor OuluBox tizimida onlayn so'zlashish uchun o'ylab topganman. IRCning yaratilishiga Yukka Pixli tomonidan o'ylab topilgan MUT (multi-user talk) tizimi ham ta'sir qildi. Ushbu tizimdan IRC paydo bo'lishigacha bo'lgan bir qancha vaqt davomida, OuluBox tizimida onlayn so'zlashish dasturi sifatida foydalanildi.

IRC eng boshidan boshlab, yangi serverlarning IRCning umumiy tarmog'iga bog'lanishlariga imkoniyat beruvchi tizim edi. Foydalanuvchilar istalgan serverga ulanar va serverlar xabarlarini bir foydalanuvchidan ikkinchisiga yuborar edi. Shunday qilib, IRC tarmog'i teng huquqli serverlardan tashkil topgan edi. Markazlashgan boshqarishsiz kechadigan haqiqiy taqsimlash imkoniyati, IRCning juda mashhur bo'lib ketishining texnik sababi va Internetdagi boshqa xabarlashish dasturlaridan farqli tomonidir.

IRCDan foydalanish avvaliga Finlyandiya bo'yicha tarqaldi. IRC serverlari Oulu universitetidan so'ng Xelsinki, Lappeenranta va Tampere texnika oliy o'quv yurtlari va Yuvyaskyulya shahri universitetida o'rnatildi. Finlyandiyadan so'ng IRC tizimi avval Denver universiteti, keyin esa AQShning Oregon shtati universitetiga tarqaldi. Ushbu universitetlar Finlyandiya

tashqarisida IRC tizimiga ulanganlarning birinchilari edi. Bundan so'ng, bir yildan ham kam muddatda, IRC tizimi qolgan barcha qit'alarga yoyildi. O'sha vaqtda, ochiq manba kodi modelidan foydalangan holda, o'nlab odamlar IRC tizimining rivojlanishida ishtirok etardi.

Avvaliga IRC tizimidan foydalanish ko'plab universitetlarda (masalan, Oulu shahri universitetining elektron uskunalar kafedrasida) ma'n qilingan edi, chunki foydalanuvchilar universitetdagi kompyuterlarni soatlar davomida band qilishardi.

IRC texnologiyasi dunyo bo'yicha o'n minglab odamlarning hayotiga ta'sir o'tkazdi. Ko'pchilik o'z muhabbatini IRC orqali topdi. Turli xil ozchiliklar (masalan, jinsiy, siyosiy yoki ijtimoiy) IRC tizimida o'z muloqot guruhlarini tashkil qildilar. Odamlar ushbu guruhlarda, umumiy qarash va qiziqishlarga ega bo'lgan boshqa odamlar bilan erkin muloqot olib borishlari mumkin.

Misol uchun, Isroillik oddiy odamlar, 1991 yilda Fors ko'rfazidagi urush voqealari to'g'risida butun jahonga IRC orqali xabar berishardi.

Hozirgi kunda dunyo bo'yicha va mahalliy miqyosda yoyilgan yuzlab IRC tarmoqlari mavjud, IRC foydalanuvchilarining soni millionlar bilan o'lchanadi.

**Yarkko Oykarinen,**  
*falsafa fanlari doktori*

## **89. MOLOTOV KOKTEYLI**

1939 yilning kuzida, Qish urushining boshlanishiga bir necha hafta qolganida, Finlyandiya Mudofaa vazirligi «Alko»ga (spirtli ichimliklarni mamlakat hududida sotish monopoliyasiga ega bo'lgan Finlyandiya davlat korxonasi) bo'sh shisha idishlarga buyurtma berdi. Harbiy harakatlarning boshlanganidan so'ng yangi buyurtmalar tusha boshladi. Spirtli ichimliklar do'koni omborxonasi bo'yicha javobgar direktor, muhandis diplomiga ega bo'lgan Matti Inkinen Mudofaa vazirining o'rinbosari, general-mayor Oyva Oleniusdan bo'sh shishalarning nima uchun kerakligi to'g'risida qiziqdi. U armiyaning, ehtimol tanklardan himoya qilishning yagona

fin vositasi bo'lgan, ichiga yonuvchi aralashma solingan shishalarni front uchun ishlab chiqqanligi haqida javob qaytardi. Shishalarni armiyada to'ldirish murakkab va sekin jarayon bo'lsa ham, ular samarali vosita bo'lib chiqdi.

Inkinen urush boshlanganligi tufayli do'konlarning yopiqligi, ishchilarning esa urushga ketganliklari sababli «Alko» zavodlaridagi shisha to'ldirish tizimlarining harakatsiz turganligini bildirdi. Spirtli ichimliklar do'koni armiyaga yordam berishi mumkin edi. Shunday qilib, Rayamyaki shahridagi «Alko»ning zavodlarida, Sovet Ittifoqi Tashqi ishlar vaziri nomidan kelib chiqqan, «Molotov Kokteyli» deb atalgan yonuvchan aralashmalar solingan shisha idishlarni ishlab chiqarish boshlandi. Qurolli kuchlar kerosin bilan ta'minlashardi. Shisha idishni o't oldirish uchun beshta turli xil gugurt zavodlaridan keluvchi, shamolda o'chmas gugurtlardan foydalanilardi. Pori shahridagi gugurt zavodi eng yirik gugurt yetkazib beruvchi edi.

Qish urushining boshlaridagi tankga qarshi qurollarning yetishmasligi, yonuvchan aralashmalar solingan shisha idishlar, qo'l granatalari bog'lamlari va pionerlar tomonidan tayyorlangan quti minalar hisobidan qoplanar edi. O'sha paytlarda Mudofaa vaziri bo'lgan Yuxo Niukanen, o'z xotiralarida ushbu vositalar yordamida umumiy tanklar sonining yarmidan ko'p qismi yo'q qilingan yoki shikastlanganligini ta'kidlagan. Lekin, «Molotov Kokteyli»dan foydalanish katta jasoratni talab qilardi. «Molotov Kokteyli»ning tank ichkarisiga tushganidan keyin oqibat o'lim bilan yakunlanar edi. Shishani sindirgandan so'ng gugurtlar aralashmani yoqib yuborar, nishonga tegizish yuz foizlik bo'lmasa ham, natijada butun tank yonishni boshlar edi.

Keyinchalik aralashma tankning yuzasiga suyuqlikning yaxshiroq yopishadigan qilib mukammallashtirildi. O't oldirish mexanizmi ham o'zgartirilgan edi.

Rayamyaki zavodlarida Qish urushi vaqtida 542 194 shisha idish yonuvchan aralashma bilan to'ldirilgan edi. Ushbu faoliyatga 87 nafar ayol va 5 nafar erkak jalb qilingan edi. Faoliyat shunga olib keldiki, Rayamyaki zavodlariga bombalar tashlana boshladi. Axir, ilk ishlab chiqarilgan yonuvchan aralashmali shisha idishlar, «Alko-Rayamyaki» degan yozuvli qopqoqlar bilan yopilgan edi.

Yorma Simpura «Alko»ning tarixiga bag'ishlangan «Erkin alkogol davri» kitobida, vaqt o'tgan sayin sovetlarning radio bo'yicha olib borilgan propagandasidagi: «Qani ko'raylikchi, Rayamyakida yana qancha yonuvchan aralashmali shishalar ishlab chiqarilar ekan» - degan istehzoli gaplarni eshitish odatdagi holat bo'lib qolganini so'zlab berdi. Ilk bombardimonlardan so'ng, ishlab chiqarish manzili yozilgan qopqoqlardan foydalanish to'xtatildi va Moskva Radiosi: «Yaqinda to'xtaydi degandimku...» - deb quvondi.

**Xeykki Koski,**

*1982-1994 yilda «Alko» Bosh direktori, 1975 yilda Ichki ishlar vaziri*

## KUNDALIK HAYOTDAGI QUVONCH

### 90. SHANBALIK

Shanbaliklar doimo ishlab chiqarishning muhim uslubi va fin jamiyatidagi ijtimoiy muloqot shakli bo'lib kelgan. Shanbaliklar odatda anchagina ko'p jismoniy kuchni talab qiluvchi, biron-bir yirik vazifani bajarish uchun to'planar edi. Shanbaliklarda qo'ni-qo'shnilar, do'stlar va qarindoshlar katta hajmdagi ishlarni birgalikda bajarish uchun yig'ilishar edi.

Shanbalikning eng asosiy sifati – bu ishning ixtiyoriy ravishda bajarilishi va unga haq to'lanmasligidir. Shanbaliklar bepul amalga oshiriladigan va unga javoban hech qanday xizmatlar talab qilinmaydigan ixtiyoriy mehnat yordamidir.

Shanbalikdagi ishchilar odatda minnatdorchiilik tariqasida mazali taom va ichkilik olishadi. Ish tugaganidan so'ng odatda sauna tayyorlanar, hamda tez-tez raqslar tashkil qilinadi. Shu yo'l bilan, vaqtni birgalikda o'tkazish va hursandchilik shanbaliklarning ajralmas qismi edi. Shanbaliklar ish unumining oshishiga, lekin birinchi navbatda hamjihatlik ruhini ko'tarishga muhim ta'sir o'tkazar edi.

Shanbaliklar hayotning deyarli barcha sohalarida tashkil qilinadi. Lekin, odatda ularni hosilni yig'ishtirib olish, pichan o'rish va kartoshka yig'ishtirish kabi qishloq xo'jaligi ishlari uchun tashkil qilishar edi. Shuningdek, qurilish ishlarida ham, misol uchun, yog'och xodalarini tashish, devorlar qurish va tom yopish yoki suvdan qayiqni ko'tarish va suvga tushirishda shanbaliklar tashkil etilardi. Qurilish ishlari birinchi navbatda erkaklar shanbaliklari edi. Hosilni yig'ishtirib olishda, masalan, zig'irni yig'ishtirish yoki bug'doyni yanchishda erkaklar ham, ayollar ham qatnashar edi. Ammo yungni tarash va ip yigirish, faqatgina ayollar shanbaliklari edi. Javoban ko'rsatiladigan xizmatlar to'g'ridan-to'g'ri belgilanmagan bo'lsa ham, ular juda keng tarqalgan edi. Aytish mumkinki, shanbaliklar jamoatdagi har bir a'zoning, shanbalikdan uning ham biron-bir paytda yordam olishi mumkinligiga sukut saqlagan holda rozi bo'lishiga asoslanadi. Shunday qilib,



shanbaliklar bir kishi yoki oila uchun juda qiyin va bajarilmay qolishi mumkin bo'lgan ishni bajarishning unumdor uslubi edi. Masalan, hosilni yig'ishtirib olish yoki pichan o'rish qisqa muddat ichida bajarilishi kerak va shanbaliklar o'sha paytdagi shoshilinch ishni yetarli darajada tez bajarishga imkon yaratardi. Finlyandiyada yomon ob-havo sharoiti sababli, pichan o'rimini ikki hafta ichida tez-tez bajarishga to'g'ri keladi.

Shuningdek, shanbaliklarga o'xshash yoshlar kechalari ham o'tkazilar edi. Unda qizlar tikish-bichish ishlari bilan shug'ullanar, yosh yigitlar esa mehmonga kelishardi. Finlyandiyaning turli joylarida ushbu kechalar har xil nomlanadi: Kareliyada ular «oytsia» (yotoqlar) deb nomlanar, Shimoliy Finlyandiyada esa - «kyokya».

Finlyandiyaning shimoliy-sharqiy qismida, mehnat yordamining boshqa shakli ham ma'lum. Muayyan qishloq uylari bir-birlariga uzoq yaylovlardagi pichan o'rimi, hosil yig'ishtirish va bug'doyni yanchishda muntazam ravishda yordam berishardi. Bu kabi yaxshi tashkil etilgan ish ittifoqlari, turli qishloqlardagi qardosh uylar orasida tuzilar edi. Shuningdek, oilaviy va boshqa bazmlarni o'tkazishni tashkillashtirish ham shanbaliklarga o'xshash birgalikdagi mehnat shakli edi. O'sha vaqtda uylar bir-birlariga ham ish, ham oziq-ovqat bilan ko'maklashishardi.

Hozirgi kundagi shahar hayoti sharoitlarida, shanbaliklar bilan bir qatorda turli xil ko'ngilli tashabbuslar ham paydo bo'ldi. Masalan, Xelsinkida «Har kuni bir dona tashlangan chiqindini terib ol» (Litter Movement) harakati paydo bo'ldi. Uning ishtirokchilari Xelsinki ko'chalari va parklaridagi axlatlarni tozalashda ixtiyoriy ravishda qatnashishadi. Harakatning g'oyasidan ruhlanib ketgan harakat a'zolari, parklar hududlarining 600 nafar «cho'qintirgan ota-ona»sidan iborat bo'lgan qo'shin tuzdilar va Xelsinki shahrining ma'muriyati, ularga chiqindilarni yig'ishtirish asboblari bepul tarqatdi. Bundan tashqari, harakat qatnashchilari har yili kino va bayramlarga taklifnomalar olishadi. Shuningdek, shahar harakat qatnashchilariga parklar va yo'l chekkalarida ekish uchun gullarning piyozlarini ham yetkazib turadi.

Shuningdek, Finlar turli xil ommaviy tadbirlar va bayramlarni o'tkazishdagi ixtiyoriy ishlarda ham ko'p qatnashishadi. Masalan,

2017 yilning mart oyida, chang'i poygasi bo'yicha Laxti shahridagi Jahon kubogini o'tkazish vaqtida 2,7 ming ko'ngilli jalb qilingan edi va ular rag'batlantirish sifatida ushbu sport tadbiriga bag'ishlangan maxsus uniformaga ega bo'ldilar. Odamlar ko'ngilli jamoat ishlarida qatnashganlik uchun olingan bunday belgilarni faxr bilan kiyib yurishadi va o'nlab yillar davomida saqlashadi.

**Reyno Xierppe,**

*Davlat iqtisodiy tadqiqotlar markazining Faxrli direktori*

## **91. SAUNA**

Fin saunasi, odamzotning o'z xohishi bilan boradigan yerdagi eng issiq joydir. Hisob-kitoblarga qaraganda, Finlyandiyada 3 milliontaga yaqin sauna mavjud. Ya'ni, barcha finlar Finlyandiyadagi saunalarga bir vaqtning o'zida sig'ishi mumkin. Boshida saunalar qishloq hayotining bir qismi edi, lekin saunalar ancha vaqt oldin shaharlarda ham tarqaldi. Avvaliga umumiy saunalar sifatida, keyinchalik esa xususiy uylarda ham paydo bo'ldi. Hozirgi kunda saunalar hattoki bir xonali kichik xonadonlarda ham qurilmoqda.

Dunyoda sauna har qanday narsadan ham ko'proq Finlyandiya bilan bog'liqdir. «Sauna» so'zi fin tilidan kelib chiqqan bo'lib, hozirgi kunda dunyoning yuzdan ortiq turli tillarida foydalanilmoqda. Finlar saunani o'ylab topmagan bo'lsalar ham, ularning saunaga bo'lgan munosabati doimo alohida o'rin tutar edi. Sauna bilan doimo afsona va e'tiqodlar bog'liq edi. Sauna muqaddas joy hisoblangan va ko'pchilik insonlar haligacha ham unga nisbatan ma'lum darajada hurmat bilan munosabatda bo'ladilar. Mashhur maqolda aytilishicha: «Inson saunada o'zini cherkovdagidek tutishi kerak».

Sauna ham san'at, ham fan kabi barcha fin madaniyatining sohalarida ko'rinib turadi. Masalan, saunaning fiziologik davolash ta'siri to'g'risida yigirmaga yaqin doktorlik dissertatsiyasi va yuzlab boshqa maqolalar yozilgan. Sauna «Kalevala» milliy eposida 10 marotabadan ko'proq eslab o'tilgan va barcha mashhur fin yozuvchilari saunaga ta'rif berib o'tgan. Sauna fin tasviriy san'atida tasvirlangan va musiqada eshilib turadi. Ko'p yillar davomida milliy televidenie kanalida, ikkita teledastur boshlovchisining nomdor

kishilarni saunaga taklif qiladigan mashhur teledasturi ko'rsatilar edi. Ko'plab vazirlar va o'nlab deputatlar odatda faqatgina sochiqqa o'ralgan holda ushbu dasturda chiqishgan. Shuningdek, Finlyandiyaning amaldagi prezidenti Sauli Niinistyo va undan oldingi Tarya Xalonen ham, prezidentlik faoliyatining boshlang'ich bosqichida ushbu dasturda ishtirok etganlar.

Qishloq saunasi va yirik kompaniyalarning mehmonbop saunalari bir-biridan farq qilsa ham, saunaga tashrif buyurish udumi yuzlab yillar davomida o'zgarmay qolgan. Jarayon issiq va salqin ketma-ketligidan iboratdir. Avvaliga, o'choq ustidagi olovli toshlar bilan 80-100 S° darajasidagi bug'xonada 10-15 daqiqa o'tiramiz. Bug'ni o'choqning toshlari ustiga suv sepib qo'shishadi. Saunadagi namlik darajasining ortishi issiqning sezilish darajasini ham ko'taradi. Sauna xizmatchilari qayin shohlaridan yasalgan supurgilardan ham foydalanishlari mumkin. Bug'da o'tirgandan so'ng salqin yoki dush tagida o'tirib, qorda suzib yoki ustida yotib salqinlanadi. «Issiqdan - sovuqqa» jarayoni odatda hech bo'lmasa ikki marotaba, lekin ba'zan hattoki o'nlab marotaba takrorlanadi. Sauna qabul qilgandan so'ng yuvinishadi.

Fin saunaga tashrif buyurishni o'rtacha 4,5 oylik yoshidan boshlaydi va odatda haftasiga 1,5 marotaba borib turadi. Avvallari sauna hayotning ko'pgina bosqichlarida muhim bo'lgan: saunada farzand tug'ishar, ovqat va kiyim tayyorlashar, bemorlarni davolashar va o'liklarni oxirgi yo'lga tayyorlashar edi. Bugungi kunda esa, finlar saunada birinchi navbatda dam olishadi. Prezident Urxo Kekkonen saunani juda yaxshi ko'rar edi. U o'zining saunaga nisbatan munosabatini bildirish orqali, ko'plab finlarning his-tuyg'ularini ifoda etgan: «Men saunada jismoniy jihatdan bo'shshaman va ruhiy jihatdan tiklanaman. Saunaning yumshoq muhiti murosaga kelish hissini osongina yaratadi. Saunasiz hayot men uchun chidab bo'lmas darajada bo'lardi».

**Lasse Viinikka,**  
*Fin Sauna ishqibozlari jamiyatining faxrli prezidenti*

## 92. QOR BOBO (YOULUPUKKI)

Rojdestvo arafasida bolalari bor ko'p sonli oilalarda qizil po'stin kiygan oq soqolli mehribon boboni intizorlik bilan kutishadi. Sovg'alar tarqatuvchisi sifatidagi fin Qor Bobosi anchagina yangi holatdir. Qor Boboning fincha (Joulupukki) nomida, undan avvalgisining hayvoniy kelib chiqish xotirasi saqlanib qolgan: serka – unumdorlikni anglatuvchi hayvon va ayni vaqtda yovuzlikni aks ettiruvchi mavjudotdir. Ko'hna zamonlardagi bayramlarda ko'pincha sovg'a olib kelmaydigan, balki aksincha, egalaridan in'omlar talab qiladigan shoxdor serkalar ishtirok etishardi. Yangi yil bayramlarida «serka izlarini» Yevropaning ko'p mamlakatlarida uchratish mumkin.

Yorqin, karnaval serkalari 1900 yillardayoq Finlyandiyada sayr qilib yurar edi. Sharqiy va Shimoliy-Sharqiy Finlyandiyada 1 noyabrdagi hosil bayramida, xo'jayinlar ishchilar (kekri) bilan hisob-kitob qilayotgan vaqtda, barcha avliyolarning vakili sifatida doimo serka ishtirok etardi. Serka bolalarni tumshug'i bilan ishqalanib qo'rqitar, sovg'alar olmasa o'choqni buzishi bilan tahdid qilar edi. G'arbiy Finlyandiya qavmlarida, Tuomas kunida qishloqlar oralab o'tindan yasalgan Tuomas yurar va unga niqob taqqan yoshlar to'dasi hamrohlik qilar edi. Yurishda qatnashayotganlar quloqsiz bolakaylarning qaerda yashayotganligini so'rab olar va sovg'alar talab qilar edi. Rojdestvo mehmoni Rojdestvo arafasida kelar edi. Uning yuzida qayin po'stlog'idan yasalgan niqob taqilgan bo'lar va u shoxdor va soqolli serkani eslatar edi. Yoshlar mehmonni bir uydan ikkinchisiga kuzatib yurishar, uning o'tkir hazil va mutoyibalarini ta'kidlab raqsga tushishar, ovqatlanar va ichishar edi. Sovg'alarni oilaga biron-bir boshqa kishi olib kelar edi va ochiq eshik orqali ichkariga otar edi.

Xyame viloyatidagi yoshlar Rojdestvoning ikkinchi kunida ko'ngilxushlik qilish va Taxvananing mehmoniga kelib-kelmaganini bilish uchun jo'nashardi. Keyinchalik u serka Tapani deb ataldi va u qo'rqinchli ko'rinishga ega edi: teskari qilib kiyilgan po'stinda, dumi o'rniga qora saqichga burkangan supurgi va yog'och shoxlik.

Fin Kareliyasida, Cho'qintirishdan avvalgi Rojdestvo va Yangi yil bayramlari vaqtida qishloqlar oralab Smutta, yoki Rotakko yurar

edi. U tanilib qolmaslik maqsadida o'z ovozi va gapirish tarzini o'zgartirardi. Mehmon uyga kelganda barcha janjal va nizolar barham topardi, chunki mehmon ham tinchlanib qolar edi. Xyame va Janubiy-G'arbiy Finlyandiyaning boshqa qishloqlarida, eski yangi yildan keyingi Cho'qintirishdan so'ng (Knut Kuni) serka Knut mehmon bo'lardi. Agarda Knutga pivo yoki uy sharobini olib kelishmasa, u bochka qopqog'ini olib ketardi.

Afsonaga qaraganda, Avliyo Nikolay 300-yillarda Janubiy-Sharqiy Turkiyaning Myurya nomli joyida yepiskop bo'lgan ekan. Uni sharq va g'arbdagi cherkov doiralarida hurmat qilishar edi. Nikolay ayniqsa dengizchi, baliqchi, orollar aholisi va savdogarlarga homiylik qilardi. U o'rta asrlarda shimoliy mamlakatlardagi barcha avliyolarning boshlig'i bo'ldi. Finlyandiya esa 1100-yildan keyin. Nikolay xalq qahramoni va xalq merosining saqlovchisiga aylandi: finlar uchun – qushlar himoyachisi, Shimol xo'jayini, O'rmon ilohi. Jahonda Avliyo Nikolayni hamma Santa Klaus, yoki Amerika Qor Bobosining ajdodi, muvaffaqiyat va farovonlik garovi sifatida taniydi.

Avliyo Nikolausni doimo qizil ridoga o'rangan holatda tasvirlashgan. 6 dekabrda tug'ilgan kunda u bolalarga konfet va shirinliklar tarqatayotgan holatda tasvirlangan. Nikolay Gollandiyaning protestantlari bilan birgalikda, dengiz orqali Yangi Gollandiyaga (keyinchalik Nyu York) yetib keldi. Vaqt o'tgan sayin uni butun Amerika bo'yicha Santa Klaus nomi bilan tanib qolishdi. Santa Rojdestvo savdolari va sovg'alarning homiyisi, yulduzli osmon bo'ylab bug'ular chanasida uchayotgan ertak personaji edi. U Rojdestvo sovg'alarini mo'ri orqali tushib, bolalarning paypoqlari ichiga solib ketardi. Eski Angliyaning Father Christmas Qor Bobosi, protestant Germaniyasidagi Weihnachtsmann va rus Qor Bobosi Avliyo Nikolaydan kelib chiqqan. Ushbu guruhga fin «Joulupukki»sini ham kiritish mumkin.

Sharqiy Laplandiyada Korvatunturi joylashgan. Buning ma'nosi - «O'rmonsiz tog' cho'qqisidagi quloq» va shu yo'l bilan quloqning bolalar o'zlarini qanday tutishlarini eshitib turishiga imo qiladi. 1920 yillardagi bolalar radio-dasturlarining mashhur boshlovchisi Markus amaki (Markus Rautio) albattaki bu nomni o'zi o'ylab topgani yo'q, lekin, har holda Korvantunturida fin Qor Bobosining yashashi

to'g'risidagi fikrni tasdiqladi. Xalq o'quvi ham Rojdestvo bayramlarini o'tkazish an'alarini tarqatishga o'z hissasini qo'shdi. Qor Bobo avvaldagidek teskari qilib kiyilgan qo'y po'stinida yursa ham, o'zi uchun turmush o'rtog'i - yordamchini ham topdi, shoxlardan ayrildi. Ertaklar va xalq afsonalaridan kelgan gnomlarni Qor Bobo uchun yordamchilar sifatida tayinlashdi. Ular bolalarning xulq-atvorini kuzatish uchun juda mos kelishadi, chunki gnomlar doimo insonlar axloqini himoya qilib kelishgan.

Amerikalik Xaddon Sundblom 1930 yillarda, Rojdestvo bayramlari davomidagi Koka-Kola reklamasida, Santa Klaus personajini semiz, xushchaqchaq va qizil po'stin kiygan ko'rinishda tasvirlagan. Uning otasi Aland orollaridan edi. Koka-Kola savdo belgisining rivojlanishida Finlyandiya ham qatnashgan deb hisoblasa ham bo'ladi. Hozirgi kunda Finlyandiyadagi Qor Bobo, xalq an'analari bo'yicha oq bezakli qizil kiyim kiyadi va ushbu libos Qor Boboning deyarli rasmiy kiyimi bo'lib qoldi. Qor Bobolar uchun malaka oshirish bo'yicha professional kurslar tashkil qilinadi. Ularda professional reklama va bolalar bilan o'zini tutish ko'nikmalari o'rgatiladi. Beso'naqay, karton niqob taqib olgan, rang va uslub bo'yicha mos tushmagan kiyim kiygan va spirtli ichimlik hidi anqib turgan Qor Boboni yomonlash odat bo'lib qolgan, lekin eshikni taqillatuvchi ushbu mehmon o'zining barcha kamchiliklari bilan birgalikda, finlarning eski e'tiqodlariga sifat sertifikatiga ega bo'lgan rasmiy Qor Boboga nisbatan ko'proq mos keladi.

Barchaning fikriga ko'ra sovg'alar tarqatuvchisi, uzoq Shimoldagi maxfiy joyda yashashi kerak. Santa Klaus yoki Joulupukki Shimoliy Qutbda, Kanadada, Norvegiyada, Shvetsiyada yoki Finlyandiyadagi Rovaniemi shahrida yashashi yoki yashamasligi to'g'risidagi savol yillar davomida istaklar yozilgan otkritkalarini junatuvchi bolalar, hamda shimoliy mamlakatlardagi tadbirkorlarning e'tiborini tortadi. Finlar haqiqiy Qor Bobo – Joulupukki Korvatunturida yashashi va turistlar uchun Laplandiyaning haqiqiy Rojdestvo ertagi ekanligiga aminlar. Bunga boshqa ko'pgina mamlakatlarda ham ishonishadi. Qor, qahraton qish, bug'ular, shimol yog'dusi – bu sovg'alar va syurprizlarga ega bo'lgan, uning bosh qahramoni tanishishning g'aribonaligi va

iliqligini, bolalar qo'rquvlari va kelajakka bo'lgan umidni o'zida jamlagan sirli ertak uchun go'zal bezakdir.

**Yuxa Nirrko,**

*Fin adabiyot jamiyati qoshidagi folklor arxivi tadqiqotchisi*

### **93. ROJDESTVO YO'LAKCHASI**

Xelsinki shahrida bolalar uchun Rojdestvo bayramini o'tkazish fikri, yigirma yildan ko'proq vaqt avval ikki kishining miyasiga kelib qoldi. Biz o'zimizning g'oyamizni hech qanday rasmiy qo'llab-quvvatlashsiz, faqatgina alohida shaxs va jamoalardan iborat tashabbuskorlarni jalb qilish hisobidan amalga oshirishni rejalashtirdik. Biz uchun kerakli bo'lgani, faqatgina bu g'oyaning amalga oshishiga 101 foiz ishonish va uni tashkillashtirish ishiga to'liq kirishib ketish edi.

Biz o'z rejamizni reklama qilishni boshladik: avvaliga ma'lumot do'stlar, qo'shnilar, ishdagi hamkasblar orasida tarqaldi, keyinchalik esa Xelsinki shahrining hukumati, Muzeylar boshqarmasi, cherkov vakillari, turli xildagi tashkilot va ta'lim muassasalarigacha yetib bordi. Bunga deyarli bir yil vaqt sarflandi. Bolali oilalar uchun notijorat bayrami o'tkazish fikri foydali va o'z vaqtida rejalashtirilgan deb hisoblandi. Tadbirni tashkillashtirishga ko'plab odamlar va tashkilotlar va'da berdi.

Bayram bir kunlikdir va rojdestvodan avvalgi so'ngi Yakshanba kuni o'tkaziladi. Biz bayramni ko'chada, tabiat go'zalligi qoshida o'tkazishni xohlagan edik va bu bizning yoshligimizni eslatgan bo'lar edi. Bunday bayramni o'tkazish uchun Xelsinki shahridagi eng qulay joy, o'zining takrorlanmas muhitiga ega bo'lgan Seurasaari oroli bo'lib chiqdi. Pulimiz umuman yo'q edi va Xelsinki shahrining ma'muriyati oxir-oqibatda bizga transportni tashkillashtirish, materiallarni xarid qilish va boshqa ehtiyojlarimiz uchun ozroq mablag' ajratdi.

Agarda biz bayramni o'tkazish vaqtida reklama uchun joy berganimizda, u holda homiylik yordamini olishimiz deyarli tayin bo'lar edi, lekin biz bunday harakatdan voz kechishga qaror qildik. Biz eng avvalo ko'maklashishdan hosil bo'ladigan iqtisodiy foydani

hisoblamay turib, balki g'oyamizga ishonch bildirgan hamkorlarni topdik. Bizga pul emas, balki materiallar, alohida sohalardagi bilim va qobiliyatlar, hamda ishchan qo'llar kerak edi. Shunday yo'l orqali biz chiroyli yoritish, barcha elektr tizimlari, devorlardagi ma'lumotlarni tashkillashtirish, bolalarni mehmon qilish uchun bepul Rojdestvo bo'tqasi va shirinliklari tayyorlash, transportni yo'lga qo'yish va yana juda ko'p jarayonlarni bajarishni uddaladik. Axborot ko'maklashuvi uchun biz qoyilmaqom sheriklarni topdik. Bolalar ertaklari rassomi Mayya Karma, ertaklardagi Rojdestvo o'rmoni rasmini chizib berdi. Ushbu rasm bolalar o'yin maydonlari, bolalar bog'chalari va bolalar uchun maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida ilib qo'yilgan edi.

Rojdestvo yo'lakchasi o'z mehmonlari uchun nimalarni taklif qiladi? Bular qo'shiq va o'yinlar, ertaklar va otlarda sayr qilishlar, fokuslar va turli xil tryuklar, teatrning sahna asarlari, somondan yasalgan labirint va albatta, Qor Bobo va Qor Qiz. Biz bolalarning bayramda faol qatnashishlarini istar edik. Bolalardan o'z qo'llari bilan yasalgan archa o'yinchoqlari, shuningdek, rojdestvo bo'tqasi uchun likopcha va qoshiq olib kelish iltimos qilindi. Bolalar dasturning ko'plab ko'rinishlarida ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Rojdestvo yo'lakchasidagi barcha narsalarning bepul ekanligi, katta yoshdagilarni hayrat ostida qoldirdi.

Rojdestvo yo'lakchasi 20 yildan ortiq vaqt mobaynida o'tkazib kelinmoqda. Dasturni tashkillashtirish bo'yicha ko'ngillilar javobgardir. Turli xildagi ruxsatlarni berish va transportni yo'lga qo'yishni o'z ichiga olgan holda, infratuzilma bo'yicha Xelsinki shahrining ma'muriyati javobgardir. Dasturga har yili yangi tadbirlar qo'shib boriladi: o'rmon hayvonlari, gnomlar, o'zining sokinlik va yolg'izligiga ega bo'lgan shamlar parki, malaklar va rojdestvo shirinliklari ko'rgazmasi va yana ko'plab boshqa narsalar. Rojdestvo tadbirlarini tashkillashtirish va o'tkazishda talabalar va o'quvchilar faol qatnashishadi. Odatda Rojdestvo yo'lakchasida o'ttiztaga yaqin stantsiya bor va ularni muvofiqlashtirish juda silliq kechadi, chunki har bir stantsiyaning o'z javobgar kishisi bor. Tadbirda mehmonlarni tabriklash uchun qatnashuvchi Finlyandiya Prezidentining rafiqasi, bayramning homiysi bo'lib xizmat qiladi.



Tadbirlarni ochiq havoda o'tkazish doimo tavakkalchilik bilan bog'liqdir. Baxtimizga ob-havo bizning tarafimizda edi. So'nggi yillarda Seurasaaridagi Rojdestvo yo'lakchasi, shu jumladan horijiy mehmonlarni ham o'z ichiga olgan holda, 10 mingtadan 20 mingtagacha ishtirokchini to'pladi. Endilikda mamlakatning ko'plab burchaklarida o'z Rojdestvo yo'lakchalari o'tkazilmoqda. Bu degani, Rojdestvo yo'lakchasiga talab mavjuddir!

Rojdestvo yo'lakchasi tashabbuskorlik, qat'iyat va ishonchning mo'jiza yaratishi mumkinligini isbotladi.

**Marya-Liisa Kauppinen,**  
*Rojdestvo yo'lakchasi asoschisi*

## **94. FIN TANGOSI**

Qo'shiqchi Reyo Taypalening ta'kidlashicha, tango – fin madhiyasi ekan. Fin tangosining paydo bo'lishi – bu Argentina tangosining 1940-1950 yillarning oxirlaridagi fin tangosi bo'lib qayta tug'ilishidir. Uning keyinchalik rivojlanishi va mukammallashishi – bu deyarli 50 yilni o'z ichiga olgan jarayondir. Finlyandiyada 1890 yillarning oxirlaridan boshlab, «hamisha-yashil» bo'lgan va tangoning Kuba yo'nalishidagi xabanera uslubida ijro etilgan La Paloma (1854) tanilgan edi. Argentina tangosi 1910 yillarda Parijdan Yevropa bo'yicha tarqalgan. Tango ohangi Finlyandiyada ilk bora 1912 yilning yozida jarangladi. O'sha payti Sankt-Peterburgdan kelgan lo'lilar guruhining kontserti tashkillashtirilgan edi. Kechaning dasturida Argentina, Braziliya va Ispaniya ohanglari ijro etilgan edi. 1905 yilda Finlyandiya El Choclo (Tulisuudelma 1905) va Cumparsita (1917) bilan tanishdi. El Choclo tomoshabinlar e'tiboriga 1913 yilda, orkestrning mashg'ulotlarida namoyon qilingan edi. "Cumparsita"ning fin talqinidagi «Tropik tun», 1929 yilda Dallape orkestrining ishtirokida vinilda chiqarilgan edi. Ilk fin tangosining ijodkori bo'lib, ovozsiz kinoga musiqa yozgan Emil Kauppi hisoblanadi.

Avvaliga tango ko'plab raqs turlarining biri deb hisoblangan. 1920, 1930 yillarda raqs orkestrlari Argentina, nemis, shved va Litva tangolarini ijro etishar edi. Ba'zan tangoning fin talqinlari ham

ijro etilar edi: Martti Yappilaning «Oq opa» asari, Yuxani Poxyanmiesning «Kuba serenadasi» asari, Georg Malmshiteynning «Xotira» asari va Valto Tyunnilaning «Kichik qalb» asari. Tangoda asl fin musiqasi urush yillarida jaranglay boshladi. 1941 yildagi Arvo Koskimaning «Kuz chetani tagida» asari, 1942 yildagi Robert fon yessenning «Kech tushganda» asari va Xelvi Myakinening «Kotka shahrining atirguli» asari chinakam yutuq edi. Toyvo Kyaryen ijodining ildizlari urush yillariga tutashib ketadi. O'sha vaqtlarda u frontda artilleriya ofitseri bo'lib xizmat qilgan holda tango musiqalarini yaratgan va keyingi yigirma yil davomida bu ishda yetakchilikni boy bermagan. Uning ijodi mahsulotlarini afsonaviy Xenri Del va Olavi Virta ijro etishgan. Olavi Virta o'zining lo'lilar ohanglari an'analaridagi ijrosi bilan, har bir tinglovchini romantik muhit bilan qamrab olgan va tez orada tango ijrosining timsoli bo'lib qolgan. Pentti Vixerloto, Kaarlo Valkama, Unto Mononen kabi va boshqa ko'plab tango musiqasi ijodkorlari va ijrochilari unutilmaydi.

Albatta, urush davri fin tangosining paydo bo'lish sababini tushuntirib bermaydi. O'sha vaqtlardagi, misol uchun «Uzoqdagi do'st», «Uzilgan umidlar» va «Kareliya bo'ynidagi kecha» kabi mashhur musiqalarda o'limdan qo'rqish, kelajakka ishonchsizlik, yaqinlarni sog'inish va harbiy tashviqot musiqa orqali faqatgina qisman uzatildi. Muhimi shundaki, urush yillaridagi kuch va ilhom o'z xalqining asoslaridan izlangan, onaning quchog'idan olinganidek o'z xalqining meroslaridan himoya izlangan. Tangoning yangi ohanglarida Argentinaning jo'shqin xirgoyilari emas, balki aksincha – bo'shab qolgan qishloqlarning sukunati eshitilar edi. Adabiy tanqidchilar va tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, tangoning yangi matnlari ham fin xalq qo'shiqlari, ham o'sha davrlardagi adabiyotning romantik orzularini aks ettiradi: qushlar ovozi ostida orzu qilish, yigit yoki qizning jingalak chetan, chinor daraxti ostida g'am chekishi, o'z qalbining sirlarini ishonib topshirish uchun nilufar, kuzdagi anyuta ko'zlari yoki albatta ko'k rangli biron-bir boshqa gulni izlashi. Yukki Ammondning fikriga ko'ra, fin tangosining g'amginligi ko'pincha finlarning odamovilligi, his-tuyg'ularni ifoda etishdagi og'irligi, ularning asotsialligi bilan izohlanadi. Aslida esa fin tangosi kechinmalarning fincha usulini

ko'rsatishga harakat qiladi: finlarning qayg'u va alamdagi sokin qayg'usi, xushmuomalaligi, odobliligi va jonkuyarligini. 1940 va 1950 yillar davri mobaynida, Kerttu Mustonenning qalamidan chiqqan matnlar asosiy fikrni ifoda etar edi: Yaxshi ko'r, aziyat chek va unut (Daniel Katts).

Fin tangosining musiqiyliги uzoqdan kelgan. Bir maqomdalik Argentina tangosidan olingan va bu raqsdagi nisbatan yangi hodisadir. Maqom ma'lum bir shahvoniylikni aks ettiradi, aravakash va dengizchilarning bir-birlari oldida o'zlarini ko'rsatayotgan Buenos-Ayres va Montevideo fohishaxonalari haqidagi xotiralarni eslatadi. Fin tangosidagi maqom tinchroqdir: xabanera va milonganing jasoratli sinkopalari yumshadi, musiqiy hamrohlik madhiya tomon o'zgardi va raqs uyatchan qadam tashlash bo'lib qoldi. Jinsiy farqlar har holda saqlanib qolgan: fin tangosida erkak boshlaydi, ayol esa uning ortidan itoatkorona ketadi. Raqsdagi ushlar, tarang tana va raqs tushayotganlar tanalarining bir-biriga doimo tegib turishi shahvoniy muhitni yaratadi. Sheriklarning yurak urishlari yashirin xabar jo'natadi – daqiqada 140 zarba. Yurak odatda kuchli hayajon yoki og'irlik ostida shunday ishlaydi.

Tango ohanglarida gunohkorlik, ayb tuyg'usi va ayni vaqtda ma'lum bir yorug', o'zgacha tuyg'ular doimo his etiladi. Ohang minor kvintetiga o'raladi. Kalevalaning runa va qo'shiqlari ham minorda ijro etiladi, ularga hayotning yorug' taronalarini grigorian va protestant cherkovlarining kuylari qo'shib boradi. Ayniqsa, Unto Mononenning (1930-1968) ko'plab tangolari aziyat chekish va kechirim so'rashlar marjonidan tashkil topgan. Ular ohangda ehtiroslarning yaxlit o'ramiga birlashadi. Masalan, barcha davrlarning eng sevimli tangosi bo'lgan «Ertak mamlakati» tangosi, intuitiv ravishda «Ey Xudo, kechir meni!» iltijosini o'z ichiga olar edi. «Ertak mamlakati» bu fin ichki ruhiy siqilishining yarador Malak qiyofasidagi kuchli ifodalangan talqinidir.

Toyvo Kyarki (1915-1992) tomonidan yaratilgan mashhur tangolar esa aksincha, mehr va muloyimlikni dilga soladi. Taronalar asosida XIX asrning Sharqiy Yevropa musiqasi yotadi, ayniqsa Finlyandiyaning muxtorligi davrida mashhur bo'lgan rus romanslari. Tangoning «To'lin oy», «Ayriliq payti go'zaldir», «Shuning uchun qayg'uraman» kabi minor yo'nalishida, rus romansining tangoga

yorug'lik, xotirjamlik, o'zgacha xursandchilik bilan bezak beruvchi, bir qadah shampan sharobi bilan lo'lilarning muloyim skripkasi sadosi ostida, billur qandil yorug'ligidagi osoyishta kechani tasvirlab beruvchi ohanglari tobora ko'proq eshitilmoqda. Rus musiqasi, she'riyati va nasrining badiiy boyligidan Kyarkidan tashqari boshqa fin bastakorlari ham foydalangan: Pertt Vixerluoto, Lauri Yauxiaynen, Reyno Markkula. Masalan, «Qizil barglar» tangosi (Pentti Vixerluoto) bizni Anton Chexovning pyesalari olamiga olib o'tadi.

Shunday qilib, fin tangosining ko'p qirraligi va boyligi hayotni osonlashtiradi va umidlarni vujudga keltiradi. Shuning uchun fin tangosi – bu deyarli millat madhiyasidir.

**Pekka Yaalkanen,**  
*Bastakor*

## **95. HAR BIR INSONNING HUQUQI**

Har bir insonning huquqi – bu Finlyandiyaga ko'hna davlardan beri xos bo'lgan va qisman qonunchilikka tayangan, yer yoki suv hududlaridan mulkchilik shaklidan qat'iy nazar foydalanish huquqidir. Finlyandiya va boshqa Shimoliy mamlakatlarda har bir inson huquqini barcha joylarda joriy qilish uchun odatlardan tortib to qonun qabul qilishgacha bo'lgan yaxshi shart-sharoitlar mavjud edi, chunki ushbu mamlakatlarning umumiy xususiyati, ulardagi aholi zichligining nisbatan kamligi edi. Misol uchun, Belgiya va Angliya kabi ko'plab Yevropa mamlakatlarida esa aksincha, birovning hududidan (eridan) egasining ruxsatisiz o'tib ketish taqiqlanadi.

Boshqacha qilib aytganda, har bir inson huquqi – bu yer maydonlari, o'rmonlar, suv havzalarida mulkchilik shaklidan qat'iy nazar erkin harakatlanish huquqidir. Tabiat qo'ynida bo'lish, chang'i uchish yoki velosiped haydash uchun hech qanday ruxsatnoma talab qilinmaydi.

Har bir inson huquqlariga umumiy belgilar xosdir. Huquq har bir inson uchun bepuldir, huquqdan foydalanish o'rnida va zarar keltirmaydigan bo'lishi kerak. Boshqa qilib aytganda, tabiat

qo'ynida bo'lish tabiatga zarar keltirmasligi kerak. Biroq, erkin harakat qilish o'zgalarning hovlilari, dalalari va tomorqalari bo'ylab sayr qilish mumkinligini anglatmaydi. Qishda motochanalarda yurish faqatgina yer yoki o'rmon egasining ruxsati bilan mumkindir. Chang'i poygalari, sport orientir olish va boshqa ommaviy musobaqalar odatda har bir inson huquqiga kirmaydi, shuning uchun bunday ommaviy tadbirlarni o'tkazish yer egasining ruxsatini talab qiladi.

Ichki suv havzalarida harakat qilish qonunga bo'ysunadi. Suvda harakat qilish o'z mohiyati bo'yicha istalgan suv transportida amalga oshirilishi mumkin. Muz ustida harakat qilishga ham ruxsat berilgan. Ba'zan dala hovli egalari bilan suv chang'isi va suv skuteri ishqibozlari o'rtasida munozaralar bo'lib turadi. Sohil bo'ylab suv transportida uchish shovqin-suron va aholi uchun noqulayliklar keltirib chiqaradi. Yaqindagina suv to'g'risidagi qonunga sohil bo'yi hududlaridagi hovli va tomorqalarni shovqindan asrashni kuchaytirish taklifi kiritildi. Unga binoan, yashash joylarida amal qiluvchi tinchlikni saqlash bo'yicha qoidalar yon-atrofdagi sohillarga ham amal qiladi.

Bir-ikki kun davomidagi vaqtinchalik lagerlar va chodirlik sayrlar keng tarqalgan har bir insonning huquqidir. Shunga qaramay, gulxan yoqish uchun yer egasining ruxsati kerak. Sayyohning qat'iy majburiyati - bu tabiatda tinchlikni saqlash va tozalikka rioya qilishdan iboratdir. Tabiat qo'ynida treylerda yashash yer egasining ruxsatini talab etadi, chunki bu transport vositasidan va to'xtash joyidan foydalanishga aloqadordir.

Rezavor mevalar, qo'ziqorin va gullar terish – bu har bir insonning odatiy huquqidir. Ushbu tabiat in'omlarini harakat qilish ruxsat etilgan barcha joylarda terish mumkin. Har yili Finlyandiyada 50 million kilogrammgacha rezavor mevalari teriladi. Oilalarning yarmidan ko'p qismi rezavor mevalar terish bilan shug'ullanadi. Ba'zi bir o'simliklar tabiatni asrash to'g'risidagi Qonunning himoyasi ostida va ularni terish cheklangandir. Suv havzalaridagi suvdan xo'jalik ehtiyojlari va uy hayvonlari uchun foydalanishga rusat berilgan. Aksincha, yer osti va suv osti qazilmalaridan foydalanish har bir inson huquqi emasdir.

Baliq ovlash va muz ostidan baliq tutish har bir insonning o'zgarmas huquqidir va ushbu holat baliqchilik to'g'risidagi Qonunda belgilab o'tilgan. Finlarning taxminan 40 foizi, yoki 2 milliontasi bir yilda hech bo'lmasa bir marotaba biron-bir baliq ovlash tadbirida qatnashadi.

Finlyandiyadagi har bir inson huquqi, fuqarolar tomonidan ma'qullangan va yuridik asos bilan mustahkamlanmagan jamoatchilik qonunidir. Ushbu huquqlar faqatgina finlar uchungina amal qilmaydi. Ushbu tarixdan kelib chiqqan «ijtimoiy yangilik» barcha xorijiy mehmonlarga ham amal qiladi.

**Yuxa Korkeaoya,**

*2003-2007 yillarda Qishloq va o'rmon xo'jaligi vaziri*

## **96. HAR BIR KUN MUHABBATI**

Finlar – bu o'ziga juft topishga intiluvchi xalqdir. Aholining umumiy sonidagi bo'ydoqlar soni juda past darajada qolmoqda. 2015 yilda o'tkazilgan so'nggi FINSEX tadqiqotlari natijalariga ko'ra, mamlakatdagi balog'atga yetgan erkaklarning 87 foizi va ayollarning 85 foizi oilaviy munosabatlarga ega. Ushbu raqamlarga birgalikda yashamaydiganlar, ya'ni har xil manzillarda ro'yxatda turganlar ham kiritilgan.

Aholining farovonligi nuqtai nazaridan baho berilganda, tadqiqot natijalari bizning jamiyatimizdagi ijtimoiy holat bo'yicha ancha ijobiy ko'rinish aks ettirmoqda. Oilaviy munosabatlar hayotdan xursand bo'lish hissini sezilarli darajada ko'paytirgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, agarda shu tufayli odamlarning yolg'izlikni his qilmasliklari mumkin bo'lsa, u holda butun hayot ham odatda yaxshi deb baholanadi. Oilaviy munosabatlar va muhabbat yolg'izlikning eng yaxshi davosidir.

Oilaviy munosabatlar hayotdan baxtli bo'lish hissiga o'z holicha olib keladi, lekin ushbu hisga ayniqsa er-xotin o'rtasidagi o'zaro muhabbatning yordami kattadir. Birgalikda yashaydigan barcha juftliklarning taxminan 80 foizi shunday muhabbatni his qiladi. 2015 yilning tadqiqotlariga ko'ra, agarda juftlik o'z munosabatlarida o'zaro muhabbat bilan yashayotgan bo'lsa, u holda bunday

juftliklardagi odamlarning 87 foizi o'z munosabatlarini deyarli baxtli deb, 38 foizi esa juda baxtli deb hisoblashgan.

Juda ko'p insonlarning hayotdagi va oilaviy munosabatlardagi baxtlilik hislari chambarchas bog'liqdir. Agarda inson o'z hayotida baxtli bo'lsa, u holda uning oilaviy munosabatlarini ham baxtli deb ta'kidlash mumkindir. Va aksincha, hayotda baxt bo'lmasa, demak oilaviy hayotga ham juda baxtli deb baho berib bo'lmaydi.

Tadqiqotlarga ko'ra, baxtli hayot va oilaviy munosabatlardagi baxt deyarli aynan bir xil. Bu haqiqatdir, chunki yaxshi va baxtli oilaviy munosabatlar inson uchun juda kuchli ijtimoiy va ruhiy manba beradi. Shu tufayli butun hayot ham baxtli tuyuladi. Hayot u yoki bu sabablar orqali sinov qilgan paytlarda aynan oilaviy munosabatlar mustahkam tayanch bo'lishi va ushbu qiyinchiliklarni yengishga yordam berishi mumkin.

Oilaviy munosabatlardagi baxtlilik va qoniqarli deb baholanadigan birgalikdagi jinsiy hayot o'rtasidagi kuchli bog'liklikning aniqlanishi, FINSEX tadqiqotlarining eng muhim natijalaridan biri bo'ldi. Barcha so'rovnoma javob bergan insonlarning to'rt dan uch qismi o'z oilaviy munosabatlarini deyarli baxtli deb va o'zaro jinsiy hayotlarini, har holda deyarli qoniqarli deb hisoblashgan. Bunday javobni respondentlarning baxtli oilaviy munosabatlar nuqtai nazaridan jinsiy aloqaning muhim omil ekanligi to'g'risidagi fikrga ega bo'lganlari berishdi. O'z oilaviy munosabatlarini juda baxtli va birgalikdagi jinsiy hayotlarini juda qoniqarli deb hisoblagan o'sha 20 foizning ishlari juda yaxshi ketayotgan edi. Ushbu ikki narsa ko'pincha o'zaro qo'llab-quvvatlashga sababchi bo'ladi.

Oilaviy baxt va jinsiy hayotdan qoniqishning bir-biriga bog'liqligi odatiy hodisa bo'lib qoldi. Juftliklarning ichida o'z oilaviy hayotlarini baxtli, lekin birgalikdagi jinsiy hayotlarini qoniqarsiz deb hisoblaydigan 2 foiz ham bor edi. Er-xotin jinsiy aloqasiz ham baxtli bo'lishi mumkin deyilganda, bu gap birgalikda yashovchi barcha juftliklarning aynan shu kichik qismiga aloqadordir.

O'z tabiatiga ko'ra jinsiy aloqa faqatgina qovushish jarayonini anglatmaydi, lekin juftliklarning nihoyatda katta qismida jinsiy aloqa birinchi navbatda aynan qovushish deb tushuniladi. 2015 yildagi tadqiqot natijalariga ko'ra, so'nggi bir yil mobaynida jinsiy aloqalari

bo'lmagan juftliklarda, jinsiy aloqaning boshqa shakllari ham kamdan kam amalga oshirilgan.

Jinsiy aloqaning bo'lmashligi turmush o'rtoqlari orasida jismoniy yaqinlikning yo'qligini anglatmaydi. Lekin, agarda juftlikda so'nggi yil davomida qovushish bo'lmagan bo'lsa, u holda jismoniy yaqinlik ham juda kam bo'lgan. Masalan, qovushmagan juftliklardagi har ikkinchi erkak va har ikkinchi ayol bir birlari bilan o'pishmagan. Faqatgina har to'rtinchisi hafta davomida o'z jufti bilan bir necha bor o'pishgan.

O'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, birgalikda yashovchi juftlikning jinsiy munosabatlari juftlikdagi munosabatlar sifatining, shu jumladan juftlikning naqadar o'zini baxtli deb hisoblashining ehtimoli eng muhim. Baxtning kaliti ko'pincha jufting ehtiroslar jihatidan naqadar jozibali ekanligini ko'rgan va anglagan joyingda yotadi. Shunga qaramay, oldingi munosabatlar ham insonning keyingi munosabatlarda o'zini avvalgisiga nisbatan ozgina baxtliroq his qilishi jihatidan o'z izlarini qoldiradi. Baxtli bo'lish hissining amaliy ta'siri shundaki, haqiqiy jufti bilan baxtli hayot kechirish sharoitidagi boshqa munosabatlarga kirish istagi ancha kamroq bo'ladi.

**Osmo Kontula,**

*Tadqiqotchi-professor, Finlyandiyaning oila federatsiyasi*

## **97. QISHKI BALIQ OVI**

Taxminan 9500 yil muqaddam muzlik Finlyandiyaning chekindi va Saymaa-Pielinen basseyni muzdan xalos bo'ldi. Ushbu hududlarga 8500 yil muqaddam kelgan fin-ugor ovchilari baliq ovining muhimligini tushuna boshladilar. 4000 yil avval ular baliq ovi uchun yog'och va suyaklardan baliq tutish ilgaklari yasashni boshladilar. Qadimgi turar-joylar joylashgan yerlarda toshdan yasalgan qarmoqtoshlar topildi va ular odamlarning o'sha davrlarda ham o'tkirlangan qarmoq tayog'i uchini og'irlik vazifasini bajaruvchi tosh va tutqich bilan birlashtirishni bilishini isbotladi. Taxminan 5000 yillik ertagi turar-joylarda yaxshi o'tkirlangan va silliqlangan qarmoqlar topildi. Qarmoq ipi vazifasini daraxt po'stlog'i yoki



qichitqi o'tdan to'qilgan ip, hayvon paylari va ot yoli bajarar edi. Tosh asri topilmalaridan bo'lgan, los suyaklaridan yasalgan muz yorish qoziqlarining uchlari ham qishki baliq ovi amalining dalolatidir.

Qishki baliq ovi tarixining ildizlari minglab yillar avvalga taqaladi. Germann Kauffmann (Hermann Kauffmann) 1864-1866 yillardagi o'zining xotiralarida, Tampere yaqinidagi Xatanpyaya bo'g'ozida qishki baliq ovi to'g'risida yozib qoldirgan. Uning so'zlab berishicha, qishning sovuq tongida shaharlik ustalarning shogirdlari va badavlat kishilar, hayajonli baliq ovi ilinjida u yerda to'planishar va bir maromdagi yumush bilan zavq olgan holda muz ustida o'tirishar edi. Ularning barchasi qimirlamay o'tirar va baliq hech kimda tutilmaganidek tuyular edi. Suv tashish chanalari o'rindiq bo'lib xizmat qilardi. Ushbu chanalar yana boshqa foydali vazifani ham bajarardi: kechga tomon kelgan batraklar o'zlarining charchab qolgan xo'jayinlarini shaharga qaytarib tortib ketishar edi. Batraklardan muz ustida tuynuklarni qoziq bilan ochish uchun ham foydalanishar edi. Kauffmann qishki baliq ovini ijtimoiy jihatdan baholash va uning jamoat hayotidagi muhim ahamiyatida adashdi: «Zerikarli qish kunlarini o'tkazishga qisman yordam beruvchi, hozirgi kundagi sportning ushbu sog'lom, quvnoq va foydali turi unutilsa kerak. Davr o'zgardi va biz ham o'zgardik».

Qishki baliq oviga qarshi chiqqanlar doimo mavjud bo'lgan. 1902 yilda Finlyandiya hukumati qishqi baliq ovining qoidalarini chop etdi. Ushbu qoidalarga binoan, qishki baliq ovi baliqlarga beriladigan zarar sababi ko'rsatilgan holda taqiqlandi. O'sha vaqtlardagi baliq ovi jarayonida qimirlamaydigan ilmoqli qarmoqlardan foydalanilar edi va baliq xo'rakni tortgan zahoti ilmoqqa mahkam ilinib qolar edi. Amaldagi qoidalarga binoan, baliq tutilgandan so'ng darhol o'ldirilishi shart.

Muz ostidan baliq ovlash Ikkinchi Jahon Urushidan avval butun Finlyandiya bo'yicha mashhur bo'lib ketdi va urushdan keyingi yillarda misli ko'rilmagan mashhurlikka yetishdi. Qishki baliq ovining tarqalishiga o'z hunar va mohirliklarini olib kelgan ko'chmanchilar ham sababchi bo'lishdi. Har bir kishining baliq ovlash bo'yicha qonuniy huquqlari qo'shimcha ovqat topishga imkon berdi.

Sanoatning rivojlanishi natijasida, ish vaqti va baliq ovlash bilan bog'liq dam olish chegaralari aniq belgilab qo'yildi. Urushdan tirik qaytgan urush faxriylari qishki baliq ovini faol qiziqishga aylantirishdi, spirtli ichimliklar ushbu tadbirning mutlaq alomati bo'lib qoldi.

Finlyandiyadagi suv havzalarining ko'proq qismi xususiy egalik ostida va baliq ovlash jamiyatlarining nazorati ostidadir. Shuning uchun ham ruxsatnoma olish anchagina qiyin ish edi, ayniqsa 1950 yillarda. O'sha paytlarda baliqchi, baliq ovidan ko'ra ko'proq vaqtni ruxsatnoma olishga sarflar edi. Baliqchilik va muz osti baliq ovi ishqibozlari jamiyatining tashkil qilinishi ruxsatnomalar olish jarayonini osonlashtirdi va erkin baliqchilar ustidan nazoratni kengaytirdi.

Fin jamiyatida yaxshi g'oyalarga ularni yo'q qilish darajasiga qadar qarshi chiqish istagi doimo topiladi. 1982 yilda qishki baliq ovi uchun ruxsatnoma berish bo'yicha viloyat bo'limi ko'llarda olabug'aning yo'q bo'lib ketishi, sohil bo'yidagi prichal va hammomlarning buzilib ketishi bilan tahdid solar edi. 1996 yil baliq ovlash to'g'risidagi qonunga qarshi chiqqanlar tomonidan aytilgan va ushbu qonun mamlakatning mulki va konstitutsiyasiga tahdid solishi to'g'risidagi fikri bilan esda qoldi. Konstitutsiyaviy komissiya 1982 yilda akvatoriyalarga egalik qilishning baliq ovlash huquqini keltirib chiqarishini e'lon qilishga majbur bo'ldi va ushbu holat mulkchilikning ancha yaxshi shaklidir. Har bir kishining huquqi bo'lgan qarmoq bilan baliq ovlash yoki qishki baliq ovi, yoki pullik yoki bepul baliq ovlashga asoslangan viloyat yoki davlat tomonidan beriladigan ruxsatnomalar, suv havzalari va boshqa mulkchilik obyektlari egalari uchun halokat emas. Jamoatchilik tuzilmasi ham xususiy ko'l va daryolardagi baliq ovlash sababli parchalanib va buzilib ketgani yo'q. Aksincha, baliq ovlash uchun tadbirlar va sayohatlarni tashkil qilishda qishloqni rivojlantirish siyosati uchun foydalanilmayotgan ulkan imkoniyatlar yashiringan.

Qarmoq yordamidagi oddiy baliq ovi va qishki baliq ovi parlament deputatlarining tashabbusi orqali 1997 yildan boshlab har bir inson huquqiga aylandi. Albatta, ushbu huquq qonunchilik tomonidan o'zgartirilishi mumkin, lekin men ko'llarning hattoki eng ashaddiy egalari ham baliqchilik ishqibozlarining 1,5 millionlik

armiyasiga qarshi chiqadi va havaskor baliqchilik keltirib chiqaradigan o'sha ulkan imkoniyatlarini shubha ostiga qo'yadi deb o'ylamayman.

Hozirgi zamonning muz ostidan baliq ovlash havaskori, XIX asr boshlaridagi baliqchining yonida kosmonavt bo'lib ko'rinadi. Baliqchilik anjomlari issiq kombinezon yoki qutqaruv kostyumi, sovuq o'tmaydigan etiklar, parma, issiq o'rindiqli arava, yorqin rang-barang qarmoqlar, quyoshga qarshi ko'zoynak, turli xil chiroyli baliq ovlash vositalari, plastmassadan yasalgan turli xildagi va o'zidan hid tarqatuvchi xo'raklar, kechasi yelibaliq tutish uchun peshonaga taqiladigan chiroq va yana ko'plab narsalardan tashkil topgan. Kosmik texnologiya ham, misol uchun sun'iy tola va ko'plab narsalarni ixtiro qilish orqali baliqchilar uchun tengi yo'q yordam ko'rsatdi. Yangi brend va intilishlar zamonaviy baliqchining dunyosini xilma-xillashtiradi, lekin sen muzdagi tuynukka qarab xotirjamlik va o'zing bilan hamjihatlikda bo'lganingda yoki eng yaxshi do'stlaring bilan mutlaq ruhiy osoyishtalikda olamni o'zgartirayotganingdagi erkinlik qishki baliq ovining eng katta zavqi bo'lib xizmat qiladi.

**Kari Rayamyaki,**

*2003-2007 yillarda Ichki ishlar vaziri, 1983-2015 yillarda parlament deputati*

## **98. MUZDAGI DARCHADA CHO'MILISH**

Men kichkina bo'lganimda, sovuq kuz kunlarining birida uyga ho'l qo'lpaypoqlar bilan kelganim haqida onam so'zlab bergan edilar. Onam: «Qo'llaring muzlab qolmadimi?» - deb so'radilar. Men qo'llarim muzlashni boshlashi bilan, ularni eriyotgan qor ko'lmaklarida isitganim haqida javob qaytardim. Taxminimcha, ajdodlarimiz ham xuddi shu yo'l bilan, tajribalar orqali sovuq suvning isitish ta'sirini bilib olganlar.

Bundan bir necha o'n yillik o'tgach, dekabr kechasida men Krununxakadagi jamoat saunasida bo'ldim va saunaga kelgan ayol bilan morjlash to'g'risida gaplashib qoldim. U Xelsinki shahrining

«morjlar» jamiyatini juda maqtadi va ushbu to'garakka qanday yozilish mumkinligini ma'lum qildi.

Kelasi yozda men «morjlar» jamiyatiga a'zo bo'lish to'g'risida hamma narsani bilib olish uchun Liisa ismli ayolga murojaat qildim. O'sha vaqtda Liisa 80 yoshdagi tajribali «morj» edi. Men uni o'choqda baliq sho'rvasini aralash tirayotgan va quymoq pishirayotgan vaqtda ko'rdim. Bu taomlar suzuvchilarning butun guruhi uchun ramziy to'lov hisobiga edi.

Meni iliqlik va xushkayfiyat bilan kutib olishdi. Men o'sha vaqtning o'zidayoq u yerda bo'lgan yoqimli muhitga kirib ketdim. Guruh o'sha vaqtda meni o'z quchog'iga qabul qilgan katta bir oila kabi edi. Shunday qilib, men kutilmaganda «morjlar» to'garagi orqali yangi tanishlarga ega bo'ldim va bu odamlarning ichida o'zimni doimo ardoqli his qildim. Yangi do'stlar men bilan kerak bo'lgan vaqtlarda doimo gaplashishga tayyor edi. Lekin, hech kim ortiqcha savollar bilan bezovta qilmas edi, odamni odob bilan tinch qo'yishardi.

«Morjlar» jamoasidagi kollektivizm a'lo darajadadir, bu zamonaviy fin jamiyatida juda ham yetishmaydi. O'sha vaqtda hammomni bir marotabalik bug' berish uchun tayyorlashar edi. Bu ish bilan guruhning nafaqaxo'r-a'zolari shug'ullanar edi. Erkaklar va ayollar o'rtasidagi munosabatlar erkin va tabiiy edi. Har bir kishi jamiyatning ishlayotgan a'zolarining kunduzi kelib hammomni tayyorlashga imkoniyati yo'qligini tushunar edi. Bu ishni nafaqaxo'rlar mamnuniyat bilan bajarishar edi. Ushbu an'ana avloddan avlodga o'tishini hamma bilardi.

Hammom aslida muz darchasida suzishning majburiy unsuri emasdir. Hammom muntazam ravishda bug'xonada isinib olgan holda, muz darchasida cho'milishga bir necha marotaba imkon beradi xolos. Aslida esa bug'xonadan so'ng muz darchasida cho'milish – bu ikki xil mashg'ulotdir. Muz darchasida cho'milish yengillik va farog'atning tez ta'sirini beradi. Muz darchasida cho'milishlar orasida hammomga kirish katta ijtimoiy ahamiyat kasb etadi va ham jismoniy, ham ruhiy jihatdan to'liq yengillashish nuqtai nazaridan tengi yo'qdir.

Tajribam bo'yicha «morjlash» – bu ijtimoiy nuqtai nazardan a'lo darajadagi mashg'ulotdir. Muzdek suvda suzish, unga sho'ng'ish

va o'z ustidan suv quyishdan xosil bo'ladigan yengillik va erkinlik tuyg'ularini bu mashg'ulot bilan qiziqmaydiganlarga tasvirlab berish mushkuldir. Vujudning sovuq suvga tushganda sovuqqa moslashishi va tananing to'liq rohatlanishi holatiga baho berish uchun bir marotaba sovuq suvga tushish yetarli emasdir.

Bizning jamiyatimizdagi barcha «morjlar», hammaning birgalikda suzishi uchun imkon beruvchi maxsus cho'milish liboslarida suzishadi. Shunday qilib ko'pchilik oilalar, ba'zan esa bolalar ham muz darchalarida suzish bilan birgalikda shug'ullanishadi. Odatda ko'priklarida yangiliklar bilan bo'lishiladi, kunning voqealari haqida gaplashiladi va yangi latifalar aytiladi.

So'nggi vaqtlarda muz darchasida cho'milish juda ham mashhur bo'lib ketmoqda. Bu mashg'ulot uchun ham ma'lum bir anjomlar zarur. Yangi suzuvchilarning qo'llarida qo'lpaypoqlar, oyoqlarida esa bu ish uchun maxsus tayyorlangan oyoq kiyimlari kiyilgan. Mashg'ulot keng tarqalgan bo'lib qoldi va ko'pgina mashhur kishilar «morjlash» bilan shug'ullana boshladi. Ular muz darchasida qanchalik tez-tez va nima uchun cho'milayotganliklari to'g'risida bajonidil intervyu berishadi.

Lekin, eng asosiysi o'zgarmay qolmoqda – mashg'ulot hamon rohat bag'ishlamoqda.

**Paula Kokkonen,**

*2004-2011 yillarda Xelsinki shahri hokimining o'rinbosari, 1995-2003 yillarda parlament deputati, 2000-2003 yillarda Konstitutsiyaviy Qo'mita raisi*

## **99. FIN LAPTASI**

Fin laptasining tarixi o'z ildizlari bilan yuzlab yillar avvalga tutashib ketadi. Finlyandiyada to'p o'yinlari XVII asrda ham mavjud edi. Ushbu o'yinlarning bir qismi, o'rta asrdagi skandinav va nemis o'yinlarining tarixi bilan bir xil. To'plik o'yinlar ayniqsa XIX asrning oxirlarida mashhur edi. Quvnoq va ko'ngilochar, ular odamlarni ham shaharlarda, ham qishloqlarda birlashtirar edi.

Taxko Pixkala zamonaviy fin laptasining asoschisi hisoblanadi. Bu voqea 1922 yilda, eski to'p o'yinining qoidalari asos sifatida olinib, guruh o'yinini musobaqa ruhiga qaramay boshchilikka qo'ygan yangi o'yin qoidalari ishlab chiqilgan vaqtda ro'y berdi. Taxko o'zining yangi qoidalarini ham kiritdi: to'pni tutish paytidagi shikastlanish xavfi va bir uychadan ikkinchisiga yugurib o'tishga halaqit beruvchi juda tor yo'lak. Shuningdek, u Amerika beysbolidagi qoidalarining bir qismini ham oldi. Shu tufayli Taxko Pixkala fin laptasini aynan milliy sport turi sifatida yaratgan edi. Buning maqsadi yoshlarni sport bilan shug'ullanishga jalb qilish, odamlarni birlashtirish va mamlakatni himoya qilish uchun tayyorgarlikni oshirishdan iborat edi.

Fin laptasi xalqaro maqomga ega bo'lolmagan milliy sport turi bo'lganligiga qaramay, u mamlakatda juda keng tarqalgan. O'yinning yosh va tayyorgarlik darajasidan qat'iy nazar hamma uchun mos kelishi, hamda qimmatbaho sport anjomlari va o'yin maydonlarini talab qilmasligi, uning hamma yerda keng tarqalishiga ko'mak berdi. O'yin maktablarda ham sevimlidir. Xalq butun mamlakat bo'yicha bo'layotgan musobaqalarni bajonidil kuzatadi.

Fin laptasini Finlyandiya, Shvetsiya, Shveytsariya, Angliya, Norvegiya, Avstraliya, Estoniya va Yangi Zelandiyada o'ynashadi. Chet elda, Estoniyani hisobga olmaganda, o'yinni Finlyandiyadan ko'chib kelganlar o'ynashadi. Fin laptasi ular uchun vatan bilan aloqada bo'lish va milliy madaniyatni saqlash sifatidadir.

Fin laptasining yuksalishi urushdan keyingi davrga to'g'ri keldi. Sanoatning rivojlanishi va mamlakatni urushdan keyin qayta tiklash aynan o'sha vaqtda boshlandi. Fin laptasi o'z mohiyati bilan mamlakatning barcha aholisini sinflarga ajratmagan holda bog'lab turuvchi rishtaga aylandi.

Fin laptasi – bu sportning musobaqa turidir va laptaning rivojlanish jarayoni, sportning har qanday boshqa musobaqa turining rivojlanishini aks ettiradi. XX asrning oxirgi o'n yilligida ushbu sport turi juda ham tijoratlashib ketdi. Yirik pul tikishlari va kelishib olingan o'yinlar sal qolsa mashhur sportni halok etardi.

Fin laptasining ushbu inqirozida, o'yinning kelajakdagi rivojlanishi uchun ijobiy ta'sir ham topildi. O'yin jamiyatning zamonaviy ehtiyojlari hisobga olingan holda o'z asoslariga

qaytarildi. Odamlarning jamoat ishlarida o'zlarini ko'rsatishlariga imkon beruvchi Fin laptasi jamiyatini tashkil qilish g'oyasi shunday paydo bo'ldi. Fin laptasi jamiyati madaniyatni rivojlantirish va yangilashdagi muhim bo'g'in hisoblanadi. U jismoniy tarbiya, sport va jamoat rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Jismoniy madaniyat Fin laptasi jamiyati orqali butun mamlakat aholisining salomatlik va qobiliyat darajalarini aks ettiradi.

Fin laptasi – bu ko'p qirrali va ijodkorona sport o'yinidir, lekin faqat bugina ham emas. Bu agrar jamiyatda fin zukkoligi va ayniqsa, bolalar va yoshlar tarbiyasi va insonlar o'rtasida muloqot qilishdagi ijtimoiy ehtiyojlar natijasi sifatida paydo bo'lgan ijtimoiy innovatsiyadir. Ushbu holat hozirgi kompyuterlashgan jamiyat sharoitlarida ayniqsa muhimdir.

2006 yilning fevral oyida, madaniyat vaziri Tanya Karpelaga turli xildagi jamoat tashkilotlarining faoliyati bo'yicha taqdim qilingan hisobotda, Fin laptasi jamiyati sport va jismoniy tarbiyani targ'ib qilish sohasidagi faol faoliyat namunasi sifatida ko'rsatib o'tilgan.

**Markku Pullinen,**

*1974-2006 yillarda Fin laptasi jamiyatining ijrochi direktori*

## **100. SKANDINAVCHASIGA YURISH, YOKI TAYOQLAR BILAN YURISH**

Skandinavchasiga yurish yoki tayoqlar bilan yurish Finlyandiyada ham sport yurishining mashhur va keng tarqalgan turi bo'lib qoldi. Ushbu maqolani yozish paytida taxminan 800 ming kishi har hafta skandinavchasiga yurish bilan shug'ullanmoqda va finlarning 1,5 milliontadan ortig'i yurishning ushbu turi bilan eng jiddiy maqsadlarda tanishgan. Tayoqlar bilan sport yurishi Markaziy Yevropa va Yevropaning boshqa Shimoliy Mamlakatlarda Finlarning ko'rsatgan o'rnagi orqali chinakam shov-shuv yaratdi. Hozirgi kunda ushbu mashg'ulot dunyo bo'yicha tarqalgan.

Yurishning ushbu turining boshlang'ich asoslarini aniqlash hozirda mushkuldir. Apostol Pavel o'z vaqtida yirtqich hayvonlarni tayoq yordamida haydagan edi. Alp tog'larida yurish davomida

tayoqlardan foydalanilgan. 1950 yillardagi sport musobaqalarida sport tayoqlari bilan tabiat qo'ynidagi aerobika bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazilgan. Tayoqlar bilan yurishning ommaviy bo'lib ketishining boshlanishi deb, 1980 yillarning oxirlarida «Fin chang'i yo'li» jamiyati tomonidan tashkillashtirilgan sport tadbirini hisoblash mumkin. Unda jamiyat chang'i safarini fin sportchisi Lauri Taxko Pixkalaning haykalini ziyorat qilish orqali amalga oshirishga qaror qildi. O'sha yilda qor yo'q edi. Shu sababli Maunuladagi kulbadan boshlab yo'lni piyoda, chang'i tayoqlari bilan bosib o'tishdi. «Fin chang'i yo'li» jamiyatining boshqaruvchisi Tuomo Yantunen ushbu fikrning muallifi edi.

Ushbu sayohatdan so'ng tayoqlar bilan yurish mashg'uloti tarqalishni boshladi va 1990 yillarning o'rtalarida yurish uchun maxsus tayyorlangan tayoqlar savdoga chiqdi. Ushbu mashg'ulot bilan tobora ko'proq odamlar qiziqishni boshladi. 2001 yilda men Finlyandiya Parlamenti qoshida tayoqlar bilan sport yurishi to'garagini tashkil qildim. Bunga munosabat ijobiy bo'ldi: sportning ushbu turida ishtirok etish niyatidagilar soni tobora ko'paymoqda edi.

Biz har yili parlamentda tayoqlar bilan yurish bo'yicha g'olibni tanlaymiz.

Sport yurishining salomatlikka bo'lgan ta'siri o'rganib chiqildi va natijalar hayratga soladi. Umuman olganda, ushbu mashg'ulot harakatlanishga va o'z vujudining charchayotganligining belgilarini payqashga qodir bo'lganlarning barchasiga to'g'ri keladi. Agarda tayoqlar odamning bo'yiga mos ravishda tanlangan va kishi yurish texnikasidan xabardor bo'lsa, u holda unumdorlik oddiy yurishga nisbatan 40-50 foiz ko'proq bo'ladi. Bundan tashqari, tayoqlar bilan yurish tizzalarga tushadigan og'irlikni 30 foizga kamaytiradi. Ushbu mashg'ulot bolalardan to keksalargacha bo'lgan barcha yoshdagilar uchun mos keladi. Taxminan bir soat davomida yurish tavsiya etiladi. Ayni vaqtda to'rtta «P»: Pitää pystyä puhumaan puuskuttamatta qoidasiga amal qilish, ya'ni gapirgan vaqtida nafasi qisilib qolmaydigan holatda yurish zarur. Haftasiga ikki marotaba amalga oshiriladigan, muntazam ravishdagi bir soatlik mashg'ulotlar jismoniy holatni ushlab turadi. Yanada tez-tez amalga oshiriladigan mashg'ulotlar esa odamni pishiqroq qiladi.



Ustiga-ustak, yurish mijoz va ruhiy holatga ta'sir ko'rsatadi va vaznni nazorat qilishga ko'maklashadi. Badandagi yog'larning erishi taxminan bir soatlik yurishdan keyin boshlanadi, shu sababli vaznning kamayishi ham mumkin.

Sport yurishi hamma yerda tarqalgan. 2000 yilda Finlyandiya harbiy jurnali, Gvardiya yegerlik polki tarkibidagi Uusimaa yegerlar batalyoni uchun tajriba mashg'ulotlarini tashkillashtirdi. Unda askarlar to'liq qurol-aslahalar bilan ta'minlangan holda 7 kilometrlik tezkor marshni amalga oshirishlari kerak edi. Tayoqlar yordamida yurgan askarlar ayni vaqtda o'zlarini ancha yaxshi his qilgan holda ushbu masofani tayoqsiz yurganlarga nisbatan 3 daqiqa ertaroq bosib o'tishdi. Askarlar tejab qolingan 3 daqiqani balandliklarga ko'tarilishda yutishdi. Askarlarning fikriga ko'ra, mashg'ulotlar xizmat o'tash uchun ijobiy tajriba berdi.

Tayoqlar bilan yurish, bardavom qolish uchun keldi. U juda mashhurdir va unga nisbatan qiziqish ko'payib bormoqda. Aholi o'rtasida 1998 yilda o'tkazilgan so'rovlar hech kimning tayoqlar bilan yurishga qiziqmasligini ko'rsatdi. Hozirgi kunda esa, Yevropa miqyosida tayoqlar bilan yurish mashg'ulotlarida faol qatnashuvchi millionlab odamlar haqida so'zlash mumkin. «Fin chang'i yo'li» jamiyati, Finlyandiya sport o'quv yurti va ehtimol, yana ko'plab boshqa tashkilotlar, shuningdek, sport yurishi texnikasi bo'yicha murabbiylar va sport inventari ishlab chiqaruvchilari birgalikda yaxshi ixtironi amalga oshirdilar. Uning yordamida fin o'zining jismoniy holatini yaxshi darajada tutishga osonroq erishmoqda.

**Ero Akaan-Penttilya,**

*Parlament deputati, 1999-2011 yillarda parlamentdagi skandinavchasiga yurish klubining prezidenti*

## **101. IDISH-TOVOQLARNI QURITISH SHKAFI**

Mehnat unumdorligini oshirish institutining 1940 yildagi ixtirosi, fin oshxonasini yanada ratsional qilib qo'ydi. Boshlang'ich holat oddiy emas edi: shahar xonadonlaridagi oshxona va uy xizmatchisining xonasi xonadonning hovli tomonidagi qorong'u qismida joylashgan va oshxonadan yemakxonagacha bo'lgan yo'l

ko'pincha uzun va egri edi. Qishloq hududlarida taomni tayyorlash bir xonada amalga oshirilardi. O'sha xonada ham uxlashar, ham boshqa uy yumushlarini bajarishardi edi. Odatda ushbu xona keng, lekin undan foydalanish unumdor emas edi. Anjomlarni saqlash uchun maxsus joy bo'lmaganligi sababli, ular kulbaning hamma burchaklarida yotar edi. Idish-tovoq tog'orada yuvarlar, 1920 yillardan boshlab esa rux bilan qoplangan maxsus stolda yuvarlar edi

Ratsional qarorlar uy yumushlarini bajarish davomida sarflanadigan vaqt va ushbu ishlarning qiyinchiligi bo'yicha tadqiqotlarga asoslangan edi. Uy yumushlarining taxminan yarim qismi ovqat tayyorlash bilan bog'liq edi. Tik turish, biron narsa olish uchun cho'zilish, egilish va biron narsani tashish – bularning barchasi charchatar va ko'p vaqt olardi edi. Mayyu Gebxard ayolning umri davomida taxminan 29 ming soat yoki 10 yil mobaynida kuniga 8 soatdan dam olish kunlarisiz idish-tovoq yuvishini hisoblab chiqdi.

Oshxonani qayta jihozlash hisobiga ushbu muddatni taxminan 3 soatga kamaytirishga muvaffaq bo'lindi.

Qishloq hududlarida suv tizimlarini o'tkazish oshxonadagi mehnatni kamaytirish uchun birinchi shart edi. Issiq suvni o'tkazish ham muhim edi. Idish yuvish mashinalari hali Amerika yangiliklarida endigina tanilayotgan vaqtlarda, Mayyu Gebxard idish-tovoq yuvishni yengillashtiradigan uchta yo'nalishni belgilab qo'ydi. Birinchisi – idish-tovoqlarni tejash. Sho'rva solinadigan chiroyli likopchalardan ikkinchi taomlarni solish uchun ham foydalanish mumkin. ikkinchisi – idish-tovoq yuvish jarayonini eng unumli darajada tashkillashtirish: ishlatilgan idish-tovoq uchun joy, issiq suv bilan yuvish chanog'i va chayish chanog'i o'ng tomondan chap tomonga qarab joylashadi. Uchinchisi – idish-tovoqni quritish bosqichidagi tejash.

Mehnat unumdorligini oshirish institutining tadqiqotlariga binoan, quritish shkafining eng maqbul holda joylashishi bir kunda yarim soatdan ikki soatgacha bo'lgan vaqtni tejashga imkon berdi. Shu bilan birga, idish-tovoq sochiqlari ham tejab qolinadi. Oshxona stoli ham boshqa maqsadlar uchun bo'shatilgan bo'lar edi. Oshxona devorlaridan idish-tovoq quritishda foydalanish fikri

shunday paydo bo'ldi. Tokchalar yuvilgan idishlarga chang tushmasligi uchun devorlar bilan yopib qo'yildi. Quritish shkafi shunday paydo bo'ldi.

Ilk quritish shkaflari yog'ochdan yasalgan quritish joylariga ega edi. Oshxonalarining ko'pchiligida quritish shkafi yagona mebel jihozi edi. Mehnat unumdorligini oshirish institutining uy-ro'zg'or bo'limida, 1940 yillarda uy mebellarini loyihalashtirish ishlari bilan shug'ullanishar edi. Mebel chizmalarini aynan o'sha joydan olish mumkin edi. Quritish shkaflari Mehnat unumdorligini oshirish institutining ustaxonasida sotish uchun yasalar edi.

Oshxona mebelining sanoat darajasida ishlab chiqarilishi 1948 yildan boshlandi. «Enso-Guttsayt Tornatori» zavodlari birinchi bo'lib Mehnat unumdorligini oshirish institutining tadqiqot natijalari va ratsional takliflari asosida tayyorlangan «Enso» mebellarini ommaviy ravishda chiqarishni boshlashdi. Ushbu mebel jixozi qoshiq, vilka va pichoqlar uchun yog'och bo'limlar va qozon qopqoqlarini ilish uchun shkafning eshigiga o'rnatilgan maxsus tutqichlar kabi qulay moslamalarga ega edi.

Odamlar ancha vaqtlardan beri idish yuvish mashinalaridan foydalanishayotgan bo'lsa ham, quritish shkafi hanuzgacha keng tarqalgandir. Quritish shkaflarida kastyullar, oziq-ovqat mahsulotlarini muzlatish uchun plastmassa idishlar, vazalar, yog'ochdan va kumushdan yasalgan buyumlar quritiladi. O'tgan asrning to'qsoninchi yillarining boshlarida, Mehnat unumdorligini oshirish instituti quritish shkaflarini yangi tadqiqotlar natijalari bo'yicha o'zgartirdi. Idishlarni quritish panjarasining kataklarini mayda buyumlar tushib ketmasligi uchun kichikroq qilishdi. Idish yuvish vositalarini alohida ajratib qo'yishdi, bolalar so'rg'ichi va idishlari kabi yengil plastmassa buyumlari uchun shkafning eshigida maxsus joy ajratildi; bulardan tashqari, shishalar uchun maxsus savat o'rnatildi. Quritish shkafining pastki bo'limlarida katta, og'ir narsalar turadi, likopchalar ustki tokchalarda quritiladi.

**Pirkko Kasanen,**

*Mehnat unumdorligini oshirish institutining tadqiqotlar bo'yicha  
sobiq direktori*

## 102. KIR YUVISH HAVOZALARI

«Gilam va poyandozlarni yuvishda ko'p miqdorda suv kerak bo'ladi. Yuvish joyi shunday tashkil qilinishi kerakki, unda gilam yoki poyandozning bir tomoni cho'tka bilan yuvish jarayonida suvda turishi kerak. Gilam yoki poyandoz chayilganidan so'ng siqilmagan holda o't yoki qoya ustida, albatta soyada qurish uchun qoldiriladi». Poyandozlarni yuvish bo'yicha bunday tavsiyalar 1938 yilda chop etilgan «Ro'zg'or tutish asoslari» kitobida berilgan.

Ko'p miqdordagi suv va ochiq havoda quritish imkoniyatlari, suv havzasi qirg'og'iga chiqishi mumkin bo'lganlardagina mavjud edi. Shaharliklar uchun bunday imkoniyatlar mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari tomonidan kir yuvish havozalarini qurib berish orqali yaratib berildi. 1890 yildayoq Tamperedagi Xyameenlin ko'prigining chekkasida ham kir kiyim-kechak, ham poyandozlarni yuvish mumkin bo'lgan havozalar qurildi. Keyinchalik shaharlarda kir yuvish xonalari qurilgan edi. Vaqt o'tgan sayin kir yuvish mashinalari oilalardagi kir yuvish ishlarini yengillashtirdi. Lekin, kir yuvish havozalari hamon kerakli edi, faqat endilikda ularni gilam va poyandozlar yuvish havozalari, yana yozgi mehmonxona deb atashdi.

Finlyandiyadagi oddiy poyandoz – bu mato qiyqimlaridan tikilgan poyandozdir. Poyandoz o'zida ekologik jihatdan tozalik va ayollarning ishbilarmonligini birlashtirdi. Quroqli poyandoz tikish uskunasi eski kiyimlardan hosil bo'lgan poyandoz matosi bilan o'zaro bir-biriga bog'langan latta qiyqimlaridan tikiladi. Quroqli poyandoz o'z nomi va tarkibidan qat'iy nazar, uy gazmolining muhim namunasi va uy bekasi mahoratining ko'rsatkichidir. Poyandozning pishiqligi, chekkalarining tekisligi, chiziq va ranglarning mosligi – bu ishning bosh mezonlaridir. Uyda tikilgan poyandozlarni asrashadi va avaylashadi. Poyandozlarni suv havozalarida yuvish juda keng tarqalgan. Shu bilan birga, yuvilgan poyandozlar uyga tozalik va xushbo'ylik olib kiradi.

Avvallari suv havozalari tosh ustiga tashlangan bir juft taxtadan iborat bo'lar, ularning ustida ayollar poyandozlarni cho'tkalar bilan yuvishar edi. Vaqt o'tgan sayin suv havozalarini kengroq va baquvvatroq qilib qurishni boshlashdi. Ko'pchilikning fikri bo'yicha,

havozalar ustiga qo'yilgan va kir yuvuvchilar uchun ularning ichida bellarini bukmasdan turib poyandozlarni yuvishlariga imkon beruvchi katta bochkalar yaxshi qo'shimcha bo'lib xizmat qildi. Havozalarning tekis bo'lgan ustki qismi poyandozlarni cho'tka bilan yuvish vaqtida ularning shaklini buzmasligi muhim edi. Havozalar shundaygina suvning ustida qurilganligi tufayli suv olish va poyandozlarni chayqash oson kechardi.

Gilam va poyandozlarni yuvish havozalari hanuzgacha ham sohillarda joylashgan, lekin shahardagi havozalarda kir yuvish joylari qirg'oqqa ko'chirilgan va oqava tizimlariga ulangan. Shu yo'l bilan suv havzalarining ifloslanishiga chek qo'yilgan. Ekologiyaga g'amxo'rlik qiluvchi odam ishlatilgan suvning to'g'ridan-to'g'ri suv havzasiga tushishiga yo'l qo'ymaydi. Tabiat uchun mutlaqo xavfsiz bo'lgan kir yuvish kukuni mavjud emas, lekin eng katta ifloslanish poyandozlarni yuvishdan hosil bo'luvchi balchiqdan kelib chiqadi.

Suv, cho'tka, qarag'ay sovuni va oziq-ovqat solingan savat – hanuzgacha ham gilam yuvishning asosiy vositalaridir. Yaxshilab ivitilgan poyandoz ikki tomondan va olti yo'nalishda cho'tka yordamida yuviladi. Hozirgi vaqtda uzun dastali cho'tkadan foydalaniladi. Atrof-muhit uchun unchalik zararli bo'lmagan qarag'ay sovuni yuvish uchun odatiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Suyuq holatdagi qarag'ay sovuni suvda yaxshi erib ketadi.

Poyandozlarni mo'l suv bilan yaxshilab chayish – ularni yuvishdagi eng muhim harakatdir. Tajribasi yo'q uy bekasi poyandozlar yuvilganidan so'ng rangini yo'qotadi va chekkalaridan boshlab sarg'ayishni boshlaydi deb tan olishi mumkin. Poyandozning ranglari o'chib ketmasligi uchun u uzunasiga, chiziqlar bo'yicha ilinadi. Agarda poyandoz sarg'ayib qolsa, bu holat uning yetarli darajada chayqalmaganligi yoki juda ham uzoq vaqt quriganligidan dalolat beradi. Poyandoz tik qo'yosh nurlari ostida kuyib ketishi mumkin, shuning uchun ham uni soyada quritish lozim. Ko'plab suv havozalarida siqish pressi yoki g'altakmola ham bor. Ularning yordamida ortiqcha suvni siqib chiqarish mumkin.

Tabiat qo'ynida, suvning yonida gilam va poyandozlarni yuvish hanuzgacha ham finlarning yoqimli mashg'ulotlaridan biridir. Yuvish uchun eng yaxshi vaqt – bu yozning boshidagi quyoshli

kundir. Iliq shabada poyandozlarni tezda quritadi. Toliqtiruvchi yuvishdan so'ng tamaddi qilish yoqimlidir. Foydali ravishda va boshqa odamlar bilan birgalikda o'tkazilgan vaqt kollektivizmning bebaho tajribasini beradi.

**Pirkko Ruuskanen-Parrkoski,**

*2015 yildan boshlab Finlyandiya aholi punktlari federatsiyasi bo'limi  
boshqaruvchisi*

### **103. QURUQ HOJATXONA**

Hojatxona – bu huddi boshpana, ovqat va toza suv kabi muhim ishdir. Afsuski, bu hayotiy ehtiyoj ekanligiga qaramay inson huquqi emasdir. Finlyandiya deyarli bir million kishi shahar suv-oqava tizimlariga ega bo'lmagan holda yashamoqda. Ular suvli oqava tizimi bo'lmagan, ya'ni quruq hojatxonalaridan foydalanishadi.

Aholining joylashishi siyrak bo'lgan hududlarda suv-oqava tizimini qurish samarador emas. Bundan tashqari, hojatxonalar tabiatga zarar keltirmaydi. Oddiy odamlar o'rtasida hojatxonalar va ko'chadagi hojatxonalar axlatlaridan foydalanish to'g'risidagi suhbatlar odatdagi holdir. Finlyandiya suv bilan ta'minlash va oqava suvlarni chiqarish bo'yicha xalqaro miqyosda talabga ega bo'lgan yuqori bilim va tajribaga ega va bunga quruq sanitariyadan foydalanish tajribasi ham a'lo darajada qo'shimcha bo'lishi mumkin.

Insonning hayoti davomida kelib chiqadigan chiqindilarni yo'q qilish bo'yicha barqaror yechim haligacha ham topilgani yo'q. yer sayyorasida yashovchilarning atigi beshdan bir qismi suv-oqava tizimlari mavjud bo'lgan joylarda yashamoqda, dunyodagi oqava suv va chiqindilarning atigi 50 foizi tozalash inshootlariga kelib tushmoqda. Sayyoradagi aholining uchdan bir qismi o'z hayotida biron marotaba ham hojatxonaga kirmagan.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda sog'likni saqlash uchun ajratiladigan, shusiz ham juda kichik bo'lgan byudjetning yarmi diareya va shaxsiy gigiena qoidalarini saqlamaslik oqibatida kelib chiquvchi boshqa kasalliklarni davolash uchun sarflanadi. Iste'mol qilish uchun iflos suvdan foydalanish odamlarni zaiflashtiradi va

bolalar, OIV-infeksiya bilan kasallanganlar va keksalarni nobud qiladi. Bu kuniga 5000-6000 bolani o'ldiradigan ommaviy qotildir.

«Quruq hojatxona» jamiyati o'z faoliyati orqali Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qo'yilgan barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga ko'maklashadi. Oltinchi raqamdagi barqaror rivojlanishning maqsadi, hamma uchun suv manbalari va sanitariyaning mavjudligi va ratsional foydalanilishini ta'minlashdan iboratdir. Hojatxonadan foydalanmaydigan odamlar sonini ikki hissa kamaytirish zarur. Professional darajada qayta ishlangan quruq sanitariya, tarkibida yuqumli kasalliklarni keltirib chiqaruvchi patogen bakteriyalar mavjud bo'lgan axlatlarning tarqalishiga yo'l qo'ymaydi. Axlatlardan yerni boyintirishda foydalaniladi. Agarda tabiatda juda kam miqdorda uchraydigan, o'sish minerali bo'lmish fosfor modda almashinuviga qaytadigan bo'lsa, u holda ochlik muammosi qisman hal etiladi. Qoloq mamlakat va hududlarning xo'jalik, ijtimoiy va ekologik nuqtai nazardan barqaror rivojlanishi kasalliklar, ochlik va qashshoqlik yengilgan vaqtlarda amalga oshishi mumkin. Bularning barchasi uchun toza suv va ichimlik suvlari zahirasining himoyasi zarur. Hojatxona ham teng huquqlilik masalasidir. Har kim hojatxonadan xavfsiz foydalanish huquqiga ega. Hojatxonalarni tozalaydigan ishchilar ham e'tirofga loyiqlar.

2015 yilda jamiyat Tampere shahrida beshinchi marta xalqaro konferentsiyani o'tkazdi. Dunyoning turli joylaridan kelgan mutaxassislar uchrashishadi, bilim va tajribalarni almashishadi va yangi g'oyalarni kiritishadi. Konferentsiya maqolalari kitob holatida chop etiladi hamda diskga yoziladi. Konferentsiya o'quv markazi ham hisoblanadi, chunki bunday sohadagi ta'lim muassasalari soni kam, o'quv materiallari esa umuman yo'q.

Barcha ma'lumotlarni bir o'rtaga to'plash kerak. Tadqiqot va tajribalar o'tkazishni davom etish, yangi texnika va uskunalarni yaratish lozim. Konferentsiya doirasida muntazam ravishda tashkil qilinadigan oqava tizimlari jihozlarining «Quruq hojatxona» (Dry Toilet) nomli ko'rgazmasi ishlab chiqaruvchilarni jalb qiladi va konferentsiyadagi ma'ruza va bayonot ma'lumotlari to'g'ridan-to'g'ri ularga ham yetib boradi.

**Asta Rayala,**  
*«Quruq hojatxona» jamiyatining sobiq prezidenti*

## 104. «TELBALAR HAYOTIDAN» LATIFALAR

O'ziga past baho berish ruhiy kasalliklarga chalingan odamlarning eng asosiy muammolaridan biridir. 1990 yillarda Ruhiiy kasalliklar ittifoqi ruhiy kasallar tomonidan o'zlariga beriladigan bahoni yuksaltirish loyihasini amalga oshirishni boshladi. Loyiha yo'nalishlarining biri ruhiy kasallar, psixiatr-shifokorlar va ruhiy kasalxonalar to'g'risidagi latifa, hazil va voqealarni to'plashdan iborat edi. Tadqiqot uchun ma'lumotlar Ittifoq a'zolarining o'zlari tomonidan taqdim qilinadi, shuningdek, kasalxonalar xodimlari ham latifalar to'plashda qatnashar edi.

Ma'lumot to'plash kutilganidan ham ko'proq natijalar berdi. Ayniqsa ruhiy kasalliklarga chalingan odamlar unda faol ishtirok etishdi. Ma'lumot to'plash jarayonida ular o'zlarining ustilaridan kulishni o'rganishdi va bu narsa sog'ayib ketishning mutlaq shartlaridan biri edi. Latifa va voqealarning 90 foizi aynan ruhiy kasalliklarga chalinganlar tomonidan to'plangan edi. Yozuvchi Kalevi Kalemaa «Unitazda baliq ovlash mumkinmi?» (1997) nomli kitobi uchun 400 donadan ortiq latifa va cho'pchaklarni tanlab oldi. Finlyandiya uchun katta miqdor hisoblangan, adadi 30 ming nusxadan iborat bo'lgan kitob juda mashhur bo'lib ketdi va shu zahotiy o'q tarqalib ketdi. Kitob chop etilganda Ittifoq boshqaruvchisi Yussi Syarkelya va yozuvchi Kalevi Kalemaa, ko'p sonli ruhiy kasalxonalar bemorlaridan iborat tinglovchilarni to'plagan kulgi va yumor kechalarini o'tkazib butun Finlyandiyaning aylanib chiqishdi.

Mayla unitaz yuvish cho'tkasini xarid qilganidan ikki kun keyin do'konga qaytarib berdi. Sotuvchi: «Siz biron-bir kamchilikni topdingizmi?» - deb savol berdi. Mayla: «Yo'q, hammasi ko'ngildagidek shekilli. Faqat qog'ozdan foydalanish yoqimliroq ekan» - deb javob berdi.

Loyiha doirasidagi faoliyat bo'yicha berilgan fikrlar ijobiy bo'lsa ham, ushbu kompaniyaga qarshi chiqqanlar ham topildi. Ba'zi bir ruhiy kasallar jiddiy mavzularga yumor bilan munosabatda bo'la olmadilar va buni tushunsa bo'ladi. Ayniqsa, buni kasallarning yaqinlari va qarindoshlari og'ir qabul qildilar. Bu narsa avvalambor kasallikning ham bemor, ham uning yaqinlari uchun og'ir hodisa



ekanligi bilan ifodalanadi. Shuningdek, sog'likni saqlash muassasalari ham kasallarning hammasini parvarish va davolash bilan ta'minlay olmaydi. Qarindoshlarning zimmasiga katta mas'uliyat tushadi.

«Telbalar hayotidan latifalar» keyinchalik ruhiy kasallarning tashabbusi bilan davom etdi. Shu orqali Ittifoqning tamoyillari hayotga quyidagicha tadbiiq qilindi: ruhiy kasalliklarni davolash va oldini olishning rivojlanishi va faoliyati, Ittifoqning 20 ming nafardan ortiq odamni birlashtiruvchi 150tadan ortiq mahalliy bo'limlarida faollashdi.

Ruhiy kasallarning o'zlariga beradigan baholari yuksaldi, ular o'z bo'linmalarining tutgan o'rni haqida ko'proq narsalarni o'rganishdi va ushbu holat endilikda o'z a'zolarining ehtiyojlari va xohishlarini ko'proq e'tiborga oluvchi Ittifoqning strategiyasi va siyosatida aks etdi.

**Yussi Syarkelya,**  
*publitsist-adib*

## **105. «AFRIKA YULDUZI» O'YINI**

Ilk stol o'yini bo'lgan «Afrika Yulduzi» o'yini 1951 yilning kuzida dunyoga keldi. Kari Mannerla ismli yosh fin dunyodagi eng yirik olmos bo'lmish «Afrika Yulduzi» haqida o'qib qoldi va Afrikaning ingliz tilidagi xaritasini qo'liga oldi. U ushbu xaritadan o'ziga yoqqan topografik nomlarni tanlab oldi. U yo'l chiziqlarini chizib, kema va samolyotlarning yo'nalishlarini qo'yib chiqdi. Bulardan so'ng, u o'yin davomida faqatgina tanlangan yo'nalishda harakat qilmasa ham bo'lishini o'yab topdi. Har kim o'z yo'lini tanlashi mumkin. O'yinning eng bosh g'oyasi – bu bir tomonida rasm chizilgan va o'yinchilar ularning tagida nima yashiringanligi bilmasliklari uchun o'yin maydoni bo'yicha rasmi pastga qarab yotqizilgan fishkalar edi. Qaroqchi va taqalar o'yinning qo'shimcha unsurlari edi.

Kari Mannerla 14 yoshligidan boshlab o'nlab turfa o'yinlarni o'yab topgan: «Totalizator poygalari», «Bosqinchini ushlash», «Marsdagi urush», «Dengiz dahshati», «Inklar xazinasini» va boshqalar. U o'yinlarni uncha katta bo'lmagan, bir martalik haq

evaziga maktab anjomlari do'konlari kompaniyasiga sotar edi. Keksa sotuvchi odatda: «Mana, o'yinchi yana kelayapti» - deb aytar edi.

«Afrika Yulduzi» Kari Mannerlaning so'nggi o'yini edi. U uni 19 yoshligida o'ylab topgan va uning katta yutuq bo'lishini taxmin qilgan edi. U o'yinni «Tilgmann» nashriyotiga taklif qildi. Narx ustida ikki yil tortishildi va oxir-oqibatda Kari o'n mingta nusxani tayyorlash uchun uncha katta bo'lmagan mualliflik gonorariga rozi bo'ldi. Biroq bitta shart qo'ydi: keyingi tiraj bo'yicha shartnoma alohida tuzilishi shart. Bosmaxona boshqaruvi darhol rozi bo'ldi, chunki ular bu o'yinning ikkinchi tiraji bo'lmasligiga amin edilar. Ammo buning aksi bo'ldi. O'yin kelgusi yilning o'zidayoq 10 000 nusxalik tirajda chiqdi va uning tiraji yillar sayin ortib bordi. yetti yil ichida 100 mingtadan ko'p o'yin sotilgan edi.

«Tilgmann» nashriyoti o'yin ishlab chiqarishni 1971 yilda to'xtatdi. Undan keyin o'yinning ishlab chiqarilishi bilan «Palete» kontserni shug'ullandi, 1992 yilda esa ishni «Peliko» bosmaxonasi davom etdi. «Peliko» bosmaxonasining asoschisi bo'lgan Esko Eronen o'yinning marketingi bilan 30 yil davomida, hali «Palete»da ishlagan vaqtlaridan beri shug'ullangan.

«Afrika Yulduzi» o'yinining millioninchi nusxasi 1968 yilda sotilgan. Kuusamodagi maktab o'quvchisi bo'lgan qizcha o'yinni xarid qilgan bo'lib chiqdi va o'yin bilan birgalikda sovg'aga ham ega bo'ldi. 2013 yilga kelib mamlakatda ushbu qiziqarli o'yinning 4 milliondan ko'proq nusxasi sotilgan. Butun dunyoda esa jami bo'lib «Afrika Yulduzi» o'yinining 3,5 million nusxasi sotilgan. O'yin Shvetsiya, Norvegiya va Daniyada ham huddi Finlyandiyadagidek mashhurdir. Avstriyada ushbu o'yin 20 yildan beri o'ynalmoqda. Rossiya, Estoniya, Vengriya va Chexiya – bular sotish uchun yangi bozorlar.

Ehtimol, uning asoschisi o'yinni sotuvga juda kech, 1980 yillarda taklif qilganligi sababli o'yin keng miqyosdagi bozorga baribir chiqolmadi. Stol o'yinlarining dunyodagi eng yirik yetkazib beruvchisi bo'lgan Amerika Qo'shma Shtatlari o'yinni tarqatishga qiziqish bildirmadi va Afrikaning 1950 yillarda mashhur emasligini, o'yin harakatlarini Yaqin Sharqqa ko'chirish kerakligini ta'kidlab o'tdi. Kari javoban unda Tarzanni ham o'sha joyga ko'chirish

kerakligini aytdi. Nemis nashriyotlarining fikriga ko'ra, «Afrika Yulduzi» o'yining boshqa sarguzasht o'yinlaridan hech qanday farqi yo'q ekan. O'yinni ingliz tilida chop etish uning butun dunyo bo'yicha tarqalishiga yordam berar edi, lekin turli sabablarga ko'ra buning uddasidan chiqishning iloji bo'lmadi. Shveysariyada o'yin nemis, frantsuz va italyan tillarida chiroyli bezatilgan rusumda chop etildi. Biroq, ayrim sabablarga ko'ra ikki yildan so'ng bozordan chiqarib tashlandi.

Kari Mannerla nafaqaga chiqqanida o'yinning qartadagi talqinini chiqarish fikriga keldi. 1966 yildan boshlab 50 mingdan ko'p «Afrika Yulduzi» qarta dastalari sotildi. U Veikkaus nomli qimor o'yinlari korporatsiyasi bilan «Afrika Yulduzi»ning rasmi tushirilgan lahzalik lotereya kartochkalarini sotish bo'yicha 3 yillik shartnoma tuzdi. Kartochkalar 10 milliontadan ko'p sotilgan. 2006 yilda Kari Mannerla «Inklar xazinasini» o'yinini yaratdi. Bu o'yin «Afrika Yulduzi»ning harakatlari Janubiy Amerikaga ko'chib o'tkazilgan, o'zgargan shakli edi. O'yin juda tez mashhur bo'lib ketdi.

O'yinning «Amer» kompaniyasi tomonidan yaratilgan kompyuterdagi turi ham bor. Biroq, u bozorga uncha qulay bo'lmagan vaqtda chiqib qoldi va muvaffaqiyatga ega bo'lolmadi.

**Kari Mannerla,**  
*«Afrika Yulduzi» o'yinining yaratuvchisi*

## **XOTIMA**

Ushbu kitobning yaratilish tarixi qiziq. Biz Kari Valimiyaki bilan 1989 yilda Moskva shahrida, jamiyatning rivojlanishi uchun butun mamlakatdan aql bovar qilmas g'oyalarni to'plagan Ijtimoiy innovatsiyalar jamg'armasida tanishib qoldik. Jamg'arma bir yil avvalgi ijtimoiy novatorlar forumini o'tkazish vaqtida tashkil qilingan edi. U hozirgi Slush forumining prototipi sifatida edi va ushbu prototip bizga qo'shni bo'lgan mamlakatda paydo bo'ldi. Ushbu forumda mamlakatning 25ta eng yirik ommaviy axborot vositalari vakillari qatnashgan edi. Forumning raisi Yuriy Podshivalovning aytishicha, axborotlar bazasida 15 mingta g'oya to'plangan edi.

1993 yilda Kellokoskida, men huquqni muhofaza qilish organlari, ijtimoiy xizmat va sog'likni saqlashning amaliy hamkorligi masalalari bo'yicha seminar tashkil qildim. Sirpa Taskinen (Sirpa Taskinen) menga savol berdi: «Ilkka, Stakes aslida nima ekanligini aytib berasanmi?». Seminarida 30 nafarga yaqin baquvvat politsiyachilar bo'lganligi sababli, agarda men oddiygina qilib Stakes – bu Ijtimoiy himoya va sog'likni saqlash sohasini o'rganish va rivojlantirish Milliy markazi deb javob berganimda, u holda xijolat chekishim mumkin edi.

Shuning uchun bizning ikkita yo'nalishimiz mavjudligini aytdim: texnik innovatsiyalar bo'yicha mas'ul bo'lgan Tekes va ijtimoiy innovatsiyalar bo'yicha mas'ul bo'lgan Stakes. Finlyandiya ham innovatsiyalarning ushbu ikki turi tufayli rivojlanmoqda!

Noyabr harakati 1967 yilda, Finlyandiyaning mustaqilligi 50 yoshga to'lganida, Finlyandiyada mavjud bo'lgan 50ta kamchilikdan iborat ro'yxatni tuzdi va ularni bartaraf etishni talab qildi. 1997 yilda, Finlyandiya o'z mustaqilligining 80 yilligini nishonlayotgan vaqtda men Ruhiiy salomatlik bo'yicha Markaziy ittifoqning raisi edim va 80ta kamchilikdan iborat bo'lgan ro'yxatni tuzish taklifini berdim. Doimo g'oyalarga to'la bo'lgan va Markaziy ittifoqning o'sha vaqtdagi ijrochi direktori lavozimidagi Yussi Syarkelya (Jussi Särkelä) ushbu g'oyani rad etdi va Finlyandiyaga aloqador bo'lgan 80ta ijobiy holat bo'yicha ma'lumotlar to'plash g'oyasini taklif qildi. Gazetalarga e'lon berildi, lekin ma'lumotlarni to'plashning iloji bo'lmadi. Lekin ushbu g'oya menga ushbu kitobni yaratish uchun turtki bo'ldi.

Ijtimoiy ixtiro yoki innovatsiyaning nima ekanligi bo'yicha turli xildagi fikrlar bo'lishi mumkin. Eng yaxshi yechim Social Problems nomli xalqaro jurnalda taklif qilingan edi: «Ijtimoiy muammo nima degani? Ijtimoiy muammo deb, biz uni ijtimoiy deb topgan va nomlagan muammoga aytiladi». Ushbu kitobdagi innovatsiyalar ham shu tarzda tanlangan. Ko'plab innovatsiyalar ushbu nashrga u yoki bu sabablarga ko'ra kiritilmadi, chunki ularning azalda Finlyandiyada ixtiro qilinganligini qo'shimcha ravishda o'rganib chiqish kerak. Quyidagi innovatsiyalar shular qatoridan joy olgan:

- Oylik maoshni bank hisob raqamiga o'tkazish va naqdsiz hisob-kitob;

- Qullikka qarshi chiqish yoki dehqonning mustaqilligi;
- Er bo'yicha yirik islohotlar;
- Nisfikorlikning tugatilishi va nisfikorning yerni sotib olish huquqi;
  - Tsenzurani bekor qilish to'g'risidagi qonun va unga aloqador bo'lgan so'z erkinligi;
  - Ko'chmas mulklar ro'yxati;
  - Ombudsmenlar instituti;
  - Gazeta va jurnallarni uygacha yetkazib berish;
  - Maktablarda uy xo'jaligini yuritish asoslarini o'qitish va o'g'il bolalar uchun mehnat darslari;
  - Urushda qatnashganlar uchun yer uchastkalari va uy-joy ajratish;
  - Urushda halok bo'lganlarni o'z kichik vatanlarida dafn qilish;
  - Ehson yig'ish uchun yasalgan urush nogironlarining yog'och haykalchalari;
  - Ijtimoiy ta'minotning asoschilari;
  - Ruda izlash va minerallar izlash;
  - Finlyandiya madaniyat jamg'armasining maktab o'quvchilarining yordamidagi mablag' to'plash orqali tashkil topishi;
  - O'g'il bolalar va qiz bolalar uchun umumiy maktab;
  - Dastgoh;
  - Pedagogik maktab;
  - Slush loyihalarining «start-ap»lar ko'rgazmasi;
  - «Buvining mehmonxonasi» (Mummon Kammari) nomli Keksalarga ixtiyoriy yordam ko'rsatish Markazi.

Ro'yxatga o'z rafiqalarini tashib o'tish bo'yicha musobaqalar, etik otish bo'yicha bellashmalar, botqoq futboli, o'z erlarini aravachada tashib o'tish musobaqalari, chumoli inida o'tirish musobaqalari yoki tasavvur qilingan gitarada kuy chalish bo'yicha musobaqalarni qo'shimcha qilish mumkin – ushbu mavzular 2013 yildagi pochta markalarida aks ettirilgan edi.

Ushbu uchinchi nashrga avvalgi ikki nashrning quyidagi boblari kirmagan:

- Shifokorning stoldagi kitobi;
- Teatr va muzeylarning faoliyatiga ko'maklashish;
- Allianssi nomli Yoshlar tashkilotlari ittifoqi;
- «Imkoniyatlar maydoni»;
- «Foizlik harakat»;
- Fin karaokesi;
- Po'stloqli non;
- Myammi;
- HK:n sininen sosiskasi – ayollarning xaloskori;
- «Ayollar o'nligi»;
- Kemidagi qor qal'asi;
- Spirtli ichimlik orqasidan Estoniyaga ralli;
- Tuzlangan qizilmiyalik aroq;
- Qizilmiya;
- Ksilitol;
- Stakes nomli Ijtimoiy himoya va sog'likni saqlash sohasida o'rganish va rivojlantirish Milliy markazi.

Bundan tashqari, kitobning yapon tilidagi nashrida Tekes nomli Texnik innovatsiyalarga ko'maklashish markazi va Sitra nomli Kelajakni rivojlantirish bo'yicha investitsiya jamg'armasi to'g'risidagi boblar bor edi.

\* \* \*

O'z kitobxonlarimdan yangi g'oyalarni olishga umid qilaman. Ularni quyidagi manzilga yuborish mumkin:

Leo Mechelin säätiö c/o Pikkukoskentie 20 C  
00650 Helsinki  
FINLAND

*Ilkka Taipale, 2017 yilning aprel oyi.*

# **FINLYANDIYANING 100TA IJTIMOY INNOVATSIYASI**

**FINLYANDIYA QANDAY QILIB FINLYANDIYA BO'LDI:  
SIYOSIY, IJTIMOY VA MAISHIY  
INNOVATSIYALAR**

**ILKKA TAYPALE tahriri ostida**

«Sharq» nashriyot-matbaa  
aksiyadorlik kompaniyasi  
Bosh tahririyati  
Toshkent – 2019

*Muharrir Ahror Ahmedov*  
*Badiiy muharrir Bahrom Bobojonov*  
*Sahifalovchi Mastura Atxamova*  
*Musahhah Ma'mura Ziyamuhamedova*

**Nashr litsenziyasi: AI № 201, 28.08.2011.**

Bosishga 06.11.19 yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x901/16. “Times New Roman” garniturasini. Ofset bosma. Shartli bosma tabog'i 15,45. Nashr bosma tabog'i 13,45. Adadi 1000 nusxa. 642-son buyurtma. Bahosi shartnoma asosida.

**“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.  
100000. Toshkent, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.**